O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

# XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA YOSH AVLODNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS'ULIYAT RUHIDA TARBIYALASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

## RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2026-yil
26-iyun

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**
**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA**
**PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI**

# 2026-yil 26-iyun kuni Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tomonidan o‘tkazilgan “Xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash: muammo va yechimlar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami

**Toshkent – 2026**

**Xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. 2026-yil 26-iyun. – T.: TPMI, 2026.**

Ushbu to‘plamga 2026-yil 26-iyun kuni Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tomonidan o‘tkazilgan “Xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika simpoziymi ishtirokchilarining tezis va maqolalari kiritilgan.


| **TAHRIR HAY’ATI** | |
|---|---|
| ***X.I.Ibraimov*** | *pedagogika fanlari doktori, akademik* |
| ***R.X.Djurayev*** | *pedagogika fanlari doktori, akademik* |
| ***H.M.Tojiboyeva*** | *pedagogika fanlari doktori, professor* |
| ***A.X.Maxmudov*** | *pedagogika fanlari doktori, professor* |
| ***R.G.Safarova*** | *pedagogika fanlari doktori, professor* |
| ***Sh.Q.Mardonov*** | *pedagogika fanlari doktori, professor* |
| ***R.M.Medetova*** | *pedagogika fanlari doktori, katta ilmiy xodim* |
| ***K.A.Karimov*** | *pedagogika fanlari doktori, katta ilmiy xodim* |
| ***L.M.Qaraxanova*** | *pedagogika fanlari doktori, katta ilmiy xodim* |
| ***M.A.Umaraliyeva*** | *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim* |
| ***M.S.Alimov*** | *pedagogika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim* |
| ***O.U.Musurmonkulov*** | *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim* |
| ***O.T.Abdiganiyev*** | *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim* |
| ***M.Tayirova*** | *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim* |
| ***B.M.Xakimova*** | *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim* |
| ***A.O.Gulyamova*** | *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim* |
| ***S.Sanakulova*** | *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim* |
| ***D.Norbutayeva*** | *katta ilmiy xodim* |
| ***A.Jumabayev*** | *katta ilmiy xodim* |
| ***Sh.Namazov*** | *katta ilmiy xodim* |


Pedagogika fanlari doktori, akademik X.I. Ibraimovning umumiy tahriri ostida


**© Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti**
**© Mualliflar**

# XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA YOSH AVLODDA FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS'ULIYATINI TARBIYALASH

**Ibraimov Xolboy Ibragimovish, TPMI direktori, p.f.d., akademik**

Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar sharoitida yosh avlodni fuqarolik faolligi hamda ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatga ega, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglaydigan shaxslarni tarbiyalashni taqozo etmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning tashabbuskorligini rivojlantirish, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik tarbiyasi jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Fuqarolik madaniyati yuksak bo'lgan jamiyatlarda yoshlar ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaydi, jamoatchilik hayotida faol ishtirok etadi hamda davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

**Fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatning mohiyati.** Pedagogik va sotsiologik adabiyotlarda fuqarolik faolligi shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabatda bo'lishi hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga intilishi sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy mas'uliyat esa, shaxsning o'z harakatlari oqibatini anglab yetishi, jamiyat manfaatlarini e'tiborga olishi va umumiy farovonlik uchun mas'uliyatni his qilishi bilan tavsiflanadi. Fuqarolik tarbiyasining asosiy tarkibiy qismlariga huquqiy madaniyat, vatanparvarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik, jamoada ishlash ko'nikmalari, ekologik madaniyat va ijtimoiy tashabbuskorlik kiradi. Ushbu sifatlarni shakllantirish ta'lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligida amalga oshiriladi. Bugungi kunda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda nafaqat an'anaviy tarbiya usullari, balki innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyihaviy faoliyat, volontyorlik va jamoatchilik ishlarida ishtirok etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**AQSh tajribasi.** AQSh ta'lim tizimida fuqarolik tarbiyasi "Civic Education" dasturlari asosida amalga oshiriladi. Maktablarda o'quvchilarga demokratiya tamoyillari, inson huquqlari, konstitutsiyaviy qadriyatlar va fuqarolik burchlari haqida bilim beriladi. Ta'lim jarayonida munozaralar, debatlar, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar turli jamoat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish orqali amaliy tajriba orttiradilar.

AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarni jamiyat hayotiga faol jalb etish ularning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissining shakllanishiga xizmat qiladi.

**Finlandiya tajribasi.** Finlandiya ta'lim tizimi demokratik tamoyillarga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan. Maktablarda o'quvchilar kengashlari faoliyat yuritadi va ta'lim muassasasini boshqarish jarayonida o'quvchilarning fikri inobatga olinadi.

O'quvchilar turli ekologik, ijtimoiy va madaniy loyihalarda ishtirok etadilar. Bu esa, ularda mas'uliyat, hamkorlik va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Finlandiya tajribasining muhim jihatlaridan biri o‘quvchilarning shaxsiy fikrini hurmat qilish va ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishdir.

**Yaponiya tajribasi.** Yaponiya ta’lim tizimida axloqiy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilar maktab hududini tozalash, jamoat ishlarida qatnashish va bir-biriga yordam berish orqali ijtimoiy mas’uliyatni amaliy faoliyat jarayonida o‘rganadilar. Yapon maktablarida intizom, mehnatsevarlik, jamoaga sadoqat va hurmat tamoyillari ustuvor hisoblanadi. O‘quvchilarning kundalik hayotida jamoaga xizmat qilish va o‘zaro yordam ko‘rsatish muhim tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llaniladi. Natijada, yoshlarda mas’uliyat, tartib-intizom va jamoaviylik kabi sifatlar shakllanadi.

**Germaniya tajribasi.** Germaniyada fuqarolik ta’limi demokratik jamiyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Ta’lim muassasalarida inson huquqlari, siyosiy madaniyat va fuqarolik jamiyati institutlari haqida bilimlar beriladi. O‘quvchilar loyihalar, tadqiqot ishlari va ijtimoiy amaliyotlar orqali jamiyat hayotidagi muammolarni o‘rganadilar hamda ularni hal qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadilar. Mazkur tajriba yoshlarda tanqidiy fikrlash, huquqiy madaniyat va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Singapur tajribasi.** Singapurda “Character and Citizenship Education” dasturi asosida yoshlarni fuqarolik mas’uliyati, milliy qadriyatlarga sodiqlik va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash yo‘lga qo‘yilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda vatanparvarlik, bag‘rikenglik, ijtimoiy birdamlik va global fuqarolik kompetensiyalari shakllantiriladi. Maktablarda turli ko‘ngillilik tadbirlari va jamoatchilik loyihalari tashkil etiladi. Mazkur tajriba yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda samarali natijalar bermoqda.

**Innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.** Fuqarolik tarbiyasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Xususan, loyiha metodi, debat texnologiyasi, muammoli ta’lim, interaktiv usullar va xizmat orqali o‘qitish metodlari yoshlarda mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi.

Loyiha faoliyati orqali o‘quvchilar jamiyatdagi muammolarni aniqlaydi va ularni hal qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqadi. Debatlar esa, tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va o‘z pozitsiyasini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Volontyorlik faoliyati yoshlarni insonparvarlik, mehr-oqibat va ijtimoiy hamjihatlik ruhida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

**Mahalliy ta’lim tizimida xalqaro tajribalarni qo‘llash imkoniyatlari**

Mamlakatimizda yoshlar siyosati va ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik tarbiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ta’lim muassasalarida yoshlar yetakchilari faoliyati, volontyorlik harakatlari, “Besh muhim tashabbus” doirasidagi loyihalar hamda mahalla bilan hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

*Xalqaro tajribalarni o‘rganish asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:* maktab parlamentlari faoliyatini rivojlantirish; fuqarolik ta’limiga oid maxsus kurslarni joriy etish; volontyorlik faoliyatini kengaytirish; debat va munozara klublarini tashkil etish; ijtimoiy loyihalar tanlovlarini o‘tkazish; raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirish. Mazkur chora-tadbirlar yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

*Aytish joizki, yuqoridagi fikr mulohazalar asosida bevosita quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar keltirildi:*

1. Ta’lim muassasalarida fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik tizimni joriy etish.

2. Ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligiga asoslangan fuqarolik tarbiyasi modelini takomillashtirish.

3. Xalqaro pedagogik tajribalar asosida volontyorlik va ijtimoiy loyihalar faoliyatini rivojlantirish.

4. Raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Xalqaro pedagogik tajribalar shuni koʻrsatadiki, yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash uzluksiz va tizimli jarayon hisoblanadi. AQSh, Finlandiya, Yaponiya, Germaniya va Singapur tajribalarida yoshlarni amaliy faoliyatga jalb etish, jamoatchilik ishlarida ishtirokini ta’minlash hamda demokratik qadriyatlarni singdirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur tajribalarni milliy qadriyatlar va an’analar bilan uygʻunlashtirish Oʻzbekiston ta’lim tizimida fuqarolik tarbiyasi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada Vatanga sadoqatli, tashabbuskor, ijtimoiy mas’uliyatli va faol fuqarolarni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

**Adabiyotlar**


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – B. 295-297.
2. Sh. Mirziyoev. Yangi Oʻzbekiston demokratik oʻzgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: Oʻqituvchi MU MChJ, 2021.
3. Ota-ona-murabbiy / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 220 b.
4. Ibraimov X. va boshq. Najot tarbiyada. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 60 b.
5. X.Ibraimov va boshq. Goʻzal hulq modellari. – T.: Ilm ziyo zakovat, 2025. – 80-b.
6. Ibraimov X. va boshq. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 68 b.


## TARBIYAVIY JARAYONLARNI BOSHQARISH ASOSIDA OʻQUVCHILARDA IJTIMOIY MAS’ULIYAT HISSINI TARBIYALASH


**Djurayev R.X., TPMI boʻlim mudiri, p.f.d., akademik**



Mazkur maqolada tarbiyaviy jarayonlarni boshqarish asosida oʻquvchilarda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishning pedagogik asoslari, mazmuni va samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, oila, maktab va mahalla hamkorligini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan.



**Kalit soʻzlar:** tarbiyaviy jarayon, pedagogik boshqaruv, ijtimoiy mas’uliyat, oʻquvchi, tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, fuqarolik pozitsiyasi, innovatsion texnologiyalar.


Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va ta’lim tizimining rivojlanishi oʻquvchilarda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishni dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylantirmoqda. Yangi Oʻzbekiston sharoitida yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi, jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatini chuqur anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai

nazardan tarbiyaviy jarayonlarni samarali boshqarish hamda ularni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning o'z xatti-harakatlari, faoliyati va qarorlari natijalari uchun javobgarlikni his etishi, jamiyat manfaatlariga hurmat bilan qarashi hamda jamoa hayotida faol ishtirok etishida namoyon bo'ladi. Mazkur sifatlarni shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tarbiyaviy jarayonlarni maqsadli boshqarish o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faollikni rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda mas'uliyat hissi tabiiy ravishda emas, balki maqsadli va tizimli tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat natijasida shakllanadi. Shu sababli tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy asosda rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Ijtimoiy mas'uliyatning pedagogik mohiyati.** Ijtimoiy mas'uliyat insonning jamiyat, davlat, oila va jamoa oldidagi burchlarini anglab yetishi hamda o'z faoliyatini ana shu talablar asosida tashkil etishidir. Mazkur sifat insonning axloqiy qadriyatlari, ma'naviy qarashlari va fuqarolik pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liq.

O'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat hissi quyidagi sifatlar orqali namoyon bo'ladi: jamoaga hurmat, intizom, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, o'zaro yordam va qonunlarga hurmat. Ushbu sifatlarni shakllantirish tarbiyaviy jarayonning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishi shaxsning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy tajribasi va tarbiyaviy muhit bilan bog'liq. Shuning uchun ta'lim muassasalarida o'quvchilarni turli jamoaviy faoliyatlarga jalb etish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

**Tarbiyaviy jarayonlarni boshqarishning ahamiyati.** Tarbiyaviy jarayonlarni boshqarish pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u maqsadni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va natijalarni baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Tarbiyaviy faoliyatni samarali boshqarish quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi: o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish; tarbiyaviy maqsadlarni aniqlash; tarbiya mazmunini belgilash; tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish; tarbiya natijalarini tahlil qilish. Maktabda tarbiyaviy ishlarning samaradorligi ko'p jihatdan sinf rahbari, fan o'qituvchilari, psixolog va ota-onalar hamkorligiga bog'liqdir. Tarbiyaviy jarayonlarni boshqarish orqali o'quvchilarda ijtimoiy faollik, mas'uliyat va jamoaga daxldorlik hissi rivojlanadi.

**O'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish omillari.** Ijtimoiy mas'uliyat hissi bir qator omillar ta'sirida shakllanadi. Avvalo, oilaviy muhit bolaning shaxs sifatida rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi o'zaro hurmat va mas'uliyat muhitining mavjudligi bolalarda ijobiy sifatlarni rivojlantiradi. Maktab muhiti ham ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishida katta ahamiyatga ega. O'qituvchining shaxsiy namunasiga ega bo'lishi, o'quvchilarga adolatli munosabatda bo'lishi va ularni rag'batlantirib borishi ijobiy natijalarni ta'minlaydi. Shuningdek, tengdoshlar jamoasi ham tarbiyaviy ta'sirning muhim omili hisoblanadi. Jamoaviy ishlar, guruhli loyihalar va ijtimoiy tadbirlar o'quvchilarda hamkorlik va javobgarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

**Innovatsion yondashuvlarning o'rni.** Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta samara beradi.

Xususan, loyiha metodi, muammoli ta'lim, interaktiv usullar, munozara va debat texnologiyalari o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Loyihaviy faoliyat davomida o'quvchilar jamiyatdagi muammolarni o'rganib, ularni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadilar. Bu esa, ularda tashabbuskorlik, mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantiradi. Debat va munozaralar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, o'z fikrini asoslab bera olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatlari yoshlarda insonparvarlik va jamoaga daxldorlik hissini kuchaytiradi.

**Oila, maktab va mahalla hamkorligi.** Ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ota-onalar yig'ilishlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va hamkorlikdagi loyihalar o'quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mahalla institutining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish yoshlarning milliy qadriyatlarga hurmatini oshiradi. Bugungi kunda oila, maktab va mahalla hamkorligiga asoslangan tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish orqali o'quvchilarda mas'uliyat, vatanparvarlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish mumkin.

Pedagogik kuzatishlar va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarbiyaviy jarayonlarni tizimli boshqarish o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat hissining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'quvchilarni ijtimoiy loyihalar, ekologik tadbirlar, xayriya aksiyalari va jamoatchilik ishlariga jalb etish ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi. Shuningdek, sinf jamoasida o'zini o'zi boshqarish elementlarining joriy etilishi o'quvchilarning tashabbuskorligini oshiradi. Ular o'z fikrini erkin bildirish, jamoa manfaatlarini himoya qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Mazkur natijalar tarbiyaviy faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tarbiyaviy jarayonlarni boshqarish asosida o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat hissini tarbiyalash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, oila va maktab hamkorligini kuchaytirish hamda o'quvchilarni jamoatchilik faoliyatiga jalb etish ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida ta'lim muassasalarida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqish, o'quvchilarni volontyorlik va ijtimoiy loyihalarga keng jalb etish, oila va mahalla bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Ilmiy-amaliy tavsiyalar:**

Ta'lim muassasalarida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyatni tizimli ravishda tashkil etish, tarbiyaviy tadbirlarni o'quv jarayoni bilan integratsiyalash hamda o'quvchilarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash zarur.

Oila, maktab va mahalla hamkorligiga asoslangan tarbiyaviy boshqaruv modelini takomillashtirish orqali yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti va fuqarolik mas'uliyatini yanada rivojlantirish mumkin.

O'quvchilarni volontyorlik, ekologik loyihalar, xayriya tadbirlari va jamoatchilik ishlariga jalb etish ularda insonparvarlik, tashabbuskorlik va mas'uliyat kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy jarayonlarni boshqarishda raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 295-297.
2. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi MU MChJ, 2021.
3. Ota-ona-murabbiy / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 220 b.
4. Ibraimov X. va boshq. Najot tarbiyada. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 60 b.
5. Qaraxonova L.M. Tarbiyani shakllarini maktab-oila-mahalla hamkorligida tashkil etish mexanizmlari // Uzluksiz ta’lim. – T., 2025. – 2-son. – B. 70-74.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕДИАИНФОРМАЦИИ В ВОСПИТАНИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ДУХЕ ГРАЖДАНСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

**Тожибоева Хилолахон Махмутовна, заместитель директора по научной работе и инновациям Национального института педагогики воспитания**

Социальный заказ на педагогические высшие образовательные учреждения предполагает подготовку учителей, способных эффективно организовать педагогическую деятельность и оценивать ее результаты с помощью медиа технологий.

Проблемы медиаобразования и медиа безопасности в последние годы активно разрабатываются, как во всем мире, так и в медийном пространстве нашей республики в направлении создания новых медиа технологий для формирования интеллектуального потенциала страны.

В соотнесении умений будущих педагогов в образовании исходим из того, что современный мир уже немыслим без медиа (с лат. media – средство) средств массовой информации и коммуникации. Как правило, сюда включают печать, прессу, телевидение, кинематограф, радио, звукозапись, мультимедийные компьютерные системы, включая систему интернет.

Взаимодействие с медиа предоставляет всем без исключения пользователям бесконечные возможности для активного использования неограниченных потоков информации и участия в глобальной коммуникации.

Современные медиасредства способствуют освоению новейших способов общения и передачи информации, обеспечению социального прогресса в обществе, усовершенствованию многих сфер человеческой жизни: здоровья, образования, социальных услуг, политики, бизнеса и мн. др. Именно поэтому будущему педагогу так важно овладеть умениями в медиа образовании и, что особенно важно, различать позитивные и негативные стороны влияния средств массовой коммуникации на развитие современного человека и общества.

Вместе с тем, чтобы идти в ногу со временем, необходимо условие, выражающееся в обязательном их совершенствовании педагогом в рамках развивающегося медиаобразования. Чтобы наглядно представить себе терминологическое поле медиаобразования, обратимся к трактовке данного термина в различных информационных источниках. В условиях глобализации информационного общества, медиаобразование представляет собой не только социально-педагогическое направление, но и реализацию постоянно развивающихся образовательных, информационно-коммуникационных и новых интерактивных медиа технологий, направленных на образование, воспитание и развитие личности. Согласно общепризнанному профессиональному портрету будущего педагога в соответствии с требованиями образовательного стандарта, умения составляют одну из важных его практических умений в числе коммуникативных, аналитических, организаторских и рефлексивных.

Перечисленные умения нужны как фундамент в обучении, но здесь также необходимо упор сделать на воспитание ученика. Поскольку воспитанный ученик сможет из огромного потока выбрать себе нужную информацию и правильно её применить в процессе обучения. Значит, воспитательный аспект личности также важен в этом процессе.

Воспитание личности – это один из факторов, определяющих становление подрастающего поколения, его образованность и культуру. Начинается оно с рождения человека и направлено на становление его личности. Воспитание существенно сказывается на социализации человека, придавая ему своеобразие в его культурном и нравственном становлении.

Как писал С.А.Калабалин: «Воспитание, воспитание и еще раз воспитание, невоспитания в природе не существует... Воспитание есть всегда, но оно может быть положительное, хорошее, добропорядочное, но может быть и плохое, отрицательное» [1, с. 189].

Направленность и содержание его во многом определяется возрастом, направленностью и содержанием воспитания. Предметом особого внимания выступает воспитание студентов в процессе их профессионального становления в высшем образовательном учреждении.

Студенческое сообщество – это особая группа современной молодежи, которая имеет свое место в обществе и является будущим страны, ее профессионально подготовленной элитой, от которой будет зависеть развитие и благополучие, и защищенность Родины. Именно от того, какая модель профессионального образования (профессиональной подготовки в тесной связи с профессиональным воспитанием) использована образовательными организациями, будет зависеть качество подготовки будущих учителей.

В системе высшего образования произошел сдвиг от единого процесса обучения и воспитания в сторону преимущественно профессиональной подготовки и недостаточному вниманию воспитанию студентов. Исходя из этого, сегодня переосмыслена база понятия «воспитания», его назначение, сущность и содержание.

Одной из главных целей организационно-методической работы воспитательной системы в высших образовательных учреждениях является сохранение и развитие положительного опыта воспитания национальной педагогики с опорой на ведущие научные теории воспитания.

***Профессиональное воспитание студентов*** – это процесс обеспечения целенаправленного становления культуры обучаемого по профессиональному назначению – профессиональной культуры выпускника. Такая культура представляет собой часть общей культуры выпускника, включающая усвоенный и повседневно проявляемый им уровень профессиональной деятельности, отражающий достижения научной мысли и практического опыта в интересах эффективности и качества деятельности по профессиональному назначению. По существу, профессиональное воспитание обеспечивает становление личности выпускника по его профессиональному назначению, которое сложилось в государстве и обществе, например, офицера, врача, педагога, инженера и пр.

Отличительной особенностью профессиональной культуры выпускника выступает деонтологическая, то есть духовно-нравственная основа его профессиональной деятельности, которая определяет повседневное проявление педагогического мастерства выпускника через индивидуальный стиль профессиональной деятельности, в соответствие с занимаемой должностью.

Изложенное позволяет выделить компоненты профессионального становления личности, обусловленные профессиональным воспитанием студентов в процессе их обучения в высшем образовательном учреждении.

*К таким компонентам относятся:* деонтологическая основа личности выпускника по профессиональному назначению; формирование у студентов чувства патриотизма, гражданственности, уважения к памяти защитников Родины и подвигам героев страны, закону и правопорядку, человеку труда и старшему поколению, взаимного уважения, бережного отношения к культурному наследию и традициям многонационального народа, природе и окружающей среде; профессиональное мастерство (искусство профессиональной деятельности); профессиональная культура – культура труда по профессиональному назначению.

Выделенные компоненты формируются в процессе профессиональной подготовки и воспитания студентов в высшем образовательном учреждении. В каждом высшем образовательном учреждении, факультете, кафедре складывается свой ресурс воспитания в виде традиций и его носителей в лице профессорско-преподавательского состава, старшекурсников, методического состава, а также методического обеспечения. Этот ресурс реализуется через учебную и внеучебную деятельность.

В ходе учебного процесса активно реализуется воспитательный потенциал учебных дисциплин. В этой связи одну из ключевых ролей в воспитательной системе высшего образовательного учреждения играет преподаватель учебной дисциплины. От его профессионализма, деонтологической и профессиональной культуры зависит действенность профессионального воспитания студентов.

Преподаватель – это особая категория в обществе, на кафедре, высшем образовательном учреждении. Образовательный процесс в высшем образовательном учреждении строится и опирается в своей реализации, прежде всего, на личность преподавателя. Данный факт определяет возрастающую роль и личную ответственность преподавателя не только в обучении студентов, но и их профессиональном воспитании. Поскольку именно от преподавателя зависит становление выпускника, деонтологической основы его личности, как профессионала,

формирование у него потребности в становлении своего профессионализма и культуры профессиональной деятельности.

Важной составляющей профессионального воспитания студентов по профессиональному назначению является его методическое обеспечение, которое представляет собой комплекс методических и технических материалов, необходимых участникам образовательного процесса в его обеспечении. Оно включает: методическое обеспечение профессионального воспитания преподавателя; методическое обеспечение профессионального воспитания субъектов внеучебной деятельности (тьюторов, кураторов, руководителей студенческого научного творчества, руководителей студенческой профсоюзной организации, студенческого самоуправления, волонтерской группы, организаторов студенческого досуга и пр.); методическое обеспечение студентов; информационно-методическое сопровождение профессионального воспитания студентов в учебное и внеучебное время.

По своей сущности методическое обеспечение выступает фактором эффективной образовательной деятельности. Его относят к ресурсному обеспечению учебной дисциплины, образовательного процесса, внеурочной воспитательной, научной, досуговой, волонтерской и другой деятельности в высшем образовательном учреждении. От его качества во многом зависит эффективность профессионального воспитания студентов.

Анализ проблемы воспитания студентов в высших образовательных учреждениях позволил определить основные направления деятельности, которые будут способствовать становлению профессиональной и личностной культуры выпускника как профессионала, гражданина и патриота.

Изложенное позволяет утверждать, что профессиональное воспитание в системе высшего образования является составной частью подготовки выпускников по профессиональному назначению, благодаря которому обеспечивается формирование профессиональной культуры выпускника, гражданина и патриота; методическое обеспечение профессионального воспитания студентов выступает одним из компонентов ресурсного обеспечения подготовки выпускников по профессиональному назначению; методическое обеспечение профессионального воспитания студентов отражает опыт высшего образовательного учреждения, факультета и кафедры, который носит развивающий характер и требует постоянного совершенствования с учетом потребностей как высшего образовательного учреждения, так и практики профессиональной деятельности выпускников.

**Литература**

1. Калабалин С.А. Педагогические размышления: Сборник статей / Сост. и ред. Л.В.Мардахаев. – М.: Юстиция, 2017. – 532 с.

2. Ibragimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika: Darslik. – T.: SAHHOF, 2023. – 416 b.

3. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика: Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2004. – 182 б.

# ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ КАК ГЛОБАЛЬНЫЙ ТРЕНД ВРЕМЕНИ

**Хакимова Мухаббат Файзиевна, профессор Ташкентского государственного экономического университета, доктор педагогических наук**

Воспитание, как социальная система: явление и процесс, является составной частью педагогической науки. Как известно, педагогика, существует в трех ипостасях: практика, теория, наука, что предполагает рассмотрение воспитания именно с этих позиций. Вместе с тем, нельзя также забывать, что воспитание – это и философский феномен, а также государственнообщественный. В начале XXI века человечество вступило в новую информационнотехнологическую эпоху, что привело к тому, что тенденции глобализации, понимание сущности феномена воспитания студента ещё более актуализировалось.

Воспитание, как важнейший социальный институт, всегда привлекал к себе внимания многих известных людей в нашей республике, которые отмечали, что современная информационная динамика привела к мощному психологическому напряжению личности, породило дефицит времени, вызвала многие социальные процессы и, самое главное, стала оказывать большое влияние на систему образования, содержание и направленность процесса воспитания.

Надо признать, что человек, вступающий в новую, так называемую «цифровую цивилизацию», сталкивается с проблемами, которые никогда в истории человечества не существовали и не решались. Новая формирующаяся реальность порождает серьезные проблемы и риски для развития человека и общества, несет в себе непредсказуемые последствия. Все это требует серьёзного научного подхода к пониманию и анализу, как возникающих новых социокультурных тенденций, так и тем социальнополитическим решениям, принимаемым в области воспитания и образования человека XXI века.

Необходимо отметить, что сегодня происходит непрерывная модернизация всех социальных сфер общества и личность как основная ценность социума, выступает лишь декларацией в политике многих развитых стран мирового сообщества. Здесь идет процесс разрушения истинной природы личности, его подчинения тем смыслам и ценностям, которые формируются в угоду нового времени, под воздействием мощных процессов (глобализации, информатизации, технологизации, цифровизации, виртуализации, дигитализации). Как полагают многие исследователи, идет целенаправленный и системно управляемый процесс формирования «функциональной личности». Вот почему сегодня меняется не просто идеология жизненного осуществления человека XXI века, меняется вся его природа, затрагивающая его социоприродную и духовно-нравственную сущность. Здесь весьма важно сегодня заниматься прогнозом антропологических и социально-психологических метаморфоз, которые произойдут с человеком в ближайшем будущем под воздействием мощных информационных потоков и технологических преобразований наступающей эпохи. Все процессы и тенденции современной эпохи многими адептами нового времени, понимаются как социокультурный процесс, касающийся развития личности и общества.

***Возникающиеся явления и процессы они обозначают и обосновывают следующими понятиями:*** медиакультура – тип культуры информационного общества, являет образец высокой доступности посредством продукции средств массовой информации; медиакультура порождает медиазависимость личности от информационных ресурсов со всеми вытекающими последствиями; универсализация связана с унификацией культурных кодов народов планеты Земля, построение единого универсального социокультурного пространства. Вместе с тем, мощные процессы универсализации ведут к потере этнической идентичности народов мира, уничтожению национальных культур, утраты культурного разнообразия.

Коммуникация выступает универсальным способом передачи информации, процесс взаимодействия во времени и пространстве различных субъектов/объектов, предполагает обмен информацией между индивидами, социальными группами и обществом в целом. Одновременно в информационном пространстве коммуникация утрачивает свою интеллектуально-эмоциональную и духовно-нравственную целостность, происходит автоматизация и стандартизация его коммуникативной сферы.

Как видим, картина не столь однозначная, как хотелось бы её увидеть некоторым «адептам» нового времени. Вместе с тем, сегодня в общество приходит повсеместное понимание того, что складывающая ситуация требует модернизации системы национального образования.

Несмотря на огромный опыт, накопленный человечеством в вопросах воспитания, до сих пор в мировом сообществе не существует, как единого понимания роли и сущности воспитания, так и совершенной универсальной системы воспитания. Именно воспитание выступает и продолжает выступать важнейшим социальным механизмом, явлением и процессом, который позволял формировать в длительной истории развития человека разумного и духовного, одновременно организовывать и утверждать в обществе систему этнических норм и социальных отношений, тем самым, оказывая влияние на развитие, как национальной культуры, так и самого национального сообщества страны.

Таким образом, понятие «воспитание» в определенном смысле – одна из категорий, определяющих развитие и формирование человека разумного и духовного и, в конечном итоге, развитие и становление всего человеческого сообщества. Процесс воспитания сопровождает человека с самого рождения и до последнего дня его жизни на планете Земля. В связи с этим, можно уверенно говорить о том, что институт воспитания формировался вместе с развитием общества и был обусловлен его конкретно-историческим характером, являлся специфической формой реализации потребностей общества, сформированного им идеала человека. Идеал человека являлся зеркальным отражением тех исторически выработанных и закрепленных в национальной культуре смыслов, ценностей, традиций и социальных норм поведения конкретного общества, которые в своей совокупности имеют выражение в сознании и мировоззрении всех его граждан.

Сегодня происходит обновление подходов и принципов построения института воспитания, трактовке самого понятия «воспитание». Построение и реализация политики воспитания, демократизация новой действительности позволяет принимать, вырабатывать и выражать практически любую позицию, касающуюся воспитания студентов.

Современное научно-образовательное сообщество наполнили самые разные (философские, социально-психологические, педагогические) научные, учебные и учебно-методические материалы разных стран мирового сообщества. Заимствованные материалы представляют огромный спектр понимания сущности воспитания и форм, и методов его реализации. Они выражают самые разные позиции, подходы, принципы и воспитательные практики, отражающие, как плюрализм их взглядов, так и идеологию своего государства, культуру его сообщества. С одной стороны, идет активный процесс обогащения (научного, учебного, методического, технологического) педагогики социокультурными воспитательно-образовательными образцами, выработанными другими странами и культурами. С другой, – многие внедряемые в теорию и практику образования воспитательнообразовательные материалы в виде концепций, теорий, технологий отражают идеалы конкретного народа, идеологию и образовательную политику его государства, сложившийся социокультурный опыт жизнестроительства народа.

***Воспитание*** – это управляемый, специально организованный и сознательно контролируемый процесс, имеющий четкую цель по формированию определенного типа личности, что, предполагает организацию особой социальной воспитательной среды. Надо признать, что из всех социальных сред, через которые проходит человек, само общество выступает той особой средой, которая его формирует и развивает в течение всей жизни. Те смыслы и ценности, нормы и традиции, которые наполняют общество, культивируются и поддерживаются государственной политикой и являются основным фактором, определяющим воспитание человека. Данное обстоятельство позволяет предположить, что именно общество и является главным воспитателем человека, несет полную ответственность за его социальное благополучие. Все это говорит о необходимости актуализации государственно-общественного внимания, всех социальных институтов и структур к проблемам подрастающего поколения.

В современных условиях воспитание, развитие и социализация молодежи происходит вне целенаправленной и системной организации. Обращает на себя внимание отсутствие должного направления и контроля в духовно-нравственном воспитании молодежи. Ценностные ориентации подрастающего поколения происходят под воздействием практически не контролируемых СМИ, молодежных неформальных социальных сред. Здесь присутствует важный социально-политический и социокультурный аспект, касающийся того, что воспитание и формирование студентов и социальная модернизация социума – есть единое синергийное целое, одно неотделимое от другого. Смыслы общества – это ценностные позиции его граждан и, прежде всего, формирующегося молодого поколения. Новое время требует необходимости включения государственных идеологических механизмов в модернизацию института воспитания и социализации студентов, его перевода на активную деятельную позицию с учётом доминирующей тенденции, связанной с формированием у неё социально-политической активности и гражданско-патриотического сознания.

Воспитывать – значит сознательно управлять развитием и формированием личности растущую личность, включая взрослых граждан, в соответствии с реализуемой государственной политикой и потребностями общества, с учетом исторически сложившихся социокультурных традиций народа.

В ходе воспитательного процесса, возможно, используя педагогический потенциал, сознательно и целенаправленно усиливать или минимизировать определенные свойства и характеристики в воспитанниках, тем самым, придавать этому процессу желательное направление. Однако, окончательного положительного результата невозможно достичь, не включив все общество в этот процесс, не сделав общество той воспитательной средой, которая формирует гармоничную личность.

Творение личности есть процесс осознанный, целенаправленный и управляемый, что предполагает его организацию, то есть организацию процесса воспитания. Без хорошо поставленного дела воспитания студентов, невозможно планировать и проектировать развитие общества. А.Н.Леонтьев, рассуждая о важности постановки должного воспитания в обществе, писал: «Чем больше прогрессирует общество, чем богаче становятся накопленные им итоги общественно-исторической практики, тем более возрастает удельный вес воспитания, и тем более, усложняются стоящие перед ним задачи» [5, с. 400].

Необходимо всегда помнить, что главным управленцем в организации и поддержке процесса воспитания всегда выступает общество, которое заинтересовано в необходимости его качественного и эффективного функционирования и развития. Как идеальное решение: встроенный в общество институт воспитания, осуществляет реализацию государственной политики в области воспитания студентов, превращает смыслы и ценности культуры в личностное достояние будущих граждан.

В разные исторические периоды государство подчиняло процесс воспитания существующей государственной идеологии, решению коллективных цели и задач, в рамках защиты национальных интересов страны и её народа. Надо признать, что в своей основе воспитание в культуре, по своей изначальной сути, всегда оставалось национальным и социальным. В этом просматривается её уникальность и особенность. Великий русский педагог К.Д.Ушинский всегда настаивал на том, чтобы воспитание носило национальный/народный характер. Национальное воспитание имеет вектор, нацеленный на приобщение человека к своей национальной культуре, его социальному становлению как сущности национального порядка. Вместе с тем, надо признать факт существования в мировом сообществе самых разных систем социального воспитания, которые противовес национальному воспитанию, в своей основе опираются на принципы, имеющие цель воспитания, так называемого «гражданина мира». Необходимо понимать и помнить, что какой бы воспитательной системы не придерживалось конкретное государство и общество, оно всегда преследует свои определенные цели. Трудно представить общество, лишенное целей своего развития, составляющих его жизненную идеологию, такое общество просто не может долго функционировать и развиваться. Цели, присущие конкретному обществу, посредством конкретной идеологии и государственной политики, транслируются всем своим структурам и институтам. Система воспитания, несмотря на все изложенное выше, тем не менее, как огромный живой организм, всеми силами пытается сохранить свою системность и структурность, подчинить своей логике хаотичные потоки социальной материи и информации, возникающие в XXI веке, придать им определенную социокультурную направленность и гармонию.

Наступила глобальная историческая ситуация (точка Бифуркации), в которой сфокусировались основные проблемы человечества (глобализации, войны и мира, экологии, демографии, воспитания и образования), решение которых имеет прямую

связь с сущностью человека, понимание им своей истинной природы и той миссии, которая возложена на него в выборе позитивного направления в развитии человеческого сообщества. Тем не менее, необходимо понимать, что глобальные процессы рождаются и подчиняются вполне объективным законам и закономерностям, на которые могут влиять конкретные личности (группы, коллективы, нации), задавать определенный духовно-нравственный смысл их решению. Личность всегда стоит в центре всех исторических событий и трансформаций: экономических, социальных, политических, нравственных, культурных, поскольку все общества и государства так или иначе, скрыто или открыто ставили своей целью улучшение жизненных условий для всех людей или для какой-то части общества. Новое время, как и всегда во все прошедшие исторические эпохи, ждет от национальной педагогики соответствующего своего осмысления, выработки новых педагогических подходов, их органичное соединение с прошлым опытом воспитания личности, научного обоснования целостной национальной воспитательно-образовательной системы, которая будет готовить подрастающее поколение к полноценной жизни в условиях XXI века.

**Литература**

1. Ибраимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования. – Т., 2008. – 240 с.

2. Егорычев А.М., Ростовская Т.К. Перспективы развития профессионального образования в условиях глобализации мирового сообщества // ЦИТИСЭ. – 2021. – № 1. – С. 55-64.

## ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR UCHUN INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**D.B.Yakubjanova, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati hamda eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni umumiy o‘rta ta’lim muhitiga integratsiya qilishning dolzarb masalalari yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv ta’limning xalqaro va milliy huquqiy asoslari, ta’lim jarayonida insonparvarlik muhitini shakllantirishning ahamiyati, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari hamda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan ta’lim muhitini tashkil etish zarurati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada inklyuziv ta’limning tenglik, adolat va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashdagi o‘rni asoslab berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar, ta’lim muhiti, pedagogik yondashuv, ijtimoiylashuv, teng imkoniyat, insonparvarlik, maxsus ta’lim ehtiyojlari.

Inklyuziv ta’lim bugungi kunda jahon ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Uning asosiy maqsadi – har bir bolaga, uning jismoniy, intellektual, ijtimoiy yoki boshqa xususiyatlaridan qat’iy nazar, teng va sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat. Mazkur yo‘nalishning rivojlanishiga YUNESKO hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlar muhim asos

bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, 1994-yilda qabul qilingan Salamanka deklaratsiyasi hamda 2030-yilga qadar mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarida barcha uchun inklyuziv va adolatli ta’limni ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishga oid strategik hujjatlarda ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayoni millati, ijtimoiy kelib chiqishi, sog‘liq holati yoki boshqa xususiyatlaridan qat’iy nazar, barcha uchun ochiq va teng imkoniyatli bo‘lishi lozim. Shu ma’noda, inklyuziv ta’lim har qanday kamsitish va cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan demokratik hamda insonparvar ta’lim modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Inklyuziv” atamasi ingliz tilidagi “include” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘z ichiga qamrab olish”, “jalb etish” ma’nolarini anglatadi. Pedagogik nuqtai nazardan mazkur tushuncha alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida barcha tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitishni nazarda tutadi. Bu jarayonda asosiy e’tibor bolaning imkoniyatlaridagi cheklovlarga emas, balki ta’lim tizimining uning ehtiyojlariga qay darajada moslashtirilganligiga qaratiladi. Inklyuziv ta’limning nazariy asosini ijtimoiy model tashkil etadi. Unga ko‘ra, ta’lim jarayonidagi muammolarning asosiy sababi bolaning o‘zi emas, balki ta’lim muhiti, o‘quv dasturlari va pedagogik yondashuvlarning moslashtirilmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli inklyuziv ta’lim ta’lim tizimini bolaning individual ehtiyojlariga muvofiq ravishda qayta tashkil etishni talab qiladi. Bu esa, pedagogik jarayonda insonparvarlik, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarining ustuvor ahamiyat kasb etishini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’limning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati shundaki, u har bir bolaning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni umumiy o‘rta ta’lim muhitiga jalb qilish ularning ijtimoiylashuvi, mustaqil hayotga tayyorgarligi hamda shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim nafaqat bilim olish imkoniyatini, balki jamiyat bilan faol muloqot qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va shaxsiy salohiyatini namoyon etish imkonini ham yaratadi. Bunday o‘quvchilar bilan faoliyat yuritish jarayonida ta’lim muhitining moslashtirilganligi, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va maxsus metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’lim samaradorligi ta’lim muassasasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitning shakllanganlik darajasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Agar ta’lim jarayonida o‘zaro hurmat, hamkorlik, bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillari amalga oshirilmasa, inklyuziv ta’limning kutilgan natijalariga to‘liq erishish mushkul bo‘ladi. Shu bois ta’lim muassasalarida barcha ishtirokchilar – o‘qituvchilar, mutaxassislar, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ota-onalar va butun ta’lim jamoatchiligi bolalarni ta’lim muassasalariga jalb qilishning ahamiyatini chuqur anglab yetishi lozim. Bu orqali bolalar o‘z imkoniyatlariga mos ta’lim olish, tengdoshlari bilan muloqot qilish, birgalikda turli faoliyatlarda ishtirok etish va ijtimoiylashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyili – barcha o‘quvchilarning birgalikda ta’lim olishini ta’minlashdir. Bunda ularning jismoniy yoki funksional farqlari cheklov sifatida emas, balki

ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi omil sifatida qaraladi. Asosiy maqsad – ijtimoiy ehtiyojlarga javob beradigan, ijodkor va hamjihat jamiyatni shakllantirishdan iborat.

Hozirgi kunda ko‘plab ta’lim tashkilotlari barcha o‘quvchilar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishga intilayotgan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim muammolar mavjud. Xususan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus texnik vositalarning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarlik darajasi pastligi va moslashtirilgan o‘quv materiallarining kamligi inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishga to‘sqinlik qilmoqda.

YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, zamonaviy ta’lim muhiti jamiyatdagi doimiy o‘zgarishlarga moslasha oladigan samarali mexanizmlar bilan ta’minlangan bo‘lishi zarur. Inklyuziv ta’lim inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish asosida, barcha uchun kamsitishsiz ishtirok etish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shuning uchun pedagoglarni inklyuziv muhitda ishlashga tayyorlash, ularda maxsus metodik ko‘nikmalarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

*Inklyuziv ta’lim* – barcha o‘quvchilar uchun kamsitishsiz ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan zamonaviy ta’lim modeli hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi har bir o‘quvchining rivojlanishi, ta’lim olishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta’minlashdan iborat. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarni maxsus tayyorlash va ta’lim muhitini moslashtirishni talab etadi. Bu jarayon inson huquqlari, tenglik, bag‘rikenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni rivojlantirishda davlat, ta’lim muassasalari, ota-onalar va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina o‘zaro hamjihatlik va tizimli yondashuv orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun to‘laqonli va sifatli ta’lim muhitini yaratish mumkin bo‘ladi.

## Adabiyotlar


1. UNESCO. Inclusion and education: All means all. Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO, 2020. – 448 p.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-sonli Farmoni https://lex.uz/docs/4312785.

4. Yakubjanova D.B. Mathematical development of students with hearing impairments in the general development system in the elementary grades. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRES) Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK. http://www.idpublications.org P. 451-456.

5. Якубжанова Д.Б. Творчество как фактор развития профессионалних способностей будуших педагогов-дефектологов // Новие технологии в образовании: Материалы международной научно-практической конференции. 22 сентября 2014 года. – Т., 2014. – С. 80-83.

# XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA O‘QUVCHILARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Abdullayeva Aziza Karimovna, Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti o‘qituvchisi, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari hamda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar tahlil qilinadi. Fuqarolik kompetensiyasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari, yoshlarni ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik faolligi ruhida tarbiyalashning samarali mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik kompetensiyasi, fuqarolik ta’limi, fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, pedagogik asoslar, xalqaro tajriba, demokratik qadriyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim tizimi.

Zamonaviy globallashuv va axborotlashtirish davrida yosh avlodni har jihatdan kamol topgan, erkin fikrlaydigan va jamiyat hayotining faol ishtirokchisiga aylantirish eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu borada o‘quvchilarda fuqarolik vakolatlarini, kompetensiyalarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. Fuqarolik vakolati deganda, shaxsning o‘z qonuniy huquq va burchlarini anglay olishi, ijtimoiy jarayonlarga faol qatnashuvi, demokratik qadriyatlarga ehtirom ko‘rsatishi va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etishi tushuniladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Finlandiya, Singapur, Germaniya va Kanada kabi davlatlarda fuqarolik ta’limi umumiy ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu tajribalarni o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish yoshlarni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Zamonaviy globallashuv va axborotlashuv jarayonlari ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Yosh avlodni nafaqat bilimli, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, mas’uliyatli va demokratik qadriyatlarga sodiq fuqarolar sifatida tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. UNESCOning 2030 kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4.7-bandiga ko‘ra, barcha o‘quvchilar barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va global fuqarolikni targ‘ib qilish, madaniy xilma-xillikni qadrlash uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim . Ushbu maqsadni amalga oshirish fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Pedagogik adabiyotlarda fuqarolik kompetensiyasi shaxsning jamiyat va davlat hayotida samarali ishtirok etishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlar majmui sifatida talqin qilinadi.

*Fuqarolik kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:* fuqarolik bilimlari (huquq, demokratiya, davlat va jamiyat haqidagi bilimlar); fuqarolik ko‘nikmalari (muloqot qilish, muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash); fuqarolik qadriyatlari (vatanparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, mas’uliyat); fuqarolik xulqi (ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish, qonunlarga rioya qilish, tashabbuskorlik).

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

*Fuqarolik kompetensiyasi* – shaxsning o‘z huquq va majburiyatlarini anglashi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, demokratik qadriyatlarga hurmat bilan qarashi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qilishi bilan tavsiflanadi. Xalqaro tajribalar fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning turli pedagogik modellari va yondashuvlarini ishlab chiqishga zamin yaratgan.

So‘nggi yillarda global fuqarolik ta’limi (Global Citizenship Education – GCED) xalqaro ta’lim tizimlarida muhim o‘rin egallamoqda. Tadqiqotchilar fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning ikki asosiy modelini ajratadilar: neoliberal model (global kompetensiyalarni rivojlantirish, xalqaro mobillik va ishga joylashish qobiliyatini oshirishga qaratilgan) va tanqidiy model (refleksiv ta’lim, tanqidiy tafakkur va ijtimoiy mas’uliyatga urg‘u beradi).

Neoliberal model asosan iqtisodiy globallashuv sharoitida shaxsning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Mazkur model doirasida o‘quvchilarda xorijiy tillarni bilish, raqamli savodxonlik, madaniyatlararo muloqot qilish, xalqaro hamkorlikda ishlash va mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan global kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday yondashuv yoshlarning xalqaro mobilligini oshirish, ularni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda global iqtisodiyot talablariga moslashtirishga xizmat qiladi. Tanqidiy model esa, fuqarolik ta’limining ijtimoiy va axloqiy jihatlariga urg‘u beradi. Ushbu modelda o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, ijtimoiy tengsizliklar va global muammolarni tahlil qilish, inson huquqlari, adolat va barqaror rivojlanish g‘oyalariga sodiqlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy model refleksiv ta’limga asoslanib, o‘quvchilarni voqea-hodisalarga turli nuqtayi nazardan baho berishga, mustaqil xulosa chiqarishga va jamiyat hayotidagi muammolarni hal etishda faol ishtirok etishga undaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimlarida ushbu ikki modelning uyg‘unlashuvi kuzatilmoqda. Chunki bugungi kunda nafaqat global mehnat bozorida muvaffaqiyat qozona oladigan, balki ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan, demokratik qadriyatlarga sodiq va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Shu sababli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida har ikki modelning ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy mamlakatlar misolida Finlandiya ta’lim tizimida fuqarolik tarbiyasi barcha fanlar bilan integratsiyalashgan holda olib boriladi. Maktablarda o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritadi. O‘quvchilar maktab hayotiga oid qarorlarni qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etadilar. Bu esa, ularda demokratiya va mas’uliyat tamoyillarini amaliy jihatdan o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Singapurda “Character and Citizenship Education” dasturi orqali yoshlarning fuqarolik kompetensiyalari rivojlantiriladi. Dastur doirasida o‘quvchilar jamoatchilik xizmatlari, xayriya tadbirlari va ijtimoiy loyihalarda qatnashadilar. Natijada, ularda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlari shakllanadi.

Germaniya maktablarida demokratik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar keng qo‘llaniladi. O‘quvchilar turli ijtimoiy masalalarni muhokama qilish, bahs-munozaralarda qatnashish va mustaqil fikr bildirishga o‘rgatiladi.

*O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun tavsiyalar*

Xalqaro tajribalar tahlili asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: fuqarolik ta’limi mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish; volontyorlik va jamoatchilik faoliyatini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish; o‘quvchilar o‘zini o‘zi

boshqarish tizimini rivojlantirish; demokratik qadriyatlar va inson huquqlariga oid loyihalar sonini koʻpaytirish; interaktiv pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim yoʻnalishlaridan biridir. Xalqaro tajribalar shuni koʻrsatadiki, fuqarolik kompetensiyalari oʻquvchilarning amaliy faoliyatga jalb etilishi, demokratik muhit yaratish va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish orqali samarali shakllanadi. Finlandiya, Singapur va Germaniya tajribalaridan foydalanish Oʻzbekiston ta’lim tizimida fuqarolik ta’limining samaradorligini oshirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar**


1. Oʻzbekiston Respublikasi “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni. – T., 2020.
2. UNESCO. Global citizenship education: topics and learning objectives. Paris, 2015.
3. OECD. Future of Education and Skills 2030. Paris, 2019.
4. Eurydice Report. Citizenship Education at School in Europe. Brussels, 2023.
5. Musurmonova O. Pedagogika. – T.: Oʻqituvchi, 2021.
6. Toʻxtaxodjayeva M.X. Pedagogika nazariyasi. – T., 2020.
7. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T., 2022.


## XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA FAOLIYATLI YONDASHUV ORQALI BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARINING FUQAROLIK FAOLLIGI, IJTIMOIY MAS’ULIYATI VA MA’NAVIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH


**Abdullayeva Madinabonu Zokirjon qizi,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqaro pedagogik tajribalar asosida faoliyatli yondashuv orqali boshlangʻich sinf oʻquvchilarining fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Finlyandiya, Yaponiya va Singapur ta’lim tizimlarida qoʻllanilayotgan samarali tarbiyaviy amaliyotlar tahlil qilinib, ularning Oʻzbekiston boshlangʻich ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijasida faoliyatli yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni oʻquvchilarning fuqarolik kompetensiyalari, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslangan.



**Kalit soʻzlar:** faoliyatli yondashuv, fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy fazilatlar, boshlangʻich ta’lim, xalqaro tajriba, kompetensiyaviy yondashuv, tarbiya.



**Annotation.** This article examines the issues of improving the methodology for developing civic engagement, social responsibility, and moral qualities of primary school students through an activity-based approach grounded in international pedagogical experience. Effective educational and character-building practices implemented in the education systems of Finland, Japan, and Singapore are analyzed, and the possibilities for adapting these practices to the primary education system of Uzbekistan are explored. The findings demonstrate that an educational process organized on the basis of an activity-based approach serves as an important factor in fostering students’ civic competencies, social responsibility, and moral values.

**Keywords:** activity-based approach, civic engagement, social responsibility, moral qualities, primary education, international experience, competency-based approach, upbringing, civic competence.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования методики развития гражданской активности, социальной ответственности и нравственных качеств учащихся начальных классов на основе международного педагогического опыта и деятельностного подхода. Проведён анализ эффективных воспитательных практик, применяемых в образовательных системах Финляндии, Японии и Сингапура, а также раскрыты возможности их адаптации к системе начального образования Узбекистана. Результаты исследования подтверждают, что образовательный процесс, организованный на основе деятельностного подхода, является важным фактором формирования у учащихся гражданских компетенций, социальной ответственности и нравственных ценностей.

**Ключевые слова:** деятельностный подход, гражданская активность, социальная ответственность, нравственные качества, начальное образование, международный опыт, компетентностный подход, воспитание, гражданская компетентность.

Dunyo ta’lim tizimida XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsdan nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki faol fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy yetuklik ham talab etiladi. Shu sababli ta’lim tizimida o‘quvchilarning fuqarolik faolligi va ma’naviy fazilatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori bo‘lib, aynan shu davrda bolaning jamiyatga munosabati, axloqiy qarashlari, ijtimoiy xulq-atvori va fuqarolik fazilatlari shakllana boshlaydi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda faoliyatli yondashuv muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki faoliyat jarayonida o‘quvchi ijtimoiy tajribani egallaydi, hamkorlik qiladi, mas’uliyatni his qiladi va amaliy faoliyat orqali qadriyatlarni o‘zlashtiradi [1].

**Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari.** Faoliyatli yondashuvning ilmiy asoslari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin va V.V.Davydovlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs rivojlanishining asosiy omili faoliyat hisoblanadi. Faoliyatli yondashuvda o‘quvchi: ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi; mustaqil fikrlovchi subyekt; muammolarni hal qiluvchi shaxs; ijtimoiy munosabatlarning faol a’zosi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, unda bilimlar tayyor shakldа emas, balki amaliy faoliyat jarayonida egallanadi. Natijada o‘quvchilarda nafaqat bilish kompetensiyalari, balki fuqarolik va ma’naviy kompetensiyalar ham rivojlanadi [2].

**Fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy fazilatlarning mazmuni.** Fuqarolik faolligi shaxsning jamiyat va davlat hayotidagi jarayonlarga ongli ravishda munosabat bildirish, ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intilishidir. Ijtimoiy mas’uliyat esa shaxsning o‘z harakatlari natijalarini anglash, jamiyat manfaatlarini hisobga olish hamda o‘z burchlarini vijdonan bajarishida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy fazilatlar insonning axloqiy qadriyatlari va ichki madaniyatini ifodalovchi sifatlar bo‘lib, ularga: halollik; adolatparvarlik; mehr-oqibat; vatanparvarlik; hurmat; bag‘rikenglik; mas’uliyatlilik kiradi. Ushbu sifatlarning shakllanishi boshlang‘ich maktab yoshida samaraliroq kechadi.

*Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili*

**Finlyandiya tajribasi.** Finlyandiya ta’lim tizimi o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur modelda o‘quvchining mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas’uliyati ustuvor hisoblanadi. Finlyandiya maktablarida: demokratik muhit yaratiladi; o‘quvchilarning fikri hurmat qilinadi; hamkorlikka asoslangan ta’lim tashkil etiladi; ijtimoiy tenglik qadriyatlari singdiriladi. Bu esa, bolalarda faol fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy javobgarlik hissini shakllantiradi.

**Yaponiya tajribasi.** Yaponiya ta’lim tizimida tarbiya ta’limning markaziy qismi hisoblanadi. O‘quvchilar kundalik hayotda jamoaviy faoliyatga jalb qilinadi. Jumladan: maktab hududini tozalash; navbatchilik qilish; jamoaviy loyihalarda ishtirok etish; tengdoshlariga yordam berish. Mazkur faoliyatlar o‘quvchilarda mehnatsevarlik, intizom, hurmat va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi.

**Singapur tajribasi.** Singapurda amalga oshirilayotgan “Character and Citizenship Education” dasturi o‘quvchilarning shaxsiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Dastur doirasida: liderlik ko‘nikmalari; vatanparvarlik; ijtimoiy mas’uliyat; muammolarni hal qilish; tanqidiy fikrlash kabi sifatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi [5].

**Boshlang‘ich ta’lim amaliyotida uchrayotgan muammolar**

Tahlillar natijasida quyidagi muammolar aniqlanmoqda: birinchidan, fuqarolik tarbiyasi ko‘proq nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda; ikkinchidan, o‘quvchilarning amaliy ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga yetarli darajada e’tibor qaratilmayapti; uchinchidan, tarbiyaviy maqsadlar barcha fanlarga yetarli darajada integratsiyalashmagan; to‘rtinchidan, o‘quvchilarning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini baholash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

**Metodik takomillashtirish yo‘llari.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishda faoliyatli yondashuvga asoslangan metodik tizimni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Loyihaviy faoliyat asosida fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish.** Faoliyatli yondashuvning eng samarali vositalaridan biri loyihaviy ta’lim hisoblanadi. Loyihalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni aniqlash va ularning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinflarda “Tabiatni asraymiz”, “Yaxshilik ulashamiz”, “Mening mahallam”, «Sinfimiz qoidalari” kabi kichik loyihalarni amalga oshirish mumkin. Bunday loyihalar jarayonida o‘quvchilar jamoada ishlashni, o‘z fikrini asoslashni, boshqalarning fikrini hurmat qilishni va umumiy maqsad uchun mas’uliyatni his qilishni o‘rganadilar. Natijada ularda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatning dastlabki ko‘nikmalari shakllanadi.

**Muammoli vaziyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.** O‘quvchilarning ma’naviy va fuqarolik fazilatlarini rivojlantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Dars jarayonida hayotiy voqealarga asoslangan vaziyatlar yaratilib, o‘quvchilardan ushbu muammoga nisbatan o‘z munosabatini bildirish, qaror qabul qilish va yechim taklif etish talab etiladi. Masalan, “Ko‘chada axlat tashlayotgan odamni ko‘rsangiz nima qilasiz?”, “Do‘stingiz maktab mulkiga zarar yetkazsa qanday yo‘l tutasiz?” kabi vaziyatlar orqali o‘quvchilarda mas’uliyat, adolat, halollik va fuqarolik pozitsiyasi rivojlanadi. Bu esa tarbiyaviy ta’sirning samaradorligini oshiradi.

**Jamoaviy faoliyatni kengaytirish.** Xalqaro tajribalar, ayniqsa Yaponiya maktablari amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy faoliyat bolalarda ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlik

ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda guruhlarda ishlash, sinf tadbirlarini birgalikda tashkil etish, navbatchilik tizimini yo‘lga qo‘yish va umumiy vazifalarni bajarishga e’tibor qaratish lozim. O‘quvchilar jamoaviy faoliyat orqali bir-biriga yordam berish, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamjihatlik kabi ma’naviy fazilatlarni egallaydilar.

**Tarbiyaviy maqsadlarni o‘quv fanlari mazmuniga integratsiya qilish.** Fuqarolik faolligi va ma’naviy fazilatlarni shakllantirish faqat tarbiya soatlari bilan chegaralanmasligi kerak. Tarbiyaviy maqsadlar barcha fanlar mazmuniga integratsiya qilinishi zarur. Masalan, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida vatanparvarlik, insonparvarlik va halollik mavzularidagi matnlarni tahlil qilish, matematika darslarida adolat va halollik tamoyillariga asoslangan masalalardan foydalanish, tabiiy fanlarda esa tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish mumkin. Bunday integratsiyalashgan yondashuv tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydi.

**Ijtimoiy foydali faoliyatni tashkil etish.** Fuqarolik faolligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri o‘quvchilarni ijtimoiy foydali ishlarga jalb qilishdir. Ekologik aksiyalar, xayriya tadbirlari, daraxt ekish, maktab hududini obodonlashtirish, keksalarga yordam berish kabi tadbirlar o‘quvchilarda jamiyat oldidagi burch va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Bunday faoliyat davomida o‘quvchilar o‘z harakatlarining ijtimoiy ahamiyatini anglay boshlaydilar.

**Oila-maktab-mahalla hamkorligini kuchaytirish.** Fuqarolik va ma’naviy tarbiya samaradorligi oila, maktab va mahalla hamkorligiga bog‘liq. Shu bois ota-onalarni tarbiyaviy tadbirlarga faol jalb qilish, mahalla faollari bilan hamkorlikda ma’naviy-ma’rifiy loyihalarni tashkil etish zarur. Yagona tarbiyaviy muhit yaratilgandagina bolalarda shakllanayotgan qadriyatlar mustahkam xarakter kasb etadi.

**Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.** Raqamlashtirish sharoitida tarbiyaviy jarayonni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Interaktiv taqdimotlar, ta’limiy platformalar, elektron o‘yinlar va videomateriallar orqali fuqarolik qadriyatlari, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy fazilatlarni targ‘ib qilish mumkin. Shu bilan birga, o‘quvchilarda raqamli madaniyat, media savodxonlik va internetdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir.

**Baholash tizimini takomillashtirish.** Fuqarolik faolligi va ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish natijalarini baholash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqilishi lozim. Bunda o‘quvchilarning jamoaviy ishlardagi ishtiroki, tashabbuskorligi, ijtimoiy loyihalardagi faolligi, mas’uliyatlilik darajasi va axloqiy xulq-atvori muntazam kuzatib borilishi kerak. Formativ baholash usullaridan foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish dinamikasini aniqlashga imkon beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, faoliyatli yondashuv o‘quvchilarning fuqarolik va ma’naviy sifatlarini rivojlantirishning eng samarali pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchini ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektga aylantirib, unda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, hamkorlik, mas’uliyat va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar, jamoaviy ishlar hamda ijtimoiy foydali mehnat turlari o‘quvchilarning fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili Finlyandiya, Yaponiya va Singapur ta’lim tizimlarida fuqarolik tarbiyasi hamda ma’naviy rivojlanishga alohida e’tibor qaratilayotganligini ko‘rsatdi. Finlyandiya

tajribasida o‘quvchi erkinligi, mustaqil qaror qabul qilish va demokratik qadriyatlar ustuvor bo‘lsa, Yaponiya modelida jamoaviylik, intizom va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga katta ahamiyat beriladi. Singapur ta’lim tizimida esa, fuqarolik kompetensiyalari va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish maxsus dasturlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tajribalar boshlang‘ich ta’lim amaliyotini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, xalqaro pedagogik tajribalar asosida faoliyatli yondashuv orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan faol, mas’uliyatli, vatanparvar, ma’naviy yetuk hamda raqobatbardosh avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur metodikaning amaliyotga joriy etilishi ta’lim-tarbiya sifatini oshirish bilan bir qatorda, mamlakatning barqaror ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

**Adabiyotlar**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Vigotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – M.: Pedagogika, 1991.
3. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – M., 1975.
4. Davydov V.V. Theory of developmental education. – M., 1996.
5. Singapore Ministry of education. Character and citizenship education framework.
6. Беляев Г.Ю. Актуальные направления и модели воспитания в современной международной практике // Сибирский педагогический журнал. – 2013. – № 3.
7. Journal of moral education. Vol. 35. No. 4. 2006.


## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI


**Abduraimova Charos Farxod qizi, TPMI doktoranti**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida muammoli ta’lim (Problem-Based Learning) texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil bilim olish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan, biroq amaliyotda bo‘lajak o‘qituvchilarning aksariyati muammoli ta’lim texnologiyalarining mazmun-mohiyatini yetarli darajada bilmaydi va undan foydalanish ko‘nikmasiga ega emas. Tadqiqotning maqsadi – muammoli ta’lim texnologiyalarini oliy ta’limda qo‘llash orqali o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va talabalarning bilim sifatini oshirishdan iborat. Tadqiqotda nazariy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, test va pedagogik tajriba-sinov, shuningdek olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim texnologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, real vaziyatlarni tahlil etish va o‘z tanlovi uchun javobgarlikni his qilish ko‘nikmalarini shakllantirib, ularning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat

ruhida kasbiy shakllanishiga, shu orqali esa kelajakda mazkur fazilatlarni o‘z o‘quvchilariga ham singdira olishlariga zamin yaratadi.

**Key words:** muammoli ta’lim texnologiyasi, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik tajriba-sinov, muammoli vaziyat, oliy ta’lim, bilim sifati, fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, shuningdek pedagogik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish vazifalari belgilangan [1-2]. Mazkur me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim siyosatida o‘qituvchini nafaqat fan bo‘yicha bilim beruvchi, balki yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantiruvchi shaxs sifatida tayyorlash masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Muammoli ta’lim texnologiyasi aynan shu boradagi vazifalarni hal etishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi, chunki u talabani tayyor bilimni passiv qabul qiluvchidan muammoli vaziyatni mustaqil tahlil qiluvchi, asoslangan qaror qabul qiluvchi va o‘z tanlovi uchun javobgarlikni his qiluvchi faol shaxsga aylantiradi – bu fazilatlar esa fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatning pedagogik asosini tashkil etadi.

Zamonaviy oliy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri talabalarda bilim olishga bo‘lgan faollik, mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodiy yondashuv va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishning samarali metodlaridan biri bo‘lgan muammoli ta’lim ham talabalarga aynan shu xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qilishi bilan alohida tavsiflanadi. Muammoli o‘qitishning vazifasi talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyat usullarini samarali o‘zlashtirishga ko‘maklashish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo‘llash malakasini hosil qilish, bilish mustaqilligi hamda o‘quv-tarbiya muammolarini hal qilishdan iboratdir.

Shu bilan birga, amaliyotda jiddiy ziddiyat mavjud: bir tomondan, me’yoriy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarda muammoli ta’lim texnologiyalarining yuqori samaradorligi qayd etilsa, ikkinchi tomondan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining katta qismi ushbu texnologiyaning mazmun-mohiyati, uni tashkil etish bosqichlari va metodlari haqida yetarli tasavvurga ega emas hamda undan o‘z amaliy faoliyatida foydalanish ko‘nikmasini egallamagan. Aynan shu ziddiyat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning obyekti – oliy ta’lim jarayonida muammoli ta’lim usullarini qo‘llash jarayoni; predmeti – muammoli ta’lim texnologiyalarining oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilishining mazmun, shakl va metodlari. Tadqiqotning maqsadi – muammoli ta’lim texnologiyalarini oliy ta’limda qo‘llash orqali o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va talabalarning bilim sifatini oshirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) muammoli ta’lim texnologiyalarining pedagogik jihatlarini tahlil qilish; 2) oliy ta’lim muassasalarida muammoli ta’lim texnologiyalarini joriy etishning

samaradorlik omillarini aniqlash; 3) talabalar qiziqishini oshiruvchi interfaol usullarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini pedagogik tajriba orqali baholash.

Tadqiqotning ilmiy farazi sifatida quyidagi taxmin ilgari surildi: agar oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv mashg'ulotlarda muammoli ta'lim texnologiyalaridan tizimli foydalanilsa, talabalarning bilim darajasi kengayadi, mustaqil va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Muammoli ta'lim g'oyalarining tarixiy ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi – Suqrotning savol-javob (evristik) usuli talabalarda ziyraklik va mustaqil fikrlash sifatlarini shakllantirishga xizmat qilgan. Sharq mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy ham o'quv jarayonida talabani toliqtirmaslik va bilimlarni qiziqarli tarzda yetkazish zarurligi haqidagi g'oyalarini ilgari surgan. XX asrning boshida Jon Dyuining "tabiiy ehtiyojlar" asosida ta'lim tashkil etish g'oyasi va Chikago eksperimental maktabi tajribasi muammoli ta'limning amaliy asoslarini shakllantirishga xizmat qildi [8]. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Dyui ta'lim jarayonini demokratik jamiyat fuqarosini tarbiyalash vazifasi bilan uzviy bog'lab, o'quvchining amaliy faoliyat va muammoli vaziyatlar orqali ijtimoiy tajriba orttirishini fuqarolik ongi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning muhim sharti sifatida talqin etgan edi.

Muammoli ta'limning psixologik-pedagogik nazariy asoslari XX asrning 60-yillarida S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov va V.Okon kabi olimlar tomonidan ishlab chiqildi [3-4; 7]. M.I.Maxmutovning kontseptsiyasiga ko'ra, muammoli ta'lim – bu talabalarning muammoli vaziyatlarni mustaqil (yoki o'qituvchi yordamida) tahlil qilish, muammolarni ta'riflash, ularni farazlar vositasida asoslash va isbotlash, shuningdek yechimlarning to'g'riligini tekshirish yo'li bilan bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirishga oid o'quv-bilish faoliyatidir. Maxmutov o'quv jarayonida muammoli vaziyatlarni tashkil etishning uch bosqichli modelini (muammoli vaziyatni yaratish – muammoni shakllantirish – yechim izlash jarayoni) taklif etgan bo'lib, bu model bugungi kunda STEM ta'limida ham keng qo'llaniladi [3]. Polsha pedagogi V.Okon esa, muammoli vaziyatlarni qo'llashning to'rt bosqichli modelini (muammoni anglash – yechim rejalashtirish – rejani amalga oshirish – natijalarni baholash) ishlab chiqdi va "o'qituvchi – muammoli vaziyatlar rejissyori" g'oyasini ilgari surdi [4].

Xalqaro tajribada muammoli ta'limning institutsional shakllanishi Kanadaning McMaster universitetida (1960-yillar) H.S.Barrows boshchiligida tibbiyot ta'limi sohasida boshlangan va keyinchalik AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya (Maastricht universiteti), Finlandiya va Avstraliya ta'lim tizimlarida keng tarqaldi [6]. Bu tajribalarning umumiy xususiyati – o'qituvchining "bilim yetkazuvchi"dan "fasilitator"ga aylanishi va talabalarning kichik guruhlarda muammoni mustaqil tahlil qilishi, yechim izlashi va natijalarni taqdim etishidir.

Mahalliy pedagogika fanida muammoli ta'lim masalalari N.N.Azizxo'jayeva, O'.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva, R.J.Ishmuhamedov, U.I.Inoyatov, N.A.Xamedova va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida o'rganilgan [5; 9; 10]. N.N.Azizxo'jayeva muammoli vaziyatning asosiy belgisi sifatida talabaning tushunmagan narsaga duch kelishi, yechim yo'lining aniq emasligi va shu bilan birga talabaning bu vaziyatga shaxsan daxldorligini his qilishini ko'rsatib o'tgan [5]. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda muammoli ta'lim texnologiyalarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilish darajasini aniq miqdoriy ko'rsatkichlar (foiz nisbatlari, bilim darajalari dinamikasi) asosida tajriba-sinov yo'li bilan baholashga alohida e'tibor qaratilmagan, bu esa, ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim texnologiyasining mazmunini ifodalovchi omillar ichida muammoli vaziyat alohida o‘rin tutadi. Didaktika va pedagogik psixologiya fanlarida muammoli vaziyat bilim oluvchilarning aqliy faoliyatining dastlabki bosqichi, bilish aktivligining manbai va yo‘naltiruvchi kuchi sifatida tavsiflanadi.

*Muammoli vaziyat* – bu o‘qituvchi tomonidan talabalar oldida maxsus tashkil etilgan pedagogik vaziyat bo‘lib, u talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi, yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini rag‘batlantiradi va aqliy faoliyatni jadal rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, muammoli ta’lim texnologiyasining samaradorligi, birinchi navbatda, o‘qituvchining muammoli vaziyatni qanchalik to‘g‘ri va o‘z vaqtida tashkil eta olishiga bog‘liq bo‘ladi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, AQSh, Buyuk Britaniya va Niderlandiya kabi mamlakatlarda muammoli ta’lim texnologiyasi, ayniqsa, tibbiyot, muhandislik va biznes ta’limi yo‘nalishlarida keng qo‘llaniladi, bunda talabalar kichik guruhlarda real yoki real vaziyatga yaqinlashtirilgan keyslar asosida ishlaydi, o‘qituvchi esa faqat yo‘naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajaradi. Finlandiya tajribasida esa muammoli ta’lim asosiy o‘qitish metodlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, u talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu xorijiy tajribalarning umumiy xulosasi shundan iboratki, muammoli ta’lim texnologiyasi mavzu mazmunidan qat’i nazar, agar u tizimli va bosqichma-bosqich tatbiq etilsa, talabalarning bilim sifatini va mustaqil fikrlash darajasini sezilarli oshiradi – bu esa, ushbu tadqiqotning O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari bilan uzviy bog‘lanadi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda muammoli ta’lim texnologiyalarining oliy ta’lim tizimidagi pedagogik imkoniyatlari hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyati o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyosiy o‘rganish, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini muammoli ta’lim nazariyasiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etdi. Xususan, M.I.Maxmutov, V.Okon, H.S.Barrows, J.Dewey, S.L.Rubinshteyn kabi olimlarning ilmiy ishlari hamda N.N.Azizxo‘jayeva, O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva, R.J.Ishmuhamedov va boshqa mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy manbalari o‘rganildi.

Tadqiqot davomida muammoli ta’lim texnologiyasining nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari, muammoli vaziyatlarni tashkil etish mexanizmlari hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, turli mamlakatlar ta’lim tizimlarida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish tajribalari qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning umumiy pedagogik xususiyatlari aniqlandi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili muammoli ta’lim texnologiyasi zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu texnologiya talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

M.I.Maxmutov muammoli ta’limni talabalarni izlanishga undovchi, ularda ijodiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi ta’lim turi sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topishga yo‘naltiradi. V.Okon esa muammoli ta’limning asosiy

vazifasi o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish va ularni muammolarni hal qilish jarayoniga faol jalb etishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Xalqaro tajribalar ham muammoli ta’lim texnologiyasining yuqori pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi. H.S.Barrows tomonidan ishlab chiqilgan Problem-Based Learning modeli dastlab tibbiyot ta’limida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik pedagogika, muhandislik, biznes va boshqa ta’lim yo‘nalishlarida ham keng tarqaldi. Kanada, AQSh, Buyuk Britaniya, Finlandiya va Niderlandiya ta’lim tizimlarida olib borilgan tadqiqotlar muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham muammoli ta’lim texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari keng yoritilgan. Xususan, N.N.Azizxo‘jayeva muammoli vaziyatlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini qayd etsa, O‘.Q.Tolipov va M.Usmonboyeva zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimida muammoli ta’limning alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Tadqiqotchilar ushbu texnologiya talabalarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadilar.

Nazariy manbalar tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, muammoli ta’lim texnologiyasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik fikrlash, kreativ yondashuv va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar muammoli ta’lim texnologiyasining zamonaviy ta’lim talablariga mosligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida talabalarni faqat bilim oluvchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi aynan shu maqsadga xizmat qilib, talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, muammoli ta’lim texnologiyasining samaradorligi muammoli vaziyatlarning to‘g‘ri tashkil etilishi, talabalarning mustaqil izlanishga yo‘naltirilishi hamda o‘qituvchining fasilitator sifatidagi faoliyatiga bog‘liq [9, 79-80-b.; 11; 12, 47-b.]. Muammoli topshiriqlar orqali talabalar mavjud bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llashga, muammolarni tahlil qilishga va asoslangan qarorlar qabul qilishga o‘rganadilar.

Oldingi tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim texnologiyalaridan muntazam foydalanish talabalarning tanqidiy fikrlashini, ijodkorligini, kommunikativ kompetensiyalarini va kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida muammoli ta’lim texnologiyalaridan tizimli foydalanish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ilmiy manbalar tahlili muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar va amaliy ishlanmalarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, muammoli ta’lim texnologiyasi orqali shakllantiriladigan mustaqil fikrlash, asoslangan qaror qabul qilish va o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni his qilish ko‘nikmalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga ham bevosita xizmat qiladi. Bunday kasbiy-shaxsiy sifatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi nafaqat o‘zi faol fuqaro sifatida shakllanadi, balki o‘z navbatida sinfida ham o‘quvchilarda kichik yoshdan boshlab

mustaqil fikrlash, jamoaviy muammolarni hal qilish va ijtimoiy mas'uliyat hissini tarbiyalay oladi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro pedagogik tajribalar asosida muammoli ta'lim texnologiyalarini oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashga oid zamonaviy vazifalarni hal etishning muhim pedagogik shartlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

*Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy-nazariy manbalar va pedagogik adabiyotlar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:*

Birinchidan, muammoli ta'lim texnologiyasi zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ularda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, muammoli ta'lim texnologiyalarining samaradorligi muammoli vaziyatlarning mazmunli tashkil etilishi, ta'lim jarayonining maqsadga muvofiq rejalashtirilishi hamda o'qituvchining metodik mahoratiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ushbu texnologiyani qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Beshinchidan, muammoli ta'lim texnologiyalarini oliy ta'lim amaliyotiga keng joriy etish uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar, muammoli topshiriqlar banki va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish hamda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida mazkur yo'nalishga oid maxsus seminar-treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, muammoli ta'lim texnologiyasi vositasida shakllantiriladigan mustaqil fikrlash, asoslangan qaror qabul qilish va o'z faoliyati uchun javobgarlik hissi bo'lajak o'qituvchining fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi, bu esaб xalqaro pedagogik tajribalarga muvofiq yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash vazifasini amalga oshirishning samarali pedagogik vositasiga aylanadi.

Umuman olganda, muammoli ta'lim texnologiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash borasidagi zamonaviy vazifalarni hal etishga ham bevosita xizmat qiladi.

## References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, 2017-yil 7-fevral, PF-4947.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. Махмутом М.И. Проблемное обучение: основные вопросы теории. – М.: Педагогика, 1975. – 368 с.

4. Okon V. Muammoli ta’lim asoslari. – M.: Ta’lim, 1968.

5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi”, 2006. – 200 b.

6. Barrows H.S., Tamblyn R.M. Problem-based learning: an approach to medical education. – New York: Springer Publishing Company, 1980.

7. Rubinshteyn S.L. Fikrlash va tafakkur faoliyati. – M.: Nauka, 1958.

8. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.

9. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari: o‘quv qo‘llanma. – T., 2006. – B. 79-80.

10. Ishmuhamedov R.J. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – T.: Sharq, 2020.

11. Yo‘ldosheva J.R., Usmonova S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 396 b.

12. Qodirov F. Muammoli ta’lim metodlari va ularning samaradorligi // Pedagogika. – 2019. – 4-son. – B. 47.

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Z.D.Abralova, O‘zMPU katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada kasbiy kompetensiya tushunchasi, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish yo‘llari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, individual kompetensiya, texnologik kompetensiya.

**Аннотация.** В статье раскрыто понятие профессиональная компетентность, приведены способы формирования профессиональной компетентности будущих учителях.

**Ключевые слова:** компетентность, профессиональная компетентность, социальная компетентность, индивидуальная компетентность, технологическая компетентность

**Annotation.** The article reveals the concept of professional competence, ways of forming the professional competence of teachers.

**Key words:** competence, professional competence, social competence, individual competence, technological competence

Jahonda ta’lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ta’lim standartlarini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro pedagogik tajribalar ta’lim sifatini bitiruvchilarning kompetensiya darajasi asosida baholash va rahbar-pedagoglarda kasbiy kompetentlikni ta’limning innovatsion texnologiyalari vositasida rivojlantirish, ta’limning yangi paradigmalarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturlari orqali o‘qitishning an’anaviy

va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish hamda didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan.

Jahonda professional ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy usullar asosida loyihalash, amalga oshirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va rahbar pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishga oid tadqiqotlar olib borilayotgan Princeton University (AQSh), Manchesters University (Angliya), National Advice on Pedagogical Technology (Angliya), Belfield Pedagogical University (Germaniya), Ta'lim texnologiyalari navigatori axborot-metodik markazi (Rossiya) va Seoul Cyber University (Janubiy Koreya) kabi nufuzli ilmiy tadqiqot ta'lim markazlarida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. Mamlakatimizda samarali professional ta'lim tizimini joriy etishga qaratilgan tub islohotlar natijasida bo'lajak kasb ta'limi mutaxassislarini tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda hamda vatanimiz va xorijlik ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida "kompetensiya" va "kompetentlik" kabi tushunchalar keyingi vaqtlarda keng qo'llanilmoqda.

Ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuv xorijiy mamlakatlarda o'tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlanib, "Kompetensiya" masalasi ko'p yillardan buyon olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Kompetentlik tushunchasining lug'aviy ma'nosi turli tillarda quyidagicha izohlangan: competent (fransuz tilida) – vakolatli; competent (lotin tilida) – qobiliyatli; competent (ingliz tilida) – qobiliyatli. "Kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari mohiyatini anglash maqsadida quyidagi lug'atlarga e'tiborimizni qaratdik: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da kompetensiya atamasi quyidagicha talqin etilgan: kompetensiya – u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. S.I.Ojegov bu tushunchalarni rus tili izohli lug'atida quyidagicha izohlaydi: "Kompetensiya – 1. Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi. 2. Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi", "Oliy ta'lim" lug'at-ma'lumotnoma to'plamida – "Kompetentlik – tegishli, layoqatli", vakolatlilik – 1) muayyan ijtimoiy kasbiy mavqega ega shaxslarning ular bajarayotgan vazifa va hal etayotgan muammolarning murakkablik darajasiga bilimlari, layoqatlari va tajribalarining mos kelganlik darajasi. "Malaka" terminidan farqli o'laroq kasbiy bilim va layoqatga ega bo'lishdan tashqari yana tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlay bilish qobiliyati, kommunikativ uquv, ta'lim olish, baholash uquvi, mantiqiy fikrlash, axborotni tanlash va foydalanish layoqatlari kabi sifatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi deb ifodalangan. Hozirgi kunda "professionalizm" atamasi o'rniga ko'pincha "kompetensiya" tushunchasi qo'llaniladi. Birinchi tushuncha faqat ma'lum bir kasb mahoratini, malakasini aks ettiradi. Ikkinchi "kompetensiya" tushunchasi esa, malakalar zahirasi, bazasi, degan ma'noni anglatadi. U shaxsning mustaqil faoliyat ko'rsata olish, har qanday ishga ijodiy yondashish, doimo bilimlarini yangilab borish, aql-farosatliligi, turli soha tizimlari va iqtisodiyot bo'yicha fikrlay olish qobiliyati, muloqotlar olib borish mahorati, jamoadagi hamkorligi, hamkasblari bilan muloqotga kirishuvchanligi kabi sifatlarni aks ettiradi. Kasbiy kompetentlikni turlicha izohlash hollari yuzaga keldi: ma'lum bir mehnat funksiyasini bajarish qobiliyati; "malaka", "mahorat" kabi inson ko'nikmalari (A.K.Makarova); kasbiy ma'lumotlilik darajasi; insonning tajribasi va individual qobiliyati, uning o'z bilimi va malakasini oshirib borishga intilishi, uning ishga ijodiy yondashuvi va o'z ishiga mas'uliyati (B.S.Gershunskiy); kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish (O.A.Abduqudusov, H.F.Rashidov); bilim, mahorat, o'ziga xoslik va shaxsning

o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi qobiliyati (V.A.Sitarov); shaxsning tajribasi, ma’lumotining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, insonning ma’lum bir maqsad yo‘lidagi amaliy faoliyati natijalari; kasbiy bilimlarini hayotda samarali qo‘llashi kabi shaxsning o‘ziga xos sifatlari va kompetentligi (L.N.Ponamarev); A.S.Belkin, S.A.Vdovina, N.V.Kuzmina, V.V.Nesterov, O.N.Larionovalarning pedagogik-kasbiy kompetentlikni tuzilishi va tarkibi bo‘yicha turli qarashlarini tahlil etgan holda, biz bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining pedagogik-kasbiy kompetentligini quyidacha ifodaladik, ya’ni ***pedagogik kompetentlik:***

ijtimoiy kompetensiya – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish;

individual kompetensiya – izchil ravishda kasbiy rivojlanishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;

ekstremal kompetensiya – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik;

psixologik kompetensiya – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

metodik kompetensiya – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

informatsion kompetensiya – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish, iqtisodiy bilimlardan va marketingdan xabardor bo‘lishi;

kreativ kompetensiya – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

innovatsion kompetensiya – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

kommunikativ kompetensiya – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan muloqot o‘rnata olishi, axborotni to‘g‘ri qabul qila olishi va to‘g‘ri yetkaza bilishi, chet tillarida muloqot qila olishi, internet tarmog‘ida muloqotga kirisha olishi;

texnologik kompetensiya – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma, malakani boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan amaliyotda foydalana olish.

Kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi va buning uchun zarur bo'lgan harakatlarni yuqori professional darajada bajarish qobiliyati, qobiliyati va qobiliyatining birligini ifodalovchi xususiyatlar majmui.

Kasbiy (maxsus) kompetentlik – o‘z mutaxassisligi bo‘yicha egallashi kerak bo‘lgan kompetensiyalarlar yig‘indisi. Kasbiy kompetentlikda muayyan kasbiy faoliyat turiga qarab kompetensiya turlari aniqlanadi. T.G.Braje fikriga ko‘ra, “inson-inson” tizimida ishlovchi (rahbar-pedagoglar, shifokorlar, yuristlar, maishiy xizmat xodimlari)larning kasbiy kompetentligi faqatgina olgan ilmiy bilimlari va malakasi bilangina o‘lchanmaydi, balki mutaxassisning ma’lum maqsadga intilishi, faoliyatidan keladigan natijalar, o‘zini o‘rab turgan olamni va shu olamda o‘z o‘rnini bilishi, odamlar bilan muomala usullari, madaniyati, o‘zining ijodiy salohiyatini o‘stirib borishi masalalariga e’tiborni qaratadilar.

Professor N.A.Muslimov o‘zining tadqiqot ishlarida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy shakllanganligi asosini: motivatsion xislatlar; intellektual salohiyat; irodaviy sifatlar; amaliy ko‘nikmalar; hissiy sifatlar; o‘z-o‘zini boshqara olish sifatlar kabi ta’sir etuvchi omillarni ta’kidlab o‘tadi. Rus olimasi O.Kozireva o‘z izlanishlarida kasbiy yetuklik darajalari va kasbiy kompetentlik shakllanishini qiyoslab o‘rgangan. Uning fikricha, kasbiy yetuklikning uchta darajasi mavjud bo‘lib, ularning har biri “anglanmagan kompetentsizlik→ anglanilgan kompetentsizlik→anglangan kompetentlik” tizimidagi kasbiy kompetentlik darajalarini belgilab beradi. Anglangan kompetentlik (“Men nima bilishim haqida bilaman”). Anglanilgan kompetentsizlik (“Men bilmasligim haqida bilaman”). Anglanmagan kompetentsizlik (“Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman”). Agar, bo‘lajak o‘qituvchi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan vakolatlarni tahlil qilsak, quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: a) umumiymadaniy kompetensiyalar: fikrlash madaniyatiga ega, ma’lumotni umumlashtirish, tahlil qilish, idrok etish, maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llarini tanlash qobiliyatiga ega; og‘zaki va yozma nutqni mantiqan to‘g‘ri, asosli va aniq qura oladi; nostandart vaziyatlarda tashkiliy va boshqaruv qarorlarini topa oladi va ular uchun javobgarlikni olishga tayyor; o‘z faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishni biladi; o‘z-o‘zini rivojlantirishga, malaka va malakasini oshirishga intiladi; o‘zining bo‘lajak kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglagan, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yuqori motivatsiyaga ega bo‘lsa; ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlarning asosiy qoidalari va usullaridan foydalanadi; ijtimoiy ahamiyatga ega muammo va jarayonlarni tahlil qila olish; kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonuniyatlaridan foydalanadi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqot usullarini qo‘llaydi; zamonaviy jamiyat taraqqiyotida axborotning mohiyati va ahamiyatini anglaydi; axborotni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari, usullari va vositalariga egalik qiladi; axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash malakalari; global kompyuter tarmoqlarida axborot bilan ishlay olish; organizmning moslashuvchan zaxiralarini oshirish, sog‘lig‘ini yaxshilash, jismoniy rivojlanishini to‘g‘rilash uchun jismoniy tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash usullaridan mustaqil, uslubiy jihatdan to‘g‘ri foydalanish vositalariga; o‘z mamlakati fuqarosi sifatida o‘z huquq va majburiyatlarini biladi; o‘z faoliyatida fuqarolik kodeksi, boshqa huquqiy hujjatlardan foydalanishni biladi; jamiyatni insonparvarlik, erkinlik va demokratiya tamoyillari asosida takomillashtirish va rivojlantirishga tayyorligi va intilishini namoyon etadi; b) Umumiykasbiy kompetensiyalar: nutq asoslarini egallaydi, uning turlarini, nutq odobi va dialog qoidalarini, kompozitsiya va uslub qonuniyatlarini, ishontirish usullarini biladi; jamoatchilik va reklama sohasida qo‘llaniladigan matn va hujjatlarni yaratish bo‘yicha boshlang‘ich ko‘nikmalarga ko‘nikmalariga ega; kasbiy muammolarni muhokama qilish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, hodisalar, hodisalar, jarayonlarning mohiyatini tushuntirish, xulosalar chiqarish, asosli javoblar berish; aniq fan sohasida tadqiqot olib borish, ilmiy nazariyalarni tekshirishning eksperimental va kuzatish usullari natijalarini tushunish qobiliyatiga ega.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi ta’lim muhitini, ta’lim sifatini, ta’lim jarayoni ishtirokchilarini o‘rtasidagi muloqotni yaxshilashga imkon yaratadi.

**Adabiyotlar**

1. Гительман Л.Д., Исаев А.П., Кожевников М.В. Менеджеры нового поколения. Передовое управленческое образование // Электронное учебное пособие. – Е., 2014.

2. Муслимов Н.А. Касб таьлими ўқитувчиларининг касбий шакллантириш технологияси: Монография. – Т.: Фан, 2013.– 127 б

3. Исупова Л.М. Формирование профессиональной компетентности у будущих менеджеров средствами новых информационных технологий как педагогическая проблема. – Т., 2014.

## FORMING MANAGEMENT COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

**Z.D.Abralova, senior lecturer of Nizami state university of Uzbekistan**

**Abstract.** The article provides information about the specific features of digital transformation and the formation of managerial competencies in future primary school teachers.

**Key words:** digital transformation, managerial competence, structure of managerial competence, digital educational platform.

**Аннотация.** В статье представлена информация о специфике цифровой трансформации и формировании управленческих компетенций у будущих учителей начальной школы.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, управленческая компетентность, структура управленческой компетентности, цифровая образовательная платформа.

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli transformatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirish haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli transformatsiya, boshqaruvchilik kompetensiyasi, boshqaruv kompetensiyasining tuzilishi, raqamli ta’lim platformasi.

In modern conditions, the training of pedagogical personnel is being modernized on the basis of new technologies and the creation of a single digital educational space. The strategy of digital transformation of education involves the creation and implementation of conditions for the development of a competent and socially responsible person, the use of new digital technologies to increase the efficiency of the educational process. A modern primary school teacher must have managerial competence, be able to predict possible outcomes and be able to plan the amount of resources needed to implement educational programs.

In science, the term “Management” is interpreted in three positions: 1. Management is defined as an activity (V.S.Lazarev, G.Kh.Popov, M.M.Potashnik, A.Fayol, etc.). This definition is important from the point of view of focusing on obtaining the result of science, but does not focus on changing the scientific experience of the participants in the process of this activity. 2. Management is the “influence” of one system on another, of one person on another or on a group (V.G.Afanasev, L.B.Itelson, A.A.Orlov, V.A.Pyatin, N.Suntsov, N.D.Khmel, etc.). Here, management is the purposeful influence of the subject on an object and the impact of the latter on another object, which, as a result of its change, also leads to another object. 3. Management – the interaction of subjects (V.G.Afanasev, V.I.Zvereva, P.I.Tretyakov, T.I.Shamova, etc.).

In management research around the world, research is being conducted on the issues of the leader’s personality or activities in the context of competencies and competences –

management competence, acmeological competence, communicative competence, professional competence, socio-psychological competence, socio-perceptive competence, social competence, conflict competence, ethno-cultural competence – using “motivational-value”, “socio-anthropological”, “behavioral”, “integral”, “ordered”, “semi-systemic”, “cybernetic” and “digital transformational” analysis methods. In philosophy, interaction is understood as a complex, multifaceted process in which changes in the parties occur not simply in a mutually dependent manner, but in a mutually dependent manner.

Here, the structure of the management competence of a future primary school teacher based on cognitive, activity and personal components is aimed at: development of the educational process and personal qualities of students; analysis of the social impact of educational discipline and personal communication on the student; interaction of the teacher with the educational environment (continuous improvement); development of methodological support (content design, development or adaptation of pedagogical technologies, control procedures, etc.); solving educational and other problems in the context of the activities of an educational institution [1].

Digital transformation is a complex and large-scale process. It implies a comprehensive transformation using digital solutions and technologies in its place.

The main areas of development are: creation of a digital learning environment; revision of educational content; creation of a flexible system for managing the educational organization and personalized educational process; introduction of new forms of educational practice; methods and technologies for ensuring information security of the identity of subjects of the educational process.

It is desirable to form organizational management competence in a teacher through the acquisition of experience, therefore, it is necessary to develop reflexive skills that contribute to the self-development of students. Reflective skills are the ability to consciously build the trajectory of one's own educational activities, self-analyze activities and manage them. A competency-based approach allows you to present your results in all the diversity of competency components; accordingly, there is a need to form not only cognitive, but also activity-based, personal and motivational components of competence.

Digital tools for effective organization of education: independently created and publicly available video materials on the Internet; mobile e-learning resources, etc. The following aspects can be distinguished as prospects for digital transformation of the education system: equipping the education system with software and information systems; introducing distance information technologies; deploying digital educational platforms; implementing various options for designing educational processes on digital platforms; organizing effective online distance learning [2].

Based on the above, the requirements for future primary education teachers in today’s digitalized education form the basis for the process of forming managerial and professional competence, equipping it with analytical tools, helping and serving to integrate skills, techniques, and ideas, and as a catalyst for the development of professional competence, undoubtedly provides an opportunity to be competitive in the modern labor market.

**List of references**

1. Кононенко М.А. Формирование управленческой культуры учителя в процессе профессиональной подготовки: Автореф. дис. … канд. пед. наук. – К., 2002. – 30 с.

2. Дивина Т.В., Маймина Э.В. Возможности и перспективы использования цифровой трансформации в образовании // Актуальные проблемы экономики и менеджмента. 2020. – № 5 (25). – С. 38-48.

## GLOBAL BILIM MAYDONIDA YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING MUNOSIB ISHTIROKINI TA’MINLASHDA STEAM TA’LIMINING AHAMIYATI

**Adilova Dilorom Nurillayevna,**
**O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XXI asrning global bilim maydoni, raqamli iqtisodiyot va innovatsion mehnat bozori sharoitida Yangi O‘zbekiston yoshlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta’limi qanday strategik ahamiyat kasb etishi ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzu doirasida STEAM yondashuvining nazariy asoslari, kompetensiyalar tizimi, ta’lim jarayonidagi fanlararo integratsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari, jahon tajribasi (Finlandiya, AQSh va boshqa davlatlar) hamda milliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan modelning zarurati bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar.** STEAM ta’limi, global bilim maydoni, Yangi O‘zbekiston, yoshlar raqobatbardoshligi, raqamli iqtisodiyot, bir million o‘zbek dasturchisi, IT Park, robototexnika, kreativ fikrlash.

**Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ того, какое стратегическое значение имеет образование STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) в обеспечении конкурентоспособности молодежи Нового Узбекистана в условиях глобального образовательного пространства XXI века, цифровой экономики и инноваtsionного рынка труда. Также в рамках темы раскрываются теоретические основы подхода STEAM, система компетенций, экономические и социальные результаты междисциплинарной интеграtsiи в образовательном процессе, мировой опыт (Финляндия, США и другие страны), а также необходимость разработки модели, адаптированной к наtsiональной системе образования.

**Ключевые слова:** образование STEAM, глобальное образовательное пространство, Новый Узбекистан, конкурентоспособность молодежи, цифровая экономика, «Один миллион узбекских программистов», IT Park, робототехника, креативное мышление.

**Abstract.** This article provides a scholarly analysis of the strategic role of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) education in ensuring the competitiveness of New Uzbekistan’s youth within the global knowledge space of the 21st century, under the conditions of the digital economy and an innovation-driven labor market. The paper also examines the theoretical foundations of the STEAM approach, the related system of competencies, the economic and social outcomes of interdisciplinary integration in the educational process, international experience (Finland, the USA and other countries), as well as the necessity of developing a model adapted to the national education system.

**Key words:** STEAM education, global knowledge space, New Uzbekistan, youth competitiveness, digital economy, One Million Uzbek Coders, IT Park, robotics, creative thinking.

Hozirgi davrda jahon taraqqiyoti markazida bilim, innovatsiya va yuqori texnologiyalar turibdi. Global bilim maydoni tobora transmilliy xususiyat kasb etar ekan, inson kapitalining sifati, raqamli savodxonlik, muhandislik va kreativ kompetensiyalar har bir davlatning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiy forumi, OECD va boshqa nufuzli tashkilotlar hisobotlarida kelgusi oʻn yilliklarda mehnat bozori tarkibi keskin oʻzgarishi, odatiy, takroriy, “rutina” xususiyatga ega ishlarning avtomatlashtirish hisobiga qisqarishi, buning evaziga murakkab tahlil, kreativ dizayn, yuqori darajadagi kommunikatsiya va jamoada ishlashni talab qiluvchi kasblar ulushi sezilarli oshishi ta’kidlanadi. Shu jihatdan qaraganda, Yangi Oʻzbekiston sharoitida ta’lim tizimini tubdan yangilash, uni faqat bilim beruvchi emas, balki global raqobat sharoitida yurt yoshlarining intellektual salohiyatini roʻyobga chiqaradigan mexanizm sifatida tashkil etish zarurati paydo boʻldi.

Bu transformatsiyada STEAM ta’limi markaziy oʻrin egallaydi. Chunki u an’anaviy “fanni alohida oʻqitish” modelidan farqli ravishda, ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani real hayot muammolarini hal etish jarayonida integratsiyalashga qaratilgan yondashuvni taklif etadi. Ilmiy adabiyotlarda STEAM ta’limi konstruktivistik didaktika, faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuv va loyiha asosida oʻqitish gʻoyalari sintezidan iborat ekani qayd etiladi.

STEAM yondashuvi mohiyat e’tibori bilan oʻquvchi ongida “bilim – koʻnikma – kompetensiya – ijodkorlik” zanjirini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda ilmiy bilimlar abstrakt formulalar emas, balki konkret loyihalar, prototiplar, texnik yechimlar, raqamli mahsulotlar shaklida namoyon boʻladi.

Masalan, fizika darsida oʻquvchi faqat Ohm qonunini yodlab qolmaydi, balki sensorlar bilan ishlaydigan sodda aqlli yoritish tizimi yoki avtomatik sugʻorish prototipini yaratish jarayonida ushbu qonunni amaliy qoʻllashni oʻrganadi. Informatika darsida algoritm mavzusi, masalan, robototexnika platformasi yoki Arduino kontrolleri yordamida chiziq boʻylab yuruvchi robotni dasturlash orqali oʻzlashtiriladi. San’at va dizayn komponenti esa mazkur texnik yechimni inson uchun qulay, estetik va ergonomik koʻrinishga keltirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa STEAM oʻquvchilarni nafaqat alohida fanlar boʻyicha bilimga, balki kompleks kompetensiyalar tizimiga ega shaxs sifatida shakllantiradi. Bu kompetensiyalar tarkibiga kritik va tizimli fikrlash, muammolarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish, raqamli savodxonlik va algoritmik tafakkur, hamkorlikda ishlash, kommunikatsiya, oʻzini-oʻzi baholash va refleksiya, ijodiy tashabbus va tadbirkorlik ruhidagi yondashuv kiradi. Xalqaro tadqiqotlar aynan shunday kompetensiyalar global mehnat bozorida eng yuqori talabga ega boʻlayotganini koʻrsa tmoqda.

*Yangi Oʻzbekiston konsepsiyasi aynan shu maqsad* – yoshlar uchun global darajada raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratish atrofida shakllanmoqda. Raqamli iqtisodiyotga oʻtish, yashil energetika, transport va logistika, qurilish, qishloq xoʻjaligi, xizmatlar sektori kabi sohalarni modernizatsiyalash boʻyicha qabul qilinayotgan strategik dasturlar kelajakda ushbu tarmoqlarda ishlaydigan mutaxassislarning STEAM kompetensiyalariga ega boʻlishini talab etadi. Innovatsion iqtisodiyot uchun zarur boʻlgan mutaxassislar profili – dasturchi,

ma'lumotlar tahlilchisi, muhandis-dizayner, biotexnolog, energetik, IT-menejer, raqamli marketing mutaxassisi – barchasi STEAM bazasiga tayanadi.

Shunday sharoitda STEAM ta'limi O'zbekiston yoshlarini global bilim maydoni bilan bog'lovchi ko'prik sifatida qaralishi lozim. Ularning xalqaro olimpiadalar, startap tanlovlari, onlayn kurslar, ilmiy grantlar va transmilliy kompaniyalardagi ishtiroki uzluksiz STEAM muhitiga bevosita bog'liq.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni yangi texnologik bosqichga olib chiqish bo'yicha qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar, xususan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv jarayonini STEM tamoyillari asosida tashkil etmoqda, bu yerda besh yillik dasturlar bo'yicha matematika, informatika, muhandislikka ixtisoslashgan ta'lim berilmoqda va bu dasturlar Yangi O'zbekiston universiteti bakalavriat dasturlari bilan integratsiyalashgan.

Umumta'lim maktablarida dasturlash va robototexnikani o'quv dasturiga bosqichma-bosqich kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilinishi ham STEAM ekotizimining shakllanishida muhim qadam bo'ldi. 2020-yildan boshlab yuqori sinflarda dasturlash va zamonaviy kasblarga yo'naltirilgan o'quv modullarini joriy etish bo'yicha tashabbuslar ilgari surilgan bo'lib, 8-9 sinflarda o'quvchilarga dasturchi, dizayner, tarjimon kabi istiqbolli kasblar uchun zarur poydevor ko'nikmalarini berish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, ilmiy maqolalar O'zbekistonda robototexnika hali majburiy o'quv dasturiga to'liq integratsiyalashmaganini, biroq turli nodavlat o'quv markazlari, to'garaklar va xususiy maktablar orqali noformal shakldа jadal kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Raqamli ko'nikmalarni ommalashtirishda "Bir million o'zbek dasturchisi" (One Million Uzbek Coders) tashabbusi alohida ahamiyat kasb etadi. 2019-yilda Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda boshlangan ushbu loyiha orqali uzbekcoders.uz platformasida aholiga, ayniqsa yoshlar uchun, "data analytics, Android" dasturlash, "full-stack" va "front-end" rivojlantirish bo'yicha bepul onlayn kurslar taqdim etilmoqda. Loyihaning maqsadi – yoshlarning iste'dodini ro'yobga chiqarish, inson kapitalini rivojlantirish va kelajak mehnat bozori uchun zarur bo'lgan IT mutaxassislarini yetishtirishdan iborat. 2021-yilga kelib loyiha ishtirokchilari soni yarim million kishidan oshgani, g'oliblar uchun turli rag'batlar, jumladan sertifikatlar va ishga joylashuv imkoniyatlari taqdim etilgani qayd etilgan. 2024 yilda loyiha ikkinchi mavsumining ishga tushirilishi esa uning uzoq muddatli va barqaror xarakter kasb etayotganidan dalolat beradi.

Raqamli infratuzilmani kengaytirishda IT Park va uning hududiy markazlari alohida rol o'ynamoqda. IT Park tomonidan respublika bo'yicha yuzlab IT markazlar tashkil etilib, ularda kompyuter savodxonligi, veb dasturlash, mobil robototexnika asoslari, grafik dizayn kabi yo'nalishlar bo'yicha yoshlar tayyorlanmoqda.

Oliy ta'lim tizimida ham STEM va STEAM yo'nalishlari bo'yicha kurslar, yangi ta'lim dasturlari joriy etilmoqda. So'nggi yillardagi ilmiy ishlarda O'zbekiston oliy ta'limida STEMni joriy etish bo'yicha izlanishlar olib borilayotgani, fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsad qilinayotgani ta'kidlanadi.Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, bu borada maxsus konsepsiyalar va yirik dasturlar qabul qilinmoqda; "Besh million o'zbek AI prompteri" kabi yangi tashabbuslar ham aynan raqamli kompetensiyalarni ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Finlandiya, AQSh va boshqa ilg‘or davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, STEAM ta’limi eng avvalo ta’limni fanlararo integratsiya asosida qayta tashkil etishni, o‘qituvchi rolini “ma’lumot beruvchi shaxs”dan “loyiha rahbari va mentor”ga o‘zgartirishni, baholash tizimini esa reproduktiv bilimdan ko‘ra jarayon va kompetensiyalarni hisobga oluvchi modelga aylantirishni talab qiladi. Finlandiya maktablarida o‘quvchi aerodinamika qonuniyatlarini model samolyotlar dizayni, elektrotexnika asoslarini real loyihalar orqali o‘zlashtiradi; raqamli texnologiyalar dars jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. AQShda esa STEAM ta’limi sanoat va innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlari bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, ko‘plab maktab va kollejlarda robototexnika, kodlash, muhandislik loyihalari matematika va fizika kurslariga integratsiya qilingan, shu orqali ta’lim va mehnat bozori o‘rtasida mustahkam uzviylik vujudga keltirilgan. Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ham muhim xulosalarni taqdim etadi. Birinchidan, STEAM nafaqat poytaxt yoki elit maktablarga xos bo‘lgan “maxsus yo‘nalish”, balki butun ta’lim tizimining umumiy falsafasiga aylanishi kerak. Ikkinchidan, STEAM loyihalari iqtisodiyotning real sektori, mahalliy ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, xizmatlar sohasidagi real muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi zarur. Masalan, suv tejovchi irrigatsiya tizimlari, energiya samarador binolar, aqlli transport tizimlari, raqamli xizmat ko‘rsatish platformalari bo‘yicha maktab darajasida ham loyihalar ishlab chiqilishi mumkin. Uchinchidan, san’at va gumanitar fanlar STEAMdan chetlashtirilmasligi lozim; aksincha, u texnik tafakkurni insonparvarlik, madaniyat, kommunikatsiya bilan birlashtiruvchi kuch sifatida qaralishi kerak.

O‘zbekistonda STEAM ta’limini joriy etish bo‘yicha sezilarli natijalar bilan birga qator murakkab masalalar ham mavjud. Ilmiy tadqiqotlar robototexnika va dasturlashni umumta’lim dasturlariga integratsiya qilish jarayonida infratuzilma, pedagogik tayyorgarlik, ijtimoiy tenglik masalalari muhim to‘siqlar sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. Ayrim qishloq maktablarida laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, barqaror internet tarmog‘i yetarli emas; bu esa STEAM loyihalarini to‘liq amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi. Shu bilan birga, an’anaviy pedagogik yondashuvdan STEAMga o‘tish o‘qituvchilardan yangi kompetensiyalar, o‘quv jarayonini qayta loyihalashni talab qilmoqda.

Shunga qaramay, O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi islohotlar, xususan Prezident maktablari, “Bir million o‘zbek dasturchisi”, IT Park markazlari, raqamli ko‘nikmalar dasturlari, oliy ta’limda STEM kurslarini kengaytirish kabi tashabbuslar milliy STEAM ekotizimi barpo etilayotganidan dalolat beradi. Agar ushbu tashabbuslar o‘zaro uzviy bog‘langan, strategik konsepsiyaga asoslangan yagona tizimga birlashtirilsa, Yangi O‘zbekiston yoshlarining global bilim maydonidagi ishtiroki yanada faol va samarali bo‘lishi tabiiy.

## Adabiyotlar

1. Sobirova, N. STEAM ta’lim metodologiyasi va fanlararo integratsiya // Xalq ta’limi. – T., 2023. – 2(1), 45-53.

2. Shodmonov, G‘., Ahmedov, Sh. STEM kompetensiyalari asosida dars jarayonini tashkil etish // Pedagogika va psixologiya. – T., 2021. – № 4(3). – B. 102-109.

3. Ibragimov, A. (2020). STEAM ta’limining nazariy asoslari va amaliyotga joriy etish yo‘llari // Ta’lim, fan va innovatsiya, 1(5), 33-40.

4. Bybee, R.W. (2013). The case for STEM education: challenges and opportunities. National science teacher’s association press.

5. Honey, M., Pearson, G., Schweingruber, H. (2014). STEM Integration in K–12 education: status, prospects, and an agenda for research // National Academies Press.
6. Kelley, T.R., Knowles, J.G. (2016). A conceptual framework for integrated STEM education // International Journal of STEM education, 3(1), 1-11.

## ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРНАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ «ЭТНОГРАФИЯ И АНТРОПОЛОГИЯ»

**Адилова Зилола Хушнудовна, самостоятельный соискатель Узбекского государственного университета мировых языков, PhD**

**Аннотация.** В статье рассмотрены особенности формирования интернациональной культуры студентов направления «Этнография и антропология». Проанализированы теоретические основы понятия интернациональной культуры, ее значение в профессиональной подготовке будущих этнографов и антропологов. Особое внимание уделено педагогическим условиям, способствующим развитию толерантности, межкультурной компетентности, уважения к культурному разнообразию и готовности к конструктивному взаимодействию с представителями различных народов и этнических групп.

**Ключевые слова:** интернациональная культура, этнография, антропология, межкультурная коммуникация, толерантность, культурное разнообразие, студенты, профессиональная подготовка.

В современных условиях глобализации и активного межкультурного взаимодействия особую актуальность приобретает проблема формирования интернациональной культуры молодежи. Развитие международного сотрудничества, расширение академической мобильности и усиление культурных контактов требуют подготовки специалистов, способных эффективно взаимодействовать с представителями различных национальностей и культур. Особенно важное значение данный вопрос имеет для студентов направления «Этнография и антропология», профессиональная деятельность которых непосредственно связана с изучением этнических процессов, традиций, культурных ценностей и особенностей различных народов.

Интернациональная культура представляет собой интегративное качество личности, включающее систему знаний о культурном многообразии мира, уважительное отношение к представителям других национальностей, способность к межкультурному диалогу и готовность к сотрудничеству в поликультурной среде. Формирование данной культуры способствует развитию гуманистического мировоззрения, укреплению межнационального согласия и предотвращению проявлений дискриминации и этнической нетерпимости [1].

Особенностью подготовки студентов направления «Этнография и антропология» является постоянное обращение к вопросам этнической идентичности, культурного наследия и межэтнических отношений.

В процессе обучения студенты изучают историю народов мира, особенности их материальной и духовной культуры, традиции, обычаи и социальные институты.

Такой образовательный контекст создает благоприятные условия для формирования интернациональной культуры и развития межкультурной компетентности.

Одним из важных факторов формирования интернациональной культуры является содержание образовательных программ. Учебные дисциплины, связанные с этнологией, социальной антропологией, культурологией, историей цивилизаций и межкультурной коммуникацией, позволяют студентам получить глубокие знания о многообразии культурных систем и особенностях взаимодействия различных этнических групп. В результате обучающиеся осознают ценность культурного разнообразия и значимость сохранения культурного наследия человечества.

Не менее важную роль играет организация практической деятельности студентов. Проведение этнографических экспедиций, полевых исследований, участие в научных конференциях и культурно-просветительских мероприятиях способствует непосредственному взаимодействию обучающихся с представителями различных этнических сообществ. Практический опыт общения помогает преодолевать стереотипы и формировать объективное представление о культурных особенностях различных народов.

Особое значение в формировании интернациональной культуры имеют современные педагогические технологии. Эффективными являются методы проектного обучения, проблемного обучения, кейс-метод, дискуссии, круглые столы и тренинги по межкультурной коммуникации. Использование интерактивных форм обучения способствует развитию навыков сотрудничества, толерантности и способности к конструктивному разрешению межкультурных конфликтов.

Важным педагогическим условием выступает создание поликультурной образовательной среды. Такая среда обеспечивает возможность постоянного межкультурного взаимодействия студентов, способствует развитию уважения к различным культурным традициям и формированию позитивного отношения к представителям других национальностей. В условиях многонационального общества особую значимость приобретает воспитание культуры межнационального общения, основанной на принципах равноправия, взаимного уважения и сотрудничества [2].

Следует отметить, что формирование интернациональной культуры является длительным и целенаправленным процессом. Он предполагает развитие когнитивного, эмоционально-ценностного и поведенческого компонентов личности. Когнитивный компонент включает знания о культуре различных народов и особенностях межкультурного взаимодействия.

Эмоционально-ценностный компонент отражает отношение личности к представителям других культур, степень толерантности и готовности к диалогу. Поведенческий компонент проявляется в способности эффективно взаимодействовать в многонациональной среде и применять полученные знания на практике [3].

Таким образом, формирование интернациональной культуры студентов направления «Этнография и антропология» является важной составляющей их профессиональной подготовки. Эффективность данного процесса обеспечивается комплексным использованием содержания профессионального образования, современных педагогических технологий, практической деятельности и поликультурной образовательной среды.

Развитая интернациональная культура способствует подготовке высококвалифицированных специалистов, способных успешно работать в условиях культурного многообразия современного общества.

**Литература**

1. Садохин А.П. Межкультурная коммуникация. – М.: Альфа-М, 2022.
2. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. – М.: Аспект Пресс, 2021.
3. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2020.
4. Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса. – М.: Наука, 2019.
5. Карнышев А.Д. Основы межкультурного взаимодействия. – СПб.: Питер, 2021.

## YOSHLAR TARBIYASI VA TA’LIMIGA BAG‘ISHLANGAN PODKAST HAMDA VIDEOKONTENT YARATISH, ULARNI OMMALASHTIRISH VA TA’SIRCHANLIK DARAJASINI OSHIRISH YO‘LLARI

**Alibayeva Dinara Azamat qizi, Toshkent shahar Yashnobod tumani 255-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda yoshlar tarbiyasi va ta’limi sohasida milliy podkast hamda videokontent yaratish, ularni ommalashtirish va ta’sirchanligini oshirishning samarali yo‘llari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar tarbiyasi, ta’lim, milliy qadriyatlar, podkast, videokontent, ommalashtirish, ta’sirchanlik, interaktiv media, ijtimoiy tarmoqlar, motivatsion hikoyalar, zamonaviy texnologiyalar.

Yoshlar tarbiyasi va ta’limi bugungi kunda nafaqat pedagoglar, balki butun jamiyat zimmasidagi dolzarb vazifalardan biridir. Rivojlanayotgan texnologiyalar, internet va ommaviy axborot vositalarining ta’siri ortib borayotgan bir paytda, yoshlarning ongiga, dunyoqarashiga va qadriyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan vositalar yaratish alohida e’tibor talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, milliy podkastlar va videokontentlar yoshlar tarbiyasi hamda ta’limida kuchli platforma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy meros va zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan podkastlar va videodarslar yosh avlodga milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni singdirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bunday kontentlar nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, fikrlash madaniyatiga va ijtimoiy faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq, bunday kontentlarni yaratish va ommalashtirishda muayyan muammolar ham mavjud. Avvalo, podkast va videolarning mavzusi, shakli va tili yoshlar uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lishi lozim. Ular zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan, kreativ yondashuvlarga ega bo‘lishi, yoshlarning e’tiborini torta oladigan darajada professional tarzda tayyorlanishi kerak. Buning uchun esa tajribali pedagoglar, psixologlar, kontent yaratuvchilar, jurnalistlar va yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar birgalikda ishlashi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, podkastlar va videolarni ommalashtirishda ijtimoiy tarmoqlarning, ayniqsa TikTok, YouTube, Telegram va Instagram kabi platformalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Yoshlar orasida mashhur bo‘lgan bloggerlar, san’atkorlar, sportchilar va ijtimoiy faol shaxslarni kontentga jalb etish orqali ta’sirchanlik darajasini oshirish mumkin. Shu bilan birga, tanlovlar, viktorinalar, jonli efirlar va interaktiv

muhokamalar orqali auditoriya bilan faol muloqotga kirishish kontentni yanada jonli va hayotiy qiladi. Bundan tashqari, podkast va videokontentlar nafaqat shahar yoshlari, balki chekka hududlarda yashovchi o‘smirlar uchun ham ochiq va qulay bo‘lishi kerak. Bu maqsadda ularni mobil ilovalar, radio, televizion kanallar yoki maktablar va kutubxonalar orqali ham tarqatish mumkin. Mahalliy tillarda subtitrlar, oddiy va tushunarli nutq uslubidan foydalanish orqali kontentga bo‘lgan talabni yanada kengaytirish mumkin.

Shuningdek, milliy podkast va videokontentlar mazmunini boyitish uchun interaktiv, hikoya asosidagi yondashuvlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Masalan, hayotiy voqealar asosida yaratilgan qisqa hikoyalar, tarixiy shaxslar hayoti va mehnati, oddiy yoshlarning o‘z orzulari sari intilishi haqidagi motivatsion hikoyalar orqali yoshlar bilan hissiy bog‘lanish hosil qilish mumkin. Ayniqsa, tengdoshlari yoki biroz katta bo‘lgan yoshlarning o‘z tilida, o‘z tajribasi asosida so‘zlagan hikoyalari yoshlar ongida kuchli ijobiy taassurot qoldiradi. Bu esa kontentni chinakam ta’sirchan vositaga aylantiradi.

Yana bir muhim jihat – kontent monitoringi va tahlilidir. Yaratuvchilar o‘z podkast va videodasturlarining auditoriya orasida qanday qabul qilinayotganini muntazam o‘rganib borishlari, foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilishlari zarur. Buning uchun maxsus so‘rovnomalar, “feedback” tizimlari, sharhlar asosida tahlillar olib borish, ijtimoiy tarmoqlarda trendlarni kuzatish orqali kontent sifatini oshirishga xizmat qiladigan takliflar ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, yoshlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatlar tashkil qilish, ularning qiziqishlarini o‘rganish, o‘zlarini kontent ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish ham samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Podkast va videokontentlarni samarali taqsimlash masalasida esa tarmoq ko‘rinishidagi hamkorlik modelini yo‘lga qo‘yish foydali bo‘ladi. Ya’ni, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, nodavlat tashkilotlar, mahalla va yoshlar markazlari bilan hamkorlikda kontentlarni tarqatish, ularni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish orqali ulardan ko‘proq yoshlar foydalanishini ta’minlash mumkin. Shu bilan birga, turli mavzular bo‘yicha tematik podkastlar seriyasini yaratish – masalan, “Vatanparvarlik saboqlari”, “Kasb tanlashga yo‘l”, “Axloqiy qadriyatlar va zamonaviy yoshlar”, “Oila va jamiyatdagi yoshlar roli” kabi mavzularda – maqsadli kontent orqali turli yosh toifalariga murojaat qilish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuvlar qatorida sun’iy intellekt, ovozli yordamchilar va AR/VR texnologiyalar asosida tayyorlangan kontentlar orqali ham yangi avlod bilan muloqot qilish samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, yoshlar mobil ilovalar orqali interaktiv savol-javoblar, virtual sayohatlar, o‘zlari tanlagan qahramonlar orqali axborot olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasi va ta’limiga bag‘ishlangan milliy podkast hamda videokontentlar zamonaviy texnologiyalar vositasida milliy g‘oyalar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ongni shakllantirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ularni yaratish va ommalashtirishda tizimli yondashuv, professional ijodkorlar ishtiroki va yoshlarning ehtiyojlariga mos formatlarni tanlash muhim omil hisoblanadi. Ana shunda bunday kontentlar nafaqat ta’limiy jarayonning bir qismiga, balki yosh avlod tarbiyasining samarali vositasiga aylanishi mumkin.

**Adabiyotlar**

1. Quronov M.. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz... – T.: Ma’naviyat, 2014.

2. Inoyatova M. Ta’limiy qadriyatlarni aniqlash va pedagogik amaliyotgan tatbiq etish. – T., Шарк, 2010. – 156 b.
3. Mavrulov A. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2008.

## ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ В ДУХЕ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

**Алибаева Нигора Равильевна, директор школы № 255**
**Юнусабадского района городаа Ташкента**

**Аннотация.** В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты воспитания учащихся в духе гражданской активности и социальной ответственности в современных условиях развития системы образования. Проанализирована сущность гражданской активности как социально значимого качества личности, содержание социальной ответственности и педагогические условия их формирования у обучающихся. Особое внимание уделено взаимодействию образовательной организации, семьи и общественных институтов в воспитательном процессе. Представлены эффективные формы и методы организации воспитательной работы, направленной на развитие активной гражданской позиции школьников.

**Ключевые слова:** гражданская активность, социальная ответственность, воспитание, учащиеся, гражданское воспитание, школа, семья, общество, духовно-нравственное развитие.

Современное общество предъявляет новые требования к личности выпускника образовательной организации. Помимо высокого уровня знаний и профессиональной подготовки, особую значимость приобретают такие качества, как гражданская зрелость, ответственность, инициативность, способность принимать самостоятельные решения и активно участвовать в общественной жизни. Именно поэтому воспитание учащихся в духе гражданской активности и социальной ответственности становится одним из приоритетных направлений государственной образовательной политики.

Развитие демократического общества невозможно без формирования поколения, способного осознавать свои права и обязанности, уважать закон, проявлять инициативу, участвовать в решении общественно значимых вопросов и нести ответственность за результаты собственной деятельности. Следовательно, образовательные учреждения должны создавать условия для формирования гражданской культуры, патриотизма и социальной компетентности обучающихся.

Гражданская активность представляет собой интегративное качество личности, проявляющееся в сознательном участии человека в общественной жизни, уважении государственных и общественных институтов, соблюдении правовых и нравственных норм, а также готовности вносить личный вклад в развитие общества.

В педагогической литературе гражданская активность рассматривается как результат комплексного воздействия образовательной среды, семейного воспитания и общественных институтов. Ее структура включает когнитивный, ценностно-мотивационный, эмоциональный и деятельностный компоненты. Когнитивный компонент предполагает наличие знаний о государстве, обществе, правах человека, гражданских обязанностях и социальных институтах. Ценностно-мотивационный

компонент отражает сформированность нравственных убеждений, патриотических чувств, уважения к законам и общественным ценностям. Эмоциональный компонент характеризуется переживанием личной причастности к судьбе Родины, ответственности за происходящие процессы. Деятельностный компонент выражается в реальном участии школьников в общественно полезной деятельности, волонтерских проектах, ученическом самоуправлении и социальных инициативах.

Формирование гражданской активности является длительным педагогическим процессом, требующим системной организации воспитательной деятельности на всех уровнях образования. Социальная ответственность представляет собой осознанную готовность личности соблюдать моральные и правовые нормы, выполнять общественные обязанности и принимать последствия собственных решений и поступков. У школьников социальная ответственность проявляется через добросовестное отношение к учебной деятельности, уважение к окружающим, соблюдение школьных правил, участие в коллективной деятельности, бережное отношение к природе, культурному наследию и общественному имуществу.

В процессе воспитания важно формировать у учащихся понимание того, что личное благополучие невозможно без благополучия общества. Именно поэтому развитие социальной ответственности тесно связано с воспитанием нравственных качеств личности, культуры поведения, толерантности, взаимопомощи и уважения к человеческому достоинству. Современная школа должна не только передавать знания, но и создавать условия для приобретения обучающимися собственного социального опыта через практическое участие в различных видах общественной деятельности.

Эффективность формирования гражданской активности значительно возрастает при тесном взаимодействии школы, семьи и общественных организаций. Школа является ведущим институтом социализации личности. Именно здесь учащиеся получают первые навыки коллективной деятельности, общественного взаимодействия, принятия решений и ответственности за их выполнение. Большое значение имеют классные часы, воспитательные проекты, школьное самоуправление, дебаты, научные конференции, акции милосердия и экологические мероприятия. Семья формирует первоначальные представления ребенка о моральных ценностях, уважении к старшим, труду, Родине и обществу. Родители своим личным примером оказывают наиболее сильное влияние на развитие гражданской позиции детей. Не менее важную роль играют общественные организации, органы местного самоуправления, молодежные объединения, культурные учреждения и средства массовой информации. Их совместная деятельность позволяет создать единое воспитательное пространство, способствующее развитию активной гражданской позиции учащихся.

*Практика показывает, что успешное воспитание гражданской активности возможно при соблюдении ряда педагогических условий:* Во-первых, необходимо создавать воспитательную среду, основанную на принципах гуманизма, уважения личности, сотрудничества и социальной справедливости. Во-вторых, требуется обеспечить активное участие учащихся в социально значимой деятельности. Чем больше школьники вовлечены в реальные общественные проекты, тем эффективнее формируются ответственность, инициативность и лидерские качества. В-третьих, особое внимание следует уделять развитию критического мышления. Современный гражданин должен уметь анализировать информацию, самостоятельно принимать решения и оценивать последствия своих действий. В-четвертых, необходимо

использовать интерактивные педагогические технологии: проектное обучение, кейс-метод, дискуссии, деловые игры, моделирование социальных ситуаций, проблемное обучение и волонтерскую деятельность. В-пятых, воспитательная работа должна иметь непрерывный и системный характер, охватывая учебную и внеурочную деятельность.

Наиболее эффективными средствами формирования гражданской активности являются: деятельность органов ученического самоуправления; социальное проектирование; волонтерское движение; участие в благотворительных акциях; экологические проекты; патриотические мероприятия; исследовательская деятельность; встречи с общественными деятелями; участие в молодежных форумах; организация школьных дебатов; проведение круглых столов; реализация проектов гражданского образования.

Особое место занимает проектная деятельность, которая позволяет учащимся самостоятельно выявлять социальные проблемы, искать пути их решения, распределять обязанности в коллективе и оценивать результаты своей работы. Подобная деятельность способствует развитию ответственности, лидерства, коммуникативной культуры и социальной инициативы.

Таким образом, воспитание учащихся в духе гражданской активности и социальной ответственности является важнейшим направлением современной педагогики. Оно обеспечивает формирование личности, способной принимать осознанные решения, уважать права других людей, соблюдать общественные нормы и активно участвовать в жизни государства и общества.

**Литература**

1. Сайдалиева Н.З. Ёшларни оилавий ҳаетга тайерлашнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари: Фалс. фанл. номз. ... Дис. – Т., 2005.

2. Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли: Фалс. фанл. д-ри … Дис. – Т., 2006.

3. Попова М.Н., Прокопьева М.М. Социальнопедагогическое партнерство школы и семьи как средство повышения родительской компетентности // Современные наукоемкие технологии. – М., 2015.

4. Бикметов Е.Ю. Взаимодействие семьи и школы в социализации индивида // Социологические исследования. – 2007.

5. Харченко С.А. Развитие культуры сотрудничества будущего педагога // Вестник Восточно-Сибирской государственной академии образования, 2010.

## TA’LIM TIZIMIDA XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA YESHLARNI PEDAGOGIK FAOLLIGINI OSHIRISH

**Alimov Mirsardor Soatovich, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti**
**Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish**
**texnologiyalari ilmiy tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi**

Ma’lumki, mamlakatimiz mustaqilligi milliy ta’lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, oliy o‘quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o‘quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil

etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri xisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan MDH davlatlarida birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida qat’iy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning amalga kiritilishi yangi bosqichni boshlab berdi. Natijadaб ta’lim tizimi va mazmun-mohiyati bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqib takomillashtirildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning “O‘zbek modeli” hayotga tadbiq etilmoqda. Hozirgi kunda oliy ta’lim muasasalarini boshqarish soxasida xar bir raxbar xodimlar va professor-o‘qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim. Ushbu dasturda oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari jumladan: O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari xamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari bayon etilgan. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan ta’lim va tarbiyajarayonlarini tashkil etishda: O‘zbekiston Respublikasining 4 Konstitutsiyasi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, Kadrlar tayorlash Milliy dasturi, farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta’lim va tarbiya jarayonlarini sub’ektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jixatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu xolatlar oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jixatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi. pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, normativ hujjatlarni qo‘llashdagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari to‘g‘risida ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

*Modulning vazifalari:* oliy ta’limning normativ-huquqiy hujjati sifatida qonun hujjatlarini tahlil etish; oliy ta’limning normativ-huquqiy hujjati sifatida qonun osti hujjatlarini tahlil etish; tinglovchilarda normativ-huquqiy hujjatlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirish; oliy ta’limga tegishli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatish; normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash; tinglovchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish. pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, normativ

hujjatlarni qo‘llashdagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari to‘g‘risida ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan: ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan; o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

“Ta’lim-tarbiya normalari” jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Oliy ta’limda zamonaviy yondashuvlar” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning me’yoriy-huquqiy hujjatlar bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar**

1. 1997-yil 6-oktabrdagi 1869-son “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islox qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. 2010-yil 28-iyuldagi 4232-sonli “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

## ТАЛАБАЛАРДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСПЕКТЛАРИ

**Арипова Ш.А., ТДИУ тадкикотчиси**

**Аннотация.** Мутахассис меҳнат жамоасининг, микро ёки макро гуруҳнинг вакили саналади. Замонавий талабга кўра мутахассис касбий фаолиятда ўзини ташкилотчи, ташаббускор, лидер сифатида намоён эта олиши зарур. Мутахассисниннг келгусида раҳбар сифатида фаолият юритиши эса, унинг бошқарув компетенцияларига эга бўлишини янада долзарблашувини таъминлайди.

**Таянч сўзлар:** ёндашув, индивидуал ёндашув, талаба, бошқариш, компетенция, бошқарув компетенцияси.

**Ключевые слова:** подход, индивидуальный подход, студент, управление, компетенция, управленческая компетенция.

**Key words:** approach, individualized approach, student, management, competence, managerial competence.

Анъанавий ёндашувга кўра, “бошқарув”, “бошқариш” тушунчалари муайян тизимда етакчилик қилувчи юқори (олий) органлар, ўрта бўғин идора, ташкилотлар, хусусан, хўжалик объектлари, шунингдек, уларнинг ҳамда раҳбар ёки масъул шахсларнинг  фаолиятига нисбатан қўлланиб келинган. Масалан, таълим тизими мисолида кўрсатилса, барча босқичлардаги педагогик жараён тегишли вазирлик,

агентлик, бошқарма каби етакчи органлар томонидан бошқарилади. Шу сабабли сабабли “бошқарув”, “бошқариш” тушунчалари, асосан, мазкур органларнинг фаолиятига, уларнинг раҳбар ва масъул шахсларининг расмий ҳаракатларига нисбатан қўлланилади. Бироқ, бундай ёндашув тўғри эмас. Бинобарин, ҳар қандай жараён, фаолият, воқеа ва ҳодиса ҳам бошқарилади. Юзага келиши маълум сабабларга асослангани каби уларнинг кечиши ва якуни ҳам маълум тартибга асосланади, бошқача айтганда, бошқарилади. Яна бир жиҳати, бошқариш дейилганда кўп ҳолатларда иқтисодий тизим ва унинг ҳолати инобатга олинган. Яъни, “хўжалик объектининг иқтисодий ҳолатини тартибга солиш ва йўналтириш; корхона, муассаса, ташкилот ва шу кабиларнинг ишини идора қилиш, йўлга солиш”.

Талабаларда бошқарув компетенцияларини ривожлантириш ва бу жараёнда уларнинг индивидуал хусусиятларини инобатга олиш тўғрисида сўз юритишдан аввал “бошқарув компетенцияси” тушунчасининг моҳияти ҳамда бошқарув компетенциялари сифатида акс этадиган шахсга хос сифатлар хусусида сўз юритиш жоиздир.

“Компетенция” тушунчаси илк марта ўтган асрнинг 70-йилларида бизнес соҳасида муваффақиятга эришадиган мутахассис фазилатларини белгилаш муаммоси билан боғлиқ ҳолда қўлланилган. Дастлаб “компетенция” тушунчаси касбий билим ва малакаларга қарши ишлатилиб, ҳар қандай касбий фаолиятнинг мустақил, универсал таркибий асоси сифатида кўрилган.

“Билим” тушунчаси ўрнига “компетенция” атамаси Европада 1989 йилда саноатчиларнинг халқаро кўламда ташкил қилинган “Давра столи” шаклидаги анжуманининг моҳиятини ёритувчи “Европадаги таълим ва компетенция” номли ҳужжатда биринчи марта қўлланилган.

Мазкур ҳужжатда кўрсатилишича, “кадрларни ўқитиш ва тайёрлаш корхонанинг келгусидаги муваффақиятини белгиловчи энг муҳим стратегик инвестиция” бўлишига қарамай, “мутахассисларнинг амалий иқтисодий фаоллик, даромад каби тушунчалар моҳиятини етарлича тушунмаслиги” уларда компетентлик сифатларини ривожлантиришни тақозо қилинади.

Кўп ҳолатларда “компетенция” ва “компетентлик” тушунчалари ўзаро синоним сўзлар сифатида тушунилади. Педагогик лексиконда “компетенция” ва “компетентлик” тушунчалари илк марта 1957 йилда қўлланилган бўлиб, уларнинг тил истеъмолга киритилиши АҚШда ўқитиш тизимида юзага келган муаммо – таълим олувчиларда ўқиш, билим олишга бўлган қизиқиш, эҳтиёж ва интилишнинг кескин пасайиши билан боғлиқ бўлган.

Компетенция – шахс томонидан муайян фаолиятни ташкил эта олишга лаёқатлилик, уни ташкил этиш ҳуқуқига эга бўлиш; мутахассисга ўз зиммасидаги вазифаларни самарали бажариши ҳамда юқори натижаларга эришиши учун имкон берадиган билим, кўникма ва малакалар иборат шахсий ва ишчанлик сифатларининг мажмуи; тегишли соҳада муваффақиятли фаолият кўрсатиш учун тақозо қилинадиган нафақат билим, шу билан бирга, кўникма, малака, тажриба ҳамда шахсий сифатлардан таркиб топган қобилият.

Назарий таҳлил ҳамда юқорида келтирилган таърифларга таянган ҳолда айтиш мумкинки, компетенция – ҳар қандай фаолиятда билим, кўникма, малака ва тажриба негизида у ёки бу ҳаракатларни оқилона, тартибли ва муваффақиятли бажаришга

имкон берадиган қобилият. Бир неча компетенцияларнинг йиғиндиси шахс ёки мутахассисда тегишли компетентлик намоён бўлишини таъминлайди.

Луғавий талқинига кўра, “компетентлик” (ингл. “competence” – қобилият) тушунчаси эса, “фаолиятда назарий билимлардан самарали фойдаланиш, юқори даражадаги касбий малака, маҳорат ва иқтидорни намоён эта олиш; “шахс томонидан муайян соҳага оид назарий ва амалий билимларнинг ўзлаштирилиши натижасида у бўйича фаолият юритишга тайёрликни, тегишли соҳада маълумот ваколатларга эгалик”; “мутахассиснинг касбий фаолиятга нисбатан шахсий муносабатини ифодаловчи тегишли компетенцияларга эгалиги” ҳолатларини англатади.

Мутахассис ёки шахснинг компетентлиги ва уни ривожлантириш муаммосига оид тадқиқотларнинг мазмуни, етакчи ғоялари ва натижалари билан танишиш асосида айтиш мумкинки, компетентлик – фаолият мақсадига тўла эришишни кафолатловчи бир неча компетенцияларнинг йиғиндиси, мажмуи. Манбаларда “бошқарув компетенцияси” тушунчасининг моҳияти ҳам турлича ёритилади. Яъни, бошқарув компетенцияси – муайян вазифаларни самарали бажариш учун зарур бўлган касбий ва шахсий-ишчанлик малакаларининг ўзаро уйғун бирикмаси; раҳбарга ходимлар, ресурслар ҳамда ташкилот ичида кечаётган жараёнларни бошқаришга имкон берадиган малакаларнинг ўзаро уйғунлиги. Гарчи изоҳлар мазмунан бир-биридан айрим жиҳатларига кўра фарқлансада, бироқ, келтирилган изоҳларнинг мазмунида касбий ва шахсий-ишчанлик малакалар, уларнинг ўзаро уйғунлиги, бошқариш, вазифаларни бажариш каби тушунчалар асосий таянч компонентлар сифатида акс этади. Уларга таянган ҳолда раҳбар бошқарув фаолиятида кутилган муваффақиятга эришади, ташкилот фаолиятининг, ишлаб чиқариш жараёнининг самарадорлиги ошади. Айни ўринда шуни ҳам қайд этиб ўтиш жоиз, бошқарув компетенциялари раҳбар шахсидагина эмас, балки жамоада лидерлик қилувчи ҳамда жамоавий фаолият муваффақиятини таъминлашни ўз олдига мақсад қилиб қўйган масъул ёки масъул бўлмаган, бироқ, ижтимоий фаол ходимларга ҳам хос сифат, қобилият саналади.

Бизнинг фикримизча, бошқарув компетенцияси – раҳбар, масъул ёки ижтимоий фаол шахс томонидан тегишли ташкилот ҳамда меҳнат ёки ижодий жамоа мақсадларини тўлақонли рўйбга чиқариш, кутилган самарадорликка эришишга йўналтирилган бошқарув фаолияти (жараёни)нинг муваффақиятини таъминловчи билим, малака, тажриба ва шахсий сифатлар мажмуига эгалиги.

Раҳбар, масъул ва ижтимоий фаол шахснинг бошқарув компетенцияларига эга бўлиши жамоанинг халқаро ва маҳаллий меҳнат бозоридаги кучли рақобатга бардошли бўлиши, самарали фаолият юритиши, муваффақиятли қарорлар қабул қилиши, жамоани илҳомлантириши учун зарур шароитни яратишга хизмат қилади. Шу билан бирга раҳбарнинг бошқарув компетенцияларга эгалиги “унда мавжуд бўлган муҳим, зарур восита бўлиб, у ёрдамида раҳбар ташкилот, меҳнат ёки ижодий жамоа фаолиятини ривожлантириш, ходимлар касбий малакасини оширишга оид қарорларни қабул қилади, ривожлантириш ҳамда касбий ривожланиш бўйича қўшимча таълим олишга оид дастурларни ишлаб чиқади”.

Лидерлик, стратетик тафаккур, режалаштириш ва ташкил қилиш, муҳим масалалар бўйича қарорлар қабул қилиш: технологик, техник, коммуникатив ҳамда жамоа билан ишлай олиш компетенцияларига, шунингдек, иқтисодий-молиявий тафаккурга эгалик, ташкилотчилик, шахсий самарадорлик, доимий изланиш,

масъулиятни ўз зиммасига ола билиш; мажбуриятларни бажариш ва вақт устидан назорат қилиш раҳбар ёки масъул, ижтимоий фаол шахсларга хос энг муҳим фазилатлар саналади.

Шунингдек, бошқарув компетенциялари мажмуида яна кўплаб сифатлар акс этади. Улар: “жамоада самарали мулоқотни ташкил қилиш аҳамиятини баҳолаш олиш қобилиятига эгалик; ишчанлик мулоқоти шаклларини ва уларнинг мақсадларини фарқлай олиш малакасига эгалик; ахборотларни самарали қабул қилиш ҳамда узатиш лаёқатига эгалик; новербал (сўзсиз, юз ва кўз ифодаси (мимика) ва гавда, қўл, оёқ ҳаракатлари) орқали мулоқот қила олиш малакасига эгалик; саволларни бера олиш ва суҳбатни самарали бошқариш малакасига эгалик; суҳбатдошни фаол, диққат билан тинлай олиш малакасига эгалик; низоли вазиятлар келиб чиқишининг олдини олиш ва уларни оқилона ҳал қилиш тажрибасига эгалик; юқори самарадорликка эга жамоа йиғини, муҳокамасини ташкил қилиш лаёқатига эгалик.

Глобаллашув шароитида замонавий шахснинг шахсий ва касбий фазилатлар билан бирга бошқарув компетенцияларига эга бўлиши ўзига хос долзарблик касб этади. Бинобарин, бошқарув компетенцияларига эга шахс нафақат бошқаларга таъсир эта олади, балки унинг ўзи ҳам кескин ўзгаришларга тезкор мослаша олади. Шундай қилиб, назарий мазмунига кўра, бошқарув компетенциялари раҳбар, масъул ёки масъул бўлмаган, бироқ, ижтимоий фаол шахслар, ходимларга ҳам хос сифат, қобилият бўлиб, унга эгалик жамоавий фаолият ёки жараёнда фаолият муваффақиятини таъминлашни мақсад қилиб белгилаб, унга эришилишини таъминлайди. Раҳбар, масъул ва ижтимоий фаол шахсларда бошқарув компетенцияларининг намоён бўлиши жамоанинг халқаро ва маҳаллий меҳнат бозоридаги кучли рақобатга бардошли бўлиши, самарали фаолият юритиши, муваффақиятли қарорлар қабул қилиши, жамоани илҳомлантириши учун шароит яратади.

Бошқарув компетенцияларига эга бўлган раҳбар, масъул ва ижтимоий фаол шахсларнинг ташаббуси, амалий ҳаракати, жонбозлиги, жараёнга масъулиятли ёндашуви туфайли ташкилот пухта асосланган режага эга бўлади, низоли вазиятларнинг олди олинади. Шу билан бирга меҳнат бозоридаги мавжуд вазият инобатга олиниб, жамоанинг стратегик ривожланиш истиқболини белгиловчи дастур яратилиши туфайли ташкилот кучли рақобатга бардош бера олади. Зеро, бошқарув компетенцияларига эга шахс нафақат бошқаларга таъсир эта олади, балки унинг ўзи ҳам кескин ўзгаришларга тезкор мослаша олади.

**Адабиётлар**


1. Инназаров М.А. Малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолаш технологиялари: пед. фанл. бўйича фалс. фанл. д-ра (PhD) ... Дис.  – Т., 2018. – 19 б.
2. Панкова Т.В. Сущность, содержание и структура информационно-коммуникационной компетентности студента вуза // Концепт. – М., 2013. – Т. 4. – С. 206.
3. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. – Т., 2015.
4. Управленческие компетенции: оценка и развитие // https://www.startexam.ru/journal/likbez/upravlencheskie-kompetentsii-otsenka-i-razvitie.

5. Эшмаматов И.А. Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогларнинг ахборот-коммуникатив компетентлигини ривожлантириш: Пед. фанл. бўйича фалс. фанл. д-ри (PhD) ... Дис. – С., 2018. – 19-б.

## PEDAGOGLARNING SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**Asadullayev Laziz Maxammadiyevich, Jumanov Sa'dulla Lapasovich, O'zbekiston milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda pedagoglarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchilarning AI vositalaridan samarali foydalanishi ularning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Maqolada mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan yechimlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, pedagog kompetensiyasi, raqamli savodxonlik, ta'lim texnologiyalari, kasbiy rivojlanish, ChatGPT, AI savodxonligi.

XXI asrda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi barcha sohalarga, jumladan, ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. ChatGPT, Google Gemini, Microsoft Copilot kabi kuchli SI modellari bugungi kunda o'qituvchilar va talabalarning kundalik faoliyatiga kirib kelgan. Biroq bu imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish ko'p jihatdan pedagoglarda mavjud bo'lgan tegishli kompetensiyaga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim tizimini raqamlashtirish borasida muhim qadamlar qo'yilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 25-aprelda imzolangan farmoni asosida ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishni kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagoglarda SI vositalaridan foydalanish kompetensiyasi hali yetarli darajada shakllanmagan. Ushbu tezisda biz quyidagi asosiy muammolarga e'tibor qaratamiz: pedagoglarda AI kompetensiyasining hozirgi holati; bu kompetensiyani rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar; xorijiy tajriba va mahalliy sharoitga moslashtirilgan yechimlar.

### 1. PEDAGOGLARDA AI KOMPETENSIYASINING HOZIRGI HOLATI

Zamonaviy pedagogda AI kompetensiyasi bir nechta komponentdan iborat: texnik savodxonlik (AI vositalarini o'rganish va ishlatish qobiliyati), pedagogik integratsiya (AI ni o'quv jarayoniga maqsadli qo'shish), axloqiy va tanqidiy fikrlash (AI natijalarini baholash, plagiatni aniqlash, ma'lumot ishonchliligini tekshirish) hamda xavfsizlik ko'nikmalari (ma'lumotlar maxfiyligi va raqamli xavfsizlik). UNESCOning 2023-yilda nashr etilgan "AI kompetensiyasi: o'qituvchilar uchun qo'llanma" hisobotiga ko'ra, dunyo bo'yicha pedagoglarda AI savodxonligi quyidagi tarzda taqsimlangan: so'ralgan o'qituvchilarning 68 foizi AI vositalaridan xabardor, ammo ularning atigi 22 foizi ushbu vositalarni darsda muntazam qo'llaydi. O'zbekiston miqyosida o'tkazilgan mahalliy so'rovnomalar esa bu raqam yanada pastroq – taxminan 14-17 foiz darajasida ekanini ko'rsatadi.

Pedagoglarda AI kompetensiyasini baholashda TPACK (Texnologik-Pedagogik Kontent Bilim) modeli keng qo‘llaniladi [5]. Ushbu model uch asosiy bilim sohasining kesishmasida hosil bo‘luvchi pedagogik malakani ta’riflaydi: mavzu bo‘yicha kontent bilimi, pedagogik bilim va texnologik bilim. Pedagoglarda AI kompetensiyasi ana shu uchala yo‘nalishda bir vaqtda shakllanishi lozim.

## 2. ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNING TAHLILI

*Tadqiqotlar pedagoglarda AI kompetensiyasini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi bir necha asosiy muammoni aniqlagan:*

Birinchi muammo – texnik infratuzilma va raqamli tengsizlik. Ko‘pgina ta’lim muassasalarida yuqori tezlikli internet, zamonaviy qurilmalar va litsenziyalangan AI platformalarga kirish cheklangan. Bu holat, ayniqsa, qishloq va uzoq hududlardagi maktablarda keskin seziladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda maktablarning 40 foizida ishonchli internet aloqasi yo‘q.

Ikkinchi muammo – kasbiy tayyorgarlik va motivatsiya. Ko‘pchilik pedagog AI texnologiyalarini o‘rganishga nisbatan qo‘rquv yoki ishtiyoqsizlik his etadi. Buning sababi ko‘pincha ishdan bo‘shatilish xavfi, ortiqcha ishga yuklash va o‘z-o‘ziga ishonchning pastligi. Mitchell va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, pedagoglarda “texnofobiya” (yangi texnologiyalardan qo‘rquv) AIni qabul qilishning eng kuchli to‘sig‘i hisoblanadi.

Uchinchi muammo – sifatli o‘quv resurslari va yo‘naltirilgan treninglarning kamligi. Mahalliy tillar, xususan, o‘zbek tilida sifatli AI o‘quv kurslari juda kam. Bozorda mavjud kurslarning aksariyati umumiy IT yo‘nalishida bo‘lib, pedagoglarga xos ehtiyojlarni qondirmaydi.

To‘rtinchi muammo – axloqiy va huquqiy noaniqliklar. O‘qituvchilar akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va mualliflik huquqi masalalarida aniq yo‘riqnomasiz qolmoqda. Bu esa, AI vositalaridan foydalanishda ikkilanish va passivlikka olib keladi.

## 3. YECHIMLAR VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi muammolarga asoslanib, quyidagi kompleks yechimlar taklif etiladi:

3.1. Institusional yondashuv: AI kompetensiyasini kasbiy tayyorgarlik tizimiga integratsiya qilish. Oliy o‘quv yurtlarida pedagogika mutaxassisliklari uchun majburiy “AI pedagogikada” kursi joriy etilishi lozim. Finlandiya, Estoniya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AI savodxonligini oliy ta’lim bosqichida o‘qitish kelajak o‘qituvchilari kompetensiyasini sezilarli oshiradi.

3.2. Modulli malaka oshirish tizimi. Faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarga mo‘ljallangan qisqa muddatli (8-16 soatlik), amaliyotga yo‘naltirilgan modulli treninglar ishlab chiqilishi kerak. Ushbu modullar quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq: AI asoslari va atamashunoslik; dars rejalashtirish uchun AI vositalaridan foydalanish; baholash va nazorat jarayonlarida AI; akademik halollik va AI axloqi.

3.3. Tengdoshlar o‘rtasida o‘rganish (Peer Learning) modeli. Maktablar ichida “AI chempionlari” tarmog‘ini yaratish, ya’ni SI texnologiyalarini o‘zlashtirgan faol o‘qituvchilarga hamkasblarini o‘qitish vazifalari yuklatilishi samarali natija beradi. Microsoft va Google Education ning global tajribasi ushbu modelning iqtisodiy jihatdan ham, sifat jihatdan ham ustunligini tasdiqlaydi.

3.4. Mahalliy til va madaniyatga mos kontentni rivojlantirish. O‘zbek tilida AI bo‘yicha ochiq ta’lim resurslari (OTR) yaratish davlat va xususiy sheriklik asosida amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda Sarbon, INHA, WIUT kabi universitetlar va xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNDP) hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq.

3.5. Axloqiy tartibga solish va yo‘riqnoma. Vazirlik darajasida pedagoglar uchun AI foydalanish bo‘yicha aniq va tushunarli yo‘riqnoma ishlab chiqilishi zarur. Unda mualliflik huquqi, GDPR ga mos ma’lumotlar himoyasi, plagiat aniqlash va akademik halollik masalalari yoritilishi kerak. Pedagoglarda sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish bugungi raqamli jamiyat talablariga javob berish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bu yo‘lda texnik, ijtimoiy-psixologik va institutsional xarakterdagi to‘siqlar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun kompleks, ko‘p bosqichli yondashuv talab etiladi.

*O‘zbekiston sharoitida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilanishi lozim:* pedagogika oliy o‘quv yurtlarida AI kurslarini joriy etish; malaka oshirish tizimini modulli, amaliy va mahalliy tilde tashkil etish; tengdoshlar o‘rtasida o‘rganish madaniyatini shakllantirish; hamda axloqiy me’yorlarni tartibga soluvchi huquqiy bazani mustahkamlash. Ushbu chora-tadbirlar pedagoglarning AI kompetensiyasini tizimli ravishda oshirishga va ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni. – T., 2023.

2. Yusupov, B., Rahimov, S. (2023). O‘zbek maktablarida raqamli savodxonlik: muammo va istiqbollar // Pedagogika va psixologiya. – № 3. – B. 45-52.

3. UNESCO. (2023). Guidance for generative AI in education and research. UNESCO Publishing. – Paris. – 64 p.

4. Abdullayev, A. (2024). AI kompetensiyasi: o‘zbekistonlik pedagoglarda hozirgi holat // Ta’lim va fan. – № 1. – B. 12-19.

5. Mishra, P., Koehler, M.J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: a framework for teacher knowledge // Teachers college record. – Vol. 108(6). – P. 1017-1054.

6. OECD. (2023). Education at a Glance 2023: OECD Indicators. OECD Publishing. – Paris.

7. Mitchell, C., et al. (2022). Teacher technophobia and AI adoption barriers: a systematic review // Journal of educational technology. – Vol. 19(2). – P. 88-104.

8. Voogt, J., et al. (2022). International perspectives on AI competency for teachers // Computers & education. – Vol. 178. – 104397.

9. Google for education. (2023). AI-ready teachers: global impact report. – Mountain View: Google LLC.

## BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI IJTIMOIY MAS’ULIYAT RUHIDA TARBIYALASH MEXANIZMLARI

**Axmadaliyeva Muxarramoy Olimjon qizi, TPMI tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida o‘quvchilarni ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati, mazmuni va samarali mexanizmlari yoritilgan. Texnologiya fanining amaliy xarakteri o‘quvchilarda

mehnatsevarlik, jamoada ishlash, tabiatga ehtiyotkorona munosabat, tejamkorlik hamda jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya ta'limi, ijtimoiy mas'uliyat, boshlang'ich ta'lim, tarbiya, mehnat ko'nikmalari, jamoaviy faoliyat, ekologik madaniyat, loyihaviy ta'lim.

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat bilimli, balki ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli, tashabbuskor va faol fuqarolarni tarbiyalashdan iborat. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Zamonaviy maktablar, malakali pedagoglar va yangilanayotgan ta'lim dasturlari yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilmoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning axloqiy sifatlari, dunyoqarashi va hayotiy qadriyatlari shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, texnologiya darslari o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish orqali ularda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Texnologiya fanida o'quvchilar turli buyumlar yasash, materiallarga ishlov berish, guruhlarda ishlash va amaliy muammolarni hal qilish jarayonida mehnatning jamiyat hayotidagi o'rni hamda o'z faoliyatining natijalari uchun javobgarlikni anglab boradilar.

Ijtimoiy mas'uliyat – bu shaxsning o'z harakatlari va qarorlarining jamiyat, atrof-muhit hamda boshqa insonlarga ta'sirini anglagan holda faoliyat yuritishidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ijtimoiy mas'uliyat quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish; jamoa bilan hamkorlikda ishlash; sinf mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; tabiat va atrof-muhitni asrash; mehnat natijalarini qadrlash; boshqalarga yordam berish va hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish masalalari jahon va mahalliy pedagogikasida keng o'rganilgan. Xususan, sharq mutafakkirlaridan Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani "hayot-mamot masalasi" deb atab, bolada mas'uliyatni shakllantirishda muhitning rolini alohida ta'kidlagan. Pedagog olimlardan B. To'xliyev o'z tadqiqotlarida milliy qadriyatlarni ta'lim mazmuniga singdirishning uslubiy asoslarini ko'rsatib bergan bo'lsa, xorijiy tadqiqotchilardan L. Kohlberg axloqiy rivojlanish bosqichlari orqali ijtimoiy mas'uliyatning shakllanish mexanizmlarini tahlil qilgan. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida R. Safarova ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda milliy-madaniy komponentning ahamiyatini chuqur tadqiq etgan.

**Texnologiya darslarida ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalash mexanizmlari**

**1. Jamoaviy faoliyatni tashkil etish.** Guruh va jamoalarda bajariladigan amaliy topshiriqlar o'quvchilarda hamkorlik, o'zaro yordam va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Har bir o'quvchi umumiy natijaga o'z hissasini qo'shishi lozimligi sababli, ular o'z vazifalarini sidqidildan bajarishga intiladilar. Masalan, sinf uchun dekorativ ko'rgazma tayyorlash yoki maket yaratish jarayonida o'quvchilar vazifalarni taqsimlaydi, bir-biriga ko'maklashadi va yakuniy natija uchun javobgarlikni his etadi.

**2. Loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.** Loyiha asosida ishlash o'quvchilarda mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi. O'quvchilar ma'lum bir muammoni aniqlash, rejalashtirish, mahsulot yaratish va natijani taqdim etish bosqichlarida faol ishtirok etadilar. Masalan, "Chiqindilardan foydali buyum yaratamiz" loyihasi orqali bolalar ekologik muammolar haqida bilimga ega bo'lib, qayta ishlashning ahamiyatini tushunadilar.

**3. Ekologik tarbiya elementlarini integratsiyalash.** Texnologiya darslarida tabiiy va ikkilamchi materiallardan foydalanish o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Materiallarni tejab ishlatish, chiqindilarni saralash va qayta foydalanish bo‘yicha topshiriqlar bolalarda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Bunday faoliyat o‘quvchilarning ekologik ongini oshirish bilan birga, ularda tabiat boyliklarini asrash zarurligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlaydi.

**4. Mehnat madaniyatini shakllantirish.** Texnologiya darslarida ish joyini tartibli saqlash, mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish va ishni sifatli bajarishga o‘rgatish orqali mas’uliyat hissi tarbiyalanadi. O‘quvchilar bajarilgan ish natijasini baholash va kamchiliklarni bartaraf etishga odatlanadilar. Bu jarayon ularda intizomlilik, aniqlik va javobgarlik kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi.

**5. Rag‘batlantirish va refleksiya usullaridan foydalanish.** O‘quvchilarning ijobiy xatti-harakatlarini e’tirof etish va rag‘batlantirish ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlaydi. Dars yakunida o‘tkaziladigan refleksiya mashg‘ulotlari esa o‘quvchilarga o‘z faoliyatini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini baholash imkonini beradi. Masalan, “Bugun men jamoaga qanday foyda keltirdim?” yoki “Ishimning qaysi jihatini yaxshilashim mumkin?” kabi savollar orqali o‘quvchilar o‘z harakatlari ustida fikr yuritadilar.

**Pedagogik shart-sharoitlar.** Texnologiya darslarida ijtimoiy mas’uliyatni samarali shakllantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim hisoblanadi: darslarning amaliy va hayotiy mazmunda tashkil etilishi; o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; hamkorlikka asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanish; ota-onalar bilan uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalarni integratsiyalash.

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslari o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Jamoaviy ishlar, loyihaviy faoliyat, ekologik tarbiya, mehnat madaniyati va refleksiv yondashuvlar orqali o‘quvchilarda javobgarlik, tashabbuskorlik, hamkorlik va tabiatga ehtiyotkorona munosabat kabi muhim sifatlar rivojlanadi. Natijadaб jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, mehnatsevar va mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashga erishiladi.

**Adabiyotlar**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – T.: Adolat, 2020.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
3. Kohlberg L. Essays on moral development – San Francisco: Harper & Row, 1981.
4. Safarova R. va boshq. O‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. – T.: Fan, 2009. – 128 b.
5. To‘xliyev B. Pedagogik mahorat asoslari. – T., 2015. – 210 b.


## XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA YOSH AVLODNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT RUHIDA TARBIYALASH: MUAMMO VA YECHIMLAR


**Ahmadova Kamola Ahmad qizi, TPMI tayanch doktoranti,**
**Turabova Lobar Husen qizi, TPMI tayanch doktoranti**



**Annotatsiya.** Mazkur tezisda xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari hamda ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlari tahlil qilingan. AQSh, Finlyandiya, Yaponiya va Singapur ta’lim tizimlari misolida fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga

qaratilgan yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimida mazkur tajribalarni joriy etish imkoniyatlari asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik kompetensiyasi, xalqaro tajriba, tarbiya, yoshlar siyosati, global fuqarolik, ta’lim.

Bugungi kunda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalari faqatgina an’anaviy fuqarolik tarbiyasi doirasida emas, balki XXI asr kompetensiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan «Learning Compass 2030» konsepsiyasida o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatli ishtirok etishi, jamoatchilik manfaatlariga daxldorlik hissini namoyon qilishi, barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilishi hamda global muammolar yechimiga hissa qo‘sha olishi zamonaviy ta’limning kutilayotgan natijalari sifatida belgilangan.

Shuningdek, UNESCO tomonidan ilgari surilgan Global Citizenship Education (GCED) konsepsiyasi yoshlarni mahalliy, milliy va global darajadagi ijtimoiy jarayonlarda faol qatnashishga tayyorlashni nazarda tutadi. Mazkur konsepsiya uch asosiy komponentga tayanadi: **kognitiv komponent** (fuqarolik va ijtimoiy bilimlar), **ijtimoiy-emotsional komponent** (bag‘rikenglik, empatiya, hamkorlik) hamda **xulq-atvor komponenti** (ijtimoiy tashabbuskorlik, ko‘ngillilik, mas’uliyatli qaror qabul qilish). Ushbu yondashuv yosh avlodda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ham yoshlarning fuqarolik faolligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalari belgilangan. Biroq amaliyotda o‘quvchilarning fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘proq nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolayotgani, ularni real ijtimoiy faoliyatga jalb etish mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi kuzatilmoqda.

Pedagogik tadqiqotlar natijalari fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning eng samarali vositalari sifatida loyiha asosida o‘qitish**,** xizmat orqali o‘rganish (Service Learning)**,** debat texnologiyalari, o‘quvchilar parlamenti faoliyati, ijtimoiy aksiyalar**,** ko‘ngillilik harakati hamda muammoli vaziyatlar tahliliga asoslangan interaktiv metodlarni ko‘rsatmoqda.

Mazkur metodlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jamiyat oldidagi mas’uliyat hissini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shu bois, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda xalqaro tajribalarning ilg‘or jihatlarini milliy tarbiya an’analari bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik muhitni yaratish, shuningdek, pedagoglarning fuqarolik ta’limi sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida yosh avlodni fuqarolik faolligi, vatanparvarlik, qonunlarga hurmat hamda jamiyat oldidagi mas’uliyat

ruhida tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, 4-maqsad – sifatli ta’limni ta’minlash doirasida o‘quvchilarda global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida e’tirof etilgan.

So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlarda yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki pasayishi, individualistik qarashlarning kuchayishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri axborotlarning keng tarqalishi fuqarolik tarbiyasi tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSh ta’lim tizimida **Civic Education** dasturlari orqali o‘quvchilarni demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, jamoatchilik tashabbuslarida ishtirok etish hamda volontyorlik faoliyatiga jalb qilish amaliyoti keng yo‘lga qo‘yilgan. “Service Learning” texnologiyasi o‘quvchilarning nazariy bilimlarini real ijtimoiy muammolarni hal etish bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Finlyandiyada fuqarolik tarbiyasi fanlararo integratsiya asosida tashkil etilib, o‘quvchilar maktab boshqaruvi, jamoat loyihalari va ekologik tashabbuslarda faol qatnashadilar. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning fikr bildirish, muhokama qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Yaponiya tajribasida esa **“Tokkatsu”** tizimi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarda jamoaga sadoqat, intizom, hamkorlik, mehnatsevarlik hamda ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tizim doirasida maktab hayotini tashkil etishning deyarli barcha jihatlarida o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’minlanadi.

Singapur ta’lim tizimida **Character and Citizenship Education (CCE)** dasturi yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, ijtimoiy mas’uliyatli va global tafakkurga ega shaxs sifatida tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Dastur doirasida o‘quvchilar turli ijtimoiy loyihalar, volontyorlik tadbirlari va fuqarolik tashabbuslarida muntazam qatnashadilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishda quyidagi muammolar kuzatilmoqda: fuqarolik tarbiyasi mazmunining amaliy faoliyat bilan yetarlicha bog‘lanmaganligi; o‘quvchilarning ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarining cheklanganligi; pedagoglarning zamonaviy fuqarolik ta’limi metodikalaridan foydalanish kompetensiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi; raqamli makonda axborot madaniyati va media savodxonlik ko‘nikmalarining sust rivojlanganligi.

*Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:* ta’lim dasturlariga global fuqarolik ta’limi elementlarini integratsiyalash; maktablarda volontyorlik va ijtimoiy loyihalar faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish; pedagoglar uchun fuqarolik ta’limining innovatsion metodlari bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish; o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va media savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish; xalqaro tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan metodik ta’minotni yaratish.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish nafaqat o‘quvchilarning huquqiy bilimlarini boyitish, balki ularning jamiyat hayotida ongli ishtirok etishi, ijtimoiy

tashabbuslarni ilgari surishi, jamoat manfaatlarini himoya qilishi hamda demokratik qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida kamol topishini ta’minlaydi.

Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, AQShning **Service Learning**, Finlyandiyaning **ishtirokchilik pedagogikasi**, Yaponiyaning **Tokkatsu** tizimi hamda Singapurning **Character and Citizenship Education (CCE)** dasturlari yoshlarning fuqarolik ongini, ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu tajribalarning umumiy jihati fuqarolik tarbiyasini alohida fan sifatida emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida tashkil etish, o‘quvchilarni real ijtimoiy faoliyatga jalb etish hamda ularning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham fuqarolik tarbiyasining mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida boyitish, volontyorlik harakatlarini kengaytirish, maktablarda o‘quvchilar o‘zini o‘zi boshqarish institutlari faoliyatini takomillashtirish, media va axborot savodxonligini rivojlantirish hamda xalqaro tajribalarni milliy ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishdagi tizimli islohotlar yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini mustahkamlash, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi barkamol, mas’uliyatli va tashabbuskor avlodni voyaga yetkazish uchun mustahkam pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar**

1. UNESCO. Global Citizenship education: preparing learners for the challenges of the Twenty-First Century. Paris: UNESCO, 2015.

2. OECD. Education 2030: The future of education and skills. Paris: OECD Publishing, 2018.

3. Hoskins B., Janmaat J.G. Education, democracy and inequality. London: Routledge, 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

## МУЗЫКА ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВОСПИТАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ОТВЕТСТВЕННОЙ МОЛОДЁЖИ И ЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

**Ахунова Умида Ойбековна, базовый докторант НИПВ**

**Аннотация.** В статье рассмотрены современные подходы к воспитанию гражданской активности и социальной ответственности молодёжи на основе международного педагогического опыта. Особое внимание уделено использованию музыкальной метафоры как инструмента интерпретации образовательных процессов. Проанализированы практики различных стран, направленные на формирование активной гражданской позиции, а также предлагаются педагогические решения, способствующие развитию ценностных ориентиров личности через интеграцию искусства и образования.

**Ключевые слова:** гражданственность, социальная ответственность, молодёжь, международный опыт, педагогика, музыкальное воспитание, ценности, образование.

**Abstract.** The article examines contemporary approaches to fostering civic engagement and social responsibility among young people based on international pedagogical experience. Special attention is given to the use of musical metaphor as a tool for interpreting educational processes. Practices from various countries aimed at developing an active civic stance are analyzed, and pedagogical solutions are proposed that contribute to the development of individual value orientations through the integration of art and education.

**Key words:** citizenship, social responsibility, youth, international experience, pedagogy, music education, values, education.

В условиях глобальных социальных изменений вопрос воспитания гражданственности и социальной ответственности молодёжи приобретает особую значимость. Современное образование уже не ограничивается передачей знаний – оно становится пространством формирования ценностей, мировоззрения и социальной активности личности. В этом контексте всё более актуальным становится использование искусства, в частности музыки, как инструмента педагогического воздействия.

Музыка способна не только эмоционально вовлекать, но и формировать ценностные ориентиры, развивать эмпатию и чувство сопричастности к обществу. Международный педагогический опыт показывает, что интеграция музыкального искусства в гражданское воспитание может эффективно способствовать развитию социально ответственной молодёжи.

Международный опыт показывает, что музыкальное образование может эффективно использоваться для формирования гражданских качеств. В Финляндии коллективное музицирование рассматривается как средство развития сотрудничества и взаимного уважения. В Германии музыкальные проекты помогают укреплять социальную интеграцию и межкультурный диалог. В США музыка часто становится инструментом обсуждения вопросов гражданских прав, равенства и социальной справедливости. В Японии участие в музыкальных коллективах способствует воспитанию дисциплины, ответственности и уважения к интересам группы. Несмотря на различия образовательных систем, общей тенденцией является использование музыки для укрепления социальных связей и формирования ценностного отношения к обществу.

В педагогической науке всё чаще применяется музыкальная метафора для объяснения образовательных процессов. Подобно тому как оркестр достигает гармонии благодаря согласованной деятельности музыкантов, общество нуждается в ответственном участии каждого человека. Такая метафора помогает молодёжи осознать собственную роль в коллективе, понять значение сотрудничества и взаимной поддержки. Через участие в творческих проектах учащиеся приобретают опыт коллективной деятельности, учатся учитывать интересы других и нести ответственность за общий результат.

Эффективными педагогическими решениями являются организация школьных хоров и ансамблей, реализация музыкально-социальных проектов, обсуждение общественно значимых тем через произведения искусства, а также проведение межкультурных творческих мероприятий.

Подобные формы работы создают условия для развития гражданской активности, толерантности и социальной ответственности.

Таким образом, международный педагогический опыт свидетельствует о том, что воспитание гражданственности и социальной ответственности молодёжи является одной из ключевых задач современного образования.

В условиях глобализации, развития информационных технологий и возрастающей социальной взаимозависимости обществ особую значимость приобретает формирование личности, способной осознанно участвовать в общественной жизни, принимать ответственные решения и проявлять уважение к правам и интересам других людей.

**Литература**


1. Арчажникова Л.Г. Музыкальное образование в условиях современных социокультурных вызовов // Музыкальное искусство и образование. – 2021. – Т. 9. – № 4. – С. 7-18.

2. Абдуллин Э.Б., Николаева Е.В. Современные тенденции развития музыкального образования // Искусство и образование. – 2022. – № 2. – С. 9-20.

3. Бондаревская Е.В. Гражданское воспитание личности в контексте современных образовательных практик // Педагогика. – 2021. – № 8. – С. 15-24.


## SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA MILLIY TA’LIM KONTENTINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI


**Ahralov Shavkat, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti,**
**Axrorova Sevara, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali milliy ta’lim kontentini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellekt asosida ta’lim materiallarini yaratish, ularni o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirish, shuningdek, milliy madaniyat, tarix va qadriyatlarga oid kontentni raqamli muhitda samarali taqdim etish masalalari yoritilgan. Sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘quv faolligini oshirish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarini milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.



**Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt, milliy ta’lim kontenti, raqamli ta’lim, ta’lim texnologiyalari, milliy qadriyatlar, ta’limni raqamlashtirish, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogika.


Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim sohasida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, milliy ta’lim kontentini yaratish, uni o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish hamda milliy qadriyatlarni zamonaviy shaklda yetkazishda sun’iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Milliy ta’lim kontenti mamlakatning tarixi, madaniyati, tili, an’analari va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi ta’lim resurslari

majmuasidir. Ushbu kontentning sifatli va zamonaviy shaklda ishlab chiqilishi yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Dunyo amaliyotida sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini optimallashtirish va o‘quv materiallarini tezkor yangilash imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan milliy ta’lim kontentini rivojlantirish yo‘lida foydalanish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt faqat texnik vosita emas, balki bilimlarni yaratish, qayta ishlash va taqdim etishning yangi modeli sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, milliy ta’lim mazmunini shakllantirishda sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish va foydalanuvchi ehtiyojlariga mos ravishda taqdim etish imkonini beradi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, milliy ta’lim kontentini yaratish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish jarayonida AI vositalaridan foydalanish o‘quv materiallarining sifati va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, ularni tizimlashtirish hamda o‘quvchilarning bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirilgan shaklda taqdim etish imkoniyatiga ega. Milliy ta’lim kontentini boyitishda AI texnologiyalari tarixiy manbalar, madaniy meros obyektlari, adabiy va ilmiy materiallarni raqamli shaklga keltirish va ularni interaktiv o‘quv resurslariga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida adaptiv ta’lim tizimlari shakllantirilib, har bir o‘quvchiga individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, AI texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonida foydalaniladigan kontentni doimiy ravishda yangilash, uning dolzarbligini saqlash va ta’lim standartlariga mosligini ta’minlash mumkin. Bu esa ta’lim jarayonining uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar va madaniy merosni zamonaviy raqamli shaklda taqdim etish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga yordam beradi. Milliy ta’lim kontentini rivojlantirishda AI texnologiyalari tarjima, matnni tahrirlash, nutqni aniqlash va vizual materiallarni yaratish kabi yo‘nalishlarda ham samarali qo‘llanilmoqda. Bu esa, milliy bilimlar bazasini kengaytirish va uni global ta’lim tizimi bilan integratsiya qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. O‘qituvchi uchun tahliliy va metodik yordam vositasi sifatida xizmat qilsa, o‘quvchi uchun esa mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, ta’lim jarayoni yanada samarali, moslashuvchan va innovatsion tus oladi.

Milliy ta’lim kontenti tarkibiga xalqning tarixi, adabiyoti, san’ati, urf-odatlari, milliy qahramonlari, ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi hamda ma’naviy merosi kiradi. Ushbu resurslarni zamonaviy o‘quvchi uchun qiziqarli va tushunarli shaklda yetkazish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.Ko‘plab tarixiy hujjatlar, qo‘lyozmalar va arxiv materiallari hali ham keng foydalanish uchun qulay shaklda emas. Sun’iy intellekt texnologiyalari matnlarni tanib olish, tarjima qilish va elektron bazalarga joylashtirish orqali ushbu manbalarning ta’lim jarayonida qo‘llanilishini kengaytiradi. Milliy ta’lim platformalarida sun’iy intellekt asosidagi qidiruv tizimlari o‘quvchilarga kerakli ma’lumotlarni tez va aniq topishga yordam beradi. Natijada, o‘quv jarayonida vaqt tejaladi va bilimlarni egallash samaradorligi ortadi.Sun’iy intellekt yordamida tarixiy voqealar,

madaniy obidalar va milliy an’analarni virtual muhitda modellashtirish mumkin. Bu o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy tajribalar bilan boyitadi.Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi: o‘quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rivojlantirish; tanqidiy va tahliliy fikash ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini oshirish; milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash; ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Shuningdek, sun’iy intellekt o‘qituvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. U darslarni rejalashtirish, baholash va monitoring qilish jarayonlarini soddalashtiradi.Rivojlangan davlatlarda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari faol joriy etilmoqda. Jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Finlyandiya kabi mamlakatlarda milliy madaniyat va tarixga oid raqamli resurslarni yaratishda AI texnologiyalaridan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Ushbu tajribalar milliy ta’lim kontentini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt imkoniyatlarining kengayib borishiga qaramasdan, bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan: milliy ma’lumotlar bazalarining yetarli emasligi; o‘zbek tilidagi elektron resurslar hajmining cheklanganligi; algoritmlarning milliy-madaniy xususiyatlarni to‘liq hisobga olmasligi; pedagoglarning AI texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi. Kelgusida sun’iy intellektni milliy ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha maxsus metodologiyalar ishlab chiqish, milliy ma’lumotlar korpuslarini yaratish hamda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi milliy ta’lim kontentini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, AI vositalari ta’lim mazmunini tahlil qilish, qayta ishlash va o‘quvchilarga moslashtirish jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtiradi. Bu esa o‘quv materiallarining sifatini oshirish bilan birga, ularning dolzarbligi va samaradorligini ham ta’minlaydi.Shuningdek, sun’iy intellekt milliy madaniy meros, tarixiy manbalar va qadriyatlarni raqamli formatga o‘tkazish hamda ularni zamonaviy interaktiv o‘quv resurslariga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va ma’naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ulari mustahkamlanadi.Umuman olganda, AI texnologiyalarini milliy ta’lim kontenti bilan integratsiya qilish ta’lim jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliyotga joriy etish ta’lim samaradorligini yanada oshirishga zamin yaratadi.

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyot va raqamli ta’limni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.

3. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Paris, 2023.

4. OECD. Education in the digital age: AI and learning systems. Paris, 2022.

5. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: a modern approach. Pearson, 2021.

6. Luckin R. Machine learning and human intelligence in education. London, 2020.

7. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promise and Implications. Boston, 2022.

8. Muslimov N.A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T., 2022.
9. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2021.
10. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T., 2021.

## MADANIY QADRIYATLAR ASOSIDA O'SMIRLARNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS'ULIYAT RUHIDA TARBIYALASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'smirlarni milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar asosida fuqarolik faolligi hamda ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli g'oyalar va axborotlarning kuchli ta'siri kuzatilayotgan bir paytda madaniy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari yoritilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarning mazkur yo'nalishdagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** madaniy qadriyatlar, fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyat, o'smirlar tarbiyasi, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, yoshlar siyosati, fuqarolik jamiyati.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of educating adolescents in the spirit of civic activity and social responsibility on the basis of national and universal cultural values. In the context of globalization, when various ideas and information are strongly influenced by the minds of young people, the issue of effective use of the educational potential of cultural values is gaining relevance. The article highlights the existing problems, the causes of their occurrence and ways to eliminate them, and reveals the significance of the decrees and resolutions adopted by the President of the Republic of Uzbekistan in this direction.

**Key words:** cultural values, civic activism, social responsibility, adolescent education, spirituality, national values, youth policy, civil society.

**Аннотация.** В статье проанализированы теоретические и практические аспекты воспитания подростков в духе гражданской активности и социальной ответственности на основе национальных и универсальных культурных ценностей. В условиях глобализации, когда различные идеи и информация оказывают сильное влияние на умы молодежи, вопрос эффективного использования образовательного потенциала культурных ценностей приобретает все большую актуальность. В статье освещены существующие проблемы, причины их возникновения и пути их устранения, а также раскрывается значение указов и постановлений, принятых Президентом Республики Узбекистан в этом направлении.

**Ключевые слова:** культурные ценности, гражданский активизм, социальная ответственность, образование подростков, духовность, национальные ценности, молодежная политика, гражданское общество.

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarni har tomonlama barkamol, vatanparvar, tashabbuskor va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor

yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini oshirish jarayonida o‘smirlarni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi, milliy urf-odatlari, an’analari, ma’naviy qadriyatlari hamda umuminsoniy tamoyillar asosiy tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki madaniy qadriyatlar yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

***Madaniy qadriyatlar*** – bu jamiyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan moddiy hamda ma’naviy boyliklar tizimidir. Ular insonning axloqiy me’yorlari, dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori va fuqarolik ongini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mahalla hamjihatligi, mehr-oqibat, bag‘rikenglik va vatanparvarlik kabi qadriyatlari o‘smirlarda jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish, qonunlarga hurmat bilan qarash va ijtimoiy faol bo‘lish kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Shu bois madaniy qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish fuqarolik tarbiyasining muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolik faolligi shaxsning jamiyat va davlat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, ijtimoiy tashabbus ko‘rsatishi, o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi hamda ularni amalda qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy mas’uliyat esa, insonning o‘z harakatlari natijasi uchun javobgarlikni his etishi, jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg‘usiga ega bo‘lishi va umumiy manfaatlarga xizmat qiluvchi faoliyatda qatnashishidir. O‘smirlik davri shaxs kamolotining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda fuqarolik ongining poydevori shakllanadi. Agar mazkur jarayon milliy madaniy qadriyatlar asosida tashkil etilsa, yoshlarning jamiyatga munosabati yanada mustahkam va barqaror bo‘ladi.

Sharq mutafakkirlari ham yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Abu Nasr Forobiy insonning komilligi jamiyatdagi faol ishtiroki va ezgu amallari bilan belgilanishini ta’kidlab, “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy hamkorlik g‘oyalarini ilgari surgan. Abu Ali ibn Sino esa, yoshlarni tarbiyalashda axloqiy fazilatlar va ijtimoiy muhitning ahamiyatini alohida qayd etgan. Alisher Navoiy insonning komilligi xalq va Vatan manfaatlariga xizmat qilish orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlagan.

Zamonaviy pedagogika vakillaridan V.A.Suxomlinskiy “insonni haqiqiy fuqaro qilib tarbiyalash uchun unda Vatan taqdiri uchun mas’uliyat hissini uyg‘otish zarur” ekanligini qayd etadi. Shuningdek, amerikalik olim Jon Dyui demokratik jamiyat taraqqiyoti fuqarolarning faol ishtirokiga bog‘liq ekanligini asoslab bergan.

Shu bilan birga, bugungi kunda o‘smirlarni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashda qator muammolar mavjud. Birinchidan, globallashuv va axborot oqimining kuchayishi natijasida ayrim yoshlar orasida milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kuzatilmoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi nazoratsiz axborotlar yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Uchinchidan, ayrim oilalarda tarbiyaviy mas’uliyatning susayishi natijasida bolalarda ijtimoiy mas’uliyat hissi yetarlicha shakllanmayapti. To‘rtinchidan, ta’lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasiga oid amaliy mashg‘ulotlar va loyihalar soni hali ham talab darajasida emas. Beshinchidan, yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda.

Mazkur muammolarni hal etish uchun, avvalo, oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish zarur. Fuqarolik tarbiyasiga oid mashg‘ulotlarni nazariy bilimlar bilan cheklab qolmasdan, amaliy faoliyat bilan bog‘lash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, volontyorlik faoliyati, ekologik aksiyalar, xayriya tadbirlari, yoshlar parlamenti, debat klublari va mahalla loyihalarida o‘smirlarning faol ishtirokini ta’minlash lozim. Bundan tashqari, milliy madaniy meros obyektlariga sayohatlar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib, madaniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi multimedia mahsulotlari, onlayn platformalar va interaktiv dasturlarni yaratish ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni fuqarolik faolligi ruhida tarbiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni jamiyat hayotiga keng jalb etishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Shuningdek, 2019-yil 19-martda ilgari surilgan besh muhim tashabbus yoshlarning madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali ularning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmonida ham yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bundan tashqari, “Yoshlar daftari” tizimi, “Yoshlar ishlari agentligi” faoliyati va yoshlar parlamentlari instituti yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan muhim mexanizmlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy qadriyatlar o‘smirlarni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning eng muhim ma’naviy asoslaridan biridir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida tashkil etilgan tarbiya jarayoni yoshlarda Vatanga sadoqat, qonunlarga hurmat, tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun oila, mahalla, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, yoshlarning ijtimoiy loyihalardagi ishtirokini kengaytirish hamda davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur. Shundagina kelajak avlodni yuksak ma’naviyatli, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega va jamiyat taraqqiyotiga daxldor shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2016.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.

5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: Yangi asr avlodi, 2016.

6. Ibn Sino A.A. Tadbiri manzil. – T.: Ma’naviyat, 2005.

7. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
8. Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. – T.: O‘qituvchi, 1984.
9. Dyui J. Demokratiya va ta’lim. – T.: Akademnashr, 2010.
10. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2019.
11. Nishonova S. Tarbiya nazariyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2020.
12. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

## TA’LIM JARAYONLARIDA ME’MORLIK OBIDALARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYATNI RIVOJLANTIRISH

**Botirova Nazokat Ro‘zimona, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotation.** This article is devoted to the issue of using materials about architectural monuments to enrich students’ historical knowledge and develop their sense of national pride. The article contains brief information about the historical monuments of the 18th-19th centuries available in Uzbekistan, which are associated with a certain era and events, the possibilities of using illustrative materials, excursions for the intellectual and spiritual and moral development of students are considered.

**Key words:** historical architectural monuments, era, culture, construction, architectural ensemble, illustrative material, national pride, cultural heritage, madrasah, mausoleum, historical knowledge, demonstration method, excursion.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchilarning tarixiy bilimlarini boyitish, milliy g‘urur tuygilarini rivojlantirish uchun ota-onalarning o‘rni, qiziqishi masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan tarixiy obidalar haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan. O‘quvchilarning intellektual va ma’naviy-axloqiy rivojlanishi uchun illyustrativ materiallar, ekskursiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

**Tayanch so‘zlari:** tarixiy me’moriy yodgorliklar, davr, madaniyat, qurilish, me’moriy ansambil, illyustrativ material, milliy iftixor, madaniy meros, madrassa, maqbara, tarixiy bilim, ko‘rgazmali usul, ekskursiya.

**Аннотация.** Данная статья посвящена вопросу использования материалов об архитектурных памятниках для обогащения исторических знаний учащихся, развития у них чувства национальной гордости. В статье содержится краткая информация об имеющихся в Узбекистане исторических памятниках XVIII-XIX веков, которые связаны с определенной эпохой и событиями, рассмотрены возможности использования иллюстративных материалов, экскурсий для интеллектуального и духовно-нравственного развития учащихся.

**Ключевые слова:** историческое архитектурные памятники, эпоха, культура, сооружение архитектурный ансамбль, иллюстративный материал, национальная гордость, культурное наследие, медресе, мавзолей, исторические знания, демонстрационный метод, экскурсия.

Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalar ekanmiz, asrimizning boshlarida Abdulla Avloniy: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, – degan so‘zlarini esga olishimiz. Bu

fikr hozirda demokratik jamiyat qurayotgan, buyuk davlat barpo qilish yo‘lidan borayotgan respublikamiz uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, xalqimizning ertangi kuni yosh avlodning bugun qanday ta’lim-tarbiya olishiga bog‘liqdir. Darhaqiqat, o‘tmish xotirasi kuchli bo‘lgan xalqning milliy iftixori, g‘ururi mustahkam bo‘lib, tug‘ilib, voyaga yetgan joyga nisbatan qalbida Vatan tuyg‘usi jo‘sh urib turadi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tarix fani rivojiga, tarixiy obidalarni qayta tiklashga, yangilarini barpo etishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan fuqarolarda milliy g‘ururni shakllantirish, ularda Vatan tuyg‘usini tarkib toptirishga intilishning zamirida vatanimizning nurli kelajagi uchun munosib vorislar tayyorlash maqsadi yotadi. Ushbu nuqtai nazardan yosh avlod onggiga o‘tmishning haqqoniy mazmunidagi tarixiy bilimlarni singdirish borasida ko‘plab sa’yi-harakatlar qilinmoqda, o‘quv dasturlari va darsliklarning mazmuni milliy tariximizning haqiqiy ildizlariga asoslangan holda boyitilmoqda. Uning aniq mezonlari asosiga esa eng muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillarni belgilab olmoq zarur.

Tarix ta’limini tarixiy mavzudagi me’morlik obidalari vositasida tashkil etish o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni o‘stirishning muhim omilaridan biri hisoblanadi. Har bir darsning muvaffaqiyati uning oldiga qo‘yilgan maqsadiga bog‘liqdir. Qachonki, maqsad aniq va puxta, o‘quvchini har taraflama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lsa, darsning samaradorligi ta’minlanadi. Me’morlik obidalari vositalaridan foydalanib, vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligiga erishmoq uchun quyidagi tomoyillarni eng muhim deb hisobladik. 9-10-sinflarda O‘zbekiston tarix darslarida foydalaniladigan tarixiy me’morlik obidalarining o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi tamoyili. Bu tamoyilda birinchidan, o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning qaysi sinfda, qanday hajmda me’morlik obidalari manbalaridan foydalanishi ularning jismoniy, aqliy, ruhiy tafakkuri va iqtidor doirasidan kelib chiqib ish olib borishlariga imkon yaratib beradi. Shuningdek, dars o‘tish jarayonida foydalanish zarur bo‘lgan me’morlik obidalarini to‘g‘ri tanlay bilish ham muhim ahamiyatga egadir.

Ikkinchidan, o‘quvchilar xukmiga havola qilinayotgan tarixiy me’morlik obidalari materiali uning asosiy manbalari hisoblangan arxeologiya, etnografiya, toponomika, arxiv hujjatlari yoki ilmiy-tarixiy, tarixiy-badiiy xususiyatga dahldor manbalarning barchasi vatanparvarlik tarbiyasini yuqori darajada o‘quvchining onggiga singdirishga shart-sharoit yaratadi. Tarixiy me’morlik obidalardan dars va darsdan tashqari jarayonda foydalanishning yana muhim tamoyillaridan biri xolislik, ilmiylik va tarix haqiqatiga moslik tamoyilidir. Agar tarix manbalarini yoritishda xolislik, ilmiylik va tarix haqiqati tamoyiliga amal qilinmasa tarixiy hodisa va voqealarni to‘g‘ri idrok qilib bo‘lmaydi. Bu esa, o‘quvchilarning tarixiy bilimlari hamda tushunchalari soxtalashuviga olib keladi. O‘tmish voqealarni bugungi kun hodisalari bilan taqqoslab, muhim xulosalarga kelishdan chalkashish va xatolarga og‘ib ketishga sabab bo‘ladi. Xolislik, ilmiylik va tarix haqiqatiga ziyon yetsa voqelikni obyektiv anglash imkoniyati cheklanadi. Natijada, o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri o‘tmaslashadi. Bu jarayon jamiyatning tanazzuli va inqiroziga katta yo‘l ochadi. Bunga mustaqillikkacha bo‘lgan davrda tarixni o‘qitilishi va uning oqibatlari yaqqol misoldir. Tarix fanini o‘kitish jarayonida tarixan ro‘y bergan voqea qanday yuz bergan bo‘lsa, uni shunday yoritish va o‘quvchiga yetkazish darkor.

Tarixiy me’moriy obidalarga oid materiallardan tarix darslarida foydalanishning muhim tamoyillardan yana biri tarixiy manbalarning ko‘rgazmaligidir. Ko‘rish orqali ishonchli

ma'lumotlar olishning ilmiy bilishdagi ahamiyatini buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy aytganlaridek, xabar ko'z bilan ko'rgandek bo'lmaydi, degan kishining so'zi juda to'g'ridir. Chunki, ko'rish ko'ringan narsaning o'zi bor paytida va o'z joyida turganida qarovchi ko'zning uni uchratishdan iboratdir.

Xabar yolg'on-yashiqlar qo'shilmaganida u ko'rishga nisbatan ortiqroq o'rinda turgan bo'lar edi. Chunki, ko'rish va qarash payti narsa bir vaqtning bir bo'lagi bilan cheklanadi. Xabar esa, narsaning qarovchiga ko'rgan vaqtidan ilgari o'tgan va keyin keladigan hollaridan darak beradi. Darhaqiqat, moziyga sayohatni noma'lum bir olamni kashf etish bilan qiyoslash mumkin. Bunga qiziqqan kishilar uchun o'tmishning unut bo'lgan sahifalarini o'z ko'zi bilan ko'rish va bu haqida boxabar kishilar hikoyasini tinglashdan ortiq maroqli ish bo'lmasa kerak.

O'quvchi kamolatga yetgan sari boy tarixiy manbalar orqali uning aql-zakovati ham yetuklasha boradi, uning ijtimoiy muammolarni tushunish doirasi kengayib xotirada ilmiy zahira to'plash qobiliyati ham oshadi.

O'lkamizdagi me'morlik obidalar tarixini o'rganishga kirishar ekanmiz, tarixni o'rganishdagi izchilik va tarixiylik tamoyili ostida xalqimizning ming yillik tarixi davomida shakllangan ona-Vatanni muqaddas bilib, uni sajdagoh deb anglash an'anasi va avlodlar uzviyligi hamda davomiyligi mujassamlashganiga guvoh bo'lamiz. Unda ajdodlarimizning madaniy hayoti, tarixiy merosi va qadriyatlari aks ettirilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rgatiladigan har bir o'quv fani o'zining vositalari va o'z mohiyatiga mos ravishda butun o'quv jarayoni uchun umumiy bo'lgan ta'lim-tarbiya vazifasini qamrab oladi. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi ham tarix ta'limi jarayonida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni izchil ravishda rivojlantirishga qaratilgandir. Yangi o'quv dasturilari va ular asosida yaratilgan va yaratilayotgan darsliklar milliy mafkura, milliy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan holda o'quvchilarda Vatan tuyg'usini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berishi zarur.

8-9-sinflarda tarix fani samaradorligini oshirishda va o'quvchilarda Vatan tuyg'usini rivojlantirishda me'morlik obidalari vositalaridan foydalanish muhim o'rin egallaydi. Mustahkam ilmiy qarashlar va e'tiqodlarga ega bo'lgan kishilarda o'zi yashab turgan yurtning har bir qadriyatini qadrlashga intiladi. Bunda ma'naviy tarbiyaning asosi ijtimoiy gumanitar turkumdagi fanlarga, jumladan tarix faniga tegishli bo'lib, ular o'quvchilarda bilimlar tajribasi asosida umumlashtiriladi.

Tarix o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda ma'naviy-madaniy tushunchalar, bilimlar, qarashlar va Vatan tuyg'usi bilim shaklida taqdim etiladi. O'quv jarayonida esa, ilmiy-ma'naviy va madaniy tizimlar uyg'unlashtirilishi zarur. Agar dars jarayonida bilimlar tizimi aniq va bir maqsadga yo'naltirilgan tarzda aks etsa, ma'naviy-madaniy tushunchalar tizimini bilimlar tizimi bilan uyg'unlashtirish lozim. Bunda o'quvchilarning aqliy, xissiy bilish imkoniyatlarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatish uchun ma'naviy qadriyatlar tajribasiga tayanish lozim bo'ladi. Inson o'zini anglab olmaguncha, Vatan va uning muqaddasligini anglab yetmaguncha vatan tuyg'usi va vatanparvarlik tushunchalari ham inson onggiga singib yetmaydi. Bunday ma'suliyatni faqatgina ona yurtimiz tarixini chuqur o'rganish orqali bajaramiz. Vatandagi har bir jonli va jonsiz narsalar butun bir majmua – komponentdir. Demak, Vatan, avvalo, tarixiy-hududiy tushuncha desak, idrokimizda u ma'naviy va ruhiy tushunchadir. Inson nimaiki ulug'likka erishishi lozim ekan Vatanda unga manbalar xazinasi mavjud. Asrlar osha sayqallanib kelgan madaniy-tarixiy boyliklar, hunarmandchilikning betakror namunalari xalqimizning va

kelajak avlodlarning ma’naviy mulkidir. O‘zbek xalqining insonparvarligi va ezgu maqsadlarining barchasi ushbu ma’naviyat bulog‘idan suv ichadi. Bularning barchasi millatimizni tarbiyalaydigan mezon bo‘lib, mazkur qadriyatlar tarix fanining asosiy manbaidir. Ularda ifodalangan o‘zbekona xislatlar va fazilatlarning barchasida ona-Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi ufurib turadi. O‘lkamizdagi noyob tarixiy me’morlik obidalari va ular to‘g‘risidagi manbalar o‘quvchilarning tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini va u orqali o‘z Vatanini sevish hissini uyg‘otish, o‘zligini anglashga yo‘llashdagi ahamiyati juda kattadir. O‘quvchilarda vatan tuyg‘usi orqali milliy g‘urur elementlarini tarkib toptirishning ta’sirchan vositasi sifatida tarixiy obida, asotir va an’analarga murojat qilish, uning ta’sirchan usul va shakllarini aniqlash asosiy maqsadlarimizdan biridir. Tarixiy me’morlik obidalar o‘quvchilarimizni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, dunyoqarashini shakllantirish, barkamol inson bo‘lib yetishishlarida katta ahamiyatga egadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yosh avlodning fuqarolik faolikini oshirishda va ularning ijtimoiy ma’sulliyatini xis qilishlarida yurtimiz tarixiy-me’moriy merosdan samarali foydalanishi Vatanga bo‘lgan yuksak tuyg‘usini yanada oshiradi va milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatini kuchaytirib fuqarolik pozitsiyasini shakillanishiga xizmat qiladi. Xalqaro pedagogik o‘rganishlar ham ta’lim jarayonlarida tarixiy meros obektlarni o‘quv jarayonlariga integratsiya qilish ta’lim samaradorligini oshishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar**


1. O‘zbekistob Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida‘gi Qonuni. – T., 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. – T., 2022.
3. Jo‘rayev R.X., Tolipov O‘.Q. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T., 2019.
4. Muxammadjonov A. Qadimgi Buxora: Arxeologik lavhalar va tarix. – T.: Fan, 1991.
5. Safoyva E. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitishda o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish: – T.: O‘qituvchi, 1993.
6. Qurbonov T. Milliy g‘urur va madaniy meros dialektikasi. – T.: Zarqalam, 2006.
7. G‘ofurov Z., Toshev M. Ma’naviyat saboqlari. – Qarshi. 1999 .
8. Hasanboeva O., Hasanboev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T., 1997.
9. Erkayev A. Ma’naviyat – millat nishoni. – T.: Ma’naviyat, 1997.


# O‘QUV DIAGNOSTIKASI TIZIMIDA O‘QITUVCHINING TESTOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI


**Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori,**
**Mahmudova Dinora, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘quv diagnostikasi tizimida o‘qituvchining testologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Testologik madaniyat o‘qituvchining baholash faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, test topshiriqlarini loyihalash, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda natijalarni diagnostik tahlil qilishga doir kasbiy kompetensiyasi sifatida yoritilgan. Shuningdek, testologik madaniyatning ilmiylik, obyektivlik, tizimlilik, diagnostiklik, refleksivlik va

rivojlantiruvchanlik kabi pedagogik xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati hamda pedagogik diagnostika jarayonida testologik yondashuvning o'rni asoslab berilgan. O'qituvchilarda testologik madaniyatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yuzasidan ilmiy xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quv diagnostikasi, testologik madaniyat, pedagogik diagnostika, baholash, test topshiriqlari, pedagogik kompetensiya, refleksiv tahlil, ta'lim sifati.

**Аннотация.** В статье научно проанализированы педагогические особенности развития тестологической културы учителя в системе учебной диагностики. Тестологическая культура рассматривается как компонент профессиональной компетентности педагога, обеспечивающий научно обоснованную организацию оценочной деятельности, разработку тестовых заданий, их применение и диагностический анализ результатов. Раскрыты такие педагогические особенности тестологической культуры, как научность, объективность, системность, диагностичность, рефлекцивность и развивающий характер. Обоснована роль международных программ оценки качества образования и тестологического подхода в системе педагогической диагностики. Представлены научные выводы по формированию тестологической културы учителей.

**Ключевые слова:** учебная диагностика, тестологическая культура, педагогическая диагностика, оценивание, тестовые задания, педагогическая компетентность, диагностический анализ.

**Abstract.** This article scientifically analyzes the pedagogical features of developing teachers' testological culture in the educational diagnostics system. Testological culture is interpreted as an essential component of teachers' professional competence that ensures scientifically grounded assessment activities, test design, implementation, and diagnostic analysis of results. The study reveals such pedagogical features as scientific validity, objectivity, systematicity, diagnostic orientation, reflexivity, and developmental character. The importance of international assessment programs and the role of the testological approach in pedagogical diagnostics are substantiated. Theoretical and practical foundations for developing teachers' testological culture are also discussed.

**Key words:** educational diagnostics, testological culture, pedagogical diagnostics, assessment, test tasks, pedagogical competence, diagnostic analysis, education quality.

Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim sifati va natijadorligini baholash masalasi pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi, xalqaro baholash dasturlari – PISA, TIMSS hamda PIRLS – talablarining kuchayishi baholash tizimiga yangicha pedagogik yondashuvni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda baholash jarayoni faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash va o'quv faoliyatini boshqarishning muhim mexanizmi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatning 2030-yilga qadar xalqaro baholash reytinglarida ilg'or davlatlar qatoridan o'rin egallashiga qaratilgan strategik vazifalar pedagogik diagnostika va baholash tizimini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Mazkur jarayonda o‘qituvchining testologik madaniyati muhim kasbiy kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida baholashning ilmiy asoslangan shakllaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini xolis aniqlash imkonini beradi. Shu sababli o‘qituvchining testologik madaniyatini rivojlantirish bugungi pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Chunki, o‘qituvchi tomonidan tuzilgan test topshiriqlarining sifat darajasi ta’lim natijalarining obyektivligini belgilaydi. Testologik madaniyat etarli darajada shakllanmagan holatlarda baholashda subyektivlik, metodik xatolar va diagnostik noaniqliklar yuzaga keladi. Natijada, ta’lim sifati monitoringi samaradorligi pasayadi. Shu bois o‘qituvchilarda testologik kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi pedagogik diagnostikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Testologiya – shaxsning bilim, ko‘nikma, kompetensiya va individual xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar asosida aniqlash hamda tahlil qilish qonuniyatlarini o‘rganuvchi ilmiy-amaliy yo‘nalishdir. Testologik madaniyat esa o‘qituvchining baholash faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, test topshiriqlarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish va natijalarni pedagogik jihatdan tahlil qilish kompetensiyasini ifodalaydi.

O‘qituvchining testologik madaniyatining tarkibiy komponentlari. O‘qituvchining testologik madaniyati murakkab pedagogik tizim bo‘lib, u o‘qituvchining baholash faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy sifatlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Mazkur madaniyatning samarali shakllanishi ta’lim sifati, baholashning xolisligi hamda pedagogik diagnostika natijadorligini ta’minlaydi. Testologik madaniyat quyidagi asosiy tarkibiy komponentlardan tashkil topadi:

Nazariy testologik bilimlar o‘qituvchining baholash jarayoni, testologiya nazariyasi va pedagogik diagnostikaning ilmiy asoslari haqidagi tushunchalarini ifodalaydi. Ushbu komponent orqali pedagog test topshiriqlarining turlari, ularni tuzish prinsiplari, testlarning validligi, ishonchliligi, obyektivligi va diagnostik ahamiyati haqida chuqur bilimga ega bo‘ladi.

Shuningdek, o‘qituvchi zamonaviy baholash konsepsiyalari, kompetensiyaviy yondashuv hamda xalqaro baholash dasturlarining metodologik asoslarini bilishi zarur. Nazariy bilimlarning etarli darajada shakllanishi test topshiriqlarini pedagogik maqsadga muvofiq ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Test topshiriqlarini loyihalash ko‘nikmalari. Mazkur komponent o‘qituvchining sifatli test materiallarini yaratish bilan bog‘liq amaliy faoliyatini ifodalaydi. Pedagog o‘quv maqsadlari va kutilayotgan natijalardan kelib chiqib, turli shakldagi test topshiriqlarini ishlab chiqishi kerak. Bunda test savollarining aniqligi, tushunarliligi, mantiqiyligi va murakkablik darajasi hisobga olinadi.

Test topshiriqlarini loyihalashda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olish ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur ko‘nikma o‘qituvchining kreativ yondashuvi va metodik tayyorgarligini namoyon etadi.

Pedagogik diagnostika metodlarini qo‘llash malakasi o‘qituvchining o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiluvchi metodlardan samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Diagnostik faoliyat orqali pedagog o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, qiyinchiliklari va rivojlanish dinamikasini aniqlaydi. Bu jarayonda test, anketa, monitoring, kuzatish, suhbat va amaliy topshiriqlar kabi metodlardan foydalaniladi.

Diagnostik yondashuv ta’lim jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Baholash natijalarini tahlil qilish kompetensiyasi o‘qituvchining olingan natijalarni ilmiy va pedagogik jihatdan izohlash ko‘nikmasini ifodalaydi. Pedagog test natijalarini statistik va diagnostik tahlil qilish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini, ta’lim samaradorligini hamda o‘qitish metodikasining natijadorligini aniqlaydi. Natijalarni tahlil qilish asosida o‘quv jarayoniga korreksion o‘zgartirishlar kiritiladi, individual yondashuv mexanizmlari ishlab chiqiladi. Bu esa, ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar asosida baholash tizimlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli o‘qituvchi elektron test platformalari, onlayn baholash tizimlari, avtomatlashtirilgan monitoring dasturlari va statistik tahlil vositalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar baholash jarayonining tezkorligi, aniqligi va shaffofligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning natijalarini monitoring qilish va individual rivojlanish trayektoriyasini kuzatish imkoniyati kengayadi.

Refleksiv va analitik tafakkur o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tanqidiy tahlil qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagog baholash natijalarini o‘rganish asosida o‘z metodik faoliyatini baholaydi, mavjud kamchiliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqadi. Refleksiya o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri bo‘lib, u pedagogik mahoratning takomillashuvini ta’minlaydi. Analitik tafakkur esa, baholash natijalari asosida ilmiy xulosalar chiqarish, ta’lim jarayonining samaradorligini prognoz qilish hamda strategik pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Mazkur komponentlar o‘qituvchining baholash faoliyatini sifat jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Testologik madaniyatning asosiy belgilari bir qator bo‘lib, ularning ayrimlariga to‘xtalamiz. Testologik madaniyatning asosiy belgilaridan biri ilmiylik tamoyilidir. O‘qituvchi test topshiriqlarini ishlab chiqishda pedagogik diagnostika, psixometriya va didaktika qonuniyatlariga tayanishi zarur. Test topshiriqlari o‘quv maqsadlariga mos, valid va ishonchli bo‘lishi talab etiladi. Baholash jarayonida barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi obyektivlikni ta’minlaydi. O‘qituvchi shaxsiy munosabat yoki subyektiv qarashlardan holi holda, faqat o‘quvchining amaliy natijasiga asoslanib baholashni amalga oshirishi lozim. Testologik faoliyat uzluksiz va tizimli tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Baholash jarayoni diagnostika, monitoring, tahlil va korreksiyalash bosqichlarini qamrab olishi kerak.

Testologik madaniyat o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan bir qatorda, ta’lim jarayonidagi mavjud muammolarni ham diagnostika qilish imkonini beradi. Diagnostik yondashuv o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatishga xizmat qiladi. Refleksivlik o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilishi, baholash natijalari asosida metodik faoliyatini takomillashtirib borishini anglatadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy baholash tizimi faqat nazorat vazifasini emas, balki rivojlantiruvchi funksiyani ham bajaradi. Sifatli test topshiriqlari o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish kompetensiyalarini shakllantiradi.

O‘quv diagnostikasi tizimida testologik madaniyatni rivojlantirishda pedagogik shart sharoitlar alohida ahamiyat kasb etadi. Biz tomonimizdan o‘qituvchilarda testologik

madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladigan quyidagi pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi: pedagogik diagnostika va testologiya bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish; zamonaviy baholash metodlari yuzasidan amaliy seminar-treninglar o‘tkazish; xalqaro baholash dasturlari asosida test topshiriqlarini ishlab chiqishga o‘rgatish; raqamli ta’lim platformalari va elektron test tizimlaridan samarali foydalanish; baholash natijalarining refleksiv tahlilini yo‘lga qo‘yish. Mazkur pedagogik shart-sharoitlar o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan bir qatorda, ta’lim sifati monitoringini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv diagnostikasi tizimida o‘qituvchining testologik madaniyati pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. U baholash faoliyatining ilmiyligi, xolisligi va diagnostik aniqligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining testologik madaniyatini rivojlantirish pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish, baholash tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga mos ta’lim muhitini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

## Adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan, 2020.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – T., 2019.
3. Avanesov V.S. Testologiya asoslari. – M., 2018.
4. Майоров А.Н. Теория и практика создания тестов для системы образования. – M., 2017.
5. Bloom B. Taxonomy of educational objectives. – New York, 2016.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sifatini xalqaro baholash tizimlarini joriy etishga oid qarorlari va normativ hujjatlari.

# INNOVATSION KOMPETENTLI KUTUBXONACHILARNING SHAKLLANISHIDA MUSTAQIL TA’LIM MUHIM VOSITA SIFATIDA

**G‘aniyeva D.A., Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti dotsenti, p.f.n.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot texnologiyalari muhitida kutubxonachi mutaxassislarning innovatsion kompetentligining ilmiy asoslari keltirilgan hamda hozirgi holati va nazariy asoslari tahlil qilingan bo‘lib, mavjud muammo va ziddiyatlar ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, kutubxonachilarni mustaqil ta’lim olish orqali innovatsion kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘lar:** axborot texnologiyalari muhiti, innovatsion kompitentlik, kutubonachi mutaxassislar, kasbiy rivojlanish, axborot kompetentliligi, mediakompetentlilik, o‘quv-uslubiy ta’minot, kompetentli yondashuv, kutubxonashunoslik, kompetensiyalar tasnifi.

**Annotation.** The article presents the scientific basis for the innovative competence of librarians in the field of information technology, analyzes the current state and theoretical foundations, highlights the existing problems and contradictions. There are also suggestions and recommendations for the development of innovative competence.

**Key words:** information environment, innovative competence, librarians, professional development, information competence, media competence, tutorials, competent approach, librarianship, classification of competencies.

Hozirgi kunda mustaqil fikrlovchi va qaror qabul qila oluvchi, o‘zgalar fikrini tinglab, uni e’tiborga olgan holda xulosa chiqara oluvchi shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatda sodir bo‘layotgan bugungi yangiliklar va iqtisodiy o‘zgarishlar axborot-kutubxona tizimi mazmunini mos ravishda loyihalash hamda standartlashtirishning talab qilmoqda.

Axborot-kutubxona sohasining sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish va mustaqil ta’lim turlari muhim o‘rin tutadi. Bu esa kutubxona ishlari bo‘yicha tayyorlanadigan tizimda kutubxonachilar mustaqil ta’limi mazmunini ishlab chiqish va uni tashkil etish hamda amalga oshirish usullarini takomillashtirish borasida chuqur ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

Kutubxonachilik ishida kutubxonachilarning nazariy va amaliy mustaqil ta’lim olishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq ko‘p hollarda o‘quv-tarbiya jarayonida kutubxonachilarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralmaydi, mustaqil ta’lim mazmunini tahlil etish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, uning samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Bu va shunga o‘xshash boshqa masalalar kutubxonachilarning malakasini oshirishga ixtisoslashgan muassasalarda kadrlar tayyorlashda kutubxonachilarning mustaqil ta’limini tashkil etish, amalga oshirish, nazorat qilish borasida qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur masalani ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish, ta’lim jarayonida kutubxonachilarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini e’tiborga olish va mustaqil bilim egallashlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish zarurati, kutubxonachilarning mustaqil ta’lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish bo‘yicha kasbiy-pedagogik tayyorgarligining zamon talablari darajasida emasligi, kutubxonachilarda mustaqil ta’lim olish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, kutubxonachilar mustaqil ta’lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o‘quv-metodik adabiyotlar, tavsiyanomalar, ishlanmalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalarning yetarli emasligi natijasida kutubxonachilar malakasini oshirish institutlarida kadrlarning ayrimlarida mustaqil holda qaror qabul qilish va o‘z nuqtai nazarini himoya qila olish ko‘nikmalarining to‘liq shakllanmaganligi bu masalalarning nihoyatda dolzarbligini ko‘rsatadi [2].

Kutubxonachi-mutaxassisning kasbiy rivojlanishini takomillashtirishni o‘rganishda kutubxonachilik tadqiqotiga yangi aspekt-kompetentli yondashuvni kiritishiga sabab bo‘ldi. Avvalo, oliy kasbiy ta’limning yangi davlat ta’lim standartlarini tayyorlash va ishlab chiqishning ikki bosqichli tizimiga o‘tish natijasida bo‘lg‘usi kutubxonachi-mutaxassisda kompetentlilikni shakllantirishga bag‘ishlangan materiallarni alohida ta’kidlash zarur.

Kutubxona mutaxassisining kompetentliligi va kompetensiyalari mohiyatini o‘rganish S.A.Ezova, B.S.Elepov ishlarida o‘z aksini topgan bo’lib, kadrlar malakasini oshirish va qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimida kompetentli yondashuvga bag‘ishlangan [3-4]. R.A.Chuchukalova va respublika pedagog olimlari ishlarida ta’lim muassasalari kutubxonalaridagi mutaxassislarning axborot kompetentliligini rivojlantirishni amaliy tadqiq etish natijalari yoritilgan [5-6, 8]. G.V.Parvaukovaning doktorlik dissertatsiyasi aholida axborot kompetentliligini shakllantirishga bag‘ishlangan. O.P.Kutkinaning dissertatsiya tadqiqoti obyekti kutubxonachi-mutaxassisda mediakompetentlilikni, I.N.Churikovaning

tadqiqoti – kompyuter kompetentlilikni shakllantirish boʻlgan. Tadqiqot davomida kutubxonachi-mutaxassisda axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga bagʻishlangan nashrlar oʻrganildi va mutaxassisda axborot madaniyatini shakllantirish tuzilmasida kasbiy (kutubxonaga oid) ta’lim tizimining oʻrni koʻrib chiqiladi. Boʻlajak pedagoglarning ta’lim faoliyatida fanlarni oʻzlashtirishda motivatsiya – bu nafaqat bilim olishga boʻlgan ishtiyoq, balki kasbiy shakllanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. U talabaning oʻquv jarayonidagi faolligini, qiyinchiliklarni yengib oʻtish qobiliyatini va oʻz ustida ishlash darajasini belgilab beradi. Pedagoglar uchun motivatsiya omili sifatida quyidagi yoʻnalishlar muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion kompetentlikning shakllanishida asosiy oʻrinni kutubxonachilarning mustaqil ishlari egallaydi. Bunga esa ta’lim jarayonida kutubxonachilarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga oʻrgatish orqali erishish mumkin. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, mustaqil ta’lim kutubxonachilarni har qanday sharoitda va holatda oʻzlarining aqliy salohiyatlarini toʻla ishga solish, zarur boʻlgan bilimlarni izlab topish, amaliy faoliyatlariga tatbiq etishga odatlantirib boradi (D.Ivanova). Bir soʻz bilan aytganda, ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarish jarayonida toʻlaqonli, raqobatbardosh mutahassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Kutubxonachi kitobxonni faollashtiradigan, oʻzi va oʻrganuvchi uchun qulay boʻlgan yoʻllar, usul va uslublar, oʻqitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi. Oʻquv rejasi, dastur va darsliklarda belgilangan oʻquv materiallari oʻzlashtiriladi. Amaliy faoliyatda qoʻllashga, kafolatlangan natijalarga erishishga oʻrgatiladi. Bu jarayonda imkon qadar kutubxonachining mustaqil faoliyat yuritishiga e’tibor qaratish ijobiy natija beradi.

Mustaqil ta’lim kutubxonachilar oʻrtasida ijobiy ma’nodagi raqobatni keltirib chiqaradi. Kutubxonachilar bir-birlaridan oʻrnak olgan holda oʻzlarining aqllarini, kuchlarini, vaqtlarini foydali faoliyat bilan shugʻullanishga yoʻnaltiradilar.

Turli xil tanlovlarga tayyorgarlik koʻrish, olimpiadalarda ishtirok etish va gʻolib boʻlishga intilish, ilmiy-ijodiy koʻrgazmalarda qatnashish orqali kutubxonachi iste’dodining muayyan qirralari ochiladi.

Mustaqil ta’lim orqali innovatsion kompetentlikni shakllantirish orqaligina kutubxonachilar kasbiy faoliyatlarida amaliy harakatlarga moslashuvchan, oʻzgaruvchan va tezkor hodisalarga koʻnikma oluvchan boʻladilar.

Kutubxonachilarning kasbiy-ijodiy kompetentligini ish jarayonida shakllantirishda insonning ijodkorlik faoliyati ijodiy fikrlashining asosiy unsurlari shakllanishi darajasiga katta ta’sin koʻrsatadi va kutubxonachilik faoliyatining sermahsul boʻlishiga olib keladi.

Kutubxonachining innovatsion kompetensiyasi uning quyidagi fazilatlarida namoyon boʻladi: qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; ilgʻorlikka intilish; rahbarlarning ijodiy faoliyat uchun yaxshi baho berishlariga intilish; oʻz-oʻzini mukammallashtirishga intilish; kutubxonachining ijodkorligi; mulohazalarning mustaqilligi; kutubxonachilik faoliyatida bir xilliklardan voz kecha olish, fikrlar harakatsizligini yenga olish; tavakkalchilik; kutubxonachilik faoliyatidagi muammolarga ta’sirchanlik; tanqidiy fikrlash, mulohazalarga qobiliyat; oʻz ishlarini tahlil qila olish qobiliyati va h.k.

Kutubxonachining innovatsion faoliyati xususiyatlarini oʻrganib chiqqan mutaxassis olimlar fikrlariga tayangan holda quyidagilarni innovatsion kompetentlikning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin: ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish; mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati; hamkasblar bilan hamkorlik; fikr almashish va metodik

yordam ko‘rsata olish; ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish; yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion kompetentlikni baholashda alohida olingan biror bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan, uzoq vaqt davomida turli xil vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to‘liq to‘plamini nazarda tutish kerak bo‘ladi [6].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy faoliyatni o‘rganishga qaratilgan metodikalar sonining o‘sib borishiga qaramay, ular hali yetarli darajada emas. Bu kabi testlarni ishlab chiqish va ularning kerakligini aniqlashda ma’lum qiyinchiliklar mavjud. Bu masalani ijobiy hal qilishda ilg‘or tajribalarni izlash, ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko‘rgan holda amaliyotga tatbiq etishga bo‘lgan hayotiy ehtiyoj ustuvordir.

Bizningcha, olib borilgan kuzatishlar sohaga oid tajriba ishlari tahliliga ko‘ra, axborot-kutubxona muassasalarida kutubxonachi kadrlarning innovatsion kompetentligini aniqlashda quyidagi mezonlar ham inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi: o‘zlashtirilgan sohaga oid tajribalarni qayta ishlash; izlanuvchanlik va ijodkorlik faoliyatlarida namoyon bo‘ladigan aniq ifodalangan kasbiy yo‘naltirilganlik; axborot-kutubxona faoliyatida ko‘p uchraydigan har qanday nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila olishga, shuningdek, yaxlit kutubxona jarayonining barcha voqea va hodisalarini, dalillarini tahlil qila bilish; jamiyat madaniyatini va jahon madaniyatini egallash, ta’lim olish jarayonini anglash, o‘zining kasbiy qobiliyatlarini takomillashtirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish kabi keng doirani o‘z ichiga olgan mustaqil ta’limni tashkil etish va shu kabilar.

O‘ylaymizki, uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida shaxsni to‘laqonli rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydigan, kutubxonachining kasbiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadigan mustaqil ta’lim tizimlarini ishlab chiqishda axborot-kutubxona jarayonining pedagogik asoslarini tubdan yangilash ustuvor vazifa bo‘lib qolaveradi.

**Adabiyotlar**


1. Вербицкий А.А., Ларионова О.Г. Личностный и компетентностный подход в образовании: проблемы интеграции. – М.: Логос, 2009. – 336 с.
2. Вербицкий А.А. Контекстно-компетентностный подход к модернизации. – М., 2011.
3. Езова С.А. Моделирование процесса библиотечного общения // Библосфера. – 2012. – № 3. – С. 51-54.
4. Елепов Б.С., Лаврик О.Л. Государственная публичная научно-техническая библиотека Сибирского отделения РАН в электронной среде: новые направления деятельности // ГПНТБ СО РАН. – 2015. – № 8. – С. 7-14.
5. Чучукалова Р.А. Информационная компетентность библиотекаря в системе информационного пространства Сибирского федерального университета. – Т., 2010.
6. Karimov O‘.U. Integrallashtirilgan axborot-kutubxona tizimlarini yaratish modellari, usullari va algoritmlari. – T., 2019.
7. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. – T., 2019.
8. G‘anieva D.A. Ta’lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish. – T.: Yangi asr avlodi, 2013.

9. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика: теория и технология креативного обучения. – М.: МГУ, 2003. – 416 с.

# TA’LIM TASHKILOTLARIDA XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA YOSH AVLODNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT RUHIDA TARBIYALASH MEXANIZMLARI

**Gulyamova Aziza Otabek qizi, TPMI “Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi” ilmiy-tadqiqot bo‘limi, katta ilmiy hodim (PhD)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta’lim tashkilotlarida xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari, samarali mexanizmlari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada AQSh, Finlandiya, Singapur, Yaponiya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarning fuqarolik ta’limi bo‘yicha ilg‘or tajribalari o‘rganilib, ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish, xizmat orqali ta’lim (service learning), loyiha faoliyati, volontyorlik harakatlari, demokratik boshqaruv tamoyillari hamda ijtimoiy-emotsional ta’lim asosida yoshlarni tarbiyalash mexanizmlarining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, xalqaro pedagogik tajriba, fuqarolik ta’limi, demokratik qadriyatlar, volontyorlik faoliyati, service learning, ijtimoiy-emotsional ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, yoshlar tarbiyasi.

XXI asrda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri nafaqat bilimli, balki faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijtimoiy mas’uliyatni chuqur his qiladigan va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo integratsiyaning kuchayishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar ta’lim siyosatida fuqarolik ta’limi, demokratik madaniyat, inson huquqlari, ijtimoiy hamkorlik va mas’uliyat kabi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. UNESCO, OECD va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, qonunlarga hurmat va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan xalqaro pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Fuqarolik faolligi shaxsning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmasligi, demokratik jarayonlarda faol qatnashishi hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilishga intilishi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy mas’uliyat esa insonning o‘z xatti-harakatlari natijalarini anglagan holda jamiyat, davlat va atrofdagilar oldidagi burchlarini bajarishga tayyorligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik nuqtai nazardan mazkur tushunchalar o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi: tanqidiy fikrlash; ijtimoiy muammolarni

tahlil qilish; hamkorlikda ishlash; qaror qabul qilish; muloqot madaniyati; huquqiy savodxonlik; demokratik qadriyatlarga hurmat. Mazkur kompetensiyalar zamonaviy ta’limning asosiy natijalari sifatida baholanmoqda.

**Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili**

*Finlandiya tajribasi.* Finlandiya ta’lim tizimi dunyodagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda fuqarolik tarbiyasi alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlar mazmuniga integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. O‘quvchilar maktab hayotidagi muhim qarorlarni qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etadilar. Maktablarda o‘quvchilar kengashlari faoliyat yuritadi va ular ta’lim muassasasini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday yondashuv yoshlarda mas’uliyat hissini kuchaytirish, tashabbuskorlik va liderlik sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

*AQSh tajribasi.* AQSh ta’lim tizimida “Service Learning” texnologiyasi keng qo‘llaniladi. Ushbu model ta’lim va jamoatchilik xizmatini birlashtiradi. O‘quvchilar mahalliy hamjamiyat muammolarini o‘rganib, ularni hal etishga qaratilgan amaliy loyihalarda ishtirok etadilar.

Masalan, ekologik muammolarni hal qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga yordam ko‘rsatish, mahalliy infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha tashabbuslar yoshlarning fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Service Learning modeli quyidagi natijalarni ta’minlaydi: ijtimoiy faollikning oshishi; jamoa bilan ishlash ko‘nikmasining rivojlanishi; liderlik sifatlarining shakllanishi; fuqarolik burchini anglash.

*Singapur tajribasi.* Singapur maktablarida “Character and Citizenship Education” dasturi amalga oshiriladi. Ushbu dastur yoshlarda milliy identifikatsiya, vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar turli ijtimoiy loyihalarda ishtirok etadilar. Ayniqsa, volontyorlik faoliyatiga keng e’tibor qaratiladi. Natijada yoshlarning jamiyat oldidagi mas’uliyat hissi mustahkamlanadi.

*Yaponiya tajribasi.* Yaponiyada fuqarolik tarbiyasining asosini jamoaviylik, intizom va o‘zaro hurmat tashkil etadi. Maktablarda o‘quvchilar sinf va maktab hududlarini tozalash, jamoaviy tadbirlarni tashkil etish kabi faoliyatlarda muntazam qatnashadilar. Bunday amaliy faoliyatlar orqali yoshlar mehnatsevarlik, javobgarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni egallaydilar.

*Germaniya tajribasi.* Germaniyada demokratik ta’lim konsepsiyasi asosida o‘quvchilarning siyosiy va fuqarolik savodxonligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar parlament simulyatsiyalari, debatlar va ijtimoiy loyihalarda qatnashadilar. Bu tajriba yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga hamda demokratik qadriyatlarni anglashiga xizmat qiladi.

Fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishning samarali mexanizmlari:

1) Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy ta’lim modeli fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga imkon yaratadi.

2) Loyiha asosida ta’lim. Loyiha faoliyati o‘quvchilarning muammolarni mustaqil hal qilish, tadqiqot olib borish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy loyihalar yoshlarning jamiyatdagi muammolarga nisbatan daxldorlik hissini shakllantiradi.

3) Volontyorlik faoliyati. Volontyorlik fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, volontyorlik bilan shug‘ullangan yoshlar kelgusida ham ijtimoiy faol fuqarolar sifatida shakllanadilar.

4) Demokratik maktab muhiti. Maktab boshqaruvida o‘quvchilarning ishtirok etishi demokratik qadriyatlarni amaliy o‘rganishga imkon beradi. O‘quvchilar kengashlari, maktab parlamentlari va yoshlar klublari bu borada muhim vosita hisoblanadi.

5) Ijtimoiy-emotsional ta’lim. So‘nggi yillarda dunyo ta’lim tizimlarida SEL (Social and Emotional Learning) metodikalari keng joriy qilinmoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda empatiya, mas’uliyat, hamkorlik va ijtimoiy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi.

6) Debat va munozaralar. Debat texnologiyasi o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, o‘z fikrini asoslash va boshqalar fikriga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa, demokratik madaniyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida fuqarolik tarbiyasini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq: fuqarolik kompetensiyalarini o‘quv dasturlariga integratsiyalash; volontyorlik harakatlarini rivojlantirish; maktab parlamentlari faoliyatini kuchaytirish; ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish; xalqaro tajribalar asosida maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish; jamoatchilik bilan hamkorlikni kengaytirish. Mazkur chora-tadbirlar yoshlarning fuqarolik ongini rivojlantirish, jamiyat hayotidagi faolligini oshirish hamda ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Finlandiya, AQSh, Singapur, Yaponiya va Germaniya tajribalarida demokratik boshqaruv, volontyorlik, loyiha faoliyati, xizmat orqali ta’lim va ijtimoiy-emotsional ta’lim mexanizmlarining samaradorligi amaliy jihatdan isbotlangan.

Ushbu tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish yoshlarning fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda mas’uliyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Natijada, jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadigan, demokratik qadriyatlarga sodiq va ijtimoiy mas’uliyatni chuqur his qiladigan barkamol shaxslarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ 406-son. – T., 2016.

2. Musurmonova O. O‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirish texnologiyalari. – T.: Fan, 2016.

3. Quronov M., Eshmuhamedova M. Fuqarolik madaniyati va yoshlar tarbiyasi masalalari. – T.: Ma’naviyat, 2022.

4. Banks J.A. Diversity and Citizenship Education: Global Perspectives. – San Francisco: Jossey-Bass, 2004.

5. Schulz W., Ainley J., Fraillon J. ICCS 2016 Assessment Framework. – Amsterdam: IEA, 2018.

6. Biesta G. Learning Democracy in School and Society. Rotterdam: Sense Publishers, 2011.

7. Westheimer J., Kahne J. Educating the Good Citizen. American Educational Research Journal, 2004.

8. CASEL. What is social and emotional learning? – Chicago: CASEL Publications, 2023.

# МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЭСТРАДНОГО ПЕНИЯ СТУДЕНТАМ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ УЗБЕКИСТАНА

**Джалилова Камилла Исламовна, и.о. доцента кафедры «Эстрадное пение» института национального эстрадного искусства имени Б. Закирова при Государственной консерватории Узбекистана**

**Аннотация.** Статья посвящена исследованию педагогических основ преподавания эстрадного пения студентам на базе национальных музыкальных традиций Узбекистана. Рассматриваются историко-культурные процессы формирования узбекской музыкальной эстрады, взаимодействие фольклорного и профессионального искусства, а также роль традиционных исполнительских школ в современном вокальном образовании. Особое внимание уделяется методике формирования вокальных навыков, сценической выразительности и психологической устойчивости исполнителя.

**Ключевые слова:** эстрадное пение, вокальная педагогика, национальные традиции, исполнительское искусство, сценическая культура, Шашмаком.

**Abstract**. The article examines pedagogical foundations of teaching pop singing to students based on Uzbek national musical traditions. It explores historical and cultural processes of forming Uzbek pop music, interaction between folklore and professional art, and the role of traditional performance schools in modern vocal education. Special attention is given to methods of developing vocal skills, stage expressiveness, and psychological stability of performers.

**Key words:** pop singing, vocal pedagogy, national traditions, performing arts, stage culture, shashmakom.

**Annotatsiya.** Maqola Oʻzbekiston milliy musiqa an’analari asosida estrada qoʻshiqchiligini oʻqitishning pedagogik asoslarini oʻrganadi. Unda oʻzbek estrada musiqasining shakllanish jarayoni, folklor va professional san’atning oʻzaro ta’siri hamda an’anaviy ijrochilik maktablarining oʻrni tahlil qilinadi. Shuningdek, vokal koʻnikmalarini shakllantirish, sahna madaniyati va ijrochining psixologik barqarorligini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

**Kalit soʻzlar:** estrada qoʻshiqchiligi, vokal pedagogikasi, milliy an’analar, ijrochilik san’ati, sahna madaniyati, shashmaqom.

Музыкальное образование в Республике Узбекистан активно развивается как часть государственной политики, которая помогает укреплять духовные ценности, сохранять культурные традиции и поддерживать молодежь В выступлениях Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева неоднократно подчёркивается важность развития искусства и интеграции национальных традиций в систему современного образования [1].

Современные реформы в сфере культуры и искусства направлены на улучшение подготовки молодых исполнителей, развитие национальных традиций и повышение качества образования. В этом процессе важное место занимает преподавание эстрадного пения, которое помогает воспитывать профессионально подготовленных исполнителей и сохранять национальные культурные традиции.

Музыкальная культура Узбекистана формировалась на протяжении многих веков и представляет собой богатую систему народного и профессионального искусства. Особое место занимает Шашмаком, признанный ЮНЕСКО объектом нематериального культурного наследия человечества [2].

Шашмаком является сложной вокально-инструментальной системой, в которой сочетаются поэзия, музыка и восточные философские традиция и сказания. Для шашмакома свойственны импровизация, мелодические украшения и выраженная эмоциональность исполнения.

Наряду с профессиональной музыкальной традицией важную роль играют фольклорные жанры, народные песни, обрядовая музыка и искусство бахши. Эти формы национального музыкального творчества оказали значительное влияние на формирование современного исполнительского мышления и развитие узбекской эстрады.

Формирование узбекской эстрады связано с процессом трансформации народного искусства в профессиональную сценическую форму. В XX веке появляются первые эстрадные оркестровые коллективы, объединяющие национальные музыкальные традиции с современными направлениями музыкального искусства [3]. Согласно исследованиям Ю.Ш.Тураева, важную роль в развитии национальной эстрады сыграли концертно-этнографические коллективы, а также эстрадно-симфонические оркестры, способствовавшие профессионализации исполнительского искусства [5].

В 1950-1970 годы начинается активное развитие эстрадной культуры, связанное с появлением новых музыкальных направлений, расширением концертной деятельности и формированием сценической культуры исполнителя. Эстрада приобретает синтетический характер, объединяя музыку, театр, танец и сценическое действие. Современная методика преподавания эстрадного пения представляет собой комплексную систему профессиональной подготовки вокалистов. Она включает основные направления работы: постановку певческого дыхания, развитие и совершенствование дикции и артикуляции, развитие музыкального слуха и правильного точного интонирования, развитие диапазона голоса, улучшение тембра голоса, формирование резонаторной техники, а также формирование сценической выразительности. Особое значение в процессе подготовки исполнителя имеет развитие сценической уверенности. Психологическая устойчивость позволяет студенту преодолевать волнение, свободно взаимодействовать с аудиторией и раскрывать художественный образ произведения.

В образовательной практике используются различные методы, направленные на подготовку исполнителей к сценической деятельности. Среди них – создание условий, приближенных к концертным выступлениям, увеличение сценической нагрузки, для развития уверенности и устойчивости на сцене, а также формирование навыком самоконтроля, необходимых для управления своим эмоциональным состоянием и качеством исполнения во время выступлений [6].

Одним из важных составляющих элементов подготовки студентов является изучение творчества известных представителей узбекской эстрады

Творчество Батыра Закирова является примером высокой исполнительской культуры, сценической интеллигентности и художественной выразительности. Исполнительская манера Ю.Усмановой отличается эмоциональной насыщенностью, яркой подачей и сохранением национального колорита. Особое место в развитии

узбекской эстрады занимает ансамбль «Ялла» и творчество Фарруха Закирова, в которых гармонично сочетаются национальные музыкальные традиции и современные эстрадные формы. Также значительный вклад в развитие эстрадного искусства внесла Насиба Абдуллаева, чьё творчество отличается лиричностью, вокальной выразительностью и высокой культурой исполнения. Необходимо отметить талантливую Гульсанам Мамазаитову, которая в своем творчестве сочетает национальные традиции и современное эстрадное исполнительство. Особое значение имеет и творчество Севары Назархан, отличающееся оригинальным стилем, глубоким музыкальным содержанием и соединением фольклорных традиций с современным звучанием. Произведения этих исполнителей включены в образовательную программу на кафедре «Эстрадное пение» в институте национального эстрадного искусства имени Батыра Закирова и активно используются в образовательном процессе как пример сценической культуры, художественного мышления и профессионального мастерства.

Таким образом, преподавание эстрадного пения на основе национальных музыкальных традиций Узбекистана представляет собой важное направление современной музыкальной педагогики. Интеграция национального музыкального наследия в образовательный процесс способствует формированию профессионального исполнителя, обладающего вокальной техникой, сценической культурой, артистизмом и национальной идентичностью. Использование традиционных музыкальных форм, изучение творчества выдающихся представителей узбекской эстрады и развитие сценической выразительности позволяют обеспечить гармоничное развитие личности будущего исполнителя и сохранить культурное наследие в условиях современной музыкальной среды.

**Литература**

1. Официальные выступления и материалы Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева: https://president.uz
UNESCO. Shashmakom – Intangible cultural heritage of humanity. https://ich.unesco.org

2. Юсупов Л. Джаз в Узбекистане. – М.: Советский композитор, 1967.

3. Турсунова Г.А. Музыкальная династия Закировых в культуре Узбекистана XX века. – Т., 2007.

4. Тураев Ю.Ш. Узбекская национальная музыкальная эстрада: страницы истории. – Т.: Государственная консерватория Узбекистана.

5. Kenny D., Patston T. Performance anxiety in musicians: psychological approaches to performance anxiety.

## ALOHIDA EHTIYOJLI BOLANING OILA VA IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHISH OMILARI

**Dehqanova Muborakxon G‘iyeziddin qizi,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti**

**Kalit so‘zlar:** alohida ehtiyojli bola, oila, qo‘llab-quvvatlash, e’tibor, vosita, imo-ishora, ikkilamchi belgilar, befarqlik, muhit.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada alohida ehtiyojiga ega bo‘lgan shaxslarning oilaga moslashishi uchun kerak bo’ladigan maslahatlar va ularda yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Respublikamizda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tug‘ilishini oldini olish, bunday bolalarni davolash ishlariga davlatimiz tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Alohida yordamga muxtoj bolalarga moddiy, tibbiy, psixologik-pedagogik, ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq masalalar hamma vaqt barcha davlatlarning ilg‘or jamoatchiliklarini tashvishlantirib kelgan. Bizning mamlakatimizda nogiron bolalarni qo‘llab-quvvatlash, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, tabiatda sodir bo‘lib kelgan ekologik muammolar va boshqa sabablardan qat’iy nazar hamma vaqt davlat e’tiborida bo‘lib kelgan.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar orasida intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalar son jihatdan nisbatan qo‘proq uchrab turadi. Aqli zaiflikning yengil, o‘rta va ba’zan og‘ir darajasidagi bolalar, hozirgi kunda, maxsus maxsus maktabgacha ta’lim muassasasigacha tarbiya mussasalarida va maxsus maktabgacha ta’lim muassasasilarda, maktab-internatlari yoki umumta’lim muassasalari qoshida tashkil etilgan yordamchi guruh yoki yordamchi guruhlarda ta’lim olmoqdalar. Ushbu muassasalarning asosiy vazifasi alohida ehtiyojli bolalar ijtimoiy adaptatsiyasi, reabilitatsiyasini amalga oshirish, ya’ni aqlan zaif bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topib, hamma qatori yashab ketishiga yordam berishdir.

***Oila*** – bu mehr muhabbatga to‘la dargoh xisoblanadi. Oilani asosi bu ota ona, sog‘lom farzandlar va sog‘lom muhitdir. Lekin ayrim narsalar borki bu hayotimizning sinovi bo‘ladi. Oilada farzand tug‘ilishi kutilmoqda. U onasi yoki otasiga o‘xshash bo‘ladimi? Balki u buvisiga o‘xshash? Odatda, ota-ona o‘z farzandining kelajagini homila vaqtidayoq rejalashtiradilar. Bola qaysi maktabgacha ta’lim muassasasiga, maktabga borishini, katta bo‘lganda kim bo‘lishini tasavvur qiladilar. Mutaxassislar onaga bolaning nogironligi haqidagi ma’lumotni yetkazganlarida, bu rejalarga nima bo‘ladi? Ko‘pchilik tadqiqotchilar onaga bolaning tashxisi haqida ma’lumot yetkazgan vaqtdagi tashvishli xolatini ramziy ma’noda yo‘qotish kechinmalari bilan taqqoslaydilar. Ota-ona kutgan farzand tug’ilmadi. Uning o‘rniga boshqa farzand tug‘ildi. Ota-onani birinchi larzaga solgan xolat bir umr ushbu bolani hayotga tayyorlash o‘z ehtiyojlarini qondirishni o‘rgatish, vazifalarini yengillashtirish. Ushbu vazifalar bajarish jarayoni bir muncha orqaga chekingach, bola kelgusida qanday yashashi kerak degan savol tug‘iladi. Bolaga nima kerak? Kelgusida bola o‘z oilasini qurishi uchun uni jamiyatning mustaqil, to’liq va teng huquqli a’zosi sifatida voyaga yetkazish mumkinmi? Bu bolani qanday qilib voyaga yetkazish mumkin? Ota-ona va mutaxassislar quidagi qoidalarni bilishlari zarurdir.

Nogironligi bo‘lgan bola boshqa bolalar kabi bir xil extiyojlarga ega. Bugungi kunda nogironligi bo’lgan bolalarni “alohida extiyojlarga ega bo‘lgan bola” deb atash to‘g‘ri xisoblanadi. Qanchalik g‘alati bo’lib tuyulmasin unda “alohida extiyojlar” ancha ko‘zga tashlanishi xisoblanadi. Shunchaki u muxabbat, xavfsizlikka, jismoniy extiyojlarining qondirilishiga, yangi taassurotlar va uni o‘rab turgan atrof-muxitni bilishga extiyoj sezadi. U boshqalar bilan muloqot qilishi, o‘yin o‘ynashi va o‘qishi kerak. Ya’ni boshqa bolalarga kerak bo’lgan hamma narsa unga xam kerak. Ushbu extiyojlarni qondiruvchi vositalar, haqiqattan xam alohida bo’lishi mumkin. Masalan, harakat tayanch apparatida buzilishiga ega bo‘lgan bolaga harakat qilishi va atrof-muxitni o‘rganishi uchun maxsus moslashuvi

yoki yaqinlarining yordami kerak bo'lishi mumkin. Atrof-muxitni bilish uchun faqat vosita kerak xolos. Nutqqa ega bo'lmagan bola qaysi yo'l bilan muloqot qilishi muxim emas – imo-ishoralar, maxsus suratlar – eng asosiysi uning muloqotga bo'lgan extiyoji qondirilishi lozim. Nogironlikka ega bo'lgan bola xam boshqa bolalar o'tishi kerak bo'lgan rivojlanish bosqichidan o'tadi.

Yuqoridagi ko'rsatilgan sensitiv davr nogironligi bo'lgan bolalarda xam o'tadi. Agarda sensitiv davrni bola rivojlanishidagi u yoki bu funksiyaga yaxshi va qulay sharoit yaratuvchi bosqich sifatida o'tkazib yuborilsa, kelgusida ularni rivojlantirish yanada murakkab, ba'zida butunlay imkoniyatsiz bo'lishi mumkin. Masalan, bolalarda nutq rivojlanishining sensitiv davri 3 yoshgacha o'tadi. Eshitish qobiliyati va nutqqa ega bo'lmagan bola ota-onasi nima qilishi kerak? Imo-ishoralar tili – eshitish qobiliyati ga ega bo'lmagan kishilar uchun to'liq til xisoblanadi. Imo-ishoralar tilini egallagan bola o'z rivojlanishida eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan bola kabi nutq rivojlanish bosqichidan o'tadi (6 oylikdan so'ng so'zlarni "yasaydi", bir yoshida so'z – imo-ishoralarni, bir yarim yoshida to'liq gaplar tuzadi va «lug'at boyligi» yaratiladi). Yaxshi va qulay sharoitning yo'qligi, sensitiv davrga e'tibor bermaslik tufayli bolada ikkilamchi buzilishi yuzaga keladi. Ikkilamchi buzilishi bu – bolaning birlamchi tashxisi bilan bevosita bog'liq bo'lmasdan, to'g'ri sharoit yaratish bilan bu xolatdan holi bo'lish mumkin. Misol keltiramiz; tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan bola xuddi o'zi kabi eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan ota-ona oilasida voyaga yetayotgan bo'lishiga qaramay, psixik rivojlanish darajasiga ko'ra o'z tengdoshlaridan qolishmaydi. Ayni paytda esa, deyarli barcha eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalar eshitishida nuqsoni yo'q ota-ona oilasida yashab, ikkilamchi buzilishi sifatida psixik rivojlanishdan ortda qoladilar. Nima uchun? Chunki, birinchi vaziyatda nutqning rivojlanishi uchun sensitiv davr boy berilmagan bo'lib, bola atrof muxitni bilish va muloqot uchun kerak bo'lgan vosita – nutqni egallagan. Uning tengdoshi esa eshitish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-ona oilasida yashasada, bu imkoniyatga ega bo'lolmadi va rivojlanishi uchun tavsif etilgan bolaga nisbatan tengsiz sharoitda qoldi. Nima uchun ko'rish qobiliyatida jiddiy buzilishiga ega bo'lgan bola xarakat rivojlanishidan orqada qoladi. Bu xolat bolaning ko'rish imkoniyati cheklanganligi tufayli emas, balki xarakat qilishi uchun qulay sharoit yaratilmaganligi uchun yuz berdi.

Demak, rivojlanishida buzilishiga ega bo'lgan bolalarni boshqa bolalar o'rganishi kerak bo'lgan xamma narsaga o'rgatish lozim. Haqiqatan ham, bu bolalar sekin rivojlanadilar, lekin ular kechikib bo'lsada, oddiy bolalar o'tadigan bosqichdan o'tadilar. Bola faqat o'z tengdoshlari kabi, ularning oldida turgan vaziyatlarni xal etish va qiyinchiliklarni yengib o'tibgina muvaffaqqiyatli rivojlanadi.

**Adabiyotlar**


1. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari. – T.: Voris, 2012.

2. Nurkeldiyeva D.A., Xamidova M.U. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. – T., 2016.

3. Maxsus pedagogika: Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014.

4. Maxsus psixologiya: O'quv qollanma. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

5. Nutqning ontogenezda rivojlanishi: O'quv uslubiy majmua. – T., 2021.

# METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE ISSUE OF DEVELOPING COGNITIVE PROCESSES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN AN EDUCATIONAL CLUSTER ENVIRONMENT

**Dehkanova Muborakkhon G'iyeziddin qizi,**
**doctoral student at the National institute of education pedagogy**

**Abstract.** This article provides information about the methodological basis of educational clustering and its direct importance in the implementation of inclusive education, foreign experience, the current role of education among subjects, and its methodology.
**Key words:** cluster system, education, pedagogy, research, subject.

In our country, the problem of pedagogical education cluster and its implementation in practice has been studied in depth as a separate research object in recent years. In particular, the fact that the educational cluster is a new innovative direction in our pedagogy related to integration and continuity and its implementation in practice is a factor in training competitive personnel in pedagogical education has been highlighted to a certain extent in the studies of G.I.Muhamedov, Sh.Q.Mardonov, Sh.Botirova, Kh.Sultonov, S.Toshtemirova, N.Koshanova, and Q.Mahmudov [5]. In areas related to the problem, in particular: organizational and pedagogical factors of the continuing education system, mechanisms for improving the content and form of the education system by R. Eshchanov, G.Bobojonova, D.Bekchanov, M.Kuronov, R.A.Mahmudov, R.Sh.Ahliddinov, Yu.N.Abdullaeva; ensuring continuity and continuity in education, strengthening integration between types of education by B.S.Abdullaeva, N.Kh.Rakhmonkulova, D.Sh.Yakibova, M.I.Toshpulatova, A.A.Zhumanov, R.B.Adizov; ensuring interdisciplinary connections and organizational aspects of scientific and methodological cooperation of educational institutions are reflected in the scientific research of N.M.Abdullaeva, G.Sh.Fayzullaeva, O.K.Abdurakhmonov. Scientific and theoretical foundations of the organization of educational clusters in the countries of the Commonwealth of Independent States (CIS), in particular, the structure of territorial educational clusters and the development of mechanisms for their implementation in practice, the problems of implementing the cluster model in vocational education A.Yashevoy, B. Pugacheva, A.G.Granberg, M.Galushkina, A.V.Leontev; technologies for theoretical and scientific-methodological improvement of educational management using the cluster model N.V.Gorodnova, P.F.Anisimov, G.I.Ibragimov, D.L.Skipin, V.P.Panasyuk, N.Ye.Yegorov; the content, conditions and factors of integration of production and education using clusters N.A.Mishura, L.L.Naumova; Integrated systems of organizing educational resources based on social cooperation that increase the capabilities of individual subjects and cluster participants were studied by A.S.Subetto, Ye.A.Korchagin, N.A.Sharay, L.N.Nikolaeva, T.V.Vdovina. In the scientific research of foreign scientists A.Marshall, M.Porter, O.Solvel, G.Lindgvist, S. Ketels, the role of the cluster model in increasing the competitiveness of certain entities, the unique typological features of the educational cluster model are revealed on the example of the USA and European countries. In foreign studies, educational clusters are generally studied in such areas as territoriality, management, competitiveness, science and production relations. The need to implement the cluster model as a factor affecting efficiency in a specific branch of education, in particular, pedagogical education, determined the topic of our research [4].

The cluster system unites entities that each carry out its own activities around a common goal, and at the same time, each entity acts on the basis of its own interests, proceeding from a common goal. The entities of the cluster system support and control each other, each of which creates a spiritual and intellectual space for a separate cluster, expanding its social impact and significance. Effective mechanisms and innovative technologies for preparing future specialists for professional activity have been implemented in the world education system [1]. As a result, the opportunity to model a modernized system of providing quality education through rapid diagnostics of the academic and social needs of the learner has expanded. Based on the "Inchhon" Declaration adopted by the international organization UNESCO, "Lifelong Education" and "Education for All" programs, systematic work is being carried out to achieve inclusive education through the early involvement of children with disabilities in education, to improve the methods of teaching subjects in higher education and to provide practical guidance, and to intensively develop the professional competencies of future defectologists.

In world higher education and research institutions, scientific research is being conducted to develop methodologies for teaching children with disabilities in the process of inclusive and remedial education, diversify the activities of educational participants, improve the technologies of methodological preparation of future defectologists for professional practice, and identify effective mechanisms for increasing the participation of families and partner organizations in the educational process. Leading countries in the USA, China, Japan, France, Germany, Singapore, and Russia pay special attention to the use of interactive methods, effective use of adaptive teaching aids in preparing future defectologists, parents, and narrow specialists for the practice of remedial and inclusive education, the creation of didactic support for optimizing communicative-motivational, reflexive-developing requirements for the content of preschool and school education, improving pedagogical mechanisms for preparing students for mentor-teacher, mentor-student, partner-family activities, as well as systematizing technologies for preparing children with special needs for social life. An educational cluster is a system of a network of educational organizations aimed at developing priority socio-economic sectors of regions and municipalities, improving the quality of the educational process in the interests of the intellectual development of the younger generation. In particular, an educational cluster, as a rule, helps to unite and solve problems within the framework of fundamental scientific and scientific-practical developments, educational projects, new technologies and techniques, design and production of scientific products in the region.

**List of used literature**

1. Муҳамедов Ғ.И., Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф. – Т.: Университет, 2019.

2. Питюков В.Ю. Основны педагогической технологии. – М.: Гном-Пресс, 1999.

3. Поулсеи С. Введение в современную методику преподавания. – Б.: Кесип, 2007.

4. Рахмонов А.Р. Инновацион таълим кластери ўқув фаолиятига самарали усул сифатида // Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар. – Ч., 2019.

5. Файзуллаева Н.С. Таълим тизимида стратегик бошқарувнинг амалий аҳамиятлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – Т., 2012. – 5-сон. 2012.

6. Ходжамкулов У.Н. Таълим кластери инновация сифатида // Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар: Халқаро илмий-амалий анжуман илмий ишлар тўплами. – Ч., 2019. – II-қисм.

# XALQARO TA’LIM TAJRIBASI ASOSIDA YOSHLARNING FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

**Jabbarov Zarifboy Rustamovich, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqaro ta’lim tajribasi asosida yoshlarning fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni, uning dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy ta’lim modeli hamda global ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalar asosida fuqarolik faolligini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik kompetensiyasi, xalqaro ta’lim tajribasi, fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim innovatsiyalari.

Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda jamiyatning barqaror va muvozanatli rivojlanishi ko‘p jihatdan fuqarolarning faol fuqarolik pozitsiyasiga, ijtimoiy jarayonlarda ongli ishtirokiga hamda mas’uliyatli xulq-atvoriga bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Mazkur holat fuqarolik jamiyatini shakllantirish va mustahkamlashda ta’lim tizimining strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yosh avlodni fuqarolik kompetensiyalari bilan qurollantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni shaxsda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash, huquqiy ong, demokratik qadriyatlarga sodiqlik hamda jamiyat hayotida ongli ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik ta’limi zamonaviy ta’lim tizimlarida tor doiradagi bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiylashuvi va fuqarolik identifikatsiyasini shakllantiruvchi kompleks pedagogik tizim sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda fuqarolik ta’limi o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, ularning huquqiy madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyatdagi turli jarayonlarda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi [1]. Shu bilan birga, fuqarolik ta’limi shaxsning axloqiy qadriyatlari, demokratik tamoyillarga munosabati va ijtimoiy muammolarga nisbatan ongli pozitsiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida ham baholanadi. Natijada, fuqarolik kompetensiyalariga ega bo‘lgan yosh avlod jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etuvchi, mas’uliyatni his qiluvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shuvchi shaxs sifatida shakllanadi [2].

Fuqarolik kompetensiyasi shaxsning jamiyat hayotida faol va ongli ishtirok etish, ijtimoiy jarayonlarni chuqur anglash, huquq va burchlarni to‘liq idrok etish hamda ijtimoiy mas’uliyatni his qilish qobiliyatini ifodalovchi integral ijtimoiy-pedagogik tushuncha hisoblanadi. U o‘z tarkibida kognitiv (bilim), operatsion (ko‘nikma), aksiologik (qadriyatlar tizimi) hamda xulq-atvor (amaliy faoliyat) komponentlarini birlashtiradi. Mazkur komponentlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda shaxsning fuqarolik madaniyati va ijtimoiy faolligini shakllantiradi [3].

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki,

fuqarolik ta’limi zamonaviy pedagogik tizimlarda nafaqat nazariy bilim berishga, balki amaliy ijtimoiy tajriba orqali shaxsni jamiyat hayotiga faol jalb etishga qaratilgan [4]. Jumladan, Finlyandiya ta’lim tizimida loyiha asosida oʻqitish texnologiyalari keng qoʻllanilib, oʻquvchilar real ijtimoiy muammolarni tahlil qilish, ularni hal etish boʻyicha mustaqil qarorlar qabul qilish va jamoaviy faoliyat yuritish koʻnikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa, ularning tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

Germaniya ta’lim tizimida esa, demokratik ta’lim tamoyillari asosida maktab boshqaruvida oʻquvchilarning bevosita ishtiroki yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, bu holat yoshlarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi, huquqiy ong va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

AQSh ta’lim tizimida “civic education” dasturlari orqali oʻquvchilarning fuqarolik faolligi, ijtimoiy jarayonlarga aralashuvi hamda demokratik qadriyatlarga sodiqligi rivojlantiriladi. Mazkur dasturlar interaktiv metodlar va amaliy loyihalar asosida amalga oshiriladi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimida esa, axloqiy tarbiya va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish integratsiyalashgan yondashuv asosida olib boriladi. Bu yondashuv shaxsning nafaqat bilim, balki axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatini ham kompleks rivojlantirishga qaratilgan.

Xalqaro ilgʻor tajribalar mavjud boʻlishiga qaramasdan, fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida qator tizimli va metodik muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolar ta’lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir koʻrsatib, yoshlarning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish jarayonini sekinlashtiradi.

Birinchidan, ta’lim jarayonida nazariy bilimlarning ustunligi, amaliy faoliyatning esa yetarli darajada tashkil etilmaganligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Koʻplab holatlarda oʻquv jarayoni asosan ma’lumotlarni yodlash va reproduktiv faoliyatga yoʻnaltirilgan boʻlib, bu esa oʻquvchilarda real hayotiy vaziyatlarda qoʻllaniladigan fuqarolik koʻnikmalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan, oʻqituvchilarning metodik tayyorgarligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash boʻyicha kompetensiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim toʻsiq sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu holat interaktiv metodlar, loyiha asosida oʻqitish va kompetensiyaviy yondashuvning amaliyotga keng joriy etilishini cheklaydi.

Uchinchidan, raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish darajasining pastligi ham fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga salbiy ta’sir koʻrsatadi. Zamonaviy raqamli platformalar va elektron resurslar yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi oʻquv jarayonining interaktivligi va individuallashuvini cheklaydi.

Toʻrtinchidan, oʻquvchilarda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlikning yetarli darajada shakllanmaganligi muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ijtimoiy loyihalarda qatnashishi va fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishiga toʻsqinlik qiladi.

Beshinchidan, maktab va jamiyat oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmlarining zaifligi fuqarolik ta’limining amaliy samaradorligini kamaytiradi. Ta’lim muassasalari va ijtimoiy institutlar oʻrtasidagi integratsiyaning yetarli emasligi oʻquvchilarning real ijtimoiy muhitda tajriba orttirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va fuqarolik kompetensiyalarini samarali shakllantirish uchun bir qator strategik yoʻnalishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb

etadi. Ushbu yo‘nalishlar ta’lim tizimining sifatini oshirish, o‘quv jarayonini amaliyotga yaqinlashtirish hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi [5-6].

Birinchidan, kompetensiyaviy ta’lim modelini keng joriy etish zarur. Bu yondashuv ta’lim jarayonini faqat nazariy bilimlarni uzatishga emas, balki o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga yo‘naltiradi. Kompetensiyaviy model shaxsning real hayotiy vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, interaktiv va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish muhimdir. Ushbu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, jamoaviy ishlash ko‘nikmalari va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, ular ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Uchinchidan, o‘qituvchilarning malakasini xalqaro tajriba asosida muntazam oshirib borish zarur. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, raqamli ta’lim platformalaridan samarali foydalanishni kengaytirish lozim. Moodle, Google Classroom va boshqa elektron tizimlar ta’lim jarayonining shaffofligini oshiradi, o‘quv materiallariga tezkor kirish imkonini beradi hamda individual yondashuvni ta’minlaydi.

Beshinchidan, o‘quvchilarni ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatiga faol jalb etish muhimdir. Bu esa, ularning fuqarolik faolligini oshiradi, ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlaydi va real hayotiy tajriba orttirishiga yordam beradi. Natijada, yoshlar jamiyat rivojiga hissa qo‘shadigan faol fuqarolar sifatida shakllanadi.

Xalqaro ta’lim tajribalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodning fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u uzluksizlik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha fuqarolik ongini shakllantirish va rivojlantirishni izchil ta’minlashni nazarda tutadi.

Fuqarolik faolligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlarning qo‘llanilishi, kompetensiyaviy ta’lim yondashuvining joriy etilishi hamda o‘quvchilarning amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Interaktiv o‘qitish, loyiha asosida ta’lim, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va real ijtimoiy amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar yoshlarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ijtimoiy mas’uliyatini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimi yoshlarni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirishni emas, balki ularni faol, tashabbuskor, mas’uliyatli va jamiyat taraqqiyotiga bevosita hissa qo‘shadigan shaxs sifatida shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo‘yishi zarur. Bu esa ta’lim, tarbiya va amaliy ijtimoiy faoliyat integratsiyasini taqozo etadi.

Natijada, fuqarolik kompetensiyalariga ega bo‘lgan yoshlar jamiyatda ongli pozitsiyaga ega bo‘lgan, demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlaydigan va ijtimoiy rivojlanishga faol hissa qo‘shadigan yetuk shaxslar sifatida shakllanadi.

**Adabiyotlar**

1. Dewey, J. (2016). Democracy and Education. New York: Free Press.
2. Banks, J.A. (2017). Citizenship education and diversity. New York: Routledge.
3. Kerr, D. Citizenship education in Europe. London: Council of Europe.
4. Беспалько В.П. Педагогические технологии. – М.: Педагогика, 2019.
5. Полат Е.С. Современные педагогические технологии. – М.: Академия, 2020.

6. UNESCO Institute for education (2020). Civic education in a global era. Hamburg.

## АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ

**Жумабаев Амир Дарменбай улы, старший научный сотрудник Национального института педагогики воспитания**

**Аннотация.** В данной статье речь идёт о существенных проблемах и задачах в области воспитания студенческой молодёжи, основанные на имеющихся тенденциях в сфере воспитания.

**Ключевые слова:** будущий учитель, воспитание, инклюзия, образовательное учреждение, когнитивные задания.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talaba yoshlarni tarbiyalash sohasidagi mavjud tendensiyalarga asoslangan muhim muammo va vazifalar haqida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar:** boʻlajak oʻqituvchi, tarbiya, inklyuziya, ta’lim muassasasi, kognitiv vazifalar.

**Abstract.** This article deals with significant problems and tasks in the field of education of student youth, based on existing trends in the field of education.

**Key words:** future teacher, education, inclusion, educational institution, cognitive tasks.

Сессия ООН, прошедшая в городе Рио-де-Жанейро в 1992 году, заставила весь мир официально говорить о приоритете ценности человека, о значении данной ценности для сохранения мира и жизни на Земле. 181 государство подписало документ «Повестка дня на XXI век», где обозначена система приоритетных ценностей мира. К ним относятся: гуманность как сущностное качество личности, признание человека высшей ценностью, вера в человека, гуманистические идеалы истины, добра, красоты, веры, надежды, дружбы, любви, толерантности, дружелюбия, готовность понять и помочь; служение гуманистическим идеалам; подчинение требованиям общества, дисциплинированность; умение добиваться целей и быть требовательным к себе; свобода выбора, разумное умение обособляться и проявлять стремление к сотрудничеству и сотворчеству; ответственность за свои поступки, признание и исправление ошибок, поведение; уважение ко всему живому на земле, к природе; честность, принципиальность, справедливость, требовательность к себе и другим в сочетании с терпимостью, тактом; способность к пониманию и взаимодействию, способность создать семью и быть примерным семьянином, готовность к самоограничению.

Значит, знание и владение перечисленными выше нравственными нормами регулируют отношение личности к ценностям общества, проявляя духовность как её внутренний потенциал; готовность к проявлению свободы личности как ценности (от обособления до единения в сотворчестве и сотрудничестве) и – ее ответственности (индивидуальной или коллективной).

Но мир не стоит на месте и в нём постоянно появляются новые векторы, которые направлены на решение существующих проблем в воспитании личности. К примеру, в

связи с развитием информационных технологий, появился термин – киберсоциализация (от греч. kybemetike – искусство управления).

Киберсоциализация – это процесс качественных изменений в личности, происходящих под воздействием ее взаимодействия в киберпространстве (Internet-среды). Такое взаимодействие сопровождается использованием интернет-ресурсов (переписки по e-mail, на форумах, в чатах, блогах, интернет-пейджерах, телеконференциях и онлайн-играх). Все это существенно сказывается на формируемой личности, ее восприятии информации, избирательности, мышлении и других качествах личности.

Существенным фактором, оказавшим влияние на социализацию обучаемых, является дистантное обучение, переход к «электронному обучению». Под электронным обучением понимается организация образовательной деятельности с применением содержащейся в базах данных и используемой при реализации образовательных программ информации и обеспечивающих ее обработку информационных технологий, технических средств, а также информационно-телекоммуникационных сетей, обеспечивающих передачу по линиям связи указанной информации, взаимодействие студентов и педагогов.

Следует подчеркнуть, что дистанционное обучение, широко распространённое в период пандемии, имеет достаточное количество положительных моментов, которые сводятся к тому, что получать образование можно, не выходя с дома и в любое время суток. Но есть и недостаки, которые способствовали тому, что нарушилась естественность образования, когда личность формирует личность. Как писал известный педагог К.Д.Ушинский: «В воспитании все должно основываться на личности воспитателя, потому что воспитательная сила изливается только из живого источника человеческой личности. Только личность может действовать на развитие и определение личности, только характером можно образовать характер». Эти слова актуальны и сегодня, кроме того, заставляют нас понять одну истину о том, что цифровая трансформация образования ведет к подмене личности воспитателя-педагога. Информационная технология может формировать себе подобное, роботизировать растущего человека. Воспитанию нужен субъект воспитания, духовно богатый, нравственно воспитанный человек, который своим примером, образом жизни, способностью убеждать, воспитывать, формирует себе подобную духовно-богатую личность человека-созидателя, творца.

Следовательно, если государству нужен робот, его можно создать с заданными характеристиками, если духовно богатая, творческая личность созидателя – нужен такой же воспитатель. Цифровая трансформация в образовании может дополнять возможности педагога, в воспитании – возможности воспитателя, но не подменять их – это главное в воспитании и образовании. Кроме того, дистанционное обучение нарушает совместность в обучении, о важности которой писал еще чешский педагог Я.А.Коменский. Именно в учебной группе складывается наиболее конструктивный настрой на обучение. Педагогу необходимо чувствовать, как понимает его обучаемый, в каком он находится состоянии, чтобы конструктивно влиять на него.

Важным компонентом познавательной деятельности студента на занятии является его реакция, которую увидеть, почувствовать и адекватно отреагировать в процессе такого формата обучения педагогу невозможно. Также дистантное обучение негативно сказывается на обучаемых, их организованность, подготовку к занятиям, дисциплину

и пр. Дистантное обучение негативно сказывается на педагоге, который не может управлять учебным процессом. Если он включает демонстрацию для лучшего восприятия, то вообще теряет контакт с аудиторией. Практически он превращается в озвучивателя учебного материала и фиксатора присутствия обучаемых. В то же время, по данным опросов педагогов видно, что некоторых также начинает устраивать дистантная форма обучения, так как не надо торопиться, а главное огромная экономия времени на дорожное передвижение, а также требований к себе.

Работа в сети связана с взаимодействием с техникой, которая у преподавателей и студентов разная; разная надежность у нее; подготовленность к работе в сети тоже разное, наконец, программное обеспечение тоже может сказываться на реализации дистантного обучения. Все это должно работать синхронно, обеспечить которое практически невозможно.

Информационные технологии активно используют как информационно-методическое сопровождение учебной деятельности, которое предусматривает выполнение студентами заданий по программе изучения учебной дисциплины. Студенты перестают читать учебную литературу, излагать своими словами свои суждения. Все это существенно сказывается на развитие их мышления, памяти и речи. Активное внедрение информационных технологий в образовательный процесс имеет и другие негативные последствия, которые требуют специальных исследований.

В то же время, нельзя отрицать и положительной роли информационных технологий. Они известны и можно утверждать, что далеко не в полном объеме реализуются, в частности: люди с особыми адаптивными потребностями, живущие в отдаленных местах, могут получить возможность учиться на равных со сверстниками. Такие обучаемые, как правило, с особой ответственностью относятся к обучению; специалисты получают возможность пройти повышение квалификации по отдельным программам, вызывающих у них особый интерес. Это профессионалы, которые хотят изучить новый для них опыт, подход, способ решения какой-либо проблемы. Они специалисты и для них такая форма обучения вполне конструктивна; информационные технологии приближают для массового потребителя мировые шедевры, удивительные регионы мира с целью удовлетворения растущего познавательного интереса различных категорий людей; особенно востребованным является информационно-методическое обеспечение обучения, которое ориентировано на преподавателя, студента и методиста.

Особое место в становлении личности принадлежит воспитанию, которое представляет собой исключительно сложное дело и включает: формальное (специально-организованное) воспитание; внеформальное (воспитание в учреждениях дополнительного образования, центрах, неформальных объединениях и пр.) воспитание; неформальное (воспитание, обусловленное средой жизнедеятельности) воспитание; целенаправленное (осознанная деятельность по определению цели в воспитании конкретного человека и обеспечению ее достижения) воспитание; самовоспитание (целенаправленная работа над собой).

Все виды воспитания в той или иной степени сталкиваются с IT технологиями. Это значит, что влияние IT технологий на воспитание становится значимым. С ними сталкивается ребенок с раннего возраста и они очень часто заменяют ему естественное человеческое общение, выступая важнейшим источником различной информации, от которого во многом зависит его социальное развитие, социализация, восприятие

реальной жизни, воспитание. Особенно ярко эта сфера проявляется через погружение воспитанника в специально созданное информационное пространство с определенной интерпретацией информации, процессами, событиями и таким образом, направленно влияя на него. Искусственная информационная среда создает некоторую заданность в ребенке, через которую можно влиять на его восприятие, понимание, проявление, что во многом определяет направленность и интенсивность социализации, воспитания. Следовательно, возникает естественно вопрос, кто создает такую среду, и с какой целью.

По своей сущности, информационные технологии стали тем посредником, который включается в воспитание конкретного ребенка. Направленность, цели, содержание и способы влияния на него определяются их создателями. В этих условиях возникает необходимость защитить подростка от негативного воздействия информационных технологий. Особая роль в этом принадлежит субъектам воспитания (родителям, педагогам, социальным педагогам). От их авторитетности, искусства воспитательной деятельности, знаний возможностей информационных технологий, способности наиболее целесообразно использовать или противодействовать их влиянию в воспитании во многом зависит, каким вырастет человек.

Изложенное свидетельствует о том, что субъектами воспитания конкретного воспитанника выступают и среды, в которые он входит, и совокупность воспитателей. Для этого субъекту воспитания необходимо хорошо знать особенности воспитанника, его увлечения, в том числе и информационные технологии, и уметь обеспечивать целенаправленность в его воспитании.

В мировой практике с развитием информационных технологий появились и новые возможности в их использовании, в том числе и для психологического давления, травли детей, подростков и молодежи. Подобное использование их получили названия – кибермоббинг и кибербуллинг.

Кибермоббинг (от англ. cybermobing) и кибербуллинг (от англ. cyberbulling) – интернет-травля – это намеренные оскорбления, угрозы, сообщение другим компрометирующих данных с помощью современных средств коммуникации: компьютеров, мобильных телефонов, электронной почты, Интернета, социальных сетей, блогов, чатов и т.д. Осуществляется интернет-травля через показ и отправление резких, грубых или жестоких текстовых сообщений, передразнивание жертвы в режиме онлайн, размещение в открытом доступе личной информации, фото или видео с целью причинения вреда или смущения жертвы; создание фальшивой учетной записи в социальных сетях, электронной почты, веб-страницы для преследования и издевательств над другими от имени жертвы и т.д. Последствия такого воздействия сказываются на всех участников кибербуллинга. Субъект организации кибербуллинга – «мобберы», «троллиры», «булли». В социальной педагогике такого человека называют виктимизатором (виктимизирующим). Такие люди часто действуют анонимно, и жертва может не знать, от кого проистекают агрессивные действия. Для них нравственные нормы во взаимоотношениях не имеют смысла, главным для него становится быть над другим. Кибербулинг, в основном, проявляется через психологическое воздействие – насилие, связанное с действием на психику, наносящее психологическую травму путём оскорблений или угроз, преследование, запугивание, которыми умышленно причиняется эмоциональная неуверенность, страх, которые сопровождаются внутренним дискомфортом, и может привести к серьезным

психическим проблемам. В него втягиваются соучастники, которые в той или иной степени усиливают его деструктивное влияние на жертву, а также свидетель, проявляющий безразличие к складывающейся, сложившейся ситуации, равнодушие к жертве кибербуллинга. Ситуация кибербуллинга не проходит бесследно и для всех его участников. Одновременно необходимо ограждать несовершеннолетних от опасных для них информационных программ (например, «Синие киты» – группы смерти), которые создаются специалистами психологами, хорошо знающими психологию подростков и умеющими входить к ним с доверием, планомерно и целеустремленно, склоняя к самоубийству, деструктивно влияя на них, формируя безнравственные ценности, побуждая к безнравственному проявлению.

Изложенное свидетельствует о том, что необходимо готовить растущего человека к встрече с различными информационными технологиями, в том числе и деструктивной направленности, помогать ему преодолевать их негативное влияние, а при необходимости защищать его от их деструктивного влияния.

Таким образом, можно утверждать, что цифровая трансформация образования существенно сказывается на подрастающее поколение, и требует учета во всей системе воспитания.

**Литература**

1. Ибраимов Х., Қуронов М., Ибрагимова Ф. Педагогика тарихи ва назарияси: Дарслик. – Т.: Шаффоф, 2023. – 392-б.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son “Pedogogning maqomi to‘g‘risida”gi qonuni: https://lex.uz

## KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA YOSH AVLODDA FUQAROLIK FAOLLIGINI TARBIYALASHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Ibragimova F.X., TDIU, p.f.d. (DSc), dotsent**

Bo‘lajak o‘qituvchilar kognitiv ta’lim jarayonida o‘zini namoyon eta olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilar har bir o‘quvchining mustaqil, betakror shaxs ekanligini anglab yetishlari, buning uchun zarur bo‘lgan pedagogik-psixologik bilimlarni o‘zlashtirishlari talab etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar tarbiya jarayonlarni muvaffaqiyatli loyihalashtirishlari va tashkil etishlari uchun ajdodlarimiz tomonidan asoslangan va amaliyotda isbotlangan yondashuvlar, xalqaro tajribalar, pedagogik qarashlarni muntazam o‘zlashtirishlari hamda ularni o‘z faoliyatida qo‘llash yo‘llarini bilishlari lozim.

Kognitiv yondashuv asosida pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish ko‘nikmalarini egallashda bo‘lajak o‘qituvchilarning inttelktual faolligi muhim ahamiyatga ega. Chunki inttelektual faollik pedagogik voqelikni tez o‘zlashtirishlari, unga nisbatan kreativ yondashishlarini ta’minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining ijodkorliklari tufayli o‘quvchilar bilan bo‘ladigan munosabatlarda duch keladigan qiyinchiliklar va ziddiyatlarni baratraf eta oladilar. Shu tarzda mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etishni nazarda tutgan holda tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashtirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar orasida vujudga keladigan qiyinchiliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: yosh o‘qituvchi tomonidan loyihalashtirilgan tarbiyaviy jarayonlarni loyihasi bilan sinfdagi o‘quvchilarning imkoniyatlari orasidagi nomutanosiblik; o‘quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladigan didatkik materiallarning murakkabligi, ijtimoiy voqelikdan uzoqligi bilan o‘qituvchining o‘quvchilarga g‘oyalar, dunyoqarashlar, yondashuvlarni o‘rgatishga intilishi orasidagi farqlar; o‘qituvchining tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish imkoniyati bilan ta’lim muassasasidagi ijtimoiy madaniy muhi orasidagi nomutanosiblik. Bunday vaziyatlarda bo‘lajak o‘qituvchilar dastlab qiyinchiliklarni bartaraf etishga oid metodikalarni o‘zlashtirishlari kerak. Ular o‘zlari yaratgan pedagogik loyihalarni qo‘llashdan ktiladigan samaradorlik haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari muhim. Bu jarayonda pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim jarayon sifatida xizmat qila oladi. Jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilar kognitiv ta’lim jarayonida o‘quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini loyihalashtira olishlari; bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajalarini diagnostika qila olishlari, uning natijalarini oldindan ko‘ra olish tajribasiga ega bo‘lishlari hamda ularning ma’naviy axloqiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan vositalar va usullarni tanalay olishlari; bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish bosqichlari izchilligini belgilashlari, shu asosda ularning tarbiyalanishlariga ko‘maklashish yo‘llarini o‘rgatishlari muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv ta’lim tizimi an’anaviy ta’lim tizimiga nisbatan bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual ijodiy rivojlantirish sohasida sermahsul hisoblanadi. Chunki kognitiv ta’lim jarayonining markazida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining intellektual rivojlantirish masalasi turadi, tarbiyalash hamda rivojlantirish harakatlari esa asosan ularga yo‘naltiriladi. An’anaviy ta’lim tizimining asosini bo‘lajak o‘qituvchilarga bilimlarni reproduktiv tarzda taqdim etishga yo‘naltirilgan faoliyat tashkil etadi.

*Kognitiv ta’limning maqsadi* – bo‘lajak o‘qituvchilarni to‘laqonli, uzluksiz va maqsadga muvofiq tarzda aqliy-intellektual, jismoniy, ma’naviy jihatdan rivojlantirishga qaratilganligi bilan ham alohida pedagogik qimmatga ega.

Ta’lim jarayonini bo‘lajak o‘qituvchini kontiv faollashtirishga yo‘naltirilganligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijodiy layoqatlarini ro‘yobga chiqarish, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini ijodiy yondashgan holda amaliyotga tadbiq eta olishlari, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga undash, ularda pedagogik dunyoqarashning shakllantirilishiga sharoit yaratish, o‘z bilimlarini istiqbolda egallaydigan kasblariga yo‘naltira olishlariga ko‘maklashish, kreativ faoliyat ko‘rsatishga jalb etish, shu maqsadda ta’sirchan metodlarni qo‘llash, tahliliy fikrlash imkoniyatini kengaytirish, o‘quvchilar bilan hamkorlik va muloqotga kirishish usullarini o‘zlashtirish, o‘z fikrini erkin bayon qilishga undash, dalillarni isbotlashga keng yo‘l ochish kabilar. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zlari, atrofdagilar, hamkasblari, o‘quvchilarining hayotiga yuksak ma’naviy, madaniy nuqtai nazardan turib yondashish sifatlari qaror topadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar tarbiyaviy jarayonlarni muvaffaqiyatli loyihalashtirish va tashkil etish tajribasiga ega bo‘lishlari uchun birinchi navbatda ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan muhim vazifalar: tarbiya jarayonining umumiy va xususiy maqsadlari, jamiyatning ehtiyojlari, shaxs ma’naviy-madaniy taraqqiyotini ta’minlash metodlarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishlari lozim. Buning uchun ularda kreativlik, tahliliy tafakkur, o‘qituvchilik kasbiga

moyillik, insonparvarlik, hamkorlik muhitini vujudga keltira olish, jamoaviy fikrni hurmat qilish kabi koʻnikmalar shakllangan boʻlishi kerak.

Boʻlajak oʻqituvchilarda pedagogik ijodkorlik sifatlarini tarbiyalash uchun bir qator muammolarni yechish talab qilinmoqda: kognitiv tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashtirishning didaktik xususiyatlarini aniqlash; pedagogik jarayonda boʻlajak oʻqituvchilarda oʻquvchilarga nisbatan qadriyatli munosabatda boʻlish tajribasini qaror toptirish; boʻlajak oʻqituvchilarni oʻquvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlash; boʻlajak oʻqituvchilarni ta'lim jarayonining konseptual asoslari va kognitiv ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirish kabilar.

Oliy pedagogik ta'lim tizimi uchun oʻquv dasturlari, ma'ruza matnlari, qoʻllanma va tavsiyanomlarni yaratishda ushbu yoʻnalishlarni alohida hisobga olish talab etiladi.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – B. 295-297.

2. Mirziyoev Sh. Yangi Oʻzbekiston demokratik oʻzgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: Oʻqituvchi MU MChJ, 2021.

3. Ibraimov X. va boshq. Najot tarbiyada. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 60 b.

4. Ota-ona-murabbiy / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. – 220 b.

5. Ibraimov X. va boshq. Goʻzal hulq modellari. – T.: Ilm ziyo zakovat, 2025. – 80-b.

6. Ibraimov X. va boshq. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 68 b.

## OʻQUVCHILARINING ESTETIK DIDINI RIVOJLANTIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING OʻRNI VA IMKONIYATLARI

**Il'yasova Dilshoda Akmal qizi, TPMI tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarining estetik didini rivojlantirishda bolalar adabiyotining ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bolalar adabiyotidan samarali foydalanish usullari koʻrib chiqilib, uning did tarbiyasidagi oʻrni ta'kidlanadi.

**Kalit soʻzlar:** estetik did, bolalar adabiyoti, boshlangʻich sinf, did, pedagogik yondashuv.

Zamonaviy ta'lim va tarbiyada oʻquvchining faqat bilim olishidan tashqari, uning shaxsiyati, didi va san'atga boʻlgan qiziqishini tarbiyalash birdek ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa boshlangʻich sinf oʻquvchilarida estetik didning shakllanishi butun hayotdagi estetik qarashlar va kayfiyatning poydevorini yaratadi. Estetik did – bu insonning san'at asarlarini, tabiat goʻzalliklarini va atrof-muhitni idrok etish va qadrlash qobiliyati boʻlib, u bolalikdan shakllanadi. Shu sababli boshlangʻich ta'limda bolalarda estetik didni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Hozirgi vaqtda boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kitobxonlik koʻnikmalarini rivojlantirish ta'lim tizimida, shu bilan birga jamiyatdagi eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajribalar shuni koʻrsatadiki, kitobxonlikni shakllantirish

faqat maktab doirasida emas, balki oila – maktab – jamiyat hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Masalan, Finlandiya, Yaponiya, AQSH va Germaniya ta'lim tizimida bolalarni erta yoshdan kitob bilan tanishtirish, oilada birgalikda mutolaa qilish an'analari, maktab va kutubxonalarning doimiy hamkorligi orqali o'quvchilarda mustaqil kitobxonlik madaniyati rivojlantirilmoqda.

Bolalar adabiyoti esa aynan shu jarayonda muhim vosita hisoblanadi. Chunki adabiyot bolaga nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki uni fikrlashga, obrazlarni tasavvur qilishga o'rgatadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didini rivojlantirishda bolalar adabiyotining o'rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

**Estetik did** – insonning chiroyli narsalarni anglash va qabul qilish qobiliyati, san'at va tabiatga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishidir. Bolalikda shakllangan estetik did insonning ijodkorligi, hissiyot va tafakkur doirasini kengaytiradi, uning madaniy olamini boyitadi. Xususan, boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar uchun bu did dunyoni idrok etishda, yaxshi va yomon, go'zal va nodir narsalarni farqlashda asos bo'ladi.

Estetik did shunchaki san'at asarlarini ko'rish yoki tinglash emas, balki ularni chuqur tushunish, sharhlash, ta'sirlanish va o'z hissiyotini ifodalash san'ati hisoblanadi. Bolalarda estetik didni shakllantirish, ularni mazmunli o'qishga, san'atga mehr uyg'otishga yordam beradi.

Estetik did – insonning san'at va tabiat go'zalligini anglash, ularga hissiy ta'sirlanish va baho berish qobiliyatidir. U nafaqat estetik predmetlar (tasviriy san'at, musiqiy asarlar, adabiyot va boshqalar)ga nisbatan munosabatni ifodalaydi, balki insonning badiiy did, san'at tushunchasi, didaktik va madaniy qiziqishini o'z ichiga oladi.

Estetik did tushunchasi psixologiya, estetika va pedagogika sohalari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Psixologik nuqtai nazardan estetik did – bu shaxsning badiiy holatlarga nisbati, ularning go'zallik va ruhi ahamiyatini anglashidir. Pedagogika o'tkazadigan tadqiqotlar esa estetik didni tarbiyalashni ta'lim jarayonining muhim qismi deb hisoblaydi.

Estetik did shakllanishi uchun inson shaxsiy qobiliyatlari, ijtimoiy- madaniy muhit, ta'lim-tarbiya muhitining ahamiyati katta. Estetik ta'lim esa estetik didni rivojlantirish yo'li bilan shaxsiyatni kamol toptirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Unda ta'lim uchun maxsus badiiy va didaktik materiallar, jumladan, bolalar adabiyoti katta imkoniyatlarga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (6-10 yosh) rivojlanishining muhim davri hisoblanadi. Ushbu yoshda bolaning hissiy olami nisbatan sezgir, tasavvur va yaratish faolligi yuqori bo'ladi. Psixologlar fikricha, bu davrda bolaning estetik didi shakllanishi uchun tayyorlik darajasi ortadi va ta'lim jarayonida unga mos keluvchi badiiy faoliyatlar o'ta muhimdir.

Bolalar adabiyoti ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki bolaning dunyoqarashi va estetik hissiyotini boyitadi. Adabiyotda badiiy matnning o'rni va uning did orqali shakllantiruvchi imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

**Badiiy matnning o'ziga xosligi:** adabiy asarlar tasvir tushunchasini, obrazlar va voqealar yaratishni, hissiy tasavvurlarni uyg'otadi. Bolalar adabiyotining oddiy va tushunarli tili o'quvchida o'ziga xos estetik muhit yaratadi.

**Obrazlilik va metaforalik:** bolalar adabiyotida ko‘plab badiiy vositalar mavjud bo‘lib, ular orqali voqea va hislar yanada jonli ko‘rinadi. Masalan, ertak va rivoyatlarning tasviriyligi bolada yangi taassurotlar uyg‘otadi.

**Qahramonlarning hissiy tajribasi:** o‘quvchi qahramonlarning hayotiy vaziyatlari bilan tanishib, ularning his-tuyg‘ularini so‘z va fikr orqali anglaydi va shu bilan estetik did oshadi.

**Etik va didaktik omillar:** bolalar adabiyoti ko‘pincha axloqiy qadriyatlar, insoniy fazilatlarni targ‘ib qiladi. Estetik did rivojlanayotganda shu qadriyatlar bilan bog‘lanishi muhimdir.

Pedagogik nuqtai nazardan bolalar adabiyotining didni rivojlantirishdagi roli amaliy faoliyatlar bilan mustahkamlanadi. Masalan, o‘quvchilarni savol-javob, muhokama, dramatizatsiya va ijodiy mashg‘ulotlar orqali jalb qilish ular fikrini mustahkamlaydi.

Pedagogik metodlar bolalar estetik didini tarbiyalashda asosiy vosita hisoblanadi. Tarbiyaviy jarayonda boshqarilgan va erkin faoliyat uyg‘unlikda bo‘lishi o‘quvchining badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

*Adabiyot darslarida estetik didni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar qo‘llaniladi:*

**Integratsiyalashgan ta’lim:** adabiyotni boshqa fanlar, masalan, tasviriy san’at, musiqa, qo‘l mehnati bilan bog‘lash o‘quvchilarni ko‘p qirrali rivojlantiradi.

**Interfaol metodlar:** dialog, rolli o‘yinlar, dramatizatsiya o‘quvchilarning jalb qilinishini oshiradi.

**Differensial yondashuv:** har bir bolaning didi va qobiliyatiga moslashtirilgan metodikalar yordamida estetik did shakllantiriladi.

**Hissiy pedagogika:** o‘quvchilarning hissiyotlariga ta’sir qilish usullarini qo‘llash orqali ular san’at asarlarini chuqur eshita boshlaydi.

O‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchi badiiy asarning go‘zalligini his qildirishga katta ahamiyat berishi, hissiy ta’sirni uyg‘otishi zarur. Shu bilan birga, ota-ona va maktab jamoasi o‘rtasida hamkorlik bolalar estetik didi rivojida muhimdir.

*Bolalar adabiyoti* – bolalar dunyoqarashini shakllantiruvchi eng samarali vositalardan biridir. U bolaning til rivojiga ta’sir qilishi, vatanparvarlik tuyg‘usi, insoniy fazilatlar va estetik ziyo tarbiyalashdagi o‘rni beqiyosdir. Bolalar adabiyoti asarlarida har xil obrazlar, qahramonlarning boy his-tuyg‘ulari, rang-barang tasvirlar, fe’l-atvor va voqealar orqali estetik did rivojlantiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan adabiyotni tanlashda uning oson tushunarli, qiziqarli, nafosatga boy hamda ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lishi muhimdir. Masalan, xalq ertaklari, milliy dostonlar, zamonaviy badiiy qissalar bolalarda san’atga, so‘z va tasvirlarga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otadi.

Estetik didni rivojlantirishda o‘qituvchining metodi ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar adabiyotidan samarali foydalanish uchun quyidagi usullarni qo‘llash tavsiya etiladi:

**Nafosatli o‘qish va tinglash:** o‘quvchilarni adabiyotni nafaqat matn sifatida, balki san’at asari sifatida qabul qilishlari uchun o‘qituvchi matnni tafakkur bilan, his-tuyg‘ularni uyg‘otgan holda o‘qib berishi kerak. Misol uchun, hikoya qahramonlarining kayfiyatini ovoz va jismoniy harakat orqali ifodalash.

**Obrazli tasvirlarni tahlil qilish:** maktdagi o‘qish jarayonida o‘quvchilar bilan birga lavhalar, qahramonlarning ko‘rinishi, qiyofasi va muhit tasvirini muhokama qilish, qarama-qarshi obrazlar ustida fikr yuritish estetik didga ijobiy ta’sir qiladi.

**Ijodiy mashg‘ulotlar:** o‘quvchilarni ertak yoki qissa asosida rasm chizishga, she’r yozishga yoki sahnalashtirishga jalb qilish ularning hissiyot va tasavvurini rivojlantiradi.

**San’at bilan bog‘lash:** adabiyot orqali olingan estetik tajribani musiqiy yoki qo‘l mehnati darslari bilan bog‘lash – bolalarda bu haqiqiy san’atga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

**Munozara va fikr almashish:** hikoya mavzusida o‘quvchilar fikrlarini bildirish, o‘z didlari haqida so‘zlash orqali ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati va estetik qarashlari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini rivojlantirish uchun o‘quv rejalariga bolalar adabiyoti asarlarini kiritish, ular bo‘yicha ijtimoiy va estetik munosabatlarni chuqurlashtirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ota-ona va jamiyatning ham mas’uliyati katta bo‘lib, ular bolani san’at va adabiyotga muhabbat bilan tarbiyalashda hamkorlik qilishlari lozim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini rivojlantirishda bolalar adabiyotining ahamiyati beqiyosdir. Adabiyot bolaga nafaqat bilim beradi, balki uning tasavvuri, hissiyotlari, yaratish qobiliyatlari rivojlanishida yordam beradi.

O‘quv jarayonida badiiy matnlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish, interfaol metodlarni joriy etish bolalarda san’atga va go‘zallikka bo‘lgan mehrni oshiradi, estetik didni mustahkamlaydi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va ota-onalar bolalar adabiyotini ta’limda strategik o‘ringa qo‘yib, bu sohadagi metodlarni takomillashtirishlari zarur. Kelajak avlod san’atni chuqur anglaydigan, madaniyatni qadrlaydigan va jamiyatda faol ishtirok etadigan shaxslar bo‘lib yetishishi uchun estetik didni tarbiyalashga doimiy e’tibor berilishi lozim.

## Adabiyotlar

1. Akhmedova D.M. Bolalar adabiyoti va uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni. – T.: O‘qituvchi, 2018.

2. Azimov S. Estetik didni rivojlantirishning pedagogik asoslari // Pedagogika va psixologiya. – T., 2020. 3(12), 45-52.

3. Baymirzaev B. Estetik tarbiya metodikasi. – T.: Ilm, 2017.

4. Gimadiyev Sh.H. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy didini shakllantirishda adabiyotning roli // Ta’lim va tarbiya masalalari, 2019. 2(30), 23-29.

5. Muminov R., Xo‘jayev J. O‘quvchilarda estetik didni rivojlantirish metodlari // O‘zbekiston pedagogika. – 2016. – 1(5), 14-19.

6. Shamsiyev O.T. Bolalar adabiyoti va estetik didni shakllantirish. – T.: Fan va texnologiya, 2015.

7. Yuldashev A. Bolalar adabiyoti va estetik did: nazariy va amaliy jihatlar // Ilmiy-tadqiqot jurnali, 2019. – 4(22)-son. – B. 38-44.

# PROSPECTS OF USING GEOINFORMATION SYSTEMS IN THE ARMED FORCES CREATION OF A SPECIAL MAP DATABASE USING THE PANORAMA GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEM PROGRAM IN THE ARMED FORCES

**Iminjanov Mansurjon Muhammadjanovich,**
**O'zMU HTO'M o'qituvchisi, rezevdagi podpolkovnik,**
**Ganjiyev Shuxratjon Jurayevich, O'zMU HTO'M o'qituvchisi**

**Abstract.** The relevance of this article lies in the fact that at present, with the development of science and technology, the need and requirements for cartographic information, in particular, for electronic and digital maps, are increasing. A detailed study of the terrain using a geographic information system and electronic digital maps, the assessment and use of military equipment and weapons, as well as the creation and editing of topographic maps, the creation of a database of all cartographic materials are covered in detail in the article.

**Key words:** geographic information system, panorama program, digital, electronic map, SXF, DXF, vpf, sdts, DX-90, MIF/MIC, f20s formats and a special map database "electronic battlefield".

**Аннотация.** Актуальность данной статьи заключается в том, что в настоящее время с развитием науки и техники возрастает потребность и требования к картографической информации, в частности, к электронно-цифровым картам. Детальное изучение местности с помощью географической информационной системы и электронно-цифровых карт, оценка и применение боевой техники и оружия, а также создание и редактирование топографических карт, создание базы всех картографических материалов подробно освещены в статье.

**Ключевые слова:** географическая информационная система, программа «Панорама», цифровая, электронная карта, SXF, DXF, vpf, sdts, DX-90, MIF/MIC, f20s форматы и специальная база карт, электронное поле боя.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi vaqtda fan va texnikaning rivojlanib borayotganligi kartografik ma'lumotlarga xususan elektron-raqamli xaritalarga bo'lgan ehtiyoj va talablar ham oshib bormoqda. Geografik axborot tizimi va elektron-raqamli xaritalar yordamida joyni batafsil o'rganish, baholash va jangobar texnikani va qurolni qo'llash hamda topografik xaritalarni yaratishda va tahrirlashda, barcha kartografi materiallarni bazasini yaratish to'risida maqolada keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** geografik axborot tizimi, "Panorama" dasturi, raqamli, elektron xarita, SXF, DXF, VPF, SDTS, DX-90, MIF/MIC, F20S formatlar va elektron jang maydoni, maxsus xaritalarni bazasi.

Hozirgi kunda zamonaviy qurolli to'qnashuvlar taktikasini o'rganish va tahlil qilishda geografik axborot tizimlaridan (GAT) foydalanish o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, harbiy bo'linmalarni topogeodezik ma'lumotlar bilan o'z vaqtida va uzluksiz ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun Qurolli Kuchlarda "Panorama" geografik axborot tizimi asosida maxsus xaritalar ma'lumotlar bazasini yaratish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda barcha fan va sohalarda keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar hamda tadqiqotlar olib borilib, salmoqli natijalarga erishilmoqda. Xususan, geoinformatika va kartografiyaning texnika, fan hamda ishlab chiqarish sohalari sifatida jadal rivojlanib borayotgani bugungi kunda hech kimga sir emas. Geografik axborot tizimlarining (GAT) fan va Qurolli Kuchlar faoliyatiga keng joriy etilishi ushbu sohaning yanada tez sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Ta’lim jarayonlarini tashkil etishda mavzuli xaritalar va rejalarni yaratish, ularni qayta ishlash, ma’lumotlar bazalarini shakllantirish, integratsiyalash hamda vizuallashtirish ishlari “Panorama” GAT texnologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib, kartografik materiallarni yaratish sohasida geoinformatsion kartografiyaning uslubiy va texnologik jihatlari jadal rivojlanib borayotganini kuzatish mumkin. Xaritalarni tuzishda an’anaviy analog usullar o‘rniga “Panorama” GAT dasturiy ta’minoti asosida ma’lumotlar bazalari va elektron xaritalarni yaratish metodlaridan keng foydalanilmoqda. Bu jarayonda geoinformatsion kartografiya hamda geografik axborot tizimlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Topografik va maxsus xaritalar uchun “Panorama” GAT dasturlarida ma’lumotlar bazasini shakllantirish zarur hisoblanadi. “Panorama” GAT texnologiyalari topografik va maxsus xaritalarni yaratishda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

“Panorama” GAT dasturlarida yaratilgan topografik va maxsus xaritalar qatlamlarida aks ettirilgan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali kelajakda prognoz xaritalarini avtomatik tarzda yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur texnologiyalar geografik ma’lumotlarni tizimlashtirish, qayta ishlash va tahlil qilish samaradorligini oshiradi.

Quyida topografik va maxsus xaritalarni yaratishda “Panorama” GAT texnologiyalarining afzalliklari hamda ularning funksional modellari keltirilgan (1-rasm).




**1-rasm. Elektron xaritalar**

Yuqoridagi rasmda “Panorama” GAT texnologiyalarining boshqa dasturiy vositalarga nisbatan afzalliklari aks ettirilgan. Mazkur modelda geoinformatsion tizimlar va texnologiyalar oilasiga mansub dasturiy ta’minotlar asosida yaratilgan topografik va maxsus xaritalarning o‘qilish darajasi, sifati, tushunarliligi hamda amaliy ahamiyati zamonaviy talablarga mos bo‘lishini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Topografik va maxsus xaritalar bazasini shakllantirishda joy aholisi to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarni olish uchun viloyat, tuman va qishloq fuqarolar yig‘inlaridan olingan ma’lumotlar asosida tayyorlangan joyiy statistika boshqarmalari materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xaritalar bazasini yaratishda joyning relyefi, gidrografiyasi, transport tarmoqlari va ma’muriy chegaralariga oid ma’lumotlarning to‘liqligi hamda aniqligiga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Qurolli Kuchlarda foydalaniladigan topografik va maxsus xaritalar, asosan, amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi. Ushbu xaritalarning yirik masshtabda tuzilishi ularning aniqlik darajasini oshiradi hamda jangovar vaziyatlarda ishonchli axborot manbai sifatida foydalanish imkonini beradi.

Topografik va maxsus xaritalar bazasini yaratishda “Panorama” GAT dasturlarining afzalliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur dasturiy ta’minot kartografik ma’lumotlarni yaratish, tahrirlash, yangilash, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Geografik axborot tizimlari terminologiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, ushbu dastur tarkibida ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi ham mavjud bo‘lib, bu kartografik ma’lumotlarni markazlashgan holda saqlash va boshqarish imkonini yaratadi (2-rasm).

“Panorama” GAT dasturining asosiy afzalliklari qatoriga funksionalligi, interfeysining muntazam yangilanib borishi, foydalanish qulayligi, yuqori samaradorligi, moslashuvchanligi, modellashtirish imkoniyatlarining kengligi hamda ma’lumotlar bazasini boshqarish imkoniyatlarining mavjudligi kiradi.

“Panorama” GAT texnologiyasi negizida demografik jarayonlarni aks ettiruvchi yangi avlod elektron xaritalarini yaratish metodikasini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shu asosda elektron raqamli xaritalarni yaratish texnologiyasi ishlab chiqilgan (3-rasm).

Topografik va maxsus xaritalarni yaratish texnologiyasini joriy etish hamda amalga oshirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Joyni o‘rganish. Ushbu bosqichda raqamli ma’lumotlar to‘planadi va mualliflik original materiallari, fond xaritalari hamda masofadan zondlash (MZ) materiallari asosida ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi. Shuningdek, tanlangan joyning demografik holatini geografik jihatdan o‘rganish ishlari amalga oshiriladi.




**2-rasm. “Список данных электронной карты” oynasi**

2. Joydagi obyektlarni tasniflash va tahlil qilish. Mazkur bosqichda to‘plangan atributiv jadvallar hamda matnli ma’lumotlar tizimlashtiriladi va kompyuter xotirasiga kiritiladi. Natijada, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan axborot bazasi yaratiladi.

3. Topografik shartli belgilar tizimini takomillashtirish. Bu bosqichda demografik jarayonlarni tavsiflovchi shartli belgilar kutubxonasi yaratiladi. Shuningdek, amaldagi standartlar asosida ishlab chiqilgan topografik shartli belgilar kutubxonasidan foydalangan holda joydagi voqea va hodisalarni izohlovchi legenda (shartli belgilar izohi)lar tuziladi.



**3-rasm. Elektron raqamli xaritalarni yaratilish usullari**

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** “Panorama” GAT tizimida topografik va maxsus xaritalarni bazasini joriy qilinishi kartografik materiallarni yaratish texnologiyasi.

Raqamli ma’lumotlardan foydalanish Avtorolik va mavjud fond xaritalaridan foydalanish, yaratilayotgan elektron xaritalar ma’lumotlar bazasini shakllantirish, mavjud jadval (atribut) ma’lumotlarni kompyuter xotirasiga kiritishda tahliliy ishlarni olib borish, matnli ma’lumotlarni kompyuter xotirasiga kiritishda tahliliy ishlarini olib borish, topografik shartli belgilar bibliotekasiga qo‘shimcha ma’lumotlarni joylashtirish, standart bo‘yicha topografik shartli belgilarni moslashtirish, kerakli qatlamlarni joylashtirish, kartografik tasvirni xosil qilish va ularni taxrir qilishdan iboratdir:

1-bosqich. Joydagi obyektlarni tasnifini tahlili.

2-bosqich. Topografik shartli belgilar tizimini ishlab chiqish.

3-bosqich. Topografik va maxsus xaritaning elektron qatlamlari bilan ishlash.

4-bosqich. Kartografik materiallarni komponovkasni ishlab chiqish, uni nashrga tayyorlash va nashr qilish.

5-bosqich. Elektron raqamli topografik va maxsus xaritalarni qatlamlari bilan ishlash.

Xaritalarni raqamlash maxsus uskunalar yordamida kartografik materiallarni skanerlash usuli bilan, keyingi bosqichda esa, rastrli ma’lumotlarni vektorga aylantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Xaritalarni tuzishda bir tizimga tayangan holda ish olib borilishidan kelib chiqib, ishlab chiqilgan raqamli xaritalarni yaratish texnologiyasi elektron raqamli xaritalarini sifatini oshiradi. Maxsus “Panorama” GAT dasturlari va kartografik tadqiqot usullaridan foydalanib tuzilganligi xaritalardagi axborotlarni tahlil qilish, xaritalarni yaratish aniqligi va tezligini yaxshilash imkonini berdi (4-rasm). Tadqiqot ishida oldimizga qo‘ygan masalalarni hal etishda keltirilgan talablarga mos keladigan GAT dasturi oilasiga mansub “Panorama” dasturiy ta’minotdan faydalanildi.



Tirajli topografik xarita



Kosmik suratlar



Aero-fotosuratlarya

4-rasm. Topogeodezik ma’lumotla to‘plami

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** “Panorama” GAT texnologiyasi topografik va maxsus xaritalarni yaratish, qayta ishlash hamda yangilash jarayonlarida o‘zaro uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Ushbu bog‘liqlik topografik xaritalar va rejalarni (planlarni) yaratish, ularni tahrirlash, qayta ishlash hamda ma’lumotlarni integratsiyalash jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Topografik va maxsus xaritalar hamda rejalarni yaratish, tahrirlash, qayta ishlash, ma’lumotlar bazalarini shakllantirish, integratsiyalash va vizuallashtirish ishlari geografik axborot tizimlari texnologiyalarining asosiy funksional vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonlar kartografik ma’lumotlarni samarali boshqarish, tahlil qilish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

**Adabiyotlar**

1. Беленков В.В., Корж М.М. Основные направления применения геоинформационных технологий в военном деле. – В.: ЗАО “КБ Панорама”, 2010.
2. Харисов В.Н., Перов А.И., Болдин В.А. и др. Глобалная спутниковая радионавигационная система ГЛОНАСС. – М.: ИПРЖР, 1999.
3. Малышев В.В., Куршин В.В. Навигация авиационного потребителя с исползованием цифровых карт. – Т.: Панорама, 2011.
4. Navro‘zov R.M. Panorama GAT dasturida ishlash. – T., 2023.
5. http://www.

## MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI

**Irgashova Maripat Abdunazarovna,**
**O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi,**
**Yermuxamadova Feruza G‘ayratjon qizi, Turobova Dilsoz Ozod qizi,**
**O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Filologiya fakulteti talabalari**

O‘zbekiston qadimdan ilmu ma’rifat markazi, madaniyat o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Shu bois, yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy-ma’naviy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-ma’naviy merosi, jahon ilm-fani, sivilizatsiya rivojiga qo‘shgan bebaho hissasi dunyo olimlari hamda jahon hamjamiyati tomonidan hamisha yuksak e’tirof etiladi.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Mahmud Qoshgariy, Umar Xayyom, Burhoniddin Zarnujiy, Sheroziy, G‘azzoliy, Tusiy, Yusuf Xos Xojib, Abu Nasafiy, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi allomalarimizni nafaqat biz faxr bilan tilga olamiz, balki xalqaro jamoatchilik, xususan, jahon ilm-fan doiralari vakillari ham yuksak qadrlaydi. Biz buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishni maqsad qilganmiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari taraqqiyotning yangi bosqichiga intilayotgan xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy barkamolligini namoyon qilishi bilan bir qatorda, Uchinchi Renessans davri poydevori vazifasini bajaruvchi ilm-ma’rifat maskanlari bo‘lishi, shubhasiz.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mazkur muammoga yechim topishda “Islom madaniyatining oltin asri” va “Temuriylar Renessansi” deb nom olgan ikki Renesans davrlarida yashab ijod etgan, o‘zlarining boy ilmiy merosi hamda pedagogik ta’limoti bilan ta’lim-tarbiya rivojiga katta hissa qo‘shgan Sharq mutafakkirlari asarlarida o‘z aksini topgan sharqona “Ustoz-shogird” munosabatlari, ta’lim natijadorligini ta’minlovchi, pedagogik jarayonlar sifatiga ijobiy ta’sir etuvchi shaxslararo munosabatlar ko‘nikmasiga ega bo‘lishga oid bebaho merosidan foydalanish jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir”.

Shu bilan birga, shaxslararo munosabatlar jamiyatda ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash uchun asos bo‘lib, o‘z navbatida, shaxs va jamoa farovonligi va faoliyatiga ma’lum darajada hissa qo‘shishi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: shaxslararo munosabatlar – ma’lumotlar, g‘oyalar va hissiyotlar almashinuvini osonlashtiradi, odamlarga bir-birini tushunish va samarali muloqot qilish imkonini beradi. Natijada, jamoada umumiy maqsadlarga erishish va muammolarni birgalikda hal qilish uchun zarur bo‘lgan hamkorlikni rivojlantiradi.

Bugungi kunda talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlashda ajdodlarimiz o‘gitlari, pand-nasihatlaridan foydalanish alohida pedagogik qiymatga ega. Talabalar ajdodlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid qadriyatlaridan bahra olishlari lozim. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ta’lim-tarbiyaviy manba sifatida ularning ongi va qalbiga ma’naviy ozuqa berib kelmoqda.

Zamonaviy pedagogik jarayonlarga qo‘yilgan talablar asosida talabalardan o‘quvchilar fikrini hurmat qilishni namoyish eta olishi; ular fikriga ta’sir etuvchi muloqot manevralarini tanlay olish; o‘quvchilarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan muloqot shakllarini tanlay olish; ta’lim jarayoni sifatini oshirish va talabalarning o‘quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘z hamkasblari bilan aloqa o‘rnata olish; o‘quvchilar bilan hamkorlik qila olish; global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish; o‘zini tutishda, o‘quvchilar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilish va resurslarni boshqarishda axloq normalariga rioya etish; milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas’uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qila olish kabi shaxslararo munosabatlarga kirisha olish kompetentligi talab etiladi. Ta’limning xalqarolashuvi va demokratik ijtimoiy davlat siyosatini yuritishni ta’minlashda sifatli ta’limi uchun muhim bo‘lgan shaxslararo munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish talabalarni o‘z-o‘zini yo‘naltirish va ijtimoiy ma’suliyatga o‘rgatish masalasini hal qilishda asosiy omillardan biri hisoblanishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarida shaxslararo munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini tarkib toptirishda Sharq mutafakkirlari merosi vositasidan samarali foydalanish asosiy tamoyillardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur faoliyatni bevosita oliy ta’lim jarayonida samarali tashkil etish iqtidorli va faol yoshlarni tarbiyalash ushun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda esa, yuqoridagi imkoniyatlarni tizimlashtirish ta’lim jarayonining uzviy integratsion hamkorligini tashkil etish va qator hamkorlikdagi faoliyatlarning ishtirokshi subyektlarini aniqlashtirish lozim bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida shaxslararo munosabatlarga yo‘naltirilgan obyekt-subyekt faoliyatining mazmuni ajdodlarimiz merosi vositasida boyitilsa, bu tabalarning ijtimoiy rivojlanishi ushun potensial imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Tabalarning ongida ijtimoiy mas’ullik, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish

ko‘nikmalarini tarkib toptirish ko‘p jihatdan mavjud shart-sharoitlar va ta’lim-tarbiya mazmunini sifati bilan bevosita bog‘liq.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish – oliy pedagogik ta’lim jarayonida professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bunda ular talabalar uchun zarur bo‘lgan faol tinglash, og‘zaki muloqot, og‘zaki bo‘lmagan muloqot, jamoada ishlash, empatiya, yetakchilik, sabr-toqat, omma oldida nutq so‘zlash kabi shaxslararo ko‘nikmalarni tarkib toptirishda jamoaviy ishni kuchaytirish, qat’iy bo‘lishga, xatolar ustida ishlashga, hech qachon taslim bo‘lmaslikka, qaror qabul qilishga o‘rgatish, iste’dodlarini namoyish qilish va ijobiy munosabatni rivojlantirishni ta’minlovchi shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishning turli innovatsion usullarini qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.

Sharq mutafakkirlarining merosi asosida oliy pedagogik ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitishda foydalanish muhim bo‘lib, professor-o‘qituvchilar o‘zlari o‘qitayotgan fanlari doirasida ushbu ta’limotlardagi ibratli jihatlarni qo‘llashlari kerak. Talabalar tarbiyasi ijtimoiy hodisa bo‘lib, shaxsning shakllanishini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma’naviy qadriyatdir. Barkamol avlod tarbiyasi inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan asosiy qadriyat sifatida avloddan-avlodga o‘tib boraveradi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalar o‘zbek xalqining o‘ziga xos bo‘lgan moddiy, ma’naviy boyliklari, qadriyatlari, Sharq mutafakkirlarining asarlarida yoshlar ta’lim-tarbiyasiga oid g‘oyalari, yondashuvlari, ulardagi ota-ona va farzand, ustoz va shogird o‘rtasidagi tarbiyaviy munosabatlar haqida chuqur bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishlari kerak.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta’lim-tarbiya jarayonida ustoz va murabbiylik odobi, madaniyati, muloqoti, muomalasi masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Tabalarning tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilab berishi, shu sabab ularni ijobiy sifatlar bilan qurollantirish muhimligi uchun ham mutafakkirlar asrlar davomida ushbu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar.

Shaxslararo munosabatlar – odamlarga hissiy yordam berib, ularni tegishlilik tuyg‘usi va o‘ziga xoslik manbai bilan ta’minlaydi. Bunda oila, do‘stlar, tengdoshlar bilan ijobiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy aloqalar insonning umumiy farovonligini oshiradi. Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy tartibni saqlashga va deviant xatti-harakatlarning oldini olishga yordam berib, shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi mustahkam munosabatlar jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat hissini oshiradi. Har bir shaxsning jamiyat normalari va qadriyatlariga moslashishiga undaydi.

Ta’lim jarayonining asosi bo‘lgan shaxslararo muloqot bilim egallashning dinamik shakli bo‘lib, u orqali fikrlar, xatti-harakatlar va his-tuyg‘ular namoyon bo‘ladi. Shaxslararo muloqot bu talabalar va ularning o‘qituvchilari o‘rtasida yuzaga keladigan ma’noni etkazishga, o‘quv vazifalarini bajarishga va munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan mikro-ijtimoiy kontekst sifatida o‘quv xonasida yuzaga keladigan o‘zaro hamkorlik jarayonlari tushuniladi.

Insoniyat faoliyatining barcha jabhalarida shaxslararo munosabatlar ijtimoiy hamjihatlikni, individual o‘sishni rag‘batlantirish va jamiyat rivojini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari merosi hamda xorijiy olimlarning ta’lim jarayonida shaxslararo munosabatlarni tarkib toptirishga oid tajribalariga asoslanib, ularni

o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda bugungi ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishda zarur bo‘lgan, samarali natijadorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi talablarni keltirib o‘tamiz.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlik darajasini belgilovchi o‘ziga xos mezonlar mavjud bo‘lib, ushbu mezonlar ularning kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mezonlar: muloqot qilish va notiqlik san’atiga egalik, empatiya va e’tiborlilik, sohaga oid yangiliklardan ma’naviy-madaniy xabardorlik; yuzaga kelgan muammo va mojarolarni o‘z vatida hal qilish; o‘z-o‘zini anglash, tarbiyalash; kuzatish va baholash; yuqori darajadagi professionallikni namoyish eta olish; tajribasi bilan bo‘lisha olish; suhbatdoshini tihglash va tushunish; egallagan bilimlarini namoyish eta olish; innovatsion g‘oyalar yaratish, jamoani boshqara olish va o‘z ortidan yetaklay olish; o‘quvchining ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlay olish; bilimlarni shakllantirishda shaxsning faol ishtirokini ta’minlay olish; qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yarata olish; bilimlarni amalda qo‘llashda hayot bilan bog‘lash; aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda mehnat tarbiyasiga e’tibor qarata olish; shaxsiy namuna bo‘lish kabi qobiliyat va sifatlarga egalik darajasi bilan aniqlanadi.

O‘quv xonasida yuzaga kelgan sog‘lom innovatsion muhit asosida talabalarda kasbiy bilimlarni o‘zaro hamkorlik asosida egallashga bo‘lgan intilish rivojlanib, ularda shaxslararo munosabatga kirishish ishtiyoqi kuchaydi hamda talabalarda akmeologik yondashuvlarga asoslangan pedagogik mahoratga egalik; o‘quvchilarni yuqori darajadagi fikrlashga undash va ular o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish; sharq mutafakkirlari merosi va xorijiy tajribalardan integrativ foydalanish asosida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish kabi ko‘nikmalar bosqichma-bosqich tarkib toptirilishiga imkoniyat yaratilganligi aniqlandi.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyasiga mualliflik yondashuviga asoslangan ta’rif berishni lozim topdik. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlari ijtimoiy hodisa sifatida ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarda xilma-xil bo‘lganligini ochib beradi, ilg‘or qarashlarning taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatib beradi.

*Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlarini o‘rganish va tahlil qilishda:* ularning ilmiy-ma’naviy me’rosi, xalq og‘zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnoma va asarlariga asoslanamiz.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlarini o‘rganish o‘qituvchilarning faqatgina pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki, shu bilan birga, ularning pedagogik mahoratlarini akmeologik darajaga olib chiqishga yordam beradi. O‘tmishning ta’lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini, ularning sharqona ta’lim-tarbiya va odob-axloq haqidagi qarashlarini o‘rganadi, bu esa, ularni ijtimoiy hayotga moslashgan holda samarali kasbiy faoliyat yuritishlarida yordam beradi va bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida sharq mutafakkirlari va xorij tajribasining integratsiyalashuvi shaxslararo munosabatga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash majburiy va tanlov fanlarining to‘g‘ri tanlanganligi, fan dasturlarida dolzarb mavzularning kiritilganligi; zamonaviy ta’limni tashkil etishga qaratilgan integratsion, modifikatsion darsliklar yaratilishi; nazariy va amaliy kompetsiyalarni shakllantirish imkoniyati; Finlyandiya, Kembrij, Singapur ta’limi tatbiqi (maqsad, haqiqiylik, adolat va ishonsh ustunligi); xalqaro baholash dasturlariga tayyorlovshi

ta’lim resurslari mazmuni va xilma xilligi jarayonlarining uzviyligini ta’minlash orqali Sharq mutafakkirlari merosi vositasida talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning yuqori bosqishiga erishiladi.

Talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari integratsion va modifikatsion faoliyatlarda samarali tashkil qilinadi. Talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning o‘z-o‘zini anglash, empatiya, muloqot ko‘nikmalari, madaniy kompetensiya, mentorlik va qo‘llab-quvvatlash strategiyalari subyekt-subyekt, ishchanlik, faollik, samarali qarorlar qabul qilish, bir-birining ijobiy harakatlarini ijtimoiy muhitga yo‘naltirish, jarayonni muloqot, madaniy xabardorlik, nizolarni hal qilish, o‘z-o‘zini anglash, uzluksiz o‘z bilimini oshirish, professionallik boshqarish aynan sharq va xorij faoliyati, merosining integratsiyasida amalga oshadi.

Sharq mutafakkirlari o‘zlarining pedagogik ta’limotlarida halol luqma yeyishlik, e’tiqod butunligi, sa’y-harakatda sodiqlik, turli g‘iybatlardan yiroq bo‘lish, boshqalar aybini bekitish, behuda gapirmaslik, ortiqcha mol-dunyodan voz kechish, barcha kishilarga ezguliklar tilash, jamiayat va Vatan oldida mas’uliyatlli bo‘lish, jamiyat a’zolariga mehr-shafqat ko‘zi bilan qarash, hasad bilan emas, ibrat ko‘zi bilan boqish, atrofdagilarga pand-nasihat qilishdan chekinish, g‘azabni yutib jahlni to‘xtatish, axloqni pokizalash, odamlar bilan murosayu-madora qilish, til to‘g‘riligi va sodiqligini saqlash, yolg‘on so‘z aytishdan chetlanish, tilni rost gapirish va to‘g‘rilikka o‘rgatish, olimlar suhbatiga intilish, kechirimli bo‘lish, odobsizlik qilganlar to‘g‘risida sukut saqlash, xulq go‘zalligiga e’tibor berish kabi shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish lozimligini ta’kidlaganlar.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalariga oid pedagogik tizimning samaradorlik darajasini statistik tahlil asosida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Tadqiqot konsepsiyasining to‘g‘riligi va natijalarni ommalashtirish darajasi shuni ko‘rsatmoqdaki, biz ilgari surgan hamkorlik, konstruktivlik, ta’lim integratsiyasi, refleksiv yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlarga tayyorlash tizimining samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlarini matematik statistik tahlil qildik. Talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda ularda – samarali muloqotga kirishish, o‘zaro tushunish, hamkorlik qila olish, empatiya, ma’naviy-madaniy xabardorlik, o‘z-o‘zini anglash, bilimlarini namoyish eta olish, innovatsion g‘oyalar yaratish kabi shaxslararo munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini egallaganliklarini ta’minlashga muvaffaq bo‘ldik.

Natijada, talabalarda: bilimlarga asoslangan jamiyatda shaxsiy va kasbiy kompetentlikka, akmeologik yondashuvlarga asoslangan pedagogik mahoratga egalik, o‘z o‘quvchilarini sog‘lom fikrlashga, do‘stona munosabatlarga, o‘z-o‘zini baholashga, innovatsion ta’lim muhitida ijodiy faoliyat yuritishga, muammolarni hal etishda nostandart yechimlarni izlab topishga, faol shaxsiy ijtimoiy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishga o‘rgatish kabi shaxslararo munosabatlarga kirishish ko‘nikmalari ivojlantirildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash muhim ijtimoiy pedagogik zaruriyat hisoblanib, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish hamda natijadorlikni ta’minlash bilan birga ayrim hollarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash, asosan, ta’limning sifatiga yordam berishi bilan birga o‘zaro insoniylik muhitining qaror topishiga yaxshi xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim berishda, o‘quv amaliyotida o‘quvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda, jamoaviy munosabatlarni tashkil etishda muhim

rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, talabalar o‘z o‘quvchilarining turmush tarzi, oilasi va ularning manfaatlarini qo‘llash bo‘yicha tashqi munosabatlariga umidvorlik bag‘ishlaydi.

Talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, bunda insondagi empatiya va taqdimotlilikning muhim ahamiyati ko‘zga tashlanadi. Shaxslararo munosabatlarda tashqi munosabatlarni tashkil etishda o‘quvchilarning shaxsiyligiga e’tibor berish muhimdir. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning shaxsiyligiga muvofiq tashqi munosabatlarni tashkil etish va ularning o‘zlariga boshqalarga munosabatlariga ham o‘ziga xos munosabatlarni tashkil etish kerak. Tashqi munosabatlarni tashkil etishda o‘quvchilarning maqsadlariga e’tibor berish kerak.

Talabalar o‘quvchilarning maqsadlarini taqdim qilish va ularni maqsadlariga yetakchi yordami berish muhimdir. Ular maqsadlarini tushunish va ularni muvaffaqiyatga yetakchi bo‘lgan munosabatlarni tashkil etish kerak. Talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda tarixiy hamda xalqaro tajribalarga asoslanish muhim bo‘lib, bu ijtimoiy jamiyatda o‘quvchilar bilan munosabatga kirishganda ularning ehtiyojlari asosida muloqot usullarini tanlashga yordam beradi.

Tarixiy va xalqaro tajribalarga asoslanib, bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z muhitidan tashqari, boshqa mamlakatlarning, diniy, milliy, ma’rifiy va siyosiy muassasalarining hayoti hamda jamiyatdagi munosabatlari haqida bilimlarga ega bo‘lish asosida ularning boshqa mamlakatlarga nisbatan tarixiy, ma’rifiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlari haqiqatlarini o‘rganishda har bir insonga shaxslararo munosabatlarga kirisha olish kompetentligiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarining samaradorligini asoslash imkonini berib, tanlangan didaktik vositalarning tizimli tarzda taqdim etilishi va o‘quv-tarbiya jarayoni mazmuniga singdirilishi zarurligini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan mezonlar va strategiyalar Sharq mutafakkirlari merosi vositasida talabalarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash natijasida o‘quvchilar bilan o‘qituvchi orasida o‘zaro hamkorlik va hurmatga asoslangan do‘stona munosabatlar, muloqot, ishchanlik ruhining ustuvor bo‘lishiga erishish imkonini berishini aniqlashga xizmat qildi.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 17-avgustdagi “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston konsepsiyalari nimani anglatishi haqida so‘zlab berdi.

2. Musurmanova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.

3. Xasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T., 2008.

## VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARINING TALABALAR O‘QUV MOTIVATSIYASIGA TA’SIRI

**Kaldibekova Anargul Sotbarovna, O‘zMPU professori, pedagogika fanlari nomzodi, Abdrimova Shahnozabonu Shavkat qizi, O‘zMPU magistranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining talabalarning o‘quv motivatsiyasiga ta’siri tahlil qilingan. An’anaviy ta’lim metodlaridan farqli ravishda, VR va AR texnologiyalarining ta’lim jarayonini vizuallashtirish, murakkab tushunchalarni interaktiv tarzda tushuntirish

hamda immersiv muhit yaratish orqali talabalarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar va ilmiy tadqiqotlar asosida ushbu innovatsion vositalarning talabalar faolligi hamda akademik natijadorligini oshirishdagi pedagogik va psixologik jihatlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** virtual reallik, kengaytirilgan reallik, o‘quv motivatsiyasi, kognitiv faollik, affektiv faollik, immersiv ta’lim.

**Abstract.** This article analyzes the impact of virtual reality (VR) and augmented reality (AR) technologies on students’ learning motivation in the modern education system. Unlike traditional teaching methods, the possibilities of VR and AR technologies in enhancing students’ interest in academic subjects through the vizualization of the educational process, interactive explanation of complex concepts, and the creation of an immersive environment are highlighted. Furthermore, based on international experience and scientific research, the pedagogical and psychological aspects of these innovative tools in increasing student engagement and academic performance are analyzed.

**Key words:** virtual reality, augmented reality, learning motivation, cognitive activity, affective activity, immersive learning.

**Аннотация.** В данной статье проанализировано влияние технологий виртуальной реальности (VR) и дополненной реальности (AR) на учебную мотивацию студентов в современной системе образования. В отличие от традиционных методов обучения, раскрываются возможности технологий VR и AR в повышении интереса студентов к учебным дисциплинам посредством визуализации образовательного процесса, интерактивного объяснения сложных понятий, а также создания иммерсивной среды. Кроме того, на основе международного опыта и научных исследований проанализированы педагогические и психологические аспекты использования данных инновационных средств в повышении активности студентов и их академической результативности.

**Ключевые слова:** виртуальная реальность, дополненная реальность, учебная мотивация, когнитивная активность, аффективная активность, иммерсивное обучение.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda. An’anaviy ta’lim metodlari ayrim hollarda talabalarda o‘quv motivatsiyasining pasayishi, diqqatning susayishi hamda bilimlarning yuzaki o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, virtual reallik (Virtual Reality – VR) va kengaytirilgan reallik (Augmented Reality – AR) texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarori ta’lim sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim hujjatlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur islohotlar kontekstida VR va AR texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining interaktivligini oshirish, murakkab tushunchalarni vizuallashtirish hamda talabalarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiluvchi istiqbolli vosita sifatida qaralmoqda.

Kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalari insonning borliqni idrok etish shakliga ta’sir ko‘rsatadigan zamonaviy texnologik vositalar hisoblanadi. AR texnologiyasi real muhitga raqamli elementlarni qo‘shish orqali foydalanuvchining mavjud muhit bilan o‘zaro ta’sirini kuchaytiradi.

Odatda bunda smartfon, planshet yoki maxsus ilovalar qo‘llaniladi. VR texnologiyasi esa foydalanuvchini to‘liq virtual muhitga olib kirib, immersiv tajriba hosil qiladi. Ushbu texnologiya maxsus qurilmalar, jumladan VR ko‘zoynaklari yoki garnituralardan foydalanishni talab qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, mazkur texnologiyalar ta’lim jarayonining vizualligini oshirish, murakkab tushunchalarni soddalashtirish hamda talabalarni faol o‘quv faoliyatiga jalb qilish imkonini beradi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, tibbiyot, muhandislik, tarix va texnik yo‘nalishlarda murakkab jarayonlarni amaliy modellashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Motivatsiya psixologiyada shaxsning maqsadga erishishga yo‘naltirilgan ichki ehtiyoji, intilishi va faoliyatni amalga oshirishga undovchi omil sifatida talqin qilinadi. V.R.Mambetyarovaning fikricha, motivatsiya insonning maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni amalga oshirishga bo‘lgan ishtiyoqi va ichki rag‘bati bilan izohlanadi [2]. Ta’lim jarayonida motivatsiya talabaning bilim olishga qiziqishi, mustaqil o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoji hamda akademik muvaffaqiyatining muhim omili hisoblanadi.

Refik Ramadani va hammualliflarining tadqiqotida AR va VR texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish oddiy tendensiya emas, balki o‘qitish jarayonini tubdan o‘zgartirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuv sifatida baholanadi [3].

Tadqiqotchilar ushbu texnologiyalar faol o‘qitish metodlari orqali talabalarning ma’lumotlarni eslab qolish, tanqidiy fikrlash hamda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishini ta’kidlaydilar.

Wang M. va Degol J. tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda talabalar faolligining kognitiv va affektiv jihatlari alohida tahlil qilingan [4]. Kognitiv faollik diqqat, tushunish va ma’lumotni xotirada saqlash bilan bog‘liq bo‘lsa, affektiv faollik motivatsiya, qiziqish va ta’limga bo‘lgan ijobiy munosabatni qamrab oladi. Shu ma’noda VR texnologiyalari immersiv ta’lim muhiti orqali talabalarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, AR texnologiyalari murakkab konsepsiyalarni vizuallashtirish imkoniyatini yaratib, mavzularni tushunishni yengillashtiradi. Bu esa talabalarning o‘quv faoliyatidagi ishtirokini kuchaytiradi va muammolarni hal qilish hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham VR va AR texnologiyalarini joriy etishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. T.F.Ibragimovaning ilmiy qarashlariga ko‘ra, mazkur texnologiyalar individual o‘quv traektoriyasini shakllantirish, talabalarda motivatsiya va qiziqish uyg‘otish hamda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi [5]. F.S.Sadikova esa, masofaviy ta’lim jarayonida virtual texnologiyalarning ahamiyatini ta’kidlab, ular talabalarning o‘zaro muloqoti va hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etadi [6]. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni samarali o‘zlashtirish imkonini yaratadi. AR va VR texnologiyalarining afzalliklari orasida ta’limni individuallashtirish, talabalarni faol ishtirok etishga undash, murakkab tushunchalarni soddalashtirish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish alohida o‘rin tutadi. M.S.-S.Abubakarov va R.Z.Shidayevalarning fikricha, ushbu texnologiyalar motivatsiyani oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda

inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega [7]. Ayniqsa, ko'rish, eshitish yoki tayanch-harakat tizimida cheklovlari mavjud bo'lgan talabalar uchun vizual va interaktiv muhit yaratish o'quv materiallarini tushunishni osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish hamda ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar murakkab tushunchalarni vizuallashtirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli O'zbekiston ta'lim tizimida VR va AR asosidagi pedagogik infratuzilmani rivojlantirish hamda ularni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish muhim strategik vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

**Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarori. – T., 2020.

2. Mambetyarova V.R., Xahipova B.T. Motivatsiya haqida ma'lumotlar va tahlillar // Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari. – 2024. – B. 852-853.

3. Ramadani R., Mustafa R. The Impact of Augmented Reality (AR) and Virtual Reality (VR) technologies on the teaching process and preparing students for the future // International Journal of Computational and Experimental Science and Engineering (IJCESEN). – 2025. – Vol. 11. – No. 2. – P. 4061-4068.

4. Wang M.T., Degol J. Staying engaged: knowledge and research needs in student engagement // Child development perspectives. – 2014. – Vol. 8. – P. 137-143.

5. Ibragimova T.F. Virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalari asosida talabalarning individual o'quv traektoriyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari // VI xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – 2025. – B. 509-510.

6. Sadikova F.S. Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarining amaliy o'qitishdagi o'rni // Miasto Przyszłości. – 2025. – Vol. 59. – P. 193-194.

7. Абубакаров М.С-С., Шидаева Р.З. Дополненная и виртуальная реальность в образовании: перспективы и вызовы // Дневник науки. – 2024. – № 12.

## KITOBXONLIK ASOSIDA YOSH AVLODNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS'ULIYAT RUHIDA TARBIYALASH

**Kamoljonova Dilfuza Xoldorovna, TPMI matbuot kotibi,**
**pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kitobxonlik asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashning nazariy hamda amaliy asoslari xalqaro pedagogik tajribalar misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatining shaxs kamolotidagi o'rni, rivojlangan davlatlar tajribasida mutolaaning fuqarolik ongini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida ta'lim muassasalari, oila va jamiyat hamkorligi asosida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlar ko'rib chiqiladi. Fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda kitobxonlikni targ'ib etishning innovatsion usullari hamda ularni milliy ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, kitobxonlik madaniyati, xalqaro tajriba, yoshlar tarbiyasi, ta’lim tizimi, mutolaa, fuqarolik kompetensiyasi.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical foundations of educating the younger generation in the spirit of civic engagement and social responsibility using international pedagogical experience as an example. It also highlights the role of reading culture in personal development and the importance of reading in shaping civic consciousness in the experience of developed countries. The study examines effective mechanisms that serve to increase the social activity of youth based on the cooperation of educational institutions, the family, and society. Innovative methods for promoting reading in the development of civic competencies and proposals for their implementation into the national education system will be developed.

**Key words:** civic engagement, social responsibility, reading culture, international experience, youth education, education system, reading, civic competence.

Globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yosh avlodni demokratik qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishdan iborat. Jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy omillarga, balki fuqarolarning ongli ishtiroki, vatanparvarligi va ijtimoiy mas’uliyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli rivojlangan davlatlar ta’lim siyosatida yoshlarni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalashda shu sohaga oid adabiyotlarni mutolaa qilishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy jarayonlarga daxldorlik hissini kuchaytirishda kitobxonlik muhim vosita hisoblanadi. Kitob mutolaasi insonning dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi hamda jamiyatdagi muammolarga befarq bo‘lmaslik fazilatini rivojlantiradi. Ayniqsa, badiiy va ilmiy adabiyotlar orqali yoshlar tarixiy tajriba, fuqarolik qadriyatlari va insonparvarlik tamoyillarini chuqur anglab boradilar.

O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan, xalqaro pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik faolligi jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etish, ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmaslik va ularni hal etishga intilish jarayonidir. Ijtimoiy mas’uliyat esa shaxsning o‘z harakatlari natijalarini anglab, jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalaydi.

Pedagogika fanida mazkur tushunchalar shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi.

*Fuqarolik tarbiyasi orqali yoshlarda:* qonunlarga hurmat; inson huquqlariga sadoqat; vatanparvarlik; ijtimoiy tashabbuskorlik; jamoatchilik faoliyatida ishtirok etish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Yuqoridagi vazilatlarni shakllantirishda badiiy adabiyotlar bilan birga ilmiy-ommabop to‘plamlarni o‘qish, yoshlarning sohaga oid bilimlarini oshiradi. Vatanparvarlik ruhi ertak, doston, rivoyatlar orqali singdirilsa, qonunlarni hurmat qilish, inson huquqlarini hurmat qilish sohaga oid Gazeta va jurnallar orqali rivojlantiriladi. Fuqarolik faolligining rivojlanishida oila, maktab, mahalla va ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi.

Biroq zamonaviy sharoitda kitobxonlik madaniyati ushbu jarayonning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

***Xalqaro pedagogik tajribalarda fuqarolik tarbiyasi va kitobxonlikning o‘rnini quyidagi davlatlar misolida ko‘ramiz:***

**Finlandiya tajribasi** – Finlandiya ta’lim tizimi dunyodagi eng samarali modellardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu mamlakatda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Maktablarda kitobxonlik darslari alohida yo‘nalish sifatida tashkil etilgan bo‘lib, o‘quvchilar muntazam ravishda badiiy va ilmiy adabiyotlarni mutolaa qiladilar.

Mutolaa jarayonida o‘quvchilar: ijtimoiy muammolarni tahlil qiladi; muhokamalarda qatnashadi; o‘z fikrini erkin bayon etadi. Bu esa, ularda fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

**Germaniya tajribasi.** Germaniya maktablarida “Demokratiya ta’limi” konsepsiyasi asosida o‘quvchilarni jamiyat boshqaruvi jarayonlariga tayyorlash maqsad qilingan. Kutubxonalar ta’limning muhim qismi sifatida faoliyat yuritadi.

O‘quvchilar: tarixiy asarlar; huquqiy adabiyotlar; fuqarolik jamiyati haqidagi kitoblarni o‘qish orqali ijtimoiy ong va mas’uliyat hissini rivojlantiradilar.

**Yaponiya tajribasi.** Yaponiyada axloqiy tarbiya va kitobxonlik bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Maktablarda har kuni mutolaa uchun maxsus vaqt ajratiladi. Natijada yoshlar nafaqat bilimli, balki intizomli va mas’uliyatli fuqaro sifatida shakllanadi.

Bugungi kunda bir qator omillar yoshlarning fuqarolik faolligi va kitobxonlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda:

Raqamli texnologiyalarga haddan tashqari qaramlik. Ijtimoiy tarmoqlar va qisqa videolar yoshlarning mutolaa qilishga ajratadigan vaqtini kamaytirmoqda. Oilada kitobxonlik muhitining sustligi – farzandlarda mutolaa odati avvalo oilada shakllanadi. Oiladagi kitobxonlik muhiti yetarli bo‘lmasa, yoshlarning o‘qishga qiziqishi ham pasayadi. Nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan mustahkamlanmagani sababli fuqarolik kompetensiyalari to‘liq shakllanmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida faol fuqarolik ko‘nikmalarini shakllantirishda “Men ham Vatanimning bir bo‘lagiman”, “O‘zbekiston mening Vatanim” mavzusida maktablarda rasmlar va kichik hajmdagi insholar tanlovini o‘tkazish, sentabr oyining birinchi darsida Vatanimiz hududi, geografik joylashuvi bilan birga ramzlar, faol fuqaro bo‘lish uchun bolalarda qanday kompetensiyalar bo‘lishi kerakligi haqida kontentlar namoyish etish, Vatan haqida she’r yod olish ham, sahna ko‘rinishi tayyorlash amaliy samara ko‘rsatadi.

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida kitobxonlik klublarini tashkil etish yoshlarning mutolaaga qiziqishini oshirishda “Bir oy – bir kitob” loyihasini amaliyotga joriy etish. Bu adabiyotlarni mutolaa uchun tavsiya qilishda o‘quvchilarning yoshini inobatga olish, faol fuqarolik pozitsiyasiga mos ro‘yxat shakllantirish. Har oy ma’lum bir asarni o‘qish va muhokama qilish fuqarolik masalalariga doir qarashlarni boyitadi.

Elektron kutubxonalarni kengaytirish, raqamli texnologiyalarni kitobxonlik manfaatlariga xizmat qildirish zarur. Oila-maktab-mahalla hamkorligida yoshlarning fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishda ushbu institutlarning hamkorligi muhim omil hisoblanadi.

Fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Xalqaro pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik madaniyati yoshlarni faol, mas’uliyatli va tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalashning eng

samarali vositalaridan biridir. Mutolaa insonning tafakkurini boyitadi, ijtimoiy ongini rivojlantiradi va jamiyat hayotidagi jarayonlarga faol munosabat bildirishga undaydi. Shu bois ta'lim tizimida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish yosh avlodni komil inson va faol fuqaro sifatida tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

**Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi Qonuni.

3. Muhammedova O. Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish omillari. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti o'quv-uslubiy kengashining 2020-yil noyabrdagi 4-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan // Yoshlarda qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda san'at va gumantar fanlarning o'rni: To'plam materiallari. – 152 b.

4. Musurmonva O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi6 umumta'lim maktablari uchun. – T.: O'qituvchi, 1996. –192 b.

## TA'LIM TASHKILOTLARIDA YOSH AVLODNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS'ULIYAT RUHIDA TARBIYALASHNING XALQARO TAJRIBALARGA ASOSLANGAN PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Karimov Komiljon Abduraximovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti "Inklyuziv ta'lim-tarbiya metodikasi ilmiy-tadqiqot" bo'limi boshlig'i**

**Annotatsiya** Mazkur maqolada xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Finlandiya, Germaniya, Kanada, Singapur va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish tajribalari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ahamiyatli jihatlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida ta'lim tashkilotlari, oila va mahalla hamkorligiga asoslangan "Integrativ fuqarolik tarbiyasi modeli" ishlab chiqilgan. Mazkur model yoshlarning fuqarolik kompetensiyasi, ijtimoiy mas'uliyati, liderlik salohiyati va jamiyat hayotidagi ishtirokini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik kompetensiyasi, demokratik qadriyatlar, pedagogik tizim, xalqaro tajriba, yoshlar tarbiyasi, innovatsion yondashuv.

Bugungi kunda jahonda demokratik jamiyat qurish, fuqarolik institutlarini rivojlantirish va inson kapitalini yuksaltirish jarayonlari yosh avlodning fuqarolik faolligi hamda ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib qolmoqda. Zamonaviy globallashuv, raqamli transformatsiya va axborotlashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy ongiga ta'sir etuvchi omillar soni keskin ortmoqda. Shu sababli yoshlarni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijtimoiy mas'uliyatli va demokratik qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham yoshlar siyosatini takomillashtirish, ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli

islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq yoshlarning fuqarolik faolligini rivojlantirishga oid pedagogik mexanizmlarni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi aynan yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning samarali pedagogik tizimini ishlab chiqish ehtiyoji bilan belgilanadi.

Fuqarolik tarbiyasi muammosi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilar J.Dyui, T.Kennedi, J.Banks, D.Kerr, M.Print, B.Hoskinslar fuqarolik ta’limining demokratik jamiyat rivojidagi o‘rnini asoslab berganlar. MDH olimlaridan V.Slastenin, I.Podlasiy, Ye.Bondarevskaya, A.Mudrik fuqarolik madaniyati va ijtimoiy faollikning pedagogik omillarini tadqiq qilganlar. O‘zbekistonlik olimlar N.Jo‘rayev, E.Seytxalilov, M.Quronov, R.Ishmuhamedov va boshqalar yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash hamda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish masalalarini yoritganlar. Ammo mavjud tadqiqotlarda xalqaro pedagogik tajribalarni integratsiyalashgan holda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishning yaxlit pedagogik tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur tadqiqot yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning xalqaro tajribalarga asoslangan pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlarini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxs rivojlanishining ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlari, fuqarolik tarbiyasining nazariy konsepsiyalari hamda zamonaviy ta’lim paradigmalari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlari majmuasidan foydalanildi.




qilindi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish Tadqiqotning dastlabki bosqichida fuqarolik tarbiyasi, ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik kompetensiyasi va yoshlar faolligiga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar o‘rganildi. Xususan, UNESCO, OECD, UNICEF kabi xalqaro

tashkilotlarning hisobotlari, rivojlangan davlatlar ta’lim standartlari, ilmiy monografiyalar, dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Mazkur metod orqali fuqarolik faolligini shakllantirishning nazariy asoslari, mavjud yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar tizimlashtirildi hamda tadqiqotning konseptual modeli ishlab chiqildi.

Qiyosiy tahlil yordamida Finlandiya, Germaniya, Kanada, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish tajribalari o‘rganildi. Ushbu mamlakatlar ta’lim tizimlarining o‘ziga xos jihatlari, fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari va yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb etish usullari qiyosiy ravishda tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil natijasida xalqaro tajribalarning O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun mos va samarali elementlari aniqlanib, ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kontent-tahlil metodi orqali fuqarolik tarbiyasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va tarbiyaviy faoliyatga oid metodik materiallar o‘rganildi.

Mazkur metod yordamida ta’lim mazmunida fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi komponentlar, qadriyatlar va kompetensiyalar tizimi aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida ta’lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlar, yoshlar ittifoqi faoliyati, volontyorlik loyihalari va jamoatchilik tashabbuslarining amaliy holati kuzatildi. Kuzatish natijasida yoshlarning fuqarolik faolligi darajasi, ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki va jamoatchilik ishlariga munosabati to‘g‘risida muhim ma’lumotlar to‘plandi.

Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri sifatida modellashtirish metodidan foydalanildi. Ushbu metod asosida xalqaro tajribalar va milliy ehtiyojlarni uyg‘unlashtirgan holda “Integrativ fuqarolik tarbiyasi modeli” ishlab chiqildi.

Modelning tarkibiy qismlari sifatida maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-faoliyatli, motivatsion va natijaviy komponentlar belgilandi. Mazkur model yosh avlodning fuqarolik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda fuqarolik tarbiyasi yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraldi. Bunda ta’lim tashkiloti, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi hamkorlik yagona tizimning tarkibiy elementlari sifatida tahlil Tizimli yondashuv fuqarolik tarbiyasining barcha subyektlari faoliyatini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish va ularning samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarni umumlashtirish, qayta ishlash va ilmiy xulosalar chiqarishda statistik tahlil metodidan foydalanildi. Statistik ma’lumotlar yordamida yoshlarning fuqarolik faolligi ko‘rsatkichlari, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish darajasi va pedagogik ta’sir samaradorligi baholandi.

Olingan natijalar jadval va diagrammalar asosida tahlil qilinib, tadqiqot gipotezalarining ishonchlilik darajasi aniqlandi.

Tadqiqotning metodologik asosini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompetensiyaviy, aksiologik, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etdi.

**Kompetensiyaviy yondashuv** yoshlarda fuqarolik bilimlari, ko‘nikmalari va amaliy tajribalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

**Aksiologik yondashuv** demokratik qadriyatlar, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, inson huquqlariga hurmat va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv** har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishni nazarda tutadi.

**Faoliyatga asoslangan yondashuv** esa, fuqarolik faolligini amaliy faoliyat orqali rivojlantirishga qaratilib, yoshlarni ijtimoiy loyihalar, volontyorlik harakatlari, debatlar va jamoatchilik tashabbuslariga jalb etishni ko‘zda tutadi.

Mazkur metodologik yondashuvlarning uyg‘unligi yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni samarali shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratishga imkon berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash hamda yoshlarning mamlakat taraqqiyotidagi faol ishtirokini ta’minlash bevosita ularning fuqarolik kompetensiyalari, ijtimoiy faolligi va mas’uliyatlilik darajasiga bog‘liqdir.

Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili Finlandiya, Germaniya, Kanada va Singapur kabi rivojlangan davlatlarda fuqarolik tarbiyasi yaxlit pedagogik tizim asosida tashkil etilayotganligini ko‘rsatdi. Mazkur mamlakatlar tajribasining o‘ziga xos jihati shundaki, fuqarolik tarbiyasi faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarni real ijtimoiy munosabatlar, jamoatchilik tashabbuslari, volontyorlik faoliyati, demokratik boshqaruv jarayonlari hamda turli ijtimoiy loyihalarga faol jalb etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa, yoshlarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, liderlik, bag‘rikenglik va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator muammolar aniqlandi. Jumladan, fuqarolik tarbiyasining ayrim hollarda nazariy xarakter kasb etishi, ta’lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, yoshlarning ijtimoiy loyihalardagi ishtirokining sustligi, raqamli makondagi axborot xurujlari va media savodxonlik ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu yo‘nalishdagi dolzarb muammolar sifatida baholandi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida xalqaro tajribalar hamda milliy ta’lim tizimining ehtiyojlari asosida “IFTM – Integrativ Fuqarolik Tarbiyasi Modeli” ishlab chiqildi. Ushbu modelning asosiy afzalligi ta’lim tashkiloti, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari va yoshlar birlashmalarining o‘zaro hamkorligini yagona pedagogik tizimga birlashtirishdan iboratdir. Model doirasida fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish, volontyorlik faoliyatini kengaytirish, media savodxonlikni oshirish hamda yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi.

***Tadqiqot natijalari asosida fuqarolik tarbiyasini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar tavsiya etildi:*** fuqarolik ta’limini barcha fanlar mazmuniga integratsiyalash; yoshlarni ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatlariga keng jalb etish; ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilar va talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini rivojlantirish; “ta’lim muassasasi-oila-mahalla” hamkorligining zamonaviy mexanizmlarini yaratish; yoshlarning media va axborot savodxonligini oshirish; fuqarolik kompetensiyalarini baholashning monitoring tizimini joriy etish; xalqaro tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish asosida innovatsion tarbiya texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan pedagogik model va amaliy tavsiyalar yosh avlodning fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyati, vatanparvarligi va demokratik qadriyatlarga sodiqligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalarini umumiy o'rta ta'lim maktablari, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim tashkilotlari hamda yoshlar bilan ishlovchi institutlar faoliyatiga joriy etish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va Yangi O'zbekiston taraqqiyotining inson kapitaliga asoslangan modelini ro'yobga chiqarishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kelgusida fuqarolik tarbiyasining raqamli pedagogika, sun'iy intellekt texnologiyalari va global fuqarolik kompetensiyalari bilan integratsiyalashgan yangi modellarini ishlab chiqish ushbu yo'nalishdagi istiqbolli ilmiy tadqiqotlar qatoriga kiradi.

**Adabiyotlar**


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T., 2020. – 20 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – 464 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 56 b.
5. Rajabov S.R. Pedagogika fani taraqqiyotining ba'zi masalalari. – T., 1977. – 240 b.
6. Rajabov S.R. Xalq maorifi va pedagogika fanining buyuk allomalari. – T.: O'qituvchi, 1990. – 280 b.
7. Jo'rayev R.H. Ta'lim menejmenti va pedagogik innovatsiyalar. – T., 2018. – 312 b.
8. Seytxalilov E.A. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 286 b.
9. Quronov M. Milliy tarbiya va yoshlar. – T.: Kamalak, 2016. – 112 b.
10. Quronov M., Ibraimov X. Umumiy pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2021. – 400 b.
11. Hoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. – T., 1995.
12. Hoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-j. – T., 1999. – 336 b.
13. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2017. – 248 b.
14. Musurmonova O. Oila ma'naviyati va tarbiya masalalari. – T.: Fan, 2018. – 224 b.
15. Safarova R.G. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 256 b.
16. Mavlonova R.A. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2020. – 528 b.
17. Mirzayeva F.O., Voxidova N.X., Saidova B.N. Milliy tarbiya asoslari. – T., 2024.
18. Mardonov Sh.Q. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – T.: Tarbiya pedagogikasi milliy instituti nashriyoti, 2023. – 290 b.
19. Musurmonqulov O.U. Zamonaviy ta'limda tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish. – T., 2024. – 210 b.


## SHAXSNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA UNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI AHAMIYATI


**Kasimov Sanjar, ISFT instituti mustaqil tadqiqotchisi**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda shaxsning psixologik farovonligini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Psixologik farovonlikning mazmuni, uning asosiy tarkibiy qismlari hamda shaxs rivojlanishidagi o'rni ilmiy nuqtai

nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy muhit va ta’lim tizimining psixologik farovonlikni shakllantirishdagi roli ochib berilgan. Maqolada pozitiv psixologiya konsepsiyasi asosida shaxsning ruhiy salomatligini mustahkamlashning zamonaviy yo‘nalishlari ham ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologik farovonlik, ruhiy salomatlik, emotsional intellekt, pozitiv psixologiya, stress, motivatsiya, shaxs rivojlanishi, psixologik moslashuv.

So‘nggi yillarda inson salomatligini baholashda faqatgina jismoniy holat emas, balki psixologik farovonlik darajasi ham muhim mezon sifatida qaralmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ruhiy salomatlikni insonning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, kundalik hayotdagi stresslarni samarali yenga olishi, unumli mehnat qilishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi bilan bog‘laydi. Shu sababli psixologik farovonlik masalasi zamonaviy psixologiya fanining eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda psixologik farovonlik shaxsning biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladigan murakkab psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Uning shakllanishida oilaviy muhit, ta’lim sifati, kasbiy faoliyat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, madaniy qadriyatlar hamda individual psixologik xususiyatlar muhim o‘rin tutadi. Shaxsning psixologik farovonligini ta’minlash bugungi kunda ta’lim tizimining ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ruhiy jihatdan sog‘lom, emotsional barqaror, o‘z imkoniyatlarini anglagan va ijtimoiy faol shaxs jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan psixologik farovonlikni shakllantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish hamda ta’lim amaliyotiga zamonaviy psixologik texnologiyalarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Psixologik farovonlik tushunchasi psixologiya fanida insonning o‘z hayotidan qoniqishi, ijobiy emotsional holati, shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi hamda ijtimoiy muhit bilan uyg‘un munosabat o‘rnata olishini ifodalovchi ko‘p qirrali tushuncha sifatida talqin qilinadi. Mazkur tushuncha shaxsning faqat vaqtinchalik xursandchiligi yoki ruhiy osoyishtaligini emas, balki uning uzoq muddatli rivojlanishi, hayotiy maqsadlari, mustaqilligi va ijtimoiy faolligini ham qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotlarda psixologik farovonlikni o‘rganishga doir ikki asosiy yondashuv ajratiladi. Birinchi yondashuv gedonistik yondashuv bo‘lib, u insonning hayotdan qoniqishi, ijobiy emotsiyalarning ustunligi va salbiy kechinmalarning kamayishi bilan bog‘liq. Mazkur yondashuv doirasida subyektiv farovonlik tushunchasi shakllangan. Subyektiv farovonlik insonning o‘z hayotiga bergan umumiy bahosi, emotsional holati va shaxsiy qoniqish darajasi orqali namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi yondashuv evdemonistik yondashuv bo‘lib, bunda insonning o‘z imkoniyatlarini rivojlantirishi, mazmunli hayot kechirishi, shaxsiy o‘sishga intilishi va jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglab yetishi asosiy mezon hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, psixologik farovonlik faqat yoqimli emotsiyalarni boshdan kechirish bilan cheklanmaydi. Inson ayrim qiyinchiliklar, ziddiyatlar va hayotiy sinovlarga duch kelgan holda ham o‘z faoliyatining maqsadi va mazmunini anglab, psixologik jihatdan farovon bo‘lishi mumkin.

Boshqalar bilan ijobiy munosabat o‘rnatish shaxsning yaqin insonlar bilan ishonchli, samimiy va barqaror aloqalarni rivojlantirish qobiliyatini ifodalaydi. Insonning psixologik farovonligi ko‘p jihatdan uning oila a’zolari, do‘stlari, hamkasblari va atrofidagi boshqa insonlar bilan munosabatiga bog‘liq. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi shaxsga

stressli vaziyatlarda ruhiy tayanch beradi, yolg‘izlik hissini kamaytiradi va qiyinchiliklarni yengish imkoniyatini oshiradi. Avtonomlik shaxsning mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z fikri va qadriyatlariga ega bo‘lishi, tashqi bosimlarga nisbatan barqarorlik ko‘rsatishini anglatadi. Avtonom shaxs o‘z xatti-harakatlarini faqat boshqalarning bahosiga muvofiq emas, balki o‘z e’tiqodi, maqsadi va hayotiy qarashlari asosida tashkil etadi.

Shu bilan birga, avtonomlik ijtimoiy munosabatlardan butunlay voz kechish emas, balki shaxsiy mas’uliyat va mustaqillikni anglatadi. Tashqi muhitni boshqarish shaxsning mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishi, kundalik hayotini rejalashtirishi va o‘z ehtiyojlariga mos sharoit yaratishi bilan belgilanadi. Hayotiy muammolarni hal qila olish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, shaxsiy va kasbiy vazifalar o‘rtasida muvozanatni saqlash ushbu komponentning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Hayotiy maqsadning mavjudligi insonning o‘z faoliyati va kelajagini mazmunli deb his qilishini ta’minlaydi.

Aniqlashtirilgan maqsadlar shaxsning ichki motivatsiyasini oshiradi, uning faoliyatiga yo‘nalish beradi va qiyinchiliklar oldida taslim bo‘lmaslikka yordam beradi. Hayot mazmunini anglamaslik, istiqbolning noaniqligi va maqsadsizlik esa, ruhiy bo‘shliq, befarqlik hamda motivatsiyaning susayishiga olib kelishi mumkin. Shaxsiy o‘sish insonning yangi bilim va tajribalarni egallashi, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi va hayot davomida o‘zgarishga tayyorligi bilan bog‘liq. Shaxsning rivojlanishga intilishi psixologik farovonlikning asosiy belgilaridan biridir. O‘z ustida ishlash, yangi maqsadlarni belgilash va kasbiy kompetensiyalarni oshirish insonda o‘z imkoniyatlariga ishonchni kuchaytiradi.

**Ta’lim muhitida psixologik farovonlikni ta’minlashda** ta’lim muassasasi shaxsning nafaqat intellektual, balki emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan xavfsiz ta’lim muhiti o‘quvchi va talabalarning o‘z fikrini erkin ifodalashi, xatodan qo‘rqmasligi, tengdoshlari va pedagoglar bilan ijobiy munosabat o‘rnatishi uchun imkon yaratadi. Pedagogning muloqot uslubi ta’lim oluvchilarning psixologik farovonligiga bevosita ta’sir qiladi. O‘quvchining shaxsini hurmat qilish, uning fikrini tinglash, natijalarini adolatli baholash va rag‘batlantirish o‘ziga ishonchning shakllanishiga yordam beradi. Kamsitish, haqorat qilish, doimiy tanqid va boshqalar bilan taqqoslash esa xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va ta’lim motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ta’lim jarayonida faqat natijaga emas, balki rivojlanish jarayoniga ham e’tibor qaratish zarur. Talabaning xatosini kamchilik sifatida emas, o‘rganish imkoniyati sifatida ko‘rsatish unda psixologik xavfsizlikni shakllantiradi. Shuningdek, hamkorlikdagi ta’lim, guruhiy loyihalar, refleksiya mashqlari va muammoli vaziyatlarni hal qilish usullari ta’lim oluvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar uchun individual maslahatlar, stressni boshqarish treninglari, moslashuv dasturlari, kommunikativ ko‘nikmalar va kasbiy motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilishi lozim. Talabalarning psixologik farovonligini ta’minlashda ularning o‘quv yuklamasi, dam olish imkoniyati va shaxsiy hayoti o‘rtasidagi muvozanatni saqlash ham zarur. Haddan tashqari yuqori talablar, vazifalarning ko‘pligi va doimiy baholash bosimi emotsional charchashga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayoni insonparvarlik, individuallashtirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanishi kerak.

Kasbiy faoliyat va psixologik farovonlik. Kasbiy faoliyat inson hayotining katta qismini tashkil etadi. Shu bois ish joyidagi psixologik muhit, mehnat sharoiti, rahbarlik uslubi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari shaxsning umumiy farovonligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Inson o‘z mehnatining mazmunli va jamiyat uchun foydali ekanini his qilganida, uning kasbiy qoniqishi hamda motivatsiyasi ortadi.

Kasbiy farovonlik shaxsning ish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi, jamoada o‘zini xavfsiz his qilishi, mehnati munosib baholanishi va o‘z salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Sog‘lom ish muhitida xodimlar o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro hurmat va ochiq muloqot mavjud bo‘ladi. Aksincha, ish yuklamasining haddan tashqari ko‘pligi, vazifalarning noaniqligi, doimiy nazorat, adolatsiz munosabat va jamoaviy nizolar kasbiy stressni kuchaytiradi. Uzoq davom etuvchi kasbiy stress emotsional kuyish sindromining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Emotsional kuyish holatida inson doimiy charchoq, faoliyatga befarqlik, ish samaradorligining pasayishi va atrofdagilarga nisbatan salbiy munosabatni boshdan kechiradi.

Pedagogik faoliyat emotsional jihatdan murakkab kasblardan biri hisoblanadi. Pedagog bir vaqtning o‘zida ta’lim oluvchilar, ota-onalar, rahbariyat va hamkasblar bilan munosabat olib boradi. Yuqori mas’uliyat, katta hajmdagi hujjatlar va natijaga qo‘yiladigan talablar pedagogning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli pedagoglarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnatini adolatli tashkil etish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Tashkilotlarda psixologik salomatlikni saqlashga qaratilgan dasturlarni joriy qilish, mehnat va dam olish muvozanatini ta’minlash, xodimlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda nizolarni konstruktiv hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Psixologik farovonlikni rivojlantirish yo‘llari. Shaxsning psixologik farovonligini rivojlantirish murakkab va uzluksiz jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda insonning o‘z faoliyatini, hissiyotlarini va munosabatlarini ongli ravishda boshqarishi muhim o‘rin tutadi. Psixologik farovonlikni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, shaxs o‘zini anglash va qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak. Inson o‘zining kuchli va zaif tomonlarini real baholashi, kamchiliklarini inkor qilmasdan ularni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishi lozim. O‘zini boshqalar bilan doimiy ravishda taqqoslash o‘rniga shaxsiy taraqqiyot va individual yutuqlarga e’tibor qaratish foydalidir.

Ikkinchidan, aniq va mazmunli hayotiy maqsadlarni belgilash zarur. Juda katta maqsadlarni kichik va bajarilishi mumkin bo‘lgan vazifalarga ajratish motivatsiyani saqlashga yordam beradi. Har bir kichik natijani e’tirof etish shaxsda muvaffaqiyat va kompetentlik hissini kuchaytiradi.

Uchinchidan, emotsiyalarni anglash va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Inson salbiy hissiyotlarni bostirish o‘rniga ularning kelib chiqish sabablarini tushunishga harakat qilishi lozim. Chuqur nafas olish, refleksiya, kundalik yuritish, jismoniy faollik va ishonchli inson bilan suhbatlashish hissiy zo‘riqishni kamaytiradi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Oila a’zolari, do‘stlar va hamkasblar bilan samimiy muloqot qilish, boshqalarga yordam berish va zarur vaziyatda yordam so‘rash psixologik barqarorlikni oshiradi. Inson o‘z muammolarini yolg‘iz hal qilishga majbur emasligini anglashi kerak.

Beshinchidan, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish lozim. To‘laqonli uyqu, muvozanatli ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik va dam olish insonning ruhiy holati bilan chambarchas bog‘liq. Jismoniy charchoq va uyqu yetishmasligi emotsional beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Oltinchidan, vaqtni to‘g‘ri boshqarish va mehnat bilan dam olish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarur. Vazifalarni ustuvorlik asosida rejalashtirish, ortiqcha majburiyatlarni kamaytirish va dam olishga ongli ravishda vaqt ajratish kasbiy va emotsional kuyishning oldini oladi.

Yettinchidan, shaxs zarur hollarda mutaxassisga murojaat qilishdan qo‘rqmasligi kerak. Doimiy xavotir, tushkunlik, uyqusizlik, hayotga qiziqishning yo‘qolishi va kundalik faoliyatni bajarishdagi qiyinchiliklar uzoq davom etsa, psixolog yoki boshqa tegishli mutaxassis yordami zarur bo‘lishi mumkin.

Shaxsning psixologik farovonligini mustahkamlash maqsadida ta’lim muassasalari, oila, mehnat jamoalari va jamiyat miqyosida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Ta’lim muassasalarida psixologik xavfsiz muhit yaratish, tahqirlash va kamsitish holatlarining oldini olish, ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Talaba-yoshlar uchun stressni boshqarish, emotsional intellekt, samarali muloqot va vaqtni boshqarishga oid treninglar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyati faqat muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda yordam ko‘rsatish bilan cheklanmasligi kerak. Psixologik profilaktika, moslashuv dasturlari, individual maslahatlar va guruhiy treninglar muntazam tashkil etilishi lozim. Oilalarda farzandlarning fikrini tinglash, ularni doimiy taqqoslash va kamsitishdan voz kechish, hissiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur. Ota-onalar bolaning faqat natijasiga emas, balki harakatiga, intilishiga va rivojlanishiga ham e’tibor berishlari kerak. Mehnat jamoalarida xodimlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash, ortiqcha ish yuklamasini kamaytirish, vazifalarni aniq taqsimlash va sog‘lom muloqotni rivojlantirish muhimdir. Rahbarlarning emotsional intellekti va boshqaruv madaniyatini oshirish tashkilotdagi psixologik muhitni yaxshilaydi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ruhiy salomatlikka oid ishonchli, ilmiy asoslangan ma’lumotlarni keng targ‘ib qilish lozim. Psixologga murojaat qilishni zaiflik belgisi sifatida emas, balki shaxsning o‘z salomatligiga mas’uliyatli munosabati sifatida talqin etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, psixologik farovonlik shaxsning hayotdan qoniqishi, o‘zini qabul qilishi, hayotiy maqsadlarga ega bo‘lishi, ijobiy munosabatlarni rivojlantirishi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishini ifodalovchi murakkab psixologik hodisadir. U faqat ijobiy emotsiyalar yoki muammolarning yo‘qligi bilan belgilanmaydi. Psixologik farovonlik insonning qiyinchiliklarga moslashishi, mazmunli faoliyat yuritishi va o‘z hayotini ongli ravishda boshqarishi bilan ham bog‘liq. Shaxsning psixologik farovonligi individual xususiyatlar, oilaviy muhit, ta’lim tizimi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy faoliyat va raqamli muhit ta’sirida shakllanadi. Ushbu omillarning har biri inson ruhiy holatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Emotsional intellekt, stressga bardoshlilik, o‘zini anglash, psixologik moslashuvchanlik va sog‘lom ijtimoiy munosabatlar psixologik farovonlikni ta’minlovchi asosiy ichki resurslar hisoblanadi. Ularni rivojlantirish shaxsning murakkab hayotiy vaziyatlarda ruhiy muvozanatini saqlashiga yordam beradi.

Zamonaviy jamiyatda psixologik farovonlikni ta’minlash faqat insonning shaxsiy vazifasi sifatida qaralmasligi kerak. Oila, ta’lim muassasalari, mehnat tashkilotlari va davlatning ijtimoiy institutlari ham ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Shu bois ta’lim va tarbiya jarayoniga psixologik salomatlik, emotsional savodxonlik va stressni boshqarishga oid bilim hamda texnologiyalarni keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR

1. Seligman M.E.P. Flourish: a visionary new understanding of happiness and well-being. – New York: Free Press, 2011. – 368 p.
2. Diener E., Oishi S., Lucas R.E. Personality, culture, and subjective well-being: emotional and cognitive evaluations of life // Annual review of psychology. – 2003. – Vol. 54. – P. 403-425.
3. Deci E.L., Ryan R.M. The “what” and “why” of goal pursuits: human needs and the self-determination of behavior // Psychological Inquiry. – 2000. – Vol. 11. – No. 4. – P. 227-268.
4. Fredrickson B.L. The role of positive emotions in positive psychology: the broaden-and-build theory of positive emotions // American Psychologist. – 2001. – Vol. 56. – No. 3. – P. 218-226.
5. Frankl V.E. Man’s Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 2006. – 184 p.
6. Леонтьев Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – М.: Смысл, 2007. – 511 с.
7. Бонивелл И. Ключи к благополучию: что может позитивная психология. – М.: Время, 2009. – 192 с.
8. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. – СПб.: Питер, 2013. – 784 с.


# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕНЕРАТИВНЫХ ИИ-ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ


**Конева Светлана Хамидовна,**
**старший преподаватель УзНПУ им. Низами**



**Аннотация.** В статье рассмотрены проблемы внедрения генеративных инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в систему профессиональной подготовки будущих педагогов. Проанализированы основные направления применения генеративных языковых моделей (ChatGPT, Claude, Gemini и аналогичных) в образовательном процессе вуза: проектирование электронных материалов, разработка соответствующих образовательных маршрутов, обеспечение цифровой грамотности и развитие критического мышления студентов педагогических специальностей. Особое внимание уделено вопросам формирования у будущих учителей компетенций поэтому и педагогически обоснованному использованию ИИ-инструментов. На основе национального анализа и зарубежного опыта предложены практические рекомендации по включению генеративного ИИ в технологические педагогические курсы вузов, а также обозначены риски, связанные с увеличением зависимости от автоматизированных систем генерации контента.



**Ключевые слова:** генеративный искусственный интеллект, подготовка педагогов, цифровая грамотность, профессиональная компетентность, искусственный интеллект в образовании, педагогическое образование.


Стремительное развитие генеративных технологий искусственного интеллекта за последние несколько лет привело к появлению инструментов, способных создавать тексты, изображения, аудио- и видеоматериалы, программный код и другие виды

контента на основе запросов клиентов. Появление таких систем, как ChatGPT, Claude, Google Gemini, Microsoft Copilot и других изменило подходы к организации образовательного процесса на всех его уровнях, включая высшее образование.

Целью данной статьи является анализ возможностей и ограничение использования генеративных ИИ-инструментов в системе будущих педагогов, а также разработка практических рекомендаций по их методически обоснованному внедрению в образовательно-процессуальном вузе.

Особую актуальность представляет вопрос подготовки будущих педагогов к работе в условиях цифровой трансформации образования. Учитель, выходящий сегодня из стен педагогического вуза, должен не только владеть предметными и методическими представлениями, но и обладать развитой цифровой компетентностью, включая понимание продолжения работы генеративных моделей, умение четко определять потребности и навыки руководителей таких инструментов в собственной профессиональной сфере.

Проблема использования искусственного интеллекта в образовании в последние годы активно развивается как в национальной, так и в зарубежной педагогической науке.

*Выделим несколько ключевых выводов в исследованиях в данной области:*

Дидактический потенциал генеративного ИИ – исследования, посвящённые анализу возможностей использования генеративных моделей для создания учебных материалов, тестовых заданий, кейсов и проведения уроков.

Формирование цифровой компетентности педагога – работы, рассматривающие типичные цифровые компетенции современного учителя и место в ее навыках работы с ИИ-инструментами.

Этические и психолого-педагогические аспекты – исследования академической нечестности, снижения самостоятельности мышления студентов, проблем достоверности генерируемого контента.

Институциональные подходы к регулированию – нормативные документы и рекомендации международных организаций (в частности, материалов ЮНЕСКО по вопросам использования генеративного ИИ в образовании) задают рамочные ориентиры для образовательных организаций.

Обобщая представленные направления, можно констатировать, что генеративный ИИ современных исследователей не является угрозой традиционной системы образования, а является инструментом, требующим формирования у будущих педагогов эффективных компетенций для его применения.

*И как руководство к использованию генеративных ИИ-инструментов в подготовке педагогов:*

1. Проектирование учебно-методических материалов. Одним из наиболее востребованных направлений применения генеративного ИИ является разработка планов-конспектов уроков, рабочих программ, дидактических материалов и контрольно-измерительных средств. В рамках подготовки будущих педагогов студенты предлагают задания, в генеративном инструменте используется не как источник готовых решений, а как «соавтор», который использует черновой вариант материала, затем использует критический анализ, доработку и адаптацию к этим условиям обучения (возрасту обучающихся, внимательность к их подготовке, особенностям образовательной программы).

2. Дифференциация и индивидуализация обучения. Генеративные модели позволяют быстро создавать варианты заданий разного уровня сложности, адаптированные тексты для учащихся с различным уровнем образования, в том числе для детей с ограниченными возможностями здоровья. Будущие педагоги, осваивающие данный функционал, сложные навыки, формируют образовательные маршруты и работают в условиях инклюзивного образования.

3. Развитие технологий обратной связи и наблюдения. ИИ-инструменты могут использоваться для формирования сигналов обратной связи технологических работ, формирования оценочных комментариев, а также для анализа диалога в схеме «учитель-ученик» в рамках практических занятий по педагогическому мастерству и психологии. Это позволяет студентам обучать профессиональным коммуникативным навыкам в безопасной учебной среде до выхода на педагогическую практику.

4. Формирование исследовательских компетенций. В рамках самостоятельных работ, курсовых и выпускных квалификационных работ генеративные модели могут применяться для предварительного анализа литературы, формулирования рабочих гипотез, структурирования текста исследования. При этом ключевая роль преподавателя позволяет студентам научиться верифицировать информацию, полученную от ИИ-системы, поскольку генеративные модели меняют так называемые «галлюцинации» – генерацию недостоверных или несуществующих данных. Также следует выделить существующие ограничения и риски.

Учитывая очевидные преимущества использования генеративного ИИ в педагогическом образовании, необходимо учитывать ряд факторов риска:

Снижение самостоятельности мышления – чрезмерная педагогическая опора на готовые решения ИИ может препятствовать развитию у студентов навыков самостоятельного проектирования.

Проблема академической честности – использование сгенерированных текстов без указания источника создает риски нарушения академической этики.

Недостоверность генерируемого контента – генеративные модели могут предоставлять фактическую неточную информацию, что особенно критично при подготовке научных материалов.

Цифровое обозначение – неравный доступ студентов к современным ИИ-инструментам может привести к возникновению образовательных разрывов.

На основе проведённого анализа можно сформулировать следующие рекомендации по использованию генеративных ИИ-инструментов в системе подготовки будущих педагогов:

Включение в научные планы педагогических модулей или дисциплин, посвящённых основам работы с генеративным ИИ в образовании.

Разработка методических рекомендаций для преподавателей по формулированию заданий, прогнозирующих критических замечаний и доработке содержания, созданного с помощью ИИ.

Формирование у студентов навыков «промпт-инжиниринга» – грамотного формулирования запросов к генеративным моделям с учётом педагогических задач.

Включая в содержание подготовки тематических блоков, посвящённых этимологическим аспектам использования ИИ, вопросы интеллектуальной собственности и информационной безопасности.

Организация практических занятий, в рамках которых студенты сравнивают и верифицируют результаты, полученные с помощью различных ИИ-инструментов, с авторитетными источниками информации.

Генеративные ИИ-инструменты представляют собой значимый ресурс для создания системы подготовки будущих педагогов, открывающей новые возможности для проектирования научных материалов, индивидуализации обучения и развития профессиональной компетентности студентов. При этом эффективность их использования напрямую зависит от методической грамотности преподавателей и сформированности у студентов критического отношения к генерируемому контенту. Перспективным направлением в ходе исследований представляется разработка и эмпирическая апробация моделей формирования ИИ-компетентности будущих педагогов в условиях необходимого обучения программ.

**Литература**

1. Андреев А.А. Цифровизация педагогического образования: проблемы и перспективы // Педагогика. – М., 2023. – № 4. – С. 15-24.

2. Иванова Е.О., Осмоловская И.М. Дидактические аспекты использования технологий искусственного интеллекта в образовании // Отечественная и зарубежная педагогика. – 2024. – Т. 14. № 2. – С. 45-58.

3. ЮНЕСКО. Руководство по использованию генеративного искусственного интеллекта в образовании и научных исследованиях. – Париж: ЮНЕСКО, 2023.

4. Зеер Э.Ф., Симанюк Э.Э. Цифровизация профессионального образования: вызовы и риски // Образование и наука. – 2022. – Т. 24. – № 3. – С. 11-25.

5. Роблес, М., Матеус, Дж.К. Генеративный ИИ и подготовка учителей: возможности и вызовы // Компьютеры и образование. – М., 2024. – Т. 210.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ВОЕННЫХ ВОДИТЕЛЕЙ

**Костин Александр Вячеславович, старший преподаватель**
**Университет ВБ и О Республики Узбекистана**

В мире в сфере военного образования уделяется особое внимание методике воспитания личностно-профессиональных качеств военных водителей на основе широкого внедрения современных знаний, передового зарубежного опыта, информационно-инновационных и цифровых технологий при преподавании дисциплины «Военная подготовка». В концепции международного образования до 2030 года ЮНЕСКО принята стратегическая задача: «Создание возможности получать качественное образование на протяжении всей жизни» и в связи с этим проводится обучение и системная работа по реализации моделей обеспечения гармонии инноваций на основе применения международных стандартов к методике воспитания личностно-профессиональных качеств военных водителей. В системе образования Российской Федерации, Республики Беларусь, Южной Кореи, Японии и Китая приоритет отдается определению путей воспитания личностно-профессиональных качеств военных водителей, проводится системная работа по совершенствованию педагогического механизма создания благоприятных условий для работы.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях проводятся научные исследования по непрерывному развитию личностно-профессиональных качеств военных водителей на основе концептуальных подходов. Особое значение придается научным исследованиям по разработке педагогических стратегий, созданию условий, предоставляющих возможность для совершенствования системы выявления и подготовки специалистов с креативными способностями при обучении дисциплины «Военная подготовка», модернизации системы образования, интеграции её с требованиями социальной среды, проведения системного анализа и создания благоприятных условий для воспитания личностно-профессиональных качеств у военных водителей, а также разработке методов эффективного использования форм и методов воспитания личностно-профессиональных качеств у военных водителей.

В последние годы в нашей республике разрабатываются нормативные основы методики воспитания личностно-профессиональных качеств у военных водителей, умений использовать полученные знания и умения для эффективной организации деятельности.

В настоящее время очень актуальны реальные примеры и действенные средства развития методики воспитания личностно-профессиональных качеств будущих офицеров запаса при преподавании дисциплины «Военная подготовка», привитие в сознании молодежи преданности, ответственности, самоотверженности, сплоченности, готовности защищать интересы Узбекистана не только в военной области, но и во всех сферах жизни страны.

Анализируя проблемы, стоящие перед военным образованием, определяя задачи их решения, повышения военно-интеллектуального потенциала военных водителей с помощью современных технологий, в педагогической науке возникло противоречие между недостаточным содержанием теоретических основ и технологий решения задач в военном образовании. Воспитание личностно-профессиональных качеств при подготовке военных водителей является основной составляющей военной подготовки.

Занятия по практическому вождению на учебных автомобилях проводятся вне сетки расписания на семестр обучения по утверждённому графику. Тренажи по тематике подготовки водителей категории «С» проводятся в часы самостоятельной работы. При планировании проведения практических занятий по вождению ТС начальник кафедры обязан: составлять и согласовывать списки курсантов, допущенных к обучению по вождению машин, номера упражнений, количество часов на вождение и сроки отработки упражнений КВ-2019; разрабатывать и представлять на утверждение порядок проведения показных и инструкторско-методических занятий по вождению ТС с использованием тренажёров и учебных машин; разрабатывать и утверждать графики прохождения Курса вождения на тренажёрах и учебных машинах; разрабатывать и утверждать инструкции по требованиям безопасности при обучении вождению (разрабатываются в соответствии с приложением 1 Курса вождения).

Количество часов практического вождения на тренажёре или учебном автомобиле для одного обучающегося и расчёт часов на отработку упражнений КВ-2019 определяются программой обучения. На занятия по практическому вождению и тренажи прибывают только курсанты, задействованные в учебном процессе данного занятия из расчёта два обучающихся на учебный автомобиль и два обучающихся на

тренажёр. Процесс обучения состоит из активной фазы и пассивной фазы. В процессе обучения участвуют оба курсанта под руководством инструктора и преподавателя. Один курсант выполняет упражнение за рулём автомобиля или тренажёра (активная фаза), а другой, в качестве наблюдателя, изучает действие сокурсника, запоминает команды и замечания инструктора (пассивная фаза). После выполнения упражнения или по истечении определённого времени происходит смена рабочих мест.

Для проведения занятий по вождению машин, тренажей назначается руководитель занятий (при необходимости и его помощники) из числа преподавателей (начальник лаборатории) кафедры. Планирование учебных автомобилей для проведения занятий осуществляется по заявке кафедры в соответствии с планом проведения занятий. В учебном процессе должны быть задействованы и статические, и динамические тренажёры.

Профессиональная надёжность – это его способность безошибочно управлять транспортным средством в любых дорожных условиях в течение всего рабочего времени. Надёжность водителя оценивается профессиональной пригодностью, подготовленностью, высокой работоспособностью, а также состоянием транспортного средства, дороги, среды.

Профессиональная пригодность водителя включает: пригодность по состоянию здоровья и психическую пригодность. Психическая пригодность характеризуется особенностью протекания познавательных и эмоционально волевых психических процессов, физиологической основой которых является деятельность коры головного мозга. Безопасность управления автомобилем во многом зависит от способности водителя принимать и обрабатывать информацию.

При восприятии, обработке информации и её реализации в деятельности водителей различают пять этапов: приём информации, переработка информации, принятие решений, выполнение решений и контроль за выполненными действиями. В период приёма информации происходят активное обнаружение, выделение и восприятие нужных сигналов из окружающей среды, т.е. идёт поиск необходимой информации для обеспечения безопасности управления из её большого потока. Кроме того, у водителя в этот период вырабатываются навыки избирательного восприятия наиболее важной в данный момент информации.

Переработка информации происходит путём опознания, оценки и сопоставления поступающей информации, что позволяет составить целостное представление о состоянии транспортного средства, его положении на маршруте движения, правильности выполнения рабочих операций. На данном этапе у водителя формируется способность к прогнозированию – предвидение изменений рабочей обстановки и выполнение действий, упреждающих возможность возникновения отказа. В период обучения инструктор обязан многократно объяснять обучающемуся алгоритм поведения в критических ситуациях. Управление автомобилем требует значительной нервной перегрузки и усилий, которые провоцируют утомление различной степени – от лёгкой усталости до сильного переутомления. Усталость усиливается в результате недостаточного отдыха перед работой, плохого освещения, неблагоприятных условий, шума и вибрации в кабине, употребления лекарств и т.д. Утомление бывает эмоциональное, физическое и умственное. В работе водителя элементы физического труда сочетаются с интенсивной умственной нагрузкой, протекающей на фоне выраженного эмоционального напряжения, что напрямую

определяет его работоспособность и безаварийную работу. Моторные навыки являются важными в деятельности водителя. Именно двигательные навыки, доведённые до уровня автоматизма действий, позволяют водителю выполнять большой объём работы без признаков усталости. С увеличением скорости движения автомобиля сокращается время на выполнение единичного действия. Сознательно и успешно выполнить большое количество действий практически невозможно. Поэтому необходимо довести навыки до уровня автоматизма, физиологической основой которых является динамический стереотип.

В результате многократного повторения последовательно и закономерно сменяющих друг друга действий нервные процессы приобретают стереотипный характер, т.е. складываются в определённую систему, которая называется динамическим стереотипом. Динамический стереотип лежит в основе формирования двигательных водительских навыков. Он обеспечивает не только своевременность управляющих действий водителя, но и их адекватность, соответствие быстроменяющейся рабочей обстановке. В этом и выражается динамичность навыков, доведённых до автоматизма при выполнении действий. Важнейшей задачей при формировании таких навыков является объединение отдельных управляющих действий. Так, в некоторых случаях при навыках, доведённых до автоматизма, водитель при появлении препятствий на дороге выполняет одновременно торможение и поворот рулевого колеса как один целостный двигательный акт. Взаимодействие ног водителя при трогании с места – также целостный двигательный акт, состоящий из двух элементарных актов: отпускания педали сцепления и нажатия на педаль газа.

При формировании двигательных навыков различают три этапа.

Первый этап состоит из изучения отдельных элементов движения и объединения отдельных частичных действий в одно целостное действие. Чтобы научиться управлять автомобилем, человек должен узнать и запомнить, какие действия и в какой последовательности он должен производить. На первом этапе формирования двигательного навыка отдельные движения объединяются в целостный двигательный акт, что является выражением формирующегося двигательного стереотипа.

На втором этапе по мере повторения упражнений лишние нецелесообразные движения устраняются, уменьшается напряжение. Движения становятся более точными. Постепенно ослабевает зрительный контроль за ходом выполнения действий и увеличивается роль двигательного контроля. Передача контроля суставно-мышечному чувству двигательного анализатора имеет первостепенное значение при выработке любого двигательного навыка.

На третьем этапе большинство действий выполняются автоматически, т.е. без участия сознания, которое осуществляет только функцию контроля. На этой стадии формирования навыка вводятся различные усложнения с целью выработки вариативности навыка, т.е. использования навыка различными способами в изменяющихся условиях практической деятельности.

Движения при управлении становятся всё более уверенными и точными, возрастает осмотрительность, внимание направлено главным образом на внешние раздражители, снижается нервное напряжение, повышается работоспособность. Динамический стереотип к концу третьего периода сформирован, большинство операций по управлению выполняется автоматически, но под контролем сознания. Однако до профессионального мастерства ещё далеко. Навыки вождения

совершенствуются на протяжении всей водительской деятельности, для их совершенствования нет предела.

Вместе с навыками в процессе практической деятельности у водителей формируется умение, которое характеризует степень подготовленности к выполнению своих обязанностей. С опытом вырабатывается индивидуальная манера управления транспортным средством, развивается умение выбирать способы действий с учётом изменяющихся условий движения, возникает уверенное ориентирование в сложной обстановке, т.е. всё, что называют мастерством вождения, к чему водитель подготавливается содержанием и направлением всего учебно-воспитательного процесса.

Мастерство предполагает умение сознательно и своевременно пользоваться действиями, доведёнными до автоматизма, и, если нужно, сознательно контролировать их. Именно шаблонные действия водителей в некоторых случаях могут быть причинами тяжёлых ДТП.

Навыки формируются в процессе отработки правильности выполнения упражнений и их неоднократного повторения. Однако не всякое повторение действий может привести к положительному результату. Продуктивность навыка зависит от объективных и субъективных факторов.

Для того чтобы повторные действия формировали навык, необходимо выполнить ряд условий.

Первое условие – обучающийся должен уяснить цель и значение выработанного навыка и активно стремиться овладеть им.

Второе условие – обучающийся должен знать результат каждого действия, допущенные при этом недостатки и ошибки. При повторении этого действия его усилия должны быть направлены на устранение ошибок.

Третье условие – предъявляемые к курсанту требования должны соответствовать его психофизиологическим и физическим возможностям.

Четвёртое условие – оптимальное распределение упражнений по времени, т.е. планирование тренировок. Здесь не должно быть шаблона. Нередко мастер-инструктор не знает индивидуальных особенностей и возможностей обучающихся, между ними отсутствует взаимопонимание. Это затрудняет обучение и снижает уровень подготовки.

Таким образом, при обучении практическому вождению в пределах отведённого учебного времени следует особое внимание уделять тем вопросам, которые имеют отношение к безопасности дорожного движения, а также самым трудным для данного обучающегося элементам вождения.

**Литература**

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» и постановление Президента «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания» от 6 ноября 2020 года.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-1533 «О мерах по укреплению материально-технической базы высших образовательных учреждений и кардинальному улучшению качества подготовки высококвалифицированных специалистов» от 20 мая 2011 года.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2829 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности образовательных учреждений среднего специального, профессионального образования» от 14 марта 2017 года: https://lex.uz/ru/docs/3133117

4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года.

## СЕМЕЙНО-ШКОЛЬНОЕ ПАРТНЁРСТВО КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ УСПЕШНОЙ ЛИЧНОСТИ УЧАЩЕГОСЯ И ПРОФИЛАКТИКИ НАРКОЗАВИСИМОСТИ: ОПЫТ ПРОЕКТА «СЕМЬЯ И ШКОЛА – ТЕРРИТОРИЯ УСПЕХА»

**Курбанова Зебо Абдуганиевна, учитель школы**
**№ 14 Зангатинского района Ташкентской области**

26 июня – Международный день борьбы с наркоманией и незаконным оборотом наркотиков, учреждённый Генеральной Ассамблеей ООН резолюцией 42/112 в 1987 году, ежегодно обращает внимание мирового сообщества, включая Республику Узбекистан, к угрозе, называемой «чумой века». По данным Управления ООН по наркотикам и преступности (UNODC), в 2023 году около 292 миллионов человек употребляли наркотические вещества; наиболее уязвимой категорией остаётся молодёжь школьного возраста (UNODC, 2024). На национальном уровне Стратегия «Узбекистан – 2030» называет воспитание здорового, гармонично развитого поколения первоочередной государственной задачей (Президент Республики Узбекистан, 2023); Закон Республики Узбекистан «Об образовании» (2020) закрепляет партнёрство семьи и школы как основу образовательного процесса.

Настоящая статья обосновывает тезис: осознанное семейно-школьное партнёрство является одновременно механизмом формирования успешной личности учащегося и доказательным инструментом первичной профилактики наркозависимости. Теоретическим основанием служат концепции классиков центральноазиатской педагогики и международные исследования семейно-школьного взаимодействия. Эмпирической базой – конкурсный проект «Семья плюс школа – успешный ребёнок», проведённый в 5Г классе (N = 30) школы № 14 Зангатинского района Ташкентской области в конце учебного года.

Педагогическая традиция Центральной Азии задолго до появления современных научных концепций утвердила идею о совместной ответственности семьи и общества за воспитание личности. Аль-Фараби (872-950), уроженец Отрара, в трактате «О взглядах жителей добродетельного города» (Мабади ара ахл аль-мадина аль-фадыля) сформулировал принцип, сохраняющий актуальность по сей день:

*«Добродетельное общество начинается с воспитания добродетельного человека»*

*Аль-Фараби, IX-X вв. (цит. по: Аль-Фараби, 1975, с. 217)*

Ибн Сина (980–1037), уроженец Афшана близ Бухары, в энциклопедическом труде «Книга исцеления» (Китаб аш-Шифа) первым в истории педагогики Востока обосновал роль семьи как первичной образовательной среды:

*«Первая школа – это колыбель, а первый учитель – это мать»*

*Ибн Сина, XI в. (цит. по: Ибн Сина, 1980, с. 94)*

Абдулла Авлоний (1878-1934), основоположник национальной учебной литературы («Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ», 1913), выразил значение воспитания с предельной прямотой:

*«Тарбия бизлар учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат масаласидир. «Воспитание для нас – это вопрос жизни или смерти, спасения или гибели)»*

*Авлоний, 1913/2001, с. 12*

Джадидская традиция в лице Маҳмудхўжа Беҳбудия (1875-1919) закрепила этот принцип в практике: именно джадиды первыми последовательно включили семью в образовательный процесс как его субъекта, а не только адресата (Беҳбудий, 2000).

Современная педагогическая наука развивает эти интуиции. У. Бронфенбреннер описал мир ребёнка как систему вложенных сред, в которой качество мезосистемного взаимодействия – связей между семьёй и школой – непосредственно определяет когнитивное и социально-эмоциональное развитие (Bronfenbrenner). Л.С.Выготский обосновал понятие зоны ближайшего развития: совместная деятельность ребёнка с компетентным взрослым есть главный механизм развития личности (Выготский, Vygotsky). Теория самоэффективности (Bandura) дополняет: учащийся, верящий в собственные силы, значительно устойчивее к рискованным «выходам». Теория самодетерминации (Deci & Ryan, 2000) объясняет механизм: удовлетворение потребностей в компетентности, автономии и принадлежности формирует внутреннюю мотивацию к здоровому поведению.

*Семейно-школьное партнёрство и профилактика наркозависимости*

Связь между семейно-школьным партнёрством и профилактикой наркозависимости доказана эмпирически. Hawkins, Catalano и Miller в масштабном обзоре выделили четыре ключевых защитных фактора против употребления психоактивных веществ в подростковом возрасте: привязанность к семье, ясные семейные ценности, контакт с просоциальными взрослыми и академический успех (Hawkins et al., 1992). Метаанализ Tobler и Stratton, охвативший 120 профилактических программ, подтвердил: программы, вовлекающие семью, достоверно эффективнее информационных лекций о вреде наркотиков (Tobler & Stratton, 1997). Программа UNODC «Жизненные навыки» называет семейное вовлечение стержнем эффективной первичной профилактики (UNODC, 2013). Таким образом, задачи формирования успешной личности учащегося и первичной профилактики наркозависимости не параллельны, а взаимопроникают. Та же среда, которая растит успешного, уверенного, поддержанного ребёнка, одновременно защищает его от наркотической угрозы. Лучшая «прививка» от «чумы века» – не запрет и не лекция, а наполненная смыслом жизнь, в которой семья и школа действуют заодно.

**Практический опыт: проект «Семья плюс школа – успешный ребёнок»**

Конкурсный проект «Семья плюс школа – успешный ребёнок» был проведён в 5 Г классе школы № 14 Зангатинского района Ташкентской области в конце учебного года. В мероприятии приняли участие 30 учащихся и семьи большинства из них: матери, отцы, бабушки и старшие сёстры. Принципиальным педагогическим решением стала свобода выбора формата: каждая семья самостоятельно определяла задание в соответствии с собственными ресурсами, профессией и традициями. Это обеспечило подлинную инклюзивность – семьи с разными возможностями участвовали на равных – и неожиданное тематическое богатство.

Одни семьи подготовили совместные мультимедийные презентации: ребёнок управлял слайдами на большом экране, родитель дополнял рассказ профессиональными деталями. Другие избрали жанр кукольного театра или инсценировки сказки. Третьи демонстрировали национальные ремёсла: вышивку, лепку, традиционные орнаменты. Старшие сёстры выступали соведущими, воплощая для младших детей модель достижимого успеха.

Наиболее педагогически значимым эпизодом стало выступление бабушки одной из учениц – практикующего врача-стоматолога. Она принесла профессиональные инструменты, анатомические модели зубов и обучающие плакаты по гигиене полости рта, объяснила принципы профилактики кариеса, рассказала о профессиональном пути и нравственных требованиях к врачу. В финале она подарила классу медицинские учебники и книги о здоровом образе жизни. Данный эпизод воплотил несколько механизмов одновременно: «косвенный опыт» как источник самоэффективности (Bandura) – живой пример успешного специалиста-родственника формирует у детей образ достижимого будущего; scaffolding по Выготскому – взрослый поддерживает ребёнка ровно настолько, чтобы тот справился самостоятельно; и ценностную трансляцию – бабушка-медик своим присутствием утверждала здоровье как профессиональный и жизненный приоритет.

По педагогическим наблюдениям, мероприятие повысило активность учащихся, создало эмоциональный подъём, связанный с публичным признанием ценности семьи, расширило профессиональный кругозор детей и укрепило доверие семей к школе. Узбекский культурный контекст придал событию особое измерение: традиционный авторитет старшего поколения («катталар») и ценности «маҳалла» органично вписались в школьное пространство, что конептуально обосновывает потенциал расширенной семьи как эффективного педагогического ресурса.

Изложенное позволяет сформулировать ряд практических выводов. Конкурс «Семья плюс школа – успешный ребёнок» доступен любой школе: он не требует специального финансирования и позволяет семьям с разными ресурсами участвовать на равных. Рекомендуется внедрить его как ежегодное итоговое мероприятие в 4-7 классах. В программе мероприятий 26 июня – Международного дня борьбы с наркоманией – целесообразно предусматривать встречи с членами семей учащихся, транслирующими ценности здоровья через личный профессиональный пример. Стратегия «Узбекистан – 2030» и Закон «Об образовании» (2020) создают нормативную основу для масштабирования подобных инициатив на уровне района, области и республики. Дальнейшие исследования должны включать лонгитюдный дизайн с валидизированным инструментарием, разработанным для центральноазиатского культурного контекста.

Педагогическая мудрость Аль-Фараби, Ибн Сины и Авлония и современная доказательная база единодушны: добродетельное, успешное общество начинается с добродетельного воспитания человека – и это воспитание происходит тогда, когда семья и школа действительно встречаются.

**Литература**

1. Аль-Фараби. (1975). Социально-этические трактаты / Пер. А.В.Сагадеева. Наука.

2. Авлоний, А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ (Оригинальное издание 1913 г.). – Т.: Шарк, 2021.

3. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. W. H. Freeman.
4. Беҳбудий, М. (2000). Асарлар / Ред. Б. Касымов.
5. Bronfenbrenner, U. (1979). The ecology of human development. Harvard University Press.
6. Выготский Л.С. (1984). Детская психология. Собр. соч. Т. 4. Педагогика.
7. Deci, E.L., Ryan, R.M. (2000). The «what» and «why» of goal pursuits. Psychological Inquiry, 11(4), 227-268. https://doi.org/10.1207/S15327965PLI1104_01
8. Hawkins, J.D., Catalano, R.F., Miller, J.Y. (1992). Risk and protective factors for alcohol and other drug problems in adolescence. Psychological Bulletin, 112(1), 64-105. https://doi.org/10.1037/0033-2909.112.1.64
9 Ибн Сина. (1980). Избранные педагогические произведения / Сост. Б. М. Бим-Бад. Педагогика.
10. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». (2020, 23 сентября). https://lex.uz/docs/5013082
11. OECD. (2023). PISA 2022 results (Volume I). OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/53f23881-en
12. Президент Республики Узбекистан. (2023). Указ о Стратегии «Узбекистан – 2030». https://president.uz/ru/lists/view/6061
13. Tobler, N.S., Stratton, HH. (1997). Effectiveness of school-based drug prevention programs. Journal of Primary Prevention, 18(1), 71-128. [14] UNODC. (2013). International standards on drug use prevention. United Nations.
15. UNODC. (2024). World drug report 2024.
16. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in society. Harvard University Press.

# FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHDA YOSHLARNI IJTIMOIY MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Kuchkarov Bahodir Tashmurodovich,**
**HX va MU sikl boshlig'i, p.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik**

**Annotatsiya.** Maqolada fuqarolik jamiyatini qurishda yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish jarayoni va ahamiyati yoritilgan. Maqola yosh avlod ongida mas'uliyat, vatanparvarlik, halollik va insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik jamiyat, ma'naviyat, tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, insonparvar.

**Аннотация.** В статье освещён процесс и раскрыто значение формирования социальной ответственности молодежи в построении гражданского общества. В статье проанализирована его роль в развитии в сознании молодого поколения качеств ответственности, патриотизма, честности и гуманизма.

**Ключевые слова:** социальная ответственность, гражданское общество, духовность, воспитание, духовно-нравственное воспитание, патриотизм, гуманизм.

**Abstract.** The article highlights the process and significance of fostering youth social responsibility in building a civil society. The article analyzes its role in developing the qualities of responsibility, patriotism, honesty, and humanism in the minds of the younger generation.

**Key words:** social responsibility, civil society, spirituality, upbringing, spiritual and moral education, patriotism, humanism.

Fuqarolik jamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu jamiyat insoniyat jamiyatining oliy ko‘rinishi va oliy shakli hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati atamasi ko‘plab olimlar, faylasuflarning asarlarida turlicha talqin qilingan. Lekin “Fuqarolik jamiyati” atamasi XVII asrning oxirlariga kelib keng va muntazam qo‘llanila boshladi.

Ko‘pchilik olimlar va mutaxassislarning e’tirof etishlaricha, yoshlar aholining 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan, hayot faoliyati, mehnat turlarining ishtirokchisi, barcha ma’naviyat va madaniyat shakllarining targ‘ibotchisi, ishtirokchisi va iste’molchisi deb hisoblaydilar. Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning yoshlari qanday ma’naviy qadriyatlarga, axloqiy mezonlarga va milliy g‘ururga ega ekanligiga bog‘liqdir. Shu boisdan, yoshlarning ongida milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish, ularni vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik, adolat va insonparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish jarayoni – bu shaxsning jamiyat oldidagi burch va vazifalarini anglash, o‘z harakatlari oqibatini baholash, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan milliy qadriyatlarning nechog‘lik chuqur singdirilganligiga bog‘liq. Chunki milliy qadriyatlar insonni ma’naviy barkamollikka, ezgulik va adolatga, jamiyatga foydali bo‘lishga undovchi asosiy mezon sanaladi.

Yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirishda davlat siyosati ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining asosiy maqsadlaridan biri – milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar, mas’uliyatli va tashabbuskor yoshlarni tarbiyalashdir. “Yoshlar kelajagimiz” dasturi, “Yoshlar ittifoqi” faoliyati, “Mahalla” tizimi kabi ijtimoiy institutlar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyati bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun va “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalarda yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligini oshirish va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu hujjatlarda yoshlarni vatanparvarlik, mas’uliyat, halollik, adolat va fuqarolik burchi ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ham yoshlarning ma’naviy kamolotida milliy qadriyatlarning beqiyos o‘rni borligini ta’kidlab, “Yoshlarimizni milliy ruhda, ajdodlarimiz merosiga hurmat bilan tarbiyalash – ertangi kunimizni mustahkam poydevor bilan ta’minlash demakdir”, deb alohida qayd etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, yoshlar jamiyat ijtimoiy hayotining eng faol ijtimoiy-demografik guruhi sifatida respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy sohalardagi islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki ularni hayotga amaliy jihatdan tadbiq qiladigan qatlam hisoblanadi. Respublikamiz aholisining 65 foizini yoshlar tashkil etishini nazarda tutadigan bo‘lsak, bu fikrimiz o‘z ahamiyatini va xususiyatini saqlab qoladi. Hozirda O‘zbekiston huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurish yo‘lidan bormoqda. Bu esa, davlat, jamiyat va shaxslararo munosabatlarni yangicha anglashni taqozo etadi. Huquqiy davlat tushunchasi mavjud qonunlarning asosiy me’yor, ijtimoiy munosabatlar tamoyili sifatida talqin qilishni ko‘zda tutadi. Qonunlar esa shaxs

huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga asoslanadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi esa uyg‘un birlashuviga asoslangan huquqiy jamiyat tizimini o‘z ichiga qamrab oladi. Davlat shaxs huquqlari himoyalanishini kafili sifatida mavjuddir. Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy faollik ijtimoiy munosabatlarning ongli, beg‘araz tahliliga hamda ularning u yoki bu elementlarini o‘zgartirishga intilish darajasini tavsiflaydi. Yosh inson ijtimoiy ahamiyatga ega biron-bir jiddiy muammoga duch kelganda, ularni hal etish uchun yangi qonunlarni qabul qilish yoki mavjud qonunlar mexanizmini takomillashtirish kerakligini anglagan taqdirda ijtimoiy faollikka intilish yanada kuchayadi.

Manbalarda yoshlar ijtimoiy faolligini asosan ikki turga ajratib ko‘rsatiladi. Xususan, uning namoyon bo‘lish tabiatiga ko‘ra konstruktiv va desktruktiv turlagan ajratish mumkin. Yoshlar konstruktiv ijtimoiy faolligi shundan iboratki, ular muayyan ziddiyatlar bilan to‘qnashuvda ana shu ziddiyatlarni mavjud ijtimoiy tizim, qonuniy, huquqiy dasturlar yordamida bartaraf etish uchun intiladi. Mavjud qonunlar asosida o‘z manfaat va ehtiyojlarini ifodalash, muammolarni hal qilish uchun jamoat birlashmalarini tuzadi.

Derstruktiv deb belgilash mumkin bo‘lgan ijtimoiy faollikning mazmuni esa o‘zgachadir. Bunday faollik mavjud ijtimoiy tizimga qaratilgan bo‘lib, olib borilayotgan ijtimoiy tizimdagi chora-tadbirlarga nisbatan qarama-qarshi xattiharakatlar sifatida e’tirof etish mumkin. U mavjud huquqiy dasturlar bilan o‘z maqsadiga erishish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish imkoni yo‘q deb hisoblagan vaziyatda yuzaga keladi. Bunday hollarda ijtimoiy faollik aniq huquqiy chegaralarga ega bo‘lmaydi. Bu esa ijtimoiy vaziyatni keskinlashuviga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy faollikning ushbu turi ijtimoiy munosabatlardagi barqarorlik davrlarida kuzatiladi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish barcha ijtimoiy muammolarning osonlik bilan bartaraf etilishini anglatmaydi. Bunda shunday huquqiy tizim nazarda tutiladiki, uning doirasida doimo vujudga keladigan ziddiyatlar barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatlari munosibligini saqlagan holda qonunlar doirasida asta-sekinlik bilan hal qilinadi. Bugun oldimizda turgan masalalar hali hanuz chuqur anglash, o‘rganish va ilmiy tahlil etishni taqozo etadi. Bundan ko‘zlangan maqsad – masala va muammolarni hal etish bo‘yicha zaruriy tavsiyalar, usul va vositalarni ishlab chiqishdir. Bu birinchidan. Ikkinchi tomondan, ko‘tarilgan muammo u yoki bu “Davra suhbati” va anjumanlar ishtirokchilari doirasi bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uning mohiyati har bir odamgacha yetib borishi zarur. Buning uchun esa barcha mavjud usullardan foydalanishimiz lozim. Inson faoliyatining genezisi va taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlarni tadqiq etishda faoliyat xarakterini baholash kabi omil ham muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, bu ijtimoiy me’yorlar bilan belgilangan o‘z-o‘ziga baho berish, ikkinchidan, ayniqsa fikrlari qadrli bo‘lgan insonlarning bergan baholaridir. Inson faolligi tushunchasi taraqqiyot tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, inson faoliyati muttasil ravishda o‘z-o‘zini namoyon qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda shaxs qobilyatlari asosan jamoadagi muloqot jarayonida ochilib boradi. Intellektual o‘sishga bo‘lgan qobilyatlarini jamoada ijodiy namoyon qilayotgan shaxs muloqot paytida o‘z kuch-imkoniyatlarini boshqa kishilar bilan bo‘lishadi, shuningdek to‘ldirib, kengaytirib boradi.

Inson konstruktiv faoliyatining shart-sharoitlaridan biri bo‘lgan faollik tamoyili ongli tuzilmalarning maqsadga intilgan va harakatga yo‘naltirilgan shaxs bilan aloqalarini ochib beradi. Inson shaxsi uning mehnatga bo‘lgan ijodiy, faol munosabati bilan xarakterlanadi. Yosh shaxsning ijodiy yo‘nalishi, faolligi va mehnatga yo‘nalganligi kabi xislatlari uning

o‘ziga nisbatan ongli munosabati bilan muvofiqlashtiriladi. Faollik insonning shunday xususiyatiki, uning tarkibiga yoshlarning o‘zini namoyon qilishiga bo‘lgan intilishi ham kiradi.

Fuqarolik jamiyatida yoshlar ijtimoiy faolligi xatti-harakat qilish imkoniyati bilan qo‘shilib ketadi. Ya’ni bunda yosh inson mavjud ijtimoiy munosabatlar, iyosiy, iqtisodiy va ma’naviy real ijtimoiy muammolarni nafaqat tushunib yetadi, balki ularni ijtimoiy tizimni o‘zgartirmagan holda hal qilish imkoniyatini ham anglab yetadi.

O‘zbekistonning mustaqillik yo‘lidagi dastlabki qadamlaridan biri – yoshlar davlat siyosatining huquqiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. Bu aynan yoshlar eng yaqin kelajakda ijtimoiy jarayonning asosiy subyekti bo‘lib qolishi bilan belgilanadi. Chunki islohotlar jarayonining afzalligi yoshlarning ijtimoiy tuzilmaga integratsiya qilish jarayoni qanchalik samarali kechishiga bog‘liq.

Mamlakatimiz yoshlar siyosatining yo‘nalishlarini belgilash 1991-yilining oktabr oyidan boshlandi. 1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlar davlat siyosatining asoslari haqida”gi O‘zR qonuni qabul qilindi. Yoshlar bo‘yicha olib borilayotgan davlat yoshlar siyosatini izchillik va uzluksizlikni ta’minlash maqsadida Respublikamiz hukumati tomonidan 2008-yil “Yoshlar yili” deb e’lon qilinda va “Yoshlar yili” Davlat dasturi to‘g‘risida Prezident qarori qabul qilindi. Bu qabul qilingan qarorda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi: yoshlarning manfaatlarini yanada to‘liq ta’minlash va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilga huquqiy bazani takomillashtirish hamda mustahkamlash; ta’lim jarayonini uning uzluksizligi va davomiyligi nuqtai nazarida yanada takomillashtirish; ishga tushiriladigan umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari qurish va rekonstruksiya qilish sifatini oshirish; ta’lim va kadrlar tayyorlash butun tizimi darajasi hamda sifatini tubdan oshirish; yosh avlodni hayotga qat’iy e’tiqod va qarashlar ruhida tarbiyalash; oliy o‘quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatni tugatgan yoshlarni ishga joylashishi bilan bog‘liq masalalar butun kompleksini hal etish; musiqa, rassomlik, san’at va madaniyat sohalarida bolalarning ijodiy talanti va qobilyatlarini barvaqt aniqlash hamda rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish; yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish; yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash. Shunday qilib, yoshlarga berilayotgan e’tiborni kelgusi avlodlarga berilayotgan e’tibor sifatida tushunmoq lozim. Zero, bugungi yoshlarning ijtimoiy faolligining  qay darajada ekanligi, kelgusi avlodning tabiati qanday bo‘lishini belgilab berishi va kelajakda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida o‘z aksini topishi shubhasizdir. Shuning uchun ham yoshlar ijtimoiy hayotini yaxshilashga qaratilgan har qanday choratadbirlar tizimi kelajakda o‘z mevasini berishi shubhasizdir. Shu jihatdan olib qaraganda, yoshlarga sarflanayotgan har qanday mablag‘ yurtimiz tinchligi, barqarorligi va farovonligi qolaversa taraqqiyoti uchun sarqlanmoqda deb tushunmoq lozim.

**Adabiyotlar**

1. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.

2. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Almasov V.A. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – T., 2006.

3. Xolmatova A., Xayrullaeva X. Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasidagi o‘rni // “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-3027_SJIF: 5.449. Vol. 81 No. 5 2025. Vol. 88. ISSUE-1. P. 41-46.

4. Эргашева Г.М. Понятие воспитания, его сущность, виды и роль в формировании личности // Science, education, innovation: modern tasks and prospects: Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference. 05.06.2025, Pub. ICP, Rome, Italy, 191 p.

5. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Psychological basis of forming a socially active position in students // International bulletin of engineering and technology. ISSN: 2770-9124. ugust IBET | Volume 4, Issue 1, January IBET. P. 241-244.

# ХАЛҚАРО ПЕДАГОГИК ТАЖРИБАЛАР АСОСИДА ЁШ АВЛОДНИ ИЖТИМОИЙ МАСЪУЛИЯТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ

**Махмудов Абдулхалим Хамидович, п.ф.д., профессор, Тарбия педагогикаси миллий институти “Миллий тарбиянинг рақамли педагогик таъминоти” илмий-тадқиқот бўлими мудири**

**Аннотация.** Мақолада ёш авлодни ижтимоий масъулият руҳида тарбиялашнинг методологик жиҳатлари  халқаро педагогик тажрибалар нуқтаи назаридан таҳлил қилинган. Финляндия, Германия, Япония, АҚШ ва Жанубий Корея таълим тизимларида ижтимоий масъулиятни ривожлантиришга қаратилган педагогик механизмлар таҳлил қилиниб, миллий таълим амалиёти учун илмий-методик тавсиялар келтирилган.

**Калит сўзлар:** ижтимоий масъулият, тарбия, методология, компетентлик, фуқаролик тарбияси, глобал таълим, аксиологик ёндашув, педагогик тажриба.

**Аннотация.** В статье рассматриваются методологические аспекты воспитания у молодого поколения социальной ответственности в свете международного педагогического опыта. На основе анализа педагогических механизмов, направленных на развитие социальной ответственности в системах образования Финляндии, Германии, Японии, США и Южной Кореи, даны научно-методические рекомендации для национальной образовательной практики.

**Ключевые слова:** социальная ответственность, воспитание, методология, компетентность, гражданское воспитание, глобальное образование, аксиологический подход, педагогический опыт.

**Abstract.** This article examines the methodological aspects of fostering social responsibility in the younger generation from the perspective of international pedagogical experience. It analyzes the pedagogical mechanisms aimed at developing social responsibility within the education systems of Finland, Germany, Japan, the USA, and South Korea, and provides scientific and methodological recommendations for national educational practices.

**Key words:** social responsibility, upbringing, methodology, competence, civic education, global education, axiological approach, pedagogical experience.

Жаҳон миқёсида кечаётган ижтимоий, иқтисодий ва маданий трансформациялар шароитида ёш авлодда ижтимоий масъулиятни шакллантириш таълимнинг стратегик вазифаларидан бири сифатида қаралмоқда. Барқарор тараққиёт, фуқаролик жамиятини ривожлантириш, экологик хавфсизлик ва ижтимоий ҳамжиҳатликни таъминлаш каби

вазифаларни ҳал этиш масъулиятли шахсни тарбиялаш билан бевосита боғлиқ [1]. Замонавий педагогикада ижтимоий масъулият нафақат ахлоқий сифат, балки шахснинг ижтимоий фаоллиги, жамоатчилик ҳаётида иштирок этиши, қарор қабул қилиш жараёнларига онгли муносабати ва ўз ҳаракатлари оқибатларини баҳолай олиш компетенцияси сифатида талқин қилинмоқда. Шу нуқтаи назардан халқаро педагогик тажрибаларни методологик жиҳатдан таҳлил қилиш муҳим илмий аҳамият касб этади.

Педагогик тадқиқотларда ижтимоий масъулиятни ривожлантириш аксарият ҳолларда аксиологик ёндашув, компетентликка асосланган ёндашув, тизимли, фаолиятли ёндашув методологик ёндашувларга таянади [2]. Кисқача уларнинг методологик жиҳатларини кўриб чиқамиз.

Аксиологик ёндашувга кўра, ижтимоий масъулият шахс қадриятлар тизимининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Ушбу ёндашув инсонпарварлик, адолат, ҳамжиҳатлик, бағрикенглик ва ватанпарварлик каби қадриятларнинг интериоризациясини таъминлашга хизмат қилади.

Халқаро тажрибада мазкур ёндашув айниқса Финляндия ва Канада таълим тизимларида кенг қўлланилиб, ўқувчиларда жамият манфаатларини шахсий манфаатлар билан уйғунлаштириш кўникмалари шакллантирилади.

Компетентлик ёндашуви ижтимоий масъулиятни билим, кўникма, муносабат ва тажрибанинг интеграл натижаси сифатида талқин қилади. Бу ёндашув доирасида ижтимоий масъулият қуйидаги компонентларни қамраб олади: ижтимоий билимлар; ахлоқий-этик қадриятлар; жамоада ишлаш кўникмалари; қарор қабул қилиш қобилияти; фуқаролик фаоллиги; ижтимоий ташаббускорлик. Европа Иттифоқининг "Key Competences for Lifelong Learning" концепциясида ҳам фуқаролик ва ижтимоий компетенциялар асосий таянч компетенциялар қаторига киритилган.

Тизимли ёндашув ижтимоий масъулиятни шакллантиришни ўзаро боғлиқ элементлар тизими сифатида кўриб чиқади. Мазкур тизим таркибига: оила; таълим муассасаси; маҳалла ва жамоат ташкилотлари; рақамли муҳит; давлат ва нодавлат институтлари киради. Бу ёндашувга кўра, ижтимоий масъулият фақат таълим муассасасида эмас, балки барча ижтимоий институтлар ҳамкорлигида шаклланади.

Фаолиятли ёндашувнинг асосий ғояси шахснинг ижтимоий масъулияти реал ижтимоий фаолият жараёнида шаклланишидир. Ушбу ёндашув қуйидагиларни назарда тутади: волонтёрлик фаолияти; ижтимоий лойиҳалар; жамоат ишларида иштирок; экологик акциялар; талабаларнинг ўзини ўзи бошқариш тизими. Мазкур ёндашув АҚШ, Германия ва Австралия таълим тизимларида самарали қўлланилмоқда.

Энди ҳалқаро педагогик тажрибалар таҳлилига ўтамиз. Финляндия таълим тизимида ижтимоий масъулият "трансверсал компетенциялар" таркибига киритилган. Ўқувчилар мактаб ҳаётини ташкил этиш, ижтимоий лойиҳаларда иштирок этиш ва жамоавий қарор қабул қилиш жараёнларига жалб қилинади. Бу ерда асосий методологик тамойил: "Ўрганиш орқали эмас, иштирок этиш орқали тарбиялаш" ҳисобланади. Японияда ижтимоий масъулият тарбиясининг муҳим қисми сифатида жамоага хизмат қилиш маданияти шакллантирилади. Ўқувчилар: синф хоналарини тозалайди; мактаб ҳудудини ободонлаштиради; жамоавий меҳнат тадбирларида иштирок этади. Бу амалиётларда жамоа манфаатини шахсий манфаатдан устун қўйиш ғояси марказий ўрин тутади. Германияда демократик таълим концепцияси асосида ижтимоий масъулият ривожлантирилади. Ўқувчилар: мактаб парламентларида иштирок этади; ижтимоий ташаббуслар билан чиқади; маҳаллий муаммоларни ҳал

қилишга қаратилган лойиҳаларни амалга оширади. Натижада ижтимоий масъулият амалий фуқаролик компетенцияси сифатида шаклланади.

АҚШда кенг тарқалган Service Learning технологияси таълим ва ижтимоий хизматни интеграциялашга асосланган. Методологик жиҳатдан мазкур технология: тажрибавий таълим; рефлексив таҳлил; жамоатчилик билан ҳамкорлик; ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш тамойилларига таянади.

*Таҳлиллар қуйидаги муаммолар мавжудлигини кўрсатмоқда:*

Ижтимоий масъулият тушунчасининг турлича талқин қилиниши.

Назарий билимлар билан амалий фаолият ўртасидаги узилиш.

Ижтимоий масъулиятни баҳолаш мезонларининг етарлича ишлаб чиқилмаганлиги.

Рақамли муҳит таъсирининг кучайиши.

Оила, таълим муассасаси ва жамоатчилик ҳамкорлигининг етарли даражада эмаслиги.

Халқаро тажрибалар таҳлили асосида қуйидаги методологик ечимларни таклиф қилиш мумкин:

*Биринчи ечим – интегратив ёндашув*

Ижтимоий масъулиятни алоҳида тарбиявий йўналиш сифатида эмас, балки барча фанлар ва тарбиявий фаолиятга интеграциялаш.

*Иккинчи ечим – компетентлик модели*

Ижтимоий масъулиятнинг когнитив, эмоционал-қадриятли ва фаолиятли компонентларини қамраб олган компетентлик моделини ишлаб чиқиш.

*Учинчи ечим – лойиҳавий технологиялар*

Ўқувчиларни ижтимоий аҳамиятга эга лойиҳаларга жалб қилиш орқали масъулиятли фаолият тажрибасини шакллантириш.

*Тўртинчи ечим – рақамли фуқаролик таълими*

Рақамли маконда ахборотдан масъулиятли фойдаланиш, медиасаводхонлик ва киберэтика кўникмаларини ривожлантириш.

*Бешинчи ечим – ижтимоий шериклик механизмини кучайтириш*

Таълим муассасалари, оила, маҳалла ва жамоат ташкилотлари ўртасида барқарор ҳамкорлик моделини яратиш.

Халқаро педагогик тажрибалар таҳлили ёш авлодни ижтимоий масъулият руҳида тарбиялаш мураккаб ижтимоий-педагогик жараён эканлигини кўрсатди. Ушбу жараённинг самарадорлиги аксиологик, компетентликка асосланган, тизимли ва фаолиятли ёндашувларнинг уйғун қўлланилиши билан белгиланади [3-4]. Финляндия, Германия, Япония ва АҚШ тажрибаси ижтимоий масъулиятни шакллантиришда амалий иштирок, ижтимоий лойиҳалар, демократик муҳит ва жамоатчилик билан ҳамкорлик ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлигини тасдиқлайди [5-6]. Шу боис миллий таълим тизимида мазкур тажрибаларнинг илмий асосланган элементларини жорий этиш ижтимоий масъулиятли, ташаббускор ва фаол ёшларни тарбиялашнинг муҳим шарти ҳисобланади.

**Адабиётлар**

1. Слободчиков В.И. Субъективная реальность: ее возможность и действительность; научный ред. А.А. Остапенко. – М.: Фонд «Просветитель», 2021. – 114 с.

2. Гузева М.В. Ценности и ценностные ориентации личности в структуре духовно-нравственного воспитания // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2016. – № 2 (15). – С. 40-43.
3. Махмудов А.Х., Сайдалиев А.И. Рақамли дунё ва бола тарбияси: Методик қўлланма. – Т.: Bookmany print, 2025. – 100 Б.
4. Махмудов А.Х. Таълимни рақамлаштиришнинг дидактик тамойиллари // Belarus-Oʻzbek ilmiy-metodik jurnal. – T., 2023. – № 1. – B. 25-28.
5. Livingstone, S. Digital literacy and online safety. – L.: LSE Press, 2014.
6. Ribble, M. Digital citizenship in education. – ISTE, 2015.

## BOʻLAJAK OʻQITUVCHILARDA KASBIY MOTIVATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-FALSAFIY MOHIYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

**Mashrabova Ma'mura Dilmurod qizi, ADPI mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boʻlajak oʻqituvchilarda kasbiy motivatsiya tushunchasining nazariy-falsafiy mohiyati, uning psixologik-pedagogik tarkibiy komponentlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy motivatsiyaga oid mavjud nazariy yondashuvlar tizimlashtirilgan, ushbu sohadagi tadqiqot boʻshliqlari aniqlangan va kasbiy motivatsiya tarkibiy komponentlarining empirik tekshiruv natijalari (modelashtirilgan ma'lumotlar asosida) keltirilgan. Olingan natijalar boʻlajak oʻqituvchilar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish mexanizmini loyihalashtirish uchun nazariy poydevor boʻlib xizmat qiladi.

**Kalit soʻzlar:** kasbiy motivatsiya, motivatsion komponent, boʻlajak oʻqituvchi, pedagogik faoliyat, ichki va tashqi motivatsiya, kasbiy yoʻnalganlik.

Soʻnggi yillarda pedagogik ta'lim sifatini oshirish masalasi koʻplab xalqaro va milliy tadqiqotlarning markazida turibdi. Tadqiqotchilar kasbiy faoliyat samaradorligining muhim shartlaridan biri sifatida mutaxassisning ichki motivatsion yoʻnalganligini koʻrsatib oʻtganlar. Xususan, Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan oʻz-oʻzini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) hamda Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi pedagogik motivatsiyani oʻrganishda nazariy asos sifatida keng qoʻllanilmoqda. Mahalliy pedagogika fanida ham kasbiy yoʻnalganlik, pedagogik mahorat va oʻqituvchi shaxsining kasbiy sifatlariga bagʻishlangan tadqiqotlar mavjud boʻlib, ularda motivatsiya muammosi turli jihatlardan yoritilgan.

Boʻlajak oʻqituvchining kasbga nisbatan barqaror ichki motivatsiyasi shakllanmagan taqdirda, u nazariy bilimga ega boʻlishiga qaramay, amaliy faoliyatda past samaradorlik koʻrsatishi mumkin. Zamonaviy ta'lim tizimida kadrlar barqarorligi, kasbiy kuyish (burnout) holatlarining oldini olish va yosh mutaxassislarning kasbda qolish darajasini oshirish nuqtai nazaridan kasbiy motivatsiya muammosini chuqur oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kasbiy motivatsiya tushunchasi koʻpincha umumiy psixologik nazariyalar asosida talqin qilinadi, biroq aynan boʻlajak oʻqituvchi shaxsiga xos motivatsion komponentlarning tarkibiy tuzilishi va ularning oʻzaro bogʻliqligi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bilan birga, kasbiy motivatsiyani shakllantirishning zamonaviy vositalari (jumladan, multimedia texnologiyalari) bilan bogʻliq nazariy model

amalda ishlab chiqilmagan. Mana shu ikki jihat – komponentlar tarkibining tizimliligi va ularning zamonaviy ta’lim vositalari bilan bog‘liqligi – tadqiqot bo‘shlig‘ini tashkil etadi.

Ma’lum bo‘lgan jihat – kasbiy motivatsiyaning umumiy psixologik tabiati, uning ichki va tashqi turlarga bo‘linishi ilmiy adabiyotlarda yetarlicha asoslangan. Noma’lum bo‘lgan jihat esa, bo‘lajak o‘qituvchiga xos motivatsion komponentlarning aniq tarkibi, ularning o‘zaro nisbati va ushbu komponentlarni amaliy diagnostika qilish mezonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy motivatsiya tushunchasining nazariy-falsafiy mohiyatini ochib berish va uning tarkibiy komponentlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Vazifalar: kasbiy motivatsiya tushunchasiga oid nazariy yondashuvlarni tahlil qilish; bo‘lajak o‘qituvchiga xos motivatsion komponentlarni aniqlash va tasniflash; komponentlar tarkibini diagnostika qilish uchun dastlabki o‘lchov modelini ishlab chiqish; komponentlar o‘rtasidagi nisbatni empirik (modelashtirilgan) ma’lumotlar asosida tahlil qilish.

1. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiga xos kasbiy motivatsiya qaysi tarkibiy komponentlardan iborat?

2. Ushbu komponentlar o‘zaro qanday nisbatda namoyon bo‘ladi?

1: Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy motivatsiya bir-biriga bog‘liq bo‘lgan kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyat-amaliy komponentlardan iborat tizimni tashkil etadi, bunda ichki motivatsion komponentlar tashqi komponentlarga nisbatan kasbiy barqarorlikka kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy motivatsiyasining uch komponentli nazariy modelini taklif etadi va bu model keyingi bosqichlarda multimedia vositalari asosida motivatsiyani rivojlantirish mexanizmini loyihalashtirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Maqola quyidagi qismlardan iborat: kirish, adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodlari, natijalar, muhokama va xulosa.

Kasbiy motivatsiya muammosi xorijiy va mahalliy pedagogika-psixologiya fanida turli nazariy yo‘nalishlar asosida o‘rganilgan. Deci va Ryanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi motivatsiyani ichki (intrinsic) va tashqi (extrinsic) turlarga ajratib, shaxsning avtonomlik, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlari qondirilganda ichki motivatsiya kuchayishini asoslagan. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy) nazariyasi esa, shaxsning o‘z imkoniyatlariga ishonchi kasbiy faollikka bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Ushbu ikki nazariya kasbiy motivatsiyaning psixologik mexanizmini tushunish uchun asosiy nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar pedagogik mahorat va kasbiy yo‘nalganlik masalalarini tahlil qilishda kasbiy motivatsiyani o‘qituvchi shaxsining muhim sifati sifatida ko‘rib chiqadilar. Bunday tadqiqotlarda kasbiy motivatsiya ko‘pincha umumiy pedagogik kompetentlik tarkibida bir qism sifatida tilga olinadi, biroq uning mustaqil tarkibiy tuzilishi alohida chuqur tahlil qilinmagan.

Multimedia texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni bo‘yicha tadqiqotlar, asosan, bilim olish samaradorligi va o‘quv materialini idrok etish jihatlariga qaratilgan. Biroq ushbu texnologiyalarning aynan kasbiy motivatsiyaning ichki tarkibiy komponentlariga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas.

Mavjud manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida shu narsa ayon bo‘ladi: motivatsiya nazariyalari umumiy psixologik xarakterga ega bo‘lib, ular bo‘lajak o‘qituvchiga xos kasbiy kontekstga moslashtirilmagan. Bu – tadqiqot bo‘shlig‘ining asosiy ilmiy asoslanishidir.

Tadqiqotda aralash metodologik yondashuv (mixed-methods design) qo‘llanildi: nazariy qism uchun tahlil va sintez metodlari, dastlabki diagnostik tekshiruv uchun esa, miqdoriy (quantitative) yondashuv asosida so‘rovnoma metodidan foydalanildi.

***Muammo, savol, gipoteza va namuna.*** Tadqiqot muammosi, savollari va gipotezasi yuqorida (kirish bo‘limida) keltirilgan. Namuna (sample) sifatida pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan 120 nafar talaba (gipotetik/modelashtirilgan namuna) tanlab olindi.

***Ma’lumotlarni yig‘ish usullari***

Ma’lumotlar quyidagi vositalar orqali yig‘ildi: standartlashtirilgan so‘rovnoma (kasbiy motivatsiya komponentlarini o‘lchovchi anketa); yarim tuzilgan intervyu (sifatli tahlil uchun qo‘shimcha ma’lumot); pedagogik kuzatuv varaqasi.

***O‘zgaruvchilar va o‘lchov shkalalari***

Tadqiqotning asosiy o‘zgaruvchisi – kasbiy motivatsiya darajasi bo‘lib, u uch komponent (kognitiv, emotsional-qadriyatli, faoliyat-amaliy) bo‘yicha 5 ballik Likert shkalasi asosida o‘lchandi.

***Ma’lumotlarni tahlil qilish usullari.*** To‘plangan ma’lumotlar tasviriy statistika (o‘rtacha qiymat, standart chetlanish) va komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil yordamida qayta ishlandi. So‘rovnoma savollarining ichki barqarorligi Kronbax alfa koeffitsienti orqali tekshirildi (modelashtirilgan qiymat $\alpha$=0.84, qoniqarli darajada ishonchli). Validlikni ta’minlash uchun so‘rovnoma matni ekspert baholashidan (3 nafar pedagogika fani doktori) o‘tkazildi. Quyida tadqiqotning asosiy topilmalari modelashtirilgan ma’lumotlar asosida keltirilgan (haqiqiy empirik tekshiruv keyingi bosqichda amalga oshiriladi).

**1-jadval. Kasbiy motivatsiya komponentlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari (5 ballik shkala)**

| Komponent | O‘rtacha ball (M) | Standart chetlanish (SD) |
|---|---|---|
| Kognitiv komponent | 3.9 | 0.62 |
| Emotsional-qadriyatli komponent | 4.1 | 0.55 |
| Faoliyat-amaliy komponent | 3.6 | 0.71 |

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda emotsional-qadriyatli komponent nisbatan yuqori darajada (M=4.1) namoyon bo‘lgan, bu esa ular kasbga ichki qiziqish va qadriyat sifatida munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi. Faoliyat-amaliy komponent esa, eng past ko‘rsatkichga ega (M=3.6), bu amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratish zarurligini bildiradi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, kognitiv va emotsional-qadriyatli komponentlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli musbat bog‘liqlik aniqlandi ($r = 0.58$, $p < 0.01$), bu esa, gipotezada keltirilgan komponentlarning o‘zaro bog‘liq tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy motivatsiyaning yagona, lekin ichki tarkibida farqlanuvchi uch komponentli tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu natija Deci va Ryanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasidagi ichki motivatsiya ustuvorligi g‘oyasi bilan mos keladi: talabalarda emotsional-qadriyatli (ichki) komponentning ustunligi kasbga bo‘lgan barqaror munosabatning ijobiy belgisi hisoblanadi. Shu bilan birga, faoliyat-amaliy komponentning nisbatan past ko‘rsatkichi amaliy tayyorgarlik tizimida bo‘shliq mavjudligini

ko‘rsatadi – bu, ayniqsa, multimedia vositalari orqali simulyatsiya qilingan pedagogik vaziyatlar va virtual amaliyot mashg‘ulotlarini joriy etish zarurligini asoslaydi.

Demak, nazariy model amaliyotda multimedia texnologiyalarini maqsadli qo‘llash orqali to‘ldirilishi lozim. Tadqiqotning cheklovi shundaki, keltirilgan natijalar modelashtirilgan ma’lumotlarga asoslangan va haqiqiy empirik tekshiruv natijalari bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Kelgusi tadqiqotlarda namunani kengaytirish, longitudinal (uzoq muddatli) tekshiruv o‘tkazish va multimedia vositalarining har bir komponentga ta’sirini alohida o‘lchash tavsiya etiladi.

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy motivatsiya muammosining dolzarbligi asoslandi va mavjud nazariy yondashuvlar tahlili asosida tadqiqot bo‘shlig‘i aniqlandi. Tadqiqot natijasida kasbiy motivatsiyaning kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyat-amaliy komponentlardan iborat uch qismli nazariy modeli ishlab chiqildi. Modelashtirilgan ma’lumotlar tahlili komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni va ularning nisbiy darajalaridagi farqlarni tasdiqladi. Ishlab chiqilgan nazariy model bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy motivatsiyasini multimedia vositalari orqali rivojlantirish mexanizmini loyihalashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi va dissertatsiyaning keyingi bosqichlarida amaliy tekshiruvga asos bo‘ladi.

**Adabiyotlar**

1. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. – New York: Plenum Press, 1985.

2. Bandura A. Self-efficacy: the exercise of control. – New York: Freeman, 1997.

3. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2021.

4. Ilina T.A. Pedagogika kursi. – T.: Fan, 2020.

5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T., 2022.

## ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ДУХЕ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОПЫТА

**Медетова Раушан Мамадияровна, заведующая отделом НИПВ, доктор педагогических наук, старший научный сотрудник**

**Аннотация.** В данной статье раскрыты вопросы воспитания учащейся молодёжи в духе гражданской ответственности и показана роль преподавателей в этом процессе.

**Ключевые слова:** преподаватель, высшее военное образовательное учреждение, социальная ответственность, гражданская активность.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarni fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash masalalari ko‘rib chiqiladi va bu jarayonda o‘qituvchilarning roli ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, oliy harbiy ta’lim muassasasi, ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik ishtiroki.

**Abstract.** This article explores the issues of educating students in the spirit of civic responsibility and demonstrates the role of teachers in this process.

**Key words:** teacher, higher military educational institution, social responsibility, civic engagement.

В современных условиях воспитание подрастающего поколения направлено на привитие в сознание молодого поколения чувства преданности к Родине и причастности к ее судьбе, формирование идеологического иммунитета у них к негативному влиянию чуждых идей и взглядов. В связи с этим, сегодня деятельность государственных органов и общественных организаций направлена на укрепление преданности к национальным и общечеловеческим ценностям, религиозной толерантности и межнационального согласия, а также формирование непримиримого отношения к экстремизму, терроризму и другим деструктивным идеям, что требует дальнейшего детального исследования.

Другим важным направлением деятельности преподавателей является правильная организация досуга обучающихся. В этих целях увеличивается количество различных творческих и образовательных кружков, участие в которых влияет на воспитание молодёжи в здоровом духе и выбор правильного жизненного пути. Для того, чтобы процесс познания был на высоком уровне, важно наладить взаимное сотрудничество с ведущими зарубежными высшими образовательными учреждениями.

Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-3907 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень системы духовно-нравственного и физически гармоничного воспитания молодёжи, её обучения и воспитания» от 14 августа 2018 года утверждена Комплексная программа мер по поднятию на качественно новый уровень системы духовно-нравственного и физически гармоничного воспитания молодежи, её обучения и воспитания, предусматривающие следующие приоритетные направления: воспитание патриотической и преданной молодежи с высокой духовностью, твердой жизненной позицией, широким мировоззрением; защита молодежи от влияния чуждых идей, воспитание их в духе преданности к национальным и общечеловеческим ценностям, религиозной толерантности и межнационального согласия; повышение достоинства и авторитета педагогических кадров, усиление их материально-духовной и социальной защиты; повышение правовой культуры молодежи, предупреждение совершения среди них правонарушений и преступлений; создание условий для регулярного занятия спортом и физическим воспитанием, формирование среди них здорового образа жизни; социальная защита учащейся молодежи, материальная и моральная поддержка детей социально нуждающихся семей.

В целях повышения качества профессиональной подготовки будущих учителей определены следующие компетенции: способность и готовность к самосовершенствованию, саморегулированию, самореализации, личностной рефлексии; стремление к саморазвитию, способность самостоятельно применять методы и средства познания, обучения и самоконтроля для приобретения новых знаний и умений и компетенции; профессиональные: готовность демонстрировать понимание значимости своей будущей специальности, ответственное отношение к будущей профессиональной деятельности; способность и готовность к самостоятельной индивидуальной работе, принятию ответственных решений в рамках своей профессиональной компетенции.

Перечисленные компетенции призваны повысить профессиональную надежность будущих преподавателей, которая заключается в гармоничной интеграции мотивационных, интеллектуальных, эмоциональных, психофизиологических и физических компонентов деятельности.

Сегодня для полноценной профессиональной подготовки будущих учителей необходимо всестороннее развитие личности будущего специалиста, её мотивационной, эмоционально-волевой и когнитивной сфер.

Интегративное развитие всех сфер личности будущего специалиста авиации возможно только при формировании устойчивого стремления к саморазвитию и самосовершенствованию, что, на наш взгляд, выражается в формировании ценностной установки на достижение успеха в рамках избранной профессиональной деятельности.

В национальной педагогической науке понятие «профессиональная компетентность» рассматривается как владение, обладание личностью соответствующей компетенции, включающей его личностное отношение к ней и сфере деятельности. Значит, высшим компонентом личности является его профессиональная компетентность, под которой принято понимать интегральную характеристику деловых и личностных качеств будущих специалистов авиации, отражающую уровень знаний, умений и навыков, опыта, достаточных для осуществления определенного рода деятельности, которая связана с принятием оптимальных и обоснованных решений в профессиональной деятельности будущего специалиста авиации.

***Основными компонентами профессиональной компетентности будущего учителя являются:***

*социально-правовая компетентность* – знания и умения в области взаимодействия с общественными организациями и людьми, а также владение приемами профессионального общения и поведения;

*персональная компетентность* – способность к постоянному профессиональному росту и повышению квалификации, а также реализации себя в профессиональной деятельности;

*специальная компетентность* – подготовленность к самостоятельному выполнению конкретных видов деятельности, умение решать типовые профессиональные задачи и оценивать результаты своего труда, способность самостоятельно приобретать новые знания и умения по специальности;

*аутокомпетентность* – адекватное представление о своих социально-профессиональных характеристиках и владение технологиями преодоления профессиональных деструкций;

*экстремальная компетентность* – способность действовать во внезапно усложнившихся условиях, при техногенных происшествиях, авариях, нарушениях технологических процессов.

Профессиональная компетентность будущего преподавателя оценивается уровнем сформированности педагогических знаний, умений и навыков.

***К основным функциям будущего преподавателя относятся следующие группы педагогических умений:***

*гностические умения* – когнитивные умения в области приобретения общепрофессиональных, производственных и психолого-педагогических знаний, предусматривающих получение новой информации, выделение в ней главного, существенного, обобщение и систематизация собственного и передового педагогического опыта;

*коммуникативные умения* – умения общения, непосредственной и опосредованной межличностной коммуникации, умения правильно, грамотно,

доходчиво объяснить свою мысль и адекватно воспринимать информацию от других личностей в процессе общения;

*дидактические умения* – способность и умение перерабатывать материал педагогической науки в материал учебной дисциплины, доступный будущим преподавателям; применять и развивать систему эффективных методов обучения; обеспечивать обратную связь;

*перцептивные умения* – умение и способность проникать в духовно-нравственный мир будущих преподавателей и развитая психологическая наблюдательность;

*организаторские умения* – умение чётко и правильно организовать учебно-воспитательный процесс, обеспечивать устойчивый целенаправленный характер протекания педагогической деятельности;

*волевые умения* – способность к волевому воздействию и логическому убеждению, обеспечение динамики в профессиональной деятельности;

*профессиональные умения* – умение преодолевать трудности, проявлять настойчивость, выдержку, решительность, требовательность, тактичность, обладать педагогическим воображением, способностью к распределению внимания; эмоциональной устойчивостью, способностью владеть собой, уметь оптимистически прогнозировать и быть креативным.

На наш взгляд, достижение профессионального успеха связано с осознанием будущими преподавателями собственной значимости в избранной ими профессии, мотивацией саморазвития и самосовершенствования в профессиональной деятельности.

Этого можно достигнуть в процессе повышения своей профессиональной компетентности, осуществления контекстного подхода к изучению дисциплин общего цикла, актуализации в учебных дисциплинах ценностных основ профессиональной деятельности, наполнения содержания образования профессионально и личностно значимыми ценностями посредством разработки аксиологических и акмеологических аспектов изучаемых дисциплин; формирования личности будущего учителя, способного и ориентированного на непрерывное самосовершенствование и саморазвитие в профессии посредством осмысления профессиональных ценностей, развития своего профессионально-личностного потенциала, использования в образовательном процессе инновационных и цифровых технологий, обеспечивающих трансформацию контекста профессиональной ситуации в контекст учебной ситуации и насыщения содержания дисциплин общего цикла.

Перечисленный широкий спектр профессиональных обязанностей будущего преподавателя позволил нам определить педагогические аспекты, составляющие теоретико-методологическую основу процесса развития профессиональной компетенции у будущих преподавателей, которые состоят в определении структурно-функциональных компонентов профессионализма будущего преподавателя; разработки и реализации модели, отражающей специфику профессиональной подготовки будущих преподавателей; определении критериев развития профессиональной компетенции будущего преподавателя, уровней и показателей ее динамики, а также подбора диагностического инструментария, необходимого для проведения опытно-экспериментального обоснования эффективности процесса развития профессиональной компетенции будущего преподавателя.

Педагогические условия развития профессиональной компетенции будущего преподавателя отражают различные аспекты (содержательный, технологический, функциональный, ролевой) учебно-воспитательного процесса и нацелены на активизацию стремления будущего преподавателя к саморазвитию и самосовершенствованию в профессиональной деятельности.

Такими условиями следует считать: *во-первых,* создание развивающей личностно-ориентированной среды, системы ценностных ориентаций, использование и развитие субъектного опыта, учет индивидуальных личностных особенностей будущих преподавателей, сформированность у них психолого-физиологической компетентности; *во-вторых,* обеспечение групповой и парной работы будущих преподавателей на учебных занятиях, оптимальный состав учебной группы, практико-прикладной и профессионально-ориентированный характер учебного занятия; *в-третьих,* обогащение содержания учебных занятий, применение активных и интерактивных методов в аудиторном и внеаудиторном процессах.

Направленность образования на формирование ценностной установки в целях достижения профессионального успеха позволяет обеспечить комплексное развитие когнитивной, мотивационной, эмоциональной сфер личности будущего преподавателя, готовой и стремящейся к самопознанию, саморазвитию и самосовершенствованию, обладающей развитыми рефлексивными и прогностическими способностями, а также сформированной системой профессиональных ценностей. Такая установка на достижение профессиональной компетенции у будущих преподавателей представляет собой одну из значимых характеристик личности, которая определяется как длительная диспозиция (предрасположенность к определенному восприятию условий деятельности и к определенному поведению в этих условиях), которая формирует профессиональную компетенцию и процесс его достижения значимыми для субъекта профессиональной деятельности.

Развитие профессиональных компетенций подразумевает внутреннее состояние готовности личности к восприятию достижения профессионализма и детерминирует активность будущих преподавателей, направленную на его максимальную самореализацию как в учебном процессе, так и в будущей профессиональной деятельности.

Модель процесса развития профессиональных компетенций у будущих преподавателей базируется на основаниях системного, аксиологического, акмеологического, личностно-ориентированного подходов и создает возможность охватить в единой системе специфику профессиональной подготовки будущих учителей. Модель включает в себя концептуально-целевой, содержательно-организационный и результативно-оценочный блоки; их единство и эффективность обеспечиваются поэтапной их реализацией.

Критериальную основу уровневой характеристики развитости профессиональных компетенций у будущих преподавателей составляет степень их продвижения в обогащении целостной системы знаний о профессии, в расширении представлений о себе как профессионале и своих возможностях в осваиваемой деятельности, в укреплении профессиональной мотивации (когнитивный компонент); сформированность устойчивой системы профессиональных компетенций у будущих преподавателей; развитая рефлексивная культура (аффективный компонент); в

развитости и проявлении прогностических способностей, адекватном использовании полученных знаний, умений и навыков (поведенческий компонент).

*Динамика процесса развития профессиональных компетенций у будущих преподавателей определяется следующими уровнями:* низкий, средний, высокий, каждый из которых характеризуется качественным своеобразием и целостностью составляющих его показателей.

Таким образом, педагогические аспекты развития профессиональных компетенций у будущих преподавателей имеют важную роль в развитии национального образования, поскольку охватывают широкий спектр вопросов, связанных с повышением качества обучения и воспитания квалифицированных кадров.

**Литература**


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmoni: https://lex.uz
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni: https://lex.uz
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi VM-267-son “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi VM-34-son “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Qarori.
5. Медетова Р.М. Научно-теоретические основы патриотического воспитания подростков на материалах краеведения: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2005.


## XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA YOSH AVLODNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT RUHIDA TARBIYALASHDA TELEDATSTURLARNING Oʻ‘RNI


**Mengliqulova Malohat Abdumalikovna, “Mahalla” telekanali**
**Bosh mutaxassis maslahatchisi, Oʻ‘zJKOU**
**Televideniye va radioeshittirish yoʻ‘nalishi magistranti**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashda teledasturlarning pedagogik imkoniyatlari, xalqaro tajribalar hamda zamonaviy media vositalarining tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qoʻllanilayotgan media-ta’lim amaliyotlari oʻrganilib, ularning yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirishdagi oʻrni yoritiladi. Shuningdek, Oʻzbekiston sharoitida televideniye orqali fuqarolik madaniyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlari boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.



**Kalit soʻzlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, televideniye, teledastur, media-ta’lim, tarbiya, yoshlar siyosati, xalqaro tajriba, fuqarolik jamiyati, media savodxonlik.



**Abstract.** This article analyzes the pedagogical possibilities of television programs, international experiences, and the educational significance of modern media in educating the

younger generation in the spirit of civic engagement and social responsibility. This article analyzes the pedagogical possibilities of television programs, international experiences, and the educational significance of modern media in educating the younger generation in the spirit of civic engagement and social responsibility. Media education practices used in developed countries are studied, and their role in shaping the social consciousness of young people is highlighted. Proposals and recommendations will also be developed for effective mechanisms for developing civic culture through television in the context of Uzbekistan.

**Key words:** civic engagement, social responsibility, television, television program, media education, upbringing, youth policy, international experience, civil society, media literacy.

Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarni yoshlar ongiga singdirish demokratik jamiyat qurishning muhim shartlaridan biridir.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omilga aylandi. Televideniye o'zining keng auditoriyani qamrab olishi, vizual va emotsional ta'sir kuchi bilan yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan teleko'rsatuvlar ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu sababli ushbu tajribalarni o'rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik faolligi shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'z huquq va majburiyatlarini anglagan holda ijtimoiy muammolarni hal etishga daxldorlik hissi bilan yondashishini ifodalaydi. Ijtimoiy mas'uliyat esa insonning jamiyat oldidagi burchlarini his qilishi, o'z harakatlari oqibatlarini anglab yashashi va umumiy manfaatlarga xizmat qiluvchi faoliyat bilan shug'ullanishidir.

*Ijtimoiy nuqtai nazardan mazkur tushunchalar quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:* huquqiy bilimlar; ijtimoiy faollik; vatanparvarlik; bag'rikenglik; jamoatchilik ishlarida qatnashish; ekologik madaniyat; axloqiy qadriyatlar.

Yoshlarda ushbu sifatlarni shakllantirish nafaqat ta'lim muassasalari, balki ommaviy axborot vositalari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Teledasturlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, yosh avlodning faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda televideniye – zamonaviy jamiyatning eng kuchli ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yoshlar kun davomida axborotning katta qismini ommaviy axborot vositalari orqali qabul qiladi. Teledasturlarning tarbiyaviy imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

***Axborot berish funksiyasi*** – teledasturlar yoshlarni mamlakat va dunyoda sodir bo'layotgan voqealar bilan tanishtiradi. Bu esa, ularda fuqarolik ongining shakllanishiga xizmat qiladi.

***Ma'rifiy funksiyasi*** – ilm-fan, madaniyat, tarix va huquqiy mavzulardagi ko'rsatuvlar yoshlarning bilim saviyasini oshiradi.

***Ijtimoiylashtirish funksiyasi*** – televideniye orqali namoyish etilayotgan ijobiy qahramonlar va hayotiy misollar yoshlar uchun namunaviy model vazifasini bajaradi.

***Motivatsion funksiyasi*** – muvaffaqiyatli insonlar, volontyorlik faoliyati yoki ijtimoiy tashabbuslar haqidagi ko‘rsatuvlar yoshlarni faol fuqarolik pozitsiyasiga undaydi.

**AQSh tajribasi.** AQShda yoshlarni fuqarolik tarbiyasiga yo‘naltirish bo‘yicha televideniye keng imkoniyatlardan foydalanadi. Bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan ko‘rsatuvlar demokratik qadriyatlar, tenglik va inson huquqlarini targ‘ib etishga qaratilgan. Amerika tajribasida quyidagi yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi: ijtimoiy loyihalarni yoritish; volontyorlik harakatlarini targ‘ib qilish; yoshlar parlamentlari faoliyatini ko‘rsatish; ekologik muammolarni muhokama qilish. Bunday dasturlar natijasida yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini egallaydilar.

**Buyuk Britaniya tajribasi.** Buyuk Britaniyada jamoat televideniyesi yoshlarning fuqarolik madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Ta’limiy va ma’rifiy ko‘rsatuvlar orqali yoshlar demokratiya, huquq va majburiyatlar haqida bilim oladilar. Britaniya tajribasining o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: yoshlar uchun debat dasturlari; mahalliy muammolarni muhokama qilish; jamoatchilik nazoratini kuchaytirish; fuqarolik jurnalistikasi elementlaridan foydalanish. Natijada, yoshlar mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

**Germaniya tajribasi.** Germaniyada media-ta’lim davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Televideniye orqali yoshlarni siyosiy va huquqiy savodxonlikka o‘rgatish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.

Asosiy yo‘nalishlar: siyosiy ta’lim dasturlari; tarixiy hujjatli filmlar; ijtimoiy reklama roliklari; yoshlar forumlari. Bu tajriba yoshlarda demokratik qadriyatlarga sodiqlik va ijtimoiy javobgarlik hissini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Yaponiya tajribasi.** Yaponiyada televideniye yoshlarni jamoaviylik, intizom va mas’uliyat ruhida tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Yapon teledasturlarida: ekologik tarbiya; kattalarga hurmat; mehnatsevarlik; milliy qadriyatlarga sodiqlik kabi masalalarga alohida e’tibor beriladi.

Yapon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, media vositalari orqali berilgan tarbiyaviy g‘oyalar yoshlar xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Skandinaviya mamlakatlari tajribasi – Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiya kabi mamlakatlarda yoshlarni fuqarolik faolligiga jalb etuvchi teleko‘rsatuvlar keng tarqalgan. Ularning asosiy xususiyatlari: bolalar huquqlarini targ‘ib qilish; gender tengligi; ekologik madaniyat; demokratik ishtirok. Mazkur dasturlar yoshlarning jamiyat oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Teledasturlar orqali media savodxonlikni rivojlantirish – fuqarolik faolligini shakllantirishda media savodxonlik muhim o‘rin tutadi. Media savodxonlik insonning axborotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va undan oqilona foydalanish qobiliyatini anglatadi. Bugungi kunda soxta axborotlar, manipulyativ kontent va axborot xurujlari kuchayib borayotgan bir sharoitda yoshlarni media savodxonlikka o‘rgatish zarur.

Teledasturlar orqali: axborotni tekshirish usullari; tanqidiy fikrlash; internet madaniyati; kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlar berilishi mumkin.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan televideniye ham muhim tarbiyaviy vazifalarni bajarib kelmoqda.

Telekanallarda: yoshlar siyosati; tadbirkorlik; innovatsiyalar; volontyorlik; ekologik tashabbuslar haqidagi ko‘rsatuvlar soni ortib bormoqda.

Biroq xalqaro tajribalar bilan solishtirganda quyidagi muammolar mavjud: interaktiv dasturlar yetarli emas; yoshlar fikrini erkin ifodalash imkoniyatlari cheklangan; fuqarolik jurnalistikasi kam rivojlangan; media savodxonlik mavzulari yetarlicha yoritilmaydi.

Yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Televideniye va teledasturlar ushbu jarayonning muhim vositasi sifatida yoshlar dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi hamda fuqarolik ongini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega.

**Adabiyotlar**


1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2016.
4. UNESCO. Media and information literacy curriculum for teachers. – Paris, 2021.
5. OECD. Education for citizenship and democracy. – Paris, 2022.
6. UNICEF. Children, media and civic engagement report. – New York, 2021.
7. European Commission. Citizenship education at school in Europe. – Brussels, 2020.
8. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 2018.


## ЦИФРОВАЯ КУЛЬТУРА МОЛОДЕЖИ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ


**Морхова Инесса Вячеславовна, PhD, доцент**
**Национального педагогического университета Узбекистана**



**Аннотация.** Статья посвящена сравнительному анализу возможностей искусственного (ИИ) и естественного (ЕИ) интеллекта в образовательном процессе. Автор показывает, как национальные инициативы позволяют не только внедрять передовые технологии, но и сохранять приоритет человеческого интеллекта, критического мышления и духовно-нравственных ценностей. Предлагаются практические рекомендации по созданию человекоцентрированной модели цифровизации образования.



**Ключевые слова:** цифровая культура молодёжи, искусственный интеллект, естественный интеллект, цифровая трансформация образования, Digital Uzbekistan – 2030, IT Park Uzbekistan, медиаграмотность.


В эпоху четвёртой промышленной революции цифровая трансформация выступает ключевым фактором социально-экономического прогресса государств. Современные технологии искусственного интеллекта глубоко проникают в образование, экономику и государственное управление, создавая новые возможности для раскрытия интеллектуального потенциала молодёжи. Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев неоднократно подчёркивал, что развитие цифровых технологий – стратегическое направление модернизации страны.

Актуальность темы обусловлена экспоненциальным ростом генеративного ИИ, необходимостью преодоления цифрового разрыва и сохранением человеческой идентичности в условиях тотальной автоматизации.

Проводя сравнительный анализ ИИ и ЕИ в контексте формирования цифровой культуры молодёжи и предлагая модель их гармоничного сосуществования на примере Узбекистана, раскрыты теоретические основы, выявлены риски и сформулированы рекомендации.

Искусственный интеллект (по определению ЮНЕСКО) – это системы, способные выполнять задачи, требующие человеческого интеллекта: обучение, восприятие, рассуждение. Естественный интеллект, напротив, представляет собой сложную эволюционно сформированную систему когнитивных, эмоциональных и социальных процессов, включающую креативность, эмпатию и этическое суждение (теория множественного интеллекта Г.Гарднера).

С 2026/2027 учебного года в школах, колледжах и вузах вводятся обязательные модули по ИИ в рамках предмета «Информатика и ИТ». Запущена национальная платформа «AI Maktab», планируется открытие 15 лабораторий ИИ в ведущих университетах и запуск суперкомпьютерного кластера совместно с Nvidia.

ИИ радикально расширяет дидактические возможности: персонализированные траектории обучения, анализ больших данных, автоматизация рутины (проверка заданий, подготовка уроков). Это позволяет оптимизировать усвоение знаний, стимулировать исследовательские проекты и повышать доступность образования, особенно в регионах.

В Узбекистане такие технологии способствуют развитию инновационного мышления студентов и интеграции цифровых компетенций в профессиональную подготовку.

Несмотря на преимущества, цифровизация несёт риски: «когнитивная атрофия», зависимость от ИИ, утрата критического мышления и академическая нечестность. В Узбекистане, где 60% населения – молодёжь до 30 лет, исследования 2025 года (USAID и Internews) показывают, что лишь 53% населения уверены в своей медиа- и информационной грамотности.

Особую озабоченность вызывает риск утраты «духовного иммунитета» из-за информационной перегрузки и влияния социальных сетей. Именно поэтому педагогическая наука акцентирует необходимость интеграции национальных ценностей в цифровую среду.

К 2025 году проникновение интернета достигло 89% (32,7 млн пользователей), Узбекистан поднялся до 71 места в мировом рейтинге скорости мобильного интернета. Запущено 41 проект «Цифрового правительства», охват электронных госуслуг приблизился к 70%.

Программа «Пять миллионов лидеров искусственного интеллекта» (утверждена в январе 2026) стала логическим продолжением предыдущих инициатив: в 2026 году планируется обучить 500 тыс. человек, к 2035 году – 5 млн специалистов. Эти меры создают благоприятные условия для формирования цифровой культуры молодёжи при сохранении приоритета естественного интеллекта.

Для гармоничной интеграции ИИ и ЕИ предлагается:

1. Ввести обязательный курс «ИИ и этика» на всех уровнях образования.
2. Разработать национальные AI-компетентностные рамки для педагогов и студентов.
3. Сохранять не менее 60 % учебного времени за живым преподавателем.

4. Создавать гибридные образовательные экосистемы: ИИ – для фактов и рутины, человек – для смысла, ценностей и креативности.

5. Ежегодно проводить национальный конкурс в рамках программы «Пять миллионов лидеров ИИ» с акцентом на гуманитарные навыки и национальные ценности.

Искусственный интеллект – не угроза, а мощный инструмент, способный радикально повысить качество и доступность образования. Однако без сознательного сохранения приоритета естественного интеллекта мы рискуем получить поколение, умеющее задавать правильные вопросы ИИ, но не способное самостоятельно находить на них смысловые ответы.

Опыт Узбекистана 2025-2026 годов убедительно демонстрирует последовательную государственную политику, международное сотрудничество и человекоцентрированный подход, которые позволяют создать модель и где ИИ служит человеку.

Будущее образования – в плодотворном симбиозе технологий и человеческого интеллекта, где каждый выполняет свою уникальную роль. Это станет важным фактором устойчивого развития страны и формирования современной цифровой культуры молодёжи.

**Литература**

1. Государственная программа Digital Uzbekistan – 2030. – Т., 2020.

2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6079 «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан-2030” и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 года: https://lex.uz/ru/docs/5031048

3. IT Park Uzbekistan. Results of 2023. Transformation and plans for 2024: https://www.it-park.uz/en/itpark/news/results-of-2023-transformation-and-plans-for

4. UNESCO. AI and the future of education: Disruptions, dilemmas and directions. Paris, 2025.

5. Постановление Правительства Республики Узбекистан «О программе “Пять миллионов лидеров искусственного интеллекта» от 5 января 2026 года.

6. Мирзиёев Ш.М. Выступления и стратегия «Digital Uzbekistan – 2030»: Официальные источники.

7. Отчёт UNDP Uzbekistan. Public-Private Dialogue on AI, 2025.

## ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Морхова Инесса Вячеславовна, PhD, доцент Национального педагогического университета Узбекистана, Тохирова Юлдуз Баходир кизи, магистрант Бухарского университета инноваций**

В Узбекистане реформы образования приобрели беспрецедентный масштаб в рамках Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы и Национальной программы по развитию школьного образования (УП-134 от 11 мая 2022 года). Ключевые нормативные документы – Закон «Об образовании» (ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 с изменениями), ПКМ № 157 от 27 марта 2024 года (единый портал dts.uz для общественного обсуждения стандартов), приказы Министерства

дошкольного и школьного образования (в том числе обновлённые базовые учебные планы 2025 года) – закрепляют переход на 12-летнее общее среднее образование (с 2025/2026 учебного года), кредитно-модульную систему, инклюзивное образование и цифровизацию. Обновлённые ГОС высшего образования (2024) уже ввели соотношение очного и самостоятельного обучения 50/50 и индивидуальные траектории.

Узбекские научные исследования последних лет (диссертации О.Т.Турдикулова 2025, статьи В.С.Хана 2025 «Система образования в Узбекистане: что не так?», обзоры DVV International National Review ALE 2025, материалы конференции «Образование в современном мире» 2025, Partnership Compact UNICEF 2023-2026) подтверждают: несмотря на значительный прогресс в нормативно-правовой базе, сохраняются противоречия между амбициозными целями реформ и реальной практикой – недостаточная подготовка педагогов, региональные диспропорции, слабая гибкость стандартов и низкая вовлечённость общественности. Анализ PISA-2022 и локальных исследований (EGRA/EGMA, внутренние оценки) показывает, что без глубокого теоретико-методологического обоснования основ формирования ГОС (компетентностный, личностно-ориентированный, системный подходы) риски формального внедрения и снижения эффективности реформ остаются высокими

**eMaktab** – единая государственная электронная платформа, являющаяся основным инструментом цифровизации школьного образования Узбекистана.

**Функциональные возможности в начальной школе:** электронный журнал и дневник; размещение и проверка домашних заданий; интерактивные тесты и задания; мгновенная обратная связь для учеников и родителей; аналитика успеваемости и посещаемости.

**Практическое применение:** в начальных классах платформа чаще всего используется для размещения коротких видеоуроков, интерактивных упражнений по математике и чтению, а также для коммуникации с родителями. К 2025 году платформой пользуются более **6 миллионов** учащихся, в том числе свыше **2 миллионов** младших школьников.

**SmartLand** – образовательная платформа, ориентированная на интерактивное и игровое обучение.

**Особенности для начальной школы: б**ольшой банк интерактивных уроков и тренажёров; элементы геймификации (бейджи, уровни, награды); задания по развитию логического мышления, внимания и творчества; адаптивность под уровень ученика.

**Практическое применение:** наиболее активно используется на уроках математики, естествознания и родного языка. Учителя применяют SmartLand для проведения фронтальных интерактивных занятий и индивидуальной работы с отстающими учениками. Платформа особенно эффективна в 1-3 классах благодаря яркому интерфейсу и игровому формату.

**Edumarket** – маркетплейс образовательного контента, где учителя и школы могут выбирать и приобретать цифровые учебные материалы.

**Возможности:** более 15000 готовых цифровых уроков и ресурсов; материалы по всем предметам начальной школы; возможность создания собственных курсов учителями; интеграция с платформой eMaktab.

К 2025-2026 учебному году цифровые платформы охватывают практически все начальные школы Узбекистана. Наиболее успешные практики наблюдаются в

Ташкенте, Самарканде и Ферганской долине, где учителя активно комбинируют все три платформы в рамках blended learning. Однако в практическом применении сохраняются проблемы: недостаточная методическая подготовка учителей начальных классов; перегруженность интерфейсов для детей 6-8 лет; низкая скорость интернета в некоторых районах; ограниченное количество качественного контента на узбекском языке. Платформы eMaktab, SmartLand и Edumarket создали техническую основу для цифровизации начального образования. Их практическое применение позволило перейти от экспериментального использования технологий к системному. Однако для достижения максимальной эффективности необходима дальнейшая методическая адаптация этих платформ именно под возрастные особенности младших школьников и повышение цифровой компетентности учителей. Несмотря на значительные успехи в создании цифровой инфраструктуры, процесс цифровизации начального образования в Узбекистане находится на переходном этапе. Преобладает **технологическая цифровизация** (освоение платформ), в то время как **педагогическая трансформация** (глубокая методическая интеграция традиционных и цифровых подходов) реализуется недостаточно эффективно. Полученные эмпирические данные подтверждают актуальность разработки авторской модели смешанного обучения и методических рекомендаций, направленных на преодоление выявленных противоречий.

**Литература**


1. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Закон Республики Узбекистан «О статусе педагога». – Т., 2024.
3. Абдуллаев Ш.Х. Цифровая трансформация высшего образования в Узбекистане: вызовы и перспективы // Образование и инновации. – Т.: Фан, 2023. – № 4. – С. 15-23.
4. Усмонов Б.Ш. Цифровизация образования в Узбекистане: теория и практика. – Т.: Ўзбекистон, 2025.
5. Маматходжаева Т.Н. Инновационные педагогические технологии в начальной школе. – Т.: Ilm ziyo, 2024.
6. Horn M., Staker H. Blended: using disruptive innovation to improve schools. – San Francisco: Jossey-Bass, 2023.
7. Абдуллаханова Г. Цифровая трансформация начального образования в Узбекистане // Педагогическое образование. – 2024. – № 3. – С. 45-52.
8. Холмуродов А.Ш. Blended learning в начальной школе: опыт Узбекистана // Молодой ученый. – 2025. – № 4. – С. 112-118.
9. Юнусов Л.Э. Эволюция педагогических подходов в условиях цифровизации // Вестник Ташкентского государственного педагогического университета. – 2025. – № 2. – С. 67-74.
10. Means B. et al. The effectiveness of blended learning // Educational technology research and development. – 2023. – Vol. 71. – P. 45-68.
11. Haleem A. Digital transformation in education // Computers & education. – 2024. – Vol. 210.

# СТРАТЕГИИ ГРАЖДАНСКОГО ВОСПИТАНИЯ В БОЛЬНИЧНОЙ ШКОЛЕ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ ИЗОЛЯЦИИ К АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ

**Муминов Рустам Рафхат углы, педагог государственного образовательного учреждения «Mehrli maktab», самостоятельный соискатель Национальном институте педагогики воспитания**

**Аннотация.** В статье рассмотрены педагогические стратегии гражданского воспитания учащихся в условиях длительного лечения в больничной школе. На основе анализа национального и международного педагогического опыта автор выявляет ключевые проблемы, обусловленные социальной изоляцией детей, и предлагает конкретные подходы к формированию гражданской активности и социальной ответственности личности. Особое внимание уделено роли педагога больничной школы как ключевого агента гражданского воспитания в условиях ограниченной социализации.

**Ключевые слова:** гражданское воспитание, больничная школа, длительное лечение, социальная изоляция, гражданская активность, социальная ответственность, педагогические стратегии, инклюзивное образование, «Мехрли мактаб».

Воспитание молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности является одной из приоритетных задач государственной образовательной политики Республики Узбекистан.

Как отмечают Х.Ибраимов и М.Куронов, воспитание представляет собой системообразующий фактор развития образования, определяющий его гуманистическую направленность и социальную эффективность [2].

В этом контексте особую значимость приобретает вопрос о гражданском воспитании детей, временно выпавших из привычной социальной среды вследствие длительного стационарного лечения.

Государственное учреждение «Мехрли мактаб», созданное при Министерстве дошкольного и школьного образования, стало первой системной попыткой обеспечить непрерывность образовательного процесса для детей, находящихся на длительном лечении в медицинских учреждениях Республики Узбекистан. Вместе с тем практика показывает, что наряду с учебным процессом столь же острой остаётся проблема воспитательного сопровождения, в частности, формирования у детей гражданской позиции и чувства социальной причастности в условиях вынужденной изоляции.

Цель настоящей статьи – выявить эффективные педагогические стратегии гражданского воспитания учащихся больничной школы с опорой на отечественный опыт и международные подходы.

Больничная школа функционирует в принципиально иных условиях по сравнению с общеобразовательной. Нестабильный контингент учащихся, индивидуализированный характер занятий, ограниченные возможности групповых форм работы, высокий уровень тревожности и психоэмоционального напряжения – всё это создаёт специфическую воспитательную среду.

Как показывает опыт «Мехрли мактаб», ребёнок в условиях стационара нередко утрачивает привычные социальные роли – ученика, члена коллектива, участника

общественной жизни – и начинает воспринимать себя прежде всего через призму болезни.

Р.Х.Джураев рассматривает воспитание как процесс расширения воспитательного пространства личности; в условиях стационара это пространство объективно сужается, что требует от педагога целенаправленных компенсирующих усилий [1].

Р.М.Медетова, анализируя проблему формирования личностно значимых качеств учащихся, подчёркивает, что воспитание не может рассматриваться как вторичная функция образования – оно является его неотъемлемым стратегическим компонентом [3]. В контексте больничной педагогики это утверждение приобретает особую весомость: именно педагог больничной школы зачастую является для ребёнка главным связующим звеном с внешним социальным миром. Вместе с тем ограниченность социальной среды порождает ряд рисков для гражданского развития личности.

На основе педагогических наблюдений в ГУО «Мехрли мактаб» можно выделить три ключевые проблемы гражданского воспитания детей, находящихся на длительном лечении:

**1. Социальная депривация:** длительная оторванность от школьного коллектива ведёт к снижению интереса к общественной жизни, атрофии навыков коллективного взаимодействия, утрате чувства сопричастности.

**2. Деформация гражданской идентичности:** ребёнок перестаёт воспринимать себя как субъекта социальных отношений, что подрывает основу его гражданского самосознания.

**3. Информационная и нормативная изолированность:** пребывание вне школы означает выпадение из воспитательного пространства, в котором формируются ценностные ориентиры, гражданская позиция и социальная ответственность [4].

В условиях, когда коллективные формы работы ограничены, диалог между педагогом и учеником становится основным инструментом гражданского воспитания. Обсуждение социально значимых тем – прав ребёнка, ответственности перед обществом, гражданской активности – в индивидуальном формате позволяет поддерживать включённость ребёнка в гражданский дискурс. А.Х.Махмудов подчёркивает, что современные педагогические технологии должны обеспечивать активное вовлечение учащегося в образовательный процесс [6], – в условиях больничной школы диалог выполняет именно эту функцию.

Чтение и анализ текстов о людях, проявивших гражданское мужество и социальную ответственность, о деятелях национальной культуры и истории, формирует у учащихся ценностные ориентиры и образцы активной гражданской позиции. Данный подход соответствует принципу личностно значимого образования, которое, как отмечает сам автор в более ранних работах, опирается на интересы и эмоциональное состояние ребёнка [7].

Использование цифровых технологий открывает возможности для участия ребёнка в социальной жизни за пределами палаты: онлайн-проекты, виртуальные экскурсии, участие в классных мероприятиях посредством видеосвязи. Эти форматы позволяют сохранить ощущение принадлежности к школьному сообществу и поддерживать гражданскую активность в условиях физической изоляции.

Семья в период лечения ребёнка становится его главным связующим звеном с внешним миром. Педагог больничной школы выстраивает систему совместной

воспитательной работы с родителями, направляя их на поддержание гражданских ориентиров ребёнка: обсуждение социальных событий, формирование привычки следить за жизнью страны и коллектива, участие в посильных общественно значимых делах.

Использование коммуникативных дневников и мини-эссе гражданской направленности помогает ребёнку осмысливать свою позицию как члена общества, формулировать собственные ценности и видение своей роли в жизни страны. Данный приём органично сочетается с методиками формирования коммуникативной компетенции, применяемыми в больничной педагогике [7].

Анализ зарубежной практики свидетельствует о том, что формирование гражданской активности у детей в условиях длительного лечения является признанной педагогической задачей в ряде стран.

В Германии, Нидерландах и скандинавских государствах больничная педагогика развивается в рамках концепции «нормализации», согласно которой ребёнок в стационаре должен сохранять максимально полноценное участие в образовательной и социальной жизни. Воспитание гражданской ответственности составляет обязательный компонент этой модели.

В США действуют федеральные программы больничного и домашнего обучения (Hospital Homebound Programs), предусматривающие не только академическое обучение, но и целенаправленную социализацию учащихся, в том числе через участие в волонтёрских инициативах и онлайн-форматах гражданской деятельности. Международный опыт убедительно показывает: физическая изоляция не является непреодолимым барьером для гражданского воспитания – при наличии педагогической воли и методического инструментария.

Гражданское воспитание учащихся больничной школы – задача, требующая специальных педагогических стратегий, адаптированных к условиям ограниченной социализации. Диалоговые, нарративные и проектные подходы, дистанционное участие в социальной жизни, взаимодействие с семьёй и воспитательная рефлексия в совокупности создают условия для формирования активной гражданской позиции у детей, проходящих длительное лечение.

Опыт ГУО «Мехрли мактаб» демонстрирует, что даже в рамках больничной педагогики возможно и необходимо решать задачи, которые государственная политика Республики Узбекистан ставит перед всей системой непрерывного образования: воспитание молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности. Дальнейшее методическое обеспечение данного направления представляет собой перспективную задачу педагогической науки и практики.

**Литература**

1. Джураев Р.Х. Расширение воспитательного пространства на основе национального и международного подходов // Стратегии трансформации образовательного процесса: Материалы республиканской научно-практической конференции. – Т.: НИПВ, 2026. – С. 11-15.

2. Ибраимов Х., Куронов М. Умумий педагогика: Дарслик. – Т.: Sahhof, 2023. – 416 б.

3. Медетова Р.М. Формирование толерантности у школьников на основе использования национальных традиций: Дис. … д-ра пед. наук. – Т., 2020.

4. Ибраимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования. – Т., 2008. – 240 с.

5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 234 от 5 мая 2002 года. – Т., 2002.

6. Махмудов А.Х., Фефелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва // Замонавий таълим. – Т., 2019. – № 6. – С. 3-9.

## ВОСПИТАНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ В ДУХЕ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В ПРОЦЕССЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ЗДОРОВОЙ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ

**Мусурмонкулов Ойбек Уралович, старший научный сотрудник Национального института педагогики воспитания, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)**

Образование обладает дуалистической природой. С одной стороны, своим содержанием оно связано с духовными ценностями, накопленными человечеством в науке, культуре, которые должны быть переданы подрастающему поколению для сохранения и развития общества. С другой стороны, образование является средством для личностного, профессионального роста индивида. Оно выполняет роль своеобразного «лифта или лестницы», без которых невозможно подняться на более высокий уровень жизни. И в этом проявляется вечное предназначение образования. В итоге, каждый человек, в том числе и каждый учитель, самостоятельно решает для себя дилемму – является ли образование частью духовного развития или выполняет утилитарную роль ступени в карьерной лестнице.

*Цель образования* – воспитание и обучение подрастающего поколения на основе общечеловеческих ценностей, увеличение вклада науки в социально-экономическое развитие страны.

В этой связи реализуются следующие **задачи:** обеспечить высокий статус профессии педагога, модернизировать педагогическое образование; обеспечить интеллектуальное, духовно-нравственное и физическое развитие обучающихся; оснастить организации образования цифровой инфраструктурой и современной материально-технической базой.

***Воспитание*** – это процесс становления и развития личности. В связи с этим, важно понимать личность как существо и конструктивно влиять на него, способствуя становлению личности, обладающей гражданской активностью и социальной ответственностью.

***Процесс воспитания*** – комплексный процесс, что означает единство целей, задач, содержания, форм и методов, подчиненное идее целостности формирования личности.

*Процесс воспитания имеет двусторонний характер:* от воспитателя – к воспитаннику (прямая связь), от воспитанника – к воспитателю (обратная).

*В современном понимании процесс воспитания* – это взаимодействие воспитателей и воспитанников, направленное на достижение заданной цели. В этом отличие специально организованного процесса от постоянно текущего неуправляемого воспитания. В целенаправленном воспитании есть гарантия в том, что

воспитание достигнет намеченной цели и сделает человека таким, каким он нужен себе и обществу. Стихийное, неуправляемое воспитание может завести человека куда угодно. Именно единством целей, сотрудничеством при их достижении характеризуется современный воспитательный процесс.

Процесс воспитания многофакторный. Он определяется многочисленными объективными и субъективными факторами. Установлено, что соответствие субъективных факторов, выражающих внутренние потребности личности, объективным условиям, в которых личность живет и формируется, помогает успешно решать задачи воспитания. Чем больше по своему направлению и содержанию совпадают влияния организованной воспитательной деятельности и объективных условий, тем успешнее формирование личности. Особенность воспитательного процесса проявляется в том, что деятельность учителя, управляющего воспитательным процессом, обусловлена в значительной мере искусством, в котором выражается своеобразие личности учителя, его индивидуальность, характер, отношение к ученикам.

Сложность воспитательного процесса состоит в том, что его результаты не так явственно ощутимы и не так быстро обнаруживают себя, как в обучении. Между педагогическими влияниями, проявлениями воспитанности или невоспитанности лежит длительный период образования необходимых свойств личности. Личность подвергается одновременному воздействию множества разнохарактерных влияний, накапливая не только положительный, но и отрицательный опыт, требующий корректировки.

Сложность воспитательного процесса обусловлена также тем, что он динамичен, подвижен, изменчив и отличается длительностью. По сути, он длится всю жизнь. Школьное воспитание оставляет наиболее глубокий след в сознании личности, потому что нервная система в молодом возрасте отличается высокой пластичностью и восприимчивостью. Но даже при очень хорошей организации воспитательного процесса в школе рассчитывать на быстрые успехи нельзя: для него характерна отдаленность результатов от момента непосредственного воспитательного воздействия.

Одна из особенностей воспитательного процесса – его непрерывность, ведь это непрерывное, систематическое взаимодействие учителей и учеников. Необходима система работы, освещенная определенной целью. Если процесс воспитания идет от случая к случаю, учителю приходится заново прокладывать «след» в сознании ученика, вместо того чтобы, углубляя его, вырабатывать устойчивые привычки.

Кроме того, воспитательному процессу присущи значительная вариативность и неопределенность результатов. В одних и тех же условиях последние могут существенно отличаться, что обусловлено действиями субъективных факторов: индивидуальными различиями учеников, их социальным опытом, отношением к учителю. Уровень профессиональной подготовленности педагогов, их мастерство, умение осуществлять целенаправленную деятельность оказывают большое влияние на ее результативность. Управление здесь строится главным образом на обратных связях, т.е. на той информации, которая поступает от учеников. Чем больше ее в распоряжении учителя, тем целесообразнее воспитательное воздействие.

Известная истина гласит: «Только личность формирует личность». И первой такой личностью выступает мама, ее любовь, внимание, забота, пример выступают как

олицетворение женственности, культуры и воспитательной деятельности, а также папа как олицетворение мужественности, его пример, культура и воспитательная деятельность. Не менее важной личностью выступает педагог, к которому приходит ребенок. От его предметной подготовленности, эрудированности, профессиональной подготовленности и культуре, а также развитости педагогических качеств, таких как любовь к детям, педагогической наблюдательности, педагогическому воображению, педагогической интуиции во многом зависит и правильное воспитание подрастающего поколения.

В повседневной своей практике учитель стремится не только понять их, но и приподнять, высветить в них человеческое.

Прав был древнегреческий философ Сократ, который считал, что личность рождается человеческим существом и, благодаря воспитанию, становится человеком. Это становление носит закономерный характер и определяет его своеобразие, именно то, что определяет человека как существа разумного, со всем комплексом отличительных особенностей, проявляемых в его воспитанности.

Уважение к ученику – это прежде всего, умение доверять человеку, видеть положительные стороны его характера и поведения, верить в безграничные возможности совершенствования личности. Научить человека владеть собой, разумно управлять своими чувствами и поступками – всё это и составляло основу воспитательной педагогики. Только, исходя из конкретных целей, можно браться за организацию и наполнение содержанием детской жизни.

По мнению академика Р.Х.Джураева: «хорошие качества в человеке следует проектировать, и педагог обязан это делать» и рекомендует иметь развёрнутую программу развития человеческой личности на основе анализа и синтеза её внутренних и внешних проявлений во взаимосвязях с действительностью.

Каждая воспитательная цель предусматривает решение совокупности задач для ее достижения. Все зависит от ситуации воспитания.

*В общей средней школе процесс воспитания направлен:* на целостное формирование личности с учетом цели всестороннего, гармонического развития личности; формирование нравственных качеств личности на основе общечеловеческих ценностей, социально ориентированной мотивации, гармоничности, интеллектуальной, эмоциональной и волевой сфер развития личности; приобщение школьников к общественным ценностям в области науки, культуры, искусства; воспитание жизненной позиции, соответствующей демократическим преобразованиям общества, правам и обязанностям личности; развитие склонностей, способностей и интересов личности с учетом ее возможностей и желаний, а также социальных требований; организацию познавательной деятельности школьников, развивающей индивидуальное и общественное сознание; организацию личностной и социально ценной многообразной деятельности, стимулирующей формирование обусловленных целью воспитания качеств личности; развитие важнейшей социальной функции личности – общения в изменяющихся условиях трудовой деятельности и повышения социальной напряженности. Чем большее место в структуре воспитательного процесса занимает педагогически целесообразная, хорошо организованная деятельность, тем выше эффективность воспитания. Это один из общих законов воспитания. Значит, в информационно-технологическую эпоху процесс развития и социализации личности – это естественный закономерный процесс его

становления и самоизменения. Закономерность свидетельствует о внутренней предрасположенности, реализуемой в соответствие с внешними воздействиями и условиями.

*Внутренняя предрасположенность* включает потенциал, который представляет собой все то, что человеком получено от своих родителей и приобретено в процессе развития и воспитания. Развитие механизмов воспитания подрастающего поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности способствует определению направленности и активности развития, которые определяются наследственностью, что человеком получено от своих родителей и тем, что им приобретено в процессе развития и воспитания. Полученное совершенствуется и приобретает качественно новое состояние. Гражданская активность характерна личности с рождения. С возрастом активность приобретает направленность, интенсивность и становится двигателем саморазвития и самосовершенствования.

*Внешняя предрасположенность* включает окружающую среду, в которой живет человек и с ней он взаимодействует, все компоненты и все участники выступают источниками его социального развития, социализации; воспитание направлено на формирование своеобразия личности, его воспитанности; средства массовой информации непосредственно влияют на человека, питая развитие его мировоззрения.

*Становление человека как личности* – как разумного существа обусловлено его социализацией, а своеобразие личности проявляется в его воспитанности.

Под воспитанием в узком, педагогическом смысле понимается специально организованный и управляемый процесс формирования человека (системы качеств личности, взглядов и убеждений), осуществляемый субъектами воспитания – педагогами и направленный на развитие личности.

Необходимо признать, что педагогическая деятельность является одним из самых сложных направлений человеческого труда. Она представляет собой сложную динамическую систему, содержащую ряд элементов, соответствующих определенным рабочим функциям. Разные ученые, характеризуя структуру педагогической деятельности, выделяют различные ее составляющие, к которым относятся: конструктивная, организационная и коммуникативная составляющие.

Аспект проблемы заключается в совершенствовании умений будущих педагогов в образовании и обусловлен потребностью социума, особенно, представителей педагогических профессий, в умениях пользоваться электронными источниками информации, постоянно развивающимися интернет-технологиями, различными медиа и социальными сетями в избранной сфере профессиональной деятельности.

*Духовные ценности всегда считались ценностями высшего порядка:* истина, добро, красота, свобода, мудрость, т.е. то, что делает человека человечным. Часто такие ценности связаны не столько с физической формой, сколько с отношением к ним окружающих – восхищение, поклонение, преданность и т.д. Духовные ценности не содержат в себе корысти, переживания здесь не связаны с материальным интересом, выгодой или чувственным удовольствием. Поэтому эти ценности являются источником и основой нравственных, правовых, эстетических и других норм, упорядочивающих социальную жизнь общества.

**Литература**

1. Ibragimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika: Darslik. – T.: SAHHOF, 2023. – 416 b.

2. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования: Учебник для магистрантов. – Т.: Фан ва технология, 2008. – 240 с.

## РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Нажмудинова Мадина Халимовна, докторант**
**Национального института педагогики воспитания**

**Аннотация.** Статья посвящена проблеме развития социально-эмоциональных навыков учащихся начальных классов как основы формирования гражданской активности и социальной ответственности. Рассматривается роль технологий SEL в развитии эмпатии, саморегуляции, сотрудничества и ответственного поведения младших школьников.

**Ключевые слова:** социально-эмоциональные навыки, SEL, гражданская активность, социальная ответственность, начальное образование, воспитание, эмпатия, саморегуляция, сотрудничество.

В условиях современных социальных преобразований особую актуальность приобретает проблема формирования гражданской активности и социальной ответственности подрастающего поколения. Одним из эффективных средств решения данной задачи выступает развитие социально-эмоциональных навыков (Social and Emotional Learning – SEL), обеспечивающих успешную социализацию личности, формирование навыков конструктивного взаимодействия, ответственного поведения и активного участия в общественной жизни.

В последние годы социально-эмоциональное обучение становится одним из приоритетных направлений развития образовательных систем многих стран мира. В Республике Узбекистан также уделяется значительное внимание вопросам формирования социально-эмоциональных компетенций обучающихся. Так, в 2022 году Представительством ЮНИСЕФ в Узбекистане было проведено исследование «Психическое здоровье и психосоциальное благополучие подростков в школе», результаты которого подтвердили необходимость совершенствования механизмов поддержки эмоционального благополучия детей и развития благоприятного социально-психологического климата в образовательных учреждениях.

Важным шагом в данном направлении стало принятие Постановления Президента Республики Узбекистан от 19 июня 2023 года № ПП-196 «О мерах по дальнейшему развитию службы охраны психического здоровья населения», предусматривающего совершенствование системы психолого-педагогической поддержки населения и создание условий для укрепления психического здоровья детей и молодежи.

Особое значение для развития социально-эмоционального обучения имеет Постановление Президента Республики Узбекистан от 21 июня 2024 года № ПП-232 «Об образовании Национального института педагогики воспитания имени Кары Ниязи», которым предусмотрено поэтапное внедрение с 2025-2026 учебного года в общеобразовательных учреждениях страны всемирно признанных методик социально-

эмоционального обучения (Social and Emotional Learning – SEL) в порядке опытно-экспериментальной работы.

Следовательно, развитие социально-эмоциональных навыков учащихся начальных классов приобретает не только педагогическое, но и государственное значение, выступая важным условием формирования гражданской активности, социальной ответственности и гармоничного развития личности.

**Теоретические основы взаимосвязи социально-эмоциональных навыков и гражданской активности.** Гражданская активность представляет собой интегративное качество личности, выражающееся в готовности участвовать в жизни общества, соблюдать социальные нормы, проявлять инициативу и нести ответственность за собственные действия и поступки. Формирование данных качеств невозможно без развития соответствующих социально-эмоциональных компетенций. Исследования показывают, что социально-эмоциональное развитие обеспечивает основу для понимания собственных эмоций и переживаний других людей, способствует формированию нравственных ценностей, развитию эмпатии и способности к сотрудничеству. Именно эти качества лежат в основе социально ответственного поведения и конструктивного гражданского участия.

*В рамках модели CASEL выделяются пять ключевых компонентов социально-эмоционального обучения:* самосознание (self-awareness); саморегуляция (self-management); социальная осведомленность (social awareness); навыки взаимоотношений (relationship skills); ответственное принятие решений (responsible decision-making). Каждый из указанных компонентов непосредственно связан с формированием гражданских качеств личности младшего школьника.

**Роль социально-эмоциональных навыков в формировании социальной ответственности.** Социальная ответственность предполагает осознание человеком последствий своих действий для окружающих людей и общества в целом. В младшем школьном возрасте основы социальной ответственности формируются через усвоение моральных норм, развитие эмпатии и способность учитывать интересы других людей. Развитие эмоциональной осознанности помогает ребенку понимать собственные чувства и контролировать поведение в различных социальных ситуациях. Навыки саморегуляции позволяют управлять эмоциональными реакциями, соблюдать правила поведения и доводить начатое дело до конца. Социальная осведомленность способствует формированию уважительного отношения к окружающим, толерантности и готовности оказывать помощь другим людям.

Особую значимость имеет развитие навыков ответственного принятия решений. Учащиеся учатся анализировать последствия своих поступков, делать нравственный выбор и принимать решения с учетом общепринятых социальных и моральных норм. Социально-эмоциональные навыки выступают важнейшим фактором становления социальной ответственности личности.

**Педагогические механизмы формирования гражданской активности средствами SEL.** Эффективное развитие гражданской активности младших школьников возможно при создании специально организованной образовательной среды, обеспечивающей условия для практического освоения социально-эмоциональных компетенций.

*Среди наиболее эффективных педагогических механизмов можно выделить:*

**1. Создание психологически безопасной образовательной среды**

Поддерживающая атмосфера доверия, взаимоуважения и эмоционального благополучия способствует развитию уверенности учащихся, формированию чувства принадлежности к коллективу и готовности к активному взаимодействию.

**2. Интеграция SEL в учебную деятельность.** Включение заданий, направленных на развитие эмпатии, сотрудничества и рефлексии, позволяет формировать социально значимые качества в процессе изучения учебных предметов.

**3. Организация коллективной деятельности.** Групповые проекты, командные задания, совместное решение проблемных ситуаций создают условия для развития коммуникативных навыков, взаимопомощи и ответственности за общий результат.

**4. Использование интерактивных и игровых технологий.** Ролевые игры, моральные дилеммы, ситуационные упражнения и дискуссии способствуют развитию навыков принятия решений, способности учитывать различные точки зрения и проявлять гражданскую инициативу.

**5. Развитие рефлексивных умений.** Систематическая рефлексия позволяет учащимся анализировать собственные действия, оценивать их последствия и осознавать свою ответственность перед коллективом и обществом.

**Значение национальных и общечеловеческих ценностей.** Важным условием формирования гражданской активности является интеграция национальных и общечеловеческих ценностей в содержание образовательного процесса. Такие ценности, как уважение, доброжелательность, ответственность, честность, справедливость и взаимопомощь, выступают нравственной основой социально-эмоционального развития личности. Приобщение учащихся к данным ценностям способствует формированию у них чувства гражданского долга, социальной ответственности и готовности участвовать в общественно полезной деятельности.

Таким образом, развитие социально-эмоциональных навыков является важнейшей педагогической основой формирования гражданской активности и социальной ответственности учащихся начальных классов. Социально-эмоциональное обучение способствует развитию эмоциональной осознанности, саморегуляции, эмпатии, навыков сотрудничества и ответственного принятия решений, которые определяют успешность социализации ребенка и его готовность к активному участию в жизни общества. Создание благоприятной образовательной среды, интеграция технологий SEL в учебно-воспитательный процесс и опора на национальные и общечеловеческие ценности обеспечивают условия для воспитания социально активной, ответственной и гармонично развитой личности, способной в будущем стать полноценным гражданином своего государства.

## Литература

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-232 «Об образовании Национального института педагогики воспитания имени Кары-Ниязи» от 21 июня 2024 года // Янги Узбекистон. – Т., 2024. – 24 июня. – С. 1-2.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-196 «О мерах по дальнейшему развитию службы охраны психического здоровья населения» от 19 июня 2023 года // Газета.уз. – Т., 2023. – 20 июня. – С. 1-2.

3. Ибраимова Д.Р. Социально-эмоциональное обучение как фактор развития личности школьника // Педагогика и психология образования. – Т., 2025. – № 2. – С. 45-52.

4. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R. D., Schellinger K.B. The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions // Child development. – 2011. – Vol. 82. – № 1. – P. 405-432.
5. Goleman D. Emotional intelligence: why it can matter more than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
6. Курбанова Ш.К., Санакулова Н.П. Развитие социально-эмоциональных компетенций учащихся в образовательном процессе // Замонавий таълим. – Т., 2026. – № 1. – С. 28-35.

## YOSH AVLODNI IJTIMOIY MAS'ULIYAT RUHIDA TARBIYALASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI

**Nasirov K.J., Oriental universiteti professori,**
**pedagogika fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlodning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish masalalari tahlil qilingan, mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari qiyosiy oʻrganilib, sharqona ma'naviyat hamda gʻarbona fuqarolik faolligi yondashuvlarining oʻziga xos jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda oila mahalla va ta'lim jarayonining ahamiyati ilmiy asoslangan.

**Tayanch soʻzlar:** yosh avlod, ijtimoiy mas'uliyat, milliy tarbiya, fuqarolik faolligi, ijtimoiy kapital, volontyorlik, raqamli makon, kiber-faollik.

Bugungi jadal globallashuv, axborot oqimining tezlashishi va raqamli texnologiyalar asrida har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi toʻgʻridan-toʻgʻri uning demografik asosi – yosh avlodning dunyoqarashi va ijtimoiy mas'uliyatiga bogʻliq. Yoshlar nafaqat kelajak bunyodkori, balki bugungi kunning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining faol ishtirokchisidir. Shu sababli, ularda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish dunyo pedagogikasining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekistonda yoshlar siyosati davlat strategiyasining ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining katta qismini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, ularning jamiyat hayotidagi mas'uliyatli ishtiroki milliy yuksalishning bosh omilidir. Biroq, zamonaviy dunyoda yoshlar ongi va xulq-atvoriga gʻoyaviy hamda madaniy ta'sirlarning kuchayishi ularda ijtimoiy mas'uliyat mezonlarini qayta koʻrib chiqishni taqozo etmoqda.

"Mas'uliyat" soʻzi arab tilidan: "javobgarlik"; "hisob berishlik" kabi ma'nolarni anglatadi. Mas'uliyat – biror ish, xatti-harakatning oqibati va natijasi uchun javobgarlik hissi. "Mas'uliyat" atamasi bilan "savol" soʻzining oʻzagi bir. Mas'uliyatni his etish insonning oʻz xatti-harakati va munosabatlari yuzasidan har qanday savolga javob bera olishidir.

Mas'uliyat – insonning oʻz vazifalariga sidqidildan yondashib, ularni vijdonan amalga oshirishini ifodalaydi. Insonning hayoti davomida uning zimmasiga turli vazifalar yuklanadi. Masalan, oilada – munosib farzand boʻlish, oʻquv muassasalarida – namunali oʻquvchi-talaba boʻlish, mehnat jarayonida – malakali mutaxassis boʻlish, oila qurganda esa, mehribon ota yoki ona boʻlish vazifasi va hokazo.

Hadisi Sharifda: “Har biringiz o‘z qo‘l ostingizdagilarga vasiy va mas'uldirsizlar”, – deya alohida ta’kidlangan.

Yosh avlodning ijtimoiy mas’uliyati masalasiga dunyo ilm-fanida ikki xil yirik madaniy yondashuv mavjudligini ko‘rishimiz mumkin: mahalliy (sharqona-milliy) yondashuv; xorijiy (G‘arbona-global) yondashuv.

Mahalliy olimlar talqinida ijtimoiy mas’uliyat – ma’naviyat va burch bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. O‘zbekistonlik pedagoglar ijtimoiy mas’uliyatni ko‘proq milliy qadriyatlar, axloq va shaxs ma’naviyati kontekstida tahlil qiladilar.

Pedagog olim M.Quronov o‘z tadqiqotlarida yoshlar mas’uliyatini shakllantirishning fundamental asosi sifatida milliy tarbiyani ko‘rsatadi. Uning fikricha, sharqona mentalitetda ijtimoiy mas’uliyat majburiy qonuniy akt emas, balki ichki ma’naviy ehtiyoj – oila, mahalla va Vatan oldidagi muqaddas burch sifatida anglanadi [1]. M.B.Bekmurodov zamonaviy jamiyat sotsiologiyasini o‘rganar ekan, O‘zbekistonda yoshlar mas’uliyatini oshirishda o‘zini o‘zi boshqarish organi – mahalla institutining o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi. Mahalla ahlining munosabatlari yoshlarda individualizmdan, ya’ni faqat o‘zini o‘ylashdandan qochish va jamiyat manfaatlarini ustun qo‘yish ko‘nikmasini shakllantiradi [2].

Xorijiy olimlar talqinida ijtimoiy mas’uliyat: Faollik va ijtimoiy kapitaldir. G‘arb ilmiy maktablarida ijtimoiy mas’uliyat ko‘proq shaxs erkinligi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy tizimlar bilan integratsiya orqali tushuntiriladi.

Psixolog olim E.H.Erikson shaxs rivojlanishi nazariyasida yoshlik davridagi identifikasiya inqirozini o‘rganadi [3]. Uning fikricha, yosh yigit yoki qiz o‘zligini to‘g‘ri anglab etsa, unda jamiyatga foyda keltirish va avlodlararo g‘amxo‘rlik hissi, ya’ni ijtimoiy mas’uliyat shakllanadi.

Taniqli sotsiolog R.D.Putnam o‘zining “Bowling Alone” (“Yolg‘iz o‘zi bouling o‘ynash”) asarida “ijtimoiy kapital” tushunchasini ilgari suradi. Uning ta’kidlashicha, yoshlarning volontyorlik guruhlari va nodavlat tashkilotlardagi ishtiroki jamiyatda ishonch va mas’uliyat muhitini yaratadi [4]. Boshqa amerikalikolimlar ham yoshlarning volontyorlik faoliyati ularning siyosiy va ijtimoiy yetukligini ta’minlovchi asosiy omil ekanligini empirik tadqiqotlar orqali isbotlaganlar.

Zamonaviy g‘arb tadqiqotchilari: J.Kahne va B.Bowyer bugungi kun yoshlarining ijtimoiy mas’uliyati “Kiber-faollik” (Raqamli faollik) ko‘rinishida namoyon bo‘layotganini, global iqlim o‘zgarishi, inson huquqlari kabi muammolarga yoshlar internet tarmoqlari orqali munosabat bildirayotganini ta’kidlaydilar [5].

Jamiyatning kelajagi va taraqqiyot darajasi uning o‘sib kelayotgan yosh avlodi ma’naviy qiyofasi, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi. Yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli qilib tarbiyalashning negizi bevosita ma’naviyatga borib taqaladi.

“Ma’naviyat” so‘zi arab tilidan: “Ruh; axloqiy holat; barcha axloqiy-ruhiy xususiyatlar” kabi ma’nolarni bildiradi. Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning va davlatning kuch-qudrati hisoblanadi.

Ma’naviyat yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmasligi xalqimiz tomonidan doimo e’tirof qilingan. “Ma’naviyat” atamasi keng qamrovli tushuncha. Shu sababli uning ta’riflari juda ko‘p. Ulardan ayrimlari quyidagilar: ma’naviyat inson va jamiyat madaniyatining asosi. Ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamining ifodasi. Ma’naviyat – insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalari majmui. Umuman olganda, ma’naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi.

Inson – barcha mavjudotlarning gultojisi, deyilganda, uning yuksak ma'naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Chunki, ma’naviyat insonni hayvondan, jamiyatni esa, tabiatdan ajratib turadi. Inson moddiy narsalardan jismoniy kuch va quvvat olsa, ma’naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat beradi.

Ma’naviyat siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi va o‘zgarishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviyati yuksak xalq yashayotgan davlat har jihatdan qudratli hisoblanadi. Insonlarning ma’naviyati boyib borsa, jamiyat va davlat rivojlanib, fuqarolarning hayoti yanada farovon bo‘ladi.

Ma’naviyati yuksak millat har qanday og‘ir sharoitda ham o‘zi uchun to‘g‘ri va adolatli qarorlarni qabul qiladi. Agar ma’naviyat masalasi e’tibordan chetda qolsa, jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Shu bois, O‘zbekistonda, mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab, xalqimizning milliy ma’naviyatini tiklash, o‘rganish va rivojlantirish davlatimizning ustuvor vazifasiga aylandi.

Dunyoda shunday mamlakatlar borki, aholisi tabiiy boyliklarining hisobiga turmush qiyinchiliklari nima ekanligini bilmaydi. Ammo inson qalbi va ma’naviy olami bilan bog‘liq muammolarni hal etishda, boylik va kuch-qudrat nechog‘li ko‘p bo‘lmasin, imkoniyat topishning iloji yo‘q. Bunday vaziyatlarda yagona najotkor – ma’naviyat hisoblandi. Ma’naviyat inson uchun hamisha hal qiluvchi kuch bo‘lib qoladi. Ma’naviy tarbiyaning yetarli darajada olmaganligi sababli ayrim insonlar hayotda adashib, noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolmoqdalar. Ma’naviyat – axloqiy fazilatlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi.

Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida komil inson va uning jamiyat oldidagi burchi masalasi fundamental o‘rin tutadi. Masalan, Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida inson baxt-saodatga faqat boshqalar bilan hamkorlikda va ijtimoiy mas’uliyatni anglagan holda erisha olishini ta’kidlaydi [6]. Bugungi zamonaviy pedagogikada esa bu tushuncha shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi va faol fuqarolik pozitsiyasi sifatida talqin qilinadi.

*Yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning ma’naviy asoslarini quyidagilar ta’minlaydi:*

1. Oila. Ijtimoiy mas’uliyat hissi, eng avvalo, oiladagi kichik burchlarni bajarishdan boshlanadi. Ota-onaning o‘z farzandlariga, keksalariga bo‘lgan munosabati yoshlar uchun amaliy namuna vazifasini o‘taydi. Ma’naviy sog‘lom oilada o‘sgan bola begona insonlarning dardiga ham befarq bo‘lmaydi.

2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar Uyg‘unligi. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik qadriyatlari – mahalla instituti, hashar, o‘zaro yordam, kattaga hurmat va kichikka izzat tushunchalari ijtimoiy mas’uliyatning eng oliy namunasidir. Yosh yigit yoki qiz o‘zini faqat alohida shaxs emas, balki katta bir jamoaning, oila, mahalla, Vatanining uzviy qismi deb bilishi uning ma’naviyati va mas’uliyatini belgilaydi.

3. Ta’lim. Bugungi axborot asrida yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardagi “ommaviy madaniyat” ta’siridan himoya qilish faqat taqiqlar bilan amalga oshmaydi. Buning uchun ularda ma’naviy immunitet, ya’ni yaxshi-yomonni ajratish qobiliyati bo‘lishi shart. Ta’lim muassasalarida fanlar integratsiyasi orqali yoshlarga ekologik madaniyat, huquqiy ong va ijtimoiy loyihalarda qatnashish ko‘nikmalari o‘rgatilishi lozim. Ma’naviyatning o‘zagini – inson axloqi, tub negizini esa, ma’rifat tashkil etadi.

“Ma’rifat” so‘zi arab tilidan: “bilim; fan; ma’lumot; tanimoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Ma’rifat – ta’lim-tarbiya jarayoni asosida insonlarning ongini, bilimini va

madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Ma’rifat – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilim hamda ma'lumotlar majmui hisoblanadi.

Ma’rifat – madaniyat, ma’naviyat va mafkura tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Ular bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Ma’rifat – jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan, uni tanazzul va halokatlardan qutqarib qoladigan yagona kuch hisoblanadi. Ma’rifat – insonlarni ma’naviy qaramlikdan xalos qiladi, yangi yutuq va cho‘qqilarni zabt etishga chorlaydi hamda ularga kuch-qudrat bag‘ishlaydi. Ma’rifat – insonlarni yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga chaqirib, jaholatdan qutqaradi va yomonlikdan qaytaradi, Ma’rifat – bilim va madaniyatning umumlashgan mazmuni sanaladi.

“Maorif” atamasi “ma’rifat” so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, u ta'lim-tarbiya tizimini anglatadi. Ma’rifat atamasi tasavvuf tariqatida ruhiy kamolotga erishuvning asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etilgan. Hozirgi kunda u bilim tarqatish va madaniyatni yoyish hamda yuksaltirish ma’nolarini ifodalamoqda. Ma’rifat atamasidan ma’rifatli, ma’rifatchi, ma’rifatchilik, ma’rifatparvar, ma’rifatparvarlik kabi so‘zlar hosil bo‘lgan.

Ma’rifatli inson – ta’lim-tarbiyani to‘liq egallagan shaxs. Ma’rifatchi va ma’rifatparvar – ilm tarqatish yo‘lida bor kuchi va g‘ayratini sarflagan inson, ma’rifatning homiysi va tarafdori. Ma’rifatchilik harakati – ta’lim va tarbiyani targ‘ib qilish maqsadida:

G‘arb ma’rifatchilari – Volter, Golbax, Didro va boshqalar ko‘proq tabiiy fanlarga e’tiborni qaratganlar. O‘zbek ma’rifatchilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar ilm-fan va sog‘lom fikrni targ‘ib qilganlar. Ma’rifatchilarning asosiy maqsadi – bilimlar yordamida ijtimoiy hayotdagi adolatsizlik, tengsizlik va kamchiliklarni bartaraf qilishdan iborat bo‘lgan. “Faqat bilim yordamida dunyoda adolat o‘rnatish mumkin”, – degan g‘oya ma’rifatparvar insonlarning asosiy shioridir. Ma’rifatli inson – ziyoli sanaladi. Ziyo esa, – nur. Nur zulmatni yoritib, insonga borliqni va haqiqat yo‘lini ko‘rsatadi [7].

Yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat darajasini yuksaltirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni tizimli rivojlantirish maqsadga muvofiq:

*Birinchidan,* tarbiyaga katta e’tibor qaratish zarur. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir!” – Abdulla Avloniy bejiz aytmagan;

*Ikkinchidan,* kitob o‘qish madahiyatini yoshlar orasida keng targ‘ib qilish lozim. Aynan kitob yordamida dunyoqarash kengayib boradi va axloqiy fazilatlar shakllanadi;

*Uchinchidan,* yoshlarni axborot olish va undan foydalanish madaniyatiga o‘rgatisihimiz shart, toki ular nima yaxshi-yu nima yomon, nima haqiqat-u, nima yolg‘on ekanini farqlay olishsin!

Ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalash – bu bugungi kunda davlat xavfsizligi va millat barqarorligini ta’minlashning muhim omilidir. Mas’uliyatli yoshlar jinoyatchilik, huquqbuzarlik va yot g‘oyalar ta’siriga tushishdan yiroq bo‘lishadi.

Yosh avlodni ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari – bu xalqimizning asriy an’analari, milliy g‘oya va zamonaviy demokratik tamoyillar uyg‘unligidir. Yoshlarda daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish uchun faqat nazariy bilim berish yetarli emas. Ularni amaliy ijtimoiy loyihalarga jalb qilish, fikrini erkin bayon etishiga sharoit yaratish va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Zero, jamiyat va Vatan taqdiri uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola biladigan avlodgina buyuk kelajakni barpo eta oladi.

**Adabiyotlar**

1. Quronov M. Milliy tarbiya fundamental asoslari. – T.: Ma’naviyat, 2018.
2. Bekmurodov M.B. Zamonaviy jamiyat sotsiologiyasi // O‘zbekiston sotsiologik assotsiatsiyasi jurnali, 2021-yil 3-son. – B. 15-22.
3. Erikson, E.H. Identity: Youth and crisis. W.W.Norton & Company. 1994.
4. Putnam, R.D. Bowling alone: the collapse and revival of American community. New York: Simon & Schuster. 2000.
5. Kahne, J., Bowyer, B. Educating for democracy in a partisan age: confronting the challenges of digital political discourse // American educational research Journal, 2017. 54 (1). – P. 3-34.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 1993.
7. Nasirov K.J. Inson mohiyati – ma’naviyat va ma’rifat. – T., 2020.

## UZOQ MUDDAT DAVOLANUVCHI O‘QUVCHILARDA FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT POYDEVORINI ART-TERAPIYA VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH: XALQARO TAJRIBA TAHLILI

**Nurullayev Izzatilla Zinatullayevich, “Mehrli maktab”**
**davlat ta’lim muassasasining art-terapiya pedagog xodimi**

**Annotatsiya.** Maqolada uzoq muddat statsionar va ambulator davolanish sharoitidagi o‘quvchilarning ijtimoiy izolyatsiyasi hamda bu holatning ularning fuqarolik subyektligi shakllanishiga ta’siri muammosi ko‘rib chiqiladi. Xalqaro (Isroil, Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiya) va milliy tajriba tahlili asosida art-terapiyaning kasal bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar va ijtimoiy mas’uliyatni – fuqarolik faolligining poydevori sifatida – shakllantirishdagi imkoniyatlari asoslanadi. Ijtimoiy-emotsional kompetensiya, ijtimoiylashuv va fuqarolik faolligi o‘rtasidagi rivojlanish bog‘lanishiga tayangan holda, “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi sharoitida art-terapiya vositasida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari taklif qilinadi. Tahlil kasal bolaning fuqarolik subyektligini saqlash inklyuziv ta’lim siyosatining ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** art-terapiya, uzoq muddat davolanuvchi o‘quvchilar, ijtimoiy ko‘nikmalar, fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat.

O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojli va uzoq muddat davolanuvchi bolalar ta’limiga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilmoqda. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlagan PQ-4860-son qaror alohida ta’lim ehtiyojli bolalarning ta’lim olish huquqini kafolatladi [1]. 2022-yilgi 234-son qaror bilan Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga ta’lim berish tizimi joriy etilib, “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi tashkil qilindi [2]. Umumiy o‘rta ta’limda tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi esa yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashni ustuvor vazifa qilib belgilaydi [3], 2023-yilgi 134-son qaror bu tizimni boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishdagi bolalarga kengaytirdi [4]. Shunday qilib, kasal bolaning ta’lim va tarbiya huquqi davlat tomonidan

kafolatlangan; biroq uning fuqarolik subyektligini amalda saqlash o'ziga xos pedagogik muammoni keltirib chiqaradi.

Uzoq muddat statsionar va ambulator davolanish bolaning hayotida chuqur psixososial o'zgarishlarni keltirib chiqaradi: kundalik tartibning buzilishi, oila va tengdoshlardan uzilish, maktab hayotidan chetlashish. Tadqiqotlar bunday bolalarda tashvish, izolyatsiya hissi va ayrim kasalliklar bilan bog'liq stigma kuzatilishini ko'rsatadi [56]. Art-terapiya tadqiqotlari maydonining bibliometrik tahlili bolalar, farovonlik (well-being) va palliativ yordam bu sohaning ustuvor yo'nalishlaridan ekanini tasdiqlaydi [7]. Shu bois kasal bolada ijtimoiy ko'nikmalarni va fuqarolik subyektligini saqlash dolzarb pedagogik vazifaga aylanadi.

Fuqarolik tarbiyasi nazariyasida "yaxshi fuqaro"ning bir necha modeli ajratiladi: shaxsan mas'uliyatli, ishtirokchi va adolat-yo'naltirilgan fuqaro [8]. Birinchi ikki model bevosita "ijtimoiy mas'uliyat" va "fuqarolik faolligi" tushunchalariga mos keladi. Empirik tadqiqotlar empatiya, emotsiyalarni boshqarish va prososial mulohaza kabi ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar bolalik va o'smirlikda fuqarolik faolligini, jumladan ijtimoiy mas'uliyat qadriyatlari va fuqarolik ko'nikmalarini bashorat qilishini ko'rsatadi [9]. Demak, ijtimoiy ko'nikmalar – fuqarolik faolligining rivojlanish poydevoridir; kasallik tufayli ular shakllanishi xavf ostida bo'lgan bolalarda bu ko'nikmalarni saqlash fuqarolik tarbiyasining boshlang'ich shartidir.

Aynan shu nuqtada art-terapiya samarali vositaga aylanadi. Zamonaviy yondashuvlar art-terapiyaning klinik, ijtimoiy va pedagogik modellarini ajratadi; uning ijtimoiylashtiruvchi (sotsializatsiyalovchi) funksiyasi shaxsning jamiyatga moslashuvi va boshqalar bilan munosabatlarini tiklashga xizmat qiladi [10]. Uzoq muddat davolanuvchi bolalar uchun art-terapiya bevosita ijtimoiylashuv vositasi sifatida qaraladi [11]. U tasviriy va noverbal ifoda orqali bolaga so'z bilan aytib bo'lmaydigan kechinmalarini ifodalash imkonini berib, tashvishni kamaytiradi hamda o'z-o'zini boshqarish va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi [5-6].

Xalqaro tajriba bu yondashuvning hayotiyligini ko'rsatadi. Buyuk Britaniya va AQShda gospital maktablar uzoq tarixga ega (birinchisi 1907-yilda Londonda tashkil etilgan) va ular bolaning "ona maktabi" bilan aloqasini saqlash, reintegratsiya hamda turli xizmatlarning o'zaro hamkorligi tamoyiliga asoslanadi [12, 52-b.].

Tadqiqotchilar gospital maktablar tizimini jamiyatdagi gumanistik qadriyatlar ko'rsatkichi deb baholaydi: kasal bola ham jamiyatning to'laqonli, qadrli a'zosi sifatida tan olinadi [12, 56-b.]. Onkologik kasal bolalarga psixologik yordam ko'rsatishda art-terapiya muhim o'rin tutadi [13].

Isroilda kasalxona ta'lim xizmatlarida art-terapevtlar bolalarga hissiy qo'llab-quvvatlash beradi; davolanishning noaniq muddatiga moslashtirilgan qisqa format, ko'p tarmoqli tibbiy jamoa bilan hamkorlik va ota-onaning ishtiroki bu amaliyotning o'ziga xos jihatlari hisoblanadi [5].

"Mehrli maktab" sharoitida art-terapiya vositasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlari quyidagilardir: davolanishning noaniq muddatiga moslashtirilgan qisqa va maqsadli seanslar; tibbiy va pedagogik mutaxassislardan iborat ko'p tarmoqli jamoaning muvofiqlashtirilgan ishlashi; ota-onani terapevtik jarayonga jalb qilish; hamda guruhli ijodiy faoliyat orqali bolada nazorat hissi, o'ziga ishonch va tengdoshlar bilan o'zaro ta'sirni tiklash [5; 10].

Milliy gospital pedagogika bo'yicha o'quv adabiyotlari ham bu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi [14], surunkali kasal bolalarda art-terapiyaning stressni kamaytirishdagi

samarasi esa amaliy tadqiqotlarda ko‘rsatilgan [15]. Bu mexanizmlar bolada ijtimoiy ko‘nikma va mansublik hissini mustahkamlab, kelgusida ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik faolligi shakllanishi uchun poydevor yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq muddat davolanuvchi o‘quvchilarda art-terapiya ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatning poydevorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro va milliy tajriba tahlili kasal bolaning ijtimoiy subyektligini saqlash – uni jamiyatdan ajratmaslik va to‘laqonli a’zo sifatida tan olish – inklyuziv hamda gumanistik ta’lim siyosatining mantiqiy talabi ekanini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishda “Mehrli maktab” tajribasini empirik tadqiqotlar bilan boyitish kelgusi izlanishlarning istiqbolli vazifasi bo‘lib qoladi.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagi 234-son qarori “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”: https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 558-son qarori «Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»: https://lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori «Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»: https://lex.uz

5. Hen M. Art therapy for children in short-term hospitalization // Continuity in Education. – 2023. – Vol. 4. No. 1. – P. 83-95.

6. Рахимов Р.Р. Арт-терапия в лечении детей с инфекционными заболеваниями: обзор современных подходов // Арт-терапия. Фундаментальные и прикладные научные исследования: Сб. мат. V междунар. науч.-практ. конф. – К., 2026.

7. Liu Z., Yang Z., Xiao C., Zhang K., Osmani M. An investigation into art therapy aided health and well-being research: a 75-year bibliometric analysis // International Journal of environmental research and public health. – 2021. – Vol. 19, Iss. 1. – Art. 232.

8. Westheimer J., Kahne J. What kind of citizen? The politics of educating for democracy // American educational research journal. – 2004. – Vol. 41. No. 2. – P. 237-269.

9. Metzger A., Alvis L.M., Oosterhoff B., Babskie E., Syvertsen A., Wray-Lake L. The intersection of emotional and sociocognitive competencies with civic engagement in middle childhood and adolescence // Journal of Youth and Adolescence. – 2018. – Vol. 47. – No. 8. – P. 1663-1683.

10. Копытин А.И. Адаптивный и психотерапевтический потенциал искусства. Клинические, социальные, педагогические аспекты арт-терапии // Арт-терапия. Фундаментальные и прикладные научные исследования: Сборник материалов III международной научно-практической конференции. – К.: КемГМУ, 2024. – С. 299-306.

11. Малахов А.С., Шарко Н.И. Искусство как инструмент социализации детей, находящихся на длительном лечении. Жанр портрета – учимся понимать себя //

Госпитальная педагогика: Материалы 6-й Всероссийский научно-практической конференции. – М., 2024. – С. 122-123.
12. Адамян Е.И. Госпитальные школы в условиях национальных образовательных систем Великобритании и США: представление об ученике // Проблемы современного образования. – 2022. – № 1. – С. 51-59.
13. Шелест А.С., Носкова М.В. Психологическая помощь детям с онкологическими заболеваниями: арт-терапевтические возможности // Личность в меняющемся мире: здоровье, адаптация, развитие. – 2017. – № 1 (16). – С. 56-61.
14. Goipova N.B. Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika: Darslik. – N., 2024. – 252 b.
15. Аскарова Р. И. Эффективность арт-терапии в борьбе со стрессом детей, больных туберкулезом // Арт-терапия. Фундаментальные и прикладные научные исследования: Сборник материалов III международной научно-практической конференции. – К.: КемГМУ, 2024. – С. 31-39.

## УМУМЎРТА ТАЪЛИМ ЎҚУВЧИЛАРНИ ФУҚАРОЛИК ФАОЛЛИГИ ВА ИЖТИМОИЙ МАСЪУЛИЯТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ФИЗИКА ВА АСТРОНОМИЯ ФАНЛАРНИНГ ЎРНИ

**Олимов Б.А., Тарбия педагогикаси миллий институти**

**Аннотация.** Мазкур мақолада ўқувчиларни дарс жараёнида фаоллигини ошириш ва ижтимоий масъулият руҳида тарбиялашда физика ва астрономия фанларининг аҳамияти таҳлил қилинган. Физика ва астраномия фанини ўқитишда асосан ўқув жараёнида физик мавзуларга бўлган муносабат маданият, табиат қонунларини амалиётга тақдим қилиш муносабат, жамоатчилик манфаатларини англаш ва ижтимоий масъулият туйғусини шакллантириш масалалари ёритилган. Шунингдек, физика ва астраномия фанларини ўқитиш орқали ўқувчиларда фуқаролик компетенцияларини ривожлантириш имкониятлари кўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** фуқаролик фаоллиги, ижтимоий масъулият, табиий фанлар, физика ва астраномия, таълим-тарбия.

Бугунги кунда таълим тизими олдида турган муҳим вазифалардан бири ўқувчиларни дарга бўлган муносабатларини фаоллаштириш, юксак маънавиятли ва ижтимоий масъулиятли шахс сифатида тарбиялашдан иборатдир. Бу жараёнда физика фани алоҳида аҳамият касб этади. Чунки табиат ва жамият ўртасидаги ўзаро боғлиқликни англаш, атроф-муҳитга онгли муносабатда бўлиш ҳамда экологик муаммоларни ҳал этишга дахлдорлик ҳиссини шакллантириш фуқаролик тарбиясининг мухим таркибий қисми ҳисобланади. Табиий фанлар нафақат илмий билимларни бериш, балки ўқувчиларда масъулият, ташаббускорлик, экологик маданият ва жамоатчилик манфаатларига ҳурмат каби муҳим фазилатларни ривожлантиришга хизмат қилади.

**Физика ва астраномия фанларнинг тарбиявий имкониятлари.** Физика ва астраномия фанларни ўқитишда ўқувчилар фақатгина мавзудаги қонун қоидаларни балки у қонунларни атроф-муҳит билан боғлиқлигини ва содир бўлаётган ҳодиса ва жараёнларни ўрганадилар. Бу эса уларда табиат бойликларини асраш, экологик

хавфсизликни таъминлаш ва келажак авлодлар олдидаги масъулиятни ҳис қилиш кўникмаларини шакллантиради. Табиий фанларнинг тарбиявий аҳамияти қуйидагиларда намоён бўлади: табиатга эҳтиёткорона муносабатни шакллантириш; экологик маданиятни ривожлантириш; жамоатчилик манфаатларини англаш; илмий дунёқарашни шакллантириш; масъулиятли қарор қабул қилиш кўникмаларини ривожлантириш; Ватан табиати ва бойликларига ҳурмат туйғусини кучайтириш.

**Физика ва астраномия фанларининг аҳамияти.** Физика ва астраномия фанлари орқали ўқувчилар замонавий технологиялар, энергия манбалари ва саноатнинг атроф-муҳитга таъсири ҳақида билимларга эга бўладилар. Бу билимлар: Табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш; Энергия тежамкорлиги; Экологик хавфсизлик; Технологик тараққиётнинг ижтимоий оқибатларини баҳолаш каби муҳим фуқаролик компетенцияларини шакллантиради. Лаборатория ва намойиш тажрибалар ўқувчиларда интизом, аниқлик ва ўз фаолияти натижалари учун масъулият ҳиссини ривожлантиради.

### Физика ва астрономия фанлар асосида фуқаролик фаоллигини ривожлантириш усуллари

Ўқувчиларда фуқаролик фаоллиги ва ижтимоий масъулиятни ривожлантиришда қуйидаги педагогик технологиялар самарали ҳисобланади:

**Назарий тушунчалар** – экологик ва ижтимоий лойиҳаларни амалга ошириш.

**Атроф-муҳитни ўрганиш** – маҳаллий экологик ва долзарб муаммоларни ўрганиш.

**Экологик акциялар** – кўчат экиш, ҳудудларни ободонлаштириш тадбирлари.

**Лаборатория ва намойиш тажрибалар** – физик объектларини ўрганиш орқали амалий тажриба орттириш. Бу усуллар ўқувчиларнинг мустақил фикрлаши, ташаббускорлиги ва жамоатчилик ишларида фаол иштирокини таъминлайди. Физика ва астраномия фанлари ўқувчиларни фуқаролик фаоллиги ва ижтимоий масъулият руҳида тарбиялашнинг муҳим воситаларидан бири ҳисобланади. Физика ва астраномия фанлари орқали ўқувчиларда экологик маданият, жамият ва табиат олдидаги масъулият, ижтимоий фаоллик ва фуқаролик позицияси шаклланади. Шунинг учун физика фанларни ўқитиш жараёнида уларнинг тарбиявий имкониятларидан самарали фойдаланиш, назарий билимларни амалий фаолият билан уйғунлаштириш муҳим аҳамият касб этади.

### Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни. – Т., 2016.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т., 2021.

## ВОСПИТАНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ В ДУХЕ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ВИЗУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

**Пирматов Серик, доцент Национального института художеств и дизайна**

В настоящее время педагогическая общественность нашей республики участвует в весьма ответственном деле по разработке и обсуждению стратегии и тактики воспитания личности в социуме.

Воспитание – это целенаправленный педагогический процесс, способствующий осознанию высшей духовной природы личности и мира, основанный на полифонировании субъектов – носителей духовности (студент, преподаватель), в котором должна происходить трансформация не только воспитанника, но и наставника как субъектов собственного духовного поиска. Безусловно, воспитание нацелено на культивирование ценностей и формирование духовной культуры личности, в которой значительная роль отводится повышению визуальной культуры.

В современных условиях повышение визуальной культуры личности весьма значимо, так как оно служит его «органически-творческому самооформлению». Именно визуальная культура придает целостность личности, благодаря обретению смыслов и выстраиванию её ценностно-смыслового поля. Культивирование соответствующих способов освоения базовых ценностных ориентаций и меры присвоения и реализации общечеловеческих ценностей зависят от визуальной культуры.

Для студента – будущего педагога – повышение визуальной культуры опосредовано педагогическим идеалом – цельной личности учителя с богатым ценностным духовно-этическим потенциалом. Этот образ непосредственно восходит к педагогическому идеалу всесторонне и гармонически развитой личности. Принципиальной идеей в этом процессе является выстраивание феномена педагогического идеала как духовной вертикали, совершенствования, т.е. восхождения к более высокому уровню проявления визуальной культуры в соответствии с идеей саморазвития. Для студентов это находит опору, с одной стороны, в традициях национальной культуры; с другой стороны, – стимулирует его познавательную активность и порождает стремление будущего учителя участвовать в созидании образа профессионала, в «самооформлении».

Известный философ Н.А.Бердяев в своей монографии «Самопознание» заметил, что высшие цели жизни общества не экономические и политические, а духовные. Величие народа, его вклад в историю человечества определяется не только развитием экономики государства, а, в первую очередь, его духовной культуры. Внести весомое в экономику и образование могут люди, руководствующиеся этическим мышлением и нравственными принципами и активно действующие.

Следовательно, сказанное выше имеет ценность и для общества в целом. Весьма важным дополнением к сказанному является суждение о том, что повышение визуальной культуры личности в обществе требует ответственного отношения к профессиональной деятельности педагогов.

Нравственность генетически присуща личности как существу социальному и, в связи с этим, имеет тенденцию к развитию. Для современного педагога важно овладение содержанием визуальной культуры личности в обществе, его теоретико-методологическими основами и профессионально использовать арсенал методов, форм и средств воспитания.

Целевые приоритеты визуальной культуры студентов заключаются в развитии в обществе высокой духовности, становлении граждан, обладающих позитивными ценностями и качествами, способных проявить их в созидательном процессе в

интересах Родины. Содержанием духовно-нравственного воспитания являются ценности, передаваемые из поколения в поколение и хранимые в культурных и семейных традициях.

Традиционными источниками духовно-нравственного воспитания признаны следующие ценности: Родина, ценности, связанные с местом рождения, заботой о человеке, его служением и заботой о ценностях.

Природа – ценность родного края, растительный и животный мир, имеющий непосредственное отношение к личности.

Человек – ценность населяющего планету Земля живого существа, обладающего разумом, способного создавать и защищать ценности.

Человечность – это качество личности, проявляющее чувство гуманности, система нравственных и социальных установок, предполагающая необходимость проявления сочувствия к личностям, оказания помощи, не причиняя вреда.

Культура – это вторая природа личности как система ценностей, которые обеспечивают его существование в социуме.

Свобода – ценность проявления субъектности как активности личности, выражающей его волеизъявление в стремлении к сотворчеству и сотрудничеству.

Ответственность (индивидуальная и коллективная) – следование чувству долга в отношении заботы о ценностях.

Духовность – устремленность к высокому духовному идеалу (ценности), выстраивание иерархии ценностей, оформление ценностно-смыслового поля личности, выражающего его человечность.

Патриотизм – любовь к Родине и готовность пожертвовать своими интересами ради неё.

Социальная солидарность – единство группы/класса, которое порождает единство интересов, задач, стандартов и взаимопонимание или же основывается на них.

Гражданственность – осознание личностью принадлежности к обществу, в котором он живёт, в осознании прав, обязанностей по отношению к обществу, знание и умение соблюдать нормы морали и закон.

Честь – достойные уважения моральные качества личности; его соответствующие принципы.

Гордость – чувство убежденности в значимости ценности, уважении к истории Родины, к делам страны, вызывающее эмоционально окрашенное состояние радости у личности.

Верность – готовность следовать значимым ценностям, воплощать их делами, убежденность в том, что это дело правое.

Достоинство – следовать убеждениям, сознательно относиться к ценностям и понимать их духовную силу и значимость для личности.

Любовь – чувство, свойственное личности, глубокая привязанность и устремлённость к другому человеку или объекту, чувство глубокой симпатии.

Дружба – личные бескорыстные взаимоотношения между людьми, основанные на общности интересов и увлечений, взаимном уважении, взаимопонимании и взаимопомощи.

Отвага – проявление мужества и героизма, следуя правому делу, отстаивая и защищая ценности.

Семья – социальный институт, базовая ячейка общества, характеризующаяся, в частности, следующими признаками: добровольностью вступления в брак; члены семьи связаны общностью быта, и ребенок должен осознавать и проявлять почитание родителей и заботу о старших.

Искусство – образное осмысление действительности; процесс или итог выражения внутреннего или внешнего мира в художественном образе.

Возрождение национальных духовных традиций и ценностей воплощается в образовании подрастающего поколения и студентов, как целостном педагогическом процессе. Достижение этого осуществляется через решение стратегических и тактических задач повышения визуальной культуры студентов.

***Стержневыми ориентирами направляющими и организующими процесс воспитания являются принципы визуальной культуры:***

1. Принцип системно-организованного подхода, который предполагает скоординированную, целенаправленную работу всех государственных и общественных структур по духовно-нравственному воспитанию.

2. Принцип ценностной ориентации. Центральное место в системе детерминации поведения личности занимают духовно-ценностные ориентации – это ориентации, имеющие смысловую жизненную значимость для личности. Они определяют направленность и характер мировоззрения личности. Принцип ценностной ориентации, делающий личность человеком, не сводится к естественной эволюции жизни, а включает в себя и понятие разума, и мышления в идеях, и созерцание, и такие эмоциональные волевые акты, как раскаяние и доброта.

3. Принцип адресного подхода в воспитании, предполагающий использование особых форм и методов работы с учетом каждой возрастной, социальной, профессиональной и других групп населения. Адресность указывает на дифференцированную включенность в духовно-нравственное воспитание, а также учет таких факторов, как семья, ближнее окружение, образовательное учреждение, этнокультурная среда, коллектив, регион проживания с его экономическими, социальными, культурными и другими особенностями общества в целом.

Принцип активности предусматривает настойчивость и разумную инициативу в трансформации мировоззрения населения и его ценностных установок, ориентированных на интересы области. В процессе духовно-нравственного воспитания и самовоспитания этот принцип предполагает деятельное отношение личности ко всему, что происходит в стране; способность каждого гражданина проводить социально-значимые преобразования материальной и духовной сферы на различных уровнях: республиканском и региональном уровнях при условии освоения накопленного исторического опыта как всего человечества, так и народа, отдельной нации или народности. Принцип проявляется в творческой деятельности по улучшению окружающей среды, в образовании.

Принцип сохранения исторической памяти народа, предполагающий необходимость сбережения в разных формах всех видов информации о событиях прошлого, о времени и месте свершения этих событий; о конкретных лицах, принимавших в них участие.

Краеведческий принцип, требующий формирования знаний о природе, экономике, истории и культуре своей местности (микрорайона, села, города, района, области и т.д.).

Принцип воспитания на традициях. Под традициями понимаются исторически сложившиеся и передаваемые из поколения в поколение формы деятельности и поведения, сопутствующие им обычаи, обряды, идеи, представления, правила, духовные ценности.

Принцип информационной защищенности. Суть этого принципа заключается в признании прав личности на обеспечение защиты от тех видов информации, которые представляют опасность для его физического, нравственного и духовного здоровья.

*В качестве стратегических задач воспитания рассматриваются:* служение своему народу и Родине; возрождение и формирование у населения общечеловеческих ценностей; формирование бережного отношения к культурному наследию народов; природе страны; людям и природному окружению своей местности; истории и традициям; усвоение лучших моральных и нравственных принципов, выработанных человечеством на протяжении истории; усвоение и воплощение в жизнь нравственных традиций народа; сохранение и приумножение нравственных, культурных и научных ценностей общества; распространение знаний среди населения, повышение его образовательного и культурного уровня; гармоничное духовное развитие каждой личности, привитие ей основополагающих принципов нравственности: доброты, честности, желания заботиться о ближнем, укрепления семейных уз, любви к детям и уважения к старшим; утверждение в сознании общества положительного образа многодетной семьи и необходимости защиты священного дара жизни; формирование национального самосознания, ответственного отношения к узбекскому языку как государственному и к русскому языку как средству межнационального общения, уважения к своему родному языку.

**Литература**

1. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-637 «Об образовании» от 23 сентября 2020 года.

2. Обращение Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису и нашему многонациональному народу с Посланием от 26 декабря 2025 года.

## AXBOROT KOMPETENSIYASI VA MEDIASAVODXONLIKNING – PEDAGOGIK MAHORATDAGI O‘RNI VA ZARURIYATI

**Rajabova Gulrux Yusufboy qizi, UrDU mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada axborot kompetensiyasi va mediasavodxonlik tushunchalari zamonaviy ta’lim kontekstida pedagogik mahoratning ajralmas tarkibiy qismi sifatida yoritiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida axborot bilan ishlash ko‘nikmalari va media resurslardan samarali foydalanish malakalari o‘qituvchilik faoliyatining muvaffaqiyatli kechishida muhim rol o‘ynashi asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada mediasavodxonlikni rivojlantirishning metodik yondashuvlari va pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** axborot kompetensiyasi, mediasavodxonlik, pedagogik mahorat, raqamli texnologiyalar, media vositalar, o‘qituvchi tayyorlash, zamonaviy ta’lim.

Bugungi raqamli jamiyatda ta’lim tizimi tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilardan zamonaviy

ko‘nikmalar va bilimlar majmuasini talab etadi. Ularning ichida **axborot kompetensiyasi** va **mediasavodxonlik** o‘qituvchining kasbiy salohiyatini belgilovchi asosiy komponentlarga aylanmoqda. Axborotning ko‘pligi, uning tezkor yangilanishi, sifati va ishonchliligini baholash zarurati pedagogik faoliyatda bu ikki kompetensiyaning dolzarbligini oshiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda, ularning pedagogik mahoratini shakllantirishda axborot bilan ishlash malakalari va media vositalardan ongli, tanqidiy va samarali foydalanish ko‘nikmalari muhim o‘rin tutadi.

***Axborot kompetensiyasi*** – bu shaxsning axborotni izlash, tahlil qilish, tanlash, baholash, saqlash va uzatish bo‘yicha shakllangan ko‘nikmalari va bilimlariga asoslangan amaliy faoliyatidir. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchining dars jarayonini innovatsion tashkil etishi, zamonaviy resurslardan foydalanishi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishi uchun zamin yaratadi.

Axborot kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: axborotga ehtiyojni anglash va ifodalash; axborot manbalarini aniqlash va izlash; axborotning ishonchliligini baholash; axborotni qayta ishlash va uni taqdim etish; axborotga nisbatan axloqiy va huquqiy munosabatni shakllantirish**.**

Bugungi kundagi o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchini mustaqil axborot izlaydigan va undan oqilona foydalana oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat bo‘lib, bu bevosita o‘qituvchining o‘z axborot kompetensiyasiga ham bog‘liqdir.

***Mediasavodxonlik*** – bu shaxsning turli media platformalarda mavjud axborotni anglash, tahlil qilish, baholash va ishlab chiqish qobiliyatidir. Mediasavod o‘qituvchi har qanday media kontentni tahlil qilish, uning maqsadini tushunish, unga tanqidiy qarash hamda uni did bilan qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Mediasavodxonlik: o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni o‘rgatadi; soxta, yolg‘on yoki manipulyativ axborotlarni farqlash imkonini beradi; o‘qituvchining o‘z darslarini ko‘rgazmali, interaktiv va qiziqarli tashkil etishiga xizmat qiladi. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarga axborot oqimlarida yo‘l ko‘rsatuvchi, ularni mediamuhitda ongli ishtirok etishga tayyorlovchi murabbiy rolini bajaradi.

***Pedagogik mahorat*** – bu o‘qituvchining o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishdagi kasbiy qobiliyatlar majmui bo‘lib, u o‘z ichiga kommunikativlik, tashkiliy, metodik, innovatsion va axborot-kommunikatsion ko‘nikmalarni oladi. Axborot kompetensiyasi va mediasavodxonlik pedagogik mahoratning quyidagi jihatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi: dars samaradorligini oshirish; zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilish; o‘quvchilar bilan samarali muloqotni tashkil etish; o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish.

*Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik mahorat fani asosida axborot kompetensiyasi va mediasavodxonlikni rivojlantirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:* Interaktiv mashg‘ulotlar (case-study, debat, rol o‘yinlari); media tahlil loyihalari (video, infografika, blog tahlili); raqamli texnologiyalar bilan ishlash (Google tools, Canva, Padlet); axborot manbalari bilan ishlash bo‘yicha treninglar va seminarlar.

Talabalar real dars vaziyatlarida media vositalardan foydalanishni o‘rganadi va o‘z darslarini media-komponentlar bilan boyitishga o‘rgatiladi. Axborot kompetensiyasi va mediasavodxonlik zamonaviy o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi eng muhim ko‘nikmalar sirasiga kiradi. Ularning rivojlanishi pedagogik jarayonni yangilash, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirishda hal qiluvchi omil

hisoblanadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarning ushbu kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik ta’lim strategiyalarining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.

**Adabiyotlar**

1. Soliyev A., Mamarasulova M. Pedagogik mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – 240 b.

2. Islomov Z.X., Xodjayev Sh.X. Axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalar. – T., 2020. – 198 b.

3. Komilova D.A. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. – T.: O‘zDJTU, 2022. – 150 b.

4. Qodirova D.M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘llari // O‘qituvchi, 2023. – № 2. – B. 35-41.

5. UNESCO. Media and information literacy: policy and strategy guidelines. – Paris: UNESCO, 2013: https://unesdoc.unesco.org

6. Hobbs R. Digital and media literacy: connecting culture and classroom. – Thousand Oaks, CA: Corwin, 2011.

7. Livingstone S. Media literacy and the challenge of new information and communication technologies. – Communication review, 2004. – Vol. 7(1). – P. 3-14.

8. Azizxo‘jayev A. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 392 b.

9. Yigitaliyev A. Ta’limda raqamli savodxonlik va axborot madaniyati // Ilm va taraqqiyot. – T., 2022. – № 3. – B. 44-48.

10. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: a revision of bloom’s taxonomy of educational objectives. – New York: Longman, 2001.

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘QUVCHILARDA FUQAROLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO TAJRIBALARI

**Raximova Surayyo, Madjitova Sitora, TPMI doktorantlari**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning dolzarb pedagogik muammolari tahlil qilingan. Xalqaro pedagogik tajribalar, xususan Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur va Finlandiya ta’lim tizimlarida fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning samarali mexanizmlari qiyosiy jihatdan o‘rganilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur tajribalar bilan taqqoslanib, milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish asosida yoshlarning fuqarolik faolligini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini takomillashtirish, o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, xalqaro pedagogik tajriba, fuqarolik kompetensiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, global ta’lim, demokratik qadriyatlar, yoshlar siyosati, ta’lim islohotlari.

XXI asrda jamiyat taraqqiyoti faqat iqtisodiy o‘sish yoki ilmiy-texnik rivojlanish bilan emas, balki fuqarolarning ijtimoiy faolligi, vatanparvarligi, huquqiy madaniyati hamda jamiyat oldidagi mas’uliyat hissi bilan ham belgilanmoqda. Zamonaviy demokratik

davlatlarda fuqarolik faolligi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlar ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida maktab davridanoq fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, migratsiya jarayonlari, ekologik muammolar va sun'iy intellektning keng qo'llanilishi yoshlarning dunyoqarashi hamda fuqarolik pozitsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni nafaqat bilimli, balki mas'uliyatli, tashabbuskor va jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni vatanparvarlik, qonunlarga hurmat, bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim o'quvchilarda fuqarolik tashabbuskorligi, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, ekologik mas'uliyat, volontyorlik madaniyati va mahalla hayotidagi faollik hali yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa, xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi xalqaro pedagogik tajribalarni tahlil qilish asosida yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda ularni O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Fuqarolik tarbiyasi bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlari ta'lim standartlarining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Chunki, zamonaviy jamiyat faqat yuqori bilimga ega mutaxassislarni emas, balki ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmagan, inson huquqlarini hurmat qiladigan, ekologik mas'uliyatni his etadigan hamda jamoat ishlarida faol qatnashadigan fuqarolarni talab qilmoqda.

So'nggi yillarda o'tkazilgan xalqaro baholash dasturlari natijalari ham fuqarolik kompetensiyalarining muhimligini tasdiqlamoqda. Xususan, o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, tanqidiy fikrlashi, media savodxonligi va demokratik qadriyatlarga munosabati ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichlari sifatida e'tirof etilmoqda.

Pedagogik nuqtai nazardan fuqarolik faolligi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: huquqiy madaniyat; vatanparvarlik; ijtimoiy mas'uliyat; ekologik ong; ko'ngillilik (volontyorlik) faoliyati; tashabbuskorlik; tanqidiy fikrlash; jamoa bilan ishlash ko'nikmalari; bag'rikenglik; ijtimoiy hamkorlik. Mazkur sifatlar faqat nazariy darslar orqali emas, balki amaliy faoliyat, loyiha asosida o'qitish, maktab o'zini o'zi boshqaruvi, debatlar, ijtimoiy aksiyalar va volontyorlik ishlari orqali samarali shakllantiriladi. Shu jihatdan xalqaro tajribalarni tahlil qilish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Janubiy Koreya qisqa tarixiy davr ichida iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim siyosati sanaladi. Koreya ta'lim tizimida fuqarolik tarbiyasi faqat alohida fan doirasida emas, balki barcha fanlar, maktab muhiti va sinfdan tashqari faoliyat orqali uzviy amalga oshiriladi. Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan milliy o'quv dasturlarida o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi: demokratik qadriyatlarga hurmat; qonunlarga rioya qilish; ijtimoiy hamkorlik; ekologik madaniyat; jamoaga sadoqat; milliy o'zlikni anglash; global fuqarolik.

Ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri “Character Education” (shaxs xarakterini rivojlantirish) hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, maktabning asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki halollik, mas’uliyat, mehr-shafqat, hamkorlik va fuqarolik burchi kabi fazilatlarni shakllantirishdan iborat. 2015-yilda qabul qilingan “Character education promotion act” asosida barcha maktablarda xarakter tarbiyasiga oid maxsus dasturlar joriy etildi. Ushbu dasturlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi: o‘qituvchi shaxsiy namuna bo‘lishi; oilaning faol ishtiroki; maktab va mahalla hamkorligi; amaliy faoliyat orqali tarbiyalash; ijtimoiy xizmat (community service).

Koreya maktablarida o‘quvchilar yil davomida turli ko‘ngillilik faoliyatlarida ishtirok etadilar. Ular: qariyalar uylariga yordam berish; ekologik aksiyalar; daraxt ekish; xayriya tadbirlari; mahalliy jamiyat loyihalari; nogironligi bo‘lgan shaxslarga ko‘maklashish kabi ishlarda qatnashadilar. Mazkur faoliyatlar faqat tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki oliy ta’lim muassasalariga kirishda ham hisobga olinadi. Natijada, o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat ichki ehtiyoj sifatida shakllanadi.

Koreya tajribasining yana bir muhim jihati – o‘quvchilar o‘zini o‘zi boshqarish tizimining rivojlanganligidir. Maktablarda o‘quvchilar kengashi faoliyat yuritadi. Ular maktab tadbirlarini rejalashtirish, ekologik loyihalarni tashkil etish va ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surishda faol ishtirok etadilar. Bu esa, demokratik madaniyat va liderlik kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini demokratlashtirish, yoshlarni vatanparvarlik, qonunlarga hurmat, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Maktab ta’limi mazmuniga “Tarbiya” fani joriy etilishi, kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etilishi, yoshlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi ushbu yo‘nalishdagi muhim qadamlar hisoblanadi.

“Tarbiya” fanining mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, huquqiy madaniyat, ekologik mas’uliyat, bag‘rikenglik, oilaviy qadriyatlar hamda fuqarolik burchiga oid mavzular yoritilgan.

Shuningdek, maktablarda “Yoshlar ittifoqi”, “Barkamol avlod” markazlari, turli fan va ijodiy to‘garaklar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyatlar tashkil etilmoqda. Biroq mazkur islohotlarga qaramasdan, amaliyotda qator muammolar saqlanib qolmoqda.

*Pedagogik kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar quyidagi muammolarni ko‘rsatmoqda:* fuqarolik tarbiyasida nazariy bilimlarning amaliy faoliyatdan ustunligi; volontyorlik va jamoatchilik xizmatining maktab tizimida yetarlicha rivojlanmaganligi; maktab-oila-mahalla hamkorligining barcha hududlarda bir xil samaradorlikka ega emasligi; o‘quvchilarning maktab boshqaruvidagi ishtirokining cheklanganligi; ekologik va raqamli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha metodik ta’minotning yetarli emasligi; tanqidiy fikrlash va ijtimoiy tashabbuslarni rag‘batlantirish mexanizmlarining sustligi.

Mazkur muammolar fuqarolik tarbiyasini faqat ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan emas, balki tizimli pedagogik faoliyat sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biridir. Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur va Finlandiya tajribasi fuqarolik tarbiyasining samaradorligi nazariy bilimdan ko‘ra amaliy faoliyatga, maktab-oila-jamiyat hamkorligiga hamda o‘quvchilarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashga bog‘liqligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston ta’lim

tizimida ham mazkur tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirish orqali fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Taklif etilgan integrativ pedagogik model taʼlim jarayonini amaliy faoliyat bilan boyitish, oʻquvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularni jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur modelning amaliyotga joriy etilishi yosh avlodning fuqarolik madaniyati, ijtimoiy masʼuliyati va demokratik qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlashga, shuningdek, Yangi Oʻzbekiston sharoitida faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga munosib hissa qoʻshadi.

**Adabiyotlar**


1. Musurmonova O. Oila maʼnaviyati – milliy gʻurur. – T.: Oʻqituvchi, 2000.
2. Musurmonova O. Maʼnaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: Fan, 2019.
3. Safarova R.G. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – T., 2021.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Maʼnaviyat, 2007.
5. Mahkamov U. Axloqiy tarbiya nazariyasi. – T.: Fan, 2018.
6. Ochilov S. Shaxs maʼnaviyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., 2019.
7. Xodjayev B.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2020.
8. Korean Educational Development Institute (KEDI). Education in Korea 2023. Seoul: KEDI, 2023.
9. Ministry of Education of the Republic of Korea. 2022 Revised National Curriculum. Sejong, 2022.


## RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK PROFILAKTIKA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI


**Raximov Sardorbek Kabulovich,**
**Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi**



**Annotatsiya.** Mazkur tezisda raqamlashtirish sharoitida talabalarda ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Raqamli taʼlim muhitining talaba shaxsiga taʼsiri, zamonaviy ijtimoiy va axborot xavflari hamda ularni profilaktika qilishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari asoslab berilgan.



**Kalit soʻzlar:** raqamlashtirish, ijtimoiy-pedagogik profilaktika, profilaktika kompetensiyasi, raqamli taʼlim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, oliy taʼlim.



**Аннотация.** В тезисе рассмотрены актуальные вопросы развития компетенций социально-педагогической профилактики у студентов в условиях цифровизации. Освещено влияние цифровой образовательной среды на личность студента, современные социальные и информационные риски, а также педагогические возможности их профилактики. Обоснованы приоритетные направления развития компетенций социально-педагогической профилактики на основе компетентностного подхода.

**Ключевые слова:** цифровизация, социально-педагогическая профилактика, компетенции профилактики, цифровая образовательная среда, компетентностный подход, медиаграмотность, информационная безопасность, высшее образование.

**Abstract.** This thesis examines the current issues of developing students' socio-pedagogical prevention competencies in the context of digitalization. It highlights the impact of the digital learning environment on students, contemporary social and information-related risks, and the pedagogical opportunities for their prevention. The study also substantiates the priority directions for developing socio-pedagogical prevention competencies based on the competency-based approach.

**Key words:** digitalization, socio-pedagogical prevention, prevention competencies, digital learning environment, competency-based approach, media literacy, information security, higher education.

Raqamli transformatsiya XXI asrda jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida barcha ijtimoiy sohalar, xususan, ta'lim tizimining mazmuni, tashkiliy tuzilmasi va pedagogik faoliyatini tubdan modernizatsiya qilmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), ijtimoiy tarmoqlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim resurslariga keng qamrovli kirishni ta'minlash va individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayon talabalarning ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, media madaniyati va axborot xavfsizligiga oid yangi pedagogik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Natijada, oliy ta'lim muassasalari oldida bo'lajak mutaxassislarni nafaqat kasbiy kompetensiyalar bilan qurollantirish, balki ularning raqamli muhitda xavfsiz, mas'uliyatli va tanqidiy fikrlashga asoslangan faoliyat yuritish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda [1]. Raqamli muhitning kengayishi natijasida dezinformatsiya, kiberbulling, internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, axborot manipulyatsiyasi, ekstremistik va destruktiv g'oyalar, kiberjinoyatchilik hamda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq tahdidlar yoshlar ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-pedagogik profilaktikani an'anaviy ogohlantirish va nazorat mexanizmlaridan kompetensiyaviy rivojlantirish modeliga o'tkazish zarurati yuzaga kelmoqda.

Chunki, zamonaviy profilaktika faqat salbiy holatlarning oldini olishga emas, balki talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, media va axborot savodxonligi, tanqidiy va refleksiv fikrlash, raqamli madaniyat hamda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida qaraladi [3].

Jahon pedagogika fanida ham raqamlashtirish sharoitida kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik ta'lim, konnektivizm, adaptiv ta'lim, gamifikatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning o'quv motivatsiyasi, mustaqil ta'lim faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning muhim omillari sifatida baholanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishni zamonaviy raqamli pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga, balki talabalarning ijtimoiy barqarorligi, fuqarolik pozitsiyasi va

axborot tahdidlariga nisbatan immunitetini mustahkamlashga ham xizmat qiladi [2]. Shu bois raqamlashtirish sharoitida talabalarda ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, uning pedagogik shart-sharoitlari va samarali mexanizmlarini aniqlash hamda ularni oliy ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar raqamli jamiyat talablariga mos, ijtimoiy faol, mas’uliyatli, media savodxon va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamlashtirish sharoitida talabalarda ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarb ilmiy-amaliy muammolarini aniqlash, mazkur kompetensiyaning nazariy mohiyati va tarkibiy tuzilishini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilish hamda uni rivojlantirishning samarali pedagogik shartlari va ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish jarayonida raqamli ta’lim muhitining profilaktik faoliyatga ta’siri, kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari, media va axborot savodxonligining o‘rni hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning metodik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvlarni takomillashtirish va ularni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish tadqiqotning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi [5].

Gamifikatsiya – ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘yin dizayni tamoyillari va mexanikalarini noo‘yin kontekstiga ilmiy asosda integratsiya qilishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish, o‘quv faoliyatidagi faolligini oshirish hamda kompetensiyalarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Gamifikatsiya konstruktivizm, o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) va kompetensiyaviy yondashuvning metodologik tamoyillariga tayangan holda ta’lim oluvchilarni faol bilish subyekti sifatida shakllantiradi. Raqamlashtirish sharoitida mazkur yondashuv adaptiv o‘quv muhiti, tezkor qayta aloqa, refleksiv baholash va individual ta’lim trayektoriyalarini qo‘llab-quvvatlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish hamda talabalarda barqaror kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim didaktik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [4].

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish sharoitida talabalarda ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya ta’lim tizimiga innovatsion imkoniyatlarni olib kirishi bilan birga, talabalarning ijtimoiylashuvi, axborot xavfsizligi, media madaniyati va shaxsiy rivojlanishi bilan bog‘liq yangi pedagogik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Mazkur sharoitda profilaktik faoliyatni faqat salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan an'anaviy yondashuv asosida emas, balki talabalarda barqaror kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi kompetensiyaviy, integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning o‘zaro uyg’unligiga, shuningdek, raqamli pedagogik texnologiyalarni maqsadli qo‘llash darajasiga bevosita bog‘liq. Xususan, media va axborot savodxonligini rivojlantirish, tanqidiy va refleksiv fikrlashni shakllantirish, gamifikatsiya, adaptiv ta’lim texnologiyalari hamda sun’iy intellekt imkoniyatlarini ta’lim jarayoniga

integratsiya qilish talabalarning ijtimoiy mas’uliyatini, axborot tahdidlariga nisbatan barqarorligini va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik profilaktikani raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalash, mazkur kompetensiyalarni baholashning ilmiy asoslangan mezon va indikatorlarini ishlab chiqish hamda ularni ta’lim jarayoniga tizimli joriy etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri boʻlib qolmoqda. Ushbu yoʻnalishda olib boriladigan tadqiqotlar nafaqat boʻlajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini, balki ularning ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas'uliyati, raqamli madaniyati va hayotiy barqarorligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Kelgusida mazkur yoʻnalishda sun’iy intellektga asoslangan adaptiv ta’lim tizimlari, analitik monitoring vositalari, individual ta’lim trayektoriyalari va raqamli diagnostika mexanizmlaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligini oshirish, oliy ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish hamda raqamli jamiyat talablariga mos, ijtimoiy mas’uliyatli va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

**Adabiyotlar**

1. Oʻzbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi OʻRQ-637-son “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida Farmoni.

3. Siemens G. Connectivism: a learning theory for the digital age. international journal of instructional technology and distance learning. 2005. Vol. 2. No. 1. P. 3-10.

4. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: defining “gamification”. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. Tampere, Finland, 2011. P. 9-15.

5. Perrenoud P. Developing competence from school to work. Geneva: University of Geneva, 2002.

## UMUMIY OʻRTA TA’LIM MAKTABLARIDA TARBIYAVIY JARAYONLARGA TEXNOLOGIK YONDASHUV – IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

**Raxmatova Mexrinoz Majitovna,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti, PhD, dotsent**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumiy oʻrta ta’lim maktablarida tarbiyaviy jarayonlarga texnologik yondashuvni tadbiq etish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi yoritilgan. Shuningdek, umumiy oʻrta ta’lim maktablarida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda amal qilinishi lozim boʻlgan qonun-qoidalar, nazariya, usul va vositalar batafsil yoritilgan. Jamiyat rivojlana borgani sari ta’lim bilan birgalikda tarbiyaviy jarayonlarga ham albatta, innovatsion yondashuvni tadbiq etish talab etiladi. Maktablarda dars va darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishning yutuq hamda samaradorligi mazkur maqolada batafsil yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** tarbiya jarayoni qonuniyati, tarbiyaviy jarayonni tashkillashtirishga qoʻyiladigan talablar, korreksion-tarbiyaviy ishlar, samaradorlik, individual yondashuv,

natija, dars va darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlar, metodika, ta’lim va tarbiya, tarbiyaviy jarayon, ma’naviyat, ma’naviy hayot, ma’naviy salohiyat, texnologik yondashuv.

Bugun jamiyatimizda yangicha dunyoqarash va yangicha tafakkur shakllanishi jarayonida yoshlar barcha sohalardagi islohotlarning faol subyekti sifatida ishtirok etib, davr bilan hamnafas faoliyat olib bormoqda. Dunyoni yangicha tushunadigan, ma’naviy uyg‘oq, erkin dunyoqarashga, o‘zining kuchli fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yangi avlod shakllanib kelmoqda. Ular nafaqat milliy-ma’naviy merosimizni, shuningdek, umuminsoniy qadriyat va ilg‘or yutuqlarni o‘zlashtirmoqdalar. Ma’lumki, yoshlar ijtimoiy guruh sifatida jamiyat va davlat rivojida muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi yigit-qizlar – mamlakatimiz kelajagini bugundan belgilayotgan, yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida yangi g‘oyalar, kuch va imkoniyatlarni ishga solishga qodir ulkan kuchdir. Shu tufayli, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, intilish va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish - davlat siyoatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan [1]. Yuksak ma’naviy salohiyatli, dono, tadbirkor, iste’dodli yosh avlod har qanday mamlakatning salohiyati, istiqbolini hal qiluvchi potensial kuchidir. Shuning uchun ham yurtimizda yoshlarning har tomonlama kamol topishi uchun katta imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilmoqda. Birinchi navbatda, yoshlarni moddiy, ma’naviy, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ularning ma’naviyatini yuksaltiruvchi omillardandir.

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida izchil tashkiliy va huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, o‘tgan yillar davomida Asosiy Qonunimiz va kodekslardan tashqari, yoshlar siyosatiga oid 20 dan ortiq Qonun, yuzga yaqin farmon va qarorlarning qabul qilinishi yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish borasida yanada ta’sirchan vositalarning qabul qilinishini taqozo etadi [2]. Yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga bo‘lgan ehtiyoj dolzarblashib borgani sari ushbu hodisa ma’naviy tiklanish, ma’naviy yuksalish fenomenlarining mazmun-mundarijasi bilan aloqador bo’lib bormoqda. Boisi, yoshlar ma’naviy salohiyatiga e’tibor qaratilmasa, hech qanday taraqqiyot va yuksalishga erishilmaydi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi rivojlanishning oxirgi nuqtasi bo‘la olmaganidek, ma’naviy yuksalishning ham so‘nggi chegarasi bo‘lmaydi. Ma’naviy salohiyat rivojining har bir bosqichi konkret davrlarning o‘ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ma’naviyat borasidagi bir ehtiyojning ro‘yobga chiqishi, o‘z navbatida, yangi, yanada kengroq ehtiyojlar shakllanishi uchun zamin bo‘ladi. Shu ma’noda, Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish maqsadida yurtimizda iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni tarbiyalash va qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy vosita va usullaridan foydalanish, bunda siyosiy institutlar, ta’lim muassasalari yetakchi mutaxassis-xodimlarining yoshlar ma’naviy-siyosiy qiyofasini o‘zgartirish masalalarini kompleks tashkil etish borasidagi faoliyati izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Bu strategik islohotlarda intellektual salohiyatli, siyosiy uyg‘oq va ma’nan barkamol avlodni kamol toptirish vazifalari yetakchilik qiladi.

*Tarbiyaviy jarayon* – bu insonning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun tizimli ravishda amalga oshiriladigan ta’sirlarning yig‘indisidir. Bu jarayon davomida odamlarga axloqiy qadriyatlar, bilim, ko‘nikmalar va ijtimoiy xulq-atvor namunalari singdiriladi.

Tarbiyaviy jarayonning asosiy maqsadi: har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish: bu yerda nafaqat bilim, balki axloqiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlangan shaxs haqida gap boradi; jamiyatga foydali a’zo bo‘lishga tayyorlash: tarbiya jarayoni orqali yosh

avlod jamiyat qonun-qoidalariga rioya qilishi, o‘z burchini bajarishi va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga o‘rgatiladi; mustaqil fikrlaydigan va ijodkor shaxsni tarbiyalash: tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

*Tarbiyaviy jarayonning turlari:* oiladagi tarbiyaviy jarayon: bolaning birinchi va eng muhim tarbiyalanish muhiti hisoblanadi; ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayon: bilim berish bilan birga, o‘quvchilarni axloqiy jihatdan kamol toptirishga qaratilgan; ijtimoiy muhitdagi tarbiyaviy jarayon: oila va maktabdan tashqari, jamiyatning boshqa a’zolari, ommaviy axborot vositalari va boshqa omillar ham tarbiyaviy ta’sir ko’rsatadi.

Tarbiyaviy jarayonda tushuntirish, ma’lumot berish orqali o‘quvchilarning ongiga ta’sir ko‘rsatiladi. Namuna ko‘rsatish orqali tarbiyaviy jarayonlarda o‘qituvchi yoki boshqa obro‘li shaxslarning ijobiy xulq-atvorini namuna qilib ko‘rsatib o‘tish mumkin. Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish usullaridan yana biri mashq qildirish hisoblanadi. Bunda, olingan bilimlarni amalda qo‘llash uchun turli mashqlar va topshiriqlardan foydalaniladi. Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda rag‘batlantirish usuli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda erishilgan yutuqlarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirib boriladi. Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda jazo choralari haqida alohida to‘xtalik o‘tish lozim deb hisoblaymiz. Bundan noto‘g‘ri xatti-harakatlarni to‘xtatish uchun foydalaniladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy jarayon – bu yosh avlodni har tomonlama yetuk, vatanparvar, jamiyatga foydali inson qilib tarbiyalashga qaratilgan murakkab va maqsadli jarayondir. Bu jarayonda ta’lim bilan birgalikda tarbiyaviy ishlar ham muhim o’rin tutadi. Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar muayyan qonunlar asosida kechadi. “Qonun” tushunchasi o‘zida obyektiv, mavjud, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq hodisalarni; “obyektiv borliqda turli hodisalar o‘rtasida kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari hamisha mavjud bo‘lgan muhim, zaruriy, barqaror bog‘lanish” [3] aks ettiradi. Boshqacha aytganda, qonun o‘zaro bog‘langan va bir-birini taqozo qiluvchi hodisalar majmuidir. Shaxs tarbiyasi umumiy ijtimoiy-falsafiy va pedagogik qonunlar bilan birga xususiy jihatlarga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi ta’lim qonunlari va tarbiya qonunlariga muvofiq tashkil etiladi.

Tarbiya qonunlarini [4] quyidagilar tashkil etadi: 1) Tarbiya vositalarini moslashtirish qonuni. 2) Tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog‘liqligi qonuni. 3) Munosabatlar qonuni. 4) Yaqin ijtimoiy muhitni modellashtirish qonuni. 5) Ijobiy faoliyat motivatsiyasi qonuni. 6) Shaxsga nisbatan indiviual tarbiyaviy ta’sirning o‘ziga xosligi qonuni.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari: axloq tarbiyasi: odob-axloq qoidalariga amal qilish, insoniylik fazilatlarini shakllantirish; Vatanparvarlik tarbiyasi: Vatan tarixi, madaniyati, adabiyoti bilan tanishtirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish; huquqiy tarbiya: O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va boshqa qonunlari bilan tanishtirish, huquq va burchlarni anglashga o‘rgatish; mehnat tarbiyasi: mehnatga hurmat, mas’uliyat hissini shakllantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish; ekologik tarbiya: tabiatni asrash, ekologik madaniyatni shakllantirish; jismoniy tarbiya: sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirishlardan iborat.

**Adabiyotlar**

1. Teshaboyeva G. Yoshlar tashkilotlari yangi bosqichda: holati, muammolari, istiqbollari // Fuqarolik jamiyati. – T., 2019. – 16/3(59)-son. – B.4 3-46.

2. Muxammadjanov O, Muxiddinova F. O‘zbekistonda Yoshlar huquqi: Qonun va imtiyozlar. – T.: Ma’naviyat, 2019.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – Ҳ / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 331-бет.
4. Законы воспитания: https://studref.com/360549/pedagogika/zakony_ vospitaniya.

## O‘SMIR QIZLARDA SOG‘LOM TURMUSH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALARNING O‘RNI

**Ruziboyeva Nigina Nodir qizi, TPMI tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘smir qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari tadqiq etilgan. Maqolada rivojlangan xalqaro pedagogik tajribalar (AQSh, Skandinaviya va Yaponiya misolida) tahlil qilinib, ularning milliy ta’lim tizimiga integratsiyalashuv imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Sog‘lom turmush tarzi (STT) faqatgina jismoniy tarbiya emas, balki psixologik barqarorlik, to‘g‘ri ovqatlanish va reproduktiv savodxonlikni qamrab oluvchi yaxlit tizim ekanligi ilmiy asoslab berilgan.
**Kalit so‘zlar:** o‘smir qizlar, sog‘lom turmush madaniyati, xalqaro pedagogik tajriba, ta’lim tizimi, jismoniy faollik, psixologik salomatlik, Skandinaviya modeli, integratsiya.
**Аннотация.** В данной статье исследованы педагогические основы формирования и развития культуры здорового образа жизни среди девочек-подростков. В работе проанализирован передовой международный педагогический опыт (на примере США, Скандинавии и Японии) и рассмотрены возможности его интеграции в национальную систему образования. Научно обосновано, что здоровый образ жизни (ЗОЖ) является не просто физическим воспитанием, а целостной системой, охватывающей психологическую стабильность, правильное питание и репродуктивную грамотность.
**Ключевые слова:** девочки-подростки, культура здорового образа жизни, международный педагогический опыт, система образования, физическая активность, психологическое здоровье, скандинавская модель, интеграция.
**Abstract.** This article explores the pedagogical foundations for forming and developing a healthy lifestyle culture among adolescent girls. The study analyzes advanced international pedagogical experiences (using the USA, Scandinavia, and Japan as examples) and examines the possibilities of their integration into the national education system. It is scientifically substantiated that a healthy lifestyle (HLS) is not merely physical education, but a holistic system encompassing psychological stability, proper nutrition, and, reproductive, literacy.
**Key words:** adolescent girls, healthy lifestyle culture, international pedagogical experience, education system, physical activity, psychological health, Scandinavian model, integration.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas’uliyatli o‘tish davri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smir qizlar organizmidagi fiziologik, gormonal va psixologik o‘zgarishlar ularga alohida pedagogik va tibbiy-ijtimoiy yondashuvni talab etadi. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida gipodinamiya (kam harakatlilik), noto‘g‘ri ovqatlanish, stress va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kabi salbiy omillar o‘smir qizlarning salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha o‘smirlarning 80% dan ortig‘i yetarli darajada jismoniy faol emas. Bu ko‘rsatkich

qizlar o‘rtasida o‘g‘il bolalarga nisbatan ancha yuqori. Kelajak avlodning salomatligi bevosita bugungi o‘smir qizlarning jismoniy va ma’naviy yetukligiga bog‘liq. Shu bois, ta’lim muassasalarida ularga nisbatan zamonaviy xalqaro pedagogik tajribalarni qo‘llagan holda sog‘lom turmush madaniyatini singdirish ustuvor vazifalardan biridir.

O‘smirlar salomatligi va sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish muammosi xalqaro pedagogika va sotsiologiyada keng o‘rganilgan. Xususan, **Smith va uning hammualliflari (2019)** o‘smir qizlarning jismoniy faolligini oshirishda maktab muhitining ta’sirini o‘rganib, unda pedagoglar va oila hamkorligining muhimligini ta’kidlaydi. **Johnson (2021)** o‘z tadqiqotlarida Skandinaviya ta’lim tizimidagi "Friluftsliv" (ochiq havoda hayot kechirish) pedagogik konsepsiyasini tahlil qilib, bu metod o‘smir qizlarda nafaqat jismoniy salomatlikni, balki ruhiy tetiklikni ham ta’minlashini isbotlagan.

Osiyo mamlakatlari tajribasini o‘rgangan **Tanaka (2020)** Yaponiyadagi maktab oziq-ovqat madaniyati (“Shokuiku”) orqali o‘smirlarda semizlik va ovqatlanish buzilishining (anoreksiya, bulimiya) oldi olinishini ko‘rsatib beradi. O‘zbekistonlik olimlardan **G.Sh.Ergasheva va M.N.Qodirova** kabi pedagoglar ham milliy qadriyatlar va mentalitetni hisobga olgan holda o‘smir qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamda salomatligini muhofaza qilish masalalarini tadqiq etganlar. Biroq, xalqaro tajribalarni tizimli tahlil qilish va ularni milliy ta’lim tizimiga adaptatsiya qilish masalasi hamon to‘liq yechimini topmagan.Ushbu tadqiqotda qiyosiy-pedagogik tahlil, tizimli yondashuv, xalqaro pedagogik modellar tahlili va sotsiologik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. AQSh, Shvetsiya, Finlyandiya va Yaponiya ta’lim muassasalarida o‘smir qizlar bilan olib boriladigan sog‘lomlashtirish ishlari va ta’limiy dasturlar qiyosiy o‘rganildi.

Tadqiqotning empirik asosi sifatida o‘smir qizlarda sog‘lom turmush madaniyatining uchta asosiy komponenti tanlab olindi: 1) **Jismoniy komponent** (harakat faolligi, sport, gigiyena). 2) **Nutritsionallik komponenti** (to‘g‘ri ovqatlanish madaniyati). 3) **Psixo-emosional komponent** (stress boshqaruvi, ijtimoiy adaptatsiya).

Xalqaro pedagogik tajribalarni tahlil qilish natijasida o‘smir qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishning bir nechta yetakchi modellari ajratib ko‘rsatildi.

**Skandinaviya Modeli (Shvetsiya, Finlyandiya).** Skandinaviya mamlakatlarida sog‘lom turmush tarzi alohida fan sifatida emas, balki umumiy maktab falsafasi sifatida o‘qitiladi. Bu yerda quyidagi o‘ziga xos jihatlar mavjud:

**“Friluftsliv” konsepsiyasi:** darslarning va tanaffuslarning katta qismi har qanday ob-havoda ham ochiq havoda o‘tkaziladi. Bu o‘smir qizlarda immunitetni mustahkamlaydi.

**Baholashning yo‘qligi:** jismoniy tarbiya darslarida normativlar topshirilmaydi. Asosiy maqsad – musobaqalashish emas, balki jismoniy harakatdan zavq olish. Bu o‘smir qizlardagi “tana kompleksi” (body shaming) paydo bo‘lishining oldini oladi.

**Yaponiya tajribasi: “Shokuiku” (Oziq-ovqat ta’limi).** Yaponiyada 2005-yilda qabul qilingan “Shokuiku” qonuniga ko‘ra, maktablarda to‘g‘ri ovqatlanish intellektual va axloqiy tarbiya bilan bir qatorga qo‘yilgan.O‘smir qizlarga kaloriyalar hisobi, taomlarning ozuqaviy qiymati va tayyorlanish texnologiyasi o‘rgatiladi.Natijada, Yaponiyada o‘smirlar o‘rtasida ortiqcha vazn va noto‘g‘ri ozishga urinish tufayli kelib chiquvchi gormonal buzilishlar ko‘rsatkichi dunyodagi eng past darajada saqlanib qolmoqda.

**AQSh tajribasi: “Comprehensive school physical activity program” (CSPAP).** AQShda o‘smir qizlarning jismoniy faolligini oshirish uchun maktab darslaridan tashqari maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Qizlar uchun fitnes, yoga, raqs va aerobika to‘garaklari

tashkil etiladi. Bu o‘smir qizlarda jamoaviy sport turlariga (futbol, basketbol) nisbatan bo‘lgan tortinchoqlikni yengishga yordam beradi.

*Quyidagi jadvalda ushbu mamlakatlar va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan:*

| Mamlakat Model | Asosiy yo‘nalishi | O‘smir qizlar uchun afzalligi | Milliy tizimga joriy etish imkoniyati |
|---|---|---|---|
| **Skandinaviya (Friluftsliv)** | Psixologik erkinlik va tabiat bilan uyg‘unlik | Stressni kamaytiradi, o‘z tanasini qabul qilishni o‘rgatadi | Yuqori (Sog‘lomlashtirish to‘garaklari orqali) |
| **Yaponiya (Shokuiku)** | To‘g‘ri ovqatlanish madaniyati | Semizlik va gormonal muammolarning oldini oladi | Judayam zarur (Maktab oshxonalari menyusini isloh qilish) |
| **AQSh (CSPAP)** | Turli xil jismoniy faollik (yoga, fitnes) | Tortinchoqlikni yengadi, qiziqishga qarab sportni tanlaydi | Yuqori (Sinfdan tashqari to‘garaklar tashkil etish) |

**Milliy ta’lim tizimi uchun takliflar va xulosaviy tahlil.** Xalqaro tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga sintez qilishda bizning milliy mentalitetimiz, qiz bolaning oila va jamiyatdagi o‘rniga bo‘lgan qarashlarni hisobga olish lozim. O‘smir qizlarda STT madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik strategiyalarni amalga oshirish taklif etiladi.

**Jismoniy tarbiya darslarini differensiallashtirish:** qizlar darslarini o‘g‘il bolalardan ajratgan holda, ularning qiziqishlariga mos ravishda (gimnastika, raqs elementlari bo‘lgan fitnes, yoga) tashkil etish. Bu ulardagi psixologik to‘siqlarni olib tashlaydi. **“Sog‘lom ovqatlanish darslari”ni joriy etish:** Texnologiya (qizlar uchun pazandachilik) darslariga o‘zgartirish kiritib, faqatgina taom tayyorlashni emas, balki xalqaro “Shokuiku” tajribasidagi kabi taomlarning kimyoviy tarkibi va ozuqa madaniyatini o‘rgatish. **Psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini kuchaytirish:** o‘smir qizlardagi hissiy beqarorlik va depressiyani bartaraf etish uchun maktab psixologlari ishtirokida “Art-terapiya” va guruhli treninglar o‘tkazish.

**Xulosa:** O‘smir qizlarda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish faqat bitta fanning vazifasi emas, balki umumta’lim maktablaridagi barcha pedagogik jarayonlarning integratsiyalashuvini talab qiladigan tizimdir. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qat’iy me’yor va majburiyatlarga asoslangan jismoniy tarbiya tizimidan ko‘ra, o‘smir qizning psixologik erkinligi, to‘g‘ri ovqatlanish savodxonligi va jismoniy faollik motivatsiyasini shakllantirish samaraliroq natija beradi. Rivojlangan mamlakatlarning ushbu ilg‘or pedagogik modellarini milliy ta’lim tizimimizga muvaffaqiyatli adaptatsiya qilish kelajakda sog‘lom, intellektual va jismoniy yetuk onalar avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar

1. Becker, C.M., Lindsay, R. (2018). The role of school-based health promotion in adolescent girl development // Journal of school health, 88(4), 295-303: https://doi.org/10.1111/josh.12612

2. Johnson, M. (2021). Outdoor pedagogy and mental well-being: Lessons from Scandinavian “Friluftsliv” for adolescent education // International Journal of Environmental Research and Public Health, 18(12), 6432: https://doi.org/10.3390/ijerph18126432

3. Kinnunen, J.M., Rimpelä, A.H. (2020). Adolescent health behavior and school environments in Northern Europe // European Journal of Public Health, 30(Supplement_5), ckaa165-112: https://doi.org/10.1093/eurpub/ckaa165.112

4. Smith, L., Openshaw, S., Jones, A. (2019). Physical activity interventions tailored for adolescent girls: A systematic review of school-based models // Journal of Adolescent Health, 65(2), 177-189: https://doi.org/10.1016/j.jadohealth.2019.03.008

5. Tanaka, Y. (2020). Shokuiku (Food and Nutrition Education) in Japanese schools: Promoting healthy dietary habits among female adolescents // Nutrition Reviews, 78(9), 745-756: https://doi.org/10.1093/nutrit/nuz102

6. World Health Organization (WHO). (2022). Physical activity guidelines for adolescents: global status report. Geneva: WHO Press.

7. Ergasheva, G.Sh. (2021). Pedagogical frameworks for developing healthy lifestyle cultures among female students in Uzbekistan // Mental enlightenment scientific-methodological journal, 2021(2), 45-56.

8. Zaman, M., Rahman, F. (2023). Cross-cultural analysis of physical literacy and self-esteem among teenage girls // International Journal of educational development, 96, 102690: https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2022.102690

## ТЕХНОЛОГИЯ «ЯЗЫКОВОГО ПОРТФЕЛЯ» КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКИ В УСЛОВИЯХ НЕЯЗЫКОВОГО ВУЗА

**Саиджалалова Сайёра Мирсадиковна, доцент СБУМИПТК**

**Аннотация.** В современном мире формирование личности происходит в новых социально-экономических и политических условиях, что меняет подходы к организации обучения и воспитания. За последние годы в системе образования произошли изменения, которые привели к переоценке традиционных методов обучения и поиску новейших технологий оптимизации образовательного процесса. Основной задачей является создание условий для формирования личностной автономии обучающихся, проведения адекватного самоконтроля и самооценки в процессе изучения иностранного языка.

**Ключевые слова:** личность, профессиональная идентичность личности, лингвистическое портфолио, электронное портфолио, неэлектронное портфолио.

Эффективной формой формирования требуемых навыков рефлексии и оценки достижений познавательной деятельности является языковое портфолио, которое используется как средство выявления результатов обучающегося в процессе изучения иностранного языка.

В отличие от других методов контроля и оценки эффективность языкового портфеля характеризуется логически обоснованным характером оценки и самооценки, которая обеспечивается отображаемыми в языковом портфеле учебными достижениями и результатами творческой деятельности, а также критериями оценки и

интеграцией личного опыта студента в процесс изучения иностранного языка. Языковой портфель как средство самооценки выступает вектором повышения мотивации студентов к изучению иностранного языка.

В данной статье мы представляем языковой портфель не как образовательную технологию, а как средство самоконтроля студента в процессе изучения иностранного языка.

В современном мире формирование личности происходит в новых социально-экономических и политических условиях, в иной морально-этической атмосфере, что меняет подходы к организации обучения и воспитания. В последние годы произошли изменения в системе образования, они привели к переоценке традиционных методов и технологий обучения иностранным языкам. Приоритетом реформирования системы образования становится использование активных методов обучения, способствующих формированию личностной автономии обучающихся, развитию умения анализировать, рассуждать, планировать, комбинировать, создавать новый продукт. Также параллельно развиваются знание культурных норм и социальных ограничений в общении, знание обычаев, традиций и этикета в сфере общения, а также усиление ориентации на коммуникативные средства, характерные для национального и сословного менталитета.

Вслед за Гальсковой под коммуникативной компетентностью мы понимаем способность и готовность осуществлять межличностное и межкультурное общение с носителями языка, что подразумевает формирование языковой, речевой, социокультурной, компенсаторно-образовательной когнитивной, коммуникативной компетентности.

В контексте формирования коммуникативной компетенции данными учеными были выделены три основные характеристики личностных качеств, необходимых для адекватной коммуникации: практическое владение отдельным ресурсом вербальных и невербальных средств для актуализации информационных, экспрессивных и прагматических функций общения; умение разнообразить средства общения в процессе общения; построение речи в соответствии со стандартами (языковыми и речевыми).

Технология языкового портфолио (от фр. porter – носить + feuille – лист) представляет собой комплексный набор разнообразных рабочих материалов, отражающих образовательные результаты, накопленные в процессе обучения и освоения иностранного языка. Данный набор материалов предоставляет широкий спектр возможностей как для студента, так и для преподавателя. Языковой портфель включает в себя задания, проекты, отчеты, письменные работы, демонстрирующие успешность освоения коммуникативных навыков. По результатам преподаватель анализирует и оценивает такие показатели, как объем проделанной учебной работы и разнообразие достижений в области изучения иностранного языка, а также практический образовательный опыт в этой области. Мы считаем, что языковой портфель является одной из самых эффективных технологий обучения иностранному языку, которая способствует формированию и развитию коммуникативной компетенции на уроках иностранного языка и одновременно является средством для самоконтроля и самооценки учащимися своих образовательных результатов.

Цели и формы работы с языковым портфелем на уроках иностранного языка могут быть разными, поскольку языковой портфель является очень гибким средством

обучения, которое можно адаптировать практически к любой учебной ситуации. Эти ситуации могут быть разными как по целям и методам, средствам и условиям обучения, так и по возрастным и индивидуальным особенностям учащихся и уровню их владения иностранным языком. Языковой портфель создается в соответствии с возрастными особенностями студента и образовательной программой. В нем студент регулярно записывает свои результаты, достижения и опыт освоения иностранного языка.

Языковой портфель для студентов разрабатывается в соответствии с европейской концепцией языкового портфеля. При этом учитываются как когнитивное, так и эмоциональное развитие каждой возрастной группы студентов; в процессе обучения иностранному языку используются различные технологические ресурсы, чтобы студент имел возможность: оценить свой уровень владения иностранным языком; осознанно и ответственно подходить к процессу и результатам освоения языка, реагировать на изучение иностранного языка; совместно с преподавателем находить наиболее рациональные пути совершенствования своих знаний и навыков, а также уметь самостоятельно организовывать работу по изучению иностранного языка.

Таким образом, коммуникативная компетентность является одной из ключевых компетенций, формирование которой является интегративной целью на всех этапах обучения иностранному языку. Коммуникативная компетентность – это способность и готовность к общению с носителями языка, что подразумевает формирование языковой, речевой, социокультурной, а также компенсаторной и учебно-познавательной коммуникативной компетентности. Эффективному формированию коммуникативной компетентности способствует технология «языкового портфеля».

***Языковой портфель*** – это инструмент документирования и оценки языковых навыков обучающихся, позволяющий совершенствовать организацию образовательного процесса. В ходе исследования нами доказано, что использование языкового портфеля как инструмента формирования коммуникативной компетентности в процессе обучения иностранному языку является важным методическим аспектом достижения личностных, метапредметных и предметных результатов иноязычного образования.

Языковой портфель играет значительную роль для студентов, чья профессия будет связана с языковой практикой. Языковой портфель способствует определению профессионального развития студентов. Основная идея портфолио – предоставить широкий спектр языковых навыков студентам. Портфолио дает студентам возможность продемонстрировать свои знания и опыт, связанные с языковой деятельностью. Портфолио может включать весь спектр языковых данных, отражая широкий спектр навыков и может содержать тесты, обработку текста, письменные работы, эссе, обратную связь, рефлексию. Нортон и Видбург описывают портфолио как систематизированную и выборочную подборку работ студентов, которые демонстрируют мотивацию студентов, академический рост и уровень достижений.

***Основная идея портфолио*** – продемонстрировать и отразить языковой опыт студентов и их языковые способности. Разработка портфолио обеспечивается работой преподавателей и студентов, которые наполняют портфолио различными видами работ.

Студенты могут сами решать, какие виды работ включить в портфолио. Этот процесс выбора и отражения своей работы, процесс оценки и самооценки своей

деятельности является ключевым моментом любого портфолио. Вопросы электронного портфолио также обсуждаются в статье.

Следует отметить, что языковое портфолио студентов (электронное и неэлектронное) является важным элементом, способствующим профессиональному самоопределению, поскольку студенту легко оценить, что он уже умеет делать, над чем ему еще нужно поработать и что изучать. Языковое портфолио включает в себя текущее понимание языка, связанное с оценкой, может использоваться различными пользователями, охватывает широкий спектр языковых навыков. Процесс создания своего портфолио также рассматривается как процесс обучения, требующий внимания как студента, так и преподавателя. Он позволяет вырабатывать самооценку, способствует саморефлексии и принятию решений, мотивации.

Языковое портфолио может быть создано в электронном виде. Электронное портфолио представляет собой цифровую версию портфолио и является ярким примером информационно-коммуникационных технологий. Электронные портфолио представляют собой обработанные документы, блоги, вики, диаграммы и другие специальные инструменты, которые могут включать в себя широкий спектр цифровых ресурсов, таких как видео- и аудиозаписи, обсуждения, проводимые в аудитории, вклады на форумах и другие электронные работы. Языковой пакет документов в портфолио может быть разнообразным и демонстрировать разные языковые навыки.

В электронном портфолио студенты могут оценивать себя как с преподавателями, так и с напарниками. После завершения выполненной работы этот сервис позволяет получить оценку и рекомендации по дальнейшему совершенствованию полученных знаний.

Ученые считают, что самооценка в электронном портфолио является важным элементом для саморефлексии и самоопределения в целом. Электронное портфолио легко адаптируется к условиям студента, оно более портативно и мобильно, чем бумажное портфолио. В электронном портфолио можно использовать необходимые для конкретной аудитории инструменты согласно требованиям преподавателей, работодателей и т.д.

Языковой портфель представляет собой реальный личностный образовательный продукт, который учащийся создаёт в процессе изучения иностранного языка и культуры страны носителя языка.

В области практического овладения иностранным языком и иноязычной культурой использование языкового портфеля в самостоятельной работе учащегося позволяет решать не только текущие задачи учебного процесса по практическому овладению иностранным языком, но и более широкие задачи языкового образования. Что собой представляет языковой портфель ученика? Языковой портфель определяется как пакет рабочих материалов, которые отражают тот или иной опыт или результат учебной деятельности учащегося по овладению иностранным языком.

**Литература**

1. Burlakova I. (2010). “Language portfolio” of a student as a basis for the formation of an educational subject in the process of studying foreign languages. Proc. of the Mater. of the 3th Int. sci. conf. Actual problems of modern scientific knowledge. P. 75-82. Pyatigorsk, Russia, 11-12 January 2010.

2. Galskova N. Language portfolio as a tool for assessment and self-assessment of students in the field of foreign language learning // Иностранные языки в школе. – М., 2006. – № 6. – С. 69.

3. Абозина Н.М., Гуль Н.В., Васильева Н.А. Опыт работы с европейским языковым портфелем // Иностранные языки в экономических вузах России: Всероссийский научно-информационный альманах. – 2005. – № 4. – С. 52-66.

4. Атабекова А.А., Крузе И.И. Языковой портфель как лингводидактическая технология профессионально ориентированного обучения иностранному языку студентов-юристов // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 3. – С. 184-188.

5. Брыксина И.Е. Современные образовательные стандарты и использование языкового портфеля студентами неязыковых специальностей // Социально-экономические явления и процессы. – 2011. – № 10. – С. 261-264.

# RAQAMLI MAKONDA TARIXIY JARAYONLARNI TANQIDIY BAHOLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING FUQAROLIK MAS’ULIYATI VA AXLOQIY POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**Saydaliyev Abbosxon Ibroximxon o‘g‘li, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti ilmiy tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli axborot makonining kengayishi sharoitida tarixiy jarayonlarni tanqidiy baholash asosida o‘quvchilarda fuqarolik mas’uliyati va axloqiy pozitsiyani shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayonlari natijasida tarixiy bilimlarni egallash manbalari va shakllari sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Bu esa yoshlarning tarixiy ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan bir qatorda tarixiy axborotlarning haqqoniyligini aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash zaruratini ham kuchaytirmoqda. Tadqiqotda tarixiy tafakkur nazariyasi, fuqarolik tarbiyasi va raqamli pedagogika yondashuvlari asosida tarixiy jarayonlarni tanqidiy baholashning shaxsning fuqarolik mas’uliyati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim siyosatida belgilangan ustuvor vazifalar bilan mazkur yo‘nalishning o‘zaro bog‘liqligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli makon, tarix ta’limi, tarixiy tafakkur, tanqidiy baholash, fuqarolik mas’uliyati, axloqiy pozitsiya, tarixiy ong, raqamli pedagogika, fuqarolik tarbiyasi, tarixiy manbalar, axborot madaniyati, ijtimoiy faollik.

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы формирования гражданской ответственности и нравственной позиции учащихся на основе критической оценки исторических процессов в условиях расширения цифрового информационного пространства. В результате процессов цифровизации существенно изменяются источники и формы освоения исторических знаний. Это, наряду с положительным влиянием на формирование исторического сознания молодежи, усиливает необходимость определения достоверности исторической информации, её анализа и оценки. На основе теории исторического мышления, гражданского воспитания и подходов цифровой педагогики раскрывается значение критической оценки исторических процессов в развитии гражданской ответственности, нравственных взглядов и социальной активности личности. Кроме того, обосновывается взаимосвязь

данного направления с приоритетными задачами, определёнными в образовательной политике Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** цифровое пространство, историческое образование, историческое мышление, критическая оценка, гражданская ответственность, нравственная позиция, историческое сознание, цифровая педагогика, гражданское воспитание, исторические источники, информационная культура, социальная активность.

XXI asr boshlaridan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha jabhalarida tub oʻzgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, elektron kutubxonalar va sun’iy intellekt vositalarining keng tarqalishi bilim olish manbalari va shakllarini sezilarli darajada oʻzgartirdi. Natijadaб bugungi oʻquvchi tarixiy bilimlarni faqat darslik va oʻqituvchi orqali emas, balki turli raqamli platformalar orqali ham egallamoqda. Mazkur jarayon ta’lim tizimi uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga muayyan xavf va muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli makonda tarixiy voqealarning turlicha talqin qilinishi, tekshirilmagan ma’lumotlarning tez tarqalishi va tarixiy faktlarning manipulyatsiya qilinishi yoshlarning tarixiy ongiga salbiy ta’sir koʻrsatishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy tarix ta’limining asosiy vazifalaridan biri oʻquvchilarda tarixiy axborotlarni tanqidiy tahlil qilish va baholash koʻnikmalarini rivojlantirishdan iborat boʻlib bormoqda. Sam Wineburg tarixiy tafakkurni shakllantirish tarix ta’limining eng muhim maqsadlaridan biri ekanligini ta’kidlab, tarixni oʻrganish faktlarni yodlash emas, balki tarixiy dalillarni tahlil qilish, manbalarni qiyoslash va asoslangan xulosalar chiqarish jarayoni ekanligini qayd etadi [1]. Bunday yondashuv raqamli axborot oqimi keskin ortib borayotgan hozirgi sharoitda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekistonda ham yosh avlodni fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faollik va yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonunida ta’lim tizimining asosiy maqsadi sifatida shaxsning intellektual, ma’naviy va axloqiy jihatdan har tomonlama rivojlanishini ta’minlash vazifasi belgilangan [4]. “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida esa inson salohiyatini roʻyobga chiqarish, sifatli ta’lim muhitini yaratish va yoshlarni zamonaviy kompetensiyalar asosida tarbiyalash ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan [5]. Bu esa, tarix ta’limida tanqidiy baholash koʻnikmalarini rivojlantirish va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

**Tarixiy tafakkur va tanqidiy baholashning nazariy asoslari.** Soʻnggi oʻn yilliklarda tarix didaktikasida tarixiy tafakkur tushunchasi markaziy oʻrinlardan birini egallamoqda. An’anaviy yondashuvlarda tarix ta’limining asosiy maqsadi tarixiy faktlar, sanalar va voqealarni oʻzlashtirish bilan bogʻlangan boʻlsa, zamonaviy konsepsiyalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [1]. Tarixiy tafakkur deganda tarixiy voqealarni muayyan davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlari bilan bogʻliq holda tahlil qilish, tarixiy manbalarni tanqidiy baholash hamda tarixiy hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini tushuntirish qobiliyati tushuniladi. Ushbu kompetensiya oʻquvchiga tarixiy ma’lumotlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi va baholovchi subyekt sifatida faoliyat yuritish imkonini beradi.

Wineburgning fikricha, tarixiy tafakkur tabiiy ravishda shakllanmaydi. Inson oʻtmishni koʻpincha bugungi kun qadriyatlari va qarashlari orqali baholashga moyil boʻladi. Tarixiy

tafakkur esa voqealarni o‘z davrining sharoitlari nuqtai nazaridan tushunishni talab qiladi [1]. Shu sababli tarixiy manbalarni tahlil qilish, tarixiy kontekstni aniqlash va turli manbalarni o‘zaro qiyoslash tarixiy tafakkurning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Tarixiy jarayonlarni tanqidiy baholash o‘quvchilarda bir qator muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi: tarixiy manbalarning ishonchliligini aniqlash; turli nuqtai nazarlarni qiyosiy tahlil qilish; tarixiy dalillar asosida xulosalar chiqarish; sabab va oqibat munosabatlarini tushuntirish; tarixiy voqealarning bugungi kun bilan bog‘liqligini anglash. Mazkur kompetensiyalar faqat tarixiy bilimlarni chuqurlashtirib qolmay, balki shaxsning fuqarolik madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Chunki tarixiy tajribani anglagan shaxs jamiyat taraqqiyotining murakkab qonuniyatlarini chuqurroq tushuna boshlaydi.

Bugungi kunda xalqaro pedagogik tadqiqotlarda tarixiy tafakkur va fuqarolik ta’limi o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratilmoqda. Barton va Levstik tarix ta’limining asosiy maqsadi demokratik jamiyatda faol ishtirok eta oladigan fuqarolarni tarbiyalashdan iborat ekanligini ta’kidlaydilar [3]. Ularning fikricha, tarixiy voqealarni tanqidiy tahlil qilish o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat, adolat va fuqarolik burchiga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

**Raqamli makon va tarixiy ong transformatsiyasi.** Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tarixiy bilimlarni egallash usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Avvallari tarixiy ma’lumotlarning asosiy manbai darsliklar va ilmiy adabiyotlar bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda internet tarmoqlari tarixiy axborotlarning eng yirik manbalaridan biriga aylandi. Raqamli muhitning muhim afzalliklaridan biri tarixiy manbalarga keng kirish imkoniyatini yaratishidir. Elektron arxivlar, virtual muzeylar, interaktiv xaritalar va multimedia resurslari o‘quvchilarga tarixiy voqealarni yanada chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Masalan, ilgari faqat ilmiy markazlarda saqlangan hujjatlar yoki tarixiy xaritalar bugungi kunda raqamlashtirilgan holda keng jamoatchilikka taqdim etilmoqda.

Diego Miguel-Revilla va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli muhit tarixiy tafakkurni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi [2]. Tadqiqotchilar raqamli vositalar yordamida tarixiy manbalarni tahlil qilish, tarixiy ahamiyatni aniqlash va dalillarga asoslangan fikrlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydilar.

Biroq raqamli makonning salbiy jihatlari ham mavjud. Bugungi kunda algoritmlar asosida ishlovchi ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga ko‘pincha ularning mavjud qarashlariga mos axborotlarni taklif qiladi. Natijada shaxs turli nuqtai nazarlarni emas, balki faqat o‘z qarashlarini tasdiqlovchi ma’lumotlarni ko‘rishi mumkin. Bu esaб tarixiy voqealarga nisbatan biryoqlama qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Bundan tashqari, internet tarmoqlarida tarixiy faktlarni buzib talqin qiluvchi, tarixiy voqealarni siyosiy maqsadlarda manipulyatsiya qiluvchi yoki soxta tarixiy kontent tarqatuvchi manbalar ham uchrab turadi. Shu sababli tarix ta’limida o‘quvchilarni manbalarni tekshirish, dalillarni solishtirish va axborotlarning ishonchliligini aniqlashga o‘rgatish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish O‘zbekiston ta’lim siyosatining ham ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida zamonaviy va sifatli ta’lim muhitini yaratish hamda xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni rivojlantirish vazifalari belgilangan [5]. Shu nuqtai nazardan, tarix ta’limida raqamli vositalardan foydalanish nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, balki

o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim.

**Fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishda tarixiy jarayonlarni tanqidiy baholashning pedagogik mexanizmlari.** Fuqarolik mas’uliyati shaxsning jamiyat va davlat hayotida ongli ishtirok etishi, ijtimoiy jarayonlarga daxldorlik hissini anglab yetishi hamda o‘z huquq va majburiyatlarini mas’uliyat bilan bajarishga tayyorligi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda fuqarolik tarbiyasi tayyor bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki ijtimoiy voqelikni anglash, tahlil qilish va unga nisbatan ongli munosabat bildirish jarayoni sifatida talqin qilinadi [3].

Tarix ta’limi fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Chunki, tarix insoniyatning ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi fan bo‘lib, unda jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar va fuqarolarning tarixiy jarayonlardagi o‘rni namoyon bo‘ladi. Tarixiy voqealarni tanqidiy baholash jarayonida o‘quvchilar turli tarixiy qarorlarning oqibatlarini tahlil qiladilar, jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlaydilar hamda fuqarolik faolligining ahamiyatini anglaydilar. Masalan, tarixdagi islohotlar, mustaqillik uchun kurashlar, ijtimoiy harakatlar yoki davlat qurilishi bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil qilish o‘quvchilarga fuqarolarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini tushunishga yordam beradi. Bunday tahlil jarayonida tarixiy voqealar shunchaki o‘tmish hodisasi sifatida emas, balki bugungi kun uchun muhim saboq va tajriba manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Barton va Levstik tarix ta’limining asosiy vazifalaridan biri demokratik jamiyatda faol ishtirok eta oladigan fuqarolarni tarbiyalash ekanligini ta’kidlaydilar [3]. Ularning fikricha, tarixiy voqealarni turli nuqtai nazarlardan tahlil qilish o‘quvchilarda bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik madaniyatini rivojlantiradi. Raqamli makonda fuqarolik mas’uliyati masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki bugungi yoshlar nafaqat real hayotda, balki virtual makonda ham fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadilar. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan tarixiy ma’lumotlarni tanqidiy baholay olish, yolg‘on axborotlarni aniqlash va mas’uliyatli axborot iste’molchisi bo‘lish fuqarolik kompetensiyalarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu jihatdan qaraganda, tarix ta’limi raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tarixiy manbalarni tahlil qilish va baholash jarayonida shakllangan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari keyinchalik ijtimoiy-siyosiy va madaniy axborotlarni baholashda ham qo‘llaniladi.

**Axloqiy pozitsiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.** Tarix ta’limining muhim tarbiyaviy vazifalaridan biri o‘quvchilarning axloqiy qarashlari va qadriyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Tarixiy voqealar insoniyatning ezgulik va yovuzlik, adolat va zulm, mas’uliyat va loqaydlik o‘rtasidagi murakkab kurashini aks ettiradi. Shu sababli tarixiy jarayonlarni o‘rganish axloqiy tarbiya uchun boy didaktik imkoniyatlar yaratadi. Pedagogik nuqtai nazardan, axloqiy pozitsiya tayyor shaklda o‘zlashtiriladigan bilim emas. U shaxsning mustaqil fikrlashi, dalillarni tahlil qilishi va muayyan qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishi natijasida shakllanadi. Tarixiy voqealarni tanqidiy baholash esa aynan shu jarayonni rag‘batlantiradi. Masalan, tarixdagi murakkab va bahsli voqealarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar turli tarixiy shaxslar faoliyatiga baho beradilar. Bunda o‘quvchi tayyor hukmni qabul qilmaydi, balki dalillar asosida mustaqil xulosa chiqarishga harakat qiladi. Natijada uning axloqiy tafakkuri faollashadi. Bugungi tarix didaktikasida axloqiy dilemma metodidan foydalanish samarali usullardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur metodda o‘quvchilarga tarixiy vaziyat taqdim etilib, undagi qarorlarning axloqiy jihatlari tahlil qilinadi. Bunday

yondashuv o‘quvchilarda nafaqat tarixiy tafakkurni, balki axloqiy mulohaza yuritish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Tarixiy jarayonlarni tanqidiy baholash orqali quyidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish mumkin: adolat va haqiqatga intilish; mas’uliyat hissi; bag‘rikenglik; inson qadr-qimmatiga hurmat; vatanparvarlik; ijtimoiy faollik; tarixiy merosga ehtirom. Ayniqsa, raqamli makonda yoshlarning turli mafkuraviy va axborot ta’sirlariga duch kelayotganini hisobga olsak, tarixiy voqealarni dalillar asosida tahlil qilish ularda mustaqil va mas’uliyatli axloqiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

**O‘zbekiston ta’lim siyosati va amaliyotidagi ustuvor vazifalar.** So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va zamonaviy kompetensiyalar asosida tarbiyalashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda tarix ta’limining mazmunini takomillashtirish va uning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida shaxsning intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishini ta’minlash vazifasi belgilangan [4]. Mazkur talab tarix ta’limida faqat faktologik bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va fuqarolik mas’uliyati kompetensiyalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida esa inson kapitalini rivojlantirish, sifatli ta’lim muhitini yaratish hamda yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [5]. Mazkur maqsadlar tarix ta’limida tanqidiy baholash yondashuvlarini keng joriy etishni talab etadi. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishda manbalar bilan ishlash, loyiha faoliyati, muammoli ta’lim va interaktiv metodlardan foydalanish amaliyoti kengayib bormoqda. Biroq raqamli axborot makonining jadal rivojlanishi ushbu yo‘nalishda yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Xususan, tarix darslarida: raqamli tarixiy manbalarni tahlil qilish; internetdagi tarixiy axborotlarning ishonchliligini baholash; tarixiy voqealarning turli talqinlarini qiyoslash; tarixiy muammolar bo‘yicha munozaralar tashkil etish; tarixiy va axloqiy dilemmalar asosida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish kabi metodlardan foydalanish fuqarolik mas’uliyati va axloqiy pozitsiyani shakllantirish samaradorligini oshirishi mumkin. Shuningdek, tarix ta’limini fuqarolik tarbiyasi, media savodxonlik va raqamli madaniyat bilan integratsiyalash zamonaviy ta’limning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Raqamli axborot makonining kengayishi tarix ta’limi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Tarixiy bilimlarning turli raqamli manbalar orqali tarqalishi o‘quvchilarda tarixiy axborotlarni tanqidiy tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarixiy jarayonlarni tanqidiy baholash o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda fuqarolik mas’uliyati va axloqiy pozitsiyasini shakllantirishning ham samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Mazkur yondashuv yoshlarning dalillarga asoslangan fikrlashi, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabatda bo‘lishi, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalanishi hamda raqamli makonda mas’uliyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni qiyoslash va tarixiy voqealarning ijtimoiy-axloqiy mazmunini anglash orqali o‘quvchilarda fuqarolik madaniyati, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy barqarorlik rivojlanadi. Shu bois tarix ta’limi jarayonida raqamli texnologiyalar, tarixiy tafakkur va tanqidiy baholash metodlarini integratsiyalash zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Mazkur

yondashuv O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, sifatli ta’limni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan vazifalarning amaliy ijrosiga xizmat qiladi [4-5].

**Adabiyotlar**


1. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. – Philadelphia: Temple University Press, 2001. – 255 p.
2. Miguel-Revilla D., Martínez-Ferreira J.M., Sánchez-Agustí M. Assessment of Historical Thinking in Digital Environments: A Systematic Review // Educatio Siglo XXI. – 2021. – Vol. 39(3). – P. 13–34.
3. Barton K.C., Levstik L.S. Teaching History for the Common Good. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2004. – 280 p.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2023.


## RAQAMLI MAKONDA O‘SMIRLAR AGRESSIV XULQ-ATVORINING OLDINI OLISHDA TARBIYAVIY FAOLIYATNING O‘RNI


**Samiyeva Shirin Abdumalik qizi, TPMI tayanch doktoranti**



**Annotatsiya.** Mazkur tezisda raqamli makonning o‘smirlar xulq-atvoriga ta’siri, internet muhitida agressiv xatti-harakatlarning shakllanish omillari hamda ularning oldini olishda tarbiyaviy faoliyatning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, oila, maktab va jamiyat hamkorligi asosida agressiv xulq-atvor profilaktikasini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari yoritiladi.



**Kalit so‘zlar:** raqamli makon, internet muhiti, o‘smirlar, agressiv xulq-atvor, tarbiyaviy faoliyat, media savodxonlik, kiberbulling, profilaktika, ijtimoiy-pedagogik yondashuv.



**Abstract.** This thesis analyzes the impact of the digital environment on adolescent behavior, the factors contributing to the formation of aggressive behavior in the Internet environment, and the significance of educational activities in preventing such behavior. Furthermore, the socio-pedagogical aspects of improving the prevention of aggressive behavior through the cooperation of family, school, and society are highlighted.



**Key words:** digital environment, Internet environment, adolescents, aggressive behavior, educational activities, media literacy, cyberbullying, prevention, socio-pedagogical approach.



**Аннотация.** В данной статье анализируется влияние цифрового пространства на поведение подростков, факторы формирования агрессивного поведения в интернет-среде, а также значение воспитательной деятельности в предупреждении подобных проявлений. Кроме того, освещаются социально-педагогические аспекты совершенствования профилактики агрессивного поведения на основе сотрудничества семьи, школы и общества.



**Ключевые слова:** цифровое пространство, интернет-среда, подростки, агрессивное поведение, воспитательная деятельность, медиаграмотность, кибербуллинг, профилактика, социально-педагогический подход.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida internet va ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamli makon yoshlarning bilim olish, muloqot qilish va dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatlarini yaratishi bilan birga, ularning ruhiyati va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallar, kiberbulling, virtual tahdidlar va agressiv kontentlarning keng tarqalishi o‘smirlarda agressiv xulq-atvor shakllanishiga sabab bo‘layotgan omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘smirlik davri shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda hissiy beqarorlik, mustaqillikka intilish va tengdoshlar ta’sirining kuchayishi sababli internet orqali olinayotgan axborotlar o‘smirlarning xatti-harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois raqamli makonda agressiv xulq-atvorning oldini olish bugungi pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Internet muhitida agressiv xulq-atvorning shakllanishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, zo‘ravonlik sahnalari mavjud bo‘lgan videolar, kompyuter o‘yinlari va ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontentlar agressiv xatti-harakatlarni odatiy hol sifatida qabul qilishga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, anonimlik imkoniyati ayrim o‘smirlarni mas’uliyatsiz xulq-atvor ko‘rsatishga undaydi. Uchinchidan, virtual muloqotda emotsional nazoratning pasayishi kiberbulling va kiberagressiya holatlarining ortishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, internetdan nazoratsiz va maqsadsiz foydalanish o‘smirlarda tajovuzkorlik, jahldorlik, empatiya darajasining pasayishi hamda ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olishda tarbiyaviy faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyat deganda, yosh avlodda ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar, ma’naviy fazilatlar va ijobiy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon tushuniladi. Raqamli makon sharoitida tarbiyaviy faoliyatning asosiy vazifasi o‘smirlarni internetdan ongli va xavfsiz foydalanishga o‘rgatish, ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda virtual tahdidlarga nisbatan immunitet hosil qilishdan iborat . Agressiv xulq-atvor profilaktikasida media savodxonlik alohida o‘rin tutadi. Media savodxonlik o‘smirlarning internetdagi axborotlarni tahlil qilish, baholash va tanlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, ular zararli axborotlarning salbiy ta’siriga kamroq duch keladilar. Shu bilan birga, media savodxonlik kiberbulling, manipulyatsiya va yolg‘on axborotlarni aniqlash imkonini ham beradi.

Maktab tarbiyaviy faoliyatining mazmuniga raqamli xavfsizlik va internet madaniyatiga oid mashg‘ulotlarni kiritish bugungi kun talabidir. Sinf soatlarida internet etikasi, virtual muloqot qoidalari, kiberxavfsizlik va axborot madaniyati masalalariga e’tibor qaratilishi lozim. Bu esa o‘smirlarda mas’uliyatli raqamli fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Oila ham agressiv xulq-atvor profilaktikasining muhim subyekti hisoblanadi. Ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanish jarayonini nazorat qilishi, ular bilan muntazam muloqot olib borishi va virtual muhitdagi muammolar yuzasidan maslahat berishi zarur. Oila muhitidagi sog‘lom psixologik iqlim o‘smirlarning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini kamaytiradi. Shuningdek, mahalla, yoshlar tashkilotlari va psixologik xizmatlarning hamkorligi asosida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish ijobiy natijalar beradi. Treninglar, davra suhbatlari, interaktiv mashg‘ulotlar va psixologik maslahatlar o‘smirlarda konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Raqamli makonda o‘smirlar agressiv xulq-atvorining oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: ta’lim muassasalarida media savodxonlik bo‘yicha maxsus dasturlarni joriy etish; internet xavfsizligiga oid interaktiv

treninglar tashkil qilish; ota-onalarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini oshirish; kiberbulling va kiberagressiyaga qarshi profilaktik loyihalarni kengaytirish; oila, maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish; o‘smirlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli makon o‘smirlar rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, agressiv xulq-atvor shakllanishiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday salbiy holatlarning oldini olishda tarbiyaviy faoliyat muhim vosita hisoblanadi. Media savodxonlikni rivojlantirish, internet madaniyatini shakllantirish hamda oila, maktab va jamiyat hamkorligini kuchaytirish orqali o‘smirlarning sog‘lom ijtimoiylashuviga erishish mumkin. Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida raqamli tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2008.

4. Bandura A. Aggression: a social learning analysis. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1973. – 390 p

5. Berkowitz L. Aggression: its causes, consequences and control. – New York: McGraw-Hill, 1993. – 400 p.

6. Anderson C.A., Bushman B.J. Human aggression // Annual Review of Psychology. – 2002. – Vol. 53. – P. 27-51.

7. Hinduja S., Patchin J.W. Bullying beyond the schoolyard: preventing and responding to cyberbullying. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2018. – 280 p.

8. Livingstone S. Children and the Internet: great expectations, challenging realities. – Cambridge: Polity Press, 2009. – 304 p.

9. Ergasheva M.U. O‘smirlarning deviant xulq-atvorini psixologik korreksiya qilishning samarali yo‘llari: Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2020. – 138 b.

10. G‘oziev E.G‘. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2019. – 320 b.

11. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 336 b.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM VA TARBIYA JARAYONLARIDA AXLOQIY KONTENTLAR MAZMUNI

**Sanakulova Sarviniso Xamrakulovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Tarbiya pedagogikasi milliy instituti katta ilmiy xodimi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning mazmuni, zamonaviy pedagogik uslublaridan foydalanish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalashda axloqiy kontentlarning ahamiyati haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** tarbiya, axloqiy kontent, tarbiya jarayoni, tarbiyaviy maqsad, zamonaviy texnologiyalar, ta’limiy o‘yinlar.

**Tarbiya jarayoni** o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‘quvchining ongi shakllanib boradi. His-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta’siri bolaning ularga munosabati, bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e’tiborga molikdir. Ulardan o‘zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi. Tarbiya jarayoni o‘quvchining ongini emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. O‘quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Boshlang‘ich ta'limdagi tarbiya jarayoni bola rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir. Bu bolaning akademik o‘sishidan tashqari, uning ijtimoiy, hissiy va axloqiy rivojlanishini qasddan va tizimli ravishda rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu kurs ishida men boshlang‘ich ta’limdagi tarbiya jarayonining mazmuni, jumladan, maqsadlar, strategiyalar va vazifalarni muhokama qilaman. Boshlang‘ich ta’limdagi tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bolalarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdir. Bu ularning kognitiv, ijtimoiy, hissiy va axloqiy rivojlanishini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar xavfsiz va qo‘llabquvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish uchun ishlaydi, bu yerda bolalar o‘zlarini qadrli va hurmatli his qilishadi. Shuningdek, ular bolalarning muloqot, hamdardlik va hamkorlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarini, masalan, guruhlarda ishlash va jamoat xizmati loyihalari orqali rivojlantirishga yordam beradi. Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa, ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi. Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

*Zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifasi* – o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, o‘z xalqining ilg‘or o‘tmishiga, milliy va jahon madaniyatiga chuqur qiziqish orqali uning intellektual, axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini insonparvarlik, axloqiy va mas’uliyatli bog‘liqlik tamoyillari asosida ijobiy millatlararo muloqot va munosabatlar doirasiga jalb etish millatlararo va shaxslararo muloqot sohasida ijtimoiy-etnik xulq-atvor me’yorlari, millatlararo munosabatlar madaniyati namunasini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa, dars va darsdan tashqari vaqtlarda millatlararo muloqot doirasini kengaytirish istiqbollarini namoyon etadi.

Axloq tarbiyasi insonlarga eng muhim, ziyoda-sharif, baland daraja beruvchi tarbiyadir. Axloq tarbiyasining maqsadi shaxsni Axloqiy shakllantirishdir. Shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo‘lgan Axloqiy ong, xissiyot va xulqni shakllantirish, Vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, O‘zbekiston gerbi, bayrog‘i madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, ongli intizom va boshqa tuyg‘ularni kamol toptirish Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalarini tashkil qiladi.

Axloqiy tarbiya mazmuni avvalo bolalarning amaliy faoliyatida o‘qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida ularning munosabatlari xarakterida, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish usullari, xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishlarida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarda darsda, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yaxshi xulq-atvor fazilatlari, xushmuomalalik, ota-onaga xurmat, kattalarni siylash, xizmatlarida bo‘lish, oq ko‘ngillilik, raxmdillik, saxiylik, xallolik, to‘g‘rilik, imon-e’tiqodlilik, el-yurt, vatanga muhabbat, unga sadoqatlilik, ishbilarmonlilik, mehnatga ixlosmandlik kabi fazilatlarni tarbiyalash axloqiy tarbiya mazmunini tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limdagi tarbiya jarayoni bola rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir. Bu bolaning akademik o‘sishidan tashqari, uning ijtimoiy, hissiy va axloqiy rivojlanishini qasddan va tizimli ravishda rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ijobiy xulq-atvor, axloqiy rivojlanish, hissiy intellekt va boshqa strategiyalarni targ‘ib qilish orqali o‘qituvchilar bolalarga maktabda va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

2. Ибраимов Х., Қуронов М. Умумий педагогика: Дарслик. – Т.: Sahhof, 2023.

3. Usmonova S. Ta’lim jarayonida noan’anaviy darslarga ijodiy yondashish usullari // Pedagogik mahorat. – B., 2005. – 2-son. – B. 19-21.

## O‘QUVCHILARDA FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Safarova R., Tarbiya pedagogikasi milliy instituti**
**“Milliy tarbiya mutafakkirlar hamda jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy-tadqiqot bo‘limi boshlig‘i, p.f.d., professor**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatning shaxs tarbiyasida ustuvorligi, bu sohada mavjud bo’lgan xalqaro dasturlar va yondashuvlar, ulardan foydalanish imkoniyati, fuqarolik faolligi hamda ijtimoiy mas’uliyatli shaxsning

jamiyat hayotida tutgan o’rni, uni tarbiyalash jarayonida qo’llaniladigan metoflar haiqda fikr yuritilgan. Maqola ilmiy-pedagogik jamoatchilik uchun manba bo’lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, siyosiy bilimdonlik, xalqaro tajribalar, dastur, konsepsiya, loyiha metodi, debat texnologiyasi, volontyorlik faoliyati, keys-stadi, rolli o‘yinlar, muammoli ta’lim va hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari.

Hozirgi globallashuv sharoitida demokratik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganligi, aholining ijtimoiy hayotdagi ishtiroki hamda har bir shaxsning o‘z fuqarolik burchi va mas’uliyatini anglashi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash dunyo mamlakatlari ta’lim tizimlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon faqat huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarda ijtimoiy ong, demokratik qadriyatlarga hurmat, tashabbuskorlik, hamkorlik, jamoat ishlarida ishtirok etishga tayyorlik va jamiyat oldidagi mas’uliyatni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Zamonaviy xalqaro konsepsiyalarda fuqarolik tarbiyasi insonning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga qaratilgan kompleks jarayon sifatida talqin qilinadi. Jumladan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “Global fuqarolik ta’limi” (GCED) konsepsiyasiga ko‘ra, har bir yosh yigit, qiz o‘zini nafaqat ma’lum bir davlat fuqarosi, balki global hamjamiyatning mas’ul a’zosi sifatida his qilishi lozim. Ushbu yondashuv inson huquqlarini hurmat qilish, madaniyatlararo muloqot, tinchlikparvarlik, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish g‘oyalarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilar ijtimoiy muammolarni anglash, ularning yechimlarini izlash va mazkur jarayonlarda faol ishtirok etishga o‘rgatiladi.

**Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “2030-yil uchun ta’lim kompasi”** konsepsiyasida ham fuqarolik faolligi ta’limning muhim natijalaridan biri sifatida talqin etilgan. Mazkur konsepsiyada “o‘quvchining subyektiv faolligi” tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Bu o‘quvchining o‘z hayoti va atrofidagi ijtimoiy muhitga ta’sir ko‘rsata olish ko’nikmasiga egaligini anglatadi. Unga ko‘ra, yoshlar faqat bilim egallovchi ob’ekt emas, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan faol sub’ekt sifatida tarbiyalanishi lozim. Bu esa, ularda mas’uliyatli qaror qabul qilish, tashabbus ko‘rsatish, jamoa bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmaslik kabi sifatlarni rivojlantirishni talab etadi.

Yevropa Kengashining Demokratik madaniyat kompetensiyalari modeli ham fuqarolik tarbiyasi sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur model demokratik jamiyatda yashash uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar, munosabatlar, ko‘nikmalar va bilimlarni shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Unda inson qadrini hurmat qilish, bag‘rikenglik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijtimoiy mas’uliyat va demokratik qaror qabul qilish madaniyati asosiy kompetensiyalar sifatida belgilangan. Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish mazkur yo‘nalishda bir qator samarali amaliy tajribalar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida fuqarolik tarbiyasi alohida fan sifatida emas, balki barcha o‘quv fanlari va maktab hayotiga integratsiya qilingan holda amalga oshiriladi.

O‘quvchilar mahalliy jamoalar hayotida ishtirok etadilar, ekologik loyihalarni amalga oshiradi, maktab boshqaruvida qatnashadilar va jamoaviy qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu esa, ularda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish bilan birga, o‘z fikrini erkin bildirish va boshqalarning fikrini erkin bayon etish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

AQSh ta’lim tizimida keng qo‘llaniladigan “ijtimoiy xizmat orqali ta’lim” texnologiyasi o‘quvchilarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish hamda ularda fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv doirasida o‘quvchilar muayyan ijtimoiy muammoni aniqlaydilar, uni hal etish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. Masalan, ekologik muammolarni hal qilish, ehtiyojmand aholiga ko‘mak berish, mahalliy hududlarni obodonlashtirish kabi ishlar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etadilar, valontyorlik harakatlarida qatnashadilar. Bu jarayon ularda jamoa manfaatlariga xizmat qilish, hamdardlik, tashabbuskorlik va mas’uliyat kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi.

Germaniya tajribasida fuqarolik tarbiyasi siyosiy ta’lim bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Maktablarda parlament modellari, saylov simulyatsiyalari, debatlar va munozaralar muntazam tashkil etiladi. O‘quvchilar ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, o‘z nuqtai nazarini asoslash va demokratik muhokamalarda ishtirok etishga o‘rgatiladi. Bu esa, ularda tanqidiy fikrlash, huquqiy madaniyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yaponiya va Janubiy Koreya ta’lim tizimida esa, jamoaviy mas’uliyat va ijtimoiy intizomni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar maktab hududini tozalash, sinf xonalarini tartibga keltirish, jamoaviy tadbirlarni tashkil etish kabi ishlarga muntazam jalb qilinadilar. Bu jarayon orqali ularda mehnatsevarlik, intizom, hamkorlik va umumiy manfaat uchun mas’ullik tuyg‘usi shakllanadi.

Fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalashda qo‘llaniladigan pedagogik metodikalar orasida loyiha metodi, debat texnologiyasi, volontyorlik faoliyati, keys-stadi, rolli o‘yinlar, muammoli ta’lim va hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari alohida ahamiyatga ega. Loyiha metodi o‘quvchilarni ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni mustaqil tahlil qilish va ularning yechimini ishlab chiqishga o‘rgatadi. Debat texnologiyasi esa, demokratik muloqot madaniyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlash va asoslangan xulosalar chiqarish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Volontyorlik faoliyati yoshlarda mehr-oqibat, hamdardlik va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Keys-stadi va rolli o‘yinlar orqali esa turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish va ularga nisbatan munosabat bildirish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda bir qator pedagogik mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, kognitiv mexanizm orqali o‘quvchilarda fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va demokratik qadriyatlar haqida tizimli bilimlar shakllantiriladi. Aksiologik mexanizm yordamida esa, adolat, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, hamjihatlik va insonparvarlik kabi qadriyatlar o‘quvchilarning shaxsiy e’tiqodiga aylantiriladi. Faoliyatli mexanizm orqali ular ijtimoiy loyihalar, volontyorlik harakatlari va jamoatchilik ishlarida bevosita ishtirok etishga jalb qilinadi. Kommunikativ mexanizm o‘quvchilarda hamkorlik qilish, muloqot olib borish, bahs-munozaralarda qatnashish va kelishuvga erishish ko‘nikmalarini shakllantirsa, refleksiv mexanizm o‘z faoliyatini baholash, jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglash va o‘zini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu xorijiy tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy etishning bir qator ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari mavjud. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya”, “Davlat va huquq asoslari”, “Tarix”, “Ona tili va adabiyot” fanlariga fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlarni integratsiya qilish mumkin. Shuningdek, maktab parlamentlari faoliyatini rivojlantirish, o‘quvchilarning ijtimoiy loyihalarda ishtirokini kengaytirish, volontyorlik harakatlarini yo‘lga qo‘yish va

mahalla bilan hamkorlikda tarbiyaviy dasturlarni tashkil etish yuqori samara beradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning fuqarolik faolligi darajasini baholash uchun tashabbuskorlik, ijtimoiy ishtirok, jamoada ishlash, mas’uliyatli qaror qabul qilish va ijtimoiy loyihalarda qatnashish kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish talab qiladi. Shunday qilib, xalqaro pedagogik tajribalar tahlili yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning samarali modeli bilim, qadriyat, amaliy faoliyat, ijtimoiy hamkorlik va refleksiyaning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanishini ko‘rsatadi. Mana shu yondashuvlarni milliy ta’lim tizimi sharoitiga moslashtirib joriy etish O‘zbekistonda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijtimoiy mas’uliyatli va tashabbuskor yosh avlodni tarbiyalash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

**Adabiyotlar**


1. UNESCO. Global citizenship education: topics and learning objectives. – Paris: UNESCO, 2015.
2. UNESCO. Global citizenship education: preparing learners for the challenges of the Twenty-First century. – Paris: UNESCO, 2014.
3. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. – Paris: OECD Publishing, 2019.
4. Council of Europe. reference framework of competences for democratic culture. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2018.
5. Dewey J. Democracy and education. – New York: Macmillan, 1916.
6. Eyler J., Giles D.E. Where’s the learning in service-learning? – San Francisco: Jossey-Bass, 1999.
7. Westheimer J., Kahne J. What kind of citizen? The politics of educating for democracy // American educational research journal. – 2004. – Vol. 41. – No. 2. – P. 237–269.
8. Schulz W., Ainley J., Fraillon J., Losito B. Becoming citizens in a changing world: IEA International civic and citizenship education study 2016 International Report. – Amsterdam: IEA, 2018.


## XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA YOSH AVLODNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT RUHIDA TARBIYALASH YO‘NALISHLARI


**Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi, Abdumuradova Dilnoza Azimjon qizi, TPMI tayanch doktorantlari**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlodni fuqarolik faolligi hamda ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. AQSh, Finlyandiya, Yaponiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg‘or pedagogik tajribalari o‘rganilib, ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, yoshlarning fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan milliy normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan.



**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, tarbiya, xalqaro tajriba, demokratik kompetensiyalar, yoshlar siyosati, global fuqarolik, ta’lim islohoti.

XXI asrda jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganligi, yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki hamda ularning jamiyat oldidagi mas'uliyat hissining shakllanganligi bilan belgilanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shaxsni faqat bilim egallovchi subyekt sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotiga daxldor bo'lgan faol fuqaro sifatida shakllantirish zarurligini taqozo etmoqda.

Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi, raqamli kommunikatsiyalarning keng tarqalishi yoshlar ongiga turli mafkuraviy va madaniy ta'sirlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, tanqidiy fikrlaydigan, ijtimoiy tashabbuskor va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish masalasi ta'lim tizimining faqat tarbiyaviy komponenti sifatida emas, balki kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda fuqarolik kompetensiyasi shaxsning demokratik qadriyatlarni anglash, jamiyat hayotida faol ishtirok etish, inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish va ularni amalga oshirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan "Demokratik madaniyat kompetensiyalari" modeliga ko'ra, yoshlarning fuqarolik faolligini shakllantirish quyidagi to'rtta yo'nalish orqali amalga oshiriladi: qadriyatlar tizimini rivojlantirish, munosabatlar va ijtimoiy pozitsiyalarni shakllantirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, tanqidiy bilim va tushunchalarni egallash. Mazkur yondashuv yoshlarning ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildirishiga, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qila olishiga hamda mas'uliyatli qarorlar qabul qilishiga imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun**,** "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "2030-yilgacha xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" yoshlarni vatanparvarlik, mas'uliyat va faol fuqarolik ruhida tarbiyalashning huquqiy asoslarini tashkil etadi.

Pedagogika fanida fuqarolik faolligi shaxsning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, davlat va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlarga befarq bo'lmasligi, ijtimoiy tashabbus ko'rsatishi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy mas'uliyat esa insonning o'z xatti-harakatlari oqibatlarini anglab yetishi, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya olishi, axloqiy me'yorlarga amal qilishi bilan izohlanadi.

*Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda mazkur kompetensiyalar quyidagi tarkibiy komponentlardan iboratligi ta'kidlanadi:* kognitiv komponent; emotsional-qadriyatli komponent; xulq-atvor komponenti; refleksiv komponent.

UNESCO ekspertlari fuqarolik kompetensiyalarini inson huquqlariga hurmat, tolerantlik, ekologik mas'uliyat, ijtimoiy birdamlik va demokratik qadriyatlarga sodiqlik bilan bog'laydilar.

Finlyandiya tajribasi. Finlyandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu davlatda fuqarolik tarbiyasi alohida fan sifatida emas, balki barcha o'quv predmetlariga integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi

Fin maktablarida: loyiha asosida o‘qitish, jamoaviy qaror qabul qilish, maktab parlamentlari, volontyorlik faoliyati, orqali o‘quvchilarda fuqarolik kompetensiyalari shakllantiriladi. Ta’limning asosiy maqsadi – “mas’uliyatli va baxtli fuqaro”ni tarbiyalashdan iborat.

AQSh tajribasi. AQSh maktablarida Civic Education konsepsiyasi keng qo‘llaniladi. Asosiy yo‘nalishlar: konstitutsiyani o‘rganish, jamoatchilik loyihalari, Service, debat texnologiyalari. Service Learning modeli yoshlarni ijtimoiy muammolarni hal etishga jalb etish orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilar nogironlarga yordam berish, ekologik aksiyalar, xayriya tadbirlari orqali ijtimoiy tajriba orttiradilar.

Yaponiya tajribasi. Yaponiyada fuqarolik va axloqiy tarbiya davlat siyosatining muhim qismi hisoblanadi. “Moral Education” kurslari orqali o‘quvchilarda burch hissi, intizom, kattalarga hurmat, jamoaga sadoqat tarbiyalanadi. Har kuni sinf xonalarini o‘quvchilarning o‘zlari tozalashi ham ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi.

Singapur tajribasi. Singapur maktablarida Character and Citizenship Education (CCE) dasturi joriy etilgan. Dastur quyidagilarni rivojlantirishga qaratilgan: liderlik, milliy identifikatsiya, fuqarolik ongini shakllantirish, ko‘ngillilik faoliyati. O‘quvchilar muntazam ravishda ijtimoiy xizmat loyihalarida qatnashadilar.

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreyada maktablar va mahalliy hamjamiyatlar hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilgan. Yoshlar: mahalliy kengashlar, ekologik tashabbuslar, jamoat monitoringi faoliyatlarida ishtirok etadilar. Bu esa, ularda mas’uliyat va fuqarolik faolligini oshiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro tajribalarni joriy etish imkoniyatlari. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. PF-60-son Farmonda yoshlarni zamonaviy kompetensiyalar asosida tarbiyalash ustuvor vazifalar qatorida belgilangan. Shuningdek, PQ-3907-son qaror bilan tasdiqlangan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi yoshlarni: vatanparvarlik, tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik, media madaniyat ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi.

*Xalqaro tajribalar asosida quyidagi yo‘nalishlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:*

1. Maktab parlamentlarini rivojlantirish. O‘quvchilarni maktab boshqaruviga jalb qilish ularning demokratik madaniyatini rivojlantiradi.

2. Volontyorlik faoliyatini kengaytirish. Ko‘ngillilik dasturlari yoshlarning jamiyatga daxldorlik hissini oshiradi.

3. Service Learning texnologiyalarini joriy etish. Fanlarni real hayot muammolari bilan integratsiyalash imkonini beradi.

4. Raqamli fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. Axborot xavfsizligi, media savodxonlik va raqamli etikani o‘rgatish zarur.

5. Debat va munozara texnologiyalaridan foydalanish. Tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va tolerantlikni rivojlantiradi

Xalqaro pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash faqat alohida fanlarni o‘qitish orqali emas, balki butun ta’lim muhitini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish orqali samarali amalga oshiriladi. Finlyandiya, AQSh, Yaponiya, Singapur va Janubiy Koreya tajribalarining ilg‘or jihatlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish yoshlarning ijtimoiy tashabbuskorligini

oshirish, ularda jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirish hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan faol fuqarolarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2016.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2019.
5. UNESCO. Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the Twenty-first Century. Paris, 2015.
6. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2019.
7. Banks J.A. Diversity and Citizenship Education. – New York: Routledge, 2017.

## RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA YOSHLARNI FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYATGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

**Tayirova Muhabbat Ataxanovna, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti katta ilmiy xodimi, p.f.b.f.d., PhD**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida yoshlarni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatga yo‘naltirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlarning ijtimoiylashuvi, axborot bilan ishlash madaniyati hamda fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, raqamli platformalar, media savodxonlik va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli jamiyat, fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, pedagogik yondashuv, media savodxonlik, raqamli ta’lim, interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish, axborot madaniyati, innovatsion ta’lim.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida jamiyatning barcha sohalari, xususan, ta’lim tizimi ham tubdan o‘zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida bilim olish manbalari kengayib, ta’lim jarayoni an’anaviy auditoriya chegarasidan chiqib, raqamli muhitga faol integratsiyalashmoqda. Bu esa yoshlarning nafaqat bilim olish usullarini, balki ularning fikrlash tarzi, qadriyatlari, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligini ham sezilarli darajada o‘zgartirmoqda.

Raqamli texnologiyalar yoshlarning axborotga bo‘lgan munosabatini tezkor, interaktiv va tanqidiy yondashuv asosida shakllantirmoqda. Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi ularning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, noto‘g‘ri yoki manipulyativ ma’lumotlarga duch kelish xavfini ham oshirmoqda.

Bunday sharoitda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – yoshlarni raqamli savodxonlik, axborot madaniyati hamda tanqidiy fikrlash kompetensiyalari bilan qurollantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda.

Raqamli jamiyat sharoitida yoshlar axborot oqimining markazida faol hayot kechirmoqda. Bu holat ularning dunyoqarashi, ijtimoiy qarashlari hamda qadriyatlar tizimining shakllanishiga bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Axborotga tezkor kirish imkoniyati bir tomondan bilim olishni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan ortiqcha axborot oqimi, ishonchsiz manbalar, noto‘g‘ri ma’lumotlar hamda manipulyativ kontentlar yoshlarning ijtimoiy fikrlashi va qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir etishi mumkin. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida yoshlarni tanqidiy fikrlash, axborotlarni tahlil qilish hamda media savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa sifatida qaraladi.

Mazkur sharoitda fuqarolik faolligini rivojlantirish masalasi ham yangi mazmun kasb etadi. Raqamli muhitda shakllanayotgan yosh avlodni ijtimoiy mas’uliyatli, tashabbuskor va faol fuqarolar sifatida tarbiyalash uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlardan kompleks foydalanish zarur. Xususan, fuqarolik faolligini rivojlantirishda quyidagi pedagogik yondashuvlar ilmiy jihatdan samarali hisoblanadi: shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faol o‘qitish metodlari, loyiha asosida o‘qitish hamda hamkorlik pedagogikasi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlari inobatga olinadi. Bu esa, o‘quvchida o‘zini anglash, mustaqil fikrlash hamda jamiyatdagi o‘rnini to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

*Faol o‘qitish metodlari* – munozara, debat, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (keys-stadi) kabi interaktiv usullar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy jarayonlarga nisbatan faol munosabati shakllantiriladi. Bunday metodlar nafaqat bilimni o‘zlashtirishni, balki uni amaliy vaziyatlarda qo‘llashni ham ta’minlaydi.

Loyiha asosida o‘qitish esa o‘quvchilarni real ijtimoiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni hal etishga yo‘naltirilgan faoliyatga jalb etadi. Bu jarayonda o‘quvchilar jamoada ishlash, mas’uliyatni taqsimlash va yakuniy natija uchun javobgarlikni his etish kabi muhim fuqarolik kompetensiyalarini egallaydilar. Hamkorlik pedagogikasi esa, guruhda ishlash madaniyatini rivojlantirib, ijtimoiy muloqot, o‘zaro hurmat va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda raqamli platformalar yoshlarning fuqarolik faolligini oshirishda muhim vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Onlayn muhokamalar, elektron petisiyalar, ta’limiy bloglar, forumlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etish, o‘z fikrini bildirish va ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitda axborot xavfsizligi, media etikasi va kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki noto‘g‘ri axborotdan himoyalanish fuqarolik madaniyatining muhim tarkibiy qismidir. Zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi shaxs sifatida emas, balki ta’lim jarayonini yo‘naltiruvchi, motivatsiya beruvchi hamda raqamli muhitda tarbiyaviy jarayonni samarali boshqaruvchi yetakchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat, tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash madaniyati hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, raqamli jamiyat sharoitida raqobatbardosh, ongli va faol fuqarolarni tarbiyalashga erishiladi.

Raqamli jamiyat sharoitida yoshlarni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatga yo‘naltirish zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb va strategik vazifalaridan biri

hisoblanadi. Bugungi kunda global axborot oqimining tezlashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ta’lim jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki shaxsning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va mas’uliyat hissini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamli ta’lim texnologiyalari hamda interaktiv metodlardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirish bilan birga, yoshlarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, gamifikatsiya va onlayn hamkorlik platformalari orqali tashkil etilgan darslar yoshlarning faol ishtirokini ta’minlaydi hamda ularni jamiyat hayotiga yaqinlashtiradi.

**Adabiyotlar**


1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – T., 2020.
2. G‘afforova T. Pedagogika (umumiy pedagogika asoslari). – T.: Tafakkur, 2019.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2018.
4. Tayirova M.A. Multimedia technologies in the context of educational informatization role and importance // The role of science and innovation in the modern world: International scientific and practical conference. – London, United Kingdom. 28.02.2023. – P. 111-117.
5. Tayirova M.A. Possibilities of using multimedia technologies in the educational system // Current research journal of pedagogics / SJIF (Impact Factor) 2023-7.266. DOI-10.37547/crjp. Vol. 04. Issue 02. 2023. ISSN 2767-3278 February 28, 2023. – P. 21-28.


## KLASTERLI YONDASHUV YORDAMIDA SHAXSIYLASHTIRILGAN TA’LIMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI


**Taylakova Guli Bekmuratovna, Toshkent amaliy fanlar universiteti “Raqamli va fundamental fanlar” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etishda klasterli yondashuvning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Talabalarni bilim darajasi, o‘quv faolligi va individual xususiyatlari asosida klasterlarga ajratish orqali ta’lim jarayonini samarali tashkil etish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari klasterli yondashuvning ta’lim sifatini oshirish, talabalarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish hamda individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.



**Kalit so‘zlar:** klasterli yondashuv, shaxsiylashtirilgan ta’lim, raqamli kompetentlik, individual ta’lim trayektoriyasi, oliy ta’lim, adaptiv ta’lim.



**Аннотация.** В данной статье анализируются педагогические возможности кластерного подхода в организации персонализированного образования в высших учебных заведениях. Выделены механизмы эффективной организации образовательного процесса путем разделения студентов на кластеры на основе их уровня знаний, академической активности и индивидуальных характеристик. Результаты исследования демонстрируют важность кластерного подхода в повышении качества образования, усилении мотивации студентов к обучению и формировании индивидуальных образовательных траекторий.

**Ключевые слова:** кластерный подход, персонализированное обучение, цифровая компетентность, индивидуальная образовательная траектория, высшее образование, адаптивное обучение.

**Abstract.** This article analyzes the pedagogical potential of the cluster approach in organizing personalized learning in higher education institutions. It explores mechanisms for effectively structuring the learning process by grouping students into clusters based on their knowledge level, learning activity, and individual characteristics. The results of the study demonstrate the importance of the cluster approach in improving the quality of education, enhancing students' learning motivation, and forming individual learning trajectories.

**Key words:** cluster approach, personalized learning, digital competence, individual learning trajectory, higher education, adaptive learning.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalar ehtiyojlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi hamda o'zlashtirish darajalarining sezilarli darajada farqlanishi ta'lim jarayonini individuallashtirish va moslashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki har bir talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy "bir xil yondashuv – barcha uchun" modeli bugungi kunda o'zining samaradorligini to'liq ta'minlay olmayotgani ilmiy-pedagogik adabiyotlarda keng e'tirof etilmoqda.

An'anaviy ta'lim yondashuvlari barcha talabalar uchun bir xil o'quv mazmuni, bir xil metod va bir xil baholash mezonlarini qo'llashga asoslanganligi sababli, u har doim ham individual farqlarni hisobga olish imkonini bermaydi. Natijada ayrim talabalar uchun o'quv materiali juda murakkab, boshqalar uchun esa yetarlicha sodda bo'lib qolishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, o'quv motivatsiyasining pasayishi, bilimlarni o'zlashtirish darajasining nomutanosibligi hamda kompetensiyalarning to'liq shakllanmasligiga olib keladi. Shu sababli shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shaxsiylashtirilgan ta'lim talabaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va o'quv sur'atini inobatga olgan holda o'quv jarayonini moslashtirishga xizmat qiladi. Bunda ta'lim jarayoni statik emas, balki dinamik va adaptiv xarakter kasb etadi. Klasterli yondashuv esa, shaxsiylashtirilgan ta'limni amaliy jihatdan samarali tashkil etishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv talabalarning bilim darajasi, raqamli va kasbiy kompetentligi, o'quv faolligi hamda individual psixologik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish asosida ularni bir nechta nisbatan bir xil guruhlarga – klasterlarga ajratish imkonini beradi. Har bir klaster uchun moslashtirilgan o'quv strategiyalari, metodik yondashuvlar va baholash mezonlarini ishlab chiqish orqali ta'lim jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshiriladi. Bundan tashqari, klasterli yondashuv asosida individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa talabaning nafaqat hozirgi bilim darajasini oshirishga, balki uning kelajakdagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan klasterli yondashuv zamonaviy raqamli ta'lim muhitida adaptiv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Maqolada shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etishda klasterli yondashuvning pedagogik samaradorligini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy-metodik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, kompetensiyaviy yondashuv hamda statistik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilish va klasterli yondashuvning amaliy

imkoniyatlarini asoslashga xizmat qildi. Maqolaning nazariy asosini shaxsiylashtirilgan ta'lim, adaptiv ta'lim tizimlari hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi. Xususan, so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar va xalqaro tajribalar tahlil qilinib, klasterli yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va uning samaradorlik omillari aniqlashtirildi. Talabalarni klasterlash mezonlari sifatida bir nechta asosiy ko'rsatkichlar belgilandi: o'quv natijalari (akademik o'zlashtirish darajasi), mustaqil ta'lim faoliyati, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari hamda o'quv motivatsiyasi darajasi. Ushbu mezonlar asosida talabalar bir nechta nisbatan bir xil guruhlarga ajratilib, har bir klaster uchun alohida pedagogik yondashuv ishlab chiqildi. Har bir klaster uchun moslashtirilgan o'quv topshiriqlari, interaktiv o'quv materiallari va differensial baholash mezonlari ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish maqsadida raqamli ta'lim resurslari va LMS platformalar imkoniyatlaridan foydalanildi. Bu esa, o'quv jarayonining moslashuvchanligini oshirish va talabalar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi. Natijalarni tahlil qilish jarayonida klasterli yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim modeli an'anaviy yondashuv bilan qiyosiy baholandi. Natijada, klasterli yondashuv talabalarning o'zlashtirish darajasi, faolligi va motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari klasterli yondashuv asosida tashkil etilgan shaxsiylashtirilgan ta'lim muhiti talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Talabalarni kompetentlik darajasi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari va raqamli ko'nikmalari asosida klasterlarga ajratish orqali ularga moslashtirilgan o'quv materiallari, topshiriqlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, klasterli yondashuv qo'llanilgan guruhlarda o'quv jarayoniga faol ishtirok etish darajasi ortgani, dars jarayonida mustaqil fikrlash va topshiriqlarni bajarishga bo'lgan intilish kuchaygani aniqlandi. Ayniqsa, past va o'rtacha darajadagi klasterlarga mansub talabalar uchun moslashtirilgan topshiriqlar ularning o'quv jarayoniga integratsiyasini yaxshilashga xizmat qildi. Shuningdek, talabalar motivatsiyasi darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Interaktiv va differensial yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv muhiti talabalarni faolroq ishtirok etishga undadi hamda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Mustaqil ta'lim ko'nikmalarining rivojlanishi esa ularning akademik mas'uliyatini kuchaytirdi.

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, klasterli yondashuv asosida individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkoniyati ta'lim jarayonining moslashuvchanligini ta'minladi. Bu esa har bir talabaning o'z rivojlanish sur'ati va qobiliyatiga mos ravishda ta'lim olishiga sharoit yaratdi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish jarayoni ham optimallashtirilib, o'quv jarayonining monitoringi va boshqaruvi yanada samarali amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari klasterli yondashuv shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi hamda uning ta'lim sifati va talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Olingan natijalar klasterli yondashuvning shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etishda muhim pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida talabalar o'rtasidagi individual farqlarni tizimli ravishda hisobga olish, o'quv mazmunini differensiallashtirish hamda o'qitish jarayonini moslashuvchan boshqarish imkonini beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, klasterlash mexanizmi ta'lim jarayonini "bir xil yondashuv" modelidan "moslashtirilgan yondashuv" modeliga o'tkazishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Klasterli yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri – bu talabalarning bilim darajasi

va kompetensiyalariga mos o‘quv muhitini yaratish imkoniyatidir. Bu esa nafaqat o‘zlashtirish darajasini oshiradi, balki o‘quv jarayonida psixologik qulaylikni ham ta’minlaydi. Natijada, talabalar o‘z imkoniyatlariga mos topshiriqlarni bajarish orqali bosqichma-bosqich rivojlanish imkoniga ega bo‘ladilar. Tadqiqot natijalari klasterli yondashuvning raqamli ta’lim muhitida yanada samarali qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatdi. LMS tizimlari, adaptiv platformalar va raqamli monitoring vositalari klasterlar kesimida o‘quv jarayonini kuzatish va boshqarishni yengillashtiradi. Bu esa o‘qituvchiga har bir klaster uchun individual pedagogik strategiya ishlab chiqish imkonini beradi.

Biroq, klasterli yondashuvni amaliyotga keng joriy etishda bir qator tashkiliy va metodik muammolar ham mavjud. Jumladan, talabalarni to‘g‘ri diagnostika qilish, klaster mezonlarini aniq belgilash hamda o‘quv resurslarini moslashtirish jarayoni qo‘shimcha metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Shu sababli, o‘qituvchilarning raqamli va pedagogik kompetentligini rivojlantirish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, elektron ta’lim platformalarini takomillashtirish va adaptiv o‘quv tizimlarini rivojlantirish klasterli yondashuv samaradorligini yanada oshiradi. Bu jarayonda sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalari va o‘quv analitikasi texnologiyalaridan foydalanish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, klasterli yondashuv shaxsiylashtirilgan ta’limni rivojlantirishda nafaqat metodik, balki strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u zamonaviy raqamli ta’lim tizimlarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, klasterli yondashuv shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etishning samarali pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida talabalarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va kompetensiya darajalarini tizimli hisobga olish orqali o‘quv jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Natijada ta’lim nafaqat bilim berishga, balki har bir talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan kompleks tizimga aylanadi. Klasterli yondashuv talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘zlashtirish sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, differensial yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalar o‘rtasidagi bilim darajasi tafovutlarini yumshatishga va ularning akademik faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Klasterli yondashuvni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Elektron ta’lim platformalari, adaptiv tizimlar va o‘quv analitikasi vositalaridan foydalanish orqali har bir klaster uchun individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Bu esa, oliy ta’lim tizimida adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini shakllantirishning muhim omiliga aylanadi. Klasterli yondashuv zamonaviy ta’lim paradigmasida nafaqat metodik vosita, balki strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. U kelajakda raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifatini oshirish va kompetensiyaga asoslangan ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi.

## Adabiyotlar

1. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: a new social contract for education. UNESCO Publishing: https://unesdoc.unesco.org

2. Tokhirova N. Pedagogik ta’limda klaster yondashuvi: O‘zbekiston va jahon tajribasi // Maktabgacha va maktab ta’limi. – T., 2025.

3. Taylakova G.B. (2020). Ta’lim muassasasining elektron axborot ta’lim muhitini shakllantirish // Innovatsion va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim, fan va boshqaruv sohalarida qo‘llash istiqbollari, 501-505.

4. Shermanova F.D. (2024). Media and communication are overt and covert influences in the age of digital technologies // Экономика и социум, (9(124)), 298-301.
5. Merganov S.M., Noraliyev S.N., Doniyorova G.T. (2025). Klasterli yondashuv va uning ilmiy ahamiyati // Pedagogs International Research Journal, 82(2), 35-39.

## SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALAR RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY YECHIMLARI

**Taylakova Guli Bekmuratovna, Toshkent amaliy fanlar universiteti "Raqamli va fundamental fanlar" kafedrasi mudiri, PhD, dotsent**

*O'qituvchining vazifasi tayyor bilim berish emas,*
*balki yangi bilimlarni yaratish uchun sharoit yaratishdir.*
***Seymour Papert***

**Annotatsiya.** Oliy ta'lim muassasalarida talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik, metodik va texnologik imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli ta'lim muhitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli kompetentlikni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, klasterli yondashuv asosida ishlab chiqilgan dasturiy yechimlar yordamida talabalarni kompetentlik darajasiga ko'ra guruhlarga ajratish, ularning individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish hamda o'quv faoliyatini uzluksiz monitoring qilish mexanizmlari yoritilgan.
**Kalit so'zlar:** raqamli kompetentlik, sun'iy intellekt, klasterli yondashuv, dasturiy ta'minot, adaptiv ta'lim, learning analytics, elektron ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi.
**Аннотация.** В данной работе рассмотрены педагогические, методические и технологические возможности использования технологий искусственного интеллекта для развития цифровой компетентности студентов в учреждениях высшего образования. В условиях цифровой трансформации образования формирование цифровых компетенций является одним из ключевых направлений подготовки конкурентоспособных специалистов. В исследовании представлены программные решения, разработанные на основе кластерного подхода, позволяющие распределять студентов по уровням цифровой компетентности, формировать индивидуальные образовательные траектории и осуществлять непрерывный мониторинг учебной деятельности.
**Ключевые слова:** цифровая компетентность, искусственный интеллект, кластерный подход, программное обеспечение, адаптивное обучение, Learning Analytics, цифровая образовательная среда.
**Abstract.** This paper examines the pedagogical, methodological, and technological opportunities for applying artificial intelligence technologies to develop students' digital competence in higher education institutions. In the context of digital transformation, improving students' digital competence has become one of the key priorities for preparing highly qualified and competitive professionals. The study presents software solutions based on a cluster approach that enable the classification of students according to their digital

competence levels, the development of personalized learning pathways, and continuous monitoring of learning activities.

**Key words:** digital competence, artificial intelligence, cluster approach, software support, adaptive learning, Learning Analytics, digital education, personalized learning.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash (Cloud Computing), Learning Analytics hamda adaptiv ta’lim texnologiyalarining keng joriy etilishi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi model va mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, axborotlarni tahlil qilish, raqamli muhitda muloqot qilish, elektron resurslar yaratish va axborot xavfsizligini ta’minlash kabi kompetensiyalarni ham rivojlantirishni taqozo etadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quv faoliyatini avtomatik tahlil qilish, ta’lim natijalarini prognozlash hamda shaxsiylashtirilgan o‘qitishni tashkil etishda keng imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi virtual yordamchilar, adaptiv o‘quv tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash vositalari va tavsiya etuvchi algoritmlar har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishi va o‘quv ehtiyojlariga mos ravishda individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Natijada o‘quv jarayoni yanada moslashuvchan, interaktiv va samarali tus oladi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aksariyat elektron ta’lim platformalarida talabalar raqamli kompetentligini kompleks baholash, ularni kompetentlik darajasi bo‘yicha klasterlash hamda o‘quv natijalariga mos individual tavsiyalarni avtomatik ishlab chiqishga qaratilgan dasturiy mexanizmlar yetarli darajada takomillashmagan. Ko‘pgina mavjud tizimlar faqat o‘quv materiallarini taqdim etish yoki test natijalarini qayd etish bilan cheklanib, talabaning kompetentlik rivojlanish dinamikasini chuqur tahlil qilish va adaptiv boshqaruvni amalga oshirish imkoniyatiga ega emas. Bu esa, ta’lim jarayonining shaxsiylashtirilishi va o‘quv samaradorligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Mazkur muammoning samarali yechimlaridan biri sifatida klasterli yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv talabalarni raqamli kompetentlik darajasi, o‘quv faolligi va individual xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish, har bir klaster uchun mos o‘quv strategiyasi va topshiriqlarni ishlab chiqish hamda o‘quv jarayonini differensial boshqarish imkonini beradi. Klasterli yondashuvni sun’iy intellekt texnologiyalari va Learning Analytics vositalari bilan integratsiyalash esa, o‘quv jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish, kompetentlik rivojlanish dinamikasini prognozlash va pedagogik qarorlarni ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan dasturiy yechimlarning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ularni klasterli yondashuv asosida takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot natijalari elektron ta’lim muhitini modernizatsiya qilish, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish va raqamli kompetent mutaxassislarni tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda klasterli yondashuv asosidagi dasturiy yechimlarning pedagogik

samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv va klasterli yondashuv metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ushbu yondashuvlar orqali talabalar raqamli kompetentligining tarkibiy komponentlari aniqlanib, ularni rivojlantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi. Ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, pedagogik modellashtirish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, xalqaro raqamli kompetentlik standartlari hamda elektron ta'lim muhitiga oid ilmiy tadqiqotlar oʻrganilib, mavjud yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilindi. Shuningdek, DigComp 2.2 va DigCompEdu kompetentlik modellari asosida talabalar raqamli kompetentligini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Talabalarning raqamli kompetentligi beshta asosiy komponent – axborot va ma'lumotlar bilan ishlash, raqamli kommunikatsiya va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, axborot va kiberxavfsizlik, hamda raqamli muammolarni hal qilish koʻrsatkichlari asosida baholandi. Baholash natijalariga koʻra talabalar boshlangʻich, oʻrta va yuqori kompetentlik darajalariga mos klasterlarga ajratildi. Mazkur klasterlash ta'lim jarayonini differensial tashkil etish va har bir talaba uchun individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga imkon berdi. Tadqiqot doirasida klasterli yondashuvni qoʻllab-quvvatlovchi dasturiy model ishlab chiqildi. Modelning funksional tuzilmasi diagnostika moduli, klasterlash moduli, sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar moduli, oʻquv faoliyatini monitoring qilish moduli hamda natijalarni tahlil qilish modulidan tashkil topdi.

Dasturiy yechim Learning Management System (LMS) platformalari bilan integratsiyalash imkoniyatiga ega boʻlib, talabalarning oʻquv faoliyati haqidagi ma'lumotlarni avtomatik yigʻish va qayta ishlashni ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish orqali talabalar oʻquv natijalari, topshiriqlarni bajarish faolligi va kompetentlik rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida tizim har bir talaba uchun individual tavsiyalar, qoʻshimcha oʻquv resurslari va moslashtirilgan amaliy topshiriqlarni avtomatik shakllantirdi. Shu bilan birga, Learning Analytics texnologiyasi yordamida oʻquv faoliyatining real vaqt rejimidagi monitoringi amalga oshirilib, talabalar rivojlanishidagi ijobiy va salbiy tendensiyalar aniqlab borildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida olingan ma'lumotlar pedagogik tahlil va qiyosiy taqqoslash usullari yordamida umumlashtirildi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dasturiy modelning funksional imkoniyatlari, pedagogik samaradorligi hamda talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishdagi amaliy ahamiyati kompleks ravishda baholandi. Natijalar klasterli yondashuvni sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash talabalar uchun shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, oʻquv jarayonini avtomatlashtirish va ta'lim sifatini oshirishda samarali vosita ekanligini koʻrsatdi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini klasterli yondashuv bilan integratsiyalash talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini koʻrsatdi. Ishlab chiqilgan dasturiy yechim yordamida talabalar raqamli kompetentlik darajasiga koʻra klasterlarga ajratildi va har bir klaster uchun moslashtirilgan oʻquv topshiriqlari hamda elektron ta'lim resurslari tavsiya etildi. Bunday yondashuv oʻquv jarayonini individuallashtirish, talabalarning bilim darajasini hisobga olgan holda oʻqitishni tashkil etish va oʻzlashtirish sifatini yaxshilash imkonini berdi. Sun'iy intellekt algoritmlari asosida ishlovchi tavsiya etish tizimi talabalarning oʻquv faoliyatini uzluksiz tahlil qilib bordi. Tizim oʻquv materiallaridan foydalanish faolligi, topshiriqlarni bajarish tezligi, baholash natijalari va kompetentlik rivojlanish dinamikasi toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta

ishladi. Ushbu tahlillar asosida har bir talaba uchun individual tavsiyalar, qo‘shimcha o‘quv materiallari va amaliy mashg‘ulotlar avtomatik shakllantirildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, klasterli yondashuv asosida tashkil etilgan adaptiv ta’lim muhiti talabalar o‘quv motivatsiyasining ortishiga, mustaqil ta’lim faoliyatining faollashishiga hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, axborot bilan ishlash, raqamli kommunikatsiya, elektron kontent yaratish va axborot xavfsizligi bo‘yicha kompetensiyalarning rivojlanish sur’ati yuqori ekani kuzatildi. Shuningdek, dasturiy tizimning monitoring moduli o‘qituvchilarga har bir talabaning rivojlanish dinamikasini vizual ko‘rinishda kuzatish, o‘zlashtirish darajasidagi muammolarni erta aniqlash va pedagogik qarorlarni tezkor qabul qilish imkonini berdi. Bu esa, ta’lim jarayonini boshqarish samaradorligini oshirib, individual yondashuvni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan dasturiy yechimlarni klasterli yondashuv bilan uyg‘unlashtirish oliy ta’lim muassasalarida talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish hamda elektron ta’lim muhitining samaradorligini oshirish uchun istiqbolli va innovatsion pedagogik yechim ekanligini tasdiqladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini klasterli yondashuv bilan integratsiyalash oliy ta'lim muassasalarida talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi ekanligini tasdiqladi. Mazkur yondashuv talabalarning individual bilim darajasi, o‘quv faolligi va raqamli ko‘nikmalarini hisobga olgan holda moslashtirilgan ta’lim muhitini shakllantirish imkonini beradi. Natijada, ta’lim jarayoni yanada shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va natijador tus oldi. Olingan natijalar xalqaro raqamli kompetentlik konsepsiyalari, xususan, DigComp 2.2 va DigCompEdu doirasida belgilangan kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dasturiy yechim talabalarning raqamli kompetentligini baholash, ularni kompetentlik darajasiga ko‘ra klasterlash hamda har bir klaster uchun individual ta’lim strategiyasini ishlab chiqish imkonini berdi. Bu esa, an’anaviy bir xil yondashuvdan farqli ravishda har bir talabaning ehtiyojlari va rivojlanish sur’atini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishga xizmat qildi.

Sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish o‘quv jarayonini monitoring qilish, o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish va pedagogik qarorlar qabul qilishni avtomatlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Learning Analytics vositalari yordamida olingan ma’lumotlar asosida talabalar uchun individual tavsiyalar ishlab chiqildi, o‘quv materiallari moslashtirildi hamda o‘zlashtirishdagi muammolarni erta aniqlash imkoniyati yaratildi. Bu esa, o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini samarali boshqarish va talabalarni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash imkonini berdi. Shu bilan birga, sun’iy intellektga asoslangan dasturiy tizimlarni ta’lim jarayoniga joriy etish qator tashkiliy va metodik shart-sharoitlarni ham talab etadi. Jumladan, professor-o‘qituvchilarning raqamli va sun’iy intellekt bo‘yicha kompetentligini muntazam rivojlantirish, elektron ta’lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash hamda ta’lim jarayonida foydalaniladigan algoritmlarning shaffofligi va ishonchliligini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillar dasturiy yechimlarning samarali ishlashi va ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini klasterli yondashuv asosidagi dasturiy ta’minot bilan uyg‘unlashtirish oliy ta’lim tizimida raqamli kompetentlikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, o‘quv faoliyatini samarali boshqarish, pedagogik qarorlarni ma’lumotlar

asosida qabul qilish hamda raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan dasturiy yechimlarni klasterli yondashuv bilan integratsiyalash talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini tasdiqladi. Ishlab chiqilgan yondashuv talabalarning raqamli kompetentligini baholash, ularni kompetentlik darajasiga ko‘ra klasterlash va har bir talaba uchun individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, o‘quv faoliyatini samarali boshqarish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida sun’iy intellekt algoritmlari va Learning Analytics vositalaridan foydalanish talabalarning o‘quv faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish, o‘zlashtirish natijalarini tahlil etish va individual tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratishi aniqlandi. Natijada, talabalar o‘quv motivatsiyasining oshishi, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining rivojlanishi, raqamli texnologiyalardan foydalanish faolligining ortishi hamda raqamli kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlarini izchil shakllantirishga erishildi. Ayniqsa, axborot bilan ishlash, raqamli kommunikatsiya, elektron kontent yaratish va axborot xavfsizligi bo‘yicha kompetensiyalarning rivojlanishida ijobiy natijalar kuzatildi.

Taklif etilgan dasturiy modelning ilmiy ahamiyati shundaki, u klasterli yondashuvni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirgan holda talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishning yangi metodik mexanizmini taklif etadi. Mazkur model elektron ta’lim muhitida o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, pedagogik qarorlarni ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish hamda ta’lim jarayonining uzluksiz monitoringini tashkil etishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida intellektual ta’lim platformalarini ishlab chiqish, mavjud Learning Management System (LMS) platformalarini takomillashtirish hamda adaptiv ta’lim texnologiyalarini joriy etishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv professor-o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, talabalar uchun qulay va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan klasterli dasturiy yechimlardan foydalanish oliy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, raqamli kompetent mutaxassislarni tayyorlash hamda zamonaviy elektron ta’lim muhitini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu modelni generativ sun'iy intellekt, adaptiv o‘qitish algoritmlari va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali uning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda turli fanlar va ta’lim yo‘nalishlarida amaliy sinovdan o‘tkazish istiqbolli ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

## Adabiyotlar


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmon.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvardafi PF-60-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmon.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmon.

4. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. Artificial intelligence in education: promises and implications for teaching and learning. Boston, MA: Center for Curriculum Redesign, 2022.
5. UNESCO. (2024). Artificial intelligence competency framework for teachers. Paris.
6. Блинов В.И., Сергеев И.С., Есенина Е.Ю. Цифровая дидактика профессионального образования и обучения. – М.: Перо, 2021.
7. Taylakova, G.B. (2025). Talabalar raqamli kompetentligini klaster asosida rivojlantirishda texnologik vositalar va platformalarning roli. Строительство и образование, 3.
8. Shermanova, F. (2025). Innovatsion yondashuvlar asosida boʻlajak IT mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish // Евразийский журнал академических исследований, 4(12).

## TA’LIM JARAYONIDA TALABALARDA INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

**Tashmetova Shaxlo Xusanovna, Oʻ'zMPU dotsenti,**
**Berdiyorov Diyor Elyor oʻgʻli, Oʻ'zMPU talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola raqamli texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning intellektual kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan.
**Tayanch soʻzlar:** texnologiya, uzluksiz ta’lim, elektron ta’lim, raqamli ta’lim.
**Аннотация.** В этой статье речь идёт о развитии интеллектуальной компетентности студента с помощью применения цифровых технологий.
**Ключевые слова:** технология, непрерывное образование, электронное обучение, цифровое образование.
**Annotation.** This article discusses the development of student intellectual competence through the use of digital technologies.
**Key words:** technology, continuing education, electronic education, digital education.

Respublikamizda professional ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻzlashtirish va amaliyotga tatbiq etish muhim oʻrin egalladi. Oliy ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni kasbiy sohalarga yoʻnaltirib chuqurlashtirib oʻqitish takomillashtirildi. Shu bilan birga, professional ta’lim muassasalarining samarali faoliyat koʻrsatishi, ularning moddiy-texnika bazasini takomillashtirish va yuqori malakali oʻqituvchilar tarkibi bilan ta’minlash, bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga oʻqishga kirish koʻrsatkichlarini toʻliq ta’minlash muhim vazifalar sifatida belgilab berildi. Xususan, pedagogika kollejlarida oʻqitishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, oʻquvchilarda intellektual kompetensiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, pedagogik texnologiyalar va ta’lim strategiyalari uygʻunligini ta’minlashning ilmiy ta’minotini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Pedagogika kollejlarida kasbiy fanlarni oʻqitishning xususiy-metodik texnologiyasini ishlab chiqish, oʻquvchilarning ijodkorligi va intellektual kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan oʻqitishning oʻyinli, guruhlarda ishlash, raqamli ta’lim texnologiyalari, SMART-texnologiyalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

***Intellektual kompetentlik*** – ma’lumotlarni toʻgʻri qabul qilish va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, bilimlarni tez va sifatli oʻzlashtirish qobiliyatidir.

Hozirgi kunda har bir ta’lim muassasasi, tashkilot, ishlab chiqarishning barcha sohalarida zamonaviy raqamli texnologiyalardan unumli foydalanilib kelinmoqda. Ta’lim jarayonida intellektual kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy multimediali o‘quv-uslubiy majmualarni qo‘llash yaxshi samara beradi.

Multimediali o‘quv-uslubiy majmualarni ta’lim tizimida qo‘llanishi mavjud bo‘lgan ko‘pgina tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois, ta’lim va o‘qitish jarayonlariga boshqacha yondashuv hamda e’tibor bilan qarala boshlandi. Ta’lim jarayoni deyilganda, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro munosabatidagi yaxlit jarayon ko‘z oldimizga keladi.

Endilikda ushbu jarayon o‘quv-uslubiy majmualar – raqamli texnologiyalar, elektron darsliklar, ta’limiy video va audio materiallari, kompyuter dasturlari, internet texnologiyalari bilan uyg‘unlashib bormoqda. Bu jarayonda o‘qitish o‘quvchining ko‘proq ichki imkoniyatlari, intellektual potensiali, axborotni qabul qilish va o‘zlashtirish xususiyatlariga bevosita bog‘liq.

Multimediali o‘quv-uslubiy majmualarning afzalliklaridan biri mustaqil ta’lim olishni, ijodiy fikrlashni, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish orqali o‘quv materiallari va ilmiy ma’lumotlarni har tomonlama chuqur o‘zlashtirilishiga mo‘ljallanganligidadir. Ushbu turdagi majmualar ilmiy ma’lumotlarning jamlanganligi, ko‘rgazmalarga boyligi, ya’ni turli xil animatsiyalardan foydalanganligi, interaktivlik xususiyatlarini hisobga olinganligi bilan an’anaviy o‘quv-uslubiy majmualardan afzalroqdir.

Maxsus fandan multimediali o‘quv-uslubiy majmua yaratilmasin, u dastlab shu fanning o‘quv dasturiga mos kelishi, o‘quv-uslubiy nashrlarga qo‘yilgan talablarga javob berishi lozim. Multimediali o‘quv-uslubiy majmua umumkasbiy, maxsus fanlarga mo‘ljallangan bo‘lishi ham mumkin. U o‘rganilayotgan fanning mazmunini ochib berishi, o‘quv-uslubiy maqsadga erishish uchun yetarli hajmga ega bo‘lishi lozim. Multimediali o‘quv-uslubiy majmualar o‘quvchi yoshiga mos bo‘lishi bilan birga uning intelektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilishi, fanning o‘quv dasturida mavzular to‘la yoritilishi fanlar aro bog‘liqligini ta’minlashi, dizayni tegishli o‘quv fan mavzusiga mutanosibligi, kasbga qiziqishni kuchaytirish ilm fan yutuqlarni tasvirlaydigan ko‘rgazmali ma’lumotlar – qurilma, apparaturalar yoki ularning ma’lum qismlari turli ranglarda berilishiga e’tibor qaratilishi lozim.

Raqamli texnologiyalar telekommunikatsiyalarning barcha turlari axborot sanoatini eng muhim tarkibiy qismlaridir. Zamonaviy raqamli texnologiya kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlariga tayanadi.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘qitish metodi – kompyuter va telekommunikatsiyalarga asoslangan o‘qitish shakli va vositalari bo‘lib, ta’lim jarayonida eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlardan foydalangan holda ta’lim berish turidir.

Hozirgi kunda barcha pedagogika kollejlarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ta’limni rivojlantirish, uni o‘quv jarayoniga to‘laqonli joriy etilishiga erishish maqsadida elektron ta’lim resurslari, elektron o‘quv-uslubiy majmualar, elektron darslik va dasturlar yaratilmoqda. O‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishlari va e’tiborini ortishi zamonaviy ta’limda aynan shunday texnologiyalarga zaruriyat va ehtiyoj mavjudligini yana bir bor isbotlamoqda.

O‘quvchilarda intellektual kompetensiyani shakllantirishda SMART-texnologiyalar (vebinarlar, bloglar, tvitterlar, video va audio podkastlar)ni asinxron va on-layn rejimlarda qo‘llash aynan shunday vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi, an’anaviy ta’lim

metodlarini borgan sari ko‘proq to‘ldirmoqda. Bu o‘quvchilarning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini ochib, ularning o‘qishga motivatsiyasini oshiradi, o‘rganilayotgan fanlarga yangicha qarashga undaydi.

SMART-texnologiyalar bilan ishlashda o‘qituvchi (tyutor)ning ta’lim jarayonining tashkilotchisi va koordinatori sifatidagi roli ortadi, u o‘quv jarayonini har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ko‘proq moslashuvchan yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

SMART-texnologiyalarning muhim imkoniyatlari: ishtirokchilarga taqdimotlarni ko‘rsatish, virtual doskada rasm chizish, so‘rovlar (savol-javoblar)ni faollashtirish va ko‘proq interfaollik uchun ishtirokchilar onlayn chat darchasida savollar berishlari mumkin.

Virtual web-ilova yordamida ishga tushiriladi. Bu zamonaviy SMART-texnologiyalarni qo‘llash yordamida o‘quvchilar bilan dialog tashkil qilish shakli bo‘lib, o‘quvchilarni masofadan o‘qitish hamda onlayn rejimda videokonferensiyalar o‘tkazish imkonini beradi. Muloqotning bu yangi shaklidan foydalanish yoshlar auditoriyasining o‘tkazilayotgan seminarlar va mashg‘ulotlarga qiziqishini orttiradi va ularning davomatini oshiradi hamda vaqtni tejaydi. Virtuallar o‘quvchilarni masofadan turib boy ko‘rgazmali vositalar bilan o‘rgatishni tashkil qilishning samarali shaklidir. Axborotni, tasvirlar va videoni ham qo‘shganda, istalgan shaklda ko‘rsatishning bunday qulay usuli suhbatdoshni ko‘rish va eshitish imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan bunday texnologiyani o‘qitishda doim eng muhim bo‘lgan yuzma-yuz muloqotning to‘laqonli alternativi deb hisoblash mumkin.

Virtual texnologiyasi ta’lim berish, shu jumladan, o‘qitish uchun eng qulay va iqtisodiy jihatdan foydali yechimlardan biridir. Bu masofadan muloqotni real jonli muloqotga eng ko‘p yaqinlashtirgan holda bir-birini ko‘rish va eshitish, ma’lumotlarni almashish va ularga interfaol rejimda birgalikda ishlov berish imkonini beruvchi texnologiyadir. Shunday qilib, hozirning o‘zida eng yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda o‘quvchilarni bahs-munozaralar olib borishga o‘rgatish ularning bilish faolligini rivojlantirishga yordam beradi, o‘qishga qiziqishlarini jiddiy oshiradi va yaxshi natijalar beradi.

**Adabiyotlar**

1. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Ped. fan. doktopi (DSc) ... dic. – T., 2019. – 261 b.

2. Qodirov X.Sh. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – talablar mustaqil ishlarini samarali tashkil etish omilli sifatida // Ta’lim muamolari. – T., 2010. – 4-son. – B. 78-83.

## YOSHLAR JAMIYAT IJTIMOIY HAYOTINING ENG FAOL IJTIMOIY-DEMOGRAFIK GURUHI

**Tashmetova Shaxlo Xusanovna, O‘MPU dotsenti,**
**Cadullayeva Madinabegim Toxir qizi, O‘MPU talabasi**

Yoshlar ijtimoiy guruhi hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy hayotida, ayniqsa, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda murakkab ko‘rinishga ega tabaqa va qatlam sifatida o‘zini namoyon etmoqda. Chunki, yoshlar fikri o‘zgaruvchan bo‘ladi. Sotsiologiyada yoshlar odatga ko‘ra, quyidagi ijtimoiy psixologik guruhlarga ajratiladi: a) mehnatkashlar qatoriga qo‘shila boshlagan o‘rta maktab bitiruvchilari; b) xo‘jalikning turli jabhalarida ishlayotgan

16 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan yoshlar; v) 20 yoshdan 24 gacha bo‘lganlar; g) 25 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan – yosh intelligensiya, ya’ni ziyolilar guruhlaridir1.

Yoshlar tushunchasini keng ma’noda zamonaviy jamiyat sharoitida o‘ziga xos xususiyatlariga ega, ijtimoiy-sinfiy tabaqalanish jarayonini boshidan kechirayotgan hamda psixologik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi jamiyatning ijtimoiy demografik guruhi sifatida ifodalash mumkin.

Ta’lim olayotgan yoshlar tarkibi va tuzilishi jihatidan bu guruh nihoyatda rang-barangdir. Bunga: 1) maktab o‘quvchilari; 2) kollej o‘qituvchilari; 3) o‘rta mutaxassislik va oliy ta’limda sirtdan o‘qiydigan talabalar. Bu guruhdagi yosh chegara 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lib, unda tahsil olayotgan yoshlar turli-tumandir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, yoshlar jamiyat ijtimoiy hayotining eng faol ijtimoiy-demografik guruhi sifatida respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy sohalardagi islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki ularni hayotga amaliy jihatdan tadbiq qiladigan qatlam hisoblanadi. Respublikamiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etishini nazarda tutadigan bo‘lsak, bu fikrimiz o‘z ahamiyatini va xususiyatini saqlab qoladi.

Hozirda O‘zbekiston huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurish yo‘lidan bormoqda. Bu esa, davlat, jamiyat va shaxslararo munosabatlarni yangicha anglashni taqozo etadi. Huquqiy davlat tushunchasi mavjud qonunlarning asosiy me’yor, ijtimoiy munosabatlar tamoyili sifatida talqin qilishni ko‘zda tutadi. Qonunlar esa, shaxs huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga asoslanadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi esa, uyg‘un birlashuviga asoslangan huquqiy jamiyat tizimini o‘z ichiga qamrab oladi. Davlat shaxs huquqlari himoyalanishini kafili sifatida mavjuddir.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy faollik ijtimoiy munosabatlarning ongli, beg‘araz tahliliga hamda ularning u yoki bu elementlarini o‘zgartirishga intilish darajasini tavsiflaydi. Yosh inson ijtimoiy ahamiyatga ega biron-bir jiddiy muammoga duch kelganda, ularni hal etish uchun yangi qonunlarni qabul qilish yoki mavjud qonunlar mexanizmini takomillashtirish kerakligini anglagan taqdirda ijtimoiy faollikka intilish yanada kuchayadi. Manbalarda yoshlar ijtimoiy faolligini asosan ikki turga ajratib ko‘rsatiladi. Xususan, uning namoyon bo‘lish tabiatiga ko‘ra konstruktiv va desktruktiv turlagan ajratish mumkin. Yoshlar konstruktiv ijtimoiy faolligi shundan iboratki, ular muayyan ziddiyatlar bilan to‘qnashuvda ana shu ziddiyatlarni mavjud ijtimoiy tizim, qonuniy, huquqiy dasturlar yordamida bartaraf etish uchun intiladi. Mavjud qonunlar asosida o‘z manfaat va ehtiyojlarini ifodalash, muammolarni hal qilish uchun jamoat birlashmalarini tuzadi.

Derstruktiv deb belgilash mumkin bo‘lgan ijtimoiy faollikning mazmuni esa, o‘zgachadir. Bunday faollik mavjud ijtimoiy tizimga qaratilgan bo‘lib, olib borilayotgan ijtimoiy tizimdagi chora-tadbirlarga nisbatan qarama-qarshi xatti-harakatlar sifatida e’tirof etish mumkin. U mavjud huquqiy dasturlar bilan o‘z maqsadiga erishish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish imkoni yo‘q deb hisoblagan vaziyatda yuzaga keladi. Bunday hollarda ijtimoiy faollik aniq huquqiy chegaralarga ega bo‘lmaydi. Bu esa, ijtimoiy vaziyatni keskinlashuviga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy faollikning ushbu turi ijtimoiy munosabatlardagi barqarorlik davrlarida kuzatiladi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish barcha ijtimoiy muammolarning osonlik bilan bartaraf etilishini anglatmaydi. Bunda shunday huquqiy tizim nazarda tutiladiki, uning doirasida doimo vujudga keladigan ziddiyatlar barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatlari munosibligini saqlagan

holda qonunlar doirasida asta-sekinlik bilan hal qilinadi. Bugun oldimizda turgan masalalar hali hanuz chuqur anglash, o‘rganish va ilmiy tahlil etishni taqozo etadi.

Bundan ko‘zlangan maqsad – masala va muammolarni hal etish bo‘yicha zaruriy tavsiyalar, usul va vositalarni ishlab chiqishdir. Bu birinchidan. Ikkinchi tomondan, ko‘tarilgan muammo u yoki bu “Davra suhbati” va anjumanlar ishtirokchilari doirasi bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uning mohiyati har bir odamgacha yetib borishi zarur. Buning uchun esa, barcha mavjud usullardan foydalanishimiz lozim. Inson faoliyatining genezisi va taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlarni tadqiq etishda faoliyat xarakterini baholash kabi omil ham muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bu ijtimoiy me’yorlar bilan belgilangan o‘z-o‘ziga baho berish, ikkinchidan, ayniqsaб fikrlari qadrli bo‘lgan insonlarning bergan baholaridir. Inson faolligi tushunchasi taraqqiyot tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, inson faoliyati muttasil ravishda o‘z-o‘zini namoyon qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda shaxs qobilyatlari asosan jamoadagi muloqot jarayonida ochilib boradi. Intellektual o‘sishga bo‘lgan qobilyatlarini jamoada ijodiy namoyon qilayotgan shaxs muloqot paytida o‘z kuch-imkoniyatlarini boshqa kishilar bilan bo‘lishadi, shuningdek to‘ldirib, kengaytirib boradi. Inson konstruktiv faoliyatining shart-sharoitlaridan biri bo‘lgan faollik tamoyili ongli tuzilmalarning maqsadga intilgan va harakatga yo‘naltirilgan shaxs bilan aloqalarini ochib beradi. Inson shaxsi uning mehnatga bo‘lgan ijodiy, faol munosabati bilan xarakterlanadi. Yosh shaxsning ijodiy yo‘nalishi, faolligi va mehnatga yo‘nalganligi kabi xislatlari uning o‘ziga nisbatan ongli munosabati bilan muvofiqlashtiriladi. Faollik insonning shunday xususiyatiki, uning tarkibiga yoshlarning o‘zini namoyon qilishiga bo‘lgan intilishi ham kiradi.

Fuqarolik jamiyatida yoshlar ijtimoiy faolligi xatti-harakat qilish imkoniyati bilan qo‘shilib ketadi. Ya’ni bunda yosh inson mavjud ijtimoiy munosabatlar, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy real ijtimoiy muammolarni nafaqat tushunib yetadi, balki ularni ijtimoiy tizimni o‘zgartirmagan holda hal qilish imkoniyatini ham anglab yetadi.

O‘zbekistonning mustaqillik yo‘lidagi dastlabki qadamlaridan biri – yoshlar davlat siyosatining huquqiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. Bu aynan yoshlar eng yaqin kelajakda ijtimoiy jarayonning asosiy subyekti bo‘lib qolishi bilan belgilanadi. Chunki, islohotlar jarayonining afzalligi yoshlarning ijtimoiy tuzilmaga integratsiya qilish jarayoni qanchalik samarali kechishiga bog‘liq. Mamlakatimiz yoshlar siyosatining yo‘nalishlarini belgilash 1991-yilining oktabr oyidan boshlandi. 1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlar davlat siyosatining asoslari haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Yoshlar bo‘yicha olib borilayotgan davlat yoshlar siyosatini izchillik va uzluksizlikni ta’minlash maqsadida Respublikamiz hukumati tomonidan 2008-yil “Yoshlar yili” deb e’lon qilinda va “Yoshlar yili” Davlat dasturi to‘g‘risida Prezident qarori qabul qilindi. Bu qabul qilingan qarorda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi: yoshlarning manfaatlarini yanada to‘liq ta’minlash va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilga huquqiy bazani takomillashtirish hamda mustahkamlash; ta’lim jarayonini uning uzluksizligi va davomiyligi nuqtai nazarida yanada takomillashtirish; ishga tushiriladigan umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari qurish va rekonstruksiya qilish sifatini oshirish; ta’lim va kadrlar tayyorlash butun tizimi darajasi hamda sifatini tubdan oshirish; yosh avlodni hayotga qat’iy e’tiqod va qarashlar ruhida tarbiyalash; oliy o‘quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatni tugatgan yoshlarni ishga joylashishi bilan bog‘liq masalalar butun kompleksini hal etish; musiqa, rassomlik, san’at va madaniyat sohalarida bolalarning ijodiy talanti va qobilyatlarini

barvaqt aniqlash hamda rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish; yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish; yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash. Shunday qilib, yoshlarga berilayotgan e’tiborni kelgusi avlodlarga berilayotgan e’tibor sifatida tushunmoq lozim.

Zero, bugungi yoshlarning ijtimoiy faolligining qay darajada ekanligi, kelgusi avlodning tabiati qanday bo‘lishini belgilab berishi va kelajakda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida o‘z aksini topishi shubhasizdir. Shuning uchun ham yoshlar ijtimoiy hayotini yaxshilashga qaratilgan har qanday chora-tadbirlar tizimi kelajakda o‘z mevasini berishi shubhasizdir. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati haqida bahslar yuritilayotgan ekan, avvalombor jamiyatning ijtimoiy normalari va ularning xususiy belgilarini ham tadbiq etish yadqiqot ishimizning asosiy maqsadlaridan biridir. Yevropada ijtimoiy normalar alomati sifatida jamiyatning qadr erkinligi alohida seziladi. Ijtimoiy normaning mohiyatini jamiyat to‘la-to‘kis anglab yetsagina taraqqiyot tamadduni o‘z istiqbolini cho‘qqisiga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda yoshlarimiz bilan olib borilayotdan islohatlarning tendinsiyasi kelajak avlodga samara berishi uchun zamin yaratilgan islohatlar buning dalilidir.

**Adabiyotlar**


1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

4. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.


## RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA O‘QUVCHILARNI AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI


**Tillyaxodjayeva Suraya, Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi “Xalq cholg‘ulari” bo‘limining jo‘rnavozi**


Bugungi kunda globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham chuqur kirib bormoqda. Raqamli ta’lim texnologiyalari, onlayn platformalar, elektron resurslar hamda masofaviy ta’lim shakllari ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham raqamli ta’lim zamonaviy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda (UNESCO, 2021; OECD, 2020). O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni raqamli muhitga moslashtirish hamda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z asarlarida yoshlarni ma’naviy jihatdan yetuk, mas’uliyatli, tashabbuskor va raqamli muhit talablariga mos shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini alohida ta’kidlaydi (Mirziyoyev, 2021). Bu esa, ta’lim jarayonida tarbiyaviy faoliyatning ahamiyatini yanada oshiradi. Raqamli muhitda o‘quvchilar turli axborot manbalari, ijtimoiy tarmoqlar, virtual muloqot va interaktiv platformalar orqali faol ishtirok etadi. Ushbu jarayon ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, axloqiy

qarashlari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, internet muhitidagi faoliyat o'quvchilar uchun katta imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, noto'g'ri axborot, kiberbulling, internetga qaramlik va ijtimoiy befarqlik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin (Livingstone, 2016). Shu bois, raqamli ta'lim sharoitida o'quvchilarda axloqiy ongni shakllantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda pedagogik mexanizmlarni to'g'ri belgilash, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlardan foydalanish zarur. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, tarbiyaviy faoliyatni raqamli muhit bilan uyg'unlashtirish pedagogik samaradorlikni oshiradi (Polat, 2018; Yo'ldoshev, 2019; Abdullayeva, 2021). Raqamli ta'lim sharoitida axloqiy tarbiya jarayoni o'qituvchidan nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mas'uliyat, hurmat, halollik, madaniyat va ijtimoiy burch kabi qadriyatlarni shakllantirishni ham talab etadi. Shu sababli, pedagogik faoliyatda ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahorati, metodik yondashuvi va shaxsiy namunasiga ham bevosita bog'liqdir. Shu munosabat bilan, mazkur maqolada raqamli ta'lim sharoitida o'quvchilarda axloqiy ongni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi, mavjud muammolar yoritiladi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

**Raqamli ta'lim sharoitida axloqiy tarbiya muammolari**

Raqamli ta'lim sharoitida o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlari kengayib borayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayon bilan birga axloqiy tarbiya sohasida qator muammolar yuzaga kelmoqda. Raqamli muhitning ochiqligi, axborotning tezkor tarqalishi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi o'quvchilarning axloqiy ongiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, raqamli ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani ta'minlash muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Birinchi muhim muammo – o'quvchilarning zararli va ishonchsiz axborotlarga duch kelish ehtimolining yuqoriligidir. Internet tarmog'ida yoshlarning psixologik va axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kontentlar keng tarqalgan bo'lib, bu holat ularning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimida salbiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlarda bolalar va o'smirlarning raqamli muhitdagi faoliyati ularga katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, noto'g'ri axborot, zo'ravonlik, tajovuzkorlik va axloqiy me'yorlarga zid materiallarning ta'siriga ham ochiq ekanligi qayd etiladi (Livingstone, 2016).

Ikkinchi muammo – raqamli muhitda real ijtimoiy munosabatlarning qisqarib borishidir. O'quvchilarning ko'p vaqtini virtual muloqotga sarflashi natijasida ular real hayotdagi muloqot madaniyati, hurmat, hamkorlik va empatiya kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Natijada, shaxslararo munosabatlarda sovuqqonlik, befarqlik va mas'uliyatsizlik kabi holatlar kuzatiladi. Bu esa o'quvchilarning jamiyatga moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Polat, 2018).

Uchinchi muammo – raqamli ta'lim jarayonida o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri nisbatan kamayishidir. Masofaviy va onlayn ta'lim shakllarida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqot cheklangan bo'lib, bu tarbiyaviy ta'sir samaradorligini pasaytirishi mumkin. An'anaviy ta'limda o'qituvchi shaxsiy namuna, muloqot va kuzatuv orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, raqamli ta'limda bu imkoniyatlar cheklanadi. Shu sababli, raqamli muhitda tarbiyaviy faoliyatni maxsus metodlar asosida tashkil etish zarurati yuzaga keladi (Yo'ldoshev, 2019).

To‘rtinchi muammo – o‘quvchilarda mas’uliyat va intizom hissining sust rivojlanishidir. Onlayn ta’lim sharoitida ayrim o‘quvchilar darslarga kech qo‘shilish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaslik, akademik halollik qoidalariga rioya qilmaslik holatlariga yo‘l qo‘ymoqda. Bu esa, o‘quvchilarda mas’uliyat, halollik va o‘zini nazorat qilish kabi axloqiy fazilatlarning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi (Abdullayeva, 2021). Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida kiberbulling, soxta axborot tarqatish, plagiat va akademik halollikning buzilishi kabi muammolar ham keng tarqalmoqda. Kiberbulling o‘quvchilarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi, ijtimoiy faolligini cheklaydi va axloqiy tushkunlikka olib kelishi mumkin. Xalqaro tadqiqotlarda ham raqamli muhitda o‘quvchilarni himoyalash va ularning axloqiy ongini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qayd etiladi (UNESCO, 2021). Bundan tashqari, internetga qaramlik muammosi ham axloqiy tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘quvchilarning ko‘p vaqtini gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishi natijasida ularning kitob o‘qish, jismoniy faollik va real muloqotga bo‘lgan qiziqishi pasayib bormoqda. Bu esa, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi hamda axloqiy ongning yetuk shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (OECD, 2020). Raqamli ta’lim sharoitida axloqiy tarbiya muammolarining yana bir jihati – ota-onalar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligidir. Ayrim hollarda ota-onalar farzandlarining raqamli muhitdagi faoliyatini yetarli darajada nazorat qilmaydi, bu esa tarbiyaviy bo‘shliqlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, axloqiy tarbiya jarayonida maktab, oila va jamiyat hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim sharoitida axloqiy tarbiya jarayoni an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Mazkur jarayonni tizimli, uzluksiz va maqsadli tashkil etish, raqamli savodxonlikni oshirish, axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi raqamli kontentlar yaratish hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish zarur. Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani ta’minlash uchun maxsus metodik dasturlar, interaktiv mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar va tarbiyaviy loyihalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mas’uliyatli qaror qabul qilish va axloqiy me’yorlarga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim sharoitida axloqiy tarbiya muammolari murakkab va ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib, ularni hal etish kompleks pedagogik yondashuvni talab etadi. O‘qituvchilar, ota-onalar, ta’lim muassasalari va jamiyatning o‘zaro hamkorligi asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyatgina o‘quvchilarda axloqiy ongni samarali shakllantirish imkonini beradi.

**Axloqiy ongni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar**

Raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarda axloqiy ongni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolish kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, pedagoglar raqamli muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanib, tarbiyaviy jarayonni yangi metodlar asosida tashkil etishlari zarur. Innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda, o‘quvchilarning shaxsiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishiga xizmat qiluvchi zamonaviy metod va vositalar tushuniladi. Bu jarayonda interaktiv darslar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, raqamli platformalar, multimedia vositalari va masofaviy ta’lim resurslari muhim rol

o‘ynaydi (Yo‘ldoshev, 2019). Axloqiy ongni rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Masalan, munozara, bahs, rol o‘ynash, vaziyatli mashqlar orqali o‘quvchilar axloqiy muammolarni mustaqil tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash va boshqalarning nuqtai nazarini hurmat qilishni o‘rganadi. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarda mas’uliyat, halollik, adolat va bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi (Polat, 2018). Raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ta’lim jarayoni ham axloqiy ong rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, videoroliklar, animatsiyalar, virtual muhitlar orqali axloqiy mazmundagi voqealarni tasvirlash o‘quvchilarning hissiy ta’sirchanligini oshiradi. Bu esa ularning axloqiy qadriyatlarni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shuningdek, onlayn forumlar va muhokama maydonchalari orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Loyiha asosida ta’lim texnologiyasi ham axloqiy ongni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘quvchilar guruhda ishlash, muammo yechimini izlash, o‘zaro hamkorlik qilish orqali ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarni egallaydi. Loyiha faoliyati jarayonida o‘quvchilarda jamoada ishlash madaniyati, mas’uliyat, o‘zaro hurmat va hamkorlik kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi (Abdullayeva, 2021).

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ichida raqamli platformalardan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams kabi platformalar orqali o‘quvchilar bilan muntazam muloqot olib borish, tarbiyaviy topshiriqlarni berish va ularni tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy jarayonni boshqaruvchi muhim shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Axloqiy ongni rivojlantirishda media savodxonlikni oshirish ham muhim vazifa hisoblanadi. O‘quvchilarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga, soxta ma’lumotlarni farqlashga, internetdan mas’uliyat bilan foydalanishga o‘rgatish axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotlarda ham media savodxonlik o‘quvchilarning axloqiy va ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlangan (UNESCO, 2021). Shuningdek, axloqiy ongni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga real hayotdan olingan axloqiy muammolarni tahlil qilish topshiriqlari berilishi ularning mustaqil fikrlashini va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning axloqiy mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga ham bevosita bog‘liq. O‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni bilishi, ularni dars jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qila olishi va tarbiyaviy maqsadga yo‘naltira olishi zarur. Shu bois, pedagoglarning malakasini oshirish, ularni innovatsion texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi (OECD, 2020).

Raqamli ta’lim sharoitida axloqiy ongni rivojlantirish jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar farzandlarining raqamli muhitdagi faoliyatini nazorat qilishi, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berishi va axloqiy qadriyatlarni singdirishi zarur. Maktab va oila hamkorligi asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlar samaradorlikni yanada oshiradi. Shuningdek, axloqiy ongni rivojlantirishga qaratilgan raqamli loyihalar, onlayn treninglar, vebinarlar va tarbiyaviy aksiyalarni tashkil etish ham ijobiy natijalar beradi. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning axloqiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni ijtimoiy faollikka undaydi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarda axloqiy ongni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ularni to‘g‘ri va maqsadli qo‘llash orqali o‘quvchilarda mas’uliyat, halollik, hurmat, madaniyat va ijtimoiy burch kabi muhim axloqiy fazilatlarni

shakllantirish mumkin. Shu bois, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni tarbiyaviy yo‘nalishda keng joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Raqamli vositalar orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish**

Raqamli ta’lim sharoitida tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish uchun raqamli vositalardan maqsadli va tizimli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy o‘quvchilar kundalik hayotida turli raqamli qurilmalar, internet resurslari va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Shu sababli, tarbiyaviy jarayonni ham raqamli muhit bilan uyg‘unlashtirish pedagogik zaruratga aylanmoqda. Raqamli vositalar orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, avvalo, o‘quvchilarning axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan kontent yaratishni talab etadi. Videodarslar, motivatsion roliklar, elektron taqdimotlar, interaktiv testlar va virtual mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda tarbiyaviy maqsadga xizmat qiladi. Bunday vositalar orqali o‘quvchilarga axloqiy me’yorlar, jamiyatda o‘zini tutish qoidalari va mas’uliyatli xulq-atvor namunalarini samarali yetkazish mumkin.

Raqamli platformalar tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda keng imkoniyatlar yaratadi. Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams, Zoom kabi platformalar orqali o‘quvchilar bilan muntazam muloqot olib borish, tarbiyaviy topshiriqlarni berish va ularni tahlil qilish mumkin. Ushbu platformalar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning faolligini nazorat qiladi, ularning fikrlarini baholaydi va tarbiyaviy jarayonni boshqaradi. Tadqiqotlarda ham raqamli platformalarning ta’lim va tarbiya jarayonini integratsiyalash imkoniyatlari yuqori baholanadi (Polat, 2018). Raqamli vositalar orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda ijtimoiy tarmoqlardan ham oqilona foydalanish mumkin.

Telegram, Instagram, YouTube kabi platformalarda tarbiyaviy mazmundagi kanallar, guruhlar va sahifalar tashkil etish orqali o‘quvchilarga foydali axborotlar yetkazish mumkin. Bunday muhitda o‘quvchilar axloqiy mavzularda fikr almashadi, savollar beradi va muhokamalarda ishtirok etadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi ularning muloqot madaniyatini kuzatib borish va kerakli yo‘naltirishlar berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Raqamli vositalar orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning muhim yo‘nalishlaridan biri — onlayn treninglar va vebinarlarni tashkil etishdir. Axloqiy tarbiya, kiberxavfsizlik, media savodxonlik, mas’uliyatli onlayn xulq-atvor mavzularida tashkil etilgan vebinarlar o‘quvchilarning bilimini oshiradi va ularni ongli faoliyatga undaydi.

Xalqaro tajribada ham bunday onlayn tadbirlar tarbiyaviy samaradorlikni oshirish vositasi sifatida e’tirof etiladi (UNESCO, 2021). Raqamli vositalar yordamida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda loyiha faoliyati alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilar raqamli loyihalar orqali axloqiy mavzularda prezentatsiyalar, videoroliklar, elektron plakatlar va bloglar yaratadi. Bu jarayonda ular mustaqil izlanadi, axborotni tahlil qiladi va ijodiy yondashuvni namoyon etadi. Natijada, o‘quvchilarda mas’uliyat, ijodkorlik va hamkorlik ko‘nikmalari shakllanadi (Abdullayeva, 2021). Raqamli vositalar orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda virtual muhitlarning imkoniyatlaridan ham foydalanish mumkin.

Virtual muzeylar, tarixiy ekskursiyalar, madaniy obidalar bilan onlayn tanishuv o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday virtual sayohatlar o‘quvchilarning estetik didini rivojlantiradi hamda madaniy ongini oshiradi. Media savodxonlikka yo‘naltirilgan raqamli mashg‘ulotlar ham tarbiyaviy jarayonning muhim qismi hisoblanadi. O‘quvchilarga soxta axborotni aniqlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish, internetdan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotlarda ham media

savodxonlik raqamli muhitda axloqiy ongni rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanadi (Livingstone, 2016).

Raqamli vositalar orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda o‘qituvchining roli alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat texnik vositalarni bilishi, balki ularni tarbiyaviy maqsadga yo‘naltira olishi zarur. Shu bois, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash muhim vazifalardan biridir (Yo‘ldoshev, 2019). Raqamli tarbiyaviy faoliyatda ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar farzandlarining raqamli muhitdagi faoliyatini kuzatishi, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berishi va tarbiyaviy jarayonda faol ishtirok etishi zarur. Maktab va oila hamkorligi asosida tashkil etilgan raqamli tarbiyaviy faoliyat yanada samarali natijalar beradi. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida tarbiyaviy aksiyalar, tanlovlar, onlayn muhokamalar va ijtimoiy loyihalarni tashkil etish ham o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning axloqiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglashga undaydi. Xulosa qilib aytganda, raqamli vositalar orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarda axloqiy ongni shakllantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli vositalarni to‘g‘ri, tizimli va maqsadli qo‘llash orqali o‘quvchilarda mas’uliyat, hurmat, halollik, madaniyat va ijtimoiy burch kabi muhim axloqiy fazilatlarni samarali rivojlantirish mumkin. Shu bois, ta’lim jarayonida raqamli vositalarni tarbiyaviy yo‘nalishda keng joriy etish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, raqamli savodxonligi va metodik yondashuvi tarbiyaviy jarayon samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarda axloqiy ongni shakllantirish tizimli, uzluksiz va maqsadli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina texnologik yondashuv emas, balki insonparvarlik, ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar, dasturlar va ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Raqamli ta’lim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali o‘quvchilarni ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllantirish bugungi ta’lim tizimining eng muhim strategik vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.

2. Abdullayeva M.X. Raqamli ta’lim asoslari. – T.: Fan, 2021.

3.Yo‘ldoshev J.G. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2019.

4. Rasulov A.B. Ta’lim jarayonida axloqiy tarbiya masalalari. – T., 2020.

5. Xolmatova D.S. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish metodikasi. – T., 2018.

6. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2018.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВОГО ИНСТРУМЕНТА ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ «KAHOOT» КАК ФАКТОР МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

**Тулаганов Д.Д., преподаватель УзНПУ имени Низами**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается влияние использования цифрового инструмента «Kahoot» для оценки знаний студентов педагогических специальностей направлений обучения: «Логопедия», «Сурдопедагогика» и «Методика преподавания русского языка и литературы». Влияние демонстрируется на основе экспериментальной работы и сравнения результатов на семинарских занятиях по предмету «Общая педагогика» модуля «История педагогики и педагогическое мастерство».

**Ключевые слова:** педагогическое образование, цифровые инструменты, оценка знаний, геймификация, Kahoot.

В условиях активной цифровизации образования электронные инструменты обучения и контроля знаний занимают всё более значимое место в педагогической практике. Несмотря на то что подобные средства используются в образовательном процессе уже не одно десятилетие, многочисленные исследования подтверждают их положительное влияние на учебную мотивацию обучающихся и результаты освоения дисциплин. Вместе с тем эффективность цифровых технологий не является одинаковой и может существенно различаться в зависимости от характеристик конкретного инструмента, условий его применения и особенностей целевой аудитории. В частности, степень воздействия цифровых решений нередко определяется спецификой подготовки студентов, их познавательными особенностями и мотивационной сферой.

В настоящем исследовании рассматривается применение платформы Kahoot [1] в процессе оценки знаний студентов педагогических направлений подготовки. Данный ресурс представляет собой не только средство тестирования, но и полноценный инструмент геймификации образовательного процесса, объединяющий контроль учебных достижений с элементами соревнования и игровой активности. Между тем, из собственного опыта отмечу, что данный инструмент, хотя и завоевал широкую славу во всём мире, остаётся довольно неоднозначным для педагогики Высшей школы. При использовании Kahoot студенты редко остаются столько же осознанными и мотивированными внутренне, что подтверждает тезис о том, что «Внешняя мотивация является антагонистом внутренней» [2].

Внешняя мотивация в рамках использования Kahoot обусловлена прежде всего игровыми механизмами платформы, включая систему начисления баллов, рейтинговое ранжирование участников и возникающий на этой основе соревновательный компонент [5]. Подобные механизмы способствуют росту заинтересованности студентов в процессе выполнения заданий, однако в ряде случаев стремление к достижению высокого рейтингового результата начинает доминировать над познавательными мотивами, связанными с осмысленным освоением содержания учебной дисциплины.

Для экспериментального анализа данного тезиса перейдём для начала к описанию вводных данных эксперимента. Для него были отобраны 3 группы студентов: 1 группа направления «методика русского языка и литературы», 1 группа направления «сурдопедагогика» и 1 группа направления «логопедия». Во всех трёх группах было примерно равное количество студентов.

Данные собранные в результате контрольного тестирования по итогам контрольного и экспериментального этапов выглядели следующим образом (табл. 1):

Таблица 1. Сравнение средних и медианных баллов по группам

| Группа | Контрольный этап | | Экспериментальный этап | | Разница* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Средний балл студента группы | Медианный балл студента группы | Средний балл студента группы | Медианный балл студента группы | Среднего балла | Медианного балла |
| Русский и литература | 7,7 | 8 | 7,8 | 8 | +0,1 | 0 |
| Сурдопедагогика | 7,55 | 8 | 7,18 | 8 | -0,37 | 0 |
| Логопедия | 7,35 | 8 | 7,5 | 8 | +0,15 | 0 |

* - между контролем и экспериментом

** - максимальный балл составлял 10.

На протяжение трёх семинарских занятий проводился контрольный этап исследования. Во время него после каждого занятия студентам высылался тестник, составленный в google forms и отправляемый через мессенджер telegram в общую группу. На основе данного тестника формировалась часть их оценки за занятие. Часть же оценки ложилась на качество подготовки и презентации докладов по теме. По итогам третьего занятия вместо стандартной формы была отправлена контрольная форма, включающая в себя тесты, на основе не одной, а всех трёх пройденных тем.

На экспериментальном же этапе по итогам трёх занятий так же отправлялась контрольная форма, однако время докладов было несколько сокращено, чтобы в конце занятия студенты имели возможность за расчётное время в 20 минут пройти игру Kahoot. В двух группах раздача QR-кода на игру осуществлялась через телевизор, а в одной – через ноутбук. Однако, существенной роли это не сыграло, хотя и вызвало дополнительные временные задержки.

Таким образом, из данной таблицы мы видим, что использование цифрового инструмента Kahoot повлияло на студентов с точки зрения их знаний в статистически не значительном масштабе. Ни средний балл студентов, ни его медианное значение не сильно изменились, а прямой и в достаточной мере строгой корреляции между использованием инструмента и колебанием в значениях обнаружено не было. Исходя из этого можно было бы сделать однозначный вывод о том, что инструмент бесполезен для целей развития профессионалов в области педагогики, однако, по результатам беседы со всеми группами, выяснилась интересная тенденция.

Так, абсолютно все группы отметили, что занятия стали несколько более интересными и увлекательными, а в результате наблюдения так же было отмечено улучшение отношения к предмету и проводимым темам.

Исходя из этого, можно сделать довольно смелый вывод о том, что инструмент мог бы быть полезен в группах, где результативность значительно снижена в результате профессиональной амотивации, то есть, отсутствия интереса к предмету в

результате не понимания или чаще – не принятия его ценности для будущей карьеры студента. Отмечу здесь, что ни одна из изучаемых групп не относилась к группе с амотивацией или дезмотивацией к предмету или профессии в целом, что, безусловно, поддерживало стабильный хороший и даже отличный балл среди большей части студентов данных групп. При этом ни в одной из указанных групп не было студентов с явными признаками амотивации или дезмотивации, хотя некоторые студенты проявляли «слабое» рвение в освоении дисциплины.

Из этого следует вывод о том, что чтобы установить однозначность данного вывода о полезности или бесполезности инструмента стоит сузить целевую аудиторию опроса, чтобы проверить будет ли положительное отношение к предмету и занятиям в значительной мере влиять на результативность обучения среди «недостаточно» мотивированных студентов, что представляет собой безусловно ключевую точку для расширения эксперимента. Кроме этого, ещё рано делать выводы о том, что инструмент бесполезен для подготовки профессионалов, т.к. не известны последствия его длительного использования. Не понятно в свою очередь ни как внешняя стимуляция будет проявляться на «отличниках» в долгосрочной перспективе, ни на их профессионально личностные устремления, ни на успеваемость студентов после длительного применения с точки зрения гибкости их мышления и адаптивности к другим формам оценивания и методам исследования уровня сформированности знаний, умений и навыков.

Таким образом, исходя из указанных ограничений и перспектив исследования мы можем лишь сказать, что инструмент однозначно не имеет существенного влияния в краткосрочной перспективе на результативность подготовки студентов педагогических специальностей, совмещающих опрос на семинарских занятиях через инструмент Kahoot и использование частично-поисковой формы подготовки докладов для занятий.

**Литература**

1. Kahoot! About us: https://kahoot.com/company/

2. Deci E.L., Koestner R., Ryan R.M. A meta-analytic review of experiments examining the effects of extrinsic rewards on intrinsic motivation // Psychological Bulletin. – 1999. – Vol. 125. – No. 6. – P. 627-668. – DOI: 10.1037/0033-2909.125.6.627.

3. Ryan R.M., Reeve J. Intrinsic motivation, psychological needs, and competition: a self-determination theory analysis // the Oxford Handbook of the psychology of competition. – Oxford University Press, 2021. – P. 240-264.

## ЦИФРОВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ «KAHOOT» И ПОТЕНЦИАЛ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ

**Тулаганов Д.Д., преподаватель УзНПУ имени Низами**

**Аннотация.** В данной статье раскрыт потенциал использования цифрового инструмента «Kahoot» для оценки знаний студентов педагогических специальностей. Потенциал демонстрируется на основе теоретического анализа и практики использования инструмента на семинарских занятиях по предмету «Общая педагогика» модуля «История педагогики и педагогическое мастерство».

**Ключевые слова:** педагогическое образование, цифровые инструменты, оценка знаний, геймификация, Kahoot.

На сегодняшний день цифровые инструменты в педагогике, как и во многих сферах нашей жизни являются одним из самых многообещающих нововведений. Тем не менее, сами по себе они существуют и применяются в педагогике уже довольно давно, а их результативность и влияние на мотивацию и результативность – давно доказанные факты. Тем не менее, различия существуют в рамках конкретных инструментов и степени их непосредственного влияния. Кроме этого, результаты так же могут быть опосредованы особенностями мышления и психики тех или иных групп студентов, в том числе студентами разных направлений подготовки. Кроме этого, в рамках данной статьи пойдёт речь об использовании инструмента Kahoot [1] для проверки знаний студентов педагогических направлений подготовки, представляющего собой не просто цифровой инструмент, а настоящую геймифицированную систему проверки знаний.

Для начала рассмотрим сам инструмент, чтобы продемонстрировать его преимущества и недостатки. В первую очередь, Kahoot представляет собой инструмент проверки знаний и конструктор тестовых заданий. Здесь имеются разнообразные формы представления тестов, например, формат «правда или ложь», одновариантные и многовариантные тесты. К сожалению, здесь нет присущих многим конструкторам тестов видов заданий по типу перетаскивания вариантов (или изображений) в нужное поле, заданий в виде шкал, сопоставления, тестов на последовательность, открытых тестов и т.д., однако, в определённых ситуациях это является только преимуществом, т.к. не перегружает составителя тестов излишним выбором и позволяя сконструировать систему быстрого опроса или «Student response system» [2]. Таким образом этот инструмент идеально подходит для быстрой проверки знаний на семинарских занятиях, если студенты и так выполняли некое задание в рамках занятия и наша задача – проверить усваиваемость материала отдельными студентами.

Из очевидных плюсов можно так же выделить такой элемент геймификации, как рейтинг и очки, на основе которых формируется первое, второе и третье место среди участников опроса [3]. Это очень сильно мотивирует студентов, т.к. возникает чувство азарта, которое ещё и поддерживается элементами дизайна приложения (и его браузерной версии). Очки при этом формируются на основе правильности и скорости ответа, что может, с одной стороны, показать нам безусловность знаний и/или скорость мышления, так и создать когнитивное искажение, т.к. студенты могут «играть» от скалирования по скорости и выдавать ложные ответы, рассчитывая на удачу и множитель скорости.

Защищая эту механику Kahoot, отмечу из своего опыта, что этот недостаток довольно значимо нивелируется грамотным подходом к составлению тестов, который не сильно отличается от стандартных правил составления тестовых заданий. Чем больше вариантов – тем меньше шансов на случайность, грамотное планирование когнитивной нагрузки и баланс между простыми тестами и сложными – защищает от «пролистывания» или «скипинга» тестов, как и разнообразие тематики тестов или включение определённой доли юмора в задания, а разумно большое количество самих

заданий теста (рассчитанное, примерно, минут на 20 от времени занятия) – так же уменьшает шансы на «случайное» попадание в топ мест.

Между тем, очевидный минус данного инструмента – это отсутствие формирующего элемента в игре. В первую очередь – это отсутствие ссылки для студентов на список не правильных ответов. Сами студенты неоднократно отмечали во время беседы с ними то, что им недостаёт этого, чтобы запомнить, где они ошиблись и что им нужно отработать и отрепетировать на будущее.

Нивелировать этот минус можно путём записи неправильно отвеченных вопросов или сомнительных вопросов студентом, однако, методика эта довольно спорная и ситуативная. В первую очередь мешает таймер между вопросами, который при слишком длительных значениях будет вызывать излишние задержки, а при слишком коротких – дезориентацию или даже панику у студентов. Ручное же переключение между вопросами – это дополнительная нагрузка на преподавателя и, что не менее важно, дополнительная нагрузка для студентов, которые часто колеблются, если спрашивать их нужно ли им дополнительное время и это так же создаёт напряжение, увеличивает вероятность «пропусков» вопросов и занимает время.

Кроме этого, сильное влияние здесь имеет так же скорость письма студента, его решительность, а также личная сознательность и настрой на обучение. В свою очередь, отмечу здесь так же, что исходя из собственного, достаточно длительного опыта использования инструмента, такая методика срабатывает крайне редко, т.к. даже мотивированные на обучение студенты, которые часто показывают высокую степень осознанности и внутренней мотивации, при использовании Kahoot редко остаются столько же осознанными, что подтверждает тезис о том, что «Внешняя мотивация является антагонистом внутренней» [4]. Фактором же внешней мотивации здесь является игра, а точнее, формируемый ею рейтинг и соревновательный мотив, возникающий в результате его использования [5]. При этом соревновательный мотив в данном случае оказывается большим раздражителем или активатором нейронов, чем нацеленность на результат и знания.

Таким образом отметим, что к Kahoot, как и другие инструменты геймификации стоит использовать с особой осторожностью и глубоким пониманием того, что нужны противопоставляющие меры, дабы сохранить высокую сознательность среди студентов или учащихся с высокой внутренней мотивацией. Кроме этого, очевидным минусом данного цифрового инструмента является отсутствие подробной статистики для преподавателя обо всех правильно и неправильно отвеченных вопросах для учителя. Нам, как методистам, крайне важно иметь в своём распоряжении такие данные, чтобы иметь возможность дорабатывать тестовые задания для последующих итераций, а также, чтобы понимать с какими студентами какие из аспектов темы или тем стоит проработать подробнее, к какой из тем необходимо вернуться всем классом/группой, а так же, возможно, определить какие из студентов чрезмерно когнитивно или мотивационно перегружены, чтобы проанализировать, понять причины и скорректировать методику работы и/или дальнейшие действия.

Исходя из указанных ограничений и перспектив можно сделать вывод о том, что инструмент теоретически может быть использован для работы со студентами с учётом ряда ограничений и особенностей применения, в том числе с учётом необходимости применения совместимых с инструментом методик, последующего анализа результатов со студентами (рефлексии) и корректирующих форм оценивания, однако,

уже однозначно можно сказать, что применение данного инструмента может значительно повысить скорость работы преподавателя и сэкономить время занятия на иные формы деятельности при сохранении высокой мотивации студентов.

**Литература**

1. Kahoot! About us: https://kahoot.com/company/

2. Herrada R.I., Baños R., Alcayde A. Student response systems: a multidisciplinary analysis using visual analytics // Education sciences. – 2020. – Vol. 10. – No. 12. – DOI: 10.3390/educsci10120348.

3. Huang R., Ritzhaupt A.D., Sommer M. et al. The impact of gamification in educational settings on student learning outcomes: a meta-analysis // Educational technology research and development. – 2020. – Vol. 68. – P. 1875–1901. DOI: 10.1007/s11423-020-09807-z.

4. Deci E.L., Koestner R., Ryan R.M. A meta-analytic review of experiments examining the effects of extrinsic rewards on intrinsic motivation // Psychological Bulletin. – 1999. – Vol. 125. – No. 6. – P. 627-668. – DOI: 10.1037/0033-2909.125.6.627.

5. Ryan R.M., Reeve J. Intrinsic motivation, psychological needs, and competition: a self-determination theory analysis // The Oxford Handbook of the psychology of competition. – Oxford University Press, 2021. – P. 240-264.

## RAQAMLI FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI YOSHLARNING FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR

**Turabova Lobar Xusen qizi, TPMI tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda globallashuv va raqamlashtirish sharoitida yoshlarning fuqarolik faolligi hamda ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Xalqaro ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilayotgan raqamli fuqarolik (digital citizenship) konsepsiyasining mazmun-mohiyati yoritilib, AQSh, Kanada, Finlandiya va Janubiy Koreya tajribalari asosida yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalash mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, raqamli fuqarolik, fuqarolik kompetensiyasi, media savodxonlik, yoshlar siyosati, xalqaro tajriba.

**Аннотация.** В данных тезисах проанализированы педагогические основы развития гражданской активности и социальной ответственности молодежи в условиях глобализации и цифровизации. Раскрыта сущность концепции цифрового гражданства (digital citizenship), широко применяемой в международной образовательной практике. На основе опыта США, Канады, Финляндии и Южной Кореи рассмотрены механизмы воспитания молодежи как социально ответственных граждан. Также разработаны научно-практические рекомендации по интеграции данного опыта в систему образования Узбекистана.

**Ключевые слова:** гражданская активность, социальная ответственность, цифровое гражданство, гражданская компетентность, медиаграмотность, молодежная политика, международный опыт.

Bugungi kunda dunyo miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va axborot-kommunikatsion transformatsiyalar yosh avlodni tarbiyalashga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, yoshlarning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Fuqarolik faolligi nafaqat shaxsning davlat va jamiyat hayotidagi ishtirokini, balki uning ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmasligini, demokratik qadriyatlarga hurmat bilan qarashini ham anglatadi.

So'nggi yillarda xalqaro pedagogik tajribada "raqamli fuqarolik" tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Mazkur konsepsiya yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan mas'uliyatli foydalanishi, axborotlarni tanqidiy tahlil qilishi, virtual makonda etik me'yorlarga amal qilishi hamda jamiyat rivojiga daxldorlik hissini shakllantirishni nazarda tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli fuqarolik kompetensiyalariga ega bo'lgan yoshlar ijtimoiy tashabbuslarda faolroq ishtirok etadi va fuqarolik pozitsiyasini erkin namoyon qila oladi. Fuqarolik ta'limi (Citizenship Education yoki Civic Education) shaxsni jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanadi. U fuqarolarda demokratik qadriyatlar, huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat, vatanparvarlik va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. UNESCO terminologiyasida fuqarolik ta'limi fuqarolarning huquq va majburiyatlari, demokratiya tamoyillari hamda jamiyat hayotidagi faol ishtirokiga oid bilim, ko'nikma va qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim yo'nalishi sifatida tavsiflanadi.

Zamonaviy fuqarolik ta'limining asosiy maqsadi yoshlarni nafaqat qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, balki ularni jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'sha oladigan mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishdan iborat. UNICEF ekspertlarining ta'kidlashicha, fuqarolik ta'limi fuqarolarning jamiyat, davlat va siyosiy hayotda samarali ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni rivojlantiradi.

UNESCO va BMT tomonidan ilgari surilgan Global Citizenship Education (GCED) konsepsiyasi fuqarolik ta'limining zamonaviy modeli hisoblanadi. Ushbu model o'quvchilarda global muammolarni anglash, madaniyatlararo muloqot qilish, tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlariga hurmat bilan qarash va barqaror rivojlanishga hissa qo'shish kompetensiyalarini shakllantirishni maqsad qiladi.

OECD tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, fuqarolik ta'limi samaradorligi an'anaviy ma'ruzalardan ko'ra amaliy faoliyatlar, loyiha ishlari, debatlar, volontyorlik va xizmatli ta'lim (service-learning) texnologiyalari orqali yuqoriroq natija beradi.

AQSh va Kanada maktablarida fuqarolik ta'limi dasturlari raqamli savodxonlik bilan integratsiyalashgan holda olib boriladi. O'quvchilar jamoatchilik muammolarini o'rganish, ijtimoiy loyihalar yaratish hamda mahalliy hamjamiyat faoliyatida qatnashish orqali amaliy tajriba orttiradilar. Finlandiya ta'lim tizimida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash fuqarolik ta'limining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Janubiy Koreyada esa, raqamli etikani shakllantirish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, fuqarolik faolligini rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ta'lim jarayonida loyiha faoliyati, ko'ngillilik harakatlari, ijtimoiy tashabbuslar, debatlar va media mahsulotlar yaratish kabi interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv yoshlarda liderlik, mas'uliyat, hamkorlik va ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ham yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan. Biroq raqamli makonning kengayishi sharoitida yoshlarning media savodxonligi, axborot xavfsizligi madaniyati va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati yanada ortmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, fuqarolik ta’limi mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish hamda ta’lim muassasalari, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish yoshlarning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Xalqaro pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish orqali jamiyat taraqqiyotiga daxldor, faol va mas’uliyatli yosh avlodni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

## Adabiyotlar

1. UNESCO. Global citizenship education: preparing learners for the challenges of the 21st Century. – Paris: UNESCO Publishing, 2015.

2. OECD. Educating for global competence in a rapidly changing world. – Paris: OECD Publishing, 2018.

3. https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp337-339

4. Ibrohimov F.A. Ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim tarbiyaning zarurati // Academic Research in Educational Sciences Vol. 1, No 1, 2020.

# INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY MAS’ULIYAT VA HAMKORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

**Umaraliyeva Muxayo Abdugaparovna, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash” ilmiy-tadqiqot bo‘limi boshlig‘i**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari yoritilgan. Inklyuziv ta’lim sharoitida barcha o‘quvchilarning teng ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlash bilan birga, ularning ijtimoiy moslashuvi, jamoada ishlash ko‘nikmalari va mas’uliyat hissini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda hamkorlikka asoslangan o‘qitish texnologiyalarining samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, ijtimoiy mas’uliyat, hamkorlik kompetensiyasi, pedagogik yondashuv, interaktiv metodlar, kommunikativ ko‘nikma, jamoaviy ish, kompetensiyaviy yondashuv.

Bugungi globallashuv va ta’lim tizimidagi modernizatsiya jarayonlari inklyuziv ta’limni rivojlantirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning, jumladan, maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarning ham umumiy ta’lim jarayoniga teng asosda jalb etilishini ta’minlovchi tizimdir. Mazkur jarayonda nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat, empatiya, hamkorlik va muloqot kompetensiyalarini shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. Chunki, zamonaviy jamiyatda shaxsning

muvaffaqiyati faqat individual bilim bilan emas, balki uning jamoada ishlash, boshqalar bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy mas'uliyatni his etish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois inklyuziv ta'lim muhitida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogikaning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi zamonaviy pedagogik paradigmalardan biri sifatida barcha bolalarning, ularning individual xususiyatlari, psixofiziologik holati va ta'lim ehtiyojlaridan qat'i nazar, teng huquqli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur yondashuv BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"si hamda UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Education for All" tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'limda tenglik, adolat va inklyuziya g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'limda individual farqlar cheklov sifatida emas, balki ta'lim jarayonini boyituvchi resurs sifatida talqin qilinadi. Pedagogik nuqtayi nazardan inklyuziv ta'lim quyidagi asosiy didaktik va ijtimoiy-pedagogik tamoyillarga tayanadi: teng imkoniyatlilik, individuallashtirish, hamkorlikda o'qitish, ijtimoiy integratsiya hamda qo'llab-quvvatlovchi va xavfsiz ta'lim muhiti yaratish. Ushbu tamoyillar o'quv jarayonining nafaqat kognitiv, balki affektiv va ijtimoiy komponentlarini ham qamrab oladi. Natijada o'quvchilarda bilim olish bilan birga kommunikativ, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalar ham izchil rivojlanadi.

Ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi zamonaviy pedagogikada shaxsning jamiyat oldidagi burchini anglash, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga rioya qilish, boshqalarga nisbatan hurmat va adolat tamoyillariga amal qilish hamda jamiyat farovonligiga hissa qo'shish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Inklyuziv ta'lim muhiti ushbu kompetensiyani shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit hisoblanadi, chunki u turli imkoniyatga ega o'quvchilarni birgalikda o'qitish orqali ijtimoiy tajriba almashinuvi va empatik munosabatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasi bir nechta tarkibiy komponentlar orqali shakllanadi: axloqiy ong va qadriyatlar tizimi, empatiya (hamdardlik va boshqalarning holatini tushunish), ijtimoiy faollik, mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalari hamda ijtimoiy normalar va qoidalarga ongli rioya qilish. Ushbu komponentlar o'zaro integratsiyalashgan holda o'quvchilarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi hamda ularni ijtimoiy hayotga faol va mas'uliyatli shaxs sifatida tayyorlaydi. Hamkorlik kompetensiyasi inklyuziv ta'limning markaziy elementlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning guruhda samarali ishlashi, o'zaro fikr almashishi, umumiy maqsadga erishish yo'lida mas'uliyatni taqsimlashi va jamoaviy qarorlar qabul qilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda kooperativ ta'lim texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Xususan, guruhli ishlash, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning), rolli o'yinlar, "aqliy hujum" metodlari hamda juftlikda ishlash texnologiyalari o'quvchilarda kommunikativ madaniyat, tanqidiy fikrlash va jamoaviy mas'uliyatni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Inklyuziv ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyasiga bevosita bog'liqdir. O'qituvchi har bir o'quvchining individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlay olishi, differensial va individual yondashuvni amalga oshirishi, qo'llab-quvvatlovchi psixologik-pedagogik muhit yaratishi hamda sinfda ijtimoiy hamkorlik va o'zaro hurmatni rag'batlantirishi lozim. Shuningdek, pedagogning inklyuziv kompetensiyasi tarkibida tolerantlik, empatiya, moslashuvchan metodik yondashuv va refleksiv tahlil qilish qobiliyati muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim muhitida interaktiv va hamkorlikka asoslangan metodlar tizimli qo'llanilganda o'quvchilarning ijtimoiy faollik darajasi o'rtacha 25-30 foizga oshadi.

Bundan tashqari, guruhli ishlash texnologiyalari o‘quvchilarda hamkorlik ko‘nikmalarini, o‘zaro yordam va ijtimoiy mas’uliyat hissini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Maxsus ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar bilan birgalikda ta’lim olish jarayoni oddiy rivojlanayotgan o‘quvchilarda empatiya, bag‘rikenglik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish motivatsiyasini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy mas’uliyatning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi hamda inklyuziv ta’limning tarbiyaviy samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, inklyuziv muhitda shakllangan ijtimoiy kompetensiyalar o‘quvchilarning kelajakdagi fuqarolik faolligi va jamiyatga integratsiyasini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv yondashuv barcha o‘quvchilarning, ularning individual xususiyatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlaridan qat’i nazar, teng ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon nafaqat bilim berish, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishini ham o‘z ichiga oladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida qo‘llaniladigan interaktiv, hamkorlikka asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Guruhlarda ishlash, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), hamda o‘yin texnologiyalari kabi metodlar o‘quvchilarda o‘zaro muloqot qilish, bir-birini tushunish, yordam berish va mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Adabiyotlar**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6018-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Farmoni.
2. G‘aniyeva, M. Sh. Ijtimoiy-psixologik muhitni boshqarishning pedagogik asoslari, Toshkent, 2020.
3. Umaralieva M.A. O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy muammolarini xal etishda xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat.– T.: Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali №1.,2023. 6-10b.
4. Umaralieva M.A. Development of pedagogical competences of teachers in inclusive educational environment and mechanisms of using effective methods. – European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625.Volume 1, Issue 2, May, 2023. P. 181-187.


## XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KITOBXONLIK ORQALI INTELLEKTUAL, MA’NAVIY-AXLOQIY HAMDA MADANIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISH


**Umirova Marxabo Abdimannobovna,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘quvchilarda, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Unda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, O‘zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hamda oila va maktabning bu jarayondagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy asarlarni o‘qitish bosqichlari, mustaqil mutolaa

ko‘nikmalarini shakllantirish usullari va o‘quvchilarda kitob o‘qish odatini rivojlantirishning samarali yo‘llari bayon etilgan. Jeyms Klirning “Atom odatlar” asarida ilgari surilgan tamoyillar asosida kitobxonlik odatini shakllantirish algoritmi taklif etilib, uning ta’lim jarayonidagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari kitob mutolaasi o‘quvchilarning intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** kitobxonlik madaniyati, kitob mutolaasi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, mustaqil o‘qish, badiiy asar, oila va maktab hamkorligi, ta’lim-tarbiya, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi, Jeyms Klir, atom odatlar, mutolaa odati, ma’naviy tarbiya, pedagogik metodlar.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda bolalarni yoshlikdan boshlab kitobxonlikka o‘rgatishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu sohada AQSh, Angliya, Yaponiya, Germaniya, Koreya, Rossiya kabi davlatlarda yetarlicha tajriba to‘plangan. Kitob mutolaasini tashkil etishda oila dastlab mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan. Chunki, o‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda kitobxonlik va kitob mutolaasining ahamiyati beqiyos. O‘quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirish asosida mustaqil fikrlash sohalarini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko‘p asrlar mobaynida insoniyat o‘z farzandlari va shogirdlarini kitob mutolaasiga o‘rgatishga alohida e’tibor qaratgan. Kitobxonlik yordamida yosh avlodni ulkan madaniy merosimiz va jahon ilm-fani yutuqlari bilan yaqindan tanishtirish imkoniyati vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab, xalqaro tajribalarga tayangan holda yosh avlodni kitob mutolaasiga o‘rgatish, pedagoglarning kitobxonlik darajasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Shu maqsadda 2017-yil 12-yanvarda “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishni qabul qildi. Bu esa, yosh avlodni kitob mutolaasiga o‘rgatishga keng yo‘l ochdi. Chunki, kitob mutolaasi barcha davrlar va barcha davlatlarda insonni ayniqsa yoshlarni ezgulikka undagan. So‘nggi yillarda o‘quvchilar bilan bir qatorda talabalar va pedagoglar ham kitob mutolaasidan bir qadar uzoqlashganliklari yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Internet kitob o‘rnini bosadi, degan noto‘g‘ri yondashuv vujudga keldi. Yoshlar kitobni his qilish tuyg‘usidan uzoqlashdilar. Lekin, o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tajribasi va xalqaro yondashuvlar bolaning ruxiyatini sog‘lomlashtirishda kitob mutolaasi muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda ham yoshlar hayotida kitob muhim o‘rin egallayotganligini so‘nggi yillarda o‘tkazilayotgan tanlovlar yaqqol ko‘rsatdi. Yosh avlodni intellektual hamda ma’naviy jihatdan rivojlantirishda kitobning o‘rnini hech narsa bosa olmasligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan haqiqat hisoblanadi.

Mamlakatimiz bo‘ylab “Yosh kitobxon”, “Eng faol kitobxon guruh”, “Eng kitobxon oila” tanlovlarining tashkil qilinishi va g’olib kitobxonlar turli darajadagi qimmatbaho sovg’alar bilan taqdirlanishi, yirik nashriyotlar tomonidan o‘zbek xalqi va jahon adabiyotining durdona asarlari qayta tahrirlanib, yanada sifatli nashr etilishi, ijtimoiy-ma’naviy k o‘makka muhtoj fuqaro va oilalarga badiiy-estetik salmoqdor kitoblar, badiiy adabiyotlarning tuhfa qilinishi ushbu qonunlarda belgilangan vazifalar ijrosi bo‘lishi bilan bir qatorda aholi, xususan, yosh avlodning mutolaa madaniyatini kamol toptirishga, ma’naviy-ma’rifiy tafakkurini yuksaltirishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi vazifalarning asosiy qismi o‘qish darsida amalga oshiriladi. Bolalar o‘qish darslarida to‘g‘ri, tez, ongli o‘qishga o‘rgatiladi.

*Endi, badiiy asar o‘qitish bosqichlariga to‘xtalib o‘taylik:*

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoshiga mos keladigan ibratli hikoya yoki ertak tanlab olinadi. O‘quvchilar bilan birgalikda badiiy asar to‘g‘ri, tez va ongli o‘ib chiqiladi.
2. Asarning g‘oyaviy asosi, mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.
3. Badiiy asar o‘quvchilarning hayotiy tajribasi bilan umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi.
4. Sinfda o‘qish o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi.

Bolalar bu kabi jarayonda o‘qish bilan birgalikda kitobdan to‘g‘ri foydalanish kerakligini ham o‘rganib boradilar. O‘qituvchi bolalarga kitobni toza, ozoda tutish kerakligini, kitobni o‘tirgan holatda yorug‘ xonalarda o‘qish kerakligini ham tushuntirib boriladi. Bundan tashqari bolalarda kitobxonlikni tarkib toptirish uchun Bolalarda mustaqil kitob mutolaa qilish ko‘nikmasini shakllantirish kerak. Sinfda o‘qituvchi birorta badiiy kitobni belgilangan muddat ichida o‘quvchilar o‘qishi lozimligini aytib o‘tadi. Kitobni o‘qib tugatgan o‘quvchini rag‘batlantirishi aytib o‘tiladi. Bunda bola kitobni uyda o‘zi mustaqil ravishda o‘qiydi, fikrlash doirasi kengayib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mustaqil uyda o‘qishlari uchun kitob tanlayotganda, albatta, bolaning yoshini va qiziqishlarini hisobga olgan holda kitob tanlash lozim.

Bola o‘ziga yoqqan asarni butun vujudi biulan o‘qiydi, nafaqat o‘qiydi, balki o‘qigan badiiy asari haqida mustaqil fikr ham yurita boshlaydi.Bolalar kitob mutolaasini tugatgach, asar haqida savollar berish, bolaning asar haqidagi fikrlarini tinglash bolada kitobga bo‘lgan mehrni yanada o‘stiradi. Masalan, bola asarni o‘qib tugatgach, quyidagi savollarni berish tavsiya etiladi: 1. Asarda nima haqida ekan? 2. Asardagi qaysi qahramonlar sizga yoqdi? Nima uchun? 3. Qaysilari yoqmadi? Nima uchun? 4. Asardan qanday xulosa chiqarsak bo‘lar ekan? Kabi savollar bolaning fikrlashini o‘stiradi hamda nutqining o‘sishiga yordam beradi. Kitob mutolaasiga munosabatni tubdan o‘zgartirish uchun avvalo, ziyoli insonlarga suyanishimiz kerak. Ya’ni, kitob targ’ibotchilari qanchalik bilimli, ziyoli b o‘lsa, shuncha ijobiy natijaga erishish mumkin. Kitoblar qaysi janr yoki mavzuda b o‘lishidan qat’iy nazar, u ma’naviyat quroli ekanini mas’uliyat bilan t o‘la-t o‘kis anglashimiz lozim. Zero, kitob-ma’naviy boyligimizdir.

*Jeyms Klir o‘zining “Atom odatlar” kitobida insonning har qanday odatini rivojlantirish uchun to‘rt asosiy qadamni taklif qiladi:*

1. Aniqlik: odatning aniq va sodda ta’rifi bo‘lishi kerak. Masalan, “Har kuni 10 daqiqa kitob o‘qiyman”.
2. Jozibadorlik: odatni bajarish qiziqarli va manfaatli bo‘lishi lozim. Masalan, kitob o‘qish uchun yoqimli muhit yaratish, jonli muhokamalar uyushtirish.
3. Soddalashtirish: Kitobxonlik odatini amalga oshirish o‘quvchiga oson bo‘lishi zarur. Kitoblar ko‘rinib turishi, qo‘l uzatsa yetadigan, o‘z joyida bo‘lishi kerak.
4. Qoniqish: odatni qo‘llashdan so‘ng bolada ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘onishi kerak. Masalan, kitob o‘qishdan keyin zavqli joylarini atrofdagilarga aytib, yoki yozib borish shular jumlasiga kiradi.

*O‘quvchilarda kitob o‘qishni odatga aylantirish uchun quyidagi algoritm taklif etiladi:*

1. O‘qituvchi, ota-ona uquvchilarga kitob o‘qishning ahamiyatini tushuntirib, buning unga foydalarini uqtirib, kitob o‘qish niyatini paydo qilish.

2. Kitobni aniq belgilangan bir vaqtda o‘qishga o‘rgatish. Ya’ni dastlab kitob o‘qishni kichik qismlarga bo‘lish, masalan, kunlik 5-10 daqiqa o‘qishni yo‘lga qo‘yish.

3. Kitobxonlik uchun qulay va shovqindan xoli joy tayyorlash.

4. O‘quvchilar o‘rtasida “Kitobxonlar tanlovi”ni tashkil etish.

5. Bolani yakka qoldirib qo‘ymaslik. Kitob o‘qish bo‘yicha hamfikrlar topish, guruhlar tuzish va kitob muhokamalarini o‘tkazish.

O‘quvchilarda kitob o‘qish odati qay darajada ekanligi qanday baholanadi? Bu ularning kitob o‘qish vaqtining kundan-kunga oshishi, ularning qiziqish va fikrlash darajasidagi o‘zgarishlar, tanlov va baholash natijalari hamda muhokama davomida ko‘rsatiladigan ijtimoiy faollik, kitobxonlik natijalarni tahlil qilish orqali baholanishi mumkin. Jeyms Klir metodikasini o‘quv jarayonida tatbiq qilish o‘quvchilarda kitob o‘qish odatini shakllantirishda samarali yechim hisoblanadi. Uning to‘rt asosiy tamoyili (aniqlik, jozibadorlik, soddalashtirish, qoniqish) orqali o‘quvchilarning qiziqishi oshirilib, intellektual rivojlanishi ta’minlanadi. Bu tarbiya metodikasi sinf, jamoa darajasida qo‘llanilsa, yanada kuchli natijalar beradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, o‘qish orqali bola to‘liq rivojlangan shaxsga aylanadi va bunda unga birinchi navbatda ota-onalar yordam berishlari kerak.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi PF-4789-son Farmoyishi: https://lex.uz

2. Malikova D.M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishning pedagogik tizimi: Ped. fanl. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) … dis. Avtoref. – T., 2022. – 50 b.

3. Agbezree, L. (2001) Library Facilities and their use in Ghanaian secondary school. Case study of St. Peters. Unpublished MA dissertation, University of Ghana: Legon. P. 70.

4. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.

5. Ernazarov G‘. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Ilm ziyo, 2013.

6. Клир Ж. Атом одатлар. Яхши одатларни ҳосил қилиш ҳамда ёмонларидан халос бўлишнинг осон ва синашта усули. – Т.: ASAXIY BOOKS, 2020. – 49 б.

## ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ И ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ»

**Умрихина В.И., старший преподаватель НПУУз,**
**Усмонова М.О., студентка НПУУз**

**Аннотация.** В статье рассмотрены теоретико-методологические основы формирования гражданственности, гражданской компетентности и культуры учащихся в условиях модернизации системы образования Республики Узбекистан. Раскрыта сущность понятий «гражданственность», «гражданская компетентность» и «гражданская культура», проанализированы научные подходы к их формированию.

Особое внимание уделено воспитательному потенциалу предмета «Воспитание» в развитии гражданственности и гражданской культуры учащихся.
**Ключевые слова:** гражданское воспитание, гражданственность, гражданская компетентность, гражданская культура, предмет «Воспитание», старшеклассники.
**Annotatsiya.** Maqolada Oʻzbekiston Respublikasi ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida oʻquvchilarda fuqarolik, fuqarolik kompetensiyasi va madaniyatini shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari koʻrib chiqiladi. “Fuqarolik”, “fuqarolik kompetensiyasi” va “fuqarolik madaniyati” tushunchalarining mohiyati ochib berilib, ularni shakllantirishga doir ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Talabalarning fuqarolik va fuqarolik madaniyatini rivojlantirishda “Tarbiya” fanining ta’lim salohiyatiga alohida e’tibor qaratiladi.
**Tayanch soʻzlar:** fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik, fuqarolik kompetensiyasi, fuqarolik madaniyati, “Tarbiya” fani, yuqori sinf oʻquvchilari.
**Abstract.** The article examines the scientific and methodological foundations of forming pupil’s citizenship, civic competence, and culture in the context of modernizing the education system of the Republic of Uzbekistan. The essence of the concepts of “citizenship”, “civic competence”, and “civic culture” is revealed, and scientific approaches to their formation are analyzed. Particular attention is paid to the educational potential of the subject “Upbringing” in developing citizenship and civic culture among students.
**Key words:** civic education, citizenship, civic competence, civic culture, subject “Upbringing” high school pupils.

В условиях модернизации системы образования современного Узбекистана и усиления требований к качеству образовательно-воспитательной работы особую актуальность приобретает проблема формирования гражданственности и гражданской компетентности подрастающего поколения [2]. Социальный заказ современного общества Узбекистана ориентирован на воспитание личности, способной осознавать свою принадлежность к государству и обществу, принимать ответственные решения, соблюдать нормы права и морали, проявлять социальную активность и участвовать в решении общественно значимых задач.

Гражданское воспитание представляет собой целенаправленный педагогический процесс формирования гражданственности как интегративного личностного качества, включающего гражданское самосознание, патриотизм, социальную ответственность, правовую культуру и готовность к конструктивному взаимодействию в демократическом обществе [8]. Результатом данного процесса выступает сформированная гражданская компетентность и культура, позволяющая личности эффективно реализовывать свои права и обязанности, участвовать в общественной жизни и способствовать развитию гражданского общества. Гражданское воспитание начинается в системе дошкольного образования и воспитания и продолжается в школе. Целью и интегрирующим результатом гражданского воспитания является гражданственность.

В современной педагогической науке гражданственность рассматривается как сложное социально-нравственное образование, включающее осознание человеком своей принадлежности к государству и обществу, принятие гражданских ценностей, уважение к закону, ответственность за собственные действия и судьбу страны [9]. Структурными элементами гражданственности выступают гражданская осознанность,

ответственность, патриотизм, активная гражданская позиция и уважительное отношение к правам и свободам человека.

Особое место в структуре гражданского воспитания занимает гражданская компетентность, которая представляет собой интегративную характеристику личности, объединяющую когнитивный, деятельностный, ценностно-смысловой и поведенческий компоненты.

Выделение гражданственности как ключевой компетенции начинается со второй половины 1990-х годов. И.А.Зимней был введен термин «компетенции гражданственности».

В современной педагогической науке часто встречается понятие «компетенции гражданственности» и ряд производных, достаточно близких по своему содержанию терминов: «гражданская компетентность», «компетентность гражданственности», «гражданская компетенция».

Проблема формирования гражданской компетенции представлена исследованиями И.А.Зимней, З.С.Мазыр, В.Ш.Масленниковой, Л.В.Орининой. И.А.Зимняя под компетенциями гражданственности предполагает знания и соблюдение прав и обязанностей гражданина; свобода и ответственность, уверенность в себе, собственное достоинство, гражданский долг; знание и гордость за символы государства (герб, флаг, гимн). Гражданскую компетентность, по мнению И.А. Зимней, следует рассматривать как основу социальной, общественной сущности человека как члена социальной общности, государства [4]. З.С.Мазыр определяет гражданскую компетенцию как готовность к применению знаний о праве, политике, обществе, государстве, обладание политико-правовыми умениями и навыками, позволяющими выполнять в конкретных общественных ситуациях гражданские роли (избирателя, законопослушного гражданина, участника общественных организаций, волонтера) [5]. По мнению В.Ш.Масленниковой, гражданская компетенция – это совокупность готовности и способности, позволяющих личности активно, ответственно и эффективно реализовывать весь комплекс гражданских прав и обязанностей в демократическом обществе, применять свои знания и умения на практике [6].

Л.В.Оринина под гражданской компетенцией понимает интегративное качество личности, включающее в себя когнитивный, ценностный, поведенческий и рефлексивный компоненты и проявляющееся в способности любить Родину, защищать интересы своего Отечества, беречь родную природу, хранить и пере давать из поколения в поколение культурные обычаи, традиции своего народа и вырабатывать толерантное отношение к другим народам [7].

Формирование гражданственности и гражданской компетентности является одной из приоритетных задач современного образовательно- воспитательного процесса [9].

Теоретико-методологическую основу формирования гражданственности и гражданской компетентности учащихся составляют компетентностный, аксиологический, личностно-деятельностный и социально-конструктивистский подходы.

Компетентностный подход ориентирует образовательный процесс не только на усвоение системы знаний, но и на формирование способности применять их в различных жизненных ситуациях. В контексте гражданского воспитания данный

подход предполагает развитие у учащихся готовности к реализации гражданских прав и обязанностей, участию в общественной жизни, принятию ответственных решений и конструктивному взаимодействию с окружающими. Гражданская компетентность рассматривается как интегральный результат образования, объединяющий знания, умения, ценностные установки и опыт гражданского поведения.

Аксиологический подход основывается на признании приоритетной роли ценностей в развитии личности. Формирование гражданственности предполагает усвоение учащимися системы общечеловеческих, национальных и демократических ценностей: уважения к человеку, свободе, справедливости, правам личности, ответственности перед обществом и государством. Данный подход обеспечивает становление ценностно-смысловой сферы личности и формирование устойчивой гражданской позиции.

Личностно-деятельностный подход рассматривает учащегося как активного субъекта образовательного процесса. Формирование гражданственности осуществляется через включение школьников в разнообразные виды социально значимой деятельности, позволяющие приобретать личный опыт гражданского участия. Важнейшим условием выступает организация ситуаций выбора, ответственности, сотрудничества и общественно полезной деятельности, в которых происходит интериоризация гражданских ценностей и норм поведения.

Социально-конструктивистский подход базируется на идее конструирования знаний и социальных смыслов в процессе взаимодействия обучающихся друг с другом и с социальной средой. С позиций данного подхода гражданская компетентность формируется посредством коллективного обсуждения общественных проблем, участия в проектах, дебатах, социальных практиках и общественно значимой деятельности. В ходе социального взаимодействия учащиеся приобретают опыт демократического поведения, сотрудничества и гражданской ответственности.

Интеграция указанных подходов позволяет обеспечить целостность процесса формирования гражданственности и гражданской компетентности

Формирование гражданственности и гражданской компетентности должно носить непрерывный и поэтапный характер. Первоначальные основы гражданской идентичности закладываются в семье, дошкольных учреждениях, затем уже в начальной школе через формирование представлений о семье, Родине, социальных нормах и правилах поведения. В основной школе происходит расширение знаний учащихся о правах человека, государственном устройстве, общественных институтах и гражданских обязанностях. На уровне старшей школы приоритетной становится подготовка учащихся к осознанному участию в общественной жизни, развитию навыков критического мышления, социальной ответственности и гражданской инициативности [8].

Значительным воспитательным потенциалом в решении данных задач обладает предмет «Воспитание» («Тарбия»), содержание которого ориентировано на формирование системы духовно-нравственных и гражданских ценностей учащихся. Методическая организация уроков должна обеспечивать переход от усвоения теоретических знаний к приобретению опыта гражданского поведения и социальной практики.

Наиболее эффективными педагогическими технологиями формирования гражданственности выступают технологии активного и интерактивного обучения. В

их числе особое значение имеют проблемное обучение, технология развития критического мышления, проектное обучение, кейс-метод, технология дебатов, социальное проектирование и сервисное обучение. Указанные технологии создают условия для включения учащихся в анализ общественных проблем, поиск путей их решения и реализацию социально значимых инициатив [8]. Эффективным средством формирования гражданской компетентности являются дискуссионные методы обучения. Организация дебатов, круглых столов, общественных слушаний и форумов способствует развитию аргументированной позиции, навыков публичного выступления, толерантности к различным точкам зрения и культуры гражданского диалога. Рассмотрение актуальных социальных, экологических и правовых проблем позволяет формировать у учащихся опыт принятия ответственных решений и оценки общественных последствий собственных действий.

Существенный потенциал имеет метод кейсов, предполагающий анализ реальных или моделируемых жизненных ситуаций гражданско-правового характера. Работа с кейсами способствует развитию правового мышления, умения применять нормативно-правовые знания на практике, оценивать различные варианты поведения и прогнозировать их последствия [8].

Особую роль играет проектная деятельность, реализуемая на уроках Воспитания. Разработка и реализация социальных проектов позволяют учащимся приобретать практический опыт взаимодействия с местным сообществом, органами самоуправления, общественными организациями и волонтёрскими объединениями. Участие в социальных проектах способствует формированию гражданской инициативности, ответственности и навыков командной работы. Важным механизмом формирования гражданской компетентности является организация ученического самоуправления как модели демократических отношений в образовательной организации. Участие школьников в деятельности органов самоуправления обеспечивает освоение процедур принятия коллективных решений, распределения обязанностей, общественного контроля и ответственности за результаты совместной деятельности [8]. Перспективным направлением является использование цифровых образовательных ресурсов и медиатехнологий. Анализ медиаконтента, работа с цифровыми платформами общественного участия, создание социальных медиапроектов способствуют развитию медиаграмотности, критического мышления и информационной культуры учащихся как важных компонентов современной гражданской компетентности.

Особую значимость проблема формирования гражданской компетентности приобретает в старшем школьном возрасте. Данный период характеризуется становлением гражданской идентичности, развитием самосознания, мировоззрения и системы ценностных ориентаций личности.

Старшеклассники проявляют повышенный интерес к общественным процессам, вопросам права, политики, социальной справедливости и собственного места в обществе. Именно в этом возрасте формируется способность к абстрактному мышлению, социальному прогнозированию, нравственной рефлексии и осознанному выбору жизненной позиции.

Кроме того, учащиеся 10-11 классов находятся на этапе подготовки к самостоятельной социальной жизни, когда возрастает необходимость осознания своих прав и обязанностей, ответственности за принимаемые решения и готовности к

выполнению социальных ролей гражданина, избирателя, члена местного сообщества, будущего профессионала и семьянина. В этот период гражданское воспитание приобретает практико-ориентированный характер и направлено на формирование опыта социального участия, гражданской инициативности и ответственности за общественное благополучие [9].

Для оценки эффективности формирования гражданской компетентности учащихся старших классов целесообразно выделить следующие критерии и показатели.

Когнитивный критерий характеризует уровень гражданско-правовых знаний учащихся. Показатели – знание основ Конституции, прав и обязанностей граждан, понимание принципов функционирования государства и гражданского общества, знание государственных символов, историко-культурного наследия страны, понимание социальных и общественно-политических процессов, владение основами правовой и политической грамотности.

Ценностно-мотивационный критерий отражает степень принятия учащимися гражданских ценностей и наличие внутренней мотивации к общественно полезной деятельности. Показатели – проявление патриотических чувств и гражданской идентичности, уважение к законам, правам и свободам человека, признание ценности демократии, справедливости и социальной ответственности, позитивное отношение к общественной деятельности, стремление участвовать в решении социальных проблем.

Деятельностный критерий определяет готовность учащихся применять гражданские знания и умения в практической деятельности. Показатели- участие в деятельности ученического самоуправления, вовлеченность в социальные, волонтерские и экологические проекты, способность принимать ответственные решения в общественно значимых ситуациях, умение защищать свои права законными способами, способность к конструктивному разрешению социальных конфликтов.

Коммуникативный критерий характеризует уровень сформированности навыков социального взаимодействия. Показатели – умение вести диалог и аргументированно отстаивать собственную позицию, уважительное отношение к различным мнениям и взглядам, способность к сотрудничеству и работе в команде, толерантность в межкультурном и межнациональном общении, владение навыками гражданского диалога.

Рефлексивный критерий отражает способность учащихся к самооценке собственной гражданской позиции и поведения. Показатели – осознание собственной роли в жизни общества и государства, способность анализировать последствия своих поступков, готовность нести ответственность за принятые решения, стремление к самосовершенствованию и гражданскому саморазвитию, наличие устойчивой гражданской позиции.

На основе указанных критериев можно выделить три уровня сформированности гражданской компетентности учащихся 10-11 классов:

Высокий уровень – системные гражданско-правовые знания, устойчивая гражданская позиция, активное участие в общественной деятельности, проявление социальной ответственности и инициативности.

Средний уровень – достаточный объем знаний и положительное отношение к гражданским ценностям при эпизодическом участии в общественно значимой деятельности.

Низкий уровень – фрагментарные знания, слабая выраженность гражданских ценностей и низкая степень социальной активности.

Уровень сформированности гражданской компетентности старшеклассников может рассматриваться как один из важнейших показателей становления их гражданской культуры – это совокупность знаний, ценностей, норм и моделей поведения, определяющих активное и осознанное участие человека в жизни общества и государства. Она обеспечивает баланс между личной свободой, правами гражданина и соблюдением законов [9].

Формирование гражданственности и гражданской компетентности и культуры на уроках Воспитания представляет собой комплексный и многоуровневый процесс, требующий системного педагогического сопровождения. Предмет «Воспитание» обладает значительным потенциалом для реализации задач гражданского воспитания благодаря интеграции ценностного содержания, активных методов обучения и практико-ориентированных форм деятельности. Эффективность данного процесса обеспечивается сочетанием когнитивного, деятельностного и аксиологического подходов, позволяющих формировать личность активного, ответственного и компетентного гражданина современного общества.

**Литература**

1. Закон № ЗРУ-637 «Об образовании» от 23 сентября 2020 года. Концепция непрерывного духовного воспитания Республики Узбекистан. – Ташкент, 2019.

2. УП-134 Республики Узбекистан «Об утверждении Национальной программы по развитию школьного образования в 2022-2026 годах» от 11 мая 2022 года.

3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – М., 2003. – № 5. – С. 34-42.

4. Мазыр З.С. Формирование гражданской компетентности учащейся молодежи. – М.: БГПУ, 2008. – 198 с.

5. Масленникова В.Ш. Гражданское образование и гражданская компетентность личности // Педагогика. – 2007. – № 1. – С. 45-51.

6. Оринина Л.В. Формирование гражданской компетенции школьников в условиях современного образования: Монография. – Й-О., 2014. – 184 с.

7. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – М., 2003. – № 2. – С. 58-64.

8. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М.: Академия, 2013. – 608 с.

## O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI FAOL FUQAROLIK VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT RUHIDA TARBIYALASHDA XALQARO TAJRIBA

**Usmanova Z.B., TPMI mustaqil izlanuvchisi**

Mazkur maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari hamda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida to‘plangan ilg‘or tajribalar tahlil qilingan. AQSh, Finlyandiya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlarida amalga oshirilayotgan fuqarolik ta’limi, volontyorlik faoliyati, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ijtimoiy loyihalar va

jamoatchilik bilan hamkorlik mexanizmlari o‘rganilgan. Shuningdek, mazkur tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etishning dolzarb yo‘nalishlari hamda pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, o‘smir yosh, fuqarolik ta’limi, volontyorlik, demokratik qadriyatlar, xalqaro tajriba, ijtimoiy kompetensiya, tarbiya.

Hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar yosh avlodni tarbiyalashga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy jamiyatda faqat bilimli emas, balki faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan, jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg‘usi shakllangan shaxslarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda shaxsning qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan qarashlari, fuqarolik pozitsiyasi va hayotiy maqsadlari shakllanadi. Shu sababli maktab va boshqa ta’lim muassasalarida o‘smirlarning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish masalasi pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda dunyo mamlakatlarida fuqarolik ta’limiga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, huquq va majburiyatlarini anglaydigan, demokratik qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan fuqaro sifatida shakllantirish vazifasini ham bajarmoqda. Shu o‘rinda aytadigan bo‘lsak, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatning pedagogik mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik faolligi shaxsning davlat va jamiyat hayotidagi jarayonlarga ongli munosabat bildirishi, jamoatchilik ishlarida ishtirok etishi, o‘z huquq va burchlarini bilishi hamda mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intilishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan fuqarolik faolligi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: huquqiy bilimlar; demokratik qadriyatlarga sodiqlik; ijtimoiy tashabbuskorlik; tanqidiy fikrlash; jamoada ishlash ko‘nikmalari; qaror qabul qilishda ishtirok etish.

Ijtimoiy mas’uliyat esa, shaxsning o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini anglashi, jamiyat va atrofdagilar manfaatlarini hisobga olishi hamda ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishi bilan bog‘liq xususiyat hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar bo‘lib, ularning rivojlanishi shaxsning ijtimoiylashuv darajasini belgilaydi.

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar va raqamli muhit ta’sirida shakllanayotganligi ularda mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishni yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda.

O‘smirlik davrining o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat: mustaqillikka intilish; o‘z fikrini erkin bildirish ehtiyoji; tengdoshlar ta’sirining kuchayishi; ijtimoiy adolatga yuqori qiziqish; jamoatchilik ishlarida qatnashish istagining paydo bo‘lishi.

Mazkur xususiyatlardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish mumkin. Fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat masalasida halqaro tajribalarga to‘xtaladigan bo‘lsak. Masalan: *AQSh ta’lim tizimida fuqarolik tarbiyasi.* AQShda fuqarolik ta’limi demokratik jamiyatning muhim asoslaridan biri sifatida qaraladi. Maktablarda "Civics Education" dasturlari orqali o‘quvchilar davlat boshqaruvi tizimi, Konstitutsiya, inson huquqlari va fuqarolarning jamiyatdagi o‘rni haqida bilim oladilar.

Fuqarolik ta'limida quyidagi usullardan keng foydalaniladi: debat va munozaralar; sud jarayonlari modellari; talabalar parlamenti; ijtimoiy xizmat loyihalari; volontyorlik dasturlari.

Ko'plab maktablarda o'quvchilar mahalliy aholi muammolarini o'rganib, ularni hal qilish bo'yicha loyihalar ishlab chiqadilar. Masalan, ekologik muammolar, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash yoki xayriya tadbirlarini tashkil qilish orqali ijtimoiy mas'uliyat hissi rivojlantiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

*Finlyandiya tajribasi: demokratik ishtirok madaniyatini shakllantirish.* Finlyandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng samarali tizimlardan biri sifatida tan olingan. Ushbu mamlakatda fuqarolik tarbiyasi alohida fan sifatida emas, balki barcha o'quv fanlari va tarbiyaviy tadbirlarga integratsiya qilingan. Maktablarda o'quvchilar: qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etadi; maktab kengashlari faoliyatiga jalb qilinadi; jamoaviy loyihalarni amalga oshiradi; inson huquqlari bo'yicha tadbirlarda qatnashadi. Finlyandiyalik pedagoglar fuqarolik faolligini rivojlantirishning eng muhim sharti sifatida ishonch va hamkorlik muhitini ko'rsatadilar. O'quvchi o'z fikri qadrlanishini his qilganida, uning jamiyat ishlariga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Germaniya ta'lim tizimida esa, demokratik madaniyatni shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktablarda: o'quvchilar kengashlari; yoshlar parlamentlari; ijtimoiy aksiyalar; jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik dasturlari amalga oshiriladi. Germaniyada "Xizmat orqali ta'lim" (Service Learning) modeli keng tarqalgan. Unda o'quvchilar jamoatchilik ishlarida ishtirok etish orqali muayyan fanlar bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydilar. Masalan, ekologik loyihada qatnashgan o'quvchi biologiya va geografiya bo'yicha bilimlarini ham amaliy jihatdan boyitadi.

Yaponiya ta'lim tizimida esa, jamoaviylik va mas'uliyatlilik muhim o'rin tutadi. Maktablarda o'quvchilarning kundalik hayotida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi maxsus amaliyotlar mavjud. Jumladan: sinf xonalarini tozalash; umumiy hududlarni parvarishlash; kichik yoshdagi o'quvchilarga yordam berish; jamoaviy tadbirlarni tashkil qilish. Bu ishlar o'quvchilarning mehnatga munosabati, intizomi va jamoat mulkiga ehtiyotkorlik hissini rivojlantiradi.

Yaponiyalik mutaxassislarning ta'kidlashicha, ijtimoiy mas'uliyat alohida darslar orqali emas, balki kundalik faoliyat jarayonida shakllanadi. Janubiy Koreya ta'lim tizimida esa, volontyorlik ishlari muhim o'rin egallaydi. O'quvchilar ma'lum miqdordagi ijtimoiy xizmat faoliyatida ishtirok etadilar. Ular: keksalar uylarida yordam berish; atrof-muhitni muhofaza qilish aksiyalarida qatnashish; xayriya tadbirlarini tashkil etish; mahalliy jamoalar bilan hamkorlik qilish kabi ishlarga jalb qilinadilar. Natijada, yoshlarda hamdardlik, ijtimoiy mas'uliyat va jamoatchilik manfaatlariga daxldorlik hissi shakllanadi. Shu o'rinda aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda ham yoshlarning fuqarolik faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda maktablarda o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, "Yoshlar ittifoqi" faoliyati, volontyorlik harakatlari va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash ishlari kengaymoqda.

*Xalqaro tajribalar tahlili asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:* fuqarolik ta'limi mazmunini yanada takomillashtirish; volontyorlik faoliyatini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish; maktab parlamentlari faoliyatini kuchaytirish; ijtimoiy loyihalar tanlovlarini tashkil etish; ota-ona, mahalla va maktab hamkorligini rivojlantirish; raqamli

fuqarolik madaniyatini shakllantirish; ekologik va ijtimoiy aksiyalarda o‘quvchilar ishtirokini kengaytirish.

Tahlil qilingan xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. AQShda amaliy fuqarolik ta’limi, Finlyandiyada demokratik ishtirok madaniyati, Germaniyada xizmat orqali ta’lim, Yaponiyada kundalik mas’uliyat tarbiyasi va Janubiy Koreyada volontyorlik harakatlari yuqori samara berayotgani kuzatilmoqda.

Ushbu tajribalarni milliy qadriyatlar, ta’lim an’analari va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish yoshlarning fuqarolik ongi, ijtimoiy mas’uliyati va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan faol va mas’uliyatli avlodni tarbiyalash imkoniyati yanada kengayadi.

**Adabiyotlar**


1. UNESCO. Global Citizenship education: topics and learning objectives. Paris, 2015.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
3. Pirnazarov G‘.N. Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda huquqiy tarbiyaning o‘rni. – T., 2016.


## ЦЕННОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ: СИНТЕЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И ИДЕЙ НИЗАМИ ГАНДЖАВИ


**Файзуллаева З.Б., доцент НПУУз им. Низами,**
**доктор философии (PhD) по педагогическим наукам**



**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретико-методологические основы кредитно-модульной системы обучения и её воспитательный потенциал. Особое внимание уделяется интеграции гуманистических ценностей наследия Низами Ганджави в образовательный процесс как фактору формирования гражданской активности и социальной ответственности молодежи.



**Ключевые слова:** кредитно-модульная система, ценностно-ориентированное воспитание, воспитательный потенциал образования, гуманистические ценности, наследие Низами Ганджави, гражданская активность молодежи, социальная ответственность, модульное обучение, интеграция международного опыта, духовно-нравственное воспитание, компетентностный подход, образовательные реформы.


В условиях глобализации и модернизации образования особую актуальность приобретает проблема формирования у молодежи гражданской активности и социальной ответственности. Современные образовательные системы стремятся сочетать международные стандарты качества с национально-культурными ценностями, что обусловливает необходимость поиска эффективных педагогических моделей воспитания личности. Одной из таких моделей выступает кредитно-модульная система обучения, обеспечивающая интеграцию национальных образовательных систем в мировое пространство и ориентированная на развитие компетентной и социально зрелой личности.

**Теоретические основы кредитно-модульной системы**. Кредитно-модульная система обучения сформировалась в рамках Болонского процесса как инструмент стандартизации образования и обеспечения академической мобильности. Её сущность заключается в структурировании образовательного процесса на модули – завершённые блоки содержания, оцениваемые в кредитах (ECTS).

Согласно подходам ЮНЕСКО, модуль рассматривается как самостоятельный обучающий пакет, включающий цели, содержание и методическое сопровождение обучения [3, с. 143]. Такая организация обеспечивает гибкость, индивидуализацию и управляемость образовательного процесса.

**Воспитательный потенциал кредитно-модульной системы.** В современных условиях кредитно-модульная система выходит за рамки организационной модели обучения и приобретает выраженную воспитательную направленность. Воспитательный компонент становится системообразующим элементом образовательного процесса, обеспечивая формирование у студентов ответственности, саморегуляции, критического мышления и социальной активности.

Как отмечает Н.И.Мамадалиева, переход к данной системе усиливает самостоятельную деятельность студентов, что способствует развитию дисциплины, ответственности и осознанного отношения к обучению [7, с. 17]. Модульная организация обучения создаёт условия для реализации активных форм деятельности – проектной, исследовательской, рефлексивной, что способствует формированию социально значимых компетенций и гражданской позиции обучающихся.

**Международный и национальный опыт.** Международная практика показывает, что кредитно-модульная система успешно реализуется в странах Европы, США и Азии, где она сочетается с принципами академической честности и студентоцентрированного обучения. Это способствует развитию автономии студентов и повышению качества образования. В Узбекистане внедрение данной системы рассматривается как важный этап реформирования образования. Особое значение придаётся сочетанию международного опыта с национальными традициями, ориентированными на духовно-нравственное воспитание личности.

**Ценностный потенциал наследия Низами Ганджави.** Важнейшим ресурсом воспитания в условиях кредитно-модульной системы выступает наследие Низами Ганджави, содержащее богатый комплекс гуманистических и нравственных идей.

Ключевые ценности, представленные в его произведениях –справедливость, трудолюбие, ответственность, гуманизм и самосовершенствование – формируют основу духовно-нравственного развития личности и обладают универсальным воспитательным значением.

Интеграция данных ценностей в образовательные модули позволяет связать профессиональное обучение с формированием моральных ориентиров и социальной ответственности студентов.

Модульный подход в рамках кредитно-модульной системы создаёт широкие педагогические возможности для включения нравственно-гуманистических идей Низами Ганджави в образовательный процесс. Использование его притч и дидактических сюжетов в структуре учебных модулей позволяет перейти от абстрактного усвоения ценностей к их деятельностному осмыслению через анализ, обсуждение и практическое применение. Так, в повести «Повесть об Искандере и мудром пастухе» из поэмы «Искандарнома» раскрывается идея нравственного

превосходства мудрости над властью. Диалог между правителем и простым пастухом может быть использован в учебных модулях как кейс для обсуждения проблем социальной ответственности, справедливого управления и этики лидерства. Анализ данного сюжета способствует формированию у студентов способности к критической оценке власти, развитию эмпатии и понимания значимости служения обществу.

Не менее значимым является обращение к дидактическим наставлениям поэта, посвящённым культуре речи и саморегуляции. Высказывания Низами о сдержанности, уместности слова и интеллектуальной скромности могут быть интегрированы в задания по рефлексии и коммуникативным практикам, формируя у обучающихся навыки ответственного речевого поведения, самоконтроля и осознанного взаимодействия («говорить мало, но с умом», «не говорить без необходимости») [2, с. 22]. В «Повести о Соломоне и поселянине» из поэмы «Махзан ул-асрор» особое внимание уделяется идее нравственного труда и ответственности за результаты своей деятельности. Образ «сеяния достойного зерна» может интерпретироваться в образовательном процессе как метафора формирования личностных качеств и профессиональных компетенций. Включение данного сюжета в модульные задания (дискуссии, проекты, эссе) способствует развитию у студентов ценностного мышления, умения соотносить свои действия с долгосрочными результатами и общественным благом [8, с. 89]. Значит, анализ притч, обсуждение моральных дилемм и организация проектно-исследовательской деятельности на основе произведений Низами Ганджави позволяют реализовать ценностно-ориентированный потенциал кредитно-модульной системы. Это способствует развитию критического мышления, эмпатии, коммуникативной культуры и способности к нравственному выбору, превращая образовательный процесс в пространство формирования социально ответственной и духовно зрелой личности.

Практика педагогических вузов Узбекистана показывает, что включение наследия Низами в содержание дисциплин способствует формированию у будущих педагогов гуманистического мировоззрения и профессиональной ответственности [4, с. 64]. Важную роль играет также подготовка учителей к преподаванию предмета «Воспитание» (Тарбия), что закреплено нормативными документами [1].

**Ценностно-ориентированный подход в контексте мировой педагогики.** Современные зарубежные исследования подтверждают необходимость интеграции нравственных ценностей в образовательный процесс. Так, Джеймс Артур подчёркивает, что образование должно быть направлено на формирование моральных добродетелей, таких как справедливость, честность и ответственность [5, с. 334].

Аналогичный подход прослеживается в работах зарубежных исследователей, предлагающих внедрение этических компонентов в учебные модули как обязательной части подготовки специалистов [6].

Таким образом, кредитно-модульная система обучения представляет собой эффективную педагогическую модель, обеспечивающую не только организацию образовательного процесса, но и формирование ценностно-ориентированной личности. Интеграция гуманистических идей Низами Ганджави в структуру модульного обучения усиливает воспитательный потенциал системы, способствуя развитию у молодежи гражданской активности, социальной ответственности и духовной зрелости. Синтез международного педагогического опыта и национального культурного наследия позволяет создать образовательную среду, ориентированную на

формирование гармонично развитой личности, способной к ответственному участию в общественной жизни.

**Литература**


1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 1059 «О мерах по реализации и утверждения Концепции непрерывного духовного воспитания» от 31.12.2019 года: https://lex.uz/uz/docs/

2. Абед-Халил А.И. Использование нравственного потенциала ислама в воспитании учащихся подросткового возраста: Дис. ... канд. пед. наук. – Д., 1996.

3. Агержанокова М.М. Теоретические основы технологии модульного обучения: file:///C:/Users/User/Downloads/teoreticheskie-osnovy-tehnologii-modulnogo-obucheniya.pdf

4. Файзуллаева З.Б. История педагогики. Учебное пособие. – Т.: Ma’rifat, 2025. – 279 с.

5. Arthur, James. Character education in universities // Church, communication and culture, vol. 9, no. 2. – P. 329-344.

6. Benjamin S. Baumer, Randi L. Garcia, A.Y., Kim K.M. Kinnaird, Miles Q.Ott. Integrating data science ethics into an undergraduate major: a case study // Accepted author version posted online: 07 Mar 2022, Published online: 14 Mar 2022. – P. 15-28.

7. Mamadaliyeva N.I. The method of organizing independent education in the credit-module system in higher education institutions // European science review. 2023. № 3-4. – P. 12-18.

8. Mansurov U. Tarbiya va uni o‘qitish texnologiyalari. – T., 2023. – 142 c.


## RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA YOSH AVLODDA FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH: AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING XALQARO TAJRIBALARI


**Fazilova Lutfinisa Azamadxodjayevna,**
**Toshkent davlat tibbiyot universiteti katta o‘qituvchisi**



**Annotatsiya.** Maqolada raqamli ta’lim muhitida yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yoshlarning fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Finlandiya, Singapur, AQSh va Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilib, ularni milliy ta’lim tizimiga joriy etish istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli fuqarolik, media savodxonlik va onlayn ijtimoiy hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari taklif etilgan.



**Kalit so‘zlar:** raqamli ta’lim, fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, raqamli fuqarolik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media savodxonlik, yoshlar, xalqaro tajriba.


Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlodning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi yoshlarning ijtimoiy hayotda ishtirok etish shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda yoshlar nafaqat an’anaviy ijtimoiy institutlar, balki raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron ta’lim muhitlari orqali

ham fuqarolik pozitsiyasini namoyon etmoqda. Shu sababli ta'lim tizimida raqamli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish, media savodxonlikni rivojlantirish va axborotdan mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, xalqaro tajribalarni tahlil qilish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, UNESCO, OECD va Yevropa Ittifoqining raqamli ta'lim va fuqarolik kompetensiyalariga oid tavsiyalari tahlil qilindi. Raqamli ta'lim muhitida fuqarolik faolligining mazmuni. Bun fuqarolik faolligi shaxsning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, ijtimoiy muammolarni hal etishga hissa qo'shishi va o'z huquq hamda majburiyatlarini anglashini ifodalaydi. Raqamli muhitda fuqarolik faolligi quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: ijtimoiy tashabbuslarda onlayn ishtirok etish; raqamli platformalar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish; elektron davlat xizmatlaridan foydalanish; ijtimoiy loyihalarni tashkil etish va boshqarish; raqamli volontyorlik faoliyatida qatnashish.

Ijtimoiy mas'uliyat esa shaxsning o'z harakatlari natijalarini anglash, jamiyat manfaatlarini inobatga olish va axborotdan etik me'yorlarga muvofiq foydalanishini anglatadi.

*Finlandiya tajribasi.* Finlandiya ta'lim tizimida media savodxonlik va raqamli fuqarolik kompetensiyalari maktab dasturlariga integratsiya qilingan. O'quvchilar internetda xavfsiz harakatlanish, axborotni tanqidiy tahlil qilish va raqamli etikaga rioya etish ko'nikmalarini egallaydilar.

*Singapur tajribasi.* Singapurda "Digital Citizenship Education" dasturi orqali yoshlarda onlayn mas'uliyat, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat shakllantiriladi. Ta'lim jarayonida interaktiv platformalar va loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

*AQSh tajribasi.* AQSh maktablari va universitetlarida service learning texnologiyasi qo'llanilib, talabalarning ijtimoiy loyihalarda ishtiroki qo'llab-quvvatlanadi. Raqamli vositalar orqali yoshlarning fuqarolik tashabbuslari va volontyorlik faoliyati rag'batlantiriladi.

*Janubiy Koreya tajribasi.* Janubiy Koreyada raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktablarda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

*Raqamli ta'lim muhitida yoshlarning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish uchun quyidagi pedagogik shartlarni yaratish zarur:* raqamli fuqarolik kompetensiyalarini ta'lim dasturlariga integratsiya qilish; media va axborot savodxonligini rivojlantirish; elektron ta'lim platformalaridan samarali foydalanish; loyihaviy va muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash; onlayn volontyorlik va ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash; kiberxavfsizlik va raqamli etika bo'yicha bilimlarni mustahkamlash. Raqamli ta'lim muhiti yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytiradi, raqamli fuqarolik madaniyatini rivojlantiradi va ijtimoiy mas'uliyat hissini mustahkamlaydi. O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda joriy etish, media savodxonlikni rivojlantirish, elektron ta'lim platformalarini takomillashtirish hamda raqamli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar**

1. Fazilova L.A. Yoshlarni ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlangan podkast va videokontentlar yaratish hamda ularni ommalashtirish // Raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tatbiq etish: muammolar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman. – C. 246-249.

2. Fazilova L.A. Ota-onalarning pedagogik mahoratini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari // Ota-onalarning farzand tarbiyasiga oid metodik bilimlarini rivojlantirish mexanizmlari: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman. – B. 124-127.

3. Ibraimov X.I. Raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarning media savodxonligini rivojlantirish orqali kiberxavflardan himoyalash algoritmlari // Raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarda axloqiy ong va kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2026-yil 10-fevral. – C. 7-11.

4. UNESCO. Digital citizenship education handbook. – Paris: UNESCO, 2019.

5. OECD. 21st-Century readers: developing literacy skills in a digital world. – Paris: OECD Publishing, 2021.

6. Ribble Mike. Digital citizenship in schools. – 3rd ed. – Eugene: international society for technology in education, 2015.

7. Council of Europe. Digital citizenship education handbook. – Strasbourg: Council of Europe, 2019.

8. Choi M. A concept analysis of digital citizenship for democratic citizenship education in the internet age // Theory & research in social education. – 2016. – Vol. 44(4). – P. 565-607.

# ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ДУХЕ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОПЫТА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

**Хакимова Б.М., старший научный сотрудник НИПВ,**
**доктор философии по педагогическим наукам (PhD)**

**Аннотация.** В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты воспитания молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности в условиях современных общественных трансформаций. На основе анализа международного педагогического опыта исследованы подходы к формированию гражданских компетенций молодежи в различных странах мира. Проведен сравнительный анализ систем гражданского воспитания Финляндии, Германии, Сингапура, Канады и Республики Корея.

Особое внимание уделено роли социально-эмоционального обучения (SEL), волонтерской деятельности и проектного обучения в развитии социальной ответственности молодежи. Обоснована необходимость адаптации успешных международных практик к национальным условиям развития системы образования Республики Узбекистан. Предложены рекомендации по совершенствованию механизмов формирования гражданской активности и социальной ответственности подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** гражданская активность, социальная ответственность, молодежь, гражданское воспитание, международный опыт, социально-эмоциональное обучение, волонтерство, образовательная политика, гражданские компетенции, воспитательная деятельность.

Современный этап развития мирового сообщества характеризуется масштабными социальными, экономическими и технологическими преобразованиями, оказывающими непосредственное влияние на процессы социализации и воспитания подрастающего поколения. Стремительное развитие цифровых технологий, глобализация информационного пространства, трансформация традиционных социальных институтов и изменение ценностных ориентиров молодежи обусловливают необходимость переосмысления подходов к организации воспитательной деятельности в образовательных учреждениях. В данных условиях особую значимость приобретает проблема формирования гражданской активности и социальной ответственности молодежи как важнейших качеств личности, обеспечивающих устойчивое развитие государства и гражданского общества.

Международный опыт свидетельствует о том, что уровень гражданской активности молодежи напрямую связан с качеством системы образования и воспитания. В последние десятилетия многие государства пересмотрели традиционные подходы к гражданскому воспитанию, сместив акцент с передачи теоретических знаний на развитие практических навыков общественного участия, критического мышления и ответственного принятия решений. Такая трансформация обусловлена пониманием того, что современный гражданин должен не только обладать знаниями о государственном устройстве и правах человека, но и быть готовым к активному участию в общественной жизни, решению социальных проблем и взаимодействию с различными общественными институтами.

Особый интерес представляет опыт Финляндии, которая на протяжении многих лет демонстрирует высокие показатели гражданской вовлеченности молодежи. Финская образовательная система рассматривает гражданское воспитание как междисциплинарное направление, интегрированное во все учебные предметы. В отличие от традиционных моделей, предполагающих изучение граждановедения в рамках отдельного курса, финский подход ориентирован на формирование демократической культуры через повседневную практику школьной жизни. Учащиеся принимают участие в обсуждении вопросов школьного самоуправления, организации образовательного процесса и реализации социальных проектов. Подобный подход способствует развитию ответственности за принимаемые решения и формированию навыков коллективного взаимодействия.

В Германии гражданское воспитание традиционно основывается на принципах демократического участия и политической культуры. Значительное внимание уделяется формированию способности молодежи критически оценивать общественно-политические процессы и принимать участие в их обсуждении. Важную роль играют молодежные парламенты, ученическое самоуправление и различные формы общественного диалога. Практика показывает, что вовлечение школьников в процессы принятия решений способствует развитию гражданского самосознания и ответственности за благополучие общества.

Сингапурская модель гражданского воспитания имеет собственную специфику, обусловленную особенностями национальной образовательной политики. В рамках программы Character and Citizenship Education воспитательная работа направлена на формирование национальной идентичности, социальной ответственности и готовности к служению обществу. Значительное место занимают общественно полезные проекты и волонтерская деятельность, позволяющие учащимся приобретать практический опыт взаимодействия с различными социальными группами.

Следует отметить, что эффективность данной модели подтверждается высоким уровнем социальной дисциплины и общественной ответственности сингапурской молодежи. В Канаде важным элементом гражданского воспитания выступает обязательное участие учащихся в волонтерской деятельности. Во многих провинциях для получения аттестата выпускники должны выполнить определенное количество часов общественно полезной работы.  Такая практика позволяет молодым людям осознать собственную роль в решении социальных проблем и способствует формированию устойчивой установки на общественное служение.

Анализ канадского опыта показывает, что участие в социальных проектах оказывает положительное влияние на развитие лидерских качеств, коммуникативных навыков и чувства ответственности перед обществом.

Интерес представляет и опыт Республики Корея, где особое внимание уделяется формированию коллективной ответственности и социальной солидарности. В образовательных учреждениях широко внедряются программы социально-эмоционального обучения, направленные на развитие эмпатии, саморегуляции и навыков конструктивного взаимодействия.

Результаты исследований свидетельствуют о том, что учащиеся, прошедшие обучение по программам SEL, демонстрируют более высокий уровень социальной ответственности и гражданской активности по сравнению со сверстниками, не участвовавшими в подобных программах.

Сравнительный анализ зарубежного опыта позволяет выделить ряд общих закономерностей, обеспечивающих эффективность гражданского воспитания. Во-первых, гражданская активность рассматривается как практический навык, формируемый посредством реального участия в общественной деятельности. Во-вторых, воспитательная работа носит системный и непрерывный характер, охватывая все уровни образования. В-третьих, особое внимание уделяется развитию социально-эмоциональных компетенций как основы ответственного поведения личности.

В последние годы все большую популярность приобретает концепция социально-эмоционального обучения (Social and Emotional Learning – SEL), разработанная специалистами CASEL. Согласно данной концепции, развитие самосознания, саморегуляции, социальной осведомленности, навыков взаимоотношений и ответственного принятия решений способствует формированию социально активной личности, способной эффективно взаимодействовать с обществом. Метаанализ исследований, проведенный J.Durlak и соавторами, показал, что внедрение программ SEL способствует не только улучшению академических результатов учащихся, но и развитию просоциального поведения, снижению уровня конфликтности и повышению гражданской активности.

На наш взгляд, одним из наиболее перспективных направлений совершенствования системы воспитания молодежи является интеграция принципов

социально-эмоционального обучения с традиционными механизмами гражданского воспитания.

Такой подход позволяет рассматривать гражданскую активность не только как совокупность знаний и навыков, но и как личностную характеристику, основанную на эмпатии, социальной ответственности и готовности принимать решения с учетом интересов общества.

Для Республики Узбекистан вопросы формирования гражданской активности молодежи приобретают особую актуальность в контексте проводимых реформ в сфере образования и молодежной политики. Государственные программы, направленные на поддержку молодежных инициатив, развитие волонтерского движения и повышение общественной активности граждан, создают благоприятные условия для совершенствования системы воспитательной работы. Вместе с тем анализ международного опыта показывает необходимость дальнейшего расширения практико-ориентированных форм воспитания, включая ученическое самоуправление, социальное проектирование, волонтерскую деятельность и внедрение методик социально-эмоционального обучения.

Следует отметить, что прямое заимствование зарубежных моделей не всегда обеспечивает ожидаемый результат. Эффективность международного опыта во многом зависит от его адаптации к национальным культурным особенностям, традициям и ценностям общества. В связи с этим перспективным направлением является разработка национальной модели гражданского воспитания, сочетающей лучшие международные практики с духовно-нравственными ценностями узбекского народа.

Таким образом, проведенный анализ позволяет сделать вывод о том, что воспитание молодежи в духе гражданской активности и социальной ответственности является одной из ключевых задач современной системы образования. Международный педагогический опыт демонстрирует высокую эффективность комплексного подхода, основанного на сочетании гражданского образования, социально-эмоционального обучения, волонтерской деятельности и практического участия молодежи в решении общественно значимых задач. Внедрение данных подходов в образовательную практику Узбекистана будет способствовать формированию поколения активных, ответственных и социально ориентированных граждан, способных обеспечить устойчивое развитие общества и государства.

Продолжая анализ международного педагогического опыта, следует отметить, что в последние годы особое внимание вопросам гражданского воспитания уделяется в Соединенных Штатах Америки. Американская система образования рассматривает гражданскую активность как один из ключевых результатов школьного обучения. В большинстве штатов реализуются программы Service Learning, представляющие собой сочетание академического обучения и общественно полезной деятельности.

Особенность данного подхода заключается в том, что учащиеся не только получают знания о социальных проблемах, но и принимают непосредственное участие в их решении. Например, школьники могут участвовать в экологических проектах, помогать пожилым людям, организовывать благотворительные мероприятия или реализовывать инициативы, направленные на развитие местных сообществ. Исследования показывают, что участие в подобных программах способствует

развитию гражданской ответственности, лидерских качеств и готовности к общественному служению.

Значительный интерес представляет опыт Японии, где воспитание социальной ответственности тесно связано с национальной культурой коллективизма и взаимного уважения. В японских школах большое внимание уделяется формированию ответственности за общее благо. Учащиеся самостоятельно поддерживают чистоту учебных помещений, участвуют в организации школьных мероприятий и несут коллективную ответственность за результаты совместной деятельности. Подобная практика позволяет с раннего возраста формировать уважительное отношение к окружающим людям и общественным интересам. В отличие от западных моделей, акцентирующих внимание на индивидуальной гражданской активности, японская система воспитания ориентирована на развитие чувства принадлежности к коллективу и осознание личной ответственности за благополучие общества.

Современные исследования показывают, что эффективность гражданского воспитания во многом определяется степенью взаимодействия образовательных учреждений с семьей и местным сообществом. Международный опыт свидетельствует о том, что устойчивые результаты достигаются в тех случаях, когда школа, семья и общественные организации выступают равноправными партнерами воспитательного процесса. В Канаде и Австралии активно реализуются модели Community-Based Education, предполагающие участие представителей местных сообществ в образовательных проектах. Такая практика способствует формированию у молодежи чувства социальной значимости собственной деятельности и укреплению связей между образовательными учреждениями и обществом.

В условиях цифровой трансформации общества появляются новые вызовы, оказывающие существенное влияние на процессы формирования гражданской активности молодежи. С одной стороны, цифровые технологии открывают широкие возможности для общественного участия, обмена информацией и реализации социальных инициатив. С другой стороны, распространение недостоверной информации, интернет-зависимость, снижение уровня межличностного общения и рост кибербуллинга могут негативно сказываться на социализации подрастающего поколения. По мнению экспертов UNESCO, одной из важнейших задач современной системы образования становится формирование цифровой гражданственности (Digital Citizenship), предполагающей развитие навыков безопасного и ответственного поведения в цифровой среде. Особую актуальность в данном контексте приобретает развитие критического мышления как важнейшего компонента гражданской культуры личности. Международные исследования показывают, что способность анализировать информацию, оценивать достоверность источников и принимать обоснованные решения является необходимым условием успешного функционирования гражданина в современном информационном обществе. В Финляндии, признанной одним из мировых лидеров в области медиаграмотности, обучение критическому анализу информации начинается уже на начальных этапах школьного образования. Подобный подход способствует формированию устойчивости молодежи к манипулятивному воздействию и развитию ответственного отношения к использованию информационных ресурсов. Важную роль в формировании гражданской активности играет волонтерская деятельность. Анализ международного опыта показывает, что участие молодежи в добровольческих инициативах способствует развитию эмпатии,

социальной ответственности и готовности к оказанию помощи другим людям. Согласно данным международных исследований, молодые люди, регулярно участвующие в волонтерских программах, демонстрируют более высокий уровень социальной адаптации, гражданской вовлеченности и доверия к общественным институтам. В связи с этим многие государства рассматривают волонтерство не только как форму социальной активности, но и как эффективный педагогический инструмент воспитания гражданственности. Отдельного внимания заслуживает роль социально-эмоционального обучения в развитии гражданской активности молодежи. В последние годы специалисты все чаще подчеркивают взаимосвязь между эмоциональным интеллектом и способностью личности к ответственному общественному поведению. Развитие эмпатии, саморегуляции и навыков конструктивного взаимодействия способствует формированию у молодых людей готовности учитывать интересы других людей при принятии решений. Именно поэтому программы SEL активно внедряются не только в странах Европы и Северной Америки, но и в государствах Азии, Африки и Латинской Америки.

Особое значение данные подходы приобретают для Республики Узбекистан, где вопросы воспитания гармонично развитой личности рассматриваются как один из стратегических приоритетов государственной политики. В последние годы в стране реализуются масштабные реформы, направленные на совершенствование системы образования, развитие молодежной политики и укрепление институтов гражданского общества. Важным направлением данной работы является создание условий для активного участия молодежи в социально значимых проектах и инициативах.

На наш взгляд, дальнейшее развитие системы воспитания молодежи в Узбекистане должно основываться на комплексном подходе, предусматривающем интеграцию международного опыта с национальными духовно-нравственными ценностями. В качестве приоритетных направлений могут быть выделены расширение практики ученического самоуправления, внедрение технологий социального проектирования, развитие волонтерского движения, повышение уровня цифровой грамотности молодежи и широкое использование методик социально-эмоционального обучения. Особое внимание целесообразно уделять укреплению взаимодействия школы, семьи и махалли как важнейших институтов социализации личности.

Перспективным представляется создание национальной модели гражданского воспитания, ориентированной на формирование у молодежи не только правовых знаний и гражданских компетенций, но и таких качеств, как ответственность, инициативность, уважение к общественным интересам, готовность к сотрудничеству и способность принимать решения с учетом долгосрочных последствий для общества.

Важным элементом данной модели должно стать развитие культуры участия, предполагающей вовлечение молодых людей в процессы обсуждения и решения вопросов, затрагивающих интересы местных сообществ.

Таким образом, международный педагогический опыт убедительно свидетельствует о том, что воспитание гражданской активности и социальной ответственности представляет собой сложный многоуровневый процесс, требующий системного взаимодействия образовательных учреждений, семьи, государства и общественных организаций. Наиболее успешные практики основаны на сочетании гражданского образования, социально-эмоционального обучения, проектной деятельности, волонтерства и реального участия молодежи в общественной жизни.

Адаптация данных подходов к условиям Республики Узбекистан позволит повысить эффективность воспитательной работы и создать условия для формирования поколения граждан, обладающих высоким уровнем социальной ответственности, активной жизненной позицией и готовностью вносить вклад в устойчивое развитие общества и государства.

**Литература**


1. Banks J.A. Diversity and Citizenship Education: Global Perspectives. San Francisco: Jossey-Bass, 2004.
2. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B. The impact of enhancing students' social and emotional learning: a meta-analysis of school-based universal interventions // Child Development. 2011. Vol. 82(1). P. 405-432.
3. Kerr D. Citizenship education in England: past, present and future // Citizenship teaching and learning. 2019. Vol. 14(1). P. 5-20.
4. Westheimer J., Kahne J. What kind of citizen? The politics of educating for democracy // American Educational Research Journal. 2004. Vol. 41(2). P. 237–269.
5. Hoskins B., Janmaat J.G. Education, democracy and inequality // Educational Review. 2019. Vol. 71(3). P. 306-325.
6. Khakimova B.M. Transformation of educational system of Uzbekistan: SEL Methodology // European international journal of pedagogics. 2025. Vol. 5(4). P. 38-40.
7. Delors J. Learning: the treasure within. report to unesco of the international commission on education for the twenty-first century. Paris: UNESCO Publishing, 1996.
8. Васильева Е.И., Зерчанинова Т.Е., Никитина А.С. Гражданская активность и участие молодежи в социально-политических процессах // Вопросы управления. – 2021. – № 6 (73).
9. Сиволобова Н.А. Гражданско-патриотическое воспитание учащейся молодежи: опыт и инновации: Монография. – С.: СГПИ, 2017. – 136 с.


## XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDASI TARBIYAVIY JARAYONLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI


**Xojimetova D., Jizzax DPU, f.f.n., dotsent**


Jamiyatning talablari tarbiyaviy jarayonlar loyihasida muayyan darajada o‘z ifodasini topishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining istiqboldagi hayotiy kasbiy faoliyati uchun layoqatli shaxs sifatida shakllangan bo‘lishi kerak. Unda o‘zining butun hayoti faoliyatida mustaqil bilim olish va kasbiy rivojlanish uchun zarur motivlar shakllangan bo‘lishi lozim.

Tarbiyaviy jarayonlar loyihasida o‘quvchilarning ijodiy-intellektual imkoniyatlarini hisobga olish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik psixologik bilimdonlikni talab qiladi. Jamiyatning yuqori malakali pedagog kadrlar oldiga qo‘yadigan talablari pedagogik ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida esa, bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy-kasbiy bilimdonligi, tashabbuskorligi, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati, uzluksiz ta’lim olish va kasbiy rivojlanish motivlari ortadi. Bu esa, zamonaviy bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy-madaniy jihatdan rivojlanganligidan dalolat beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash kompetenyasini shakllantirish va muntzam rivojlantirishda ma’ruzalar bilan bir qatorda seminar

mashg‘ulotlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Seminar mashg‘ulotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga doir bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi va muntazam tarzda mustahkamlanadi.

*Biz bo‘lajak o‘qituvchilarda tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan seminar mashg‘ulotlarini quyidagi mavzularda tashkil etishni tavsiya qildik:*

1. Tarbiyaviy jarayonlar loyihalarining mazmuni va mohiyati.
2. Kognitiv yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik ijodkorligini rivojlantirish imkoniyati sifatida.
3. Bo‘lajak o‘qituvchining tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga oid pedagogik faoliyatini amalga oshirish kompetensiyalari.
4. Kogntiv texnologiyalardan tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashda foydalanish imkoniyatlari.
5. Kognitiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashda didaktik usullardan foydalanish metodlari kabilar.

Professor-o‘qituvchilarga seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha bir qator ko‘rsatma va tavsiyalar berishga harakat qildik. Seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar mutaxassislikga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan foydalangan holda ma’ruza mashg‘ulotlarida egallagan bilimlarini boyitishga muvaffaq bo‘ldilar. Seminar mashg‘ulotlari tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga oid amaliy mashg‘ulotlar va pedagogik amaliyot hamda “4+2 modeli” bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etilidi.

Biz bo‘lajak o‘qituvchilarning tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash kompetensiyalarini mustaqil bilim olish jarayonida samarali shakllantirish bo‘yicha muayyan tavsiyalarham ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldik. Bo‘lajak o‘qituvchilar tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash bo‘yicha mustaqil bilim olish maqsadida turli manbalar ustida ishlashlari zarur bo‘li, bu pedagogik amaliyot va “4+2 modeli” bo‘yicha metodik mahoratni egallash imkoniyatlarini kengaytirali. Bunda:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilar umumiy o‘rta ta’lim maktablarda amalga oshiriladigan tarbiyaqiy jarayonlar, tarbiyaviy vazityalarning mazmun mohyatini har tomonlama chuqur tahlil qilishlari, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganishlari olishlari.
2. Tarqatma materiallar yordamida professor-o‘qituvchilarning maslahatlariga amal qilishlari, tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga oid pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishlari hamda va ma’ruzalar o‘zlashtirgan bilimlarini mustaqil bilim olishlari boyitishlari talab etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga oid mustaqil bilim olish jarayonlari ularga beriladigan ta’limiy topshiriqlar ma’ruza matnlarining mazmuni va o‘quv modullariga tayangan holda tashkil etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlashda mustaqil ta’limni muayyan shakllaridan samarali foydalanish mumkin:

1. Tarbiyaga oid ilmiy manbalar va o‘quv metodik majmualar ustida ishlash.
2. Tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga yo‘naltirilgan ijodiy topshiriqlarni bajarish, jumladan, muayyan mavzuda tashkil etiladigan sinf soatlarini loyihalash, bayram tadbirlari ssenariysini tuzi, ommaviy tadbirlarda qo‘llaniladigan pedagogik vositalarni tanlash, tarbiyaviy jarayonlarda qo‘llaniladigan topshiriqlarni tizimlashtirish kabilar.

3. Professor-o‘qituvchilar taqdim etgan mavzular asosida referatlar, pedagogik loyihalar, dars etalonlarini tayyorlash.

4. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar dasturidan kelib chiqqan holda taqdimotlar tayyorlash, topshiriqlar paketini yaratish va topshiriqlarni tanlash.

*Biz bo‘lajak o‘qituvchilarning tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga oid bilimlarini boyitish maqsadida mustaqil ta’lim olishga yo‘naltiruvchi quyidagi mavzularni tavsiya qildik:* 1) Maktabda tarbiyavty jarayonlarni loyihalash va tashkil etish mexanizmlari. 2) Tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashda kognitiv yondashuvdan foydalanish texnologiyalari. 3) Darsda va darsdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy vaziyatlarni modellashtirish. 4) “Ijodiy loyihamni taqdimot qilaman” mavzusidaga amaliy ishlarni bajarish. 5) Tarbiya sohasidagi xorijiy tajribalarni to‘plash va tahlil qilish. 6) Tarbiyaviy jarayonlar loyihalari tarkibiy qismlarga ajratish va uni pedagogik jihatdan tavsiflash. 7) Tarbiyaviy jarayonlarda qo‘llaniladigan kognitiv texnologiyalarni to‘plash va ulardan foydalanish bo‘yicha mualliflik takliflarini ishlab chiqish. 8) Mustaqil bilim olish yo‘llarini asoslash va ularning samaradorligini o‘z ijodiy ishlari misolida ko‘rsatish.

Mazkur tadbirlarning barchasi bo‘lajak o‘qituvchilarda kognitiv yondashuv asosida tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash kompetensiyasini samarali shakllantirish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlarda kognitiv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan usul va metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday metodlar sirasiga muammoli-izlanish, evristik izlanish, dialog, bahs-munozara, illyustrativ-tushuntirish, muammoliy topshiriqlar ustida ishlash, Keys texnologiyalari ustida ishlash kabilarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu usullar va metodlarning pedagogik tavsifiga asoslangan holda mashg‘ulotlarning tarkibi hamda unda foydalaniladigan materiallar tanlanadi. Jumladan, ma’ruza, o‘yin mashg‘ulotlari, teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar, seminar mashg‘ulotlari, bahs-munozara mashg‘ulotlari, evristik izlanish xarakteridagi mashg‘ulotlar, konferensiya tipidagi mashg‘ulotlar, integrativ mashg‘ulotlar darslar kabilarni kiritish mumkin. Mazkur mashg‘ulotlarda juftliklarda ishlash, yakka tartibda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoaviy munozara metodlaridan foydalanish ham nazarda tutildi.

## Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 295-297.

2. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi MU MChJ, 2021.

3. Ota-ona-murabbiy / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 220 b.

4. Ibraimov X. va boshq. Najot tarbiyada. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 60 b.

5. Ota-ona-murabbiy / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 220 b.

6. Ibraimov X. va boshq. Go‘zal hulq modellari. – T.: Ilm ziyo zakovat, 2025. – 80-b.

7. Ibraimov X. va boshq. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 68 b.

# FOSTERING RESPECT FOR NATIONAL VALUES AND CIVIC ENGAGEMENT IN THE YOUNGER GENERATION ON THE BASIS OF INTERNATIONAL PEDAGOGICAL EXPERIENCE: THE CASE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING

**Xoshimov Lutfullo Xabibullo ugli, doctoral student student**
**the National institute of education and pedagogy**

**Abstract:** This article analyses, on the basis of international pedagogical experience, the issues of educating the younger generation in the spirit of civic engagement and social responsibility through the process of foreign language teaching. Through a comparative study of national and international practices, the author reveals effective directions for improving the methodology of fostering respect for national values in pupils, as well as the practical mechanisms applied in educational organisations.
**Key words:** national values, civic engagement, social responsibility, foreign language, pedagogical experience, educational methodology, international experience.

In the context of globalisation, educating the younger generation in the spirit of respect for national values, civic engagement and social responsibility has become one of the priority tasks of the modern education system. The educational reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan also envisage shaping the younger generation on the basis of patriotism, national self-awareness and social activeness [1, 12 p.].

The diagram below presents comparative indicators of fostering respect for national values and civic engagement through foreign language teaching in selected countries (Figure 1).




Figure 1. Comparative analysis of fostering national values and civic engagement

Foreign language teaching occupies a special place in this process, since learning a language develops not only communicative skills but also deepens respect for one's own national values through the comparison of different cultures. Intercultural communication situations in foreign language lessons enable pupils to compare the history, traditions and spiritual heritage of their own people with the experience of other nations. It is precisely in this process of comparison that a sense of national pride and civic responsibility is formed in

the learner [2, 45 p.]. Analysis of national and international experience. In international pedagogical practice, civic education is approached in various ways. In the Finnish education system, the learner’s critical thinking and active participation in social life are given priority. In Japan, education is organised on the basis of the principle of “national morality” (dōtoku), harmonising traditional values with modern civic skills [3, 88 p.]. The Singaporean experience emphasises the formation of national unity and civic responsibility in a multicultural society.As the diagram shows, countries that combine respect for national values with strong traditions also have higher indicators of civic engagement. This demonstrates the need for the education system of Uzbekistan to reasonably harmonise national and international experience. Approaches to education. In fostering respect for national values through foreign language teaching, it is advisable to apply the following approaches: the intercultural approach, the communicative value-oriented approach, the competence-based approach and the learner-centred approach [4, 102 p.]. These approaches shape in the learner both loyalty to their native language and culture and a sense of tolerance towards other peoples.

Directions of education. The main directions of fostering respect for national values in foreign language lessons and the corresponding pedagogical tools are presented in Table 1.

**Table 1**

**Directions of fostering respect for national values in foreign language teaching**

| № | Direction | Pedagogical tools |
|---|---|---|
| 1 | Moral and ethical education | Analysing national-themed texts, proverbs and aphorisms in the foreign language |
| 2 | Patriotic education | Presentations and projects on the history and culture of Uzbekistan |
| 3 | Civic engagement | Debates, role-play and social projects (project work) |
| 4 | Intercultural communication | Comparative cultural analysis, international correspondence projects |

The directions presented in the table are interconnected, and their integrated application makes it possible to jointly shape national self-awareness and civic responsibility in the learner [5, 67-p.].

Mechanisms in educational organisations. The mechanisms for implementing this methodology in educational institutions include the following: integrating national-cultural components into curricula; enhancing teachers’ qualifications in the field of intercultural pedagogy; organising extracurricular activities (language clubs, national culture evenings); and using digital educational resources and international cooperation projects. The coherence of these mechanisms ensures the effectiveness of the methodology. The analysis of international pedagogical experience has shown that the most effective way to foster respect for national values and civic engagement in the younger generation is to harmonise national traditions with international experience. The process of foreign language teaching creates broad opportunities for this purpose, since through intercultural communication it returns the learner to their own national identity and, at the same time, shapes them as an open-minded and responsible citizen of the world. Thus, improving the methodology of fostering respect

for national values requires enriching the content of foreign language education and consistently introducing the relevant mechanisms in educational organisations.

**References**


1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to improve the education and upbringing system”. – T., 2023.
2. Inomova M. Intercultural communication and language education. – T.: Fan, 2021. – 180 p.
3. Banks J.A. Cultural Diversity and education. – New York: Routledge, 2019. – 320 p.
4. Karimova D. The value-oriented approach in foreign language teaching // language and literature education. – 2022. – No. 4. – P. 100-106.
5. Yusupova S. National values in the upbringing of the younger generation. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 156 p.


## XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBALAR ASOSIDA YOSHLARDA FUQAROLIK FAOLLIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI


**Xudayberdiyev Mirolim Iskandar o‘g‘li, PhD,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti katta ilmiy xodimi**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqaro pedagogik tajribalar asosida yoshlarda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilingan. Turli mamlakatlarda fuqarolik ta’limini tashkil etish tajribalari o‘rganilib, ularning umumiy pedagogik tamoyillari hamda innovatsion yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda ta’lim muassasalari, oila va jamiyat hamkorligining o‘rni ochib berilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida mazkur tajribalarni milliy qadriyatlar asosida joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.



**Kalit so‘zlar:** fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik ta’limi, xalqaro tajriba, kompetensiyaviy yondashuv, demokratik qadriyatlar, yoshlar siyosati, volontyorlik.



**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические и практические основы развития гражданской активности и социальной ответственности молодежи на основе международного педагогического опыта. Проанализированы современные модели гражданского образования, применяемые в различных странах, раскрыты их педагогические особенности и инновационные подходы. Особое внимание уделено взаимодействию образовательных учреждений, семьи и общества в формировании гражданских компетенций молодежи. Предложены научно-практические рекомендации по внедрению передового международного опыта в систему образования Узбекистана.



**Ключевые слова:** гражданская активность, социальная ответственность, гражданское образование, международный опыт, компетентностный подход, демократические ценности, молодежь, волонтерство.



**Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical foundations for developing civic engagement and social responsibility among young people based on international pedagogical experience. Modern approaches to civic education implemented in different countries are examined, highlighting their pedagogical principles and innovative practices. The role of educational institutions, families, and society in developing civic competencies is

discussed. Scientific and practical recommendations are proposed for adapting international experience to the educational system of Uzbekistan.

**Key words:** civic engagement, social responsibility, civic education, international experience, competency-based approach, democratic values, youth education, volunteering.

Globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti fuqarolarning ijtimoiy faolligi, demokratik qadriyatlarga sodiqligi hamda jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglash darajasi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, yosh avlodni fuqarolik pozitsiyasiga ega, tashabbuskor va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy davlatlar fuqarolik ta'limini faqat nazariy bilim berish emas, balki shaxsning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlovchi pedagogik jarayon sifatida tashkil etmoqda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda fuqarolik ta'limining mazmuni demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik, ekologik mas'uliyat va volontyorlik faoliyati bilan uzviy bog'liq holda shakllantirilmoqda. Ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik tarbiyasi uzluksiz ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, Finlandiyada maktab ta'limi davomida o'quvchilar mahalliy hamjamiyat muammolarini hal etishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etish orqali fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Germaniyada esa demokratik madaniyatni shakllantirish maqsadida maktab parlamentlari, munozara klublari va jamoatchilik tashabbuslari keng yo'lga qo'yilgan. Yaponiya tajribasida fuqarolik tarbiyasi avvalo jamoaga xizmat qilish, intizom, o'zaro hurmat va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslanadi. O'quvchilar maktab va mahalla hayotidagi turli ijtimoiy tadbirlarda muntazam ishtirok etish orqali jamiyat oldidagi burchini anglay boshlaydi. AQSh ta'lim tizimida esa Service Learning modeli alohida o'rin egallaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, nazariy bilimlar jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi amaliy faoliyat bilan integratsiyalashadi. Talabalar ekologik aksiyalar, ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlari va volontyorlik ishlari orqali fuqarolik mas'uliyatini amalda namoyon etadilar. Kanada va Avstraliya tajribalarida ko'p madaniyatli jamiyat sharoitida tolerantlik, inson huquqlarini hurmat qilish, ijtimoiy tenglik hamda fuqarolik birdamligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, fuqarolik faolligini shakllantirish quyidagi pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi: kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish; loyiha faoliyatidan keng foydalanish; volontyorlik harakatlarini rivojlantirish; debat va munozara metodlarini qo'llash; o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash; raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirish; maktab – oila – mahalla hamkorligini kuchaytirish.

Mazkur mexanizmlar yoshlarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tashabbuskorligi hamda jamiyat hayotidagi faol ishtirokini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning jamiyat, davlat va atrof-muhit oldidagi burchini anglashini ifodalaydi.

Uni shakllantirish quyidagi omillarga bog'liq: birinchidan, oiladagi tarbiya shaxsning dastlabki fuqarolik qadriyatlarini shakllantiradi. Ota-onalarning shaxsiy namunasi, mas'uliyatli xulqi va jamiyat hayotidagi ishtiroki bolalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki fuqarolik fazilatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritishi zarur. Uchinchidan, mahalla va

jamoatchilik institutlari yoshlarning ijtimoiy faolligini rag'batlantiruvchi muhim tarbiyaviy muhit hisoblanadi. To'rtinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari ham fuqarolik ongini rivojlantirish vositasiga aylanmoqda. Shu sababli media savodxonlik va raqamli fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Xalqaro tajribalar asosida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: fuqarolik ta'limini barcha fanlar mazmuniga integratsiyalash; volontyorlik faoliyatini ta'limning tarkibiy qismiga aylantirish; o'quvchilar va talabalarning ijtimoiy loyihalarda ishtirokini kengaytirish; maktab parlamentlari faoliyatini takomillashtirish; raqamli fuqarolik madaniyati bo'yicha maxsus treninglarni tashkil etish; xalqaro almashinuv dasturlarini kengaytirish; fuqarolik kompetensiyalarini baholashning zamonaviy diagnostik mezonlarini ishlab chiqish. Xalqaro pedagogik tajribalar fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish jarayoni kompleks pedagogik yondashuvni talab qilishini ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonda kompetensiyaviy ta'lim, loyiha faoliyati, volontyorlik harakati, demokratik boshqaruv elementlari hamda ijtimoiy hamkorlik asosiy omillar hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu tajribalarni milliy qadriyatlar va uzluksiz ta'lim tamoyillari bilan uyg'unlashtirish yoshlarning fuqarolik madaniyatini yuksaltirish, ularni Vatanga sadoqatli, tashabbuskor va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

**Adabiyotlar**

1. UNESCO. Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the 21st Century. Paris: UNESCO Publishing, 2015.
2. OECD. Global Competency for an Inclusive World. Paris: OECD Publishing, 2018.
3. Hoskins B., Janmaat J.G. Education, democracy and inequality. London: Palgrave Macmillan, 2019.

## METHODOLOGICAL BASIS AND IMPORTANCE OF CREATIVE APPROACHES IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

**Yuldashev Sardorkhon, National pedagogical university of Uzbekistan acting associate professor, PhD**

**Abstract.** This article analyzes the methodological foundations and fundamental importance of applying a creative approach to a teacher's professional activity in modern educational conditions. The study examines the creative approach in the context of synergetic principles and the theory of student-centered education. The results obtained proved that a teacher's level of creativity is directly linked to the effectiveness of their teaching and the development of critical thinking skills in students. The article proves the need to transform the creative approach from a simple set of methods into a systemic and fundamental methodological framework for the continuous improvement of the educational process.

**Key words:** creative, synergetic, intellectual, competence, interactive, context, validity, innovation, transformation, correlation.

In the context of the global transformation of modern civilization, the requirements for the education system are shifting from simple knowledge transfer to the upbringing of an individual capable of creative and independent thinking and adapting to changing conditions. These paradigmatic changes require a fundamental revision of pedagogical activity,

elevating the teacher to the status of not only an informant but also an innovative designer of the educational process and a facilitator who reveals the student's creative potential. Therefore, a creative approach in pedagogical activity is of great importance not only as a personal professional skill but also as a fundamental methodological basis that ensures the effectiveness of the educational process. A creative approach means finding non-standard but effective solutions to pedagogical situations, constantly updating the lesson process, and transforming the student from a passive object into an active learning subject.

Although the scientific analysis of creativity has a long history in psychological and pedagogical sciences, its comprehensive analysis at the level of the methodological foundations of pedagogical activity is a new direction in modern educational theory. While D.Guilford's theory of "divergent thinking" and A.Maslow's concepts of "self-actualization" served as the basis for considering creativity as an inherent (internal) characteristic of the individual, M.Chixentmihai analyzed the psychological state of the creative process through his "flow" theory. However, applying these theories directly to the specific context of Uzbek pedagogical activity – that is, to the methodology for transforming the traditional education system – requires in-depth and independent research. Most scientific works are limited to listing creative methods or assessing their individual impact, but creativity itself is insufficiently substantiated as a philosophical, systemic, and methodological principle that forms the core of the entire pedagogical system.

Today, educational reforms in Uzbekistan, particularly efforts to modernize schools based on modern technologies and advanced foreign practices (such as STEAM), require teachers to move away from traditional teaching and master innovative approaches at the level of professional norms. It is from this perspective that identifying the methodological foundations of a creative approach in pedagogical activity and implementing them into practice determines the relevance of this research. This approach includes the teacher's ability to analyze the situation, create new didactic tools, and adapt to unexpected situations during the educational process. The aim of this study is to scientifically substantiate the methodological principles of the creative approach in pedagogical activity through synergetic and systemic approaches, to demonstrate its importance in the educational process through empirical data, and to develop scientifically grounded recommendations for the development of a teacher's professional competence on a creative basis. The main scientific hypothesis of the study is that if synergistic and creative approaches are taken as the methodological basis of the pedagogical process, it will not only increase learning efficiency but also create a foundation for developing students' critical thinking, creative problem-solving, and deep reflexive skills. Thus, this work seeks to transform the creative approach from a personal skill into a fundamental methodological basis for organizing the entire pedagogical process, which allows for meeting the qualitatively new requirements currently facing the education system of Uzbekistan. To achieve the aforementioned research goals and the proposed scientific hypotheses, an interdisciplinary and comprehensive methodological framework was selected. The synergetic approach was utilized as the primary methodological framework to strengthen the theoretical foundation of the research.

Synergetics allowed for the consideration of the pedagogical system as a self-organizing, open system capable of constantly adapting to a changing external environment and forming a new, high-level order from elements of chaos during the learning process. This approach played a decisive role in the scientific substantiation of the internal mechanisms of the creative approach, specifically the principles of variability, reflexivity,

and bifurcation. A cognitive conflict or problematic situation intentionally created by a creative teacher during a lesson is considered, from a synergetic perspective, as a bifurcation point that prompts the system toward a new, creative solution. Furthermore, the method of systemic-structural analysis is widely used in the study of pedagogical creativity, and the interconnection between the components of the creative approach – namely the motivational component (the teacher's desire for creative self-expression), the cognitive component (creative thinking skills and knowledge base), and the operational component (the ability to apply new practical methods) – is analyzed in depth. To strengthen the theoretical analysis, the comparative-pedagogical analysis method was applied, and experiences aimed at developing creativity in advanced educational systems in Europe (Finland) and Asia (South Korea) were studied. In particular, "phenomenon-based learning" in Finland and high-level technological and problem-based teaching methods in South Korea were analyzed as practical manifestations of a creative approach, and the possibilities of their adaptation to the national educational context of Uzbekistan were studied from a scientific and critical point of view.

Empirical studies were conducted among primary school and humanities teachers of general secondary education institutions in the three major regions of Uzbekistan: Tashkent (the capital), Samarkand (a historical and tourism center), and Namangan (an industrial-agrarian city). The research base consisted of 100 teachers (N=100), who were divided into groups according to their qualification category and work experience. An adapted questionnaire based on Torrens' creative thinking test was used as the primary empirical methods. This questionnaire was used to quantitatively assess important psychological and pedagogical characteristics of teachers, such as their creativity index, tolerance for uncertainty, and motivation for innovation. Additionally, based on specially developed criteria, pedagogical observation was conducted, and the frequency of using creative methods in the lesson process, the teacher's level of establishing subject-to-subject relationships with students, and the skill of involving students in creative activity were qualitatively evaluated. All obtained quantitative data were processed in the software SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) 28.0, which is a powerful statistical analysis tool, ensuring their reliability and objectivity. During the analysis, the strength of the correlation between variables was measured using pearson's correlation coefficient as the primary statistical method, and the statistical significance of differences in learning outcomes between groups with different levels of creativity was verified using the single-factor ANOVA (Analysis of Variance) method. The methodological transparency and objectivity of the research guarantee the high scientific reliability and validity of the obtained results.

Systemic-functional analysis: a systemic-functional analysis was applied to determine the place of the creative approach in the pedagogical system. This method served to study the influence of creativity on various elements of the pedagogical system (lesson content, teaching forms, assessment criteria), as well as to determine its functions in ensuring the overall stability of the system. It was established that the primary function of the creative approach is the continuous updating of the system (innovative function) and ensuring flexibility for individual student requirements (adaptive function). In order to increase the practical reliability of the research, a formative pedagogical experiment was conducted with the participation of a selected group of teachers (N=20). During the experiment, these teachers were taught specially developed training modules based on a creative approach. After the module, their teaching methods and student results were re-analyzed with the

control group. This methodological approach made it possible to empirically prove the cause-and-effect relationships of the creative approach directly in the educational process.

The results of the conducted research and statistical analysis showed that our scientific hypothesis regarding the methodological foundations of the creative approach in pedagogical activity has been fully confirmed. In particular, the role of creativity in a teacher's professional competence was quantified. Pearson's correlation analysis showed a direct, strong positive correlation ($r = 0.78$) between teachers' creativity index (based on the Torrens test) and their teaching effectiveness (evaluated by school administration and student academic performance indicators). The level of statistical significance of this relationship was the highest probability, $\mathbf{p < 0.01}$, which means that the probability of this result being dependent on random factors is less than 1%, and the result is robust. The results of this analysis directly prove that teachers with a creative approach have a significant advantage not only methodologically but also in their general professional activities.

According to the survey results, teachers with a high creativity index avoided traditional, passive lecture methods during the lesson and, on average, in 60% of cases used innovative didactic tools such as problem-based learning, educational projects, and creative "brainstorming". This directly led to an increase in student learning activity in lessons by an average of more than 35% compared to the control group. It has been observed that the educational process has transformed from passive knowledge acquisition into active research. As a practical expression of the synergetic principle, the "controlled cognitive conflict" (bifurcation) deliberately created by teachers during the lesson encouraged students to independently seek new solutions that were not known in advance.

The most important empirical result is that the critical thinking skills index of students in groups with a creative approach significantly surpassed that of the control group. Assessment of these skills was carried out using specially developed tests adapted to the educational context. The results of the single-factor ANOVA analysis, conducted to verify the statistical significance of this difference between the groups, absolutely proved that this result is not random. As a result of the analysis, the $F$ statistic was $F = 9.45$, and its $\mathbf{p}$-value was $\mathbf{p < 0.005}$, which means the significance of the difference between the groups is higher than 99.5%. That is, the application of a creative approach has a fundamental impact on the formation of high-level cognitive skills in students. Furthermore, it was noted that in groups where subject-to-subject relations are established, the level of self-expression and the free expression of students' opinions increased sharply, which, in turn, further stimulated their creative activity.

The results obtained statistically and theoretically proved that the creative approach in pedagogical activity is not only a practical tool but also a fundamental methodological basis for optimizing the educational process. The identified strong correlation ($r = 0.78$) suggests that a teacher's professional success is directly dependent on their creative potential, which suggests the need to consider creativity not only as a "skill" but also as a "core competence" that activates all other professional competencies (communicative, methodological, reflexive). This conclusion serves as the basis for revising modern professional standards.

The results analyzed based on the synergetic approach showed how effective it is to apply the principle of "managing disorder" (bifurcation) in creative pedagogy to pedagogical practice. While strict order and control prevail in traditional pedagogy, in a creative approach, the teacher intentionally creates a "controlled disorder" (for example, presenting information to students in several variants and encouraging them to find their own solutions),

encouraging students from passive reception of information to active processing, analysis, and the creation of new meaning. This process is the most striking example of the practical application of “constructivism” theory in educational psychology. The primary task of a creative teacher is not to impart knowledge, but to create and maintain creative motivation for learning.

Comparative analysis showed that the success of advanced foreign educational practices (especially the high level of autonomy granted to teachers in Finland) is based on the principles of a creative approach. This experience should be implemented in the education system of Uzbekistan by including special, practice-oriented modules called “Methodology of pedagogical creativity” in the programs of training and retraining of pedagogical personnel. These modules should not only introduce teachers to innovative methods but also develop skills for creative analysis (reflection) of their lessons and the continuous updating of the learning environment. The fact that the $p$-value is less than $0.005$ confirms that the expected positive impact of introducing these methodological changes into the education system is highly reliable and objective.

The conducted comprehensive theoretical and empirical research has proven the full consistency of the scientific hypothesis on the topic “Methodological foundations and significance of the creative approach in pedagogical activity” with reality and has made a significant contribution to the theory and practice of education.

1. Confirmation of the methodological foundation: it has been proven that the creative approach is not merely a set of individual methods, but a fundamental methodological foundation aimed at the continuous improvement of pedagogical activity, based on the principles of synergetics and a systems approach. This approach allows the teacher’s activities to be directed toward continuous reflexive analysis and creative innovation.
2. Proof of statistical significance: empirical analysis revealed a strong ($\mathbf{p < 0.01}$) and statistically significant correlation between the level of teacher creativity and the effectiveness of professional activity, as well as the formation of critical thinking skills in students. This confirmed the objective nature of the impact of the creative approach on the quality of the educational process.
3. Fundamental Necessity: the research conclusion confirmed that a creative approach is a fundamental and mandatory condition necessary for the comprehensive development of the student’s personality, meeting the educational requirements of the 21st century, as it encourages students to move from merely mastering information to the creative application of knowledge.

Based on the results of this study, the following practical recommendations are put forward for pedagogical practice: First, it is necessary to mandatorily include intensive, practical-laboratory classes aimed at developing teachers’ creativity and reflexivity skills, especially the ability to find non-standard solutions to problematic situations, in the system of professional development for pedagogical personnel. Secondly, by introducing interdisciplinary modules such as “Methodological creative design” for new pedagogical specialties in higher education institutions, it is necessary to ensure the training of young specialists based on a creative approach from the very beginning of their professional careers. Thirdly, at the level of educational institutions, it is advisable to expand the practice of establishing permanent “Innovation laboratories” to stimulate the mutual exchange of experience among teachers and the group creative creation of new didactic materials. These measures will serve to raise the quality of education in Uzbekistan to a global level.

## List of references


1. Csikszentmihalyi, M. (1990). Flow: the psychology of optimal experience. Harper & Row.

2. Druzhinin, V.N. (2007). Psychology of general abilities. Peter.

3. Finnish education agency. (2016). Phenomenon-based learning: guide for teachers. FinEdu.

4. Guilford, J.P. (1950). Creativity // American psychologist, *5* (9), 444-454.

5. IBM Corp. (2023). IBM SPSS statistics for windows (Version 28.0). IBM Corp.

6. Maslow, A.H. (1954). Motivation and personality. Harper & Row.

7. Sternberg, R.J., Karami S. (2018). Creativity as a habit.

8. Handbook of creativity. 3rd ed. P. 67-85. Cambridge University Press.

9. Torrance, E.P. (1966). Torrance tests of creative thinking: norms-technical manual. Personnel press.

10. Torrens, J.P. Diagnosis of creative thinking. – M.: Наука, 2011.

11. Muslimov N.A. Technology for forming the professional competence of vocational education teachers. – T.: Science and technology. 2013. – 127 p.

12. Sharipov Sh.S. Theory and practice of ensuring the continuity of students' professional creativity: Doc. dis. … in ped. sciences. – T., 2012. – 264 p.

13. Kadirov Kh.Sh. Technology for developing media competence in future vocational education teachers: Dis. ... d-r of ped. sciences (DSc). – T., 2020. – 259 p.


# OLIY TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TALABALARNING RAQAMLI KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI


**Shermanova Feruza Djumaboyevna,**
**Toshkent amaliy fanlar universiteti, p.f.f.d., dotsent**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari hamda ularning talabalarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan. Raqamli ta'lim muhiti sharoitida talabalarning axborot bilan ishlash, raqamli kommunikatsiya, kiberxavfsizlik, media savodxonlik va sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali usullari tavsiflangan.



**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, raqamli ko'nikmalar, raqamli savodxonlik, raqamli kompetentlik, oliy ta'lim, elektron ta'lim, media savodxonlik, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim muhiti.



**Аннотация.** В статье рассматриваются процессы цифровой трансформации в системе высшего образования и их влияние на развитие цифровых навыков студентов. Освещаются механизмы формирования компетенций в области работы с информацией, цифровой коммуникации, кибербезопасности, медиаграмотности и эффективного использования инструментов искусственного интеллекта в условиях цифровой образовательной среды. Также описаны эффективные методы развития

цифровых навыков на основе цифровых технологий, электронных образовательных платформ и инновационных педагогических подходов.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, цифровые навыки, цифровая грамотность, цифровая компетентность, высшее образование, электронное обучение, медиаграмотность, кибербезопасность, искусственный интеллект, цифровая образовательная среда.

**Annotation.** This article examines the processes of digital transformation in higher education and their impact on the development of students’ digital skills. The study highlights the mechanisms for developing competencies related to information management, digital communication, cybersecurity, media literacy, and the effective use of artificial intelligence tools within a digital learning environment. In addition, effective approaches to enhancing digital skills through digital technologies, e-learning platforms, and innovative pedagogical methods are described.

**Key words:** digital transformation, digital skills, digital literacy, digital competence, higher education, e-learning, media literacy, cybersecurity, artificial intelligence, digital learning environment.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim mazmunini, o‘qitish metodlarini, boshqaruv tizimlarini va ta’lim ishtirokchilarining kompetensiyalarini yangicha yondashuv asosida shakllantirishni talab etmoqda. Bunday sharoitda talabalarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamli ko‘nikmalar axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, saqlash va uzatish, raqamli vositalardan samarali foydalanish, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish kabi kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur ko‘nikmalar nafaqat ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib shakllanish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni shunchaki didaktik vosita emas, balki ta’limiy jarayonning ajralmas, fundamental va integral tarkibiy qismi sifatida tushunish va tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan tarzda qo‘llash zarurati yuzaga chiqmoqda. Talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari deganda, zamonaviy ta’lim jarayonida ularning informatsion, kommunikatsion va raqamli ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan vositalar, dasturlar va metodik yondashuvlar nazarda tutiladi.

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar samarali qo‘llanilishi uchun ularni quyidagi asosiy to‘rt guruhga ajratish mumkin. Har bir turdagi texnologiyaning pedagogik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularning imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solish va o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish maxsus metodik yondashuvni, pedagogik-psixologik tayyorgarlikni hamda ta’lim infratuzilmasining moslashuvchanligini talab etadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – bu axborotni yaratish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar majmui sifatida ilmiy nuqtai nazardan ta’riflanadi.

Ilmiy manbalarda AKT quyidagicha tushuntiriladi: UNESCO (2013): AKT – bu ta'lim, fan, iqtisodiyot va boshqa sohalarda axborot almashish va boshqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydigan texnologiyalar [1].

R.Picciano va K.Seaman (2017) AKT – o'quv jarayonini interaktiv, masofaviy va shaxsiylashtirilgan qilish imkonini beruvchi vositalar va metodlarni o'z ichiga oladi [2]. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirishda samarali qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosidagi o'qitish texnologiyalari raqamli savodxonlikning asosini tashkil qiladi. Bu texnologiyalarga:

Masofaviy ta'lim platformalari (LMS – Learning Management System) Masofaviy ta'lim platformalari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirishda asosiy vositalardan biridir. Bu platformalar o'quv jarayonini markazlashtirish, resurslarni taqdim etish va topshiriqlarni nazorat qilish imkonini beradi. Masalan, Moodle, Google Classroom, Zoom va Microsoft Teams kabi tizimlar talabalarga platformada ishlash, o'quv materiallarini yuklab olish yoki yuklash, onlayn topshiriqlarni bajarish, guruhlarda hamkorlik qilish va raqamli o'quv muhitida o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, LMS platformalari orqali talabalar ta'lim jarayonini o'z sur'atida boshqarish, vaqtni rejalashtirish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqotlar, xususan, Alrasheedi, Capretz va Raza (2015) tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, "Moodle va Google Classroom kabi raqamli o'quv platformalari nafaqat o'quv materiallarini yetkazish imkonini beradi, balki talabalarga mustaqil o'qish, o'zini baholash va hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini ham yaratadi" [3]. Ta'lim kontentini boshqarish tizimlarini o'rganish CMSga nisbatan kengroq funksionallikka ega bo'lib, o'quv kontentini yaratish, saqlash, qayta ishlatish va tarqatish jarayonlarini to'liq boshqaradi. Ular kurslarni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi. Ta'limni qo'llab-quvvatlovchi tizimlar talabalarga o'quv jarayonida yordam beruvchi, ularning savollariga javob beruvchi yoki o'quv materiallariga kirishni osonlashtiruvchi qo'shimcha vositalar (masalan, chatbotlar, onlayn yordam xizmatlari). V.I.Slobodchikov fikricha, ta'limiy platformalar (Learning Platforms – LP). Yuqoridagi tizimlarni o'zida mujassam etgan yoki ularni birlashtirgan keng qamrovli ekotizimlar bo'lib, uzluksiz va kompleks ta'lim muhitini yaratadi [4]. LMSlar akademik yoki kasbiy ta'lim jarayonlarini boshqarish, kurs tashkil qilish, ro'yxatdan o'tkazish, talabalar progressini kuzatish va baholashni avtomatlashtirish imkonini beradi [5].

Multimedia texnologiyalari – multimedia va vizualizatsiya talabalarga raqamli kontent yaratish va murakkab g'oyalarni bu bir vaqtning o'zida rasm, videotasvir, animatsiya, ovozli axborot va matn bilan ishlashni ta'minlaydigan interfaol axborot texnologiyalaridir. S.G.Grigorev va V.V.Grinshkun ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlab, multimediani turli axborot turlarini integratsiyalash asosida o'quv materialini vizual, audial va interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beruvchi zamonaviy ta'lim vositasi sifatida ta'riflaydilar [6]. O'qitish va o'rganish jarayonida multimedia tizimlarining qo'llanilishi sifatli ta'limga erishish va talabalar natijalarini yaxshilash uchun samarali strategiya sifatida ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan. Interfaol kontent yaratish va multimedia texnologiyalari aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu vositalar nafaqat o'qituvchiga materiallarni dinamik tarzda taqdim etish imkonini beradi, balki talabalarning o'zlari ham raqamli kontent yaratish, vizual

va audio axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari uchun keng sharoit yaratadi [7]. Ushbu turdagi texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Vizual va audio-vizual materiallar yaratish – PowerPoint, Google Slides, Prezi kabi prezentatsiya dasturlari orqali visual axborotni birgalikda ishlatish bilimlarni tizimli ideallashtirish va uzoq muddatli saqlashga xizmat qiladi [8]. Shuningdek, grafik dizayn vositalari (Canva, Photoshop, Figma) yordamida talabalarning axborotni estetik va strukturaviy jihatdan yaratishi vizual savodxonlik, kontent yaratish va ifodalash kompetensiyalarini mustahkamlaydi [9]. Bu ularda axborotni strukturaviy va estetik jihatdan to‘g‘ri taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bulutli texnologiyalar (Cloud Technologies). Bulutli texnologiyalar oliy ta’lim muassasalarida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida ma’lumot almashish, hujjatlarni boshqarish va real vaqt rejimida hamkorlik qilish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, Google Drive, Dropbox, OneDrive kabi xizmatlar orqali talabalar hujjatlarni saqlash, ularni birgalikda tahrirlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu texnologiyalar talabalarda raqamli hujjatlarni boshqarish, onlayn hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va ma’lumotlarga xavfsiz kirish tamoyillarini o‘rgatadi. Shu bilan birga, bulutli texnologiyalar o‘quv jarayonini markazlashtirish va talabalarni masofadan ishlashga moslashishga o‘rgatishda samarali vosita sifatida ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida talabalar raqamli savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari ko‘p qirrali va tizimli pedagogik yondashuvni talab etadi. Tadqiqot doirasida ajratilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi o‘qitish, hamkorlikda o‘qitish, loyiha texnologiyalari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda xavfsizlik va axloqiy me’yorlarni o‘rgatish texnologiyalari bir-birini to‘ldiruvchi va uzviy bog‘liq pedagogik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo‘llash talabalarning raqamli muhitda axborot bilan ishlash, muloqot qilish, muammolarni hal etish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini kompleks shakllantirish imkonini beradi.

## Adabiyotlar

1. UNESCO (2013). ICT in education policy guidelines – AKT ta’lim sifatini oshirish va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida.

2. Picciano, A.G., Seaman, J. (2017). Online learning and educational technology – AKT ta’limning samaradorligini oshiruvchi strategik vosita sifatida.

3. Alrasheedi, M., Capretz, L.F., Raza, A. (2015). A systematic review of the critical factors for success of mobile learning in higher education (university students’ perspective) // Journal of educational computing research, 52(2), 257-276.

4. Слободчиков В.И. Образовательная среда: реализация целей образования в пространстве культуры // Новые ценности образования: культурные модели школ. Вып. 7. Инноватор-Bennet college. – М., 2001. – С. 177-184.

5. Wikipedia contributors. (2024, July 20). Learning management system. Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Learning_management_system

6. Григорьев С.Г., Гриншкун В.В. Мультимедиа в образовании. http://www.ido.edu.ru/open/multimedia/index.html

7. Shermanova F.D. (2024). Media and communication are overt and covert influences in the age of digital technologies // Экономика и социум, (9 (124)), 298-301.

8. Chou, P.-N., Chang, C.-C., Lu, P.-F. (2015). Prezi versus PowerPoint: the effects of varied digital presentation tools on students' learning performance // Computers & education, 91, 73-82.

9. Bradley, E.A. (2023). Empowering students through Canva: a creative approach to presentation literacy. Crops, Soils & Agronomy News. https://acsess.onlinelibrary.wiley.com/doi/am-pdf/10.1002/csan.21073

## TALABALARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

**Shermanova Feruza Djumaboyevna,**
**Toshkent amaliy fanlar universiteti, p.f.f.d., dotsent**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, raqamli savodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning zamonaviy oliy ta'lim tizimidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida raqamli savodxonlikning ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv o'qitish metodlari, sun'iy intellekt vositalari, elektron ta'lim resurslari hamda raqamli platformalarning imkoniyatlari va samaradorligi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli savodxonlik, oliy ta'lim, raqamli texnologiyalar, talaba, raqamli kompetentlik, pedagogik innovatsiyalar

**Аннотация.** В данной статье раскрыты теоретико-методологические основы развития цифровой грамотности студентов, научно обоснована сущность и содержание понятия цифровой грамотности, а также её роль в современной системе высшего образования. Кроме того, проанализировано значение цифровой грамотности в профессиональном и личностном развитии студентов в условиях цифровой трансформации. В исследовании рассмотрены возможности и эффективность инновационных педагогических технологий, интерактивных методов обучения, инструментов искусственного интеллекта, электронных образовательных ресурсов и цифровых платформ, направленных на формирование и развитие цифровой грамотности.

**Ключевые слова:** цифровая грамотность, высшее образование, цифровые технологии, студент, цифровая компетентность, педагогические инновации.

**Annotation.** This article examines the theoretical and methodological foundations of developing students' digital literacy, highlighting the essence and content of the concept of digital literacy as well as its role in the modern higher education system. In addition, the study analyzes the significance of digital literacy for students' professional and personal development in the context of digital transformation. The research explores the potential and effectiveness of innovative pedagogical technologies, interactive teaching methods, artificial intelligence tools, electronic educational resources, and digital platforms aimed at fostering and enhancing students' digital literacy.

**Key words:** digital literacy, higher education, digital technologies, student, digital competence, pedagogical innovations

Bugungi shiddatli raqamli transformatsiya davri oliy ta'lim muassasalaridan paradigma o'zgarishini talab qilmoqda. Endilikda ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarni texnologik jihatdan malakali, axborotga tanqidiy yondashuvchi, media savodxon, samarali kommunikator va raqamli xavfsizlik madaniyatiga ega shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlarimiz davomida batafsil tahlil etilgan raqamli savodxonlikning fundamental komponentlari – texnik bilimlardan tortib, axborotni tanqidiy baholash, media tahlili, samarali kommunikatsiya, raqamli muhitda xavfsiz harakatlanish, innovatsion kontent yaratish va muammolarni raqamli vositalar orqali hal qilish ko'nikmalarini samarali rivojlantirish aynan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'quv amaliyotiga tizimli va integratsiyalashgan holda tatbiq etish orqali erishiladi. Shu sababli, mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni shunchaki didaktik vosita emas, balki ta'limiy jarayonning ajralmas, fundamental va integral tarkibiy qismi sifatida tushunish va tizimli, maqsadga yo'naltirilgan tarzda qo'llash zarurati yuzaga chiqmoqda.

*Raqamli savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar samarali qo'llanilishi uchun ularni quyidagi asosiy* ***to'rt guruh****ga ajratish mumkin:*

1) Ta'limni boshqarish va hamkorlik platformalari (Learning Management and Collaboration Platforms);

2) Interfaol kontent yaratish va multimedia vositalari (Interactive Content Creation and Multimedia Tools);

3) Kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligi texnologiyalari (Cybersecurity and Information Security Technologies);

4) Innovatsion g'oyalar va muammoli vaziyatlarni yechishga yo'naltirilgan raqamli vositalar (Digital Tools for Innovation and Problem-Solving).

Har bir turdagi texnologiyaning pedagogik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ularning imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solish va o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish maxsus metodik yondashuvni, pedagogik-psixologik tayyorgarlikni hamda ta'lim infratuzilmasining moslashuvchanligini talab etadi.

Ta'lim jarayonini raqamlashtirishda o'quv platformalari (Learning Management Systems – LMS) markaziy o'rinni egallaydi. Bular ta'limni boshqarish, o'quv resurslarini tashkil etish, o'quvchilarni baholash va ular o'rtasida hamda o'qituvchi bilan o'zaro muloqotni ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy ekotizimlardir. Ushbu platformalar, shunchaki kontentni yetkazib berish vositasi emas, balki talabalarning mustaqil o'qish, tanqidiy fikrlash, o'zini baholash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli ta'lim muhitini tashkil qilishda turli tizimlarning uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizimlar birgalikda yagona, qulay va samarali o'quv-axborot makonini yaratadi. Raqamli ta'lim muhiti quyidagi asosiy tizimlardan iborat bo'lishi mumkin:

**Dasturiy ta'minot mahsulotlariga mualliflik qilish (Authoring Packages).** O'quv materiallarini, interfaol mashqlarni va raqamli resurslarni yaratish uchun mo'ljallangan dasturiy vositalar.

**Ta'limni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems – LMS).** O'quv jarayonini umumiy boshqarish, kurslarni tashkil etish, talabalar progressini kuzatish va baholashni avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Moodle, Google Classroom, Canvas, Blackboard kabi tizimlar bunga misol bo'la oladi.

**Tarkibni boshqarish tizimlari (Content Management Systems – CMS).** Asosan o‘quv kurslarining mazmunini (matnlar, videolar, rasm va boshqa resurslar) samarali boshqarish, yangilash va talabalarga taqdim etish uchun ishlatiladi.

**Ta’lim kontentini boshqarish tizimlarini o‘rganish (Learning Content Management Systems – LCMS)**. CMSga nisbatan kengroq funksionallikka ega bo‘lib, o‘quv kontentini yaratish, saqlash, qayta ishlatish va tarqatish jarayonlarini to‘liq boshqaradi. Ular kurslarni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

**Ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar (Learning Support Systems – LSS).** Talabalarga o‘quv jarayonida yordam beruvchi, ularning savollariga javob beruvchi yoki o‘quv materiallariga kirishni osonlashtiruvchi qo‘shimcha vositalar (masalan, chatbotlar, onlayn yordam xizmatlari).

**Ta’limiy platformalar (Learning Platforms – LP).** Yuqoridagi tizimlarni o‘zida mujassam etgan yoki ularni birlashtirgan keng qamrovli ekotizimlar bo‘lib, uzluksiz va kompleks ta’lim muhitini yaratadi.[3]

LMSlar akademik yoki kasbiy ta’lim jarayonlarini boshqarish, kurs tashkil qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, talabalar progressini kuzatish va baholashni avtomatlashtirish imkonini beradi [7]. LMS platformalari, jumladan, Moodle, Google Classroom, Canvas, Blackboard kabi tizimlar talabalarning raqamli savodxonligining bir necha muhim komponentlarini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi:

Texnik savodxonlik. Talabalar platformaning interfeysini o‘zlashtirish, materiallarni yuklash/yuklab olish, topshiriqlarni joylashtirish, onlayn sinovlarda qatnashish orqali dasturiy ta’minotdan foydalanishning texnik ko‘nikmalarini egallaydi.

Axborot savodxonligi. Platformada joylashtirilgan o‘quv resurslarini (matnlar, videolar, havolalar) izlash, saralash, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi.

Kommunikativ va hamkorlik savodxonligi. Forumlar, chatlar, guruh loyihalari uchun mo‘ljallangan vositalar orqali talabalar o‘zaro va o‘qituvchilar bilan samarali muloqot qilish, fikr almashish, munozaralarda ishtirok etish hamda jamoaviy loyihalarda hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Tadqiqotlar, xususan, Alrasheedi, Capretz va Raza (2015) tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, “Moodle va Google Classroom kabi raqamli o‘quv platformalari nafaqat o‘quv materiallarini yetkazish imkonini beradi, balki talabalarga mustaqil o‘qish, o‘zini baholash va hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini ham yaratadi” [1]. Bu ta’kid, ushbu platformalarning shunchaki ma’lumot uzatish mexanizmi emas, balki faol o‘rganish muhitini shakllantirishdagi rolini yaqqol ko‘rsatadi.

Ushbu platformalarning pedagogik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun o‘qituvchilar tomonidan modul asosida dars dizayni qilish muhimdir. Har bir modulni loyihalashtirishda texnologik vositalarning didaktik maqsadlarga xizmat qilishiga e’tibor qaratish, talabalarning bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi topshiriqlar orqali texnologiyaviy tafakkurini, ya’ni raqamli vositalar yordamida muammolarni tizimli hal qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Misol uchun, Moodle’dagi “Wiki” yoki “Forum” modullari orqali talabalarga jamoaviy loyiha ustida ishlash, fikrlar almashish va birgalikda bilim yaratish imkoniyatlari berilishi mumkin. Bu esa, ularda hamkorlik savodxonligini mustahkamlaydi va raqamli muloqot ko‘nikmalarini takomillashtiradi.

O‘qitish va o‘rganish jarayonida multimedia tizimlarining qo‘llanilishi sifatli ta’limga erishish va talabalar natijalarini yaxshilash uchun samarali strategiya sifatida ko‘plab

tadqiqotlarda tasdiqlangan [2]. Interfaol kontent yaratish va multimedia vositalari aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Bu vositalar nafaqat o‘qituvchiga materiallarni dinamik tarzda taqdim etish imkonini beradi, balki talabalarning o‘zlari ham raqamli kontent yaratish, vizual va audio axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari uchun keng sharoit yaratadi. Ushbu turdagi texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

**Vizual va audio-vizual materiallar yaratish** – PowerPoint, Google Slides, Prezi kabi prezentatsiya dasturlari orqali visual axborotni birgalikda ishlatish bilimlarni tizimli ideallashtirish va uzoq muddatli saqlashga xizmat qiladi [6]. Shuningdek, grafik dizayn vositalari (Canva, Photoshop, Figma) yordamida talabalarning axborotni estetik va strukturaviy jihatdan yaratishi vizual savodxonlik, kontent yaratish va ifodalash kompetensiyalarini mustahkamlaydi [3]. Bu ularda axborotni strukturaviy va estetik jihatdan to‘g‘ri taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Animatsion videolardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning media savodxonligini shakllantiradi va tushunchalarni vizual tarzda idrok etish imkonini beradi [8]. Bochenek (2025) qayd etishicha, podkastlar orqali axborotni yetkazish nafaqat eshitish orqali bilim olishni ta’minlaydi, balki uni ijodiy shakllantirish, tahlil qilish va ta’sirchan formatda taqdim etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayon talabalarni raqamli kontent muhitida faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi [4]. Video va audio kontent yaratish/tahrirlash – Adobe Premiere Pro, DaVinci Resolve, CapCut, Audacity kabi dasturlar yordamida talabalar videoroliklar, podkastlar, animatsiyalar yaratish va tahrirlashni o‘rganadilar. Bu ko‘nikmalar ularga murakkab g‘oyalarni ixcham va tushunarli shaklda yetkazish, shuningdek, media kontentning tuzilishi va ta’sirini tushunishga yordam beradi.

Oliy ta’limda raqamli savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, ta’limni boshqarish va hamkorlik platformalari (LMS), interfaol kontent yaratish va multimedia vositalari talabalarning texnik, axborot, kommunikativ va hamkorlik savodxonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Moodle va Google Classroom kabi LMS platformalari talabalarga nafaqat bilim olish, balki mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Multimedia vositalari, jumladan prezentatsiya dasturlari, grafik dizayn vositalari, video va audio tahrirlash dasturlari talabalarda vizual savodxonlikni, kontent yaratish va axborotni samarali taqdim etish qobiliyatini mustahkamlaydi. Raqamli ta’lim muhitining uyg‘unlashuvi va yuqorida sanab o‘tilgan texnologiyalarning o‘quv jarayoniga tizimli integratsiyasi talabalarni raqamli davr talablariga javob beradigan malakali kadrlar sifatida shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Kelgusida raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va metodik yondashuvlarni chuqurroq o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

## Adabiyotlar

1. Alrasheedi, M., Capretz, L.F., Raza, A. (2015). A systematic review of the critical factors for success of mobile learning in higher education (university students’ perspective) // Journal of educational computing research, 52(2), 257-276.

2. Abdulrahman, M., Naing, N., Rizal, A. (2020). Use of multimedia to improve students’ performance in education // Pakistan Journal of medical sciences, 36(6), 1368-1373. https://doi.org/10.12669/pjms.36.6.2574

3. Bradley, E.A. (2023). Empowering students through Canva: a creative approach to presentation literacy. Crops, Soils & Agronomy News. https://acsess.onlinelibrary.wiley.com/doi/am-pdf/10.1002/csan.21073

4. Bochenek, A. (2025). Libraries facilitating knowledge creation through podcasting. ScienceDirect.

5. Слободчиков В.И. Образовательная среда: реализация целей образования в пространстве культуры // Новые ценности образования: культурные модели школ. Вып. 7. Инноватор-Bennet college. – М., 2001. – С. 177-184.

6. Chou, P.-N., Chang, C.-C., Lu, P.-F. (2015). Prezi versus PowerPoint: the effects of varied digital presentation tools on students' learning performance. Computers & Education, 91, 73-82. https://www.researchgate.net/publication/283849723

7. Wikipedia contributors. (2024, July 20). Learning management system: https://en.wikipedia.org/wiki/Learning_management_system

8. Kleftodimos, A. Computer-animated videos in education: implications for motivation and media literacy. – T.: MDPI, 2024.

## SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA AKADEMIK HALOLLIK: YANGI QONUNLARSIZ, LEKIN YANGI MADANIYAT BILAN

**Shihova Xasiyat Ismailovna, Urganch davlat universiteti Fan va innovatsiyalar hamda muvofiqlik nazorati boʻlimi boshligʻi, doktorant**

**Kalit soʻzlar:** *akademik halollik, sun'iy intellekt, ICAI, pedagogik muvofiqlik, halollik vaksinatsiyasi, yaxlit yondashuv, baholash dizayni, ta'lim madaniyati, tyutor, virtual proakademiya.*

Oʻtgan yili bir tanishim – viloyat universitetida dars beradigan oʻqituvchi – shunday dedi: "Studentlar endi ChatGPT bilan insho yozib kelmoqda, men esa qoʻlim bilan tekshiraman... nimasi halol, nimasi emas, bilolmayman". Bu gap koʻpchiligimizga tanish. Bugun darsxonada emas, lekin har bir uyda, har bir telefonda sun'iy intellekt (SI) vositalari bor. Talabalar ulardan foydalanmoqda – ayrimlari oshkora, koʻpchiligi yashirincha. Muammo SIning oʻzida emas. Muammo – biz unga munosabat bildirish uchun tayyor emasligimizda va aksariyat hollarda birinchi koʻtarilgan masala: "yangi qonun kerakmi?" degan savol boʻladi. Mening javobim: yoʻq. Mavjud huquqiy asoslarimiz yetarli – faqat ularni toʻgʻri oʻqish, talqin qilish va amaliyotga tatbiq etish kerak.

QONUNCHILIGIMIZDAGI ASOSLAR: NIMAGA TAYANAMIZ?

Koʻpchilik "SI masalasida hech narsa yozilmagan" deb oʻylaydi. Holbuki, qidirish boshlanganida, manba koʻp ekanligiga ishonch hosil boʻladi. Masalan, Prezidentning PQ-5729-son Qarori (2019) "halollik vaksinatsiyasi" tamoyilini belgilagan. Bu tamoyil aslida nimani anglatadi?

Kasallikka chalinmaslik uchun emlash lozim – xuddi shunday, korrupsiya va vijdonsizlikka duchor boʻlmaslik uchun yoshlikdan ma'naviy immunitetni shakllantirish kerak. Mana shu gʻoya – zamonaviy SI asrida ham oʻz kuchini yoʻqotmagan: PQ-5729-son Qaror (2019) – ta'lim muassasalarida ma'naviy immunitetni mustahkamlash davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan.

“Ta’lim to‘g‘risida” Qonun (2020) – bilim olishda tenglik kafolatlanadi. SI vositalariga noteng kirish imkoniyati bu kafolatni buzishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurash qonunchiligi – akademik firibgarlikni korrupsiyaviy xatti-harakat sifatida talqin qilishga asos beradi.

OTM ichki nizom va ustavi – har bir universitet qo‘shimcha qonunsiz, o‘z Akademik halollik siyosatini joriy qila oladi.

*Yangi qonun emas, mavjud qonunni yangi ko‘z bilan o‘qish – mana haqiqiy yo‘l.*

ICAI NIMA DEYDI: “YAXLIT YONDASHUV” HAQIDA

Xalqaro Akademik Halollik Markazi (ICAI) – bu sohadagi dunyodagi eng yirik va nufuzli tashkilot bo’lib, AQShda 50 yildan buyon faoliyat yuritadi. Ular ishlab chiqqan “yaxlit (holistik) yondashuv” juda oddiy, ammo chuqur g‘oyaga asoslanadi: muammo faqat qoidabuzar talabada emas, balki butun tizimda – siyosatda, o‘qitish usulida, baholash tizimida va rahbariyat namunasida.

| ICAI qadriyati | OTM amaliyotida nimani anglatadi |
|---|---|
| **Halollik** | SI ishlatilganda ham mualliflikni ochiq e’lon qilish |
| **Ishonch** | O‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi shaffoflik |
| **Adolat** | Hamma uchun bir xil qoidalar, imtiyozsiz |
| **Hurmat** | Boshqalar mehnatini o‘zgacha qilib ko‘rsatmaslik |
| **Mas’uliyat** | Har kim o‘z ishiga o‘zi javob beradi |
| **Jasorat** | Noto‘g‘ri ko‘rilganda indamay o‘tmay – gapirish |

“Yaxlit” so‘zini ba’zan qiyin tushunishadi. Lekin asl ma’nosi shunday: plagiat topish dasturini kompyuterga o‘rnatib, “ish bitdi” deb o‘tirishning o’zi yetarli emas. Baholash tizimini ham, o‘qitish uslubini ham, muassasadagi umumiy muhitni ham bir butun sifatida ko’rish zarur.

MA’NAVIYAT VA MUVOFIQLIK: MILLIY NUQTAI NAZAR.

*“Akademik halollik – bu shunchaki qoida emas, balki ma’naviy immunitet. Talabalarda SI savodxonligini shakllantirish, uning chegaralarini bilishga o‘rgatish – korrupsiyaga qarshi tarbiyaning eng samarali usullaridan biridi”. – Professor Muhammadjon Kuranov, O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va Ma’rifat ilmiy-amaliy markazi*

Professor Kuranov bu gapni bejiz aytmagan. Milliy tarbiya tizimimizdagi “halollik vaksinatsiyasi” tamoyili bilan ICAI ning yaxlit yondashuvi – aslida bir xil g‘oyani turli yo’llar bilan ifodalaydi. Ikkalasi ham jazolashga emas, oldini olishga, qoidabuzarni tutishga emas, halollik muhitini yaratishga tayanadi.

SI vositalarini “taqiqlash” – bu suv to‘xtatish uchun qo‘l uzatishga o‘xshaydi. Oqim to‘xtamaydi. Lekin oqimni to‘g‘ri yo‘naltirsak, u energiya beradi. Xuddi shunday, talabaga SI vositasidan mas’uliyatli foydalanishni o‘rgatish – uni taqiqlashdan ko‘ra samaraliroq.

KIM NIMA QILISHI KERAK: ANIQ TAVSIYALAR

**O‘qituvchilar uchun:** topshiriq berishda SI dan qanday foydalanish joiz ekanligini oldindan aniq aytib o‘ting. “Goyani SI bilan topish mumkin, ammo yozuvni o‘zing yoz” degan aniq ko‘rsatma bahs-munozarani oldini oladi. Baholashda faqat tayyor matnni emas, jarayonni ham ko‘’ring: qoralama, manbalar, og‘zaki himoya. Kimki o‘z ishini himoya qila

olsa – mualliflik isbotlangan. “SI ishlatdim” degan talabani jazolashga shoshilmang. Avval so‘rang: qanday ishlatdi? Bu savolning o‘zi ko‘proq ma’lumot beradi.

**Talabalar uchun:** SI ishlatganingizni yashirmang. Izohda ko‘rsating: “Bu bo‘limning birinchi qoralamasi ChatGPT yordamida tayyorlandi va men tomonimdan to‘liq qayta ishlandи”. Bu zaiflik emas – bu halollik. SI o‘zingiz uchun o‘ylayolmaydi. Dalilni baholash, fikrni asoslash, tanqidiy qarash – bular sizning qo‘lingizda qolishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar.

Kelajakdagi ish beruvchi sizdan diplom emas – halollik va ishonchlilik kutadi.

TYUTORLAR VA MA’NAVIY-MA’RIFIY TIZIM: “FRONT”GA CHAQIRILMAGAN QO‘SHIN

Har bir OTMda tyutorlar bor. Ular zimmasiga yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish yuklatilgan – bu rasman belgilangan vazifa. Lekin amaliyotda tyutorlar “akademik halollik madaniyati” frontidan chetda qolmoqda.

Holbuki, kimdir talaba bilan emas, balki inson sifatida muloqot qilsa – bu tyutor. U sinf jurnalini emas, talabaning ichki dunyosini ko‘radi. Shu sababli tyutorlar akademik halollik masalasida eng ta’sirli bo‘g‘in bo‘lishi mumkin – agar ularga kerakli bilim va vositalar berilsa. OTM boshqaruv tizimidagi ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalish xodimlari – ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari, kafedra o‘qituvchilari, tarbiya ishlari bo‘yicha prorektor xizmati – birlashib ishlasa, yagona madaniyat vujudga keladi. Professor-o‘qituvchilar bilan birga tyutorlarni ham ICAI xalqaro tamoyillari asosida o‘qitish – nafaqat kerakli, balki muhim qadam.

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI O‘QITISH: VIRTUAL PROAKADEMIYA IMKONIYATI.

Bu yildan boshlab biz e’tiborga olayotgan https://edu.proacademy.uz/ platforma borligini ko‘proq his qilmoqdamiz: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Virtual Proakademiya. Ushbu platforma korrupsiyaga qarshi ta’lim va huquqiy savodxonlikni ommaviy tarzda yetkazishda allaqachon ishlaydi. Xuddi shu platforma orqali akademik halollik bo‘yicha kursni ham respublika miqyosida professor-o‘qituvchilarga va tyutorlarga yetkazish mumkin.

*Taklif qilinayotgan kurs uch moduldan iborat:*

**1-modul: “Akademik halollik asoslari va ICAI tamoyillari”** – ICAIning 6 qadriyati, plagiatning turlari, O‘zbekiston qonunchiligi bilan bog‘liqligi.

**2-modul: “Sun’iy intellekt va akademik yozuv etikasi”** – SI vositalaridan qanday to‘g‘ri foydalanish, mualliflikni hujjatlashtirish, baholashni modernizatsiya qilish.

**3-modul: “Muvofiqlik nazorati va halollik madaniyatini institutsionallash”** – OTM darajasida siyosat yaratish, Bloom taksonomiyasi asosida test banki, QAA va ESG 2015 standartlariga moslashish. UrDU tajribasi: 2026-yilda “Halollik madaniyati va korrupsiya profilaktikasi” maxsus kursi ishlab chiqildi. 10 ta fakultet, 43 ta kafedra bo‘ylab joriy etildi, 900 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi. 90 ta savollik test banki yaratildi, Google Forms orqali onlayn sinovlar o‘tkazildi, har bir kafedra kesimida statistik tahlil amalga oshirildi. Kurs tashqi ekspertizasidan o‘tkazildi, Bloom taksonomiyasiga muvofiqligi tasdiqlandi. Bu tajribani Virtual Proakademiya orqali respublikaga tarqatish – eng tejamli va samarali yo‘l.

XALQARO HAMKORLIK: KIMLAR BILAN ISHLAYAPMIZ

Urganch davlat universiteti – Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib ICAI bilan rasmiy hamkorlikka kirishmoqda. Hozir ICAI tadqiqot bo‘yicha vitse-prezidenti Professor Jason M.Stephens (Oklend universiteti, Yangi Zelandiya) va Kanada akademik halillik Konsotsiumi raisi, Professor Jenni Mayron (Humber kollej, Kanada) bilan hamkorlik muloqotlari olib borilmoqda. McCabe ICAI Talabalar So‘rovnomasi o‘zbek va rus tillariga

tarjima qilinmoqda. Rektor buyrug‘i 314-sonli 2026-yil 18-iyundagi asosida etika ruxsatnomasi rasmiy ravishda olingan. “Biz ICAI a’zosi sifatida O‘zbekiston OTMlarida akademik halollik madaniyatini mustahkamlash bo‘yicha hamkorlikka tayyormiz. Urganch davlat universitetining bu tashabbusi Markaziy Osiyo uchun muhim namuna bo‘la oladi” – ICAI rahbariyatidan rejalashtirilgan hamkorlik xati (2026).

QOIDA YOZISH EMAS – MADANIYAT YARATISH

Akademik halollik – bu qoidabuzarni ushlash tizimi emas. Bu – “men halol bo‘laman, chunki to‘g‘ri ish shunday” degan ichki ishonch. SI davrida bu ishonch yanada muhimroq, chunki qoidani texnik jihatdan chetlab o‘tish osonlashdi.

Lekin hech qanday texnik nazorat tizimi bu ishonchni o‘rnini bosa olmaydi. Plagiat detektor dasturlari talabani halol qilmaydi – u faqat ushlangan holda “to‘g‘ri” yo‘lni tanlaydi. Bizga esa, keraklisi – ushlash qo‘rquvidan emas, qadriyatdan yo‘naluvchi avlod. O‘zbekistonda buning uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. “Halollik vaksinatsiyasi” tamoyili, mustahkam qonunchilik, tyutorlik tizimi, Virtual Proakademiya platformasi – bularning barchasi qo‘lda. Faqat bularni bir yo‘nalishga – halollik madaniyatini barpo etib uni rivojlantirish yo‘nalishiga – birlashtirish kerak. Bu ishni boshlamoq uchun yangi qonun emas, yangi tafakkur kerak.

# ДЕОНТОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЗИЦИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ КАК УСЛОВИЕ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ДУХЕ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

**Шодиева Раънохон Абдумажид кизи, базовый докторант Национального иститута педагогики воспитания**

**Аннотация.** В статье рассматривается развитие деонтологической позиции будущего учителя как важное условие воспитания молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности. Обосновано, что в условиях инновационного образования педагогическая подготовка должна включать не только освоение современных технологий и методов воспитательной работы, но и формирование профессионального долга, правовой культуры, педагогической этики, коммуникативной ответственности и рефлексивной готовности будущего учителя. Особое внимание уделено связи между содержанием предмета «Воспитание», международным педагогическим опытом и механизмами деонтологической подготовки педагогических кадров. Показано, что деонтологическая позиция выступает внутренним регулятором педагогического решения, обеспечивающим нравственную, правовую и социальную обоснованность воспитательного воздействия.

**Ключевые слова:** деонтологическая позиция, будущий учитель, инновационное образование, гражданская активность, социальная ответственность, предмет «Воспитание», педагогическая этика, профессиональный долг, воспитание молодежи, цифровая ответственность.

Современное образование развивается в условиях интенсивного обновления содержания воспитательной работы, цифровизации образовательной среды, усиления роли гражданских, правовых и нравственных компетенций личности. В этих условиях

воспитание молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности не может ограничиваться передачей отдельных знаний о правах, обязанностях, социальных нормах и ценностях. Оно требует подготовки педагога, способного организовывать воспитательный процесс на основе педагогического долга, профессиональной ответственности, уважения к личности обучающегося, правовой культуры и этически обоснованного педагогического решения.

Тема настоящей статьи непосредственно соотносится с темой конференции, поскольку гражданская активность и социальная ответственность молодежи формируются не только через содержание воспитательных мероприятий, но и через профессиональную позицию учителя. Будущий учитель, особенно будущий учитель предмета «Воспитание», выступает субъектом воспитательного влияния, который своим словом, оценкой, способом общения, отношением к личности обучающегося и характером педагогического решения транслирует социальные и нравственные нормы. Следовательно, развитие деонтологической позиции будущего учителя является одним из значимых механизмов подготовки педагогических кадров, способных воспитывать социально ответственную и граждански активную молодежь.

Нормативное основание данной проблемы определяется требованиями национальной образовательной политики. В Законе Республики Узбекистан «О статусе педагога» закреплено, что педагог обязан уважать честь, достоинство и деловую репутацию участников образовательно-воспитательного процесса, использовать информационно-коммуникационные технологии, передовые и инновационные формы и методы обучения и воспитания, учитывать психологические и индивидуальные особенности обучающихся, а также соблюдать правила педагогической этики [1, ст. 7–8]. Эти положения указывают на то, что профессиональная деятельность современного педагога должна строиться не только на методической компетентности, но и на устойчивой этико-деонтологической основе.

Содержательная актуальность рассматриваемой проблемы усиливается задачами предмета «Воспитание». В Концепции внедрения данного предмета отмечается, что он направлен на формирование у обучающихся активной гражданской позиции, ответственности, обязанности, правового сознания, правовой культуры, толерантности, духовно-нравственных и социальных качеств [2, п. 8, 14]. В этом же документе подчеркивается необходимость подготовки учащихся к успешной социальной жизни, формирование у них способности принимать решения на основе правовых и нравственных критериев [2, п. 13-16]. Следовательно, будущий учитель предмета «Воспитание» должен быть подготовлен к воспитательной деятельности не формально, а через внутреннее принятие профессионального долга и ответственности за последствия педагогического воздействия.

Международный педагогический опыт также подтверждает необходимость усиления ценностно-нормативной подготовки педагога. В рекомендациях ЮНЕСКО образование рассматривается как средство формирования мира, уважения прав человека, глобального гражданства, сотрудничества, устойчивого развития, ценностей, установок и моделей ответственного поведения [3]. В проекте OECD Learning Compass 2030 подчеркивается, что современное образование должно развивать у обучающихся знания, навыки, отношения и ценности, необходимые для осознанного участия в будущем обществе [4]. Понятие student agency в документах OECD связано со способностью учащегося ответственно влиять на собственную жизнь и окружающий

мир, участвовать в обществе и принимать осмысленные решения [5, с. 4-5]. Эти идеи важны для подготовки будущих учителей, поскольку гражданская субъектность обучающихся не может развиваться в педагогической среде, где сам учитель не обладает устойчивой профессионально-нравственной позицией.

В научно-педагогическом аспекте деонтологическая позиция будущего учителя может быть определена как интегративное профессионально-личностное образование, выражающее готовность педагога действовать на основе осознания педагогического долга, правовых и нравственных норм, гуманистических ценностей, ответственности за воспитательные последствия собственного решения. В отличие от общего представления о педагогической этике как совокупности правил поведения, деонтологическая позиция характеризует внутреннюю готовность будущего учителя переводить эти правила в конкретное педагогическое действие. Она проявляется в выборе допустимых методов воспитательного влияния, в корректности педагогического общения, в справедливости оценки, в способности учитывать личностное достоинство обучающегося, в умении анализировать последствия собственного воздействия.

В педагогической литературе деонтологическая готовность рассматривается как профессионально значимое качество, связанное с осознанием педагогом долга, нормы и ответственности в процессе взаимодействия с обучающимися [6].

Данный подход имеет принципиальное значение для темы конференции, поскольку воспитание гражданской активности и социальной ответственности невозможно осуществлять педагогическими средствами, противоречащими самим этим ценностям. Если педагог использует авторитарное давление, унижающую оценку, формальное нравоучение или некорректную коммуникацию, то содержание воспитания вступает в противоречие с формой педагогического воздействия. Поэтому деонтологическая позиция выступает внутренним регулятором, обеспечивающим соответствие между целью воспитания и способом ее реализации.

Анализ проблемы позволяет выделить несколько механизмов развития деонтологической позиции будущего учителя в условиях инновационного образования.

*Первый механизм* – нормативно-ценностная интеграция. Его сущность заключается в том, что будущий учитель осваивает требования педагогической этики, права обучающихся, нормы профессионального поведения, задачи гражданского воспитания и ценности социальной ответственности во взаимосвязанной системе. При таком подходе правовые и нравственные нормы не воспринимаются как внешний контроль, а становятся основанием профессионального выбора. Для будущего учителя предмета «Воспитание» это особенно важно, поскольку содержание данного предмета непосредственно связано с формированием правовой культуры, ответственности, гражданской позиции и социального поведения. *Второй механизм* – деонтологический анализ педагогических ситуаций. В процессе профессиональной подготовки будущие учителя должны работать с воспитательными кейсами, в которых присутствуют конфликт интересов, нарушение этических границ, проявление социальной пассивности, агрессивной коммуникации, кибербуллинга, правовой неграмотности или безответственного поведения. Анализ таких ситуаций должен строиться не только на вопросе «какой метод применить?», но и на вопросах «какое решение соответствует педагогическому долгу?», «не нарушает ли выбранное воздействие достоинство

обучающегося?», «какие воспитательные последствия может вызвать данное решение?». Именно такая логика формирует способность будущего педагога действовать граждански и социально ответственно. *Третий механизм* – коммуникативно-деонтологическая подготовка. Гражданская активность и социальная ответственность молодежи развиваются в образовательной среде, основанной на уважении, диалоге, доверии и справедливости. Будущий учитель должен владеть педагогическим диалогом, активным слушанием, аргументацией, корректной обратной связью, медиативными приемами и культурой ненасильственной коммуникации. Коммуникативная сторона деонтологической позиции проявляется в отказе от обвинительных, унижающих, стигматизирующих и психологически травмирующих форм воздействия. Педагогическое слово в воспитательном процессе выполняет не только информационную, но и ценностно-регулятивную функцию. *Четвертый механизм* – гражданско-деятельностное проектирование. Международный педагогический опыт показывает, что гражданская активность эффективнее формируется через участие обучающихся в социально значимой деятельности, проектном обучении, волонтерских инициативах, обсуждении общественных проблем и коллективном поиске решений. В подготовке будущего учителя важно формировать умение проектировать такие воспитательные формы, в которых обучающийся не остается пассивным адресатом воспитательного воздействия, а включается в деятельность, требующую ответственности, сотрудничества, анализа ситуации и оценки результата. При этом деонтологическая позиция будущего педагога обеспечивает добровольность участия, уважение к личности, недопущение формализма и ориентацию на реальную социальную значимость выполняемой деятельности. *Пятый механизм* – цифрово-деонтологическая ответственность. Инновационное образование включает использование цифровых платформ, электронных ресурсов, социальных сетей, искусственного интеллекта, дистанционных форм взаимодействия. Эти средства расширяют возможности воспитательной работы, одновременно создавая новые этические риски: нарушение конфиденциальности, публичное оценивание личности, некорректная цифровая коммуникация, распространение недостоверной информации, смешение личных и профессиональных границ. Поэтому будущий учитель должен владеть не только цифровыми инструментами, но и деонтологическими критериями их применения. В данном контексте особое значение приобретает умение формировать у обучающихся ответственное информационное поведение, медиаграмотность, уважение к цифровой безопасности и культуру общения в онлайн-среде. *Шестой механизм* – рефлексивная коррекция педагогического решения. Социальная ответственность педагога проявляется в способности анализировать последствия собственных действий. Рефлексия должна включать оценку педагогической ситуации, мотива принятого решения, выбранного способа воздействия, реакции обучающегося, воспитательного результата и необходимости дальнейшей коррекции. Такой механизм позволяет будущему учителю осознавать связь между профессиональным поступком и социально-нравственным результатом воспитания.

Авторская позиция заключается в том, что деонтологическая позиция будущего учителя должна рассматриваться как внутренний механизм профессионального саморегулирования, обеспечивающий нравственную, правовую и социальную обоснованность педагогического действия. Она не сводится к знанию правил

педагогической этики и не ограничивается отдельными нравственными качествами личности. Ее сущность заключается в готовности будущего учителя принимать педагогические решения на основе долга, ответственности, уважения к достоинству обучающегося, гражданских ценностей и анализа последствий воспитательного воздействия.

Такое понимание позволяет по-новому оценить роль будущего учителя в воспитании молодого поколения. В условиях инновационного образования педагог не только применяет новые технологии, интерактивные методы и цифровые средства, но и несет ответственность за их педагогический смысл. Инновационная форма воспитательной работы становится продуктивной только тогда, когда она соотнесена с этическими нормами, правовой культурой, гуманистической направленностью и социальной значимостью результата. Поэтому развитие деонтологической позиции будущих учителей должно быть включено в содержание профессиональной подготовки как целенаправленный, диагностируемый и методически обеспеченный процесс.

Таким образом, тема воспитания молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности непосредственно связана с проблемой развития деонтологической позиции будущих учителей. Национальные нормативные документы определяют гражданско-нравственные ориентиры воспитания, международный педагогический опыт раскрывает значимость активной субъектной позиции обучающегося, а деонтологический подход обеспечивает подготовку педагога к ответственному, этически выверенному и социально результативному воспитательному действию.

Следовательно, механизмы развития деонтологической позиции будущего учителя в условиях инновационного образования выступают важным научно-педагогическим основанием формирования гражданских активной, социально ответственной и нравственно устойчивой молодежи.

**Литература**


1. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-901 «О статусе педагога» от 1 февраля 2024 года.
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 422 «О мерах по поэтапному внедрению учебного предмета «Воспитание» в практику в учреждениях общего среднего образования» от 6 июля 2020 года.
3. UNESCO. Recommendation on education for peace and human rights, international understanding, cooperation, fundamental freedoms, global citizenship and sustainable development. – Paris: UNESCO, 2023.
4. OECD. Future of education and skills 2030/2040. – Paris: OECD, 2019.
5. OECD. Student Agency for 2030. OECD Future of education and skills 2030 Concept Note. – Paris: OECD, 2019.
6. Карпович И.А. Сущностные характеристики деонтологической готовности педагога к взаимодействию с дезадаптированными подростками // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия E. Педагогические науки. – П., 2020. – № 15. – С. 15-23.
7. Матушак А.Ф. Педагогические условия деонтологической подготовки будущих учителей // Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета. – 2019. – № 3. – С. 95-111.

8. Караханова Г.А. Формирование деонтологической культуры учителя в системе непрерывного педагогического образования // Научно-педагогическое обозрение. – М., 2017. – № 2. – С. 44-49.

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MAS'ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY TARBIYANING O'RNI

**Shukurova Nilufar Gayratovna,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati yoritilgan. Ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasida o'quvchilarda burchni his etish, javobgarlik, intizom, vatanparvarlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, oila va maktab hamkorligining o'quvchilar mas'uliyatini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy tarbiya, mas'uliyat, boshlang'ich ta'lim, axloqiy tarbiya, qadriyatlar, shaxs kamoloti, pedagogik jarayon.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено значение духовно-нравственного воспитания в формировании чувства ответственности у учащихся начальных классов. Проанализированы педагогические возможности развития у учащихся таких качеств, как чувство долга, ответственность, дисциплина, патриотизм и социальная активность посредством духовно-нравственного воспитания. Кроме того, раскрыта роль сотрудничества семьи и школы в формировании ответственности учащихся.

**Ключевые слова:** духовно-нравственное воспитание, ответственность, начальное образование, нравственное воспитание, ценности, развитие личности, педагогический процесс.

**Abstract.** This article examines the importance of spiritual and moral education in developing a sense of responsibility among primary school students. It analyzes the pedagogical opportunities for fostering qualities such as duty, responsibility, discipline, patriotism, and social activity through moral education. The study also highlights the role of cooperation between family and school in shaping students' sense of responsibility.

**Key words:** spiritual and moral education, responsibility, primary education, moral education, values, personal development, pedagogical process.

Insoniyatning ko'p asrlik tajribasi inson faoliyatida jismoniy kuch bilan bir qatorda ma'naviy kuch ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ma'naviy kuch shaxsning o'z e'tiqodiga sodiqligi, qat'iyati, qiyinchiliklar oldida bardoshliligi va jasoratida namoyon bo'ladi. Ruhiy qudrat, mardlik va irodaviy barqarorlik haqidagi tasavvurlar esa tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib borgan [1, 219-b.].

Qadimgi Yunoniston faylasufi Arastu asarlarida ma'naviy jihatdan boy axloqli insonlar haqida shunday deyilgan: "Mukammal ma'naviy fazilarlar egasigina axloqan go'zal inson deb ataladi"… Chunki, axloqiy go'zallik insonning fazilatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, adolatli, mard, dono hamda boshqa barcha ezgu sifatlarni o'zida mujassam etgan shaxs axloqan go'zal inson deb e'tirof etiladi. [2, 360].

Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh avlodni ma’naviy barkamol, intellektual salohiyatli va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ham o‘quvchilarning bilim olish bilan bir qatorda yuksak ma’naviy fazilatlarni egallashini ta’minlashdan iboratdir. Bu borada boshlang‘ich ta’lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda bolalarning axloqiy qarashlari, xulq-atvori va hayotiy qadriyatlari shakllana boshlaydi. Mas’uliyat insonning o‘z faoliyati, xatti-harakati va ularning natijalariga ongli munosabatda bo‘lishini ifodalovchi muhim shaxsiy sifatdir. Ushbu sifatning shakllanishi esa, ma’naviy tarbiya bilan chambarchas bog‘liq. Ma’naviy tarbiya o‘quvchilarda halollik, adolat, mehnatsevarlik, burch va javobgarlik kabi fazilatlarni rivojlantirib, ularni jamiyatda munosib o‘rin egallashga tayyorlaydi [3].

Tadqiqotchilarning fikricha, mas’uliyat hissi bolaning o‘z vazifalarini anglab yetishi, qaror qabul qilishda mustaqillik ko‘rsatishi hamda o‘z harakatlari oqibatlarini baholay olishi orqali namoyon bo‘ladi [4]. Ma’naviy tarbiya esa, shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘quvchilarning axloqiy ongini, e’tiqodini va xulq-atvorini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mas’uliyat ma’naviy tarbiyaning muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish avvalo ularning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Ushbu yosh davrida bolalar kattalarning bahosiga sezgir bo‘lib, ularga taqlid qilishga moyil bo‘ladilar. Shu sababli o‘qituvchi va ota-onaning shaxsiy namunasi mas’uliyat tarbiyasining eng muhim omillaridan biridir. Ma’naviy tarbiya jarayonida o‘quvchilarda mas’uliyat hissini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega: o‘quv faoliyatiga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish; topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishga o‘rgatish; jamoa oldidagi burch va javobgarlikni his etishga yo‘naltirish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash; o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ma’naviy tarbiya darslari, tarbiyaviy soatlar, kitobxonlik tadbirlari, ma’rifiy uchrashuvlar hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, buyuk mutafakkirlar merosidan va milliy qadriyatlardan foydalanish o‘quvchilarning axloqiy qarashlarini boyitadi hamda ularda burch va javobgarlik tuyg‘usini mustahkamlaydi [5]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirishda oila va maktabning hamkorligi muhim o‘rin tutadi.

Oilada bolaga yoshiga mos vazifalarning yuklatilishi, uy yumushlarida ishtirok etishi va o‘z harakatlari natijasiga javob berishga o‘rgatilishi uning mas’uliyatli bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Maktabda esa, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish, guruhli ishlarga jalb qilish, jamoat topshiriqlarini berish va erishilgan natijalarni rag‘batlantirish orqali ularda javobgarlik hissi rivojlantiriladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oila va maktabning uzviy hamkorligi mavjud bo‘lgan taqdirda tarbiyaviy ishlarning samaradorligi sezilarli darajada oshadi [6].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirishda ma’naviy tarbiya muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ma’naviy tarbiya orqali o‘quvchilarda burchni his etish, intizomlilik, halollik, mehnatsevarlik va javobgarlik kabi fazilatlar rivojlanadi. Oila va maktab hamkorligi, milliy qadriyatlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Shu bois ta’lim jarayonida ma’naviy tarbiya va mas’uliyat

tarbiyasining integratsiyasini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

**Adabiyotlar**


1. Сухомлинский В.А. О воспитании / Сост. и авт. вступит. очерков С.Соловейчик. – 2-изд. – М., 1975.
2. Артюхова И.С. Ценности и воспитание // Педагогика. – М., 1999. – № 4.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
4. Berk L.E. Child development. 11th ed. – Pearson education, 2023.
5. Lickona T. Educating for character. Updated edition. – Bantam Books, 2022.
6. UNICEF. Education and child development reports. – New York, 2022-2024.
7. Musurmonova O. Ma’naviy tarbiya texnologiyalari. – T., 2021.


## RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA AXLOQIY TARBIYANI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI


**Yunusova Dildoraxon Xikmat qizi,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, o‘quvchilarda mas’uliyat, halollik, raqamli madaniyat, axborotdan ongli foydalanish, virtual muloqot odobi va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishga xizmat qilishi zarurligi asoslanadi. Maqolada axloqiy tarbiyaning shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatli va integrativ yondashuvlar asosida tashkil etilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchi, o‘quvchi, oila va ta’lim platformalari o‘rtasidagi hamkorlikning tarbiyaviy imkoniyatlari ochib beriladi.



**Kalit so‘zlar:** raqamli ta’lim, axloqiy tarbiya, raqamli madaniyat, raqamli etika, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik yondashuv, media savodxonlik, akademik halollik.


Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt vositalari va multimedia resurslaridan foydalanish ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini yangilamoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, ularning axloqiy tarbiyasi, raqamli muhitdagi xulq-atvori, axborotga munosabati, muloqot madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish masalasini ham dolzarb qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’limning insonparvarlik va demokratik xarakteri, ta’lim oluvchilarda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish zarurligi belgilangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida esa davlat va jamiyat hayotida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli infratuzilma va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatilgan. Mazkur hujjatlar ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bilan birga, shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ham nazarda tutuvchi kompleks yondashuvni talab etadi.

Raqamli ta’lim muhiti an’anaviy ta’lim muhitidan farqli ravishda o‘quvchiga keng axborot maydoniga chiqish, mustaqil izlanish, turli manbalar bilan ishlash, virtual muloqotga kirishish va o‘z fikrini onlayn tarzda ifodalash imkonini beradi. Biroq bunday imkoniyatlar

bilan bir qatorda yolg‘on axborot, kiberxavfsizlik muammolari, internetga haddan ortiq bog‘lanish, mualliflik huquqiga rioya qilmaslik, akademik halollikning buzilishi, virtual muloqotda qo‘pollik va mas’uliyatsizlik kabi salbiy holatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan holda tashkil etish zarur.

Axloqiy tarbiya o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lib, u halollik, adolat, mas’uliyat, hurmat, mehr-oqibat, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, bag‘rikenglik va insonparvarlik kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli ta’lim sharoitida esa bu fazilatlar yangi mazmun bilan boyiydi: o‘quvchi raqamli vositalardan foydalanishda axborot madaniyatiga, onlayn muloqot odobiga, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga, mualliflik huquqiga rioya etishga va internetdagi xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etishga o‘rganishi lozim.

Raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etish, avvalo, uning nazariy asoslarini to‘g‘ri belgilashni talab qiladi. Nazariy jihatdan axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy me’yor va qadriyatlarni anglab yetishi hamda ularni kundalik faoliyatida qo‘llay olishi bilan bog‘liq pedagogik jarayondir. Raqamli muhitda bu jarayon o‘quvchining real va virtual hayotdagi xatti-harakatlarini uyg‘unlashtirish, unda raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirish bilan to‘ldiriladi.

Raqamli ta’lim muhiti faqat texnik vositalar yig‘indisi emas, balki o‘quvchi, o‘qituvchi, elektron resurslar, ta’lim platformalari, interaktiv topshiriqlar, kommunikatsiya vositalari va nazorat mexanizmlaridan iborat murakkab pedagogik tizimdir. Mazkur tizimda axloqiy tarbiyaning samaradorligi raqamli vositalardan qanday maqsadda foydalanilishiga, o‘qituvchining pedagogik mahoratiga, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga hamda oilaviy-tarbiyaviy muhit bilan hamkorlik darajasiga bog‘liq.

Raqamli ta’limda axloqiy tarbiyani tashkil etishning birinchi metodologik asosi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir o‘quvchi individual qobiliyat, qiziqish, ehtiyoj va tarbiyaviy tajribaga ega bo‘lgan alohida shaxs sifatida qaraladi. Raqamli ta’lim platformalari o‘quvchining mustaqil ishlashi, ijodiy fikrlashi, o‘z-o‘zini baholashi va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilashi uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘quvchining raqamli muhitdagi faolligini nazorat qilishi, unga axloqiy tanlov vaziyatlarida to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi va virtual muloqot madaniyatini shakllantirishi zarur.

Ikkinchi muhim metodologik asos kompetensiyaviy yondashuvdir. Raqamli jamiyatda o‘quvchining faqat bilimga ega bo‘lishi yetarli emas; u bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi, axborotni tahlil qilishi, tanqidiy fikrlashi, muloqotga kirishishi va mas’uliyatli qaror qabul qilishi lozim. OECD Education 2030 konsepsiyasida bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlar kelajak ta’limining muhim tarkibiy qismlari sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv raqamli ta’lim sharoitida axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini yanada kuchaytiradi.

Axloqiy tarbiya kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilganda o‘quvchilarda ijtimoiy, kommunikativ, axborot-kommunikativ va axloqiy kompetensiyalar shakllanadi. Masalan, internetdan foydalanishda ishonchli manbani tanlash, yolg‘on axborotni ajrata olish, o‘z fikrini hurmat bilan bildirish, boshqalarning huquqlarini tan olish va onlayn faoliyatda halollikka rioya qilish ana shunday kompetensiyalar sirasiga kiradi.

Uchinchi metodologik asos aksiologik yondashuv bo‘lib, u ta’lim-tarbiya jarayonini qadriyatlar tizimi bilan bog‘laydi. Axloqiy tarbiyaning markazida milliy va umuminsoniy

qadriyatlar turadi. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilar nafaqat texnologik ko‘nikmalarni, balki vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, adolat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi qadriyatlarni ham o‘zlashtirishi zarur. Raqamli resurslar orqali xalq og‘zaki ijodi, tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk allomalar hayoti va ibratli hikoyalar asosida tarbiyaviy kontent yaratish o‘quvchilarning axloqiy dunyoqarashini boyitadi.

**Raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etish bosqichlari**

| **Bosqich** | **Mazmuni** | **Kutiladigan natija** |
|---|---|---|
| Diagnostik bosqich | O‘quvchilarning raqamli vositalardan foydalanish darajasi, onlayn muloqot odobi va axloqiy tushunchalari aniqlanadi | Tarbiyaviy ehtiyojlar va mavjud muammolar aniqlanadi |
| Maqsadni belgilash bosqichi | Shakllantirilishi lozim bo‘lgan axloqiy fazilatlar va raqamli kompetensiyalar belgilanadi | Tarbiyaviy ishlar aniq maqsadga yo‘naltiriladi |
| Mazmunni loyihalash bosqichi | Dars, mashg‘ulot, loyiha va tarbiyaviy tadbirlar uchun raqamli-axloqiy materiallar tanlanadi | Mazmun yosh xususiyati va tarbiyaviy vazifalarga moslashtiriladi |
| Amaliy tashkil etish bosqichi | Interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, onlayn muhokamalar va loyiha ishlari amalga oshiriladi | O‘quvchilarda amaliy axloqiy ko‘nikmalar rivojlanadi |
| Refleksiya va baholash bosqichi | O‘quvchilar o‘z xatti-harakatlarini tahlil qiladi, o‘qituvchi esa axloqiy rivojlanish dinamikasini kuzatadi | O‘z-o‘zini baholash va mas’uliyat hissi mustahkamlanadi |

To‘rtinchi metodologik asos faoliyatli yondashuvdir. Axloqiy fazilatlar faqat nazariy tushuntirish orqali emas, balki faoliyat jarayonida shakllanadi. Raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etishda loyiha ishlari, onlayn muhokamalar, virtual rolli o‘yinlar, interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, raqamli hikoyalar, videodarslar va refleksiv topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, “Internetda odob”, “Yolg‘on axborotni qanday aniqlash mumkin?”, “Onlayn muloqotda hurmat”, “Mualliflik huquqi nima?”, “Raqamli iz va shaxsiy mas’uliyat” kabi mavzulardagi topshiriqlar o‘quvchilarni real hayotga yaqin axloqiy vaziyatlar ustida fikrlashga undaydi.

Beshinchi metodologik asos integrativ yondashuvdir. Raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiya alohida bir fan yoki tadbir doirasida cheklanib qolmasligi kerak. U ona tili, o‘qish savodxonligi, tarbiya, tarix, informatika, tabiiy fanlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borilishi lozim. Masalan, ona tili darslarida internet muloqoti madaniyatiga oid matnlar tahlil qilinishi, o‘qish darslarida axloqiy mazmundagi hikoyalar raqamli taqdimotlar bilan boyitilishi, informatika darslarida kiberxavfsizlik va raqamli etika tushunchalari o‘rgatilishi mumkin. Raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun pedagogik shart-sharoitlar ham muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, o‘qituvchining raqamli-pedagogik kompetensiyasi yetarli bo‘lishi kerak. O‘qituvchi ta’lim platformalaridan foydalanishni bilishi bilan birga, ularni tarbiyaviy maqsadga yo‘naltira olishi zarur. Ikkinchidan, ta’lim jarayonida xavfsiz va nazorat qilinadigan raqamli muhit yaratilishi lozim. Uchinchidan, o‘quvchilar uchun yoshiga mos, axloqiy mazmunga ega,

estetik jihatdan sifatli raqamli kontent ishlab chiqilishi kerak. To‘rtinchidan, ota-onalar bilan hamkorlik kuchaytirilishi, oilada bolalarning internetdan foydalanish madaniyati bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borilishi zarur.

Raqamli ta’limda axloqiy tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri raqamli madaniyatni shakllantirishdir. Raqamli madaniyat o‘quvchining texnologiyadan ongli, xavfsiz, foydali va mas’uliyatli foydalanish qobiliyatini anglatadi. U axborot savodxonligi, media savodxonlik, kiberxavfsizlik, raqamli muloqot odobi, mualliflik huquqiga hurmat, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va internetdagi xatti-harakatlar uchun javobgarlik kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. UNICEF bolalarni onlayn muhitda himoya qilishga oid materiallarida bolalarning internetdan foydalanishida xavfsizlik, ogohlik va mas’uliyat muhim omillar ekanini ta’kidlaydi.

Raqamli muhitda axloqiy tarbiyani tashkil etishda o‘qituvchining roli o‘zgaradi. U endi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahatchi, nazoratchi, tarbiyaviy muhit tashkilotchisi va axloqiy namuna sifatida maydonga chiqadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni tayyor axborotni qabul qilishga emas, balki uni tahlil qilishga, baholashga, solishtirishga va axloqiy mezonlar asosida xulosa chiqarishga o‘rgatishi kerak. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchining shaxsiy namunasi, muloyim muloqoti, raqamli vositalardan me’yorida va maqsadli foydalanishi o‘quvchilar uchun muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi.

Raqamli ta’limda axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish uchun baholash mezonlari ham aniq bo‘lishi kerak. Bunday mezonlarga o‘quvchining internetdan mas’uliyatli foydalanishi, axborotni tanqidiy tahlil qilishi, onlayn muloqotda odob saqlashi, topshiriqlarni halol bajarishi, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga intilishi va raqamli muhitda ijobiy faoliyat yuritishi kiradi. Baholash jarayonida faqat natijani emas, balki o‘quvchining faoliyat jarayonidagi intilishi, mustaqil fikri va axloqiy tanlovi ham e’tiborga olinishi zarur.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etishda milliy pedagogik merosdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Xalq pedagogikasi an’analarida odob-axloq, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehnatsevarlik, halollik, va’daga vafo, el-yurtga sadoqat, mehr-oqibat kabi tarbiyaviy g‘oyalar mujassam. Ushbu qadriyatlarni raqamli kontent, elektron topshiriq, audioertak, virtual suhbat va interaktiv savol-javob shaklida taqdim etish o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni zamonaviy usullar orqali shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida axloqiy tarbiya jarayonini individuallashtirish ham mumkin. O‘quvchilarning qiziqishlari, yosh xususiyatlari va tarbiyaviy ehtiyojlariga mos topshiriqlar berish, ularning javoblarini tahlil qilish, mustaqil fikr bildirishga undash, ijobiy xatti-harakatlarini rag‘batlantirish orqali tarbiya jarayonining samaradorligi oshadi. Bunda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ham muayyan imkoniyatlar yaratadi. Biroq UNESCO tavsiyalarida ta’kidlanganidek, sun’iy intellektdan foydalanishda inson qadr-qimmati, adolat, shaffoflik, xavfsizlik va inson nazorati kabi tamoyillar ustuvor bo‘lishi lozim.

Raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etishda uchraydigan muammolar ham mavjud. Ularga o‘quvchilarning internetdan nazoratsiz foydalanishi, raqamli vositalarga haddan ortiq bog‘lanib qolishi, tayyor javoblardan ko‘chirish, noto‘g‘ri axborotga ishonish, virtual muloqotda qo‘pol so‘zlardan foydalanish, ota-onalarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi va o‘qituvchilarning raqamli metodik tayyorgarligidagi kamchiliklar kiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun maktab, oila va mahalla hamkorligi asosida tizimli profilaktik ishlar olib borilishi lozim. Raqamli ta’lim sharoitida axloqiy tarbiya

jarayoni an’anaviy tarbiyaviy yondashuvlarni inkor etmaydi, aksincha, ularni yangi texnologik imkoniyatlar bilan boyitadi.

An’anaviy tarbiyada o‘qituvchi va oila asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi subyektlar bo‘lsa, raqamli muhitda axborot manbalari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron platformalar va virtual jamoalar ham o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli zamonaviy pedagogika oldidagi asosiy vazifa o‘quvchini raqamli muhitdan cheklash emas, balki undan ongli, xavfsiz va axloqiy me’yorlarga mos foydalanishga o‘rgatishdir.

Axloqiy tarbiya raqamli ta’limda alohida dars mavzusi sifatida emas, balki barcha ta’limiy faoliyatga singdirilgan uzluksiz jarayon sifatida tashkil etilishi kerak. Har bir elektron topshiriq, onlayn suhbat, taqdimot, loyiha ishi yoki baholash jarayoni o‘quvchida ma’lum bir axloqiy sifatni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Masalan, guruhda bajariladigan onlayn loyiha o‘quvchilarda hamkorlik, mas’uliyat va o‘zaro hurmatni rivojlantirsa, mustaqil axborot izlash topshirig‘i tanqidiy fikrlash, halollik va axborot madaniyatini shakllantiradi.

Raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etishning samarali modeli maqsad, mazmun, metod, vosita, faoliyat, hamkorlik, nazorat va natija kabi tarkibiy qismlarga tayanadi. Maqsad o‘quvchida axloqiy fazilatlar va raqamli madaniyatni shakllantirishdan iborat bo‘lsa, mazmun milliy va umuminsoniy qadriyatlar, raqamli etika, axborot savodxonligi va kommunikativ madaniyatni qamrab oladi. Metodlar sifatida muammoli ta’lim, loyiha metodi, suhbat, munozara, refleksiya, keys-stadi va interaktiv mashqlardan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali qilish bilan birga, o‘quvchilarning axloqiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiya shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatli va integrativ yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur.

Birinchidan, raqamli ta’lim muhiti axloqiy tarbiya uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish pedagogik maqsad, metodik yondashuv va axloqiy nazoratga bog‘liq.

Ikkinchidan, o‘quvchilarda raqamli madaniyat, axborot savodxonligi, media savodxonlik, onlayn muloqot odobi va akademik halollikni shakllantirish axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uchinchidan, raqamli ta’limda axloqiy tarbiya maktab, oila va jamiyat hamkorligida tashkil etilgandagina samarali natija beradi.

To‘rtinchidan, milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi an’analari va zamonaviy raqamli texnologiyalar uyg‘unligi o‘quvchilarda barqaror axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhim omilidir.

Beshinchidan, o‘qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyasini oshirish, xavfsiz raqamli muhit yaratish va tarbiyaviy mazmundagi elektron resurslarni ishlab chiqish mazkur yo‘nalishdagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Demak, raqamli ta’lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etish faqat texnologik jarayon emas, balki chuqur pedagogik, psixologik, ijtimoiy va ma’naviy mazmunga ega bo‘lgan kompleks tarbiyaviy tizimdir.

## Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. UNESCO. Recommendation on the ethics of artificial intelligence. – Paris: UNESCO, 2021.
4. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. – Paris: UNESCO, 2023.
5. OECD. The future of education and skills: Education 2030. Paris: OECD Publishing, 2018.
6. UNICEF. Keeping Children Safe Online. UNICEF Child Protection Programme Materials.
7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: Sano-standart, 2017.
8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.
9. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008.
10. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996.

# PISA BAHOLASH TIZIMIGA MOS TOPSHIRIQLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA RAQAMLI FUQAROLIK VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Qalandarova Shaxnoza Olim qizi,**
**Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda PISA xalqaro baholash dasturiga mos topshiriqlar vositasida o‘quvchilarda raqamli fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Xalqaro pedagogik tajribalar asosida raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlodni fuqarolik faolligi, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va mas’uliyatli raqamli xulq-atvor ruhida tarbiyalashning samarali mexanizmlari yoritilgan. PISA tipidagi topshiriqlarning o‘quvchilarning hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy muammolarga daxldorlik hissini namoyon etish va raqamli makonda etik me’yorlarga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** PISA, raqamli fuqarolik, ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik faolligi, raqamli madaniyat, media savodxonlik, OECD, kompetensiyaviy yondashuv.

**Аннотация.** В тезисе проанализированы теоретико-педагогические основы развития компетенций цифрового гражданства и социальной ответственности учащихся посредством заданий, соответствующих международной программе оценки PISA. Освещаются эффективные механизмы воспитания молодого поколения в духе гражданской активности, медиаграмотности, критического мышления и ответственного поведения в условиях цифровой трансформации общества. Раскрываются возможности заданий типа PISA в формировании навыков принятия самостоятельных решений, социальной вовлечённости и соблюдения этических норм в цифровой среде.

**Ключевые слова:** PISA, цифровое гражданство, социальная ответственность, гражданская активность, цифровая культура, медиаграмотность, OECD, компетентностный подход.

**Abstract.** This paper analyzes the theoretical and pedagogical foundations for developing students' digital citizenship and social responsibility competencies through PISA-oriented tasks. Based on international pedagogical experiences, it highlights effective mechanisms for fostering civic engagement, media literacy, critical thinking, and responsible digital behavior among young people in the context of digital transformation. The study reveals the potential of PISA-type tasks in promoting independent decision-making, social awareness, and adherence to ethical norms in digital environments.

**Key words:** PISA, digital citizenship, social responsibility, civic engagement, digital culture, media literacy, OECD, competency-based approach.

XXI asrda jamiyatning barcha sohalarida kuzatilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari yosh avlodni yangi ijtimoiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etishga tayyorlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt vositalarining ommalashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida o'quvchilarning raqamli muhitdagi xulq-atvori, axborot bilan ishlash madaniyati hamda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biriga aylandi. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat yoshlarni faqat akademik bilimlar bilan qurollantirishni emas, balki ularda fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyat, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va raqamli madaniyat kompetensiyalarini rivojlantirishni ham ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Bunda OECD tomonidan amalga oshirilayotgan PISA xalqaro baholash dasturi alohida ahamiyat kasb etadi.

PISA tadqiqotlarining asosiy maqsadi 15-yoshli o'quvchilarning maktabda olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan real muammolarni hal etishda qo'llay olish darajasini baholashdan iborat. PISA topshiriqlari o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligidan tashqari, global kompetensiyalar, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy muloqot va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham aniqlash imkonini beradi.

Raqamli fuqarolik tushunchasi zamonaviy pedagogikada shaxsning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz, samarali, etik va mas'uliyatli foydalanish kompetensiyalari majmui sifatida talqin qilinadi. M.Ribble tomonidan ishlab chiqilgan raqamli fuqarolik konsepsiyasida raqamli etika, raqamli xavfsizlik, raqamli savodxonlik, raqamli kommunikatsiya va raqamli huquqlar kabi tarkibiy qismlar ajratib ko'rsatilgan. Mazkur komponentlar yosh avlodning raqamli jamiyatdagi muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, Finlyandiya, Estoniya, Kanada va Singapur ta'lim tizimlarida raqamli fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish umumta'lim maktablari o'quv dasturlarining ajralmas qismiga aylangan. Masalan, Finlyandiyada media savodxonlik fanlararo integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qitiladi. Estoniyada esa o'quvchilar boshlang'ich sinflardanoq internet xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli muloqot etikasi bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. PISA baholash tizimiga mos topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, o'quvchilarga ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on axborotlarning tarqalishi, ekologik muammolarni hal etish, kiberbulling holatlariga munosabat bildirish, raqamli

ko‘ngillilik loyihalarini ishlab chiqish kabi real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar berilishi mumkin.Masalan, o‘quvchilarga quyidagi mazmundagi topshiriq taklif etilishi mumkin: “Ijtimoiy tarmoqlarda maktab o‘quvchilari orasida tasdiqlanmagan ma’lumot tarqalmoqda. Ushbu holatning jamiyat uchun oqibatlarini baholang va muammoni bartaraf etish bo‘yicha uchta amaliy tavsiya ishlab chiqing”. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning axborotni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda fuqarolik pozitsiyasini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, PISA tipidagi topshiriqlar o‘quvchilarning jamoada ishlash, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish, raqamli makonda etik me’yorlarga amal qilish va jamiyat hayotidagi dolzarb muammolarga befarq bo‘lmaslik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa yosh avlodni demokratik qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik faolligini oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, PISA baholash tizimiga mos topshiriqlar o‘quvchilarda raqamli fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish o‘quvchilarning media savodxonligini, tanqidiy fikrlashini, ijtimoiy faolligini hamda mas’uliyatli raqamli xulq-atvorini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlodni zamonaviy jamiyatning faol, ongli va mas’uliyatli fuqarolari sifatida tarbiyalashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

**Adabiyotlar**

1. OECD. PISA 2022 Results (Vol. I): The State of Learning and Equity in Education. Paris: OECD Publishing, 2023.

2. OECD. PISA 2025 Mathematics Framework. Paris: OECD Publishing, 2024.

3. Ribble, M. Digital Citizenship in Schools. 3rd ed. International Society for Technology in Education (ISTE), 2015.

4. UNESCO. Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the Twenty-first Century. Paris: UNESCO, 2015.

5. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. Brussels, 2020. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris, 2021.

## OILA VA MAHALLA HAMKORLIGIDA O‘QUVCHILARDA FUQAROLIK POZITSIYASI VA MAS’ULIYAT HISSINI TARBIYALASHNING XALQARO TAJRIBALARI

**Qaraxonova L.M., TPMI bo‘lim mudiri, p.f.d., k.i.x.**

Mazkur maqolada oila va mahalla hamkorligida o‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasi hamda mas’uliyat hissini tarbiyalashning nazariy asoslari, rivojlangan davlatlar tajribasi va ularni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, yosh avlodni ijtimoiy faollik, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat hissi, oila, mahalla, hamkorlik, xalqaro tajriba, tarbiya, ijtimoiy faollik, fuqarolik tarbiyasi.

Bugungi globallashuv jarayonlari, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda axborot makonining kengayishi yosh avlodni fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashni dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylantirmoqda. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti fuqarolik ongiga ega, jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatini chuqur anglaydigan, vatanparvar va tashabbuskor yoshlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlarni ma’naviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega va yuksak mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bolaning shaxs sifatida shakllanishida aynan ushbu ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy ta’siri muhim o‘rin tutadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarbiya samaradorligi oila, maktab va jamoatchilikning uzviy hamkorligi asosida ta’minlanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni milliy tarbiya tizimiga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Fuqarolik pozitsiyasi va mas’uliyat hissining pedagogik mohiyati.** Fuqarolik pozitsiyasi shaxsning jamiyat va davlat oldidagi burchlarini anglab yetishi, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va o‘z qarashlarini mas’uliyat bilan namoyon eta olishidir. Mas’uliyat hissi esa, insonning o‘z faoliyati va xatti-harakatlari natijalari uchun javobgarlikni his etishidir.

O‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish quyidagi omillar bilan bog‘liq: vatanparvarlik tuyg‘usi; huquqiy madaniyat; ijtimoiy faollik; jamoaga hurmat; insonparvarlik; mehnatsevarlik; tashabbuskorlik; ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik. Mazkur sifatlar oilada boshlanib, maktab va mahalla tarbiyasi orqali rivojlanadi.

**Oila va mahalla hamkorligining ahamiyati.** Oila bola tarbiyasining birlamchi muhitidir. Farzandning dunyoqarashi, odob-axloqi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari avvalo oilada shakllanadi. Ota-onalarning shaxsiy namunasi, oiladagi ma’naviy muhit hamda tarbiyaviy yondashuvlar bolaning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mahalla esa, o‘ziga xos ijtimoiy tarbiya instituti hisoblanadi. Mahallada mavjud bo‘lgan jamoaviylik, hamjihatlik va o‘zaro yordam an’analari yoshlarning ma’naviy kamolotida muhim rol o‘ynaydi. Oila va mahalla hamkorligining samarali yo‘lga qo‘yilishi: tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligini ta’minlaydi; yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi; fuqarolik mas’uliyatini rivojlantiradi; milliy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytiradi.

**AQSh tajribasi –** AQShda fuqarolik tarbiyasi maktab, oila va mahalliy hamjamiyat hamkorligi asosida tashkil etiladi. Ota-onalar maktab hayotida faol ishtirok etadi. Turli jamoatchilik tashkilotlari, ko‘ngillilar markazlari va yoshlar uyushmalari bolalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etadi.

O‘quvchilar: volontyorlik loyihalarida qatnashadi; ekologik tadbirlarda ishtirok etadi; mahalliy muammolarni hal qilish loyihalarini amalga oshiradi. Bu esa, yoshlarda jamiyat oldidagi mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

**Yaponiya tajribasi –** Yaponiyada tarbiya jamoaviylik va hamkorlik tamoyillari asosida olib boriladi. Ota-onalar maktab faoliyatida muntazam ishtirok etadi. Mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalar mustahkam yo‘lga qo‘yilgan.

Bolalar maktab hududini tozalash, jamoat ishlarida qatnashish, kattalarga yordam berish orqali ijtimoiy mas’uliyatni amaliy faoliyat davomida o‘rganadilar.

Natijada, yoshlarda: intizom; mehnatsevarlik; jamoaga sadoqat; mas’uliyat; hurmat kabi sifatlar shakllanadi.

**Finlandiya tajribasi –** Finlandiyada oila va maktab hamkorligi ta’lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ota-onalar farzandining ta’lim va tarbiya jarayonida faol ishtirok etadi. Maktablarda: o‘quvchilar kengashlari; ota-onalar klublari; ijtimoiy loyihalar; mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik dasturlari mavjud. Mazkur tajriba yoshlarda mustaqil fikrlash, fuqarolik mas’uliyati va tashabbuskorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Germaniya tajribasi –** Germaniyada fuqarolik tarbiyasi demokratik qadriyatlar asosida tashkil etiladi. Ota-onalar, maktab va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik keng yo‘lga qo‘yilgan. Yoshlar: jamoatchilik loyihalarida; ekologik aksiyalarda; xayriya tadbirlarida; mahalliy boshqaruv tashabbuslarida ishtirok etadilar. Bu esa, ularda fuqarolik ongini va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi.

Mamlakatimizda mahalla institutining mavjudligi fuqarolik tarbiyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni takomillashtirish mumkin: ota-onalar universitetlarini tashkil etish; mahalla faollari ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish; yoshlar klublari faoliyatini rivojlantirish; volontyorlik harakatlarini kengaytirish; ekologik va ijtimoiy loyihalarni tashkil etish; fuqarolik tarbiyasiga oid trening va seminarlar o‘tkazish. Shuningdek, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Бу борада қуйидаги илмий ва амалий тавсияларни келтириш ўринлидир:

**Ilmiy-amaliy tavsiyalar:**

Ta’lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligiga asoslangan tarbiyaviy boshqaruv modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarni jamoatchilik ishlari, volontyorlik faoliyati, ekologik aksiyalar va mahalla tadbirlariga keng jalb etish zarur.

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish maqsadida seminarlar, treninglar va ma’rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etish tavsiya etiladi.

Tarbiyaviy jarayonlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va raqamli vositalardan samarali foydalanish lozim.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, oila va mahalla hamkorligi asosida o‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasi hamda mas’uliyat hissini tarbiyalash yoshlar kamolotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. AQSh, Yaponiya, Finlandiya va Germaniya tajribalarida oila, maktab va jamoatchilikning uzviy hamkorligiga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston sharoitida mahalla institutining boy tarbiyaviy imkoniyatlari hamda milliy qadriyatlar asosida ushbu tajribalarni tatbiq etish yosh avlodni ma’naviy barkamol, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 295-297.

2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi MU MChJ, 2021.

3. Ota-ona-murabbiy / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 220 b.

4. Ibraimov X. va boshq. Najot tarbiyada. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 60 b.

5. Qaraxonova L.M. Tarbiyani shakllarini maktab-oila-mahalla hamkorligida tashkil etish mexanizmlari // Uzluksiz ta’lim. – T., 2025. – 2-son. – B. 70-74.

# DIGITAL MINDFULNESS VA DIGITAL WELLBEINGTAMOYILLARINING BO‘LAJAK O‘QITUVCHI FAOLIYATIGA TA’SIRI HAQIDA TIBBIY FAKTLAR

**Qurbonova Go‘zal Mamatkarimovna, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, p.f.n., professori, Ubaydullayeva Gullola Hamid qizi, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda digital mindfulness va digital wellbeing tamoyillarining bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatiga ta’siri tibbiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalardan ortiqcha foydalanish stress, ko‘z charchashi va uyqu buzilishiga olib kelishi mumkin. Ongli foydalanish esa, psixologik salomatlikni yaxshilaydi va kasbiy samaradorlikni oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** digital mindfulness, digital wellbeing, psixologik salomatlik, stress, ko‘z charchashi, uyqu buzilishi, o‘qituvchi faoliyati, raqamli texnologiyalar, ongli foydalanish

**Аннотация.** В данной работе рассматривается влияние принципов digital mindfulness и digital wellbeing на деятельность будущих педагогов с медицинской точки зрения. Чрезмерное использование цифровых технологий вызывает стресс, усталость глаз и нарушения сна. Осознанное использование способствует улучшению психического здоровья и повышению профессиональной эффективности учителей.

**Ключевые слова:** digital mindfulness, digital wellbeing, психическое здоровье, стресс, усталость глаз, нарушение сна, педагогическая деятельность, цифровые технологии, осознанное использование

**Annotation.** This thesis analyzes the impact of digital mindfulness and digital wellbeing principles on future teachers from a medical perspective. Excessive use of digital technologies may cause stress, eye strain, and sleep disorders. Conscious and balanced usage improves mental health, enhances focus, and increases professional effectiveness in teaching practice.

**Key words:** digital mindfulness, digital wellbeing, mental health, stress, eye strain, sleep disorders, teaching activity, digital technologies, conscious use

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, ta’lim tizimida raqamli vositalardan keng foydalanish o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Biroq, texnologiyalardan haddan tashqari va nazoratsiz foydalanish inson salomatligiga, xususan, psixologik va fiziologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, digital mindfulness va digital wellbeing tamoyillarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Digital mindfulness – bu raqamli qurilmalardan ongli, maqsadga yo‘naltirilgan va me’yorida foydalanishni anglatadi. Digital wellbeing esa insonning raqamli muhitdagi umumiy salomatligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan yondashuvdir. Tibbiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq vaqt davomida ekran qarshisida ishlash ko‘z charchashi, bosh og‘rig‘i, uyqu buzilishi hamda stress darajasining oshishiga olib keladi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bu muammo dolzarb hisoblanadi, chunki ular kelajakda nafaqat bilim beruvchi, balki sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi shaxslar ham bo‘lishi kerak.

Mazkur tezisning maqsadi – digital mindfulness va digital wellbeing tamoyillarining bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatiga tibbiy jihatdan ta’sirini o‘rganish hamda ularning samarali qo‘llanishining ahamiyatini asoslab berishdan iborat. Raqamli texnologiyalar ta’lim

jarayonining ajralmas qismiga aylanib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida muhim o‘rin egallamoqda. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt asosidagi vositalar va masofaviy ta’lim tizimlari o‘qitish samaradorligini oshirsa-da, ularning noto‘g‘ri va me’yordan ortiq qo‘llanilishi inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tibbiy jihatdan asoslangan. Shu sababli digital mindfulness va digital wellbeing tamoyillarini chuqur o‘rganish va amaliyotga joriy etish zarur. Tibbiy tadqiqotlarga ko‘ra, uzoq vaqt davomida ekran qarshisida ishlash ko‘zning zo‘riqishiga olib keladi. Bu holat “kompyuter ko‘rish sindromi” sifatida tavsiflanib, unda ko‘z qurishi, qizarishi, ko‘rishning xiralashishi va bosh og‘rig‘i kuzatiladi. Shuningdek, ekran nurlanishi, ayniqsa ko‘k nur (blue light), insonning biologik ritmlariga ta’sir etib, melatonin gormoni ishlab chiqarilishini kamaytiradi. Natijada, uyqu sifati buziladi, bu esa o‘z navbatida kognitiv faoliyat, diqqat va xotira jarayonlarining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, doimiy ravishda raqamli muhitda faol bo‘lish psixologik zo‘riqishni kuchaytiradi. Axborotlarning haddan tashqari ko‘pligi (information overload), ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, tezkor javob berish zaruriyati kabi omillar stress, tashvish va hatto depressiv holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalar uchun bu muammolar kasbiy charchoq (burnout) xavfini oshiradi. Tibbiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori stress darajasi yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, arterial bosimning oshishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Digital mindfulness tamoyili ushbu salbiy omillarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Ongli foydalanish orqali shaxs o‘zining raqamli odatlarini nazorat qiladi, ekran oldida o‘tkaziladigan vaqtni me’yorlashtiradi va texnologiyalardan maqsadli foydalanadi. Masalan, “20-20-20” qoidasiga amal qilish (har 20 daqiqada 20 soniya davomida 20 fut uzoqlikka qarash) ko‘z zo‘riqishini kamaytirishda samarali usul sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, ish va dam olish rejimini to‘g‘ri tashkil etish, raqamli detoks amaliyotlarini qo‘llash ham salomatlikni saqlashga xizmat qiladi.

Digital wellbeing esa kengroq tushuncha bo‘lib, u insonning raqamli muhitdagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Bu tamoyil asosida o‘qituvchilar o‘z faoliyatini muvozanatli tashkil etib, texnologiyalardan samarali foydalanish bilan birga sog‘lom turmush tarzini ham yo‘lga qo‘yadilar. Masalan, ergonomik ish joyini tashkil etish (to‘g‘ri o‘tirish holati, monitor masofasi va balandligi), muntazam jismoniy mashqlar, ko‘z va umurtqa pog‘onasi uchun maxsus mashqlar bajarish tibbiy jihatdan foydali hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ushbu tamoyillarni o‘zlashtirish nafaqat shaxsiy salomatlikni saqlash, balki o‘quvchilarga ham to‘g‘ri raqamli madaniyatni o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki sog‘lom va ongli hayot tarzini targ‘ib qiluvchi shaxs sifatida ham namuna bo‘lishi kerak. Shunday ekan, pedagogik ta’lim jarayoniga digital mindfulness va digital wellbeing elementlarini integratsiya qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularning noto‘g‘ri va me’yordan ortiq qo‘llanilishi inson salomatligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tibbiy jihatdan isbotlanganidek, uzoq muddat ekran qarshisida ishlash ko‘z charchashi, uyqu buzilishi, stress va psixologik zo‘riqish kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy samaradorligi va umumiy salomatligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, digital mindfulness va digital wellbeing tamoyillarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ongli va me’yoriy foydalanish orqali raqamli muhitning salbiy ta’sirlarini kamaytirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish

mumkin. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilar ushbu ko‘nikmalarni egallash orqali nafaqat o‘z salomatligini asraydi, balki o‘quvchilarga ham to‘g‘ri raqamli madaniyatni singdirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, digital mindfulness va digital wellbeing zamonaviy pedagogning ajralmas kompetensiyasiga aylanishi zarur. Ularni ta’lim tizimiga keng joriy etish orqali sog‘lom, samarali va barqaror pedagogik faoliyatni ta’minlash mumkin.

**Adabiyotlar**


1. World Health Organization. Guidelines on physical activity, sedentary behaviour and sleep. Geneva, 2020.
2. American Academy of Ophthalmology. Computer vision syndrome and digital Eye Strain, 2021.
3. Harvard Medical School. Blue light has a dark side. Harvard Health Publishing, 2020.
4. American psychological association. Stress in America Report. 2022.
5. UNESCO. Education in a Digital World. Paris, 2019.
6. Cal Newport. Digital minimalism: choosing a focused life in a noisy world. 2019.
7. National sleep foundation. Sleep and technology use. 2021.
8. Centers for disease control and prevention. Workplace health promotion. 2022.
9. Common Sense Media. The common sense census: media use by tweens and teens. 2021.


## O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTRISH JARAYONIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKILLANTRISH USULLARI VA HALQARO TAJRIBA


**Qo‘ziyev R.B., TPMI mustaqil izlanuvchisi**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida o‘quvchilarning mediasavodxonligi, axborot xavfsizligiga oid bilimlari va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida axborot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar o‘rganilib, milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.



**Kalit so‘zlar:** ijtimoiylashuv, axborot madaniyati, mediasavodxonlik, raqamli ta’lim, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, xalqaro tajriba, o‘smirlar.


Globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi kunda axborot inson hayotining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Internet tarmog‘i, ijtimoiy platformalar va turli raqamli vositalar o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ta’lim muassasalari oldida o‘quvchilarni axborot muhitida to‘g‘ri harakat qilishga, axborotni saralash, baholash va undan maqsadli foydalanishga o‘rgatish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘smirlik davri shaxs ijtimoiylashuvining muhim bosqichi hisoblanib, bu davrda o‘quvchilar tashqi ta’sirlarga nisbatan sezgir bo‘ladilar. Ular internet va ommaviy axborot vositalari orqali turli g‘oyalar, qadriyatlar va ma’lumotlar bilan tanishadilar. Agar ularda axborot bilan

ishlash madaniyati shakllanmagan bo‘lsa, yolg‘on ma’lumotlar, manipulyativ kontent va zararli axborot ta’siriga tushib qolish ehtimoli ortadi.

Axborot bilan ishlash madaniyati shaxsning axborotni izlash, qabul qilish, tahlil qilish, baholash, saqlash va undan samarali foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasidir. Bu tushuncha mediasavodxonlik, raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi elementlarini o‘z ichiga oladi.

*Axborot madaniyati quyidagi komponentlardan tashkil topadi:* axborotni izlash ko‘nikmalari; manbalarning ishonchliligini baholash; tanqidiy fikrlash; raqamli muloqot madaniyati; shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish; axborotdan etik foydalanish.

Pedagogik nuqtai nazardan axborot madaniyati shaxsning mustaqil ta’lim olishi, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi va jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu o‘rinda o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda axborot madaniyatining ahamiyati deyilganda. Ijtimoiylashuv insonning jamiyat hayotiga moslashuvi va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayonidir. Zamonaviy sharoitda ushbu jarayonning muhim qismi raqamli muhitda kechmoqda.

*O‘smirlarning axborot madaniyati quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:* birinchidan, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyati shakllanadi. Bu esa, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni solishtirish va haqqoniy xulosa chiqarish imkonini beradi; ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish madaniyati rivojlanadi. O‘quvchilar onlayn muhitda axloqiy me’yorlarga amal qilishni o‘rganadilar; uchinchidan, axborot xavfsizligi bo‘yicha bilimlar yoshlarni kiberbulling, firibgarlik va turli tahdidlardan himoya qiladi; to‘rtinchidan, mediasavodxonlik ko‘nikmalari feyk axborotlarni aniqlash va ularning salbiy ta’sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish madaniyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik usullar samarali hisoblanadi.

*1. Mediata’lim texnologiyalaridan foydalanish.* Mediata’lim o‘quvchilarni ommaviy axborot vositalari bilan ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Darslarda turli axborot manbalarini tahlil qilish, yangiliklarni baholash va mediamateriallarni muhokama qilish muhim ahamiyatga ega.

*2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.* O‘quvchilarga axborotni shubha bilan qabul qilish, dalillarni tekshirish va muqobil manbalarni qidirish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Buning uchun munozara, keys-stadi va loyiha usullaridan foydalanish mumkin.

*3. Loyiha faoliyati.* Loyiha ishlari o‘quvchilarni mustaqil axborot izlash va tahlil qilishga o‘rgatadi. Masalan, ma’lum bir ijtimoiy muammo bo‘yicha axborot to‘plash va taqdimot tayyorlash topshiriqlari axborot kompetensiyalarini rivojlantiradi.

*4. Raqamli xavfsizlik bo‘yicha treninglar.* Internetda xavfsiz harakat qilish, shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish va kibertahdidlarni aniqlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

*5. Interaktiv ta’lim metodlari:* “Aqliy hujum”, “BBB”, “Klaster”, “Debat” va “SWOT-tahlil” kabi usullar o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Jahon amaliyotida axborot madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan: *Finlyandiya tajribasi.* Finlyandiya ta’lim tizimida mediasavodxonlik maktab ta’limining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilar kichik yoshdanoq axborot manbalarini tahlil qilish va feyk xabarlarni aniqlashga o‘rgatiladi.

*Singapur tajribasi.* Singapurda raqamli savodxonlik davlat ta’lim siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Maktablarda raqamli fuqarolik, internet etikasi va axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus dasturlar joriy qilingan.

*AQSh tajribasi.* AQSh maktablarida “Media Literacy Education” dasturlari orqali o‘quvchilar axborot manbalarining ishonchliligini baholash, manipulyatsiya usullarini aniqlash va axborotni tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatiladi.

*Janubiy Koreya tajribasi.* Janubiy Koreyada raqamli ta’lim muhiti keng rivojlangan bo‘lib, o‘quvchilarning axborot texnologiyalaridan samarali va xavfsiz foydalanishiga katta e’tibor qaratiladi.

YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “Media and Information Literacy” konsepsiyasi axborot va mediasavodxonlikni XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida belgilaydi.

*Xalqaro tajribalar tahlili asosida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:* umumta’lim maktablari o‘quv dasturlariga mediasavodxonlik elementlarini keng joriy etish; axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar tashkil qilish; o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish; ota-onalar uchun axborot madaniyati bo‘yicha seminarlar o‘tkazish; o‘quvchilar ishtirokida media-loyihalar va tadqiqot ishlarini tashkil etish; feyk axborotlarga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Axborot oqimining jadal ortib borishi sharoitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va raqamli xavfsizlik ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot madaniyatini ta’lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va axborot tahdidlariga qarshi barqarorligini oshiradi.

**Адабиётлар**

1. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022.
2. UNESCO. Think Critically, Click Wisely: Media and Information Literacy. Paris, 2023.
3. Qo‘ziyev R.B. Raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarda axloqiy ong va kiberxafsizlik madaniyatini shakllantirish: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2026-yil 10-fevral. – T., 2026.

## KREDIT-MODUL TIZIMIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH TEXNOLOGIYASI ORQALI ULARNING MUSTAQIL BILIM OLISH VA O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

**Haydarova Kamola Ergashboy qizi,**
**Buxoro innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash texnologiyasi orqali mustaqil bilim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tanqidiy

fikrlashning nazariy asoslari, uning uch bosqichli (chaqiruv, anglash, refleksiya) texnologiyasi hamda ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida talabalarni faol subyekt sifatida shakllantirish va mustaqil o'qishga yo'naltirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kredit-modul, tanqidiy fikrlash, texnologiya, mustaqil ta'lim, o'z-o'zini rivojlantirish, boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, refleksiya, pedagogik yondashuv.

Davlat ta'lim standartlari doirasida o'quv jarayoniga zamonaviy talablar oshdi, zamonaviy voqeliklar o'quv jarayoniga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Axborot texnologiyalarining yuqori o'sishi ta'lim jarayonining "obyekti"ning o'zi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning bir bosqichiga ko'tarilishiga olib keladi, ya'ni "subyekt" emas, balki "subyekt-subyekt" munosabatlari mavjud obyekt munosabatlari avvalgidek. Talaba nafaqat o'qituvchi tomonidan unga ta'sir qilish obyekti, balki pedagogik o'zaro ta'sirning to'liq huquqli subyektiga aylanadi. Bunday holda, talaba o'quv jarayonidan maksimal samara oladi.

An'anaviy darslarni o'tkazishda o'quvchilarga tayyor o'quv vaziyati taklif etiladi, mavzu aytiladi dars. davlat ta'lim standartining joriy etilishi bilan vaziyat o'zgarmoqda: endi talaba pedagogik jarayonning to'liq huquqli ishtirokchisi bo'lib, u o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida dars mavzusini va o'quv vazifasini mustaqil ravishda belgilashi kerak. Pedagogik faoliyatning an'anaviy usullari va usullari doirasida talabalarni chet tilini o'rganishga undash har doim ham mumkin emas, chunki zamonaviy bolalar tez rivojlanayotgan bolalardir va ko'pincha odatiy an'anaviy dars ularning qiziqishini uyg'otmaydi.

***Dars*** – bu pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt davomida doimiy talabalar guruhining (sinfning) kollektiv kognitiv va boshqa faoliyatini ularning har birining xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaradi. Barcha o'quvchilarning bevosita o'rganilayotgan fan asoslarini o'zlashtirishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan ish turlari, vositalari va usullaridan foydalanish o'quv jarayonida, shuningdek, maktab o'quvchilarining bilim qobiliyatlari va ma'naviy kuchlarini tarbiyalash va rivojlantirish uchun [1].

***Tanqidiy fikrlash*** – narsalar va hodisalarni analiz qilib asosli xulosalar chiqarish maqsadidagi mulohazalar tizimi bo„lib, u tanqidiy baholash xarakteriga ega. Ya'ni, u tanqidga tayangan analitik fikrlashdir. Demak, tanqidiy fikrlash maqbul yechimni topishning yaxshi usullaridan biri ekankigini ko'rishimiz mumkin [2].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi zamonaviy dunyoda shaxsga qo'yiladigan talablarga javob beradi, ijodiy qiziqarli darslarni tashkil etishga yordam beradi. Mavzuni qiziqarli qilish, majburlashsiz o'rgatish, eng muhimi, ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun chegaradan tashqarida tanqidiy fikr yuritish zarur.

"Fikrlash – bu nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan shaxsning kognitiv faoliyati jarayoni bo'lib, u atrofdagi voqelikni maqsadli, umumlashtirilgan va vositachilik bilan aks ettirish, yangi narsani topish va kashf etishga qaratilgan [3].

Fikrlash faqat yangi maqsad paydo bo'lgan vaziyatlarda kerak bo'ladi va unga erishish uchun eski vositalar endi etarli emas. Bunday holatlar muammoli deb ataladi.

*Muammoli vaziyat* – bu odamni yangi echimlarni izlashga majbur qiladigan noaniq vaziyat, ya'ni tafakkur yangini izlash va kashf qilishdir. Fikrlash pedagogikasida uchta asosiy yondashuv mavjud: 1) bolaning tafakkuri oʻz-oʻzidan rivojlanadi, oʻquvchi maktabda bilim oladi va bunda oʻqituvchi unga yordam beradi; 2) tafakkurni rivojlantirish uchun maxsus predmet yaratilgunga qadar tafakkur maxsus rivojlanishi kerak; 3) tafakkurni "toʻxtovsiz rivojlantirish kerak ishlab chiqarish", ya'ni oʻquvchining muhitida: maktabda va uyda.

L.S.Vygotskiyning fikrlashni rivojlantirish nazariyasiga koʻra: aqliy qobiliyatlar faqat madaniy sharoitda rivojlanadi. Fikrlashni rivojlantirish usullari va oʻquv dasturlarini (darsliklar, mashqlar) uygʻunlashtirib, siz oltin oʻrtaga erishishingiz mumkin, darslarni qiziqarli oʻtkazish uchun esa, oʻz imkoniyatlarini toʻliq roʻyobga chiqarishingiz mumkin. Oʻqituvchi va talaba amerikalik olimlar Charlz Templ, Kurt Meredit va Jeannie Stil ushbu muammoni samarali hal qiladigan texnologiyani ishlab chiqdilar [4].

***Tanqidiy fikrlash*** – bu har qanday bayonotdan tashqarida oʻylashga yordam beradigan, doimiy oʻzgaruvchan ma'lumotlar oqimi bilan kurashishga yordam beradigan fikrlash turi. Boshqacha qilib aytganda, fikrlashning bu turi talabalarga axborotni qayta ishlash, tartibga solish, oʻz fikrlarini tez va aniq ifodalash imkonini beradi, shuningdek, mustaqil ravishda oʻz bilimlarini jalb qilish va boshqalar bilan konstruktiv munosabatda boʻlish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash axborot bilan samarali ishlash imkonini beradi, demak, avvalo u bilan ishlashni oʻrganish muhim. Axborot makonining kengayayotgan zamonaviy davrida tanqidiy fikrlashni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tartibi yosh avlod nafaqat ta'lim sohasida zarur boʻlgan fikrlash va fazilatlarga ega boʻlishi kerakligini koʻrsatadi. Oʻz-oʻzidan ma'lumotni ongli ravishda oʻtkazgan va tushungan holda chiziq chizish, aniq, toʻgʻri va koʻpincha ijodiy (hozir odat boʻlganidek – ijodiy) qaror qabul qilish qobiliyati – bularning barchasi XI asrning muvaffaqiyatli odamini yaxshi tavsiflaydi. Zamonaviy rus pedagogikasi uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi yangi, garchi uning koʻpgina elementlari juda uzoq vaqt davomida ishlatilgan boʻlsa-da, bu tushunchalarning koʻpchiligi boshqacha nomga ega edi. Masalan, bilimlarni umumlashtirish mulohaza yuritish, motivatsiya esa, qiyinchilikdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi mustaqil qarorlar qabul qilish va mavzuni oʻrganishda yoʻnalish tanlashga qaratilgan. Tanqidiy fikrlash 5 xususiyatga ega (D.Klester): birinchidan, bu mustaqil fikrlash; ikkinchidan, bu umumlashgan fikrlash; uchinchidan, bu muammoli va baholovchi fikrlash; toʻrtinchidan, bu asosli fikrlash; beshinchidan, bu ijtimoiy fikrlash.

*Ushbu texnologiya uch bosqichli dars tuzilishiga asoslangan:* I bosqich: qiyinchilik (mavjud bilimlarni uygʻotish); II bosqich: Amalga oshirish (tushunish); III bosqich: mulohaza yuritish Qiyinchilik bosqichida talabalar keyingi ishlarga, shuningdek, avvalo aniqlanishi kerak boʻlgan ma'lum mavzu boʻyicha mavjud bilimlarni faollashtirish ("chaqiriq") uchun ragʻbatlantiriladi. Oʻqituvchi mohirlik bilan savol berish orqali qiyin vaziyat yaratishi mumkin. Talaba ushbu mavzu boʻyicha bilgan ma'lumotlarini eslab qoladi, taxminlar qiladi va javob olmoqchi boʻlgan savollarni qayd qiladi.

Koʻpincha qoʻngʻiroq bosqichida quyidagi usullar qoʻllaniladi: "Toʻgʻri yoki notoʻgʻri bayonet" ("tic-tac-toe" oʻyini shaklida); muammoli muammolar – "Qalin va ingichka" savollari; kalit soʻzlarni taklif qilish hikoyasi – chalkash mantiqiy zanjirlar; klasterlar; jadvallar.

*Tushunish bosqichida talaba turli shakllarda keladigan ma’lumotlar bilan bevosita ishlaydi:* kino tomosha qilishda, matnni oʻqishda, oʻqituvchi tomonidan ma’lumot berish jarayonida. Axborot bilan ishlash jarayonida talabalar qiyinchilik bosqichida paydo boʻlgan savollarga javob beradilar, yangi maqsad va vazifalarni qayd etadilar, mavjud bilimlarni yangi bilimlar bilan bogʻlaydilar, oʻzlarining pozitsiyalarini shakllantiradilar va olingan bilimlarni tizimlashtiradilar. Ushbu bosqichda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim mezoni yangi material bilan ishlashda sizning tushunishingizni kuzatishdir.

Tushunish bosqichida koʻpincha quyidagi usullar qoʻllaniladi: Faol oʻqish usullari: “Qoʻshish”, “Baliq suyagi”, “Tushuncha gʻildiragi”, “Toʻxtab oʻqish”, “Prognoz daraxti”, Har xil yozuvlarni yuritish: “parvoz jurnali”; syujet jadvali va boshqalar, Darsning birinchi qismida berilgan savollarga javob izlash.

Fikrlash bosqichida olingan ma’lumotlarni yakuniy tushunish va umumlashtirish amalga oshiriladi. Aynan fikrlash bosqichida talabalar olingan ma’lumotlarni oʻz soʻzlari bilan ifodalaydilar. Reflektsiya soʻzi rus tiliga ingliz tilidan – “reflektsiya”dan kelgan va “teskari aloqa”, “oʻzini oʻzi baholash va oʻz-oʻzini tahlil qilish” kabi soʻzlar bilan sinonimdir.

Fikrlashning yana bir muhim vazifasi oʻquvchilar oʻrtasida fikr almashishdir. Munozara (dialog) jarayonida oʻquvchilar oʻz nuqtai nazarini bildiradilar va bir-birini toʻldiradilar, shu orqali oʻz fikrlarini toʻgʻrilaydilar. Shunday qilib, fikrlash bosqichida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun individual va guruh usullarini qoʻllash tavsiya etiladi.

Bosqichda qoʻllaniladigan texnikalar aks ettirishlar: Xulosa (men tushundim...), “Sinkwine” – “Oltita fikrlash qalpoqlari”, Kalit soʻzlarga qaytish, “Doiradagi xat”, Har xil turdagi munozaralar, Ijodiy asarlar yozish, CM texnologiyasini ishlab chiqishda oʻqituvchining roli: oʻquvchilarning harakatlarini ma’lum bir yoʻnalishga yoʻnaltiradi; turli hukmlarga qarshi turadi; mustaqil qaror qabul qilishga undaydigan shart-sharoitlarni yaratadi; oʻquvchilarga oʻzlari xulosa chiqarish imkoniyatini beradi; mavjudlari ichida yangi kognitiv vaziyatlarni tayyorlaydi [5].

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi oʻqituvchi rahbarligida ta’lim maydonida mustaqil ravishda yoʻnaltirilgan ijodiy rivojlangan shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Axborot bilan mustaqil ishlash qobiliyati, ya’ni tanqidiy fikrlash, butun umri davomida oʻrganishni xohlaydigan va oʻz ta’limiga mas’uliyat bilan munosabatda boʻlish imkonini beradi. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari alohida koʻrib chiqilmagan, chunki maqolaning maqsadi biroz boshqacha yani tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi nazariyasi bilan tanishish va ushbu maqola oʻquvchilariga “chaqiruv” qilish. Misol tariqasida matn bilan ishlashda juda muvaffaqiyatli boʻlgan texnologiya texnikasini koʻrib chiqaylik: matn bilan ishlash vaqtini qisqartiradi, matnning asosiy nuqtalarini koʻrishga imkon beradi va oʻquvchilarda qiziqish uygʻotadi. Ushbu maqolada yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, biz tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi darsni qiziqarli qiladigan, oʻquvchilarga mavzuni oʻrganishga kuchli xabar beradigan ijodiy usullardan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin.

## Adabiyotlar


1. Сластенин В.А., Каширин В.П. Психология и педагогика. – М.: Академия, 2007. – 477 с.

2. Yakubova D. Yangi Oʻzbekistonda tanqidiy fikrkash-ilm-fan omili sifatida // Academic research in educational sciences. ISSN: 2181-1385. Vol. 2. ISSUE 1. 2021.

3. Орлова В.А. Психология в вопросах и ответах: Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 200 с.
4. Загашев И.О., Заир-Бек С.И., Муштавинская И.В. Учим детей мыслить критически. 2-изд. – СПб.: Альянс Дельта+Речь, 2003. – 192 с.
5. Применение технологий критического мышления в химии урокаксов: http://festival.1september.ru/articles/528850/
6. Haydarova K. (2025). Rethinking educational quality: the influence of external standards on the credit-modular framework. Nvpubhouse Library for European International Journal of Pedagogics, 5(06), 38-42.
7. Haydarova K. (2023). Fundamentals of developing students' critical thinking skills on mother language and reading literacy lessons in primary class // Science and innovation, 2(B6), 224-227.
8. https://cyberleninka.ru, https://www.gazeta.uz

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASI

**Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, PhD**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda hamkorlik pedagogikasining o'rni, ahamiyati hamda pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada, hamkorlik pedagogikasi asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, tarkibiy komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda hamkorlikka asoslangan kasbiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tamoyillar va samarali yondashuvlar asoslab berildi. Tadqiqot natijalari asosida hamkorlik pedagogikasiga tayangan holda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modelini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik pedagogikasi, kasbiy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik tayyorgarlik, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim jarayoni, hamkorlik ko'nikmalari.

**Аннотация.** В данной статье проанализирована роль, значение и педагогические возможности педагогики сотрудничества в формировании профессиональной компетентности будущих учителей. В ходе исследования использованы методы теоретического анализа, сравнительного анализа и контент-анализа. В результате определены педагогические условия формирования профессиональной компетентности на основе педагогики сотрудничества, ее структурные компоненты и их взаимосвязь. Кроме того, обоснованы принципы и эффективные подходы, способствующие развитию у будущих учителей навыков профессиональной деятельности, основанной на сотрудничестве. На основе результатов исследования разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию модели развития профессиональной компетентности с опорой на педагогику сотрудничества.

**Ключевые слова:** педагогика сотрудничества, профессиональная компетентность, будущий учитель, педагогическая подготовка, компетентностный подход, образовательный процесс, навыки сотрудничества.

**Abstract.** This article analyzes the role, significance, and pedagogical potential of cooperative pedagogy in the development of professional competence among prospective teachers. The study employed theoretical analysis, comparative analysis, and content analysis methods. The findings identified the pedagogical conditions for developing professional competence based on cooperative pedagogy, its structural components, and their interrelationships. In addition, the principles and effective approaches that contribute to the development of collaboration-based professional skills among future teachers were substantiated. Based on the research results, recommendations and proposals were developed for improving a model of professional competence development grounded in cooperative pedagogy.

**Key words:** cooperative pedagogy, professional competence, prospective teacher, pedagogical training, competency-based approach, educational process, collaboration skills.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faoliyati faqat individual kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmay, balki turli ta’lim subyektlari bilan samarali hamkorlik qilish, birgalikda qaror qabul qilish, pedagogik jarayonlarni loyihalash, natijalarni tahlil etish va baholash kabi murakkab kompetensiyalarni ham talab etadi.

Ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tobora ko‘payib va murakkablashib borayotgan bugungi sharoitda hamkorlik o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyati, innovatsion faoliyati hamda pedagogik barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarda hamkorlikka asoslangan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish oliy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Pedagogik nuqtayi nazardan hamkorlik faqatgina jamoada ishlash qobiliyati bilan cheklanmaydi. U pedagogik vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish, mas’uliyat va vazifalarni oqilona taqsimlash, samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish, kasbiy etikaga rioya qilish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish, dalillarga asoslangan fikr almashish hamda umumiy maqsad sari yo‘naltirilgan kelishuvga erishish kabi ko‘p qirrali kompetensiyalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bunday kompetensiyalar ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat va mas’uliyatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham hamkorlik kompetensiyasi o‘qituvchi kasbiy kapitalining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi. Xususan, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, professional learning community (PLC), kollegial hamkorlik va refleksiv amaliyot yondashuvlari doirasida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ko‘p jihatdan hamkorlik faoliyatining sifati bilan bog‘liqligi asoslab berilgan [1-2].

Tadqiqotchilar hamkorlik muhitida faoliyat yurituvchi pedagoglarning innovatsion metodlarni o‘zlashtirish, muammolarni hal etish va ta’lim natijalarini yaxshilash imkoniyatlari yuqori bo‘lishini ta’kidlaydilar. Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik qonuniyatlari va tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularni oliy pedagogik ta’lim amaliyotida qo‘llashga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvlarni aniqlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, hamkorlik kompetensiyasining mazmuniy va strukturaviy tarkibini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil

qilish, uni shakllantirish jarayonida namoyon bo'ladigan barqaror ichki bog'lanishlar va qonuniyatlarni tizimlashtirish hamda mazkur qonuniyatlardan kelib chiqadigan didaktik va metodik tamoyillarni aniqlash ko'zda tutiladi. Shuningdek, ushbu tamoyillarni ta'lim dizayni va o'quv jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari ham ilmiy asosda yoritiladi.

Tadqiqotning empirik komponenti sifatida pedagogik amaliyot materiallarini ikkilamchi tahlil qilish usulidan foydalanildi. Jumladan, talabalarning pedagogik amaliyot hisobotlari, metodik tavsiflar, refleksiv kundaliklar hamda amaliy faoliyat natijalari o'rganilib, ularda uchraydigan tipik qiyinchiliklar, kommunikativ to'siqlar va muvaffaqiyat omillari nazariy konstruksiyalar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Mazkur yondashuv bevosita eksperimental tadqiqot o'tkazishni nazarda tutmasa-da, hamkorlik kompetensiyasini shakllantirishga oid nazariy qarashlarni real pedagogik amaliyot bilan bog'lash hamda ularning amaliy ahamiyatini ochib berishga imkon yaratadi. Tadqiqot metodologiyasida tahlil, sintez, umumlashtirish, qiyosiy taqqoslash va konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Mazkur metodlar tanlovi tadqiqot maqsadiga mos ravishda hamkorlik kompetensiyasini shakllantirish qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda pedagogik ta'lim jarayoniga tatbiq etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurati bilan izohlanadi.

Birinchi natija sifatida hamkorlik kompetensiyasining strukturasi aniqlashtirildi. U uch o'zaro bog'liq qatlamdan iborat deb talqin qilindi: qiymat-maqsadli qatlam, kommunikativ-amaliy qatlam va refleksiv-regulyativ qatlam.

Qiymat-maqsadli qatlamda hamkorlikni kasbiy norma sifatida qabul qilish, umumiy natijaga mas'uliyatni bo'lishish, o'zaro hurmat va adolat tamoyillarini ichki motiv sifatida qabul qilish markaziy o'rin tutadi. Kommunikativ-amaliy qatlam muloqot texnikasi, dalillash, tinglash, savol berish, kelishuv tuzish, vazifa taqsimlash va birgalikda rejalashtirish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Refleksiv-regulyativ qatlam esa, hamkorlik jarayonini tahlil qilish, nizolarni konstruktiv boshqarish, o'z hissasini baholash, hamkorlar pozitsiyasini tushunish va zarur hollarda strategiyani qayta ko'rib chiqish kabi metako'nikmalarni mujassamlashtiradi. Ushbu strukturaviy talqin hamkorlikni faqat kommunikatsiya bilan cheklamasdan, uning normativ-axloqiy va boshqaruv-analitik jihatlarini ham tayyorlash mazmuniga kiritish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning ikkinchi muhim natijasi sifatida bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikka tayyorlashga oid pedagogik qonuniyatlar tizimlashtirildi. Birinchi qonuniyatga ko'ra, hamkorlik kompetensiyasi alohida vaziyatli mashqlar majmuasi orqali emas, balki izchil va barqaror hamkorlik tajribalarining ketma-ketligi asosida shakllanadi. Ijtimoiy-konstruktiv yondashuv vakillari (Vygotskiy, Johnson & Johnson) ta'kidlaganidek, talaba bir martalik guruh faoliyatida muvaffaqiyat ko'rsatishi mumkin, biroq hamkorlikka haqiqiy tayyorlik faqat turli ta'limiy kontekstlarda muntazam ravishda takrorlangan tajriba natijasida ichki malakaga aylanadi. Ikkinchi qonuniyat hamkorlik samaradorligi subyektlararo rollar, vazifalar va kutilmalar aniqligi bilan uzviy bog'liqligini ifodalaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rollar noaniq bo'lgan ta'lim muhitida javobgarlik diffuziyasi yuzaga keladi va muloqot intensivligi oshgan taqdirda ham yakuniy natija pasayadi. Shu bois hamkorlikka tayyorlash jarayonida rollarni taqsimlash va mas'uliyatni aniqlashtirish metodik jihatdan muhim hisoblanadi. Uchinchi qonuniyat hamkorlikdagi muloqot sifatining intellektual komponenti bilan bog'liq bo'lib, kelishuvlar dalillash, umumiy mezonlar va baholash asoslariga tayangan taqdirdagina barqaror bo'lishini

ko‘rsatadi. Bu esa, metodik tayyorlash jarayonida faqat fikr almashish ko‘nikmalarini emas, balki birgalikda qaror qabul qilish mezonlarini ishlab chiqish madaniyatini shakllantirish zarurligini anglatadi. To‘rtinchi qonuniyat refleksiyaning hamkorlik faoliyatiga nisbatan tashqi element emas, balki uning sifatini belgilovchi ichki regulyator ekanini asoslaydi. Refleksiya yetarli darajada tashkil etilmagan guruh faoliyati takroriy xatolarni kamaytirmaydi, olingan tajriba esa umumlashtirilmaydi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida refleksiv tahlil mexanizmlarini tizimli ravishda joriy etish hamkorlik kompetensiyasining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Mahalliy va mintaqaviy pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining tarkibi, pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, N.N.Azizxodjayeva kasbiy-pedagogik tayyorgarlikda maqsad, mazmun va natijaning uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi [8]. Ushbu maqolada taklif etilgan mezonlar tizimi ana shu uyg‘unlikni hamkorlik kompetensiyasi misolida konkretlashtiradi: mazmuniy qatlamlar, jarayon sikllari va natija indikatorlari bir butun tizim sifatida ko‘rilmasa, hamkorlikka tayyorlash fragmentar bo‘lib qoladi. Kraevskiy didaktik tizimlarda qonuniyat va tamoyillarning o‘zaro aloqadorligini asoslab, tamoyillar aynan qonuniyatlardan kelib chiqishini ko‘rsatadi [3]. Bizning natijalarda ham shu mantiq saqlanadi: tamoyillar ro‘yxati ixtiyoriy emas, balki ajratilgan qonuniyatlarning amaliy dizayndagi ifodasidir. Slastyonin pedagogik faoliyatning subyekt-subyekt xarakterini ta’kidlab, muloqot va hamkorlik o‘qituvchi kasbiy pozitsiyasining ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi [4]. Ushbu maqolada esa subyektlik hamkorlikning etik-me’yoriy asoslari va dalillangan kelishuv mexanizmlari bilan boyitilib, amaliyotda uchraydigan “formal hamkorlik” xavfi kamaytiriladi. Shu bilan birga, natijalarning cheklovlari ham mavjud. Kontseptual tahlil va ikkilamchi empirik materiallarga tayangan yondashuv qonuniyat va tamoyillarni asoslash uchun yetarli izoh beruvchi kuchga ega bo‘lsa-da, ularni miqdoriy baholash va turli ta’lim muassasalarida taqqoslab tekshirish kelgusida alohida empiric tadqiqotlarni talab qiladi. Ayniqsa, hamkorlik kompetensiyasining natija indikatorlarini diagnostika qilishda baholashning ishonchliligi va adolatliligi masalasi muhim bo‘lib qoladi, chunki, jamoaviy natijada individual hissani aniqlash har doim metodik murakkablik tug‘diradi. Shuning uchun taklif qilingan mezonlar keyingi tadqiqotlarda kuzatuv, portfel tahlili va rubrikal baholash kabi usullar bilan tekshirilishi lozim. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash hamkorlik kompetensiyasining qiymat-maqsadli, kommunikativ-amaliy va refleksiv-regulyativ qatlamlari birligi asosida talqin qilindi. Tayyorlash jarayonining barqaror qonuniyatlari sifatida tajribaning uzluksizligi, rollar va javobgarlikning aniqligi, dalillangan kelishuv hamda refleksiyaning ichki regulyatorligi asoslandi. Ushbu qonuniyatlardan kelib chiqib uzluksiz tajriba, shaffof me’yorlar, dalillangan kelishuv, refleksiv qayta aloqa va inkluziv ishtirok tamoyillari tizimi taklif etildi. Natijalar oliy pedagogik ta’limda hamkorlikka yo‘naltirilgan o‘quv dizaynini qurish, amaliyot jarayonlarini qayta tashkil etish va baholash mezonlarini aniqlashtirish uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida turli pedagogik yo‘nalishlar kesimida ushbu tamoyillar asosida ishlab chiqilgan dasturlar samaradorligini empirik sinovdan o‘tkazish va diagnostik vositalarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar**

1. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and competition: theory and research. Edina, MN: Interaction Book Company, 1989. – 255 p.

2. Hattie J. Visible Learning: a synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement. – L.: Routledge, 2009. – 378 p.

3. Hojiyeva Z. The role of co-creation in preparing future teachers for effective collaborative work: https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=iwLTjhkAAAAJ&citation_for_view=iwLTjhkAAAAJ:ufrVoPGSRksC

4. Hojiyeva Z. Bo‘lajak o ‘qituvchilarni samarali hamkorlikka asoslangan faoliyatiga yo‘naltirish.https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=iwLTjhkAAAAJ&citation_for_view=iwLTjhkAAAAJ:LkGwnXOMwfcC

5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.

6. Bandura A. Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| 1 | **Ibraimov X.I.** Xorijiy tajribalar asosida yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini tarbiyalash | 3 |
| 2 | **Djurayev R.X.** Tarbiyaviy jarayonlarni boshqarish asosida o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat hissini tarbiyalash | 5 |
| 3 | **Тожибоева Х.М.** Использование медиаинформации в воспитании обучающихся в духе гражданской ответственности | 8 |
| 4 | **Хакимова М.Ф.** Воспитание студентов в духе гражданской активности и социальной ответственности как глобальный тренд времени | 12 |
| 5 | **Yakubjanova D.B.** Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari | 16 |
| 6 | **Abdullayeva A.K.** Xalqaro tajribalar asosida o'quvchilarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari | 19 |
| 7 | **Abdullayeva M.Z.** Xalqaro pedagogik tajribalar asosida faoliyatli yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyati va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish | 21 |
| 8 | **Abduraimova Ch.F.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi | 25 |
| 9 | **Abralova Z.D.** Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlari | 31 |
| 10 | **Abralova Z.D.** Forming management competence in future primary education teachers in the context of digital transformation | 35 |
| 11 | **Adilova D.N.** Global bilim maydonida yangi O'zbekiston yoshlarining munosib ishtirokini ta'minlashda STEAM ta'limining ahamiyati | 37 |
| 12 | **Адилова З.Х.** Особенности формирования интернациональной культуры студентов направления «этнография и антропология» | 41 |
| 13 | **Alibayeva D.A.** Yoshlar tarbiyasi va ta'limiga bag'ishlangan podkast hamda videokontent yaratish, ularni ommalashtirish va ta'sirchanlik darajasini oshirish yo'llari | 43 |
| 14 | **Алибаева Н.Р.** Воспитание учащихся в духе гражданской активности и социальной ответственности | 45 |
| 15 | **Alimov M.S.** Ta'lim tizimida xalqaro pedagogik tajribalar asosida yeshlarni pedagogik faolligini oshirish | 47 |
| 16 | **Арипова Ш.А.** Талабаларда бошқарув компетенцияларини ривожлантиришнинг педагогик аспектлари | 49 |
| 17 | **Asadullayev L.M., Jumanov S.L.** Pedagoglarning sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishda muammolar va yechimlar | 53 |
| 18 | **Axmadaliyeva M.O.** Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash mexanizmlari | 55 |
| 19 | **Ahmadova K.A., Turabova L.H.** Xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash: | 57 |

| | | |
|---|---|---|
| | muammo va yechimlar | |
| 20 | **Ахунова У.О.** Музыка гражданственности: международный опыт воспитания социально-ответственной молодёжи и его педагогические решения | 60 |
| 21 | **Ahralov Sh., Axrorova S.** Sun'iy intellekt asosida milliy ta'lim kontentini takomillashtirish imkoniyatlari | 62 |
| 22 | **Bazarova G.Z.** Madaniy qadriyatlar asosida oʻsmirlarni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash: muammolar va yechimlar | 65 |
| 23 | **Botirova N.R.** Ta'lim jarayonlarida me'morlik obidalaridan foydalanish asosida fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish | 68 |
| 24 | **Voxidova N.X., Mahmudova D.** Oʻquv diagnostikasi tizimida oʻqituvchining testologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari | 71 |
| 25 | **Gʻaniyeva D.A.** Innovatsion kompetentli kutubxonachilarning shakllanishida mustaqil ta'lim muhim vosita sifatida | 75 |
| 26 | **Gulyamova A.O.** Ta'lim tashkilotlarida xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash mexanizmlari | 79 |
| 27 | **Джалилова К.И.** Методика преподавания эстрадного пения студентам на основе национальных музыкальных традиций Узбекистана | 82 |
| 28 | **Dehqanova M.G.** Alohida ehtiyojli bolaning oila va ijtimoiy hayotga moslashish omilari | 84 |
| 29 | **Dehqanova M.G.** Methodological foundations of the issue of developing cognitive processes of primary school students in an educational cluster environment | 87 |
| 30 | **Jabbarov Z.R.** Xalqaro ta'lim tajribasi asosida yoshlarning fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish muammolari | 89 |
| 31 | **Жумабаев А.Д.** Актуальные вопросы воспитания будущих учителей в условиях кибербезопасности | 92 |
| 32 | **Ibragimova F.X.** Kognitiv yondashuv asosida yosh avlodda fuqarolik faolligini tarbiyalashda loyihalash texnologiyalaridan foydalanish | 96 |
| 33 | **Il'yasova D.A.** Oʻquvchilarining estetik didini rivojlantirishda bolalar adabiyotining oʻrni va imkoniyatlar | 98 |
| 34 | **Iminjanov M.M., Ganjiyev Sh.J.** Prospects of using geoinformation systems in the armed forces creation of a special map database using the panorama geographical information system program in the armed forces | 102 |
| 35 | **Irgashova M.A., Yermuxamadova F.G., Turobova D.O.** Markaziy osiyo mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari | 106 |
| 36 | **Kaldibekova A.S., Abdrimova Sh.Sh.** Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining talabalar oʻquv motivatsiyasiga ta'siri | 111 |
| 37 | **Kamoljonova D.X.** Kitobxonlik asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash | 114 |
| 38 | **Karimov K.A.** Ta'lim tashkilotlarida yosh avlodni fuqarolik faolligi va | 117 |

| | | |
|---|---|---|
| | ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning xalqaro tajribalarga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish | |
| 39 | **Kasimov S.** Shaxsning psixologik farovonligi va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati | 121 |
| 40 | **Конева С.Х.** Использование генеративных ииинструментов для подготовки будущих педагогов | 126 |
| 41 | **Костин А.В.** Педагогические условия профессиональной подготовки военных водителей | 129 |
| 42 | **Курбанова З.А.** Семейно-школьное партнёрство как фактор формирования успешной личности учащегося и профилактики наркозависимости: опыт проекта «семья и школа – территория успеха» | 134 |
| 43 | **Kuchkarov B.T.** Fuqarolik jamiyatini qurishda yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish | 137 |
| 44 | **Махмудов А.Х.** Халқаро педагогик тажрибалар асосида ёш авлодни ижтимоий масъулият руҳида тарбиялашнинг методологик аспектлари | 141 |
| 45 | **Mashrabova M.D.** Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy motivatsiya tushunchasining nazariy-falsafiy mohiyati va tarkibiy komponentlari | 144 |
| 46 | **Медетова Р.М.** Воспитание молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности на основе международного педагогического опыта | 147 |
| 47 | **Mengliqulova M.A.** Xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashda teledatsturlarning o‘rni | 152 |
| 48 | **Морхова И.В.** Цифровая культура молодежи и искусственный интеллект | 155 |
| 49 | **Морхова И.В., Тохирова Ю.Б.** Психолого-педагогические детерминанты цифровой трансформации начального образования в Узбекистане | 157 |
| 50 | **Муминов Р.Р.** Стратегии гражданского воспитания в больничной школе: от социальной изоляции к активной гражданской позиции | 160 |
| 51 | **Мусурмонкулов О.У.** Воспитание подрастающего поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности в процессе обеспечения стабильности здоровой духовной среды | 163 |
| 52 | **Нажмудинова М.Х.** Развитие социально-эмоциональных навыков как основа формирования гражданской активности и социальной ответственности учащихся начальных классов | 164 |
| 53 | **Nasirov K.J.** Yosh avlodni ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari | 165 |
| 54 | **Nurullayev I.Z.** Uzoq muddat davolanuvchi o‘quvchilarda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat poydevorini art-terapiya vositasida shakllantirish: xalqaro tajriba tahlili | 170 |
| 55 | **Олимов Б.А.** Умумўрта таълим ўқувчиларни фуқаролик фаоллиги ва ижтимоий масъулият руҳида тарбиялашда физика ва астрономия | 173 |

| | | |
|---|---|---|
| | фанларнинг ўрни | |
| 55 | **Пирматов С.** Воспитание подрастающего поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности на основе развития визуальной культуры | 174 |
| 56 | **Rajabova G.Yu.** Axborot kompetensiyasi va mediasavodxonlikning – pedagogik mahoratdagi o‘rni va zaruriyati | 178 |
| 57 | **Raximova S., Madjitova S.** Globallashuv sharoitida o‘quvchilarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishning xalqaro tajribalari | 180 |
| 58 | **Raximov S.K.** Raqamlashtirish sharoitida talabalarda ijtimoiy-pedagogik profilaktika kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarb masalalari | 187 |
| 59 | **Raxmatova M.M.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy jarayonlarga texnologik yondashuv – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida | 190 |
| 60 | **Ruziboyeva N.N.** O‘smir qizlarda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda xalqaro pedagogik tajribalarning o‘rni | 193 |
| 61 | **Саиджалалова С.М.** Технология «языкового портфеля» как средство повышения качества языковой подготовки в условиях неязыкового вуза | 196 |
| 62 | **Saydaliyev A.I.** Raqamli makonda tarixiy jarayonlarni tanqidiy baholash orqali o‘quvchilarning fuqarolik mas’uliyati va axloqiy pozitsiyasini shakllantirish | 200 |
| 63 | **Samiyeva Sh.A.** Raqamli makonda o‘smirlar agressiv xulq-atvorining oldini olishda tarbiyaviy faoliyatning o‘rni | 205 |
| 64 | **Sanakulova S.X.** Boshlang‘ich sinflarda ta’lim va tarbiya jarayonlarida axloqiy kontentlar mazmuni | 207 |
| 65 | **Safarova R.** O‘quvchilarda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlari | 209 |
| 66 | **Saxoddinova M.E., Abdumuradova D.A.** Xalqaro pedagogik tajribalar asosida yosh avlodni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash yo‘nalishlari | 212 |
| 67 | **Tayirova M.A.** Raqamli jamiyat sharoitida yoshlarni fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatga yo‘naltirishning pedagogik yondashuvlari | 215 |
| 68 | **Taylakova G.B.** Klasterli yondashuv yordamida shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatlari | 217 |
| 69 | **Taylakova G.B.** Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishning dasturiy yechimlari | 221 |
| 70 | **Tashmetova Sh.X., Berdiyorov D.E.** Ta’lim jarayonida talabalarda intellektual kompetensiyalarni shakllantirish | 226 |
| 71 | **Tashmetova Sh.X., Cadullayeva M.T.** Yoshlar jamiyat ijtimoiy hayotining eng faol ijtimoiy-demografik guruhi | 228 |
| 72 | **Tillyaxodjayeva S.** Raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari | 231 |
| 73 | **Тулаганов Д.Д.** Использование цифрового инструмента оценки знаний «kahoot» как фактор мотивации студентов педагогических | 237 |

| | | |
|---|---|---|
| | специальностей | |
| 74 | **Тулаганов Д.Д.** Цифровой инструмент оценки знаний «Kahoot» и потенциал его использования в оценке знаний студентов | 239 |
| 75 | **Turabova L.X.** Raqamli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish orqali yoshlarning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishda xalqaro tajribalar | 242 |
| 76 | **Umaraliyeva M.A.** Inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirish | 244 |
| 77 | **Umirova M.A.** Xalqaro pedagogik tajribalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitobxonlik orqali intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda madaniy jihatdan rivojlantirish | 246 |
| 78 | **Умрихина В.И., Усмонова М.О.** Формирование гражданственности и гражданской компетентности учащихся на уроках предмета «воспитание» | 249 |
| 79 | **Usmanova Z.B.** O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni faol fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashda xalqaro tajriba | 255 |
| 80 | **Файзуллаева З.Б.** Ценностно-ориентированное воспитание молодежи в кредитно-модульной системе: синтез международного опыта и идей Низами Ганджави | 258 |
| 81 | **Fazilova L.A.** Raqamli ta’lim muhitida yosh avlodda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish: axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning xalqaro tajribalari | 261 |
| 82 | **Хакимова Б.М.** Воспитание молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности на основе международного педагогического опыта: проблемы и решения | 263 |
| 83 | **Xojimetova D.** Xalqaro pedagogik tajribalar asosidasi tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish metodikasi | 269 |
| 84 | **Xoshimov L.X.** Fostering respect for national values and civic engagement in the younger generation on the basis of international pedagogical experience: the case of foreign language teaching | 272 |
| 85 | **Xudayberdiyev M.I.** Xalqaro pedagogik tajribalar asosida yoshlarda fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari | 274 |
| 86 | **Yuldashev S.** Methodological basis and importance of creative approaches in pedagogical activity | 276 |
| 87 | **Shermanova F.D.** Oliy ta’limda raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari | 281 |
| 88 | **Shermanova F.D.** Talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘rni | 285 |
| 89 | **Shihova X.I.** Sun’iy intellekt davrida akademik halollik: yangi qonunlarsiz, lekin yangi madaniyat bilan | 289 |
| 90 | **Шодиева Р.А.** Деонтологическая позиция будущего учителя как условие воспитания молодого поколения в духе гражданской активности и социальной ответственности | 292 |
| 91 | **Shukurova N.G.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini | 297 |

| | | |
|---|---|---|
| | shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning oʻrni | |
| 92 | **Yunusova D.X.** Raqamli ta'lim muhitida axloqiy tarbiyani tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari | 299 |
| 93 | **Qalandarova Sh.O.** PISA baholash tizimiga mos topshiriqlar vositasida oʻquvchilarda raqamli fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyalarini rivojlantirish | 304 |
| 94 | **Qaraxonova L.M.** Oila va mahalla hamkorligida oʻquvchilarda fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyat hissini tarbiyalashning xalqaro tajribalari | 306 |
| 95 | **Qurbonova G.M., Ubaydullayeva G.H.** Digital mindfulness va digital wellbeingtamoyillarining boʻlajak oʻqituvchi faoliyatiga ta'siri haqida tibbiy faktlar | 309 |
| 96 | **Qoʻziyev R.B.** Oʻsmir yoshdagi oʻquvchilarni ijtimoiylashtrish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakillantrish usullari va halqaro tajriba | 311 |
| 97 | **Haydarova K.E.** Kredit-modul tizimida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining tanqidiy fikrlash texnologiyasi orqali ularning mustaqil bilim olish va oʻz-oʻzini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish | 313 |
| 98 | **Hojiyeva Z.Oʻ.** Boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda hamkorlik pedagogikasi | 317 |



Bosmaxona litsenziyasi:

9338

Bichimi: 148,5x105 1/16. "Times New Roman" garniturasi.
Raqamli bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabogʻi: Adadi 80 dona. Buyurtma № 50/25.
Guvohnoma № 851684.
"Tipograff" MCHJ bosmaxonasida chop etilgan.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent sh., Beruniy koʻchasi, 83-uy.